

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi

Farmon Ergashovich Nurboyev, Shahlo Shavkatovna

Tilloeva, Dilbar Baxriddinovna Raxmatova,

Bilim sohasi-ijtimoiy ta’minot va sog’liqni saqlash - 500000

Ta’lim sohasi - 510000

Ichki kasalliklar, xalq tabobati fanidan

«IBN SINO TA’LIMOTI»

o’quv qo’llanmasi

(to’ldirilgan, qayta ishlangan II nashr)

Davolash ishi-5510100

Kasbiy ta’limi-5111000 (Davolash ishi-5510100)

Stomatologiya-5510400 ta’lim yo’nalishlari uchun

Buxoro – 2019

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari davolash, tibbiy pedagogika va stomatologiya fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan

Mualliflar: Buxoro davlat tibbiyot instituti “Xalq tibbiyoti”, kasb kasalliklari, fizioterapiya, jismoniy madaniyat, DJT va VN kafedrasi mudiri tibbiyot fanlari doctori, dotsent : F.E.Nurboyev
assistentlar: Sh.Sh.Tilloeva, D.B.Raxmatova

Taqrizchilar:

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Ichki kasalliklar propedevtikasi, gematologiya va laboratoriya ishi” kafedrasi professori, Abu Ali ibn Sino jamoat fondi raisi, t.f.d., Sh.Ya.Zokirxo'jaev

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Klinik farmakologiya” kafedrasi proffesori, t.f.d. I.R.Mavlyanov

Buxoro davlat tibbiyot instituti “Fakultet va gospital terapiyasi, gamatologiya, endokrinologiya” kafedrasi mudiri t.f.n K.J.Baltaev

MUNDARIJA

I BOB. UMUMIY BO'LIM	7
Kirish	7
1.1. §. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati, "Tib qonunlari" asari haqida	8
1.2. §. Unsurlar, xilt, mizoj va quvvatlar haqida	17
1.3. §. Inson organizmini sharqona tabobat usulida o`rganish. Asosiy va yordamchi a`zolar	36
1.4. §. Abu Ali ibn Sino ta`limotiga asosan xastaliklar, ularning asosiy sabablari, xastaliklarni tashxislash uslublari va xastalik belgilari	51
II BOB. IBN SINO TA'LIMOTIDA DAVOLASH USULLARI	87
2.1. §. Bemorlarni sharqona tabobat uslubida parvarish qilish. Hammom, tuz, qum ta`siri: ko`rsatma va monelik	87
2.2. §. Ibn Sino ta`limotida umumiy davolash usullari.....	89
2.3. §. Qon olish uslublari, texnikasi, qon olinadigan tomirlar. Ko`rsatma va qarshi ko`rsatma, qon olish haqida.....	95
2.4. §. Ibn Sino dietologiyasi, parhez taomlar, ozuqa va davo haqida.	101
III BOB. IBN SINO TA'LIMOTIDA DORILAR BILAN DAVOLASH	105
3.1. §. Sharq tabobatida dori-darmon tayyorlash uslublari. Xom-ashyo va tayyorlanadigan dori-darmonlarni saqlash.....	105
IV BOB. BOSH MIYA VA BOSHDA JOYLASHGAN A'ZOLAR KASALLIKLARI.....	129
4.1. §. Asab sistemasi kasalliklarini sharqona tabobat usulida tashxislash va davolash	129
4.2. §. Ko`z kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash..	146
4.3. §. Quloq kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	156
4.4. §. Burun kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	162
4.5. §. Og'iz bo`shlig'i a`zolari va til kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	166
V BOB. KO'KRAK QAFASI A'ZOLARI KASALLIKLARI	202

5.1. § . O`pka kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.	
O`pka nayi va o`pkaning anatomiyasi	202
5.2. § .Yurak qon-tomir sistemasi kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.....	225
VI BOB. QORIN BO'SHLIG'I A'ZOLARI KASALLIKLARI	242
6.1.§. Me`da kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	242
6.2. §. Bavosir kasalligi sharqona usulda tashxislash va davolash.	
Bavosir xastaligi.....	253
6.3. §.Jigar kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.	
Jigar anatomiyasi.....	261
6.4. § .O`t qopi kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	271
6.5.§ Taloq kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash .	272
VII BOB. SIYDIK AJRATISH VA JINSIY A'ZOLAR KASALLIKLARI	274
7.1. § Buyrak, siydiq tosh va qovuq xastaliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash	274
7.2. § Ayollar va erkaklar jinsiy a`zolari xastaliklari	287
7.3. § Bepushtlik, impotensiya sabablarini aniqlash, sharqona usulda tashxislash va davolash	292
VIII BOB. MUSHAK, TAYANCH SISTEMASI VA TERI KASALLIKLARI	297
8.1. § Mushak va tayanch sistemasi kasalliklari, poliartrit, bod kasalliklari, niqrис, irqunnasо, osteoxondroz kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.....	297
8.2. § Teri kasalliklari, yaralar, chipqon, bahaq, moxov kasalliklarini sharqona usulda aniqlash va davolash	317
IX BOB. DORIVOR SHIFOBAXSH O'SIMLIKLER	324
9.1.§ Shifobaxsh dorivor o`simliklar	324
9.2.§ Glosariy	327
Foydalanilgan adabiyotlar.....	329

Annotasiya

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'limning 4-kurs davolash ishi-5510100 yo'nalishi, tibbiy pedagogika kasbiy ta'limi-5111000 yo'nalishi (davolash ishi-5510100) va stomatologiya - 5510400 ta'lim yo'nalishlari asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, namunaviy o'quv dasturi mazmuniga mos. O'quv qo'llanma uslubiy tomondan puxta ishlangan mavzular, glosariy, ishchi dasturdagi o'quv soatlariga mos keladi. Qo'llanmada Ibn Sinoning hayoti, ijodi, qoldirgan boy ilmiy merosi, inson mizoji, turlari, organizm ichki gomestazini bir xilda saqlovchi –xiltlar, ularni organizmdagi roli, kasalliklar ularni daolash usullsri, klassifikasiyasi haqida etarlicha ma'lumotlar berilgan. Shunindek o'quv qo'llanmada har bir a'zo, ularning anatomo-fiziologik xususiyatlari, ularda uchrovchi kasalliklarni aniqlash va davolash usullari, diagnostikasi to'g'risida etarlicha ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanma 4-kurs davolash , tibbiy pedagogika va stomatologiya fakulteti talabalariga va Ibn Sino ta'limotiga qiziquvchan barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

Аннотация

Данное учебное пособие входит в состав высших образовательных направлений для студентов 4-курса направление лечебное дело-5510100, для направление медико-педагогического-5111000(лечебное дело-5510100) и для стоматологическое факультетов—(стоматологическое дело 5510400) в соответствует образцовым учебным программам. Учебное пособие учебной модули, которые совпадают с учебными часами программы. В учебном пособие полностью описаны жизнь и творчество Абу Али ибн Сины, изучены его бесценные произведения. Также человеческая натура, факторы образовавшие натуру, виды, факторы

изменяющие натуру, внутренние жидкости организма и их образования, роль в организме, простые предметы и по этим вопросам ценные мысли. В данном учебном пособии изучены причины, классификация, лечение заболеваний, виды кровопускания, показания и противопоказания и эти навыки на сегодняшний день используются в медицине. В отделе специализированных заболеваний дано объяснение анатомо-физиологическим строениям, заболеваниям, виды лечения каждого органа.

Учебное пособие предназначено для студентов 4-курса лечебного, медико-педагогического и стоматологического факультетов и читателей интересующихся в учении ибн Сины.

Annotation

This handbook is part of the higher education destinations of 4-year for direction medical- 5510100 , for direction medical-pedagogical (medical -5111000) and for direction stomatological -5510400 faculties for additional training units model curricula. Textbook learning modules that match the instructional hours of the program. The tutorial shows the types of interactive methods of teaching technology. Fully described the life and work of Abu Ali ibn Sina, studied his priceless works. Also, human nature, the factors which formed the nature, types, factors changing nature, the internal body fluids and their educational role in the body, simple articles on these issues valuable thoughts. In this tutorial we examined the causes, classification, treatment of diseases, the types of bleeding, indications and contraindications, and these skills are currently used in medicine. The department specialized diseases are explained anatomical and physiological structure, diseases, treatments each body.

In every tutorial lectures and workshops designed for new innovative technologies. The book is intended for students of the 4-year medical medical-pedagogical and stomatological faculties and readers interested in the teachings of Ibn Sina.

I BOB. UMUMIY BO'LIM

Kirish

Ma`lumki tabobat, ya`ni medisina fani eng qadimiy fanlardan hisoblanadi. O`rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida esa tabobat fani ancha taraqqiy qilgan bo`lib, qator mahalliy olimlar yetishib chiqqan, hamda arab va fors tillarida tibga oid ilmiy asarlar yaratilgan. Ularning ko`pchiligi shubhasiz Ibn Sinoga ma`lum edi. Ibn Sino oldida turgan asosiy vazifa - mana shu turli xalq olimlari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to`plangan ma`lumotlarning muhimlarini va ikkinchi darajadagilarini ajratib, muayyan bir tartibga solish va ularni o`z tajribalari bilan boyitgan holda ma`lum bir nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirishdan iboratdir.

Nihoyatda murakkab va mas`uliyatli vazifani Ibn Sino katta mahorat bilan amalga oshiradiki, uning "Tib qonunlari" va bu asarning jahon tibbiyat ilmi tarixida tutgan mavqeい va qozongan shuhrati yorqin guvohlik berib turadi. "Tib qonunlari" sharq mamlakatlarida shu qadar yuksak ahamiyatga molik bo`lib ketdiki, tabobat ilmini usiz tasavvur qilib bo`lmas edi. Sharqda e`tibor qozongan "Tib qonunlari" ko`p o`tmay g`arb mamlakatlarida ham shuhrat topdi. Ma`lumki o`rta asrlarning to`uyg'onish davrigacha Yevropa mamlakatlarida ilm-fan sharq mamlakatlarga nisbatan ancha orqada edi. XII asrdan boshlab, Yevropada sharq fani, adabiyoti va madaniyatiga bo`lgan qiziqish orta boradi va sharq olimlarining asarlari arab tilidan lotin tiliga tarjima qilish ishlari yo`lga qo`yila boshlandi. Umuman sharq madaniyatining Yevropaga kirib kelishi Ispaniya va Sisiliya orqali bo`ldi. Tib qonunlari Yevropa vrachlari qo`lida asosiy qo`llanmaga aylangan va universitetlarda meditsina fani shu kitob bo`yicha o`qitila boshlangan, to 1650 yilgacha meditsina fakultetlarining o`quv dasturini yarmini Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari asosida tashkil qigan. Yirik Yevropa olimlarining tabobatga oid kitoblari ham Ibn Sino asarlari ta`sirida edi.

Hatto buyuk Leonardo Da Vinci ham shular jumlasidan bo`lib, uning asarlarida qator arab tibbiy atamalari uchraydi. Qisqacha qilib aytganda "Tib qonunlari" asosiy qo`llanma va darslik sifatida 600 yildan ortiqroq vaqt mobaynida xizmat qildi va hozirga qadar o`z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. Bu kitobga bo`lgan talab shunchalik zo`r ediki, XV asrda kitob chop etish kashf etilgach, birinchi bosilgan kitoblar ichida "Tib qonunlari" ham bor edi.

O`sha davrda bir necha fanlarni ayniqsa, tibbiyotni o`z zamonasida yangi va yuqori bosqichga ko`tarilishida Abu Ali ibn Sino o`zining ulkan hissasini qo`shgan. O`z davridagi fanlarning deyarli barcha sohalarida chuqur iz qoldirgan ensiklopedist olim Ibn Sino ayniqsa, tabobat ilmida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Shu bilan birga Ibn Sino o`zining "Tib qonunlarini puxta kuzatishlari va amaliy ishida qozongan yutuqlari bilan boyitadi. Ibn Sino o`zi yashagan davrdagi ko`p olimlar singari chalkash mulohazalar ta`siriga berilmay faqat tajriba va amaliyotgagina haqiqiy ilmning ob`ektiv asosi bo`la olishini talqin etadi. Ibn Sino yashagan davrda bunday ilg`or g`oyani ilgari surishga jur`at etgan buyuk olim insoniyatning katta hurmatiga sazovordir. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobi hozirgi zamon tibbiyotida ham o`z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

1.1.§. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati, "Tib qonunlari" asari haqida.

Abu Ali ibn Sino ilm taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan, O`rta Osiyo tuprog'idan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan biri hisoblanadi. Buyuk allomaning fanlar olamida tajriba o`tkazmagan va qalam tebratmagan sohasi yo`q desa ham bo`ladi, ayniqsa tibbiyot xazinasiga qo`shgan ulkan hissasi bebahodir. Ibn Sino ko`p qirrali ilm sohibi bo`lgan buyuk siymodir. Tibbiyot olamida ibn Sinoning tabarruk nomi Gippokrat va Galen kabi buyuk allomalar bilan bir qatorda turadi.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh asli Balx shahridan (Balx shahri hozirgi Afg'oniston davlatida joylashgan) bo`lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976-997y) davrida Buxoroga ko`chib kelgach, Xurmitan nomli qishloqda hukmdor bo`lib tayinlanadi. Ibn Sinoning onasi esa Sitora

bo`lib uning 2 o`gli bo`ladi, shulardan kattasi Xusayn bo`lib, ibn Sinoning bolalikdagi nomi asli shunday edi. Ukasi Mahmud haqida esa adabiyotlarda ma`lumot berilmagan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh katta boy bo`lib, o`sha davrda podshohga soliq teradigan vazirlardan bo`lgan. Somoniylar davrida Afshona katta shaharlar sirasiga kirgan va shahar ichida qal`a ham bo`lgan. Soliq yig`ish uchun uning otasi Abdulloh Buxoroga kelgan.

Tabobat ilmining sultoni bo`lmish ibn Sino (370 xijriy yili safar oyining boshida, ya`ni, 980 yil avgust oyining 2 yarmida) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tug`ilgan, 5 yoshgacha ibn Sino Afshona qishlog`ida yashagan. Keyin esa ibn Sino oilasi bilan birgalikda Buxoroga ko`chib kelgan.

Ibn Sinoning to`liq nomi Abu Ali - Al Husayn Ibn Abdullox ibn Al - Hasan ibn Ali Ibn Sino (13 ta so`z 47 ta harfdan iborat). Yevropada ibn Sino Avitsena nomi bilan mashhur bo`lgan. 10 yoshida ibn Sino Qur`on, til va adabiyot, keyinchalik esa mantiq, aljabr, hisob, falakkiyot kabi fanlarni to`liq o`zlashtiradi.

Buyuk alloma tib ilmida juda tez kamol topa boshlaydi. Ibn Sino 17 yoshida Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilgan. O`sha kezlarda Somoniylar davlatining hukmdori Nuh ibn Mansur kasal bo`lib, saroy tabiblari uni davolashda ojiz edilar. Buxoroda o`sib – ulg`aygan yangi yosh tabibning ovozasi saroya ham yetib borgan edi, ibn Sinoni Nuh ibn Mansurni davolash uchun saroya taklif qiladilar va tabibning nazoratida davolangan bemor tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu kutubxona o`sha davrda butun O`rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va eng boy kutubxonalaridan biri hisoblangan.

Kecha - kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o`z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytiradi. U o`z davridagi yirik olimlardan biri hisoblangan Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048) bilan ilmiy munozaralar o`tkazgan. 999 - yillarda Qoraxoniylar Buxoroni zabit etadilar va Somoniylar davlati inqirozga uchraydi. Bu esa ibn Sinoning Buxoroda tinch va xotirjamlikda ilmiy ishlarini va tabiblik faoliyatini davom ettirishga to`sinqinlik qiladi, buning ustiga 1002 yilda Ibn Sinoning

otasi Abdulloh vafot etadi. Oqibatda buyuk alloma o`z tug'ilib o`sgan yurti Buxoroni tark etib, Xorazm (Urganch)ga ketadi.

Xorazm O`rta Osiyoning qadimiy boy va madaniy viloyatlaridan biri bo`lib, u yerda XI asrning boshlarida ilmiy hayot ancha rivojlangan edi. G`aznaviyalar hukmdori Sulton Mahmud (998 - 1030 y) Xorazm yerlarini o`z davlatiga qo`shib olishga harakat qiladi. Unga tobe bo`lishni istamagan Ibn Sino taxminan 1010 - 1011 yillarda Xorazmdan maxfiy ravishda chiqib, Xuroson tomon yo`l oladi va Kaspiy dengizining sharqiy - janubida joylashgan Gurgon amirligiga yetib keladi. Bu yerda u Abu Ubayd Jurjoni bilan tanishadi. Shu kundan boshlab bu yigit Ibn Sinoga eng yaqin va sodiq shogirdi bo`lib qoladi.

Ko`p o`tmay Ibn Sino Gurgonda o`zining ilmiy ishlarini va tabiblik faoliyatini davom ettira boshlaydi. U tabobatga oid mashhur asari "Kitob al - qonun fit - tib" ("Tib qonunlari") ning birinchi kitobini yozishga kirishadi.

1014 yil Ibn Sino Gurgonni ham tark etadi va bir qancha muddat Ray va Kazvin shaharlarida turgandan keyin Hamadonga keladi va Buvahiyalar hukmdori Shams ad-davla (997 - 1021) xizmatiga kiradi. Oldin saroy tabibi bo`lib ishlaydi, so`ngra vazirlik mansabigacha ko`tariladi. Davlat ishlari bilan band bo`lishiga qaramay, ilmiy ishlarni davom ettiradi va qator asarlar yaratadi, o`zining mashhur falsafiy ensiklopediyasi "Kitob ash - shifo" ni ham shu yerda yozishga kirishadi.

1023 yilda Isfaxonga ko`chib keladi va "Kitob ash - shifo" ning qolgan qismlarini yozishni davom etadi. Boshqa bir qancha asarlar bilan bir qatorda fors tilidagi falsafiy kitobi "Donishnama" ni tasnif etadi.

Jurjoniying yozishicha, Ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo`lgan, biroq, shaharma - shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan uzlusiz ishslash va bir necha bor ta`qib ostiga olinib, hatto xibsda yotishlar olimning salomatligiga ta`sir etmay qolmaydi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalinib qolgan edi. Kasallik zo`raygach, unga tutqanoq kasalligi ham qo`shiladi, oqibatda shu kasallikdan u 428 hijriy yilining ramazon oyida



(1037 yilning 18 iyunida) 57 yoshida Hamadonda vafot etadi. Uning qabri hozirgacha Eron davlatining Hamadon shahrida saqlanib kelinmoqda.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedis olim sifatida o`z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatlari ravishda shug`ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo`lsa ham, zamonlar o`tishi bilan ularning ko`pi yo`qolib ketgan va bizgacha faqat 242 ta asari yetib kelgan. Shu 242 asardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 13 tasi botanika ilmiga, 7 tasi astrologiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo`lgan ilmiy yozishmalarga bag`ishlangan.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari:

1. "Urjuza fi-t-tib" tabobat ilmining nazariyasi va umumiyligi masalalarini o`rganish to`g`risida bo`lib, bu asar rajaz vaznida she`riy usulda yozilgan.

Bu asarning asl arabcha matni Kal'kuttada (1829y), Laqnav (1845y), Parij (1956y) da nashr etilgan. 1972 y Toshkentda ham nashr etilgan.

2. "Al-adviyat al-Qalbiya" ("Yurak dardlari") asarining arabcha matni Istanbulda 1937 y, lotin tilida 1482 y, turk tilida 1937 y, o`zbek tilida 1966 y Toshkentda nashr qilingan.

3. "Daf -al-madorr al-kulliya an-al-abdan al-insoniya" ("Inson badaniga etishgan barcha zararlarni yo`qotish")

Bu asar xifz assiqa, ya`ni sog`likni saqlash (gigiena) va parhez masalalariga bag`ishlangan bo`lib, lotin tilida 1547 yilda, arab tilida 1837 y Qoxirada, 1978 yil o`zbek tilida Toshkentda chop etilgan.

4. "Kitob al-qulanj" - yo`g`on ichakda bo`ladigan kolit kasalligiga bag`ishlangan asar bo`lib, bu risola nashr etilgan, uning qo`lyozma nusxasi kutubxonalarda saqlanadi.

5. "Maqola fi-n-nabz" ("Tomir urishi haqida maqola") asari fors tilida yozilgan bo`lib, Tehronda 1937 y, 1952 yillar nashr etilgan .

6. "Urjuza fit-tibb ("Fil-l fusul al-arba`") yilning 4 fasliga oid tibbiy urjuza- bu asar yilning har bir faslida nima qilish kerak, qanday ovqat, ichimlik va dorilarni iste`mol qilish kerakligi haqida fikr yuritgan. Bu kitob ham chop etilgan, qo`lyozmasi kutubxonalarda saqlanadi.

7. "Urjuza fi-l- mujarrabot" ("Tajribadan o`tgan davolar haqida urjuza"), chop etilmagan.

8. "Risola fi-l-box" ("Shaxvoniy quvvat haqida risola") -yosh o`tishi bilan bu quvvatning kamayishi va uni qo`zg'atuvchi dorilar haqida gapiriladi. Chop etilmagan.

9. "Risola f-l-tadbir al-musofirin" ("Safarda yuruvchilarning tadbiri haqida risola"). Bu asar dengizda safar qilgan vaqtida, qordan ko`z qamashib og`rigan vaqtida, qattiq sovuqdan qo`l-oyoqlar og`riganda qo`llanilishi lozim bo`lgan chora-tadbirlarni o`z ichiga oladi. Turk tilida chop etilgan nusxasi mavjud.

10. "Risola fi xifz as-siqqa" ("Sog`lijni Saqlash haqida risola"). Bu asar 13 bobdan iborat bo`lib, unda umumiy shaxsiy gigiena qoidalari haqida to`liq ma`lumotlar berilgan. Chop etilmagan.

11. "Risola fi-s - sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola") sikanjubinni tayyorlanish usullari va uning foydalari haqida so`z boradi. O`rta asrda lotin tilida chop etilgan.

12. "Risola fi-l-fasad" ("Qon olish haqida risola") turk tilida chop etilgan.

13. "Risola fi-l-xindibo" ("Sachratqi haqida risola") bu asarning arabcha matni va turk tilidagi tarjimasi 1955 y Istambulda chop etilgan.

Olimning falsafaga oid muhim asarlari quyidagilar:

"Kitob ash-shifo" - eng yirik falsafiy asar bo`lib, 4 qismdan iborat:

1) mantiq

2) tabiiy fanlar (minerallar, o`simliklar, hayvonot olami haqida)

3) matematika, riyoziyot ilmi

4) metafizika yoki ilohiyot. 1887-1888 y Texronda , 1952 y

Qohirada chop etilgan.

II. "Kitob an-najot" - ("Najot" kitobi). Bu kitobda kitob ash-shifoning mazmuni qisqartirib bayon etilgan. Arabcha matni 1593 y Rimda , 1913 -1933 y illar Qohirada chop etilgan.

III. "Al- ishorat va tanbixot" ("Ishoralar va tanbixlar") eng so`nggi yirik asari bo`lib, falsafaning asosiy masalalari qisqacha bayon etilgan. Arabcha matni Leydenda 1892 y , Qohirada 1947 y, Texronda 1864 y, Istambulda 1873 y nashr etilgan. Fransuz tilida 1951 y fors tilida 1937-1954 yilda nashr etilgan.

IV. "Donishnoma" - ("Bilim") kitobi - fors-dariy tilida yozilgan falsafiy asar. Forscha matni Xaydarobod 1891 y, Tehronda 1897, 1952 y. Ruscha matni Dushanbeda 1957 y nashr etilgan.

Ibn Sino tog'larning paydo bo`lishi to`g'risida ajoyib 2 fikrni bildirgan: Birinchidan, kuchli yer qimirlash hisobidan yer qobig'inining ko`tarilishi, ikkinchidan, suv oqimi va havoning asta-sekin ta`siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo`lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo`lib qolishi sabab bo`ladi degan nazariyani ilgari surgan. Mineralogiya va geologiya faniga qo`shgan hissasi tufayli, 1956 yilda O`zbekistonda topilgan yangi mineral Avisennit deb ataldi.

Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini taqdirlab, tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham o`suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avisena deb ataydi. Poeziya sohasida ham ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o`zining ayrim ilmiy asarlarini rajaz vaznli she`rda yozgan. Olimning falsafiy qissalari fors-tojik adabiyotiga chuqur ta`sir ko`rsatdi. Masalan, ibn Sinoning "At-tayr" ("Qushlar") nomli she`riy risolasi bilan Fariduddin Attor (1142-1224)ning "Mantiq at -tayr" ("Qushlar so`zi") dostoni orasida ma`lum darajada bog'liqlik bor. Olimning fors tilida yozilgan bir nechta g'azal va qit`alari, 40 dan ortiq ruboilylari mavjud. Bundan tashqari ibn Sinoning tibbiyot va kimyo fanining taraqqiyotiga qo`shgan ulkan hissasi beqiyosdir.

Ma`lumki, tabobat ya`ni meditsina fani eng qadimiy fanlardan bo`lib, Misr, Hindiston, Markaziy Osiyo mamlakatlarida asrimizdan 2 ming yil oldin taraqqiy topa boshlagan. Keyinchalik bu fan qadimgi Yunoniston, so`ngra Rim (imperiyasiga qarashli) yerlarida rivoj topadi.

Qadimgi Yunon va Rim tabiblaridan quyidagilarni zikr etish mumkin:

Buqrot, ya`ni Gippokrat (asrimizdan oldingi 460 -355 yillar), Dioskorid (1 asrda yashagan) , Jolinus , ya`ni Galen (129-200 yillar), Oribaziy (325-402 yillar), Pavel (615-690yillar).

Hindiston tabiblaridan Kushon podshosi Kanishka davrida, ya`ni 1 asrda yashagan Charakaning tibbiy asarlari juda mashhur bo`lib, bu kitob Abbosiylar davrida arab tiliga tarjima qilingan.

O`rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida esa xalq orasidan yetishib chiqqan tib olimlari quyidagilar:

-Abu Jurayj - taxminan 8 asrda yashagan, nasroniy tabib.

-Mesarjavayx -Umaviylar davrida Basrada yashagan, uni ko`pincha al-Yaxudiy deb ataydilar.

-Masix ad -Dimashqiy - Xorun ar-Rashidning (786-809 yillar) shaxsiy tabibi bo`lgan. "Kunnosh al Kabir" nomli katta asar muallifi.

-Ibn Mosavayx (777-857y) - Eronning ilmiy markazlaridan bo`lgan Jundishopurda tug'ilgan, Bog'dodda istiqomat qilgan va birinchilardan bo`lib ko`z kasalliklari haqida ilmiy asar yozgan.

-Sobur ibn Saxl (869 y vafot etgan) avval Jundishopurda, so`ngra Bog'dodda kasalxonani boshqargan. Sharqda birinchi bo`lib farmakopiyani ("Kitob al- aqrabodin al -kabir") yaratgan.

-Saxorbuxt – Bog'dodda yashagan bo`lib, sodda dorilar haqida kitob yaratgan.

Tib olimlaridan Abu Bakr Roziyning (865-925y) nomini alohida qayd qilish lozim. U o`rta asrning eng buyuk tabiblaridan biri va ulug' kamyogari hisoblanadi. Abu Rayxon Beruniy o`zining dorishunoslikka bag'ishlangan "Seydana" nomli asarini yozishda Roziyning asarlariga keng tayangan. Roziyning tabobatga oid eng yirik asari "Kitob al -xoviy" ("Qamrab oluvchi kitob") bo`lib, bu kitob Roziygacha tib ilmi sohasida ma`lum bo`lgan barcha ma`lumotlarni o`z ichiga oladi va hajm jihatdan "Tib Qonunlari"dan ham katta. Biroq , bu kitobning qat`iy bir reja asosida bob va qismlarga ajratilmaganligi undan foydalanishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham kitobning arabcha nusxalari ko`p tarqalmagan va hatto nashr ham etilmagan.

Ibn Sinoning ustozlari quyidagilar:

Ali ibn Rabban at-Tabariy (Marv shahrida tug'ilgan) "Firdavs al - hikma" (Xikmat bog'i) nomli katta asarni yozgan.

Rabi` ibn Axmad al- Axavayniy al-Buxoriy (Abu Bakr Roziyning buxorolik shogirdi), "Hidoyat al-Mo'tallimin fit - tibb" ("Tabobatni o`rganuvchilar uchun qo`llanma) fors-dariy tilida yozilgan kitobi mavjud bo`lib, 1965 y Eronda nashr etilgan.

-Abu Mansur al -Xasan ibn Nux al-Qumriy (999 y Buxoroda vafot etgan) ning 2 ta katta asari bizgacha yetib kelgan: "Kitob al -qino val -muno" ("Mukammal va maqsadlarga yetishtiruvchi kitob"), "Kitob attanvir fil istiloxot at -tibbiya" ("Tibbiy istiloxlarni yorituvchi kitob").

Bulardan birinchisi, inson a`zolarida bo`ladigan barcha kasalliklarni davolashga qaratilgan bo`lsa, ikkinchi asar o`sha davr tabobatida qo`llanilgan tibbiy terminlarning izohli lug`ati deb ataladi. Ibn Sino bilan yaqindan muloqotda bo`lgan tabiblarning biri Xorazmda yashab ijod etgan Abu Saxl al-Masixiy ham tabib sifatida mashhurdir. Uning tabobatga oid ilmiy asari "Kitub al - mi` - a fis - sinoat at - tibbiya" ("Tib san`ati bo`yicha 100 kitob") nomli bo`lib, unda tibbiyotga oid barcha sohalar mufassal bayon etilgan.

Umuman Ibn Sino oldida turgan asosiy vazifa turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to`plangan ma`lumotlarning muhimlarini 2-darajadagilardan ajratib, ularni muayyan bir tartibga solish va o`z tajribalari bilan boyitilgan holda ma`lum nazariy va qonun - qoidalar asosida umumlashtirishdir.

Nihoyatda murakkab va mas`uliyatli vazifani ibn Sino katta mahorat bilan amalga oshirdiki, uning "Tib qonunlari" asari jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeい yorqin guvohlik beradi.

"Tib qonunlari" kitobining asl arabcha matni birinchi marta 1593 yili Rimda, keyinchalik u hozirgi Qohira (1873,1877,1879), Tehron (1889), Laknav (1906) va Loxur (1906) shaharlarida chop etildi. Ispaniyaning Toleda shahrida 1130 yilda tarjimonlar kollegiyasi tashkil qilinadi va Kremonalik Gevard (1114 - 1187 y) "Tib qonunlari" ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi. Shundan boshlab "Tib qonunlari" kitobi Yevropa vrachlari qo`lidagi asosiy qo`llanmaga aylanadi va universitetlarda meditsina fani shu asar bo`yicha o`qitilgan.

O`zbekistonning sharqshunos olimlari Toshkentdagи shifokorlar bilan hamkorlikda 1954-1961yillar mobaynida "Tib qonunlari" ning besh kitobini arabchadan o`zbek va rus tillarida tarjima qilib nashr

etdilar. Umuman, "Tib qonunlari" besh kitobdan iborat va ular quyidagilar:

Birinchi kitob - tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma`lumot beradi. Tabobat ilmining ta`rifi, uning vazifalari, xilt va mizoj haqidagi ta`limot bayon qilinadi. Keyin odam tanasining "oddiy" a`zolari - suyak, tog'ay, asab, arteriya, vena, pay, mushaklar haqida qisqacha anatomik ocherk keltiriladi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ko`rinishlari, turkumlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi.

Ovqatlanish, hayot tarzi va hayotning hamma bosqichlarida Sog'liqni saqlash tadbirlari haqidagi ta`limot batafsil bayon qilinadi.

Ikkinci kitob - o`sha davr tabobatida qo`llanilgan dori - darmonlar haqida zaruriy ma`lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir. Unda o`simlik, hayvon va ma`danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori - darmonlar ta`rifi, ularning davolik xususiyatlari va qo`llanish usullari bayon qilingan. Muallif O`rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O`rta Sharq mamlakatlardan chiqadigan - dori - darmonlardan tashqari Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O`rta yer dengizining orollari va boshqa joylardan keltiriladigan ko`plab dorivor o`simliklarni ham ko`rsatib o`tadi.

Uchinchi kitob - Inson tanasining boshidan tovonigacha bo`lgan a`zolarida yuz beradigan "Xususiy" va "Mahalliy" kasalliklar haqida ma`lumot beradi. Ya`ni, bu kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag'ishlangan. Unda bosh miya, ko`z, qulqoq, burun, og'iz bo`shlig'i, til, tish, milk, lab, tomoq, o`pka, yurak, qizilo`ngach, oshqozon kasalliklari, jigar, o`t pufagi, ichak, buyrak, qovuq, jinsiy a`zolar kasalliklari haqidagi ma`lumotlar keltirilgan.

To`rtinchi kitob - inson a`zolarining birortasiga xos bo`lmagan "umumiy" kasalliklarga bag'ishlangan. Masalan, turli isitmalar (buxronlar), shishlar, toshmalar, yara - chaqalar, kuyish, suyak sinishi va chiqishi, turli xil jarohatlar kiritilgan.

Shuningdek mazkur asarda o`ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo va quturish kasalliklari haqida so`z boradi. Shuningdek, toksikologiyaning ham asosiy masalalari bayon qilinadi. Kitobning maxsus bo`limi inson husni va chiroyini saqlashga va pardoz

- andoz vositalariga bag'ishlangan, sochni to'kilishdan saqlaydigan, haddan tashqari semirib ketish yoki ozib ketishning oldini oladigan dori-darmon va tadbirlar haqida so`z yuritilgan.

Beshinchi kitob - farmakopiya bo`lib, unda murakkab tartibli dori - darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan. Kitobning 1-qismida turli taryoqlar (ziddi - zaharlar), ma`junlar, kulchadori, elaki dori, sharbatlar, qaynatma, sharob, malham va boshqalar tavsifi berilsa, 2- qismida esa muayyan a`zolar - bosh, ko`z, quloq, tish, tomoq, ko`krak qafasi va qorin bo`shlig'i a`zolari, bo`g'imlar va teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan dori darmonlar keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning eng mashhur va durdona asarlaridan biri "Kitob al -qonun fit-tib" (Tib qonunlari) kitobi hisoblanadi. Bu asar o`z zamonasidagi tabobat ilmlarining mufassal qomusi sifatida inson sog`ligi va kasalliklarga oid bo`lgan barcha muammolarni mantiqiy tartibda to`la mujassam etgan. Buyuk olimning qilgan xizmatlarini, jahonning ilm ahli e`zozlaydi.

Mavzu savollari:

1. Abu Ali Ibn Sinoning hayoti haqida
 2. Abu Ali ibn Sinoning ijodi to`g'risida tushincha bering
- A) Olimning falsafaga oid asarlari to`g'risida
- B) Tabiyot, minerologiya, geologiya, poeziya kabi sohalarga oid asarlari to`g'risida
3. Tabobat fanining rivojlanishi to`g'risida
 4. Tibbiy risolalar haqida ma'lumot bering
 5. «Tib qonunlari» haqida ma'lumot bering

1.2. §. Unsurlar, xilt, mizoj va quvvatlar haqida.

Unsur, xilt, mizoj va quvvatlar haqida ma'lumot berishdan oldin, tibning ta`rifi va uning taqsimlanishi to`g'risida izoh berishimiz lozim.

Tib - bu sog'likni saqlash va biror bir sababdan tanada paydo bo`lgan kasallikning tuzatilishidan iborat

Tibning taqsimlanishi:

1. Ilmiy (nazariy) qismi

2.Amaliy qismi

1.Ilmiy (nazariy) qismi o`z navbatida 3 asosiy narsalarni o`z ichiga oladi:

- 1) Tabiiy manbalar (unsur, mizoj, xilt, a`zo, ruh , quvvat)
- 2) Zarurriy manbalar (havo, iste`mol mahsulotlari (yeish-ichish), uyqu-uyg'oqlik, harakat - harakatsizlik, bo`shalish-bo`shalmaslik, nafsoniy kayfiyatlar)

- 3) Kasalliklar (kasallikning tashqi belgilari, alomatlari va sabablari)

2.Amaliy qismi 2 asosiy narsani o`z ichiga oladi:

- 1.Sog'likni saqlash (profilaktika)

- 2.Davolash (yo`qotilgan sog'likni tiklash)

Biz tabobatning ilmiy asosini o`rganishimiz uchun avvalambor ruh , unsur, mizoj, xilt, quvvat haqida tushunchaga ega bo`lishimiz shart.

Ibn Sino - Galen, Gippokrat, Ar-Roziy, Farobiy asarlarini puxta o`rgangan. Yunon falsafasidagi yutuqlari uchun uning zamondoshlari Ibn Sinoni "Shayx-ur-rais" (olimlar sardori) deb atashgan.

Ibn Sinoning fikricha zaruriy vujuddan jamiki mavjudot vujudga kelgan.

Moddiy dunyo (borliq) bilan birgalikda harakat, zamon, makon kabilar bu materianing xossalardir.

Hissiy dunyoning (his-tuyg'u ma`nosida) asosiy birligi jismdir. Sayyoralar, yulduz, minerallar, hayvonot olami, odamlar - bularning barchasi jismdir. Har bir muayyan jism materiya va shakl birligidir. Borlijni to`la manzarasini yaratishda bu yetarli emas. Chunki jismlardan tashqari jismsiz mohiyatlar, ruhlar ham mavjuddir. Ruh yoki jon garchi jismsiz bo`lsa ham, jismlardan tashqarida mavjud bo`la olmaydi. Ruh bu hayot demakdir. Bunday jonsiz jismlar sirasiga minerallar va 4 unsur suv, yer , havo va olov kiradi. Jonli jismlar esa harakat manbaiga ega. Ya`ni, mustaqil ravishda harakat qiladilar. Zero ularning tabiatи hayotiy kuchdan iborat.

UNSURLAR.

Unsur so`zi fors tilidan olingen bo`lib arab tilida arkon yoki rukn deganidir. Arkon yoki rukn so`zi ustun, asos, bazis ma`nosini anglatadi.

Demak, unsurlar moddiy dunyoning asosini, ya`ni negizini tashkil qilib uning to`rt turi tafovut qilinadi. Unsurlar (elementlar) - 4 taga

bo`linadi. Yer , suv, olov, havo. Ulardan yengillari olov va havo, og'irlari suv va yerdir.

MIZOJ HAQIDA.

Mizoj - bu unsurlarning o`zaro aralashuvi jarayonida qarama-qarshi ta`sirlarning kamayishi natijasida hosil bo`lgan moddiy jismning yangi sifatidir yoki unsurlarning nihoyat darajada mayda bo`laklaridagi qarama - qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta`siri ma`lum bir chegaraga yetganda paydo bo`ladigan kayfiyatdir.

Shu sifat tufayli hosil bo`lgan moddiy jism, biologik faol bo`lib boshqa jismlarga ta`sir qilish, ularning ta`sirini qabul qilish, ko`payish, rivojlanish va o`lish sifatlarini namoyon qila oladi.

Hozirgi zamon ilmiy tibbiyoti tushunchasi bilan aytganda mizoj, bu moddiy jism sifatlarini gavdalantirgan organizmning ichki muhiti - gomeostazdir.

Dunyodagi barcha jismlar: o`simliklar, hayvonlar, ma`danlar, ob-havo, jug`rofik kengliklar, yil fasllari, hattoki sayyora va yulduzlar ham o`z mizojlariga ega.

Mizojning quyidagi turlari mavjud

	Oddiy mizojlar		Murakkab mizojlar
1	Issiq	1	Issiq - quruq
2	Sovuq	2	Issiq –ho'l
3	Ho'l	3	Sovuq-ho'l
4	Quruq	4	Sovuq-quruq

Mizojni o`rganish uchun nisbiy qilib olingan yana bir ko`rinishi mo'tadil mizoj tushunchasi qabul qilingan. Dunyodagi mavjudotlar ichida nisbatan olinganda eng mo'tadili inson mizojidir.

Inson a`zolari o`rtasida mo'tadil mizojlisi, uning qo'l kaftining terisidir, yana mo'tadil mizojlisi ko`rsatkich barmoq uchining terisi bo`lib, shifokorlar inson pulsi (nabz)ni shu barmoq bilan aniqlaydilar.

Inson mizojining ko`rinishlari.

Inson mizoji 9 xil bo`lib, shulardan 4 tasi oddiy mizoj , 4 tasi murakkab mizoj va 1 tasi mo`tadil mizojdir.

Oddiy mizojlar:

- issiqlik
- sovuuqlik
- quruqlik
- ho`llik

Murakkab mizojlar:

- issiq-quruq
- sovuuq-quruq
- issiq-ho`l
- sovuuq-ho`l

Mo'tadil mizoj - bu unsurlar miqdorining eng keragicha to`g'ri nisbatda taqsimlanishidir.

Mo'tadillik quyidagilarga xos:

- insonga xos
- yoshga xos
- iqlimga xos
- millatga xos
- a`zoga xos
- har bir mo'tadil a`zoga xos

Inson mizojini aniqlashda qo`llaniladigan dalil va belgilar haqida.

Inson mizojini aniqlashda qo`llaniladigan dalil va belgilar Ibn Sino ta`biri bilan aytganda, Jolinus yozib qoldirgan 10 ta dalil asosida olib boriladi.

1.Laqms-paypaslab ko`rib, xulosalash. Agar laqms qilib ko`rganda bemorning tanasi issiq sezilsa - mizoj issiq, agar sovuq sezilsa, mizoj sovuq bo`ladi, basharti bemorning tana harorati mo`tadil va yashab turgan muhitini ob-havosi ham mo`tadil bo`lib, u bemor hakim tomonidan uzoq vaqt davomida kuzatilsa yanada ko`proq ma`lumotga ega bo`ladi. Agar bemor tanasi tabiiydan ko`proq sovuqroq, issiq yoki yumshoq, yoki dag'al bo`lsa, demak bu bemorning mizoji mo`tadil emas. Ba`zida qo'l barmoqlaridagi tirnoqlarning ko`rinishi holatini baholab inson mizojini aniqlash mumkin. Issiq mizojli kishilarda tirnoq tabiatи bilan juda yumshoq va o`ta ho`ldek tuyuladi. Sovuq mizojli kishilarda esa aksincha, qattiq va quruq tuyuladi.

2. Inson tanasidagi go`sht va yog'dan olingan dalil va belgilar:

Gavdasi baquvvat, chiniqqan kishi mizozi issiq - ho`l, gavdasi baquvvatga o`xhash (xom semiz), lekin chiniqmagan kishi mizozi issiq - quruq, ozg'in, chiniqqan kishi mizozi sovuq-ho`l, keksa yoshdagi inson mizozi esa sovuq- quruq bo`ladi 3.Sochlardan olinadigan dalil va belgilar.

Agar mizoj issiq quruq bo`lsa, sochlarning o`sishi juda tezlashib ular qalin va dag'al bo`ladi. Sochlarning silliqligi agar u qalin bo`lsa issiq ho`l, agar soch ingichka va siyrak bo`lsa sovuq quruq mizozi bo`ladi, agar umuman soch o`smasa yoki juda siyrak bo`lsa sovuq ho`l mizoqlikdan dalolat beradi.

3.Sochlarning rangidan olinadigan dalillarga kelsak: sochning qoraligi mizojning issiqligidan, sarg'ishligi sovuqlikdan, och ranglik va qizillik mo`tadillikdan, oq ranglilik esa oqargan soch kabi, ho`l va sovuq yoki o`ta quruq mizojlilikdan dalolat beradi.

Inson yoshining ham sochga ta`siri bor, bolalar sochi shimolliklar (issiq-ho`l mizozi) sochiga, o`smirlar sochi esa janubda yashovchilar (issiq -quruq mizozi) sochiga o`xshasada, o`rta yoshli kishilar sochi o`rta mintaqada yashovchi (sovutq-ho`l mizozi) kishilar sochiga o`xshaydi-yu, lekin kishi yoshi o`tgan sayin undagi tabiiy issiqlikning kamayib o`mini sovuqlik va quruqlik egallab olishi natijasida inson sochi oqaradi.

4.Inson tanasi rangidan olinadigan dalil va alomatlar.

Jumladan terining oqligi sovuq mizojlilik bilan birga organizmda qonning yetishmovchiligi va kamligidan dalolat beradi. Agar tana mizozi issiq bo`lsa, safroviy xilt ko`p bo`lsa, teri rangi sariq bo`ladi.

Qizg'ish rang - qonning ko`pligidan paydo bo`lgan issiq mizozi kishilarda bo`ladi, terining sariqligi va malla rangligi tanada haroratining yuqoriligidan dalolat beradi.

Biroq terining sariqligi tanada o`tning ko`pligini bildirsa, malla ranglilik esa qonda o`tning ko`pligidan dalolat beradi. Ba`zida sariqlik, agar qonda o`t ko`p bo`lmasa xastalikdan endi tuzalayotgan kishilarda bo`lganidek kamqonlikni bildiradi.

Teri rangining xiraligi kishi mizojining o`ta sovuqligidan guvohlik beradi. Chunki sovuqlik tufayli qon quyuqlashib uning miqdori kamayadi, bu esa teri rangini o`zgartirib xira qiladi.

Terining bug'doy rang bo`lishi bu issiq mizojlilik belgisi, baqlajon rangli bo`lishi mizojni sovuq va quruqligini bildiradi. Terining chang (kulrang) rangli bo`lishi faqat balg'am mizojli sovuqlikdan bo`ladi.

Terining qo`rg'oshin rangidagi ko`kimirlikka yaqin bo`lishi, bir oz savdoviy mizoj sovuq va ho`llik bilan qo`shilishdan paydo bo`ladi. Terining oq rangli bo`lishi sovuqlikdan dalolat bersa, yashil oq rang sovuqlikni balg'am xilti hisobidan paydo bo`lganidan darak beradi. Agar terining rangi fil suyak rangida bo`lsà bu bir oz o't aralashgan balg'am sovuqlikdan dalolat beradi.

Terining a`zo xastaliklari tufayli o`zgarishi: masalan, jigar tufayli ba`zan terining rangi sariq va oqlikka moyil bo`lsa, taloq tufayli terining rangi sariq va qoralikka aylanadi. Bavosir xastaligida teri rangi sariq va ko`kimir bo`ladi, ammo bu ranglar doimiy bo`lmay ba`zan o`zgarib turadi.

Tanadagi tinch va urib turgan tomirlarning mizojini aniqlaganda tilning rangi, bosh miyani mizojini bilishda ko`zning rangi katta ahamiyatga egadir.

5.A`zolarning tuzilishidan olinadigan dalillar.

Issiq mizojlilikning (sangvinik) belgisi:

- ko`krak qafasi keng
- qo`l-oyoqlari mukammal rivojlangan
- bo`g'im, paylar, mushaklar bilan mustahkam birikkan
- teri ostidagi qon tomirlar aniq ko`rinib turadi.

Sovuq mizojlilarning(flegmatik) belgisi:

- ko`krak qafasi tor
- qo`l-oyoqlari mukammal rivojlanmagan
- bo`g'im, paylar, mushaklar bilan mustahkam birikmagan
- teri ostidagi qon tomirlar aniq ko`rinmaydi

Quruq(xolerik) mizojlarda:

- terisi qovjiragan
- bo`g'img'ili, hiqildoq va burun tog'aylari bo`rtib chiqqan bo`ladi

Ho'l (melanxolik) mizojlarda:

- terisi silliq
- bo`g`imlari, hiqildoq va burun tog`aylari bo`rtib chiqmaydi.

6.A`zolarning ta`sirlarini qabul qilishdan olinadigan dalillar.

Agar a`zolar qiynalmasdan tezda qizisa demak, u kishining mizoji issiqlikdir. Agar inson havoning salqin va sovuq fasllarida issiqlikdan rohatlansa, u inson mizoji sovuqdir.

Inson onadan irsiy tug`ma issiqlik bilan tug`iladi va hayoti faoliyati davomida shu issiqlik yordamida yashaydi, irsiy tug`ma issiqlik kuchli bo`lsa u organizmga tushgan suyuqlik va oziq ovqat moddalarini yetiltirib, hazm qildiradi va organizm sog`lom bo`ladi, chunki irsiy tabiiy tug`ma issiqlik organizmdagi suyuqlıklarni tabiiy yo`llar bilan yo`naltirib harakatga keltiradi, g`ayri tabiiy issiqliknı ta`sirini kamaytiradi, shu bilan birga organizmdagi suyuqlıklarni buzilishiga yo`l qo`ymaydi. Irsiy tug`ma tabiiy issiqlik organizmdagi hamma kuchlarning quroli bo`lib hisoblanadi, organizmdagi tug`ma sovuqlik esa unga zid bo`lib, faqat yordamchi yo`llar bilan foyda keltiradi. Ma`lum sabablarga ko`ra tabiiy issiqlik kamaysa-yu, organizmda sovuqlilik ustunlikka erishsa, inson kasallanadi, u esa mizojni aniqlash yo`li bilan davolanadi, ammo inson yoshi qaytgan sayin organizmdagi tabiiy issiqlik so`na boshlaydi va uni o`rnini sovuqlik egallaydi, bu esa modda almashinishing buzilishiga olib keladi, asta-sekinlik bilan organizm so`nib boradi va oxirida tabiiy o`lim sodir bo`ladi. Bunda organizmni tabiiy issiqligi tugaydi yoki bo`lmasa buni tibet tabobatining tili bilan aytganda organizmni "Hayotiy energiyasi" tark etadi.

7.Uyqu va uyg`oqlikdan olinadigan dalillar.

Uyqu va uyg`oqlikning mo`tadilligi, bosh miya mizojining mo`tadillagini bildiradi. Uyquning ko`pligi ho`l va sovuq mizojlilikdan darak bersa, ortiqcha uyg`oqlik mizojning quruq va issiqligidan dalolat beradi. Uyqu shuning uchun kerakki, ruh charchaganda shu qo`llanib turgan ishlardan miya holi bo`ladi, ovqat hazm qilishning to`rtinchı bosqichini amalga oshirish uchun band bo`ladi, chunki ikkala jarayonni organizm birdaniga, baravariga bajara olmaydi, shuning uchun uyqu miyaning kerak bo`lgandagi dam olishi uchun zaruriy bir holat deb qabul qilinadi.

8.Harakatlardan, boshqacha qilib aytganda a`zo harakatlaridan olinadigan dalillar.

Agar harakatlar hamma vaqt tabiiy holatda sodir bo`lsa, hamda takomillashgan bo`lsa bu mizojni mo`tadilligidan dalolat beradi, ammo harakatlar o`zgargan va haddan tashqari ko`p va tez harakat qilsa, uning mizozi issiqlikdan guvohlik beradi. Masalan, gavdaning tez o`sishi, soch va tishlarning tez o`sishi, agar bu o`sishlar sekin bo`lsa mizojning sovuqligidan dalolat beradi. Ammo shuni ham ta`kidlash kerakki, ba`zida issiq mizojlilik tufayli harakatlar sekinlashadi, lekin bu sekinlashish tabiiy yo`ldan chetga chiqish bilan kechadi. Masalan, issiq mizojlilik tufayli uyqu yo`qolishi yoki kamayishi mumkin.

Nutqning tez va ravonligi, ovozning kuchli va keskinligi, serjahllik, harakat va ko`zni tez ochib yumishlilik kabilar mizojning issiqligidan dalolat bersa, sekin, chala nutq, ovozning pastligi, bosinqirashlik, befarqlik, yalqovlik kabilar mizojning sovuqligidan dalolat beradi.

9.Nafsoniy quvvatlarning ta`siri va ta`sirni qabul qilishidan olinadigan dalillar.

Jumladan issiq mizojli (sangvinik) insonlar:

- g'azabi kuchli
- ser zarda
- o`ta qat`iyatli
- botir
- qattiq ko`ngilli
- dadil
- juda intiluvchan
- juda ta`sirchan

Sovuq mizojli (flegmatik) insonlar:

- ko`ngilchan
- andishali
- intiluvchan
- ta`sirchan
- qat`iyatli

Quruq mizojli (xolerik) insonlar:

- fikrlash qobiliyatining yaxshi, lekin uni namoyon qila olmaslik
- jamiyatda o`z o`rnini topa olmaydigan shaxs sifatida qaraladi

- eslash qobiliyatining yaxshiligi
- yaxshi tushlar ko`rishi
- kayfiyatning o`zgaruvchanligi

Ho`l mizojli (melanxolik) insonlarda:

- ruhan tushkunlikka tushgan, depressiya holatida
- yolg'izlikni yoqtiradi
- xayolparast
- atrof-muhitga nisbatan befarq bo`adi.

Mo`tadil mizoj belgilarining dalillari.

Mo`tadil mizojli kishilarning tana a`zolarining mizozi bir-biriga muvofiq kelsa, bunday inson mo`tadil mizojli bo`ladi. Paypaslab ko`rilganda yoki tegib sezilganda tanasi issiqlik, sovuqlik, ho`llik, quruqlik, qattiqlik va yumshoqlik jihatlaridan mo`tadil bo`ladi, terisining rangi esa oq va qizillikda yoki bug'doy ranglilikka mo`tadillikda bo`ladi. Tanasining tuzilishida esa to`lalik va oriqlikda mo`tadil bo`lsada, to`lalikka moyil bo`ladi. Mo`tadil mizojli kishilarning tomirlari o`rtacha chuqurlikda joylashadi, sochlari esa qalinlik, siyraklik, jingalaklik va yoziqlikda mo`tadil bo`ladi, bolalik yoshida sochi mallarang, o`smirlik vaqtida esa qoramtilr bo`ladi.

Shuningdek mo`tadil mizojli insonlarda uyqu va uyg'oqlik holatlari ham mo`tadil bo`lib, yoqimli va yaxshi tushlar ko`rishadi.

Mo`tadil mizojli inson mukammal va sog'lomdir, bunday insonlar tez va yaxshi o`sishi bilan birga ularda to`xtash davri muddati uzoq kechadi. Bunday kishilarda hayotiy zavq-shavq boshqa mizojlilarga nisbatan kuchli bo`lib, ular sog'ligidan nolmaydilar.

Inson organizmidagi a`zolarning mizojlari

Inson organizmidagi a`zolarning mizojlari Ibn Sinoning Jolinusdan olgan va o`zi mujassamlashtirib o`z fikr mulohozalarini bildirib yozgan dalillariga asoslangan.

Insonning yashash sharoiti, iqlimi muhitiga qarab uni mizozi aniqlangan. Inson esa jonli mavjudotlar ichida eng mo`tadil mizojlidir. Ammo organizmni tashkil qilgan a`zolarining ham o`ziga xos mizozi bo`ladi. Bu a`zolarning mizozi uni tashkil qilgan to`qima, shu a`zoning bajarib turgan vazifasi, ishi va unda bajarayotgan ishi jarayonida paydo bo`ladigan ichki muhiti bilan bog'likdir. Odam organizmining a`zolari

yuqorida ta`kidlanganidek o`ziga loyiq mizojli bo`lib, bir-biriga nisbatan issiqroq yoki sovuqroq, ho`lroq yoki quruqroq bo`ladi.

Inson gavdasida eng issiq narsa ruhdır, buni lotinchada "pnevma" deb ataladi, Tibet tibbiyotida buni "hayot energiyasi" deyiladi. Ruhning paydo bo`lish o`rni yurakdir. Undan keyingi darajada turuvchi issiq mizojli a`zo qondir. Qon jigarda hosil bo`lsada, yurak bilan bog'liqidir, shuning uchun jigarda yo`q haroratni yurakdan, ya`ni ruh manbaidan oladi. Qondan keyingi issiq mizojli a`zo jigardir. Jigardan keyin issiq mizojlilikda o`pka, undan keyin esa mushak turadi. Mushakka sovuq mizojli asab tolalari kelib tutashganligi sababli uning issiqligi o`pkanikidan kamroqdir. Mushakdan keyingi o`rinda issiq mizojli a`zo taloqdir, chunki taloqda qon quyqasi bordir. Undan keyin buyraklar turadi, ularda qon ko`p emas. Buyraklardan keyingi o`rinda turuvchi issiq mizojli a`zo arteriyalardir. Bu arteriyalar ibn Sino ta`biri bilan aytganda, harakatli tomirlar bo`lib, ularning issiqligi tomir ichida harakatlanib turgan qon va ruhning issiqligini ularga o`tishidandir. Arteriyalardan keyingi o`rinda esa vena qon tomirlari turadi. Ular esa issiqlikni tomir ichida harakatlanib turgan qondan oladi. Vena qon tomirlaridan issiqligi jihatidan keyingi o`rinda teri tursada, organizmni o`rab turgan terining eng issiqligi kam mo`tadil mizojli qismi kaftga qoplanib turgan teri yoki boshqacha qilib aytganda kaft terisidir.

Gavdaning eng sovuq mizojli a`zosi balg'amdir, undan keyin esa charvi, mo`y, suyak, tog'ay, boylam, paylar, pardalar, asablar, orqa miya va nihoyat teridir.


Inson organizmidagi eng ho`l narsa yoki a`zo balg'amdir. Undan keyingi o`rinlarda bir-biriga nisbatan ho`llik kamayib boradi. Balg'amdan keyin qon, yog', charvi, bosh miya, orqa miya, sut bezlari va moyaklar, keyin o`pka, jigar, taloq, buyraklar, mushaklar, eng oxirida esa teridir. Shu yerda ibn Sinoning jigar aslini olganda o`pkadan ho`lroq ekanligini, ammo nima uchun o`pkadan keyinda qo`yilganini quyidagicha izohlaydi: o`pka o`z moddasi va tabiatini bilan juda ham ho`l mizojli emas. Bu a`zo eng issiq qon bilan oziqlanadi, chunki bu qonda ko`p miqdorda safro aralashgan bo`ladi. Badanda ko`tariluvchi bug'lardan va o`pkaga oqib keluvchi nazlalardan o`pkada ho`llik to`planib qoladi. Ya`ni, o`pka ho`llanuvchandir. Ammo jigar tug'ma ho`l

mizojli bo`lganligi tufayli u doimiy ho`llanib turgan o`pka moddasini ham ho'llab turadi.


Shunga o`xshash qon va balg'amning ho`lligi quyidagicha tushuntiriladi: balg'amning ho`lligi ko`pincha ho`llanish tufayli, qonning ho`lligi esa qonning moddasida to`plangan ho`llik tufayli namoyon bo`ladi.

Suyak mizozi quruq va organizmdagi eng qattiq a`zo hisoblanadi. Suyakning tarkib va tuzilishi suyak hujayralaridan (osteotsitlar) tashkil topgan bo`lib, tug'ma ho`llikni shimuvchi va o`zlashtiruvchidir. Suyakdan keyingi quruq a`zo tog'ay, keyin boylamlar, keyin paylar, pardalar, arteriyalar, venalar, harakatlantiruvchi asab tolalari, yurak va undan so`ng esa sezuvchi asab tolalaridir. Harakatlantiruvchi asab tolalari albatta sovuq va quruqdir, sezish asablari sovuq. Sezish asablariidan keyin gavdadagi eng quruq a`zo bu teridir.


Umuman, gavdada eng issiq narsa ruh, ruhning paydo bo`lish o`rni yurakdir, undan keyin qon, so`ng jigar, o`pka, mushak. Mushakka sovuq mizojli bo`lgan asab tolalari kelib tutashishi sababli uning issiqligi o`pkanigidan kamroq. So`nggi issiq mizoj taloq, buyrak, arteriya va vena qon tomirlar va nihoyat teri undan keyin kaftning mo`tadil mizozi teridir.




**Yurak- issiq mizojli
mizojli**



Jigar - issiq mizojli




O`pka - issiq






**Taloq - issiq mizojli
va vena qon tomiri
issiq**

Gavdaning eng sovuq mizozi: balg'am, charvi, yog', soch, suyak, tog'ay, boylam, paylar, pardalar, asablar, orqa miya, bosh miya va teridir.




**Buyraklar, arteriya
qon tomirlari - mizojli**



**Asablar, bosh va orqa miya - sovuq mizojli
mizojli**

**Teri - sovuq
mizojli**



Tog'ay, boylam va paylar - sovuq mizojli

organ

**Suyaklar - sovuq mizojli organ
XILTLAR**

Xiltlar organizmdagi tabiiy suyuqliklar bo`lib, ular qon tarkibli organizmda aylanib yurib, uning ichki muhitini hosil qiladi. Xiltlarning to`rt xili tafovut qilinadi: qon xilti , balg'am xilti, safro xilti va savdo xilti.

Xiltlarning hosil bo`lish mexanizmi va sifatlari.


Xiltlar rais a`zo - jigarda ovqat hazmining uchinchi bosqichida, iste`mol qilingan ovqat moddasidan hosil bo`ladi. Ovqat hazmining ikkinchi bosqichi ingichka ichaklarda kechganda iste`mol qilingan oziq-ovqat moddasining surat va sifat qismidan suyuqlik ximus moddasi hosil bo`lib, masoriqo qon tomirlari orqali jigarning tortuvchi quvvati yordamida darvoza venasiga tortiladi va undan qilsimon qon tomirlar orqali butun jigar tomonga tortiladi. Jigar tanasida tarqalgan xiltlar jigarni tutib turuvchi quvvat yordamida ushlab turiladi va jigardagi tug`ma harorat ta`sirida hazm quvvati tufayli ximus moddasi hazm bo`lib, yetilib pishadi. Ximus moddasining yetilib pishishi jarayonida uning sifatidagi o`tlik qismidan ko`pik, yerlik qismidan esa quyqaga o`xshash narsalar paydo bo`ladi. Ba`zan ko`pik va quyqadan kuyindiga o`xshash narsa paydo bo`ladi, agar yetilish yetarli bo`lmay qolsa xom narsa paydo bo`ladi. Ximusning jigardagi yetilib hazm bo`lishi jarayonida: ko`pik safro xilti bo`lsa, quyqasi savdo xilti, xom qolgani esa balg`am xiltidir. Nihoyat darajadagi yetilishning kuyindisi agar suyuq bo`lsa yomon safro, agar quyuq bo`lsa yomon savdo xilti hosil bo`ladi. Bular g`ayri tabiiy xiltlardir. Ovqat hazmining jigardagi yetilish jarayonini eng yetuk va tiniq mahsuloti ozuqaning yuqori qismidan hosil bo`ladi. Pastki suyuq qismi esa bu qon xiltidir. Demak, iste`mol mahsulotining surat va sifat qismidagi o`tlik qismidan safro, yerlik qismidan savdo, yuqori qismidan qon, pastki suyuq qismidan esa balg`am xiltlari hosil bo`ladi va ular o`zlaridagi sifatlarni namoyon etadi.

Xiltlarning organizmdagi ahamiyati.

Jigarda yetilgan xiltlar jigardagi ajratish quvvati tufayli ajratilib, haydash quvvati tufayli bu xiltlar zarur bo`lgan tana a`zolariga, jigardan chiqqan vena tomirlari orqali qon tarkibida shu a`zolarga yetkazib beriladi.

Xiltlar tabiiy va g`ayri tabiiy bo`ladi.

TABIYY XILTLARINNG TANA A`ZOLARIDAGI O`RNI



Qon xilti

Tabiiy qon xilti issiq va ho`l tabiatli bo`lib, qizil rangli, o`ziga xos hidli. U quyidagi manfaatlar uchun organizmga zarurdir.

1.Qon xiltiga butun tana a`zolari muhtojdir, u bilan butun organizm oziqlanadi va nafas oladi, ovqat hazmining to`rtinchi bosqichida bilvosita qatnashadi. Ya`ni qon o`zi bilan gavda a`zolariga kaymusni va yurakdan hosil bo`lgan hayotiy ruhni yetkazib beradi. A`zolarda ovqat hazm bo`lgandan so`ng hosil bo`lgan qoldiq moddalarni olib buyraklarga yetkazib beradi.

2.Yurakdan hosil bo`lgan ruhni jigar, bosh miya, moyak kabi rais a`zolarga etkazib beradi.

3.Qon xiltidan go`sht va yog' kabi a`zolar paydo bo`lib, tanani bo`shliq joylarini to`ldiradi.

Balg'am xilti.

Tabiiy balg'am xilti sovuq ho`l sifatli bo`lib, suvsimon suyuqlik, suvga nisbatan ancha g'alizdir.

Tabiiy balg'am kayfiyati jihatidan qon xiltiga yaqindir, organizmdagi hamma a`zolar unga muhtojdir. A`zolarning muhtojligi ikki sababdandir. Sabablarining biri zaruratdan bo`lsa, ikkinchisi manfaat uchun. Zarurat ikki sababli bo`ladi: birinchisi tabiiy balg'amning a`zoga yaqin bo`lishi, bunda tasodifiy holatlar tufayli a`zoga oziq moddalari - qonga tushmay yoki kelmay qolganda (me`da, ichak va jigardan) a`zo o`zining tug'ma issiqligi quvvati yordamida balg'amni yetiltirib (balg'am yetilmagan qon) qonga aylantiradi va u bilan oziqlanadi. Zaruratning bu xil sababi savdo va safroga xos emas. Zaruratning ikkinchi sababi, tabiiy balg'amning qonga aralashishi va uning balg'am mizojli a`zoni oziqlantirishga tayyorlashdir. Masalan, balg'am mizojli a`zo bosh va orqa miyadir, bu a`zolarni oziqlantirish uchun qonda ma'lum, o`rtacha miqdorda balg'am xilti bo`lishi shart. Bu ikkinchi xil zaruriyat safro va savdo xiltiga ham xosdir. Balg'am xiltining manfaatlari, bo`g'imlar va ko`p harakatli a`zolarni qo`llab turish va ularni ishqalanish tufayli hosil bo`ladigan quruqlikdan saqlash. Balg'am xiltining manfaati ham zaruriydir va zaruriyat sabablarini hozirgi tibbiyot ilmi asosida quyidagicha asoslasmiz. Birinchidan: balg'am a`zolarda qonga aylanadi. Ikkinchidan: bosh va orqa miya suyuqligi tarkibiy jihatidan balg'am xiltiga o`xshaydi, u bosh miya qorinchalari va orqa miya kanalidan aylanib miya mizojini bir muhitda saqlaydi va modda almashinishini ta`minlaydi. Uchinchidan: bo`g'imlardagi sinovial suyuqlik, ko`z yoshi, burunni ho`llovchi suyuqlik, so`lak, oshqozon shirasi normada tabiiy balg'amning u yoki bu ko`rinishdagi bir xili bo`lib hisoblanadi.

Yuqoridagi a`zolarning doimiy ravishda ish bajarishi, tashqi muhit bilan aloqadorligi (burun, ko`z misolida), ishqalanishni va harakatlarning ko`pligi (bo`g'imlar misolida) yoki bo`lmasa quruq va dag'al ovqatlarni iste`molida ularni qo`llash (og'izdag'i so`lak va oshqozon shirasi misolidagilar), a`zolar qurishini va qizishini oldini oladi.

Balg'am xiltining yana bir umumiy manfaati shundan iboratki, organizmdagi namlikni saqlaydi. Namlik bo`lmasa oziqlanish va o`sish bo`lmaydi. Shunday qilib u organizmni hayot kechirishi uchun muhimdir.

Safro xilti.

Tabiiy safro xilti - qonning yuqori yengil qismi bo`lib, toza, o`tkir hidli, rangi sariq qizilga moyil, agar juda qizib ketsa kuchli qizil rangda bo`ladi. Tabiiy safro jigarda hosil bo`ladi va ikki qismga bo`linadi: bir qismi qonga qo`shilib ketadi, ikkinchi qismi esa sof o`t bo`lib, tinib o`t qopchasiga boradi.

Tabiiy safroning qonga qo`shilishi natijasida organizmning unga bo`lgan ehtiyoji qondiriladi.

Zarurati shundan iboratki, u safro mizojiga yaqin a`zoni oziqlantiradi. Manfaati, qonni latiflashtirish, suyultirib tor va ingichka yo`llardan o`tkazish.

Umumiy manfaati: organizm namligini ta`minlab, tana tabiiy haroratini hosil bo`lishida ishtirok etadi.

Tabiiy sof safroning o`t qopchasiga jamlanishi ham zarurat va manfaat uchun bo`ladi. Zarurati bir a`zo o`t qopchasini oziqlantirish, ikkinchi zarurati shundan iboratki, u butun organizmga taaluqli bo`lib, organizmni ortiqcha narsa chiqindilardan xalos qiladi.

Ibn Sino ta`biri bilan aytganda: manfaatning ikki turi mavjud. Birinchisi, ichaklarni quyqa g'aliz, yopishqoq balg'amlardan tozalaydi. Ikkinchisi, ichakni va orqa chiqaruv teshigining mushagini qitiqlab, hojatni his ettiradi va kishini tashqariga chiqishiga muhtoj qiladi.

Ibn Sino ta`limotiga asoslanib quyidagilarni qo`shimcha qilamiz.

1.O`t qopchasiga to`plangan safro 12 barmoqli ichakka o`tgandan so`ng darvozabon (oshqozonning pilorik qismi) kaliti bo`lib, uni ochilib yopilishini ta`minlaydi.

2.Ichaklarga o`tgan o`t ularning devorlarini quyuq-g'aliz balg'amlardan tozalash bilan birga ichak devorlarini moylaydi va ularning shilinishiga yo`l qo`ymaydi, o`zidagi harorat bilan ichaklar haroratini ta`minlaydi.

3.Hozirgi zamon tibbiyoti tili bilan aytganda, ichaklar ichidagi muhitni bir me`yorida saqlab, u yerdagi mikrofloralar uchun muhit yaratadi.

Savdo xilti.

Tabiiy savdo xilti toza qonning tarkibida bo`lib, eng pastki qismidagi cho`kmasidir. Uning rangi qora, tabiatи sovuq-quruqdir. Savdo xilti jigaрадa hosil bo`lgandan so`ng zarurat va manfaat tufayli ikki qismga bo`linib, bir qismi qonga, ikkinchi qismi esa jigar, taloq boylami bag`ridagi vena tomirlari orqali taloqqa boradi.

Tabiiy savdo xiltining qonga o`tgan qismini zaruriyligi a`zoni oziqlantirish uchun bo`lib, bu a`zo tanadagi suyaklardir, ya`ni qondagi savdo xiltlarining zarurligi suyaklarni oziqlantirishdan iborat. A`zoni oziqlantirishda qon tarkibidagi savdo yetarli miqdorda qonga aralashgan bo`lishi kerak.

Uning manfaati shuki, qonni pishiq qilib kuchaytiradi, quyultiradi va tarqalib ketishdan saqlaydi. Savdo xiltining taloqqa borgan qismining zaruriyligi butun tanaga taaluqli bo`lib, uni ortiqcha narsalardan tozalaydi, ikkinchi zaruriyligi faqat birgina a`zo uchun, u ham bo`lsa taloqni oziqlantirishdir. Manfaati ham ikki sababdan iborat. Birinchi sabab: taloqdan chiqqan savdo xilti tana bo`ylab tarqalishidan oldin oshqozon og`ziga tushib, uni pishiq, qattiq va kuchli qiladi. Ikkinchi sababi shundan iboratki, me`da og`ziga tushgan tabiiy savdo, nordonligi tufayli me`da og`zini qitiqlaydi, uni ochlikdan ogohlantiradi va ishtahani qo`zqatadi.

Organizmdagi xiltlar ularning vazifalari mizojlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xiltlar	V a z i f a l a r i	Mizoji
Qon	-yurakda ruh(kislород) bilan to`yinib butun tanaga tarqaladi va hamma quvvatlarni boshqaradi	Issiq-ho`l
Safro	-qonni quyulishdan saqlaydi, -o`pkaga borib uning ichki devorini moylaydi,	Issiq-quruq

	<p>-o`t qopiga to`planib, ovqat hazmida ishtirok etadi,</p> <p>-organizm namligini boshqarib tananing tabiiy haroratini boshqarib turadi.</p>	
Balg'am	<p>- yetilmagan qon bo`lib, kerak bo`lganda qonga aylanadi,</p> <p>-bosh va orqa miya suyuqligi sifatida ularga ho`llik berib namlab turadi,</p> <p>- bo`g`imlarda sinovial suyuqlik sifatida ularni moylab turadi,</p> <p>organizmdagi namlikni saqlab, uni qizib ketishdan saqlash bilan birgalikda elastikligini ta`minlab turadi..</p>	Sovuq-ho`l
Savdo	<p>-qonni quyultirib, uning oquvchanligini kamaytiradi,</p> <p>-oshqozon og`ziga jamlanib ishtahani qo`zg`aydi,</p> <p>-taloqda jamlanib organizmning himoya faoliyatini boshqaradi,</p> <p>-suyaklarda to`planib ularga qattiqlik beradi.</p>	Sovuq-quruq

Mavzu savollari

- 1.Mizoj ta'rifi,turlari haqida tushincha bering.
- 2.Quvvat nima, uning vazifalari haqida tushincha bering.
- 3.Xilt nima, hosil bo'lish mexanizmi haqida tushincha bering.
- 4.Unsur nima, turlarini aytib bering.
- 5.Yurakkha rux bilan tuyinib butun tanaga tarqaladi va ham ma quvavtlarni boshqaradi . Bu nima?
- 6.Tabiiy rux qaerda hosil bo'ladi,qaysi jrganda joylashadi?
- 7.Balg'am mizojini aytинг.
- 8.Hazm qiluvchi quvvatni hosil bo'lish o'rni.

1.3. §. Inson organizmini sharqona tabobat usulida o`rganish. Asosiy va yordamchi a`zolar .

Inson tanasidagi a`zolarning manfaati va shu manfaatlarga qarab taqsimlanishi

Inson organizmini tarkibiy qismi bo`lgan har bir a`zo u yoki bu vazifani bajaradi, masalan o`pkadagi vena qonni kislorodga to`yintirib yurakka beradi, yurak esa shu qonni o`pkadan tortib olib, aorta va arteriyalar orqali butun organizmga tarqatib, modda almashinishi jarayonining uzluksizligini ta`minlab turadi. Yuqoridagi misoldan shu narsa aniqlanadiki o`pka, yurak uchun xizmat qilar ekan, arteriyalar esa o`tkazish vazifasini o`taydi. A`zolarning organizmdagi bajaradigan vazifalarini ahamiyatiga qarab Ibn Sino inson tanasi a`zolarini quyidagi guruhlarga bo`lgan:



FOYDALI ISH BAJARUVCHI A`ZOLAR	RAIS A`ZOLAR	MUTLOQ ISH BAJARUVCHI A`ZOLAR
O`pka	Yurak	Arteriya qon tomirlar
Jigar va boshqa oziqlantirish va ruhni saqlash a`zolari	Bosh miya	Nerv tolari
Me`da ingichka ichaklar masoriqo qon tomirlari.	Jigar	Jigardan chiquvchi vena qon tomirlari
Yurak, bosh miya, jigar, buyraklar	Moyaklar	Nasl o`tuvchi tomirlar va erlik olati

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, ibn Sino inson tanasi a`zolarini uchta katta guruhga bo`lib o`rgangan.

I - guruh. Rais yoki boshqaruvchi a`zolari, bu guruh a`zolari shaxs yoki turni saqlash uchun xizmat qiladi. Rais a`zolar gavdaning dastlabki quvvat manbaidir. Shaxsni saqlovchi a`zo uchtadir: bosh miya, yurak va jigar.

Tayyorlovchi xizmat, rais a`zo ishidan oldin bajariladi, o`tkazuvchi xizmat, rais a`zo ishidan keyin bajariladi.

Misol: yurakni tayyorlovchi xizmatini bajaruvchi a`zosi o`pka bo`lib, qonni kislorodga to`yintirib yurakka beradi, yurak esa kislorodga to`yingan qonni o`tkazish xizmatini bajaruvchi arteriyalar orqali tanaga tarqatadi.

Rais yoki boshqaruv a`zolari.


Rais a`zolar o`z faoliyatini bajarish xususiyati bilan 1-shaxsni saqlash, 2-turni saqlash kabi guruhlarga bo`linadi, chunki bu a`zolarda shaxsni yoki turni saqlashga zarur bo`lgan gavdaning dastlabki quvvatlar manbalari mavjud.

Shaxsni saqlovchi a`zolar.

Rais a`zolarning birinchi guruhi shaxsni saqlovchi a`zolar bo`lib ular uchtadir. Yurak hayotiy quvvatning kelib chiqish o`rni, bosh miya nafsoniy, his-harakat quvvatlarining kelib chiqish o`rni bo`lsa, uchinchi a`zo jigar organizmni oziqlantirish quvvatlarining kelib chiqish o`rnidir.

Turni saqlovchi a`zolar.

Rais a`zolarning ikkinchi guruhi turni saqlovchi bo`lib, to`rttadir: yurak, bosh miya, jigar va ikki moyakdir. Moyaklarning manfaati, ular naslni saqlovchi erlik urug'ini paydo qiladi va erlik va xotinlikni tugallanishini va mizojini ifoda qiladi.



Xizmat qiluvchi a`zolar.

Xizmat qiluvchi a`zolar rais a`zolarga xizmat qilib, ularning ishini tugal va to`liq bo`lishini ta`minlaydi, bularga o`pka, oshqozon, ichak, taloq, buyraklar, tomirlar, nervlar kabi a`zolar kiradi. Xizmat qiluvchi a`zolar rais a`zolar bajaradigan bosqichlariga nisbatan va bajaradigan manfaatlariga qarab ikki guruhga bo`linadi: 1-foyDALI ish yoki tayyorlash xizmatini bajaruvchi, 2-mutloq ish yoki o`tkazish xizmatini bajaruvchi.



Xizmat qiluvchi a`zolar guruuhlaridagi a`zolar doimiy emas, ular joy joyi bilan foydali ish bajaruvchi yoki mutloq ish bajaruvchi a`zo bo`ladi. Foydali ish bajaruvchi a`zo deganda shunday tushuniladiki, bu ish bajaruvchi a`zo rais a`zoga tayyorlash xizmatini bajaradi. Mutloq ish bajaruvchi a`zo rais a`zo xizmatidan keyin o'tkazish xizmatini bajaradi.

FOYDALI ISH BAJARUVCHI A`ZOLAR	RAIS A`ZOLAR	MUTLOQ ISH BAJARUVCHI A`ZOLAR
O`pka	Yurak	Arteriya qon tomirlar
Jigar va boshqa oziqlantirish va ruhni saqlash a`zolari	Bosh miya	Nerv tolalari
Me`da ingichka ichaklar masoriqo qon tomirlari	Jigar	Jigardan chiquvchi vena qon tomirlari
Yurak, bosh miya, jigar, buyraklar	Moyaklar	Nasl o`tuvchi tomirlar va erlik olati

Birinchi rais a`zo yurak hayotiy quvvat manbaidir. Yurakka o`pka xizmat qiluvchi a`zo bo`lib, qonni kislorodga to`yintirib beradi va qondagi xiltlarning latif va bug' qismidan yurakda ruh hosil bo`ladi. Yurak hosil bo`lgan ruhni arteriya tomirlari orqali butun tanaga tarqatadi,

ya`ni arteriya tomirlari rais a`zo yurakdan keyingi o`tkazish xizmatini o`tab, mutloq ish bajaradi.

Ikkinchi Rais a`zo bosh miya nafsoniy, his-harakat quvvatlarni ishga solishi uchun oziq-ovqatni jigardan va boshqa oziqlantiruvchi a`zolardan; me`da, ichak va taloqdan, rujni esa yurakdan oladi. Demak, bosh miyaning tayyorlov ya`ni foydali ish bajaruvchi xizmat qiluvchi a`zolari jigar, me`da, taloq va yurak bo`lib hisoblanadi. Sifatli ruh va ozuqa moddasini olgan bosh miya nafsoniy quvvatning sifatli his-harakatini bajaradi. Bu vazifani o`tkazish a`zosi nerv tolalari orqali bajaradi. Uning mutloq ish bajaruvchi a`zosi nerv tolalari bo`lib hisoblanadi.

Uchinchi Rais a`zo jigar shaxsni sog`lom saqlash uchun ozuqa moddasasi unga tayyorlovchi a`zolar oshqozon va ichaklardan masoriqo tomirlari orqali oladi, demak, jigarning foydali ish bajaruvchi a`zolari oshqozon va ingichka ichaklar bo`lib hisoblanadi. Olgan ozuqa moddasasi xilusni jigardagi oziqlantiruvchi quvvatlar orqali hazmi tugal bajariladi va xilusdan xiltlar hosil bo`lib, vena tomirlari orqali o`tkazilib butun tana a`zolari bo`ylab tarqaladi va tana oziqlanadi. Demak, jigarni o`tkazuvchi ya`ni foydali ish bajaruvchi a`zosi jigardan chiquvchi vena qon tomirlaridir.

To`rtinchi rais a`zo moyaklar. Moyaklarni rais a`zo turkumiga kiritishdan maqsad turni saqlashdan iborat bo`lib, moyaklar inson naslini doimiyligini ta`minlovchi a`zodir. Shuning uchun uni rais a`zolar turkumiga qo`shamiz.

Moyaklarda maniyni hosil bo`lishi jigardagi hosil bo`lgan ozuqani sifatiga, yurakda shakllangan hayotiy rujni sifati va miqdori, bosh miyadagi shakllangan nafsoniy ruh va quvvatlarning sifatlariga bog`liq bo`lib, bu uchala rais a`zo va ikkala buyrak tayyorlash ishini bajaradi. Ya`ni bu to`rttala a`zo moyaklarda maniy hosil bo`lishida moddiy manbalar vazifasini o`tovchi foydali ish bajaruvchi, xizmat qiluvchi a`zo bo`ladi.

Moyaklarda hosil bo`lgan maniyni o`tkazuvchi, ya`ni foydali ish bajaruvchi a`zosi, moyaklardan zakarga keluvchi yo`llar va zakardagi siyidik o`tuvchi kanal hisoblanadi. Chunki jinsiy aloqa qilganda maniyni,

ayollar jinsiy a`zosi orqali bachadon og'ziga yetkazuvchi a`zo, yuqorida zikr qilingan a`zolar hisoblanadi.

Qurol a`zolar.

Qurol a`zolarga qo`l, oyoq, yuz, bosh va ko`krak qafasi kiradi. Bu a`zolarni qurol a`zolar deyishimizga sabab, ular rais a`zolar vazifasini va harakatlarini tugal bajarishi uchun qurol va vosita vazifasini bajaradilar: chunonchi ko`krak qafasi ko`krak a`zolarini himoya qilish bilan birga nafas olish aktida qatnashadi va o`pkadagi gazlar almashinuvida bilvosita ishtirok etadi yoki qo`l va oyoqlarda hayotimizda asosiy harakat va ishlarni bajaradigan qurol a`zolardir.

Arterial qon bilan bosh miyaning oldingi qorinchasiga yetib kelgan hayotiy ruh uning mizojini qabul qila boshlaydi va unda sifat o`zgarishi natijasida nafsoniy ruh shakllana boshlaydi. O`rtà qorinchadan o`tib oxirgi to`rtinchi qorinchaga yetib borib to`liq shakllanib yetiladi, ana shu shakllanish jarayonida birinchi qorinchada o`rnashgan tashqi sezgi quvvatlarni qabul qilib, ko`rish, eshitish va ta`m bilish a`zolarini faoliyatini amalga oshiradi. Agar bu joyda nafsoniy ruhning sifati yoki o`tishi qiyinlashsa, a`zo o`z faoliyatini qisman bajaradi yoki umuman yo`qotadi. O`rta qorinchada esa ichki idrok quvvatlarini qabul qilib, yod olish, tafakkur, fikrlash qobiliyatini harakatga keltirsa, orqa qorinchada to`liq shakllanib yetilgan nafsoniy ruh a`zolardagi bukilish va yozilish, sezish, esda saqlash va farosat kabi faoliyatlarni shakllantirib harakatga keltiradi

1.Arterial qon tarkibida rais a`zo jigarga yetib kelgan hayvoniy ruh, uning mizojini qabul qilib sifat o`zgarishi natijasida tabiiy ruhga aylanib xizmat qilinuvchi va xizmat qiluvchi quvvatlarni qabul qilib shaxsni saqlaydi, agar o`sish yoshida bo`lsa, uni o`stiradi, ya`ni jigarda kechadigan hazm jarayonini bajaradi va organizmni oziqlantirish uchun oraliq mahsulot kaymus va tabiiy xiltlarni hosil bo`lishini ta`minlash bilan birga qon tarkibida organizm a`zolariga iste`mol mahsulotini suvli qismini siydik sifatida ajralishini bajaradi.



2.Rais a`zo -moyaklarga yetib kelgan hayotiy ruh, uning mizojini qabul qilib, sifat o`zgarish natijasida, tabiiy ruhga aylanib, navni saqlovchi, shakl beruvchi quvvatlarni harakatga kelishini ta`minlaydi. Tuxumdonlarga yetib borgan hayotiy ruh mizojini qabul qilishi va sifat

o`zgarishi natijasida tabiiy ruhga aylanib, tuxum hujayralarini oziqlanishi va yetilishini ta`minlaydi.

Agar tabiiy va nafsoniy ruhlarning sifati, miqdori va yetib kelishida biror kamchilik kuzatilsa, a`zolar o`z faoliyatini nuqsonli bajarishi yoki umuman bajarmasligi mumkin.

Agar hayotiy ruh sifatida o`zgarish bo`lsa kasallik paydo bo`ladi. Mabodo uning hosil bo`lishi to`xtasa yoki u tarqalsa o`lim sodir bo`ladi.

Quvvatlar

Hayotiy	Nafsoniy	Tabiiy
		
1. Qisqaruvchi 2. Bo'shashuvchi	1. Tashqi sezgi 2. Ichki sezgi 3. Harakat	1. Xizmat qilinuvchi 2. Xizmat qiluvchi

Quvvatlar to`g'risida

Hayotiy ruhning rais a`zolari mizojini qabul qilib sifat o`zgarishi natijasida shu a`zolarga ta`sir ko`rsatishga layoqatligi sababli bu a`zolarda ma`lum faoliyat bajaruvchi ta`siriga quvvat deyiladi. Quvvatlarning turlari ko`p, ularning har biri biror boshqaruvchi a`zoda bo`ladi, bu a`zo o`sha quvvatning manbai va o`rnidir. Masalan: nafsoniy quvvatlarning manbai bosh miya, tabiiy quvvatlarning manbai esa jigar bilan moyaklar bo`lsa, hayotiy quvvatlarning manbai yurakdir.

Quvvatlar o`rnashgan a`zolari va bajaradigan vazifalarini uch turga bo`lib o`rganamiz.

Hayotiy quvvatlar yurakda o`rnashgan bo`lib, his va harakatlarni harakatlantiruvchisi bo`lgan hayotiy ruh ishini tartibga soladi va yurak mushaklarining qisqarishi va bo'shalishini amalgà oshiradi. Tabiiy

quvvatlar o`rnashgan joyi va bajaradigan ishiga ko`ra o`z navbatida ikki guruhga bo`linadi.

1 - guruh quvvatlar jigarda o`rnashgan bo`lib, shaxsni saqlash va o`stirish vazifasini bajaradi.


2 - guruh moyaklarda o`rnashgan bo`lib, navni saqlash uchun xizmat qiladi. Gavda aralashmasida urug' moddasini ajratadi.

Nafsoniy quvvatlar o`rnashgan joyi bosh miya bo`lsada, lekin yaxshiroq o`rnashgan joyi miya qorinchalarida, bu ham o`rnashgan joyi va vazifasiga qarab uch turga bo`lib o`rganiladi.

1 turi - tashqi sezgi quvvatlari.

2 turi - ichki sezgi quvvatlari.

3 turi - harakat quvvatlari.



Hayotiy quvvatlar

Hayotiy quvvatlar o`rnashgan joyi rais a`zo yurak bo`lsa ham, u tabiiy xiltlarning latif va bug' qismining o`zaro aralashuvi natijasida yangi mizojli tarkibiy qism ruh shakllangandan so`ng bu mizoj ta`sirida boshlang'ich quvvatlar sifatida o`z faoliyatini bajaradi. Bu quvvat barcha quvvatlarning boshlanuvchisi bo`lganligi va u bo`lmasa o`lim sodir bo`lishi sababli hayotiy quvvat deb nomlanadi.

Hayotiy quvvat bir vaqt ni o`zida ikkita qarama-qarshi vazifani bajaradi:

1. Yurak qorinchalari mushaklarining bo'shashishi.

2. Yurak qorinchalari mushaklarining qisqarishi.

Rais a`zo,ya`ni yurak bu quvvat yordamida hayotiy zaruriy ishlarni bajaradi.

Ibn Sino talqini bilan aytganda, hayotiy quvvat, yurakda vujudga kelib, a`zolarni his va harakat ,hamda hayot faoliyatini qabul qilishga tayyorlaydigan quvvatdir.

Nafsoniy quvvatlar


Nafsoniy quvvatlarning o`rnashgan joyi rais a`zo bosh miya bo`lib, bajaradigan vazifasiga qarab uch turi tafovut qilinadi:

- 1.Tashqi sezgi quvvatlari.
- 2.Ichki sezgi quvvatlari.
- 3.Harakat quvvatlari.

Nafsoniy quvvatlar his va harakat quvvatlari bo`lib,u yordamida inson atrofida bo`lib turadigan tabiiy hodisalarni , jismlar va boshqalarni his qiladi.

Nafsoniy quvvat o`rnashgan joy bosh miyaning qorinchalaridir. Hayotiy ruh bosh miyaning qorinchasiga yetib , bosh miya mizojini qabul qilib sifat o`zgarishiga uchragandan boshlab, to orqa qorinchaga yetib borib to`liq nafsoniy ruh etilgunga qadar, to`rttala qorinchada o`rnashgan quvvatlarni qabul qilib ularni faollashtirish vazifasini bajartiradi.

Nafsoniy quvvatlarning bajaradigan ishlari:



Tashqi sezgini his qilish quvvatlari.

Zohiriy, ya`ni tashqi sezgini his qilish quvvatlari bosh miyaning oldingi birinchi va ikkinchi qorinchasida joylashgan bo`lib, ular besh quvvatdan iborat:

1.Ko`rish quvvati - bu quvvat yordamida odamlar tashqi muhitni rang -barangligini, go`zalligini, jismlar shaklini, hayvonot olamini idrok va kuch quvvatini, umuman butun ko`rish kerak bo`lgan narsalarni ko`rib zavqlanadi, qisqasi ta`sirlanadi va ko`rgan narsasi haqida tasavvur hosil qiladi. Bu quvvatni mutloq ish boshqaruvchi a`zosi ko`zdir.

2.Eshitish quvvati. Bu quvvat yordamida inson tashqi muhitda hosil bo`ladigan yoqimli va yoqimsiz tovushlarni eshitadi va farqlaydi. Bu quvvatni mutloq ish bajaruvchi a`zosi quloqdir.

3.Hid bilish quvvati. Bu quvvat yordamida insonlar nafas olayotgan havodagi xush, noxush hidlarni sezib yo quvonib rohatlanadilar yoki nafratlanib jirkanadilar. Hid bilish quvvatini mutloq ish bajaruvchi a`zosi burundir. Tabiblar esa hidlarni o`rganib iste`mol mahsulotini mizojini aniqlab oladilar. Yaxshi yoqimli hid nafsoniy ruh oziqasidir.

4.Ta`m bilish quvvati. Bu quvvat yordamida insonlar jism va iste`mol mahsulotlarining ta`mini sezib, rohatlanib yo g`azablanib tasavvur hosil qiladilar. Bu quvvatni mutloq ish bajaruvchi a`zosi tildir.

5.Tegib sezish (taktil sezgi) quvvati. Bu quvvat inson terisiga tegish orqali bilinadi, chunki bu quvvatni mutloq ish bajaruvchi a`zosi teridir. Tegib sezish orqali tashqi ta`sirotlar, ya`ni issiqlik, sovuqlik, ho`llik, quruqlik va turli og`riq beruvchi sabablar teri orqali his qilinib, tasavvur shakllantiriladi .

Botiniy - ichki sezgi quvvatlari.

Botiniy, ya`ni ichki sezgi quvvatlari bosh miyaning barcha qorinchalarida bajaradigan vazifasiga qarab joylashgan his-idrokni shakllantiradi:

1.Mushtarak, ya`ni tasavvur hissi birinchi va ikkinchi qorinchaning old qismida joylashgan. Besh zohiriy hislar bu quvvatni shakllantirishda asosiy rol o`ynaydi, chunki inson tashqi his qilish quvvatlarini borliqqa nisbatan tasavvur qiladi va bu quvvat o`z faoliyatini bajaradi.

2.Fikrlash ham botiniy quvvatlardan bo`lib oldingi qorinchalarni chiqish joyida joylashgan bo`lib, ko`rish hissi yordamida oldingi ko`rgan narsalarni xayolan tasavvur qilish yoki umuman, ko`rgan - eshitganlarini xayolan tahlil qilib ,fikrlash qobiliyatini yuzaga keltiruvchi quvvatdir.

3.Fahm, ya`ni tafakkur hissi ham botiniy idrok quvvatlardan bo`lib, uchinchi qorincha oxirida joylashgan. Bu quvvat fikrlash qobiliyatini umumiylashtiruvchidir.

4.Hofiza, ya`ni xotira hissi botiniy idrok qilish quvvati bo`lib, to`rtinchi qorincha oxirida joylashgan.Uning ishi ko`rgan, eshitganlarni yodda saqlashdan iborat. Bu quvvat insonlarda cho`kish davriga kelib kuchsizlanadi, chunki uning mizozi soviydi. Yoshligida ko`rgan eshitganlarni esa yodda saqlay oladi. Chunki bu davrda inson mizozi issiq bo`ladi. Buning sababi shuki, bu quvvatni harakatlantiruvchi kuch nafsoniy ruh to`rtinchi qorinchaga kelganda to`liq shakllangan bo`ladi.

5.Ong -botiniy idrok qilish quvvatlarini bir ko`rinishi bo`lib, uchinchi qorinchani boshlanish qismidà joylashgan. Uning ishi ko`rgan, eshitgan, o`qiganlarni mujassamlab xulosalash. Bu quvvat mutafakkirlar, olimlar, shoir va yozuvchilarda shuningdek, ishbilarmonlarga nisbatan yaxshi shakllangàn bo`ladi.

Nafsoniy harakatlantiruvchi quvvatlar

Nafsoniy harakat quvvatlari bajaradigan vazifalariga ko`ra ikki guruhga bo`linadi:


1.Yozuvchi quvvatlar

2.Bukuvchi quvvatlar

Bu quvvatlarning o`rnashgan joyi bosh miyaning to`rtinchi qorinchasi bo`lib, harakatlarni to`liq bajarish uchun uni harakatlantiruvchi kuch, ya`ni nafsoniy ruh to`liq shakllangan bo`lishi kerak. Nafsoniy harakat quvvatlarini mutloq ish bajaruvchi a`zosi bo`g`imlarni harakatlantiruvchi paylar va mushaklardir. Ular pay va mushaklarni harakatga keltirib bukadi va yozadi, qo'l va oyoqlar harakatini to`liqligini boshqaradi.

Tabiiy quvvatlar

Inson tug'iladi, o'sadi, rivojlanadi, nasl qoldiradi. Bu vazifalar ikki turli quvvat bilan bajariladi va ularga tabiiy quvvatlar deyiladi. Ular bajaradigan ishlar umumlashtirilib ikki guruhga bo`lib o'rganiladi:



Tabiiy quvvatlarning o`rnashgan joyi jigar va moyaklar bo`lib, mutloq ish bajaruvchi a`zolar shaxsni saqlash uchun, erkaklarning tashqi jinsiy a`zosi, ayollarda esa bachardon asosiy bo`lib hisoblanadi. Bu quvvatlar shaxsni saqlash, o`stirish va nasl qoldirishga xizmat qiladi.

Xizmat qilinuvchi tabiiy quvvatlar to`g'risida.

Xizmat qilinuvchi quvvat jigarda hosil bo`lgan xilt va kaymus moddasini tanani oziqlantirish, kishilarni o`stirish, inson navini saqlash uchun tuxumdonagi tuxumlarni oziqlantirib yetiltirish, shuningdek moyaklarda urug` moddasini paydo qilib yetiltirib tuxumlarni urug'lantirish qobiliyatiga eg`a bo`lgan maniyni hosil bo`lishiga xizmat qiladi. Bu vazifani jigardagi xizmat qilinuvchi, ya`ni oziqlantiruvchi quvvat bajaradi.

1.Inson tirik ekan, u yashash va o`sish uchun tanadagi a`zolar tarkibi iste`mol mahsulotlari hazmidan hosil bo`lgan muddalarni bir qismini ter , tirnoq, soch, quloq kiri, hayz qoni, maniy sifatida chiqindi shaklida organizmdan chiqaradi. Me`yordan ortiq yo'qotilgan chiqindi o`rni

a`zolar tarkibini hosil qilishga layoqatli xilt va kaymusning jigarda shakllanib, qon bilan birga organizm a`zolariga yetkazilishi yordamida to`ldiriladi.


2.Yopishtirish, ya`ni oziqlantiruvchi quvvat yordamida oziqlantiruvchi moddaga ishlov berib, uni ozuqaga aylantirib, a`zo qismiga yopishtirish orqali tugal bo`ladi.

3.O`xshatish, ya`ni a`zo qismiga yopishtirilgan ozuqa oziqlantiruvchi quvvatning o`zgartiruvchi quvvati ta`siri sababli a`zoga hamma nisbatda, hatto tarkib va rang jihatidan ham o`xhash bo`ladi. Jigardagi bu o`zgartiruvchi kuch butun gavdaga umumiy ta`sir ko`rsatadi.

Bundan tashqari xizmat qilinuvchi tabiiy quvvatning asosiy vazifasi bo`lib sanalgan o`stiruvchi quvvat gavda hajmlarini tabiiy nisbatda ulg'aytirib, o`sish uchun xizmat qiladi.

Turni saqllovchi quvvatlar

Bu quvvatlar inson turini saqlaydi va ushbu vazifani o`z navbatida ikki quvvat orqali bajaradi:




Erkaklarda oziqlantiruvchi quvvat moyaklarni oziqlantirgandan keyin moyaklarda maniy shakllanadi va u yerda yetilib tuxumlarni urug'lantirishga layoqatli bo`ladi.

Ayollarda esa, ularning tuxumdonlaridagi tuxumlar sifat o`zgarishi natijasida urug'lanishga layoqatli bo`lib bachadon sathiga tushadi va jinsiy aloqadan so`ng erlik urug'i bilan qo`shiladi. Bu yerda maniy shakl beruvchi, tuxum esa shakllanuvchi vazifalarni o`tab tuxum urug'lanib sifat o`zgarishi natijasida homila shakllana boshlaydi.

Xizmat qiluvchi tabiiy quvvatlar

Xizmat qiluvchi tabiiy quvvatlar ham jigarda joylashgan bo`lib, u xizmat qilinuvchi tabiiy, ya`ni oziqlantiruvchi quvvatga xizmat qiladi. U bajaradigan faoliyatiga qarab besh turga bo`linadi.

Xizmat qiluvchi tabiiy quvvatlar



Ovqat hazmining jigarda kechuvchi uchinchi bosqichi shu xizmat qiluvchi tabiiy quvvatlarning faoliyati bilan bog`liqdir:

Tortuvchi quvvat ovqat hazmining ikkinchi bosqichida ichaklarda hosil bo`lgan ximusni masoriqo(ichak tutqichi) qon tomirlari orqali jigarga tortish vazifasini bajaradi va bu ishni o`zi turgan a`zodan birinchi tortilgan nozik tolalar yordamida amalga oshiradi.

Ushlab turuvchi quvvat- organizm uchun foydali bo`lgan moddalarni o`zgartiruvchi va ulardan ozuqa oluvchi quvvatning hukmi ostida ushlab turish vazifasini o`taydi.Ushbu vazifani o`zi joylashgan a`zodagi qiyshiq tolalar yordamida bajaradi.

Hazm qiluvchi quvvat - jigardagi o`zgartiruvchi quvvat yordamida ximusning sifatini o`zgartirib, yangi mizoqli ozuqa, xilt va kaymusni hosil qilish vazifasini bajaradi.

Ajratuvchi quvvat- ximusdan hosil bo`lgan xilt, kaymus va hazm jarayonining chiqindilari bo`lgan suvlik moddalarni haydash quvvatiga tayyorlab berish uchun xizmat qiladi. Ya`ni, quyuq narsalarni suyultirish, suyuq narsalarni mo`tadil quyuq holatga keltirish, yopishqoq narsalarni parchalab yetiltirish, tabiiy qon va balg`am xiltini, yuqori kovak vena qon tomiriga, safro xiltini bir qismini ajratib o`t yo`llariga, savdoni esa jigar bilan taloq o`rtasidagi yo`lga va umuman hazm jarayonida yaroqsiz chiqindilarni suvli ajratmalar sifatida ajratadi.

Haydovchi quvvat- iste`mol mahsulotining hazm jarayonidan so`nggi hosil bo`lgan oraliq va oxirgi mahsulotlarni yuqorida ta`kidlangan maxsus yo`llarga haydalib borishini ta`minlaydi.

Xizmat qiluvchi tabiiy quvvatlarni harakatlantiruvchisi va boshqaruvchisi tabiiy ruh bo`lib, ularning vazifasini to`liq bajarish uchun to`rt kayfiyat, ya`ni issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho`llik xizmat qiladi.

Issiqlik xizmati beshala xizmat qiluvchi tabiiy quvvat uchun umumiy bo`lsada, lekin har bir quvvat uchun alohida ahamiyatga ega. Sovuqlik esa o`z zotiga ko`ra hamma quvvatlarga qarshi turadi, chunki hamma quvvatlarning ishlari harakat bilan bo`ladi. Sovuqlik kayfiyati bilan barcha harakatlarga qarshi xizmat qiladi. Ho`llik va quruqlik kayfiyatlar barcha harakatlarga bevosita emas, balki bilvosita ta`sir qiladi. Quvvatlarning ishlari harakat bilan bo`ladi. Bu holat tortish va haydash ishlarida ravshan ko`rinadi. Hazm quyuq va qattiq bo`lgan narsalarni bo`laklarga ayirib, suyuq va yumshoq narsalarni qo`shish bilan tugal bo`ladi. Bu ishlar ajratish va aralashtirish harakatlari bilan amalga oshadi.

Tortish quvvatining o`z ishini tugal bajarishda issiqlik kayfiyatiga zarurati ko`proq, chunki issiqlik oziq moddalarni ko`proq tortishga yordam beradi.

Quruqlik kayfiyati esa tortish quvvatiga harakat uchun lozim bo`lgan chidamlilikni zo`rayishini vujudga keltiradi.

Ushlab turuvchi quvvat o`z ishini tugal bajarishda sovuqlik va quruqlik kayfiyatlar xizmat qiladi:

Sovuqlik ushlab turuvchi quvvatning ta`sirini saqlaydi.

Quruqlik sifati moddani tutish uchundir, ya`ni ushlab turuvchi quvvatning o`z ishini tugal bajarishda quruqlik kayfiyatiga zarurati ko`proqdir.

Hazm qiluvchi quvvat faoliyatida issiqlik va ho`llik kayfiyatlar xizmat qiladi. Issiqlik, ta`kidlaganimizdek barcha quvvatlarni harakatlantiruvchisidir. Ho`llik kayfiyati esa hazmda oziqni oqizish va uni shakl olishiga yordamlashadi.

Ajratuvchi quvvat faoliyatida issiqlik, quruqlik va sovuqlik kayfiyatlar xizmat qiladi. Issiqlik hamma quvvatlarning harakatlantiruvchisi bo`lish bilan birga hazm mahsulotlarini ayrim - ayrim guruhlarga ajratadi. Ushbu vazifani bajarishda unga quruqlik bilan sovuqlik yordamlashadi.

Haydash quvvatining faoliyatida ham issiqlik, quruqlik va sovuqlik kayfiyatları xizmat qiladi. Issiqlik, yuqorida izohlaganimizdek barcha quvvatlarning harakatlantiruvchisi bo`lib xizmat qilsa, quruqlik bu quvvatga hazm ajralmalarini oz miqdorda quyultirish uchun xizmat qiladi. Sovuqlik esa, chiqindilarni haydashga yordam beradigan yellarni sovutib, quyultiradi va ko`ndalang siquvchi tolalarni to`dalab zichlashtiradi. Jigardan hazm bosqichidagi oxirgi mahsulotlarni o`ziga xos yo`llarga haydaydi.

Mavzu savollari

1. Inson organizmini sharqona tabobat usulida o'rganish.
2. Asosiy va yordamchi organlar haqida tuincha berish.
3. Qurol a'zolar vazifalari haqida tushuncha berish.
4. Xizmat qiluvchi a'zolar, vazifalari haqida tushuncha berish.
5. Foydali va mutlaq ish bajaruvchi a'zolar haqida tushuncha berish.

1.4. §. Abu Ali ibn Sino ta`limotiga asosan xastaliklar, ularning asosiy sabablari, xastaliklarni tashxislash uslublari va xastalik belgilari

Ekologiya, ya`ni organizm bilan tashqi muhit o`rtasidagi munosabat haqidagi fanning yuzaga kelishini va "Ekologiya" ("oikos" - yunoncha xonodon, yashash joyi, "logos- fan") iborasining qo`llanilishi 19 asrda yashab o`tgan nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel' (1834-1919 y) nomi bilan bog'liq va u ekologiya fanining otasi deb qaraladi. Bu borada e`tiroz qilishimiz kerakki, qariyb 1000 yil avval buyuk vatandoshimiz tibbiyot dahosi Abu Ali ibn Sinoning hozirda "Ekologiya" deb yuritilayotgan atrof muhitning deyarli barcha omillari ularga insonning, jonzotlarning ta`siri va nihoyat bu omillarning inson va jonzotlarga aks ta`siri to`g'risidagi mashhur iboralarini keltirishning o`zi kifoya. "Chang bo`limganda inson 1000 yil yashagan bo`lar edi" yoki "havo toki muvozanatlangan va toza bo`lsa, unga (pnevma) begona qo`shimchalar qo`shilmasa, u salomatlik garovi bo`ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo`ladi".

Sabab - bu oldin paydo bo`ladigan va odam gavdasida qandaydir bir holatni keltirib chiqaruvchi yoki bu holatni turg'unligicha saqlab turuvchidir.

Kasallik esa kishi gavdasidagi g'ayritabiyy bir holat bo`lib, u g'ayritabiyy mizojdan, yo g'ayri tabiiy tarkibdan paydo bo`ladi.

Ba`zan bir kasallik ikkinchi kasallikni keltirib chiqarishga sabab bo`ladi. Hatto kasallikning yuz berishi kasallikning sababi ham bo`la oladi. Masalan, kuchli og'riq hushdan ketishlikka sabab bo`ladi, qattiq og'riq – og'riq sohasida shishni hosil bo`lishiga sabab bo`ladi. Ba`zan xastalikning yuz berishi o`z - o`zidan kasallikka aylanadi, isitmadan paydo bo`lgan bosh og'rige kabi, bu ko`pincha o`rnashib mustahkam bo`lib oladi, hatto kasallikka aylanib ketadi.

Jolinusning fikricha, odam gavdasining holai quyidagilardir:

1) Sog'lik, inson gavdasining mizoji va tuzilishi shunday holatda bo`ladiki, undan sodir bo`ladigan fe'l va ta`sirlar to`g'ri va sog'lom ravishda yuz beradi.

2) Kasallik, bu odam gavdasining yuqoridagi holatga teskari bo`lgan bir holatidir.

3) Jolinusning fikricha, quidagi holatlarda to`la sog'lomlik yoki to`la kasallik bo`lmaydi. Masalan, yoshi katta insonlar, kasallik sog'ayib borayotgan davr, yoki bolalarning holatlari kabi.

Ba`zan, ushbu ahvol sog'lik va kasallikning birin ketin kelishidan paydo bo`ladi. Masalan, shunday toifali kishilar borki, ular qishda sog'lom bo`lib, yozda kasal bo`ladilar. Bu mavsumiy kasalliklarga xos holatdir.

Ibn Sino ta`limotiga asosan inson organizmiga ta`sir qilib, xastalikka sabab bo`ladigan tashqi va ichki faktorlar mavjud:

1.Tashqi faktorlar: ob - havo, yil fasli, ichimlik suvlari, oziq-ovqat mahsulotlari.

2. Ichki faktorlar: emotsional holat, qo'rquv, quvonch, g'am – anduh, g'azab va hokazolar.

Kasallikni keltirib chiqaruvchi sabablar

Biz yuqorida bayon qilgan sog'lik, kasallik va sog'lik ham, kasallik ham bo`lmagan hollarning sabablari uchtadir: oldin keluvchi sabab, tashqi sabab va bog'lovchi sabab.

Oldin keluvchi va bog'lovchi sabablar organizmdagi xilt, mizoj yo tarkibga tegishli bo`lgan umumiy sabablardir.

Tashqi sabab bu- tanadan tashqari narsalar, masalan, zarba, havoning issiqligi, yoki sovuq ovqat kabilardir.

Bog'lovchi sabablar bilan holat orasida hech qanday vosita bo`lmaydi.

Demak, oldin keluvchi sabablar gavdaga, ya`ni xilt, mizoj kabi tarkibga tegishli sabablar birinchi bo`lmasdan, balki biror vosita orqali biror bir holatni keltirib chiqaruvchi sabablardir. Bog'lovchi sabablar esa gavdaga tegishli sabab bo`lib, vositasiz ravishda gavda holatlarini birinchi keltirib chiqaradigan sabablardir. Tashqi sabablar birinchi bo`lib ham, birinchi bo`lmasdan ham, gavdaga xos, yoki gavdaga xos bo`lman holatlarni keltirib chiqaradigan sabablardir.

Masalan: Oldin keluvchi sabablarga misol: - isitmani keltirib chiqarishda xiltlarga to`lalik, kataraktani paydo qilishda ko`z tomirlarining to`lib ketganligi.

Bog'lovchi sabablarga misol: - isitmani paydo qilishda xiltlarning chirib hidlanishi, ko`z tomirlarida tiqilma paydo qilishda ko`zning uzumsimon qatlamiga rutubatning oqib tushishi, ko`rlikni keltirib chiqarishda - tiqilmaning paydo bo`lishi.

Tashqi sabablarga misol: - quyoshning isitishi, kuchli harakat, haddan ziyod ko`p uyqusizlik yoki sarimsoqqa o`xshagan o`tkir qizdiruvchi narsalarni yeish kabilar. Bularning hammasi isitmaga sababdir. Ko`z qorachig'ining kengayishiga va kataraktaga jarohat sabab bo`ladi.

Gavdaga yetgan har bir sabab ta`sir ko`rsata olmaydi, balki yana 3 narsaga muhtoj bo`ladi:

- 1.Ta`sir qiluvchi bir quvvatdan boshqa bir quvvatga o'tishi
- 2.Gavdaning nafsoniy quvvatidan bir quvvatga o'tishi
- 3.Quvvatlarning bir - biriga qarama-qarshi kelishi.

Sabablar keltirib chiqargan narsalariga nisbatan, turli hollarda bo`ladilar. Ko`pincha sabab bitta bo`lsa ham, turli gavdalarda turlichalasallikkarda yoki turli vaqtarda turli kasallikkarni keltirib chiqargan bo`ladi. Biror bir sabablarning ta`siri kuchsiz va kuchli odamda, sezuvchan va kam sezuvchan odamda bir xil bo`lavermaydi.

Sabablarning ba`zilari o`zlaridan keyin iz qoldiradi va ba`zilari iz qoldirmaydi. Iz qoldiruvchi sabablar shunday sabablarki, ular ajralgandan keyin ta`siri qoladi. Iz qoldirmaydigan sabab shunday sababki, uning ajralishi bilan kasallik tuzalib qoladi.

Umuman, gavda hollarini o`zgartiruvchi va saqlovchi sabablar zaruriy yoki zaruriy bo`lmagan jinslardan iborat. Zaruriy jinslar 6 xil bo`ladi:

1. Atrofimizni o`ragan havo
2. Iste`mol mahsulotlari
3. Harakat va harakatsizlik
4. Nafsoniy harakatlar
5. Uyqu va uyg'oqlik.
6. Bo`shalish va bo`shalmaslik.

Zaruriy bo`lmagan jinslar esa inson tanasi bilan uchraydigan narsalardir - havo bular jumlasiga kirmaydi, chunki u zaruriydir, masalan, hammomga tushish, turli xil uqalashlar va boshqalar.

Inson tanasi bilan tashqi tomondan uchrashib ta`sir qiluvchi narsalar ikki yo`l bilan ta`sir qiladi.

1) Birinchisi narsalarning latif qismlari o`zlaridagi sizilish va o`tib ketish quvvati bilan gavdadagi teshiklarga kirib ketadi, yoki a`zolar ularni tana teshiklari orqali tortib oladi, yoki shu ikkala holat bir-biriga yordam beradi

2) Ular gavda bilan hech bir aralashmasdan faqat uni o`zgartiradigan kayfiyatları bilangina ta`sir qiladilar, bu kayfiyat amalda bo`ladi, masalan, sovituvchi surtmalar amalda sovutadi va isituvchi surtmalar amalda isitadi yoki qizdirib qo`yiladigan narsalar amalda qizdiradi; yoki u kayfiyat quvvatda bo`ladi, lekin tug'ma issiqlik unda ta`sir qiluvchi quvvatni qo`zg'atadi va uni amaldagiga aylantiradi; ba`zan esa o`z xususiyati bilan ta`sir ko`rsatadi.

Odatda kasalliklarning ba`zilari sodda, ba`zilari esa murakkab bo`ladi.

Sodda kasalliklar - mizoj kasalligi turlari yoki tarkib buzilishi kasalliklari turlaridan biri uchraydigan bir xil kasalliklardir.

Murakkab kasalliklar - ularda kasallik turlaridan ikki va undan ortig'i to`planib, bir nechta kasallikni hosil qiladi.

SODDA KASALLIKLAR.

Ularning turlari xil:

1) Bo`laklari o`xhash bo`lgan a`zolarga mansub kasalliklar jinsi, bular mizoj buzilishi kasalliklaridir. Ular nima uchun bo`laklari o`xhash bo`lgan a`zolarga mansub bo`ladi chunki, avvaldan bo`laklari o`xhash bo`lgan a`zolarda paydo bo`lgan kasallik keyinchalik murakkab a`zolarga o`tadi. Ammo, murakkab kasalliklarda bu holat kuzatilmaydi.

2) Qurol a`zolari kasalliklari jinsi. Ularning ta`sir quroli bo`laklari o`xhash a`zolardan birikkan a`zolarda paydo bo`luvchi tarkibiy kasalliklardir.

3) Hamkor a`zolar kasalliklari jinsi. Ular bo`laklari o`xhash a`zolarda ham, qurol a`zolarida ham paydo bo`ladigan kasalliklardir. Bular "uzluksizlikning buzilishi" va "birlikning taralishi" deb atalgan kasalliklardir. Chunki "uzluksizlikning buzilishi" bo`laklari o`xhash bo`lgan va bo`g'implarni tashkil qilgan a`zolarda paydo bo`lmasdan bo`g'imning o`zida paydo bo`ladi. Ba`zan asab, suyak va tomirlarning yolg'iz o`zlarida paydo bo`ladi.

Umuman, kasalliklar 3 xil bo`ladi: mizoj buzilishiga tegishli bo`lgan kasalliklar, tarkib qay`ati buzilishiga tegishli kasalliklar va "uzluksizlikning buzilishiga" tegishli bo`lgan kasalliklar. Har bir kasallik shulardan bittasiga tegishli. Mizoj buzilishiga tegishli bo`lgan kasalliklar ko`p uchraydi.

TARKIB KASALLIKLARI.

Ularning to`rt xili mavjud: tuzilish kasalliklari, miqdor kasalliklari, son (adad) kasalliklari va vaziyat kasalliklari.

Tuzilish kasalliklari ham to`rt xil bo`ladi:

1. Shakl buzilish kasalliklari. U shundan iboratki, shaklning buzilishi tabiiy ko`rinishni o`zgartiradi va bunday o`zgarish faoliyatga ham ofat yetkazadi. Masalan, to`g'rining egri bo`lishi, egrining to`g'ri bo`lishi, doiraning to`rtburchak bo`lishi, to`rtburchakning doira bo`lishi kabi.

2. Oqim yo`llarining kasalliklari. Bular ham o`z navbatida uch xil bo`ladi, chunki bular a) kengayishdan bo`ladigan kasalliklar: ko`z qorachig'ining kengayishi kasali kabi

b) torayishdan bo`ladigan kasalliklar ko`z qorachig'ining, nafas o`tadigan joylarning va qizilo`ngachning torayishi kabi

v) tiqilish bo`ladigan kasalliklar, masalan, ko`zning uzumsimon (qatlamdagi) teshiklarning, jigar tomirlarining va boshqalarning tiqilishlari kabi holatlarning kuzatilishi.

3.Qopchiq va bo`sqliqlar kasalliklari. Bular ham quyidagi 4 turlarga bo`linadi, chunki ular kattalashib, kengayadilar, yoki kichiklashib, torayadilar, me`daning torayishi va tutqanoq kasalligida miya qorinchalarining torayishi kabi, yoki tiqilib (qon bilan) to`lib ketadilar, sakta kasalligida miya qorinchalarining tiqilishi kabi.

4.A`zolar yuzalarining kasalliklari, masalan, me`da va ichaklarning silliq bo`lib qolishlari kabi, yoki silliq bo`lish o`rniga g`adir - budir bo`lishlari, kekirdakning g`adir - budir bo`lib qolishi kabi.

Miqdor kasalliklari.

Ikki sinfi mavjud - ular miqdori o`sishdan bo`ladi, masalan, fil kasalligi va olatning o`ta kattaligi kabi - bu priapizm kasalligi deb ataladi, yoki ular Nikomax deb atalgan odamda paydo bo`lgan kasallikka o`xshaydi, uning hamma a`zolari shuqadar katta bo`lib ketib , harakatlanishdan ojiz bo`ladi yoki kichiklanish jinsidan bo`ladi, tilning burishishi, ko`z qorachig'ining kichiklashishi, yo butun gavdaning so`lishi kabi.

Son -adad kasalliklariga kelsak, ular tabiiy bo`ladi. Ortiqcha barmoq va notekis o`sgan ortiqcha narsa yoki tosh kabi, (son kasalligi) u yo tug'ma bo`ladi, barmoqsiz tug'ilgan odam kabi, yo bu kamchilik tabiiy bo`lmaydi, barmog'i kesilgan odam kabi.

Vaziyat kasalliklari

Vaziyat kasalliklariga kelsak, bu Jolinusning fikricha "o`rin" ham "mushorakat" degan ma`noga to`g'ri keladi, ular 4 xil bo`ladi:

A`zoning bo`g'inidan qo`zg'alishi, ichakka mansub churra kasalligidagi kabi. Yoki a`zoning harakati g'ayritabiyy va noto`g'ri bo`lishi, qaltirashdagi kabi, yoki o`rniga yopishib, undan ko`chmasligi, bu miqdor kasalligidagi bo`g'implarning toshday qattiqlanishi kabi.

Mushorakat (Hamkorlik) kasalliklari har bir a`zoning qo`senisiga nisbatan bo`ladigan har bir holatini g'ayritabiyy ravishda bir

biridan uzoqlashtirishi yoki yaqinlashtirishi holatlaridir. Ular ikki sinfli bo`ladi.

Birinchisi, a`zoning qo`shni a`zo tomoniga harakatlanishi ilgari mumkin bo`lgan bo`lsa ham keyin mumkin bo`lmay qoladi, yoki qiyinlashadi, masalan: barmoqlarning go`shti barmoqlarga tomon harakat qilib yopishishi mumkin bo`lmay qoladi, yoki avvalda mumkin bo`lgani holda keyin bir - biridan ajralib uzoqlashish imkoniyati bo`lmay qoladi.

Ikkinchisi, a`zo o`z qo`shnisidan (uzoqlashishi mumkin bo`lsa ham u) uzoqlasha olmaydi, yoki uzoqlashishi qiyinlashadi, masalan, falaj kasalligida ko`z qovog'ining va bo`g'implarning bo`shashishi yoki kaftni yozish va qovoqni ochishning qiyinlashishi kabi holatlardir.

Uzluksizlikning buzilish kasalliklari haqida.

U ba`zan terida bo`lib, ternalish va yulinish deb ataladi. Bu ba`zan go`shtda bo`ladi va yiringlamagan yangi xili jarohat deb ataladi, yiringlagan xili yara deyiladi. Yiringning paydo bo`lishi - jarohatlangan a`zoning zaifligi va oziq iste`molidan, hazmdan ojizligi jihatidan zararli chiqindilarning haydalishidan yuzaga keladi. Shu bilan birga hazm bo`limgan moddalarning o`zi ham chiqindiga aylanadi.

Uzluksizlikning buzilishi suyakda ham bo`ladi - suyak sinib ikki yoki ko`p bo`laklarga ajralgan bo`ladi yoki titilib mayda bo`laklarga ajralgan bo`ladi.

Bundan tashqari uzluksizlikning buzilishi tog'aylarda yoki asablarda bo`lishi mumkin. Agar bu buzilishi eniga tushgan bo`lsa, kesilish deyiladi, uzunasiga tushgan bo`lib, chuqur bo`lmasa, yoriq deyiladi, chuqur bo`lsa teshik deyiladi.

Agar uzluksizlikning buzilishi arteriya va vena tomirlarida paydo bo`lsa, u yorilish deyiladi. Agar ular tomirlarning ko`ndalangiga to`g'ri kelsa, uzilish yoki ajralish deyiladi. Uzunasiga kelgan bo`lsa, darz deyiladi, ularning og'izlari ochilgan bo`lsa, yorilish deb ataladi.

Murakkab kasalliklar

Bir qancha kasalliklar yig`indisidan bir kasallik paydo bo`ladi. Misol qilib, shishni aytish mumkin. Shishda shakl va tarkib (tuzilish) kasalligi ham topiladi, chunki shakl va miqdorni buzzmaydigan shish yo`qdir. Shish yumshoq a`zolarda paydo bo`ladi, ba`zan suyaklarda ham

shishga o`xhash narsa paydo bo`lib, uning (suyakning) hajmi kattalashadi. Har qanday shishda ko`rinarli sabab yo`q, uning jismoniy sababi moddaning biror a`zodan pastki a`zoga o`tishidadir, bu nazla deb ataladi.

Ba`zan shish va toshmalarni tug`diradigan moddiy sabab kayfiyatlarida zarar bermaydigan boshqa xiltlar qolib ketadi.

Shishga sabab bo`ladigan moddalar 6 tadir. 4 xil xilt, suv va yel. Shish issiq bo`lishi yoki issiq bo`lmasligi mumkin. Issiq shish yolg`iz g`ayritabiyy qondan yoki g`ayritabiyy safrodan paydo bo`ladi deb o`ylab bo`lmaydi, u o`z javhari issiq bo`lgan yoki chirish natijasida issiqlik paydo bo`lgan har bir moddadon hosil bo`ladi.

Shishlarning yolg`iz qondan bo`lganlari flegmona deb, yolg`iz safrodan bo`lgani otashak deb ataladi. Qon va safrodan bo`lganini ikkovining ismlaridan murakkab bir ism bilan atashdir, yana qaysi biri ustun bo`lsa, o`shaning ismini oldinga qo`yib aytish odatlari bor. Masalan, ularning biri "flegmonali otashak" yoki "otashakli flegmona" deb ataladi. Yiring yiqqanda chiqiq (xuroj) deyiladi. Agar chiqiq yumshoq go`shtlarda, bezlarda, qo`ltiq tagida, quloq orqalarida va gavdada bo`lgan yomon sifatlilar jinsiga kirsa, toun deb ataladi.

Issiq shishlarga kelsak, ularning boshlanish davrlari bor, bunda xilt yig`ilib, hajm kattalashadi, so`ngra xilt miqdori ortadi va shuning bilan yanada hajm ortib, oxiriga yetib to`xtaydi, so`ng hajm pasaya boshlaydi, keyin pishib tarqaladi, yoki yiringlanadi. Shish tarqalib - yo`qolish, yiring yig`ish yoki qattiqlanish bilan tugaydi.

Issiq bo`lмаган shishlarga kelsak, ular yoki g`ayritabiyy savdo moddasidan, yoki g`ayritabiyy balg`am moddasidan, yoki suvli moddadon, yohud yel moddasidan paydo bo`ladi. G`ayritabiyy savdo moddasidan bo`lgan shish uch jinsdan iborat:

- 1.Qattiqlik (sirroz) jinsi.
- 2.Saraton (rak) jinsi
- 3.Bezlar jinsi, tepki va o`sma kabi shishlar shu jinsiga kiradi.

Bez jinslari bilan boshqa ikki jins orasidagi farq shuki, bez jinslari sof bezlar kabi o`zlarini o`ragan a`zodan ayri o`sadilar, yoki tepki kabi, u a`zolarga tashqaridan yopishgan bo`ladilar. Boshqa jinsdagi

shishlar esa o`zлari o`sgan a`zoning moddasiga aralashib, bir - birlariga kirishib ketgan bo`ladilar.

Saraton bilan qattiqlik jinslari o`rtasida farq shuki, qattiqlik harakatsiz va sezgini yo`qotuvchi shish bo`lib, unda alam beruvchi og'riq bo`lmaydi. Saraton esa harakat qiluvchi, ortuvchi va aziyat yetkazuvchi shishdir.

Toshmalar - ba`zilari chechak kasalligi kabi g`ayritabiyy qon xiltidan, ba`zilari eshakemi kabi g`ayritabiyy safro xiltidan, ba`zilari qizamiq, uchuq, qo`tir, so`gal kabi g`ayritabiyy qon va safro xiltidan hosil bo`ladi. Ba`zilari qavarchiqqa o`xhash suvli bo`lib, ba`zilari pufakka o`xhash havodan iborat.

Kasalliklarga qo`shib sanaladigan holatlar:

Bu kasallik jarayonida kuzatiladigan belgilarning namoyon bo`lishidir, ya`ni:

- sochlarda bo`ladigan o`zgarishlar
- teri rangining o`zgarishi
- hidlar
- badanning tashqi ko`rinishi

Soch larda kuzatiladigan o`zgarishlar: soch to`kilishi, yulinishi, ozayishi, yorilishi, ingichkalanishi, yo`g`onlashishi, o`ta jingalaklanishi, o`ta yoziq bo`lishi, oqarishi yoki boshqa rangga o`tishi mumkin.

Teri ranginining o`zgarishi:

1. Moddali mizoj buzilishi tufayli, teri rangining o`zgarishi. Masalan, sariq kasalligidagi kabi. Yoki moddasiz mizoj buzilishi tufayli, masalan, sovuq mizoj ta`sirida teri rangi ganchsimon (oq) bo`lishi, yoki issiq mizoj ta`sirida teri rangining sarg`ayishi kuzatiladi

2. Tashqi sababdan teri rangining o`zgarishi: quyosh, sovuqlik va shamol ta`sirida teri rangining qorayishi

3. Begona tusli dog'larning terida yoyilishi tufayli, teri rangining o`zgarishi. Masalan, qora baxak, xollar va sepkillar kabi.

4. Uzlusizlikning buzilishidan so`ng paydo bo`ladigan chandiqlar natijasida teri rangining o`zgarishi, masalan, chechakdan so`ng qoladigan qo`tirlik, yaralarning o`rnlari.

hid o`zgarishi - kasalliklar oqibatida qo`ltiq ostining hidlanishi yoki badandan chiqadigan yomon hidlarning yuzaga kelishi misol bo`ladi.

Badanning tashqi ko`rinishi - kasalliklar tufayli o`ta ozish yoki o`ta semirishning yuzaga kelish holatlarining namoyon bo`lishi kabilar.


Kasalliklarning davrlari haqida

Ibn Sino fikricha kasalliklarning ko`pchiligidagi to`rt davr bo`ladi: boshlanish davri, zo`rayish davri, nihoyatga yetish davri va pasayish davri. Bu davrlardan tashqari qo`sishimcha sog`ayish davri ham mavjud.

Boshlanish davri - kasallik paydo bo`lib, uning belgilarining yuzaga chiqmagan davri. Ikkinci davr - kasallikning vaqt o`tishi bilan zo`rayishi. Uchinchi davr -kasallikning bir holatda bo`lib, to`xtagan davri. To`rtinchi davr - kasallik belgilarining kamaygani bilingan davrdir.

Bemorlarda xastalik sababi aniqlangach, tabib albatta, tashxis qo`yishi lozim. Tashxislash sharq tabobatida quyidagi manbalar yordamida amalga oshiriladi. Ya`ni, tabiiy manbalar va zaruriy manbalar asosida. Asosiy yoki tabiiy manbalar bemorning shikoyati, bemorning o`zidan olinadigan dalillar va bemor ajratmalaridan olinadigan dalillar yuzasidan baholanadi. Masalan, bemorning shikoyatida asosan og`riq xarakteri, kelib chiqishi, xarakteri, shishlar, uning turlari, gavda harakatidagi o`zgarishlar, holsizlik sabablari, hazm buzilishi alomatlarining bor yo`qligi, isitmalar, ularning turlari, a`zolardan keladigan hidlar, siydik sifatini baholash, axlatdagi o`zgarishlar, teri butunligining buzilishi, rangidagi o`zgarishlar va gavda holati yoki vaziyatidagi noxush holatlar hisobga olinishi lozim. Yoki bemorning o`zidan olinadigan dalillarga kelsak, tabib bemorning es -hushi, ahvoli, teri va shilliq qavatlarning holati, ko`z , ko`z shilliq qavatining holati va tilning silliq yoki g`adir - budirligi, har bir a`zo faoliyatidagi o`zgarishlar , tana harorati, tirnoqlardagi o`zgarishlar, paypaslab ko`rish, hidlar, pulsdagi (nabz) o`zgarishlarga alohida e`tiborini qaratishi darkor. Shuningdek, bemor ajratmalaridan olinadigan dalillar ham muhim. Ular quyidagilar: axlat, siydik, tupuk, qusuq, maniy va ter kabi ajratmalardagi o`zgarishlar bemorlarni tekshirish tashxis qo`yishda katta ahamiyatga ega.

Bemorlarni sharqona tabobat uslubida tashxislash.



Bemor shikoyati va kasallik tarixi

- 1) Og'riqlar
- 2) Shishlar
- 3) Harakatdagi o`zgarishlar
- 4) Holsizlik
- 5) Hazmdagi o`zgarishlar
- 6) A`zolardan hid kelishi
- 7) Siyidik kamayishi va rangi o`zgarishi
- 8) Axlat ajralishidan qabziyatga o'tish
- 9) Teridagi o`zgarishlar
- 10) Gavda holati bilan bog'liq noxush vaziyatlar
- 11) Isitmalar
- 12) Har bir a`zo va uning vazifasi holati xos shikoyatlar

Bemorning o`zidan olinadigan dalillar

- 1)Bemor holatidan
- 2)Es-hushidan
- 3)Teri va shilliq qavat holatidan
- 4)Ko`zdan
- 5)Har bir a`zo faoliyatidan dalil izlash
- 6)G`ayritabiyy tana haroratining oshishi
- 7)Tilidan
- 8)Paypaslaganda
- 9)Tirnoqlardan
- 10) Hidlardan
- 11) Puls-nabz

Bemor ajratmalaridan olinadigan dalillar

- 1)Siydikdan
- 2)Axlatdan
- 3)Tupukdan
- 4)Qusuqdan
- 5)Maniydan
- 6)Terdan

Bemorda xiltning ko`payib ketishi haqida

G`ayritabiyy qon xiltining ortib ketishidan yuzaga keladigan alomatlar: Gavdada og`irlik, ayniqsa ko`zning tagida, boshda, ikki chakka sohasida kuzatiladi . Kerishish, esnash, doimiy uyqu bosishi, hislarning kuchsizlanishi, zehnning so`nishi, mashaqqat tortmay turib charchash, og`izda odatdagidan tashqari shirinlik va tilda qizillik paydo bo`ladi. Bu tomirlarga oid to`lishishning alomatlariga o`xshashdir.

Ko`pincha gavdada chipqon, og`izda esa chiqiqlar paydo bo`ladi. Shuningdek, burun teshiklari va milklardan qon ketish belgilari yuzaga keladi

G`ayritabiyy balg`am xiltining ortib ketishdan yuzaga keladigan alomatlar: Yuzda oqlikning ortiqchaligi, tashnalik, namlik, ovqatni hazm qilish jarayonida nordon kekirish, siydikning rangsizligi, ko`p uqlash, yalqovlik, asablarning bo`shashganligi, tomir urishining yumshoqligi sekinlik va siyrakligi belgilari kuzatiladi.

G'ayritabiyy safro xiltining ortib ketishdan yuzaga keladigan alomatlar:

Yuz va ko`zning sariq tusliligi, og'izning achchiqligi, tilning g'adir-budir bo`lishi va quruqligi, salqin shamoldan lazzatlanish, qattiq tashnalik, tomir urishining tezlashishi, sariq yoki ko`k safro qayt qilish, ichning achituvchi ketish, xuddi igna sanchilayotgandek badan tuklarining tik turishi belgilari namoyon bo`ladi.

G'ayritabiyy savdo xiltining ortib ketishdan yuzaga keladigan alomatlar:

Terida quruqlik, rangsizlik, qonning qoralik va quyuqligi , ortiqcha vasvasa va o`ychanlik , me`da og'zining achishuvi, yolg'on ishtaha va quyuq, qora yoki qizil rangli siydk ajralishi, qora va sertuk gavda, yomon yaralarning tez-tez chiqib turishi, taloq kasalliklarining avj olishi, qo`rqinchli tushlar ko`rish kabi belgilari kuzatiladi .

Siydik sifatiga qarab kasalliklar haqida xulosa chiqarishda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

1.Ertalabki siydik uzoq vaqt tutib turilmagan bo`lishi lozim

2.Ertalabki uyqudan turgach, siyishgacha suv ichmaslik, ovqat yemaslik, ranglantiruvchi (za`faron, anor kabi mahsulotlar) yemaslik kerak. Ular siydikni qizil yoki sariq rangga bo`yaydi, sabzavotlar esa siydikni yashil rangli qiladi.

3.Teriga ham, xinoga o`xhash biror narsa tegmasligi.

4.Bemor xiltlarni haydovchi biror narsa qabul qilmasligi kerak, kuchli harakatlar va ishga berilib ketmasligi kerak. Ro`za tutish, uyqusizlik, charchashlik, ochlik va g'azablar siydikning rangini juda o`zgartirib yuboradi.

5.Siydikka siyishdan olti soat keyin qarash kerak emas, chunki uning beradigan dalillari zaiflashadi, rangi o`zgaradi, zichlashadi. Ibn Sino hatto 1 soatdan keyin qarashni ham man etadi.

6.Siydikni hech to`kmasdan og'zi keng shishaga yig'ish kerak, hamda uni siyishdan keyinroq tekshirmay, balki idishda tinchlangandan so`ng tekshirish lozim.

Siydik to tekshirib tamom bo`limguncha chayqatib yuboradigan yoki sovutib qo`yadigan, shamol tegmaydigan joyda bo`lishi kerak.

7. Avval siyilgan shishani yuvmay turib ikkinchi marta siyish mumkin emas.

8. Siydik olish uchun ishlataladigan idish toza, aniq jism bo`lishi kerak (tiniq shisha yoki billur)

9. Siydikni shishaga solgach, uni sovuq, quyosh va shamol ta`siridagi o`zgarishlardan saqlash kerak.

Bolalarni, ayniqsa go`daklarning siyidigi sutliliqi tufayli kam dalil beradi. Yana ularda siydikning bo`yovchi moddalari osoyishta holatda bo`lib, chuqurlikda yashiringandir. Bundan tashqari, go`daklarning zaifliklari va ko`p uxlashlari sababli siydikning yetilganlik alomatlarini yo`qotuvchi biror narsa bordir.

Siydikning avvalgi beradigan belgilari

- jigarning holatiga dalolat
- suyuqlik yo`llariga
- tomirlar ahvoliga dalolat

Siydikdan olinadigan dalillar:

1. Siydikning qoraligi, oqligi va bular o`rtasidagi ranglar
2. Quyuq-suyuqlikka nisbatan sifati
3. Tiniqlik va loyqalik turkumida nurning siydik orqali o`tishidagi osonlik yoki qiyinlik
4. Cho`kma turkumi
5. Kamlik va ko`plik bo`yicha miqdor turkumi
6. Hid turkumi
7. Ko`pik turkumi

Quyuqlik - suyuqlik va tiniqlik, loyqalik turkumlari o`rtasidagi farq shuki, siydik ayni bir vaqtida tuxum oqi, eritilgan baliq yelimi yoki zaytun moyiga o`xshab quyuq va tiniq bo`lishi mumkin.

Ba`zan esa loyqa suv kabi suyuq bo`lishi bilan birga loyqa bo`ladi, aslida bu tuxum oqidan ancha suyuqroqdir. Loyqalikning sababi jigar rang yoki boshqa rangga ega bo`lgan yot rangli bo`lakchalarning aralashganligidir. Ular tiniq emas, alohida-alohida ko`rinmaydi va cho`kmadan boshqachadir, cho`kmani ba`zan ko`rib ajratish mumkin.

Shuningdek bo`lakchalar rangdan farq qiladi, chunki rang suyuqlikning butun moddasiga yoyiladi va u bilan cho`kmalarga qaraganda qattiqroq aralashgan bo`ladi.

Siydik rangidan olinadigan dalillar: siydik rangidagi sariqlikning har xil ko`rinishlari mavjud: somon rang, limon rang, malla rang, za`faron rang. Yuqoridagi ranglardan so`ng qizillikning turli ko`rinishlari keladi: to`q malla rang, pushti rang, och qizil rang, to`q qizil rang. Bular hammasi qonning ko`payganligidan dalolat beradi. O`tkir va kuydiruvchi kasalliklarda siydikning rangi za`faron va olov rangga moyil bo`ladi. Sariqlik, olovranglik darajasigacha yetsa va olovrang bo`lib qolsa, demak issiqlik juda ko`payganligidan dalolat beradi.

Siydikning qonga o`xshab qolishi o`tkir qonli kasalliklarda kuzatiladi.

Sariq kasalligida siydik qanchalik qizil bo`lsa va qanchalik ko`p bo`lsa, shuncha yaxshi. Agar siydik oq yoki faqat bir oz qizil bo`lsa, kasallik uzoq davom etsa bu istisqodan dalolatdir.

Zangori va gandano ranglari siydikning qattiq kuyib ketganini ko`rsatadi. Bolalarda siydikning yashil rangliligi tirishishni ko`rsatadi, havoliligi mizojning kuchli sovuqligini bildiradi. Shuningdek havorang siydik zahar ichganlikni ko`rsatadi. Agar siydikda cho`kma bo`lsa, kasal yashaydi, aks holda ahvoli qo`rqinchli bo`ladi. Zangori rangli siydik o`limning alomatidir.

Agar qora rangli siydikda kuchli hid bo`lsa, bu mizojning issiqligini ko`rsatadi, agar unda hid bo`lmasa uning kuchi zaif bo`lsa, bu sovuq mizojdan dalolat beradi. Siydik tozalanish va buxron natijasida ham qorayishi mumkin. Bunday holat 4 kunlik isitmaning oxirida va taloq kasalliklarining tuzalishida, orqa va bachadondagi og'riqlarda, oy ko`rishda kuzatiladi. Ba`zan kishi rangli ichimliklar ichsa qora yoki qonli, qizil rangli siyadi.

Oq rangli siydik sovuqlikning alomatidir va yetilishga umid tug'dirmaydi, agar unda quyuqlik bo`lsa, shilliq balg'am borligini ko`rsatadi. Oppoq rangli suyuq va yiringli siydik siydik a`zolaridagi yiringlanayotgan yaralarga dalolat qiladi. Sut tusli siydik ham o`tkir kasalliklarda halokatga yetkazuvchidir. Ovqatdan so`ng siydik oqaradi, hazm bo`lgandan keyin bo`yala boshlaydi. Shuning uchun uyqusizlik bilan qiynalayotgan kishilarning siydig'i oqdir. Qizil siydik buyrak kasalliklarida yomondir, u issiq shishdan dalolat beradi. Agar siydik qizil

ko`rinishli loyqa bo`lib, shu holda qolganda esa jigarda shish borligini va tug'ma issiqlikni zaifligini ko`rsatadi

Siydikning quyuq - suyuqligi, tiniqligi va loyqaligi to`g'risida

Siydikning konsistensiyasi suyuq yo quyuq yoki mo`tadil bo`ladi. Siydikning suyuqligi uning yetilmaganligiga yoki tomirlarda tiqilma borligiga, buyrakning va siydik yo`llarining kuchsizligida kuzatiladi.

Sog'lom kishilarda suyuq siydik chiqishi bilan birga belda va buyrakda og'riq seziladi va bu hol shish paydo qilishga moyil ekanligini ko`rsatadi.

Siydikning quyuqligi xiltlarning yetilganligiga, ba`zan quyuq xiltlarning yetilganligiga belgi bo`ladi. Quyuq xiltlarning yetilishi xiltdan paydo bo`lgan isitmalarining tugallanishlarida va shishlarning yorilib oqishining tugallanishida sodir bo`ladi.

Quyuq siydik sog'lom kishida doimiy bo`lsa va u kishining boshi og'rib bo`lak-bo`laklik hissi sezilsa, isitma bo`lishdan xabar beradi.

Siydikning loyqaligi suv moddasiga yer moddasi bilan havoning aralashishidan kelib chiqadi. Shular aralashsa loyqalik paydo bo`ladi, bir-biridan ajralsa, tiniqlik paydo bo`ladi.

Jumladan , 3 holatga e`tibor berish lozim:

1.Siydik oldin suyuq chiqib, keyin quyuqlashsa, bu hol odam tabiatini yetiltirish uchun intilishiga belgi bo`ladi. Ba`zan esa a`zolarning eriyotganligiga belgi bo`ladi.

2.Siydik quyuq siyiladiyu, keyin tinadi va quyug'i ajrab cho`kadi va bu hol odam tabiatining moddani yengib yetiltirilganligiga belgi bo`ladi.

3.Avvalgi va keyingi hollarning o`rtasidagi holat, ya`ni bu holat davom etib , tabiatи kuchli va quvvati turg'un bo`lsa, siydikning tezda tugal yetilishini tahlil qiladi, bu hol xiltlarning qo`zg'alganligiga va bug'li yel borligiga dalildir.

Agar jigarda va jigarga yondosh a`zolarda tiqilma paydo bo`lgan bo`lsa, bunday vaqtida siydikning quyuqligi tiqilmalarning ochilganligidan va moddalarning haydalib chiqa boshlanganidan dalil, bo`lib siydik yiringli bo`lmaydi.

Siydik hididan olinadigan dalillar:

Agar siydikda badbo`y hid bo`lsa, siydik a`zolarida qo`tir va yaralarning borligini bildiradi

Siydik ko`pigidan olinadigan dalillar: ko`pik suyuqlikdan va shishaga siyish vaqtida unda to`planib suyuqlik ichiga kirib aralashidan va havodan paydo bo`ladi. Tirishish kasalligiga uchragan kishilar siydigida pufakchalar ko`p bo`ladi. Pufakchalarning kattaligi siydikning yopishqoqligini bildiradi.

Tomir urishi haqida

Tomir urishi hayotiy ruh idishlarining kengayishi va qisilishidan iborat, bunda yengil havo oqimi natijasida ruh soviydi. Tomir urishi ikki harakat va ikki tinishdan iborat, kengayish harakatida kengayish va siqilish orasida tinish, siqilish harakatida siqilish va kengayish orasida tinish. Jolinusning fikricha, tomir urishini aniqlashda bilakni ushlab ko`rish eng yaxshi, bunda bilakni ushlashda 3 qulaylik mavjud:

- unga yetishning osonligi
- tabibga ko`rish qulay
- yurak yaqinida joylashuvi

Tomir urishining holatini bildiradigan 9 ta dalil bor:

- tomirlarning kengayish miqdoridan olinadi
- harakat qilib turgan tomirning kayfiyatiga ko`ra
- har bir harakatning davomiyligiga ko`ra
- tomir tarkibiga ko`ra
- bukilish va to`laligiga
- ushlab ko`riladigan joyning issiq, sovuqligi
- tinch turish vaqtி
- tomir urishining tekis yoki notekisligiga ko`ra
- notekislikda tartib borligidan yoki to`la tartibsizligidan

Umuman tekis tomir urishi bu hamisha aytilgan narsalarga nisbatan tekis bo`lgan tomir urishidir. Tomir urishining notekisligi ham ikkiga bo`linadi:

- notekis tartiblangan va notekis tartibsizlangan
- Tartiblanganda ritm saqlangan yoki takrorlanib turadi.
- a) doimiy tartiblangan
 - b) ba`zida ikki va undan ortiq davr bilan tartiblangan.
- Tartibsiz tomir urishi esa buning qarama - qarshisi demakdir.

Tomir urishining bir qismi notekisligiga kelsak, bunda tomir urishi qaytalanuvchi, uzlusiz tomirlar urishiga bo`linadi. Cho'ziluvchan tomir urishi zarbaning bir qismida haqiqiy to`xtash bilan o`tadi. Qaytalanuvchi tomir urishida katta tomir urishi bir bo`lakda kichik bo`lib qoladi keyin asta-sekin o`z *holiga* to'shadi. Uzlusiz tomir urishida esa notekislik asta-sekin muttasil ko`payib boradi, chegaralar bilinmaydi.

Murakkab tomir urishi: G'izoliy tomir urishining bir qismida notekis va sekin bo`lib, keyin to`xtaydi va tezlashadi, "to`lqinsimon" tomir urishi bu tomir bo`laklarining katta va kichikligi yoki ularning ko`tarilishi va kengligidagi notekisligi, "chuvalchangsimon" tomir urishi to`lqinsimonga o`xhash, lekin juda kichik bo`ladi, ketma-ket bo`ladi. "Arrasimon" tomir urishi bu o`zining ko`tarilishi va kengligi, o`zishi va kengligi jihatdan qismlarning notekisligi, qattiqligi bilan ajraladi. "Sichqon dumisimon" tomir urishi bunda notekislik kamayishidan boshlab ko`payib va yana aksincha almashinib turadi. "Shuvoq ildizsimon" tomir urishida kamayish va ko`payish chegaralari bo`ladi, ma`lum kamayish chegarasiga yetgancha to`xtovsiz orqaga chekinadi, xuddi shunda ikkita eng oxirgi nuqtalarida sichqon dumi hosil bo`ladi. Tomir urishi zARBASINING o`rtasiga to`g'ri keladigan urishi bilan kiyiksimon tomir urishi o`rtasida farq shundan iboratki, kiyiksimon tomir urishida ikkinchi zarba birinchi zarba tamom bo`lmay turib yetib keladi, unda esa ikkinchi zarba birligi zarba tamom bo`lgandan keyingi tinchlik vaqtida paydo bo`ladi.

Tomir urishining tabiiy turlari: kamayish va ko`payish o`rtasidagi tomir urishi mo`tadil tabiiy tur hisoblanadi, bunga kuchli tomir urishi kirmaydi, uning uchun tabiiy quvvat ortiqcha hisoblanadi. Tabiiy tomir urishi turlari uchun tekis, tartiblangan va yaxshi vazndagi tomir urishi xosdir.

"Arrasimon" tomir urishining sababi: tomirga quyilgan narsani chiriganligi, xomlik va pishganlik jihatdan turlicha bo`lishi va tomir holatining notekisligidir.

"Sichqon dumisimon" tomir urishining sababi: kuchning zaif bo`lishidandir.

"To`lqinsimon" tomir urishida kuchning zaifligi tufayli kuch qizil qon tomirlarining urish bo`laklarini faqat birin-ketin kengaytira oladi, bunda tomir kuchni quruq va qattiq tomirdek qabul qiladi. "To`xtab uruvchi" tomir urishida kuchning toliqishi va dam olishga muhtojlik, birdaniga ta`sirlanish kabi holatlar kuzatiladi.

Erkak va ayollar hamda turli yoshda tomir urishi

Erkaklarda: ularda hayotiy kuch va ehtiyojning ko`pligi tufayli tomir urishi katta va kuchli bo`ladi, xotinlarga nisbatan sekin va siyrak bo`ladi, xotinlarda esa aksincha. Bolalarda tomir urishi ularning mizozi ho`l bo`lganligi uchun muloyim va tezroq bo`ladi, chunki ularda issiqlik kuchli bo`ladi, bolalar gavdasida dudli bug' ko`p bo`ladi va gavdani yangilab turadi va salqinlatish va bug'ni chiqarish uchun tez uradi. O`rta yoshli odamlarda hayotiy kuchning zaifligi tufayli tomir urishi hajmi kichik, sun`iy hajmi ehtiyoji yo`qligi sababli tezlik ham kam bo`ladi. Yoshi ulg`aygan odamlarda tomir urishi siyrak, sekin, kichik, ba`zan tabiiy bo`lmagan yot suyuqlik tufayli yumshoq bo`ladi.

Issiq mizoj - so`nishga muhtojlik bo`lib - tomir urishi katta

Sovuq mizoj - tomir urishi kam, sekin, siyrak

Ho`l mizoj - tomir urishi to`lqinsimon va keng bo`ladi.

Faslga ko`ra tomir urishining o`zgarishi:

Bahorda tomir urishi har tomonlama mo`tadil kuchi ortiqcha. Yozda so`nishga ehtiyoj tufayli tez va ketma-ket bo`ladi. Qishda esa tomir urishi siyrak, sekin, zaif bo`ladi, chunki hayotiy ruh zaiflashadi. Kuzda esa notekis va zaif bo`ladi chunki araziy mizoj goh issiqlik, goh sovuqqa almashinib turadi. Kuz buzuvchi fasl bo`lib, issiqlik zaiflashadi va quruqlik kuchayadi. Fasllar orasida tomir urishi o`rab turgan faslga bog`liq bo`ladi.

Uyqu vaqtida tomir urishi - uyqu vaqtি va hazm qilish holatiga qaraladi. Uyqu boshida tomir urishi kichik va zaif, chunki bunda issiqlik harakati chuqurga va siqilishga yo`nalgan, bunda hazm qilish uchun ichkariga yo`nalgan bo`ladi. Ovqat uyqu vaqtida o`zlashtirilsa, unda tomir urishi yangitdan kuchayadi, chunki hayotiy kuch ko`payadi va yuzaga chiqadi, o`zining boshlang`ich manbasiga chiqadi.

Uyg`oqlikda tabiiy ravishda uyg`onsa tomir urishi asta sekin ko`payadi, kuchayadi. Agar biror sabab bilan uyg`otilsa tomir urishi

tinib, keyin yana kuchayadi, katta, ketma-ket, qaltirash darajasida notekis bo`ladi, keyinchalik mo`tadillashadi.

Jismoniy harakatda bosimda isssiqlikning ko`payishi tufayli tomir urishi katta, kuchli, tez, ketma-ket bo`ladi. Uzoq vaqt muttasil ishlaganda "chuvalchangsimon" bo`ladi.

Og`riq o`zining kuchi va boshqaruvchi bo`lishi, uzoq muddatliligi bilan tomir urishini o`zgartiradi. Og`riq boshlanishida tomir urishi katta, tez-tez bo`ladi. Og`riq yana kuchaysa tomir urishi siyraklashadi va o`sishiga olib keladi.

Ruhiy holatlarda, masalan, g'azablanganda: nafsoniy kuch qo`zg`aladi, tomir urishi katta, tez, ketma-ket, baland bo`ladi, agar g'azabga qo`rquv aralashmasa tomir urishi notekis bo`lmaydi.

Qayg`uda: issiqlik kamayadi, chuqurga botadi, tomir urishi kichik, zaif, siyrak, sekinlashgan bo`ladi. Qo`rquvda esa to`satdan tomir urishi tez-tez, qaltiroqli, notekis, tartibsiz bo`lsa, aksincha davomli va sekin bo`ladigan qo`rquvda tomir urishi o`zgaradi.

Ibn sino ta`limotida kasalliklar klassifikasiyasi:

A. Sodda kasalliklar:

1 Mizoj buzilishi kasalliklari

a) moddali mizoj buzilishi kasalliklari organizmda xiltlarning o`zgarishi natijasida kelib chiqadi.

b) moddasiz mizoj buzilishi kasalliklari organizmda xiltlarning o`zgarishi natijasida kelib chiqadi.

2. Tarkib kasalliklari

a) hajm buzilish kasalliklari

b) tuzilish kasalliklari

ular o`z navbatida quyidagilarga bo`linadi:

- shakl kasalliklari

- oqim yo`llari kasalliklari

- qopchiq va bo`shliqlar kasalliklari

- a`zo sathi, yuzalari kasalliklari

v) miqdor kasalliklari

Miqdor kasalliklari - biror bir organning o`sishdan kattalashib ketish yoki kasallik natijasida o`sishdan orqaga qolishi.

g) son (adat) kasalliklari

Son (adat) kasalliklari - ular tabiiy bo`ladi. Ortiqcha barmoq, yoki notejis o`sgran ortiqcha organlar misol bo`ladi.

d) vaziyat (quyilish) kasalliklari

Ushbu kasallik Jolinusning fikricha "o`rin" ham "mushorakat" degan ma`nolarga to`g`ri keladi. A`zoning bug`indan qo`zg`alishi, ichakka mansub churra kasalliklari misol bo`ladi.

3. Uzluksizlikning buzilishi kasalliklari

Uzluksizlikning buzilish kasalliklari- bu biror bir organ butunligining

buzilishi bo`lib, quyidagilar kiradi:

tirnalish va yulinish

jarohat va yara

suyaklarning sinishi

kesilish

qon tomirlarining yorilishi

Nerv tomirlarining kesilishi

mushak va paylarning kesilishi, uzilishi va ezilishi

a) tirnalish, yulinish

b) jarohat va yara

b) suyak sinishi va chiqishlari

v) qon tomirlarining yorilishi, uzilishi

g) mushak va paylarning kesilishi

d) nerv tolalarining cho`zilishi

E) ichki organlarning yorilishi

B. Murakkab kasalliklar:

1. Shishlar

a) issiq shishlar (abses, flegmona, karbunkul, furunkul)

b) sovuq shishlar (sirroz, rak, tepki, kistalar, bo`qoqlar)

2. Toshmalar

a) issiq toshmalar

b) sovuq toshmalar

Mavzu savollari.

1. Sabab ta'rifi. Tashqi va ichki faktorlar to`g`risida tushuncha

3. Sodda kasalliklar klassifikasiyasi.

4. Murakkab kasalliklar klassifikasiyasi.

5. Mizoj buzilish kasalliklari.

- 6.Tarkib kasalliklari.
- 7.Tuzilish kasalliklari.
- 8.Uzluksizlikning buzilishi kasalliklari.
- 9.Shishlar haqida tushintirib bering
- 10.Sovuq shishlar haqida tushintirib bering
- 11.Toshmalar, issiq toshma, sovuq toshma haqida tushintirib bering.
- 12.Issiq shishlar haqida tushintirib bering.
- 13.Son adad kasalliklarini tushintirib bering.
- 14.Vaziyat kasalliklarini tushintirib bering

1.5. §. Ibn sino ta`limotida sog'likni saqlash tadbirlari.

Abu Ali Ibn Sino tadbiriga ko`ra sog'likni saqlash san`ati, odam gavdasini unga munosib va yoqadigan narsalarni saqlash orqali o`sha tabiiy ajal deb ataladigan yoshga yetkazishdan iboratdir. Ibn Sino inson sog'ligini saqlashda asosiy narsa, umumiyligi va zaruriy sabablarni mo`tadil qilishni asos qilib, bunda yeyiladigan va ichiladigan narsalarni mo`tadil qilishga ko`proq e`tibor berish kerakligini ta`kidlaydi. Abu Ali ibn Sino o`zining tabiblik faoliyatida kishilarning salomatligini saqlash va kasallikning oldini olishdan iborat vazifani birinchi o`ringa qo`yib, bu vazifaning yechimini topish uchun ko`plab o`ta muhim tadbirlar ishlab chiqqan va amalga oshirish yo`llarini bayon etgan.

Ibn Sino sog'likni saqlash ishini san`at deb biladi. Sog'likni saqlash tadbirlarining asosiy maqsadi har xil foydali tadbirlarni qo`llab sog`lom, uzoq umr ko`rishni ta`minlashdir.

Ibn Sinoning ko`rsatishicha salomatlikni saqlash uchun birinchi galda quyidagi sog`lom turmush tadbirlarini amalga oshirish kerak.

- 1.Kishi mizojini mo`tadil holatga keltirish
- 2.Ovqatlanish tadbiri
- 3.Odam organizmini chiqindilardan tozalash
- 4.Tarbiya haqidagi tadbirlar
- 5.Badantarbiya tadbiri
- 6.Yilning turli fasllaridagi tadbirlar va havoni sog`lomlashtirish to`g'risida
- 7.Mo`tadil uyqu va uyg'oqlik ham kiradi.

Ibn Sino bu tadbirlarni yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab to qarilikkacha bo`lgan barcha davrda qaysi usul va yo`llar bilan amalga

oshirilishini bat afsil bayon etgan. Ibn Sino sog'likni saqlash tadbirlaridan birinchi o'rinda badan tarbiya va yaxshi jismoniy harakatlarni, ikkinchi va uchinchi o'ringa ovqatlanish tadbiri va uyquni qo'ygan. Ibn Sino badantarbiyani ahamiyati haqida so'zlab, mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi kishi kasalliklarning davosiga muhtoj bo`lmasligini ta`kidlaydi. Ibn Sinoning aytishicha: keksalar sog'lom, bardam bo`lishlari uchun birinchi galda ovqatlanish rejimiga rioya qilishlari kerak, oz-oz miqdorda yaxshi hazm bo`ladigan ovqatlar iste`mol qilishlari lozim. Mevalarning sharbatidan ko`proq dori sifatida iste`mol qilish tavsiya etiladi.

I.Kishi mizojini mo'tadil qilish uchun quyidagilar qilinadi.

- 1.Issig'i oshib ketgan mizojni tuzatish to`g'risida
- 2.Sovug'i oshgan mizojni tuzatish to`g'risida
- 3.Kasalikka tez beriluvchan kishilar tadbiri
- 4.Oriq kishini semirtirish tadbiri
- 5.Semiz kishini ozdirish tadbiri

Issig'i oshib ketgan mizojni tuzatish uchun mizojga mos, yoqadigan ovqatlar berib tadbir qilinadi. Badan o`tlardan bo`shatiladi, chiqindilar qayt qildiriladi, ich surdirish tadbirlari qilinadi. Badantarbiyani yengillashtirish lozim bo`ladi va yaxshi sifatli ovqatlar tavsiya qilinadi. Ba`zan bir kunda bemor 3 marta hammomda cho`miltirilishi kerak. Ovqatdan keyin hammomga tushish kerak. Har qanday qizdiruvchi sababdan saqlanmoq kerak. Qorin va jigar sohasida og'riq paydo bo`lsa rum arpabodiyoni va achchiq bodom ichishga buyuriladi, ular tiqilmalarni ochadi. Bu kishilar doimo badanlarini yog' bilan silab yuradilar.

Sovug'i oshgan mizojni tuzatish to`g'risida bu kishilarni ho'l va quruqligi o`rtacha bo`lgan issiq ovqatlar bilan, qizdiruvchi yog'lar bilan, hammomga tushirib terlatish bilan, badantarbiya bilan issiqlarini qo`zg'atishga qaratilgan muolajalar bilan isitish darkor.

Kasallikka tez beriluvchan kishilarning tadbiri to`g'risida. Hammomdan avval badantarbiya va uqalashni ko`paytirish kerak, ovqatni oz-oz qilib bo`lib berish kerak, to`yg'azib ovqat bermaslik kerak. Agar bemor tanasi terlaydigan bo`lsa, goh-gohida terlatib turish kerak.

Oriq kishini semirtirish to`g'risida. Ozishning sababi mizojning quruqligi, masoriqo tomirlarining qurishi, havoning quruqligidir. Hammomda teri qizarguncha uqalanadi, mo`tadil badantarbiyadan keyin bemor hammomga tushiriladi. Hammomda ko`p o`tirish ta`qiqlanadi, badan quruq sochiq bilan artiladi va badan terisiga ozgina yog' surtiladi. So`ngra muvofiq keladigan ovqat berilib bemorning yoshi, sog`ligi to`g'ri kelsa sovuq suvda cho'miltriladi.

Semiz kishini ozdirish to`g'risida. Bemorlarga hajmi ko`p lekin oziqligi kam bo`lgan ovqatlarni buyurish, doimo taomdan oldin hammomga tushish, tez harakatli badantarbiya qilish, xamirli va yog'li ovqatlarni kam iste`mol qilish kabi tavsiya buyurilishi lozim.

II.Ovqatlanish tadbiri.

Ovqatlanish tadbirida quyidagilarga rioya qilish kerak.

1.Ovqatning asosiy qismi meva va sabzavotlardan tashkil topgan bo`lishi kerak.

2.To`yib ovqat yemaslik kerak.

3.Qishda issiq, yozda sovuq va iliq ovqat yeish lozim.

4.Odam organizmida eng zararli narsa ovqat oshqozonda hazm bo`lmasdan turib,

ovqat iste`mol qilishdir.

5.Suyuq, tez hazm bo`luvchi ovqatni undan kuchli va qattiqroq ovqat ustiga yeishdan saqlanish kerak.

6.Eng yomon narsa bir-biriga kelishmaydigan ovqatlarni aralashtirish.

7.Ovqatdan keyin sovuq suv ichish mumkin emas.

8.Ovqatdan keyin spirtli ichimliklar ichishni man etish, chunki spirtli ichimliklar oshqozonni harakatini tezlashtirib, ovqat parchalanmasdan o`tib ketadi.

III.Odam organizmini chiqindilardan tozalash. (Tanqiya qilish)

Odam organizmini chiqindilardan tozalash 3 ga bo`linadi.

1.Qon olish

2.Qustirish (qayt qilish)

3.Huqna qilish

Tanqiya so`zi forscha tildan olingen bo`lib, tozalash ma`nosini bildiradi. Tanani tozalash uchun musxil va munzich dorilardan foydalilanadi. Organizmni tozalash (tanqiya qilish) uchun qon olish,

qustirish (qayt qilish), ichaklardan chiqindilarni chiqarishda xuqna qilish orqali odam organizmi yot moddalardan tozalanadi.

IV. Tarbiya haqidagi tadbirlar:

- 1.Bolaning tug'ilgandan to oyoqqa turguncha qilinadigan tadbirlar
- 2.Bolani emizish va sut bezidan ajratish tadbiri
- 3.Bolalarda paydo bo`ladigan kasalliklar va ularni davolash tadbiri
- 4.Chaqaloqlarni bolalik yoshidan o`tgandan keyingi tadbirlar to`g'risida

Chaqaloq tug'ilgandan keyin 4 barmoq eniga qoldirib kindik kesiladi, og'riq bermaslik uchun u jun ip bilan bog'lanadi va zaytun yog'iga botirilgan mato ustiga qo`yiladi. Bolaning badani qattiq va terisi kuchli bo`lishi uchun kam tuzli namakob suvga cho`miltiriladi. Ko`zlariga zaytun yog'i tomiziladi. Chaqaloq yotadigan uyning harorati o`rta darajali bo`lib, bola issiq va sovuq bo`lmagan uyda uxlatiladi.Uy soya va qorong'iroq bo`lishi kerak, uyga quyoshning kuchli nuri tushmasligi kerak, bola boshiga loyiq qalpoqcha kiygiziladi. Bolani cho`miltirish vaqt uzoq uxlagandan keyingi vaqtdir.

Bolani emizish va ona suti bilan boqish kerak. Bir kunda 2-3 marta emizish kerak. Bolani tez-tez emizmaslik kerak. Ertalabki emizadigan sutdan 2-3 marta sog'ib tashlab keyin emizish lozim. Ko`krak suti sifatsiz va achchiq bo`lsa ovqatlanmasdan turib bolani emizmaslik kerak. Bola mizojini kuchaytirish uchun bolani beshigini tez tebratmasliga darkor va unga alla aytish kerak. Bolani ko`krakdan ajratish uchun esa murr va cho`l yalpizining har biridan bir dirhamdan olib, uni ezib sut beziga surtish kerak. Bolani ko`krakdan asta sekinlik bilan ajratish kerak.

Bolada paydo bo`ladigan kasalliklar va ularni davolash to`g'risida.

Bolada paydo bo`ladigan kasalliklar quyidagilar:

- 1.Ich ketish
- 2.Ich qotish
- 3.Yo`tal va tumov
- 4.Nafas olishning yomonlashishi
- 5.Og'iz chaqasi va tish milklaridagi toshma
- 6.Isitma
- 7.Qorin va ichak sohasidagi burab og'rish
- 8.Uyqusizlik

9.Shaytonlash kasalligi

10.Xurraq otish

11.Gijja

Ich ketish. Bolalarda tish chiqish oldida tish milkida shishlar paydo bo`ladi va bunday shishlarni yog'lar bilan uqalash kerak, bola og'ziga moychechak yog'i tomiziladi. Bolaning boshi moychechak va ukrop suvi bilan yuviladi. Tish chiqadigan paytda bolada ich ketish holatlari kuzatiladi, buning birinchi sababi, milklardan chiqqan yiringli sho'r chiqindi sut bilan birga emiziladi deb o`laydilar.

Ich ketishning ikkinchi sababi, og'riq bo`lishi mumkin, ich ketish zo`rayib ketishdan qo`rqilsa, qizil gul urug'i, petrushka urug'i, rum arpabodiyoni yoki zira qizdirilib qorin sohasiga bog'lanadi. Chala pishirilgan tuxum sarig'i, suvda qaynatilgan non mag'zi yeishiga buyuriladi.

Ich qotish. Ba`zi vaqtida bolada ich qotish hollari paydo bo`ladi, bunda bola qorni zaytun yog'i bilan silanadi, og'ziga asal tomiziladi, cho'l yalpizi yoki favorang gulsapsar ildizi asal bilan qo'shib huqna qilinadi.

Yo`tal va tumov. Ba`zi vaqtida bolada yo`tal va tumov paydo bo`ladi. Shunday vaqtida bolaning boshi ko`p marta issiq suv bilan yuvilgan. Tiliga asal surtiladi, keyin qustirish uchun tilining orqasiga barmoq tegiziladi, behi urug'i, chuchukmiya shirasi yangi sog'ilgan sut bilan aralashtirilib beriladi.

Nafas olishning yomonlashishi. Ba`zi vaqtida bolaning nafas olishi yomonlashadi. Shunday vaqtida qulog'inining osti, tilning yuqorisi zaytun yog'i bilan yog'lanadi, qustirish kerak, bolaning tilini yog' bilan ishqalash ham foydali. Bola og'ziga issiq suv tomiziladi, zig'ir urug'i asal bilan yalatiladi.

Og'iz chaqasi, tish milklarida toshma paydo bo`lsa: shotut shirasining o'zi yoki qora uzumining suvi, asal suvi bilan og'iz bo'shlig'i yuvilib, anor po'chog'i yoki guli olib quritilib, yanchib og'izga sepiladi.

Isitma. Ba`zida bolalarda isitma paydo bo`ladi. Shunday vaqtida onasi issiq kiyinishi kerak. Anor suvi sikanjubin yoki asal bilan, bodring suvi esa shakar bilan qo'shib emizuvchiga ichiriladi. Bola issiq kiyintirib, terlatiladi. Ho`l qamishning suvi siqib olinib, bolaning boshiga va oyog'inining tagiga surtiladi.

Qorin va ichak burab og'rishi. Ba`zi vaqtida bolada qorin va ichak sohasi burab og'riq paydo bo`ladi va bola ko`p yig'laydi, shunday vaqtida uning qorniga issiq mato, og'ziga esa ozgina mum aralashtirilgan issiq yog'surtish kerak bo`ladi.

Uyqusizlik. Goho bolalarda uyqusizlik, to`xtovsiz yig'lash, chinqirish paydo bo`ladi. Bunday vaqtida bolani uxlatish kerak. Ko`knor po`sti, uning urug'i, sutcho`p va ko`knor yog'i qorilib bemor bolaning chakka sohasiga va peshonasiga surtiladi.

Shaytonlash kasalligi bolada paydo bo`lsa, kaklik o`ti, qunduz qiri va ziradan barobar bo`laklar olinib, yanchilib 2 choy koshikdan ichiriladi.

Kurrak otish. Bolalar uyqusida xurrak otadi: yanchilgan zig'ir urug'ini asalga qo'shib yalatmoq yoki asal bilan zirani qorib ichirish kerak.

Gijja. Bola ichida gijja paydo bo`lsa: qora andiz va zarchavakning har biridan bir bo`lak olib hammasiga barobar shakar bilan aralashtirib suv bilan ichirish kifoya.

Chaqaloqlarning bolalik yoshiga o`tgandan keyingi tadbirlar to`g'risida.

Bolaning hulqlarini mo`tadillikka saqlashga e`tibor berish kerak. Bolani qo`rqishdan, qattiq g'azab, qayg'u va uyqusizlikdan saqlash lozim. Hamma vaqt bola istagan narsani muhayyo qilish kerak. Bunda ichki manfaat bor; biri bolaning nafsi uchun bo`lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi ho'llikli bo`lib o`sadi. Ikkinchisi - uning badani uchundir, chunki yomon hulq turli xil mizoj buzilishiga olib keladi.

Bola uyqudan uyg'onganda uni issiq suvda cho`miltirish kerak, keyin uni bir necha vaqt o`ynatib, keyin bir oz narsa yedirish kerak. Bolaga ovqat yegandan keyin suv bermaslik lozim. Bola 6 yoshga to`lgach murabbiy va muallim ixtiyoriga topshirish kerak. Ovqat yeishdan oldin ko`proq badan tarbiya bilan shug'ullanish kerak.

V. Badantarbiya tadbiri.

Sog'likni saqlashni asosiy tadbiri badan tarbiya bo`lib, keyin ovqatlanish tadbiri va undan keyin esa uyqu tadbiri turadi. Badan tarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi harakatdir.

Mo`tadil ravishda va o`z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullangan inson kasal bo`lmaydi. Yeyilgan ovqatni hammasi ham ozuqa sifatida hazm bo`lmaydi, qandaydir chiqindi qoladi, chiqindilarning to`planishi paydo bo`ladi. Badantarbiya tug'ma issiqlikni oshiradi, chiqindilarni chiqarishni yaxshilaydi, bo'gim va paylarni mustaxkamlaydi, organizmni chiniqtiradi.

Badantarbiya bilan mashg'ul bo`lmay qo'ygan kishi ingichka ichak og'riqiga uchrashi mumkin. Chunki har bir a`zo uchun hayot quroli bo`lgan tuqma ruhni tortib keltiruvchi harakatni tark yetishi natijasida uning a`zolari zaiflashib ketadi.

Badan tarbiyani boshlash va to`xtatish haqida.

Badantarbiya ovqatlanishdan oldin qilinadi, sababi, ovqatlanganda ichki a`zolarda yetilgan kaymuslar hosil bo`ladi va badantarbiya ularni butun gavdaga tarqatadi. Badantarbiyani boshlashdan oldin ichaklardagi chiqindilarni va qovuqni bo`shtish kerak. Bahorda badantarbiya tushga yaqin bo`lib, o`rtacha haroratli uyda qilinishi kerak. Yozda esa badantarbiyani ertalabki, qishda esa kechqurun qilish kerak.

Badantarbiyaning davomiyligiga kelsak 3 ta holatga e`tibor berish kerak.

- 1.Terining rangiga
- 2.Harakatning yengilligi
- 3.A`zolarning holatiga

Eslatma: agar ter tomchi-tomchi bo`lib oqa boshlasa badantarbiyani to`xtatish kerak.

Uqalash haqida.

Uqalash 4 xil bo`ladi.

- 1.Gavdani baquvvat qiluvchi - kuchli uqalash
- 2.Gavdani yumshatuvchi-kuchsiz uqalash
- 3.Ozdiruvchi-davomli uqalash
- 4.Gavdani yashnatib o`stiruvchi mo`tadil uqalash

Bundan tashqari yana dag'al uqalash, ya`ni dag'al mato bilan ham uqalash qilinadi. Uqalashda quyidagi maqsadlar ko`zda tutiladi. Bo`shashgan g'ovak a`zolarni mustahkamlash, yumshoqlarni qotirish,

zichlarni g'ovak qilish, qattiqlarni yumshatish kabilar. Uyqu oldidan uqalash va barmoqlar bilan kuchli bosish foydalidir.

Bundan tashqari, badantarbiya oldidan qilinadigan tayyorlovchi uqalash ham bordir. Bu uqalash mayinlik bilan boshlanib, badantarbiya vaqtি yaqinlashgan sari u kuchaytiriladi. Badantarbiyadan keyin qilinadigan o`z asliga qaytaruvchi uqalash ham bordir. Uni tinchlantiruvchi uqalash ham deyishadi. Buning maqsadi, badantarbiya vaqtida chiqarilmay qolib, mushaklarda to`plangan chiqindilarni tarqatish va yo`qotish, toki ular charchash alomatlarini tug'dirmasin. Bunday uqalashni unchalik qattiq qilmaslik kerak va yaxshisi yog' bilan mo`tadil darajada uqalash kerak. Uqalashni qattiq va dag'al harakatlar bilan tamomlamaslik kerak, chunki bu holda a`zo qotadi, bolalarda esa o`sish to`xtaydi. Ammo balog'atga yetgan kishilarga buning zarari yo`q. Ba`zan uyqu oldidan uqalash va barmoqlar bilan kuchli bosish foydalidir. Bu gavdani yengil his qildiradi, quritadi va namlikning bo`g'implarga quyilishining oldini oladi.

VI. Yilning turli fasllaridagi tadbirlar va havoni sog'lomlashtirish to`g'risida.

Yilning turli fasllaridagi tadbirlar quyidagilar:

- 1.Erta bahorda (qon olish, surgi qilish)
- 2.Yozda (ovqatlar, ichimliklar, badantarbiya ozaytiriladi.)
- 3.Kuzda (badanni qurituvchi narsalardan saqlanish kerak)
- 4.Qishda (to charchaguncha mehnat qilish kerak, ovqatni qorin to`yguncha iste`mol qilish kerak)

Havoni sog'lomlashtirish tadbiri- havoni buzuqligi ko`pincha yerdan bo`ladi. Bu vaqtida kursilar ustida o`tirish, juda baland va shamol esib turadigan yerlarda istiqomat qilish kerak. (qadim zamonda yashagan odamlar katta-katta baland uylar qurishgan, yashaydigan uyning tagiga tosh terganlar). Buzilgan havoni tozalash uchun, uylar shamollatilgan, isiriq tutatiladi, ra`no gul, atirgul, har xil gullar o`stirilgan, uy peshtog'ida quritilgan ra`nogul osib qo`yilgan.

VII. Uyqu va uyg'oqlik haqida.

Uyqu va uyg'oqlikda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- 1.Uyqudan avval, ovqat hazm bo`lgandan keyin hammomga tushib, boshdan issiq suvni quyish yaxshi foyda qiladi.

2.Och qorin bilan uqlash yomon va gavda quvvati susayadi deb hisoblangan.

3.Kunduzgi uyqu ham yomondir, u tanada xiltlarni qo`zg`atib, xastaliklarni avj olishi uchun sharoit yaratadi, kishini lanj qiladi, ishtahani pasaytiradi.

4.Uyqudagi holatlarning eng yaxshisi o`ng tomonga qarab, keyin esa chap tomonga aylanib yotishdir. Ovqat oshqozonda yaxshi hazm bo`lma ganda qorinni bosib yotish ham hazmga yaxshi yordam beradi. Uyqusi kelmaydigan kishiga sutcho`p iste`mol qilish yaxshi tadbirdir. Uyqudan avval yeyilgan ovqat hazm bo`lgandan keyin hammomga tushib, issiq suvga cho`milish tadbiri uqlash uchun eng yaxshi yordamchidir. To`q qorinda yoki ovqat qorining yuqori qismidan tushishidan ilgari uqlash ham yomondir. Chunki bu holatda chuqur uyqu bo`lmaydi, balki inson uyqusida bezovta bo`ladi.

Kunduzgi uyqu ham yomondir; u rutubatlardan bo`ladigan kasalliklarni va nazla kasalliklarini vujudga keltiradi, odam rangini o`zgartiradi, taloq xastaliklarini paydo qiladi, asablarni bo`sashtiradi, kishini lanj qiladi, ishtahani pasaytiradi, shish va turli xil isitmalar paydo bo`lishiga sabab bo`ladi. Uyqudagi holatlardan eng yaxshisi o`ng tomonga yotish, keyin esa chap tomonga aylanib yotishdir. Qorinni bosib yotish hazmga yaxshi yordam beradi. Chunki bunday yotish tug`ma issiqlikni to`plab organizmni kuchaytiradi. Chalqancha yotish uqlashning yomon shakli bo`lib, sakta, falaj va bosinqirash kabi yomon kasalliklarga sabab bo`ladi.

VIII .Suv va ichimliklar tadbiri haqida

Mo`tadil mizojli odamlarga eng yoqadigan suv sovuqligi o`rtacha yoki tashqaridan muz bilan sovutilgan suvdir, lekin muz solib suv ichish yaxshi emas. Chunki suvda erigan muz asablarga, nafas a`zolariga va umuman ichki a`zolarga zarar qiladi. Ichiga muz solib sovutilgan suv qoni juda ko`p bo`lgan bemorlarga tavsiya etilgan, boshqa kishilarga tavsiya etilmagan. Bunday suv darhol zarar qilmasa ham, vaqt o`tishi bilan va yosh ulg`ayishi bilan zarar qiladi. Nahorda badantarbiyadan keyin suv ichish, hammomga tushgandan keyin, ayniqsa och qorinda suv ichish, shuningdek, kechasi mast kishilarda paydo bo`ladigan yolg`ondakam tashnalikda, hamda tabiat ovqatning hazmi bilan ovora bo`lib turgan vaqtida suv ichish zararlidir. Juda sovuq bo`lgan suvni

ichish eng yomondir. Agar uni ichmaslikni iloji bo`lmasa, yetarli darajadagi ovqatdan keyin ichish kerak. Iliq suv ko`ngilni aynitadi. Undan ko`ra issiqroq suvni ko`p ichish, me`dani sust qiladi. Agar goh - gohida suv ichilsa, u me`dani yuvadi va ichni yumshatadi. Sharob safrosi ko`paygan kishilarga safrolarini siydkor qilishi chiqarish bilan, ho`lligi ko`paygan kishilarga ho`lliklarini yetiltirish bilan foyda qiladi. Sharobning xushbo`yligi, tiniqligi va mazasi qancha yaxshi bo`lsa, o`sha eng muvofiqidir. Sharob ovqatni gavdaning hamma qismiga yaxshi o`tkazuvchidir. Sharob balg'amni kesadi va eritadi, siydkor va boshqa vosita bilan safroni chiqaradi, qora o`tni so`rilishini qiyinlashtiradi, uni osonlik bilan gavdadan chiqaradi, uning zararli ta`sirini qaytaradi. Badanni ortiqcha qizdirishdan saqlab, undagi barcha qotgan narsalarni eritadi.

IX. Badantarbiyadan keyin keladigan charchash haqida

Dastavval Ibn Sino charchashning turlarini 3 ga bo`lib, keyinchalik ularga to`rtinchisini ham kiritgan. Charchash paydo bo`lishining sababi 2 tadir. Charchashning 3 turi: yarali charchash, qotib charchash va shishli charchash. Qo`shimcha to`rtinchi tur rangpar, qurib va ozib charchash deb ataladi. Yarali charchash shuki, unda terining yuzida yoki tagida yaraga tegishli va qadalish vaqtidagi kabi bir narsa seziladi. Buning eng kuchlisi eng chuqur joyda bo`lganidir. Shu turi ushlab ko`rganda seziladi, goho kishi uni harakat vaqtida sezadi; u kishi gavdasida tikan qadalish kabi bir holatni sezadi. Shu xil charchashga uchragan kishilar hech bir harakatni, hatto kerishishni ham yoqtirmaydilar va kuchsizgina kerishadilar. Bu xil charchash qattiq bo`lsa, kishining etlari uvishadi, agar oshib ketsa, unga qaltiratuvchi isitma tegib, isitmalaydi.

Bu xil charchashning sababi-suyuq o`tkir chiqindilarning ko`pligi yoki harakatning qattiqligidan go`sht va yog'ning erishidir. Umuman buning sababi yomon xiltlar bo`lib, tomirlarga tarqalishi bilan qonni parchalaydi. Bu uning zararidir. Yomon xiltlar teri atrofiga tarqalsa, aziyat yetkazadi, xolos. Zararning eng ozi yarali charchashni keltirishidir, agar yomon xiltlar bir oz oz tarqalsa, et uvishishni, ko`p tarqalsa-qaltiratuvchi isitmani paydo qiladi. Ba`zi vaqt o`tkir xiltlar tarqalib, tomirlarda yetilgan balg'am qoladi. Ba`zan xom balg'am ham go`shtda qoladi. Qotib charchash shuki, unga charchagan kishi go`yo gavdasini bosilgan va majaqlangan singari his qilib, gavdasiga issiqlik va

taranglik sezadi. U kishi harakat qilishni, xatto kerishishni ham istamaydi, ayniqsa, agar charchash biror mehnat sababli bo`lsa, harakatni sira yoqtirmaydi. Bu turli charchash mushakda qamalib qolgan chiqindilardan vujudga keladi; lekin u chiqindilarning moddasi yaxshi bo`lib, ularda kuydirib achitish bo`lmaydi. Ba`zan, bu xil charchash boddan paydo bo`ladi, bu ikki turning paydo bo`lishi yengil va og`ir holatga ajratiladi. Bu xil charchash ko`p vaqt raso bo`lmanan uyqudan keyin ham paydo bo`ladi. Charchash ko`p uyqudan keyin paydo bo`lgani ham uchun bu tur charchash yomondir. Eng yomoni esa mushak bo`laklarini turganicha qotirib tarang qilib qo`yuvchi charchashdir. Shishli charchashga kelsak, bunda gavda odatdagidan qiziganroq bo`lib, hajmi, rangi o`zgaradi va harakatni yoqtirmaydi, shishganga o`xshab turadi. Bu bilan ham taranglik seziladi.

X. Kerishish va esnash haqida. Kerishish mushakda to`plangan chiqindilardan vujudga keladi. Shuning uchun kerishish ko`p vaqt uyqudan keyin bo`ladi. Xiltlar ko`payib ketganda et uvishish va qaltirash paydo bo`ladi, agar undan ham ko`payib ketsa, isitma paydo bo`ladi.

Esnash kerishishning bir turi bo`lib, jag', ko`krak va lab mushaklarida paydo bo`ladigan kerishishdan vujudga keladi. Sog'lom kishida esnash dastlab sababsiz paydo bo`ladi. Agar bevaqt esnash ko`paysa, u yomondir. Yaxshisi esa, hazm oxirida paydo bo`lib, chiqindilarni qaytarish uchun bo`ladiganidir. Esnash va kerishish goho sovuqdan, xiltlarning quyuqlashuvidan, tarqalishlarning ozligidan va uyquga to`ymay uyg'onishidan bo`ladi. Esnash va kerishishning yaxshi turi ortiqcha xiltni qaytaruvchidir. Agar birorta mone`lik bo`lsa, sharob va suvni barobar miqdorda aralashtirib ichish esnash va kerishishni to`xtatish uchun foydalidir.

XI. Keksalarни sog'lomlashtirish tadbiri.

Keksalar tadbirining hammasi qo`llovchi va qizdiruvchi narsalarni birgalikda ishlatischdan iboratdir: ular ko`rpa-to'shaklarda yoshlardan ko`ra uzoqroq uqlab yotishlari lozim, doimo suyuq ovqatlar berish kerak, ayniqsa hammomga tushirish, ichimliklar ichirish, siydiklarini doimo ravon qilib turish, me`dalaridan shilliqlarini ichak va qovuq yo`li orqali chiqarib turish va doimo ichlarini yumshatish tadbiri amalga oshiriladi.

Keksalar ko`proq ovqatlanishga e`tibor berishi kerak, to`yib ovqat yemasliklari kerak, ovqatni asosiy tarkibi meva va sabzavotlardan tashkil topgan bo`lishi kerak, keksalar ko`proq badantarbiya bilan shug'ullanishlari darkor. So`ngra yurish yoki yurishga kuchlari yetmasa, ot-ulovga minish foyda qiladi.

Keksalarning zaiflarini qayta - qayta uqalash lozim. Ular mo`tadil issiq xususiyatlari atir bilan ko`proq xushbo`ylanib yurishlari kerak. Uyqudan keyin ularning badanini yog` bilan silab yumshatish kerak, chunki bunday yog`lash hayotiy quvvatni uyg`otadi; undan keyin toza havoda yurish, otda sayr qilish foydalidir.

Keksalarni ovqatlantirish tadbiri

Keksa kishining ovqati oz-oz miqdorga ajratilib, hazm qilish va o`zining kuchli yoki kuchsizligiga qarab bir kunda 4-5 marta beriladi. Ertalabki asal bilan yaxshi pishirilgan non beriladi, tushga yaqin, hammomdan so`ng, ichni yumshatadigan, biz tubanda aytadigan mahsulotlardan beriladi. Undan keyin, kechga yaqin yaxshi oziq bo`ladigan ovqat yediriladi. Agar quvvatli kishi bo`lsa, kechki ovqati bir oz ko`paytiriladi. Tushlikda meva va sabzavotlarga boy ovqatlar buyuriladi. Kechqurun sut va sut mahsulotlaridan tayyorlangan ovqatlar tavsiya qilinadi.

Keksalar savdo va balg'am xiltini ko`paytiradigan har qanday g'aliz ovqatlar, nonxurish va dorivorlar kabi o`tkir, achchiq narsalardan saqlanishlari darkor! Lekin ularni davo o'rnila ehtiyojga qarab iste`mol qilishlari mumkin.

Agar keksalar o`zlariga munosib bo`lmagan ishni qilib, birinchi xil narsalardan, masalan, tuzlangan mahsulotlarni, quyoshda qoqlangan go`shtni, ov go`shtlarini yoki qattiq go`shtli baliqni, tarvuz va tarrakni yesalar, yoki ikkinchi xatolik, mayda qoq baliq va qovurilgan baliq kabilarni yesalar, xastalik yuzaga kelganda ularga zid tabiatli mahsulotlarni yeb davolanadilar.

Bu kishilarda, chiqindi borligi bilinsa, xiltni suyultiruvchi narsalar iste`mol qilish kerak bo`ladi. Ga`yritabiyy xiltlardan tozalanganlaridan keyin, keksalarga badanni ho`llovchi vositalar buyuriladi.

Keyin goh - gohida ovqat bilan birga suyultiruvchilardan oz-oz iste`mol qilish kerak. Sut ko`ngil tusab ichilganda va jigarning atrofida

yoki qornida taranglik, qichishish va og'riq paydo qilmasa, keksalarga juda yaxshi foyda qiladi, chunki sut g'izoli bo`lib gavdani ho`llaydi.

Keksa kishiga sutning eng muvofiqi echki va ot sutidir. Ot sutining xosiyatlaridan biri shuki, u ko`pincha me`dada ivib qolmay, tezda o`tib ketadi, ayniqsa, uni tuz va asal bilan qo`shib ichish yaxshi. Buning uchun echki va ot o`tloqlarini shunday saqlash kerakki, ularga kakra, achchiq, nordon yoki qattiq sho`r o`tlarni bermaslik kerak.

Keksalar yeydigan sabzavot va mevalar jumlasidan, ovqat tarkibida lavlagi, kashnich, karam, sholg`om kabi mahsulotlar bo`lishi kerak. Ularni murriy va zaytun yog'i bilan xushbo'y, xushxo'r qilib, ayniqsa, ovqatdan oldin ichni yumshatish uchun eydilar. Sarimsoq yeyishga odatlangan keksalar goho-goho sarimsoq yesalar foydalidir. Zanjabil murabbosi va issiqlik xususiyatiga ega murabbolarning ko`pi keksalarga yoqadigan davolardandir. Murabbolar gavdani qizitadigan va ovqatni hazm qiladigan miqdorda bo`lsin, badanni quritadigan miqdorda bo`lmasin. Ularni shunday miqdorda iste`mol qilish kerakki, ovqatlar gavdani ho`llovchi oziqlardan bo`lishi kerak. Ularni gavdani isitish uchun va hazm uchun iste`mol qiladilar; gavdani quritgunicha iste`mol qilish mumkin emas.

Keksalar iste`mol qilganlarida ichlarini yumshatib, gavdalariga yoqadigan mevalardan yozda anjir va olxo`ri, qish faslida asal suvi bilan qaynatilgan anjir qoqisi tavsiya qilish mumkin. Ularning hammasi ichlarini yumshatish uchun ovqatdan oldin yeyilishi kerak.

Keksalardagi tiqilmalarни ochish to`g'risida.

Agar keksalarda tiqilmalar paydo bo`lsa, ularning eng yengili sharob ichishdan paydo bo`ladi. Keksalarga saryog' juda foyda qiladi, ayniqsa tiqilmalar paydo bo`lgan vaqtida. Asalli sharobni ist`emol qilish ham keksalarga foyda qiladi va u tiqilmalarni ochadi, bo`gimlarda ogriq paydo bo`lishini oldini oladi.

Biror a`zoda tiqilma borligi sezilsa yoki siydik chiqarish a`zosida tiqilmaga moyillik sezilsa, asalli sharobga kashnich urug'i va ildizini qo`shib, siydik chiqarish a`zolari xastaliklarini davolash uchun ichiriladi. Agar tiqilmalar o`pka yo'llarida bo`lsa, sunbulsoch, seylon dorchini va shunga o`xshash narsalar qaynatib beriladi.

Keksalarни uqalash to`g'risida

Uqalash miqdor va kayfiyatda o`rta darajada bo`lib, kuchsiz a`zolarga va siyidik qopchasiga tegmasligi kerak. Agar uqalash bir necha marta takrorlansa, har safar dag'al mato bilan yoki qo`lning o`zi bilan ishqalash lozim. Bu muolaja albatta bemorga foyda qiladi va a`zolarni kasallikdan saqlaydi.

Keksalarning badan tarbiyalari to`g'risida.

Keksalarning badantarbiyalari a`zolarining turli hollariga, ularga odat bo`lib qolgan ba`zi kasalliklarga va badantarbiyadagi odatlariga qarab turlicha bo`ladi. Agar a`zolari juda mo`tadil bo`lsa, ular uchun mo`tadil badantarbiyalar muvofiq keladi. Agar biror a`zolari eng yaxshi holda bo`lmasa, uning badantarbiyasini boshqa a`zolar badantarbiyasiga tobe qiladilar; masalan, birovda bosh aylanishi, tutqa yoki yomon xiltlarning bo`yinga quyilishi yuz bersa, shunda bug'lar boshga va miyaga ko`tariladi, u kishilarga boshni engashtiradigan va quyi tashlatadigan badantarbiyalar to`g'ri kelmaydi. Ular yurish, chopish va ot minish bilan badantarbiya qilmoqlari va gavdaning quyi yarmiga tegishli badantarbiyalarni qilmoqlari kerak.

XII.Tishlarni sog'lomlashtirish tadbiri haqida

Tishlar haqida: tishlar sezuvchi suyaklar turkumiga kiradi, chunki ularga nerv tolalari kelib tarqaladi. Tishlar og'riganda ularda lo`qillash paydo bo`ladi, bu sezilib turadi. Tishlarda bo`shashish, qimirlab turish, bo`rtib chiqish, emal qavatining yemilirishi (tishlar kariyesi) kasalliklari kuzatiladi. Bundan tashqari chirish va sinish kasalliklari paydo bo`ladi. Tishlar doimo o`sib, kattalashib turadi, sug'urib olingan yoki tushib ketgan tish o`rniga ro`parasida turgan tish uzayib o`sib ketadi , agar uning kattalashishiga va o`sishiga to`sinqinlik qilinmasa.

Tishlarning rangiga qarab mizoji aniqlanadi.

- 1.Sariq bo`lsa - safro mizoqli, ya`ni quruq
- 2.Oq bo`lsa- balg'am mizoqli, ya`ni ho'l
- 3.Qoramtil bo`lsa - savdo mizoqli, ya`ni sovuq - quruq

Tishlarni sog' saqlash uchun quyidagilarga amal qilish kerak

- 1.Ovqat va ichiladigan narsani me`dada ketma-ket buzilishidan saqlash kerak
- 2.Qusish, ayniqsa nordon quisish zararli
- 3.Yopishqoq narsani chaynashdan saqlanish kerak (holva, jevachka)

- 4.Qattiq narsani tish bilan sindirishdan (danak chaqish)
- 5.Tishni qamashtiruvchi narsadan saqlanish (dovcha, xom olma)
- 6.Juda sovuq narsadan, ayniqsa issiq ovqatdan, choydan keyin sovuq suv ichishdan
- 7.Tishlar orasidagi narsani doimo tozalash kerak (tishni chuqr kovlamaslik kerak)
- 8.Gandano kabi o`z xususiyati bilan tishlarga zarar yetkazadigan narsalardan saqlanish kerak

Tishlarni tozalaydigan maxsus cho`plarning burishtirish va achchiqlik xususiyati bor (misvoq cho`plar)

Tishlarni uqlash oldidan yog'lab turish kerak. Tishlarni mizojini sovitish kerak bo`lsa, gul yog'i bilan isitish kerak bo`lsa, bom va rum sumbulining yog'i ishlatiladi. Eng yaxshisi tish mizoji sovuq bo`lsa, asal bilan ishqalash kerak, yoki kamroq bo`lsa shakar bilan ishqalash kerak. Tishlarni asal va shakar bilan ishqalansa tishlar yaltiraydi, tishlarni milkarga mustahkamlaydi, (qimirlaydigan tishlarni) baquvvat qiladi, isitadi va tozalaydi. Novvotni yanchib asal bilan aralashtirib ishlatilsa, tishlarni yaltiratadi, tozalaydi va milkni mustaxkamlaydi. So`ngra yog'lash kerak bo`ladi. Har kuni kechqurun 1 marta namakob bilan og'iz chayilishi kerak.

Mavzu savollari

- 1.Sog'likni saqlash tadbirlari shartlari nechta va qaysilar?
- 2.Kishini mizojini mo'tadil qilish tadbiri haqida tushuncha bering.
- 3.Ovqatlanish tadbiri haqida tushuncha tushuncha bering.
- 4.Uyqu va uyg'oqlik tadbiri haqida tushuncha bering.
- 5.Tanqiya haqida tushuncha tushuncha bering.
- 6.Tarbiya haqidagi tadbir, bolalarda uchraydigan kasalliklar, ularni davolash to'g'risida tushuncha bering.
- 7.Yil fasllariga qarab havoni sog'lomlashtirish tadbiri to'g'risida tushuncha bering.
- 8.Badantarbiya tadbiri haqida tushuncha bering.
- 9.Tishlani axvoli va unga tegishli kasalliklar haqida tushuncha bering.

II BOB. IBN SINO TA'LIMOTIDA DAVOLASH USULLARI.

2.1. §. Bemorlarni sharqona tabobat uslubida parvarish qilish. Hammom, tuz, qum ta`siri: ko`rsatma va monelik.

Hammomning tabiiy ishi odamni o`z havosi bilan qizdirishi va o`z suvi bilan qo`llashidir. Hammomning birinchi xonasi sovituvchi va ho`llovchi bo`ladi, ikkinchisi qizdiruvchi va ho`llovchi, uchinchisi qizdiruvchi va qurituvchi bo`ladi. Agar hammomning suvi juda issiq bo`lsa, teri teshiklarini toraytiradi va natijada namlik badanga o`tmaydi, bunda ularning erib tarqalishi ham yaxshi bo`lmaydi. Hammomning suvi ba`zan qizdiradi, ba`zan esa sovitadi.

Agar suvning issiqligi qaynoqlikka yaqin bo`lsa, bunday suv o`z issiqligi bilan qizdiradi. Agar suv kam isigan bo`lsa, sovitadi va ho`llaydi. Bu holat sovuq suv bilan huqna qilinganda ham bo`ladi. Chunki huqna gavdaga sovuq holda kirsa, hammom havosidan olinadigan issiqlikni kamaytiradi va uni ichki a`zolarga to`playdi. Hammom ba`zan xiltlarni eritib tarqatish bilan qizdiradi. Agar hammomga tushgan kishida ovqat hazm bo`lmagan bo`lsa va unda birorta sovuq va yetilgan xilt bo`lsa, hammom buni hazm qilib yetiltiradi.

Ba`zan quruq hammom qabul qilinadi, chunki u quritadi va isitadi, bo`sh badanli kishilarga foyda qiladi, ba`zida esa ho`l hammom qabul qilinadi, u tanani ho`llaydi. Ba`zida hammom nahorda va bo`sh me`daga qabul qilinadi, shunda u gavdani juda quritib ozdiradi va zaiflashtirib yuboradi.

Ba`zan esa hammom to`yishdan sal o`tgandan keyin qabul qilinadi. Shunda u moddani gavdaning sirtiga tortish bilan semirtiradi, lekin u a`zolarga me`da va jigardan hali yetilgan ovqatni tortish bilan tiqilmalar paydo qiladi. Ba`zi vaqtda birinchi hazmning oxiri va me`da bo`shashidan oldin iste`mol qilinadi. Bu foydali bo`lib, mo`tadil darajada semirtiradi.

Hammomning ko`p foydali tomonlari bilan birga zararli tomonlari ham mavjud.

U zaiflashgan a`zolarga chiqindilarning quyilishini osonlashtiradi. Badanni bo`sashtiradi, asabga zarar etkazadi, tug'ma issiqlikni tarqatadi, ishtahani pasaytiradi va jinsiy aloqa quvvatini zaiflashtiradi.

Hammom o`zidagi suvlarga qarab turli fazilatlarga ega bo`ladi. Agar suvga tabiiy ravishda soda aralashgan bo`lsa yoki u dengiz suvi bo`lsa, yoki unda kul muddasi bo`lsa, yoki u sho`r bo`lsa, bunday suv muddalarni eritib tarqatadi va yumshatadi. Tana g'ovakligini va semizlikni yo`qotadi. Moddalarning yaralarga quyilishiga yo`l qo`ymaydi va rishta kasalligiga duchor bo`lganlarga foyda qiladi.

Misli, temirli va sho`r suvlar sovuq va ho`l kasalliklarga, bo`g'im og'riqlariga, bo`shashishga, buyrak kasalliklariga foyda qiladi. Singan joylarning bitishini kuchaytiradi. Yiringli shishlar va turli yaralarga ham foyda qiladi. Misli suvlar og'iz yaralariga, tilchadagi chiziqlarga, ko`z qovog'inining tushishiga, qulqidan yiring oqishiga foyda qiladi. Temirli suv esa me`da va taloqqa foyda qiladi.

Achchiq toshli suvlar isitib cho`milganda qon tupurish, bavosir, hayzdagi qon ketish, sababsiz bola tashlash va haddan tashqari ko`p terlashga foyda qiladi. Oltingugurtli suv esa asablarni tozalaydi, tortishish va tirishishdagi og'riqlarni bosadi, gavda sirtini yomon va uzoqqa cho`ziladigan yaralar va toshmalardan, yomon dog'lardan, sepkildan tozalaydi.

Bo`g'im xastaliklarida, taloq va jigarga quyiladigan chiqindilarni tarqatadi, bachadon qattiqligiga foyda qiladi, lekin me`dani bo`sashtirib, ishtahani kamaytiradi. Issiq quyoshda badanni qizdirish xususan u tez yurish va chopish kabi kuchli harakatlar vaqtida bo`lsa, chiqindilarni kuchli ravishda eritib tarqatadi, terlatadi, qorin ko`pchishini yo`qotadi, gavda bo`shashgandagi va istisqodagi shishlarni tarqatadi.

Agar tana quyoshdan ta`sirlansa, dag'allashadi, qurib yoriladi va qorayadi, shunda tana teshiklarining og`zi go`yo kuyadi va tarqalishiga yo`l qo`ymaydi. Quyoshda bir joyda o`tirib toblanish, ko`chib yurishga qaraganda terini kuchliroq kuydiradi. Bunda muddalarning tarqalishiga qarshilik ko`proq bo`ladi.

Teri atrofidagi namliklarni ko`proq quritadigan qumlar dengiz qumlaridir. Ba`zan u issiq bo`lsa, unda o`tirish, ba`zan esa badanni

ko`mish mumkin bo`ladi. Zaytun yog'i uzoq cho`ziladigan sovuq isitmalarga foyda qiladi.

Mavzu savollari

1.Sharqona tabobat usulida parvarish qilishning ahamiyati haqida tushincha berish

2.Qon olish usullari haqida tushincha

3.Qon olishga ko`rsatma va moneliklar haqida tushuncha tushuncha bering.

4.Hammom tushurishga ko`rsatma va moneliklar haqida haqida tushuncha tushuncha bering.

5.Tuz bilan davolashga ko`rsatma va moneliklar haqida tushuncha tushuncha bering.

6.Qum bilan davolashga ko`rsatma va moneliklar haqida tushuncha tushuncha bering.

7.Qon olinadigan asosiy tomirlar haqida tushuncha tushuncha bering.

8. Hammomning xonalari, ahamiyati haqida tushuncha tushuncha bering.

9.Qon olish uchun kerakli asbob –uskunalar haqida tushuncha tushuncha bering.

2.2. §. Ibn Sino ta`limotida umumiyl davolash usullari.

Odatda, kasallikni davolash asosan 3 narsa bilan tugal bo`ladi:

1) tadbir va oziqlantirish

2) dorilarni iste`mol qilish

3) qo`l bilan bajariladigan ishlar

Tadbirning bir qismi bo`lgan ovqatlanishning miqdori jihatidan o`ziga xos tartiblari bor, ya`ni kasallikning turiga qarab, ovqatlanish tartibi belgilanadi. Bunda ovqat miqdori ayrim kasallikkarda kamaytiriladi, o`rtacha qilinadi, ko`paytiriladi yoki aksincha, ayrim kasallikkarda man qilinadi. Masalan: bemor organizmidagi xiltlarni yetiltirish uchun ovqat man etiladi. Agar shu bilan birga quvvatni saqlash maqsadi ham ko`zda tutilsa, ovqat kamaytiriladi.

Ovqat miqdori 2 jihatdan kamaytiriladi, ya`ni: miqdor va kayfiyat (sifat) tomonidan. Miqdor va kayfiyat o`rtasidagi farq shuki, goho ovqat miqdori ko`p bo`lib, g`izoligi (ozuqaligi) kam bo`ladi. Masalan: sabzavot

va mevalarni ko`p miqdorda iste`mol qilish kayfiyatni ko`paytirmaydi, yoki ovqat miqdori oz bo`lib, ozuqaligi ko`p bo`lishi mumkin, ya`ni: tuxum, go`sht mahsulotlari. Ovqatlar ozuqali bo`lishi jihatidan yana 2 xususiyatdan iborat:

1) Hazm jarayonining tezligi: kuchayishi (sharoqlar), yoki sekinlashishi (qovurilgan go`sht)

2) Ozuqalilik nuqtai nazaridan: tanada kam oquvchan quyuq qonning paydo bo`lishi (cho`chqa yoki buzoq go`shtidan tayyorlangan ovqat); tanada tez tarqaluvchi suyuq qonning paydo bo`lishi (sharob, anjir kabi mahsulotlar)

Tanada tiqilmalar borligini aniq bilsak, bunday bemorlarga doimo yengil ovqatlar buyurish lozim. Aksincha, kishi gavdasini baquvvat qilib kuchli badantarbiyaga tayyorlamoqchi bo`lsak, ularga ozuqaligi kuchli va hazmi sekin kechuvchi ovqat mahsulotlarini buyuramiz.

Sharq tabobatida bemorlarni davolash uch bosqichda olib borilgan:

I - bosqichda xastalik sababi aniqlangan va uni to`laqonlik davolashga tayyorlagan.

II - bosqichda bemor tanasi xastalikka sabab bo`lgan xiltlardan tozalangan, ya`ni tanqiya qilingan.

III - bosqichda tanqiya qilingan bemorga parhez taomlar bilan birga davoli ozuqa yoki ozuqali davo buyurilib, parvarish qilingan.

Tanqiya qilish – g`ayri tabiiy xiltdan tanani to`liq tozalashdir. Tanqiya so`zi forscha tildan olingan bo`lib, "tozalash" ma`nosini bildiradi, tanani tanqiya qilish uchun musxil va mulayyin darmonlardan foydalaniladi.

Organizmni bo`shatilishiga (istifrog' qilish) 10 ta holat dalil bo`ladi:

1.To`lib ketish (imtilo)

2.Quvvat

3.Mizoj

4.Munosib holatlar

5.Tashqi ko`rinish

6.Yosh

7.Fasl

8.Shahar iqlimining xususiyatlari

9.Bo`shatilishga odat qilinganligi

10.Kasbi

Shu bo`shatilishga teskari dalillar bo`lsa, bo`shatish man qilinadi. Badanning bo`shligi va shuningdek, uch quvvatdan qaysi biri bo`lsa ham, birining zaifligi bo`shatishni albatta man qiladi.

Issiq quruq mizojda bo`shatish man qilinadi. Sovuq ho`l mizojda ham issiqlikning yo`qligi yoki kuchsizligi tufayli bo`shatish man qilinadi. Ammo, issiq ho`l mizojda organizmni bo`shatishga keng ruxsat beriladi. Kishi juda ozg'in, badani g'ovak va bo`sh bo`lsa dori bilan tadbir qilishning va sovuq ham ho`llik tomoniga olib boradigan yaxshi qon paydo qiluvchi narsalar bilan ovqatlantirish kerak.

O`ta ketgan semizlikda ham bo`shatish man qilinadi, bunda sovuqning ustunlik qilish xavfi va go`shtning tomirlarni siqishi va bo`shatish vaqtida ularni bekitish xavfi bor. Bunday vaqtida issiqlik kamayib qoladi yoki chiqindilar ichki a`zolarga quyiladi. Qattiq issiq va qattiq sovuqda ham bo`shatish qilinadi. Janub tomonda bo`lgan juda issiq mamlakatlarda ham bo`shatish man qilinadi, chunki surgi dorilarning ko`pchiligi issiqlik bo`lib, ikki issiqlikning va tortuvchining birga kelishiga chidab bo`lmaydi, bu holda quvvatlar kuchsizlanadi. Tashqaridagi issiq sirtga, dori esa ichga tortadi, natijada qarama - qarshi tortishuv bo`lib, xilt o`z joyida turib qoladi. Shimol tomonning qattiq sovuq va bo`shatilishga kam odat qilinganlik uchun ham bo`shatishni man qiladi.

Ko`p terlash bilan aloqali bo`lgan kasb, masalan hammom xodimi va hammollik va umuman og'ir mehnat bilan aloqador boshqa kasblarda ham bo`shatish ham man qilinadi.

Har bir bo`shatishda quyidagi besh narsani nazarda tutish kerak bo`ladi.

1.Bo`shatilishga lozim bo`lgan narsani chiqarish. Bu xil bo`shatilishdan keyin, albatta inson rohatlanadi, lekin rohat sezilmasa, bo`shalish orqasidan ichaklarning charchashi, issiqlik qo`zg'alishi, bir kunlik isitma yoki boshqa kasallikning paydo bo`lishi kuzatiladi. Masalan, surgidan ichaklarning shilinishi va siydk haydovchi doridan qovuqning yaralanishi kabi kasalliklar paydo bo`ladi. Natijada bunday

bo`shalish foyda qilsa ham u sezilmaydi. Lekin bu holatlar tezda yo`qolib ketadi.

2. Qaysi tarafdan bo`shatish kerakligini o`ylash kerak, masalan ko`ngil aynishda o`sirish bilan va ichak og`rig`ida surgi bilan tozalanadi.

3. Bo`shatiladigan (narsa) chiqadigan joyda turuvchi a`zoni aniqlash kerak. Masalan: jigar kasalliklarida o`ng qifol emas, balki o`ng boshliq tanlanadi. Chunki hammom yomon xiltni sirtga tortadi. Hammom qishda ich surishga yordam beradi.

4. Bo`shatish vaqtini bilish zarur .

5. Gavdadan chiqariladigan modda miqdorini belgilash. Bu esa yomon xiltlarning qancha ekanligi, kishining quvvatini va bo`shatishdan keyingi yuzaga keladigan holatlarni ko`zda tutish bilan hosil bo`ladi.

Ichni surish va uning qonuniyatları

Surgi dori iste`molidan ilgari sovuq mizojli kasallikkarda dorini qabul qilishga gavdani tayyorlash, teri teshiklarini kengaytirish va tabiatni yumshatish zarur.

Ichaklarda quruq cho`kmalar bo`la turib surgi ichish xavfli ishlardandir. Ularni ich surishdan avval huqna qilish bilan bo`lsa ham yoki suyultiruvchi – sirg`antiruvchi narsa yordamida bo`lsa ham chiqarish zarur bo`ladi. Agar biror boshqa qarshilik qiladigan narsa bo`lmasa, surgidan bir necha kun ilgari hammomga tushish ichni suyultirib, kishini ich surishga tayyorlovchi yaxshi narsalardandir.

Surgi ichgandan keyin hammomga tushilmaydi. Chunki hammom yomon xiltni sirtga tortadi. Surgi ichuvchi kishining atrofidagi havo terlatmaydigan, betoqat qilmaydigan darajada bir oz issiqqa yaqin bo`lishi zarur. Uqalash, yog` bilan ishqalash ham surgi ichishga tayyorlovchilardandir.

Ilgari dori ichmagan kishiga kuchli surgi ichirishga shoshilmaslik kerak. Me`dasi buzilgan, yopishqoq xiltlari bor, qovurg`alarining ko`miklari tagida tortishish bor kishining va ichki a`zolarida alanganish va tiqilma bor kishining to o`sha kasalliklari tuzalguncha surgi ichish kerak emas.

Turib qolgan suvni ichuvchilar va talog`i kasal kishilar kuchli surgiga muhtoj bo`ladilar. Kuchli surgi ichgan kishi dori amal qilishidan oldin

uxlashi, kuchsiz surgi ichgan kishi esa uxlamasligi yaxshiroq. Dori ichganda tinch turish kerak, toki tabiat uni o`rab unga ta`sir qilsin. Agar surgi ichishda hididan nafrat qilsa, burun teshiklarini bekitish kerak.

Qaynatilib tayyorlangan suyuq surginining iliq holda ichilishi va surgi habning iliq suvda ichilishi kerak. So`ng dori ichgan kishining me`dasi va oyog'i issiq tutilishi kerak. Dori ichib ko`ngil tinchigach turib oz-oz harakat qiladi, vaqtiga bilan issiq suv ichib turiladi.

Yozning issig'ida surgi qiluvchilarining ko`pi isitma kasalligiga uchraydi.

Dori ichuvchining me`dasi safroli bo`lib, unga safro tez quyilib tushishi sababli yoki ovqatdan saqlashni va ochlik zamoni uzaygani sababli, me`dasi yemay turishga chidamasa, u kishiga dorini ichirib, ich surishdan ilgari bir oz sharobda ivitilgan non yediriladi.

Qaynatmalar bilan ichilishi zarur bo`lgan xablarni o`zlariga hamjins qaynatmalar bilan ichish kerak. Masalan: safroni suruvchi xabni shaxtara qaynatmasi bilan, savdoni suruvchi xabni devpechak va chilpoya kabi qaynatmalar bilan ichish zarur.

Surgi dori ichirilganiga ancha vaqt o`tsa ham, ichni surmaganda, mumkin qadar dori yengillatiladi va bemor qo`zg`atilmaydi.

Falaj va sakta holatidagi kishilarda dorilarning kerakli joyga borib turishdagi yo`llari tor bo`lib, ich surish ularda qiyin bo`ladi.

Bir kunda ikki xil surgi iste`mol qilish xatarli va noto`g`ridir.

Surgi dori iste`mol qilgan kishi ikkinchi kuni hammomga tushmog'i kerak. Shu vaqtda xiltlardan qoldiq qolgan bo`lsa tozalanadi.

Surgi dorini bahorda yoki kuzda ichish kerak. Sirius yulduzining chiqish vaqtiga, tog'da qor tushgan va qattiq sovuq vaqtiga surgi ichish vaqtiga emas.

Ich surish tomirlarning zaifligi, tomirlar teshigining kengligi, surgi dorining tomirlar teshigini achishib kuydirishi, ich surishdan yoki o`rnini bosuvchi biror narsadan badandagi mizojning buzilishi sababli ortiq darajaga yetib boradi. Ichni surish juda oshib ketsa, ho'l va oyoqlarni yuqorida pastgacha, qo`ltiqdan va son boshidan quyigacha bog'lab tushish kerak. U kishiga bir oz taryoq va filuniyo ham ichirish lozim. Mumkin bo`lsa, hammomda yoki kiyimlarga o`rab, suv bug'i bilan terlatiladi.

Bemorga rayhon suvi, sandaldan, kofurdan, mevalardan siqib olingan suvlardan tayyorlangan laxpaxalar beriladi. Kasalning sirtqi a`zolarini uqalash, alanga yordamida qo`yiladigan qortiqlar bilan qizdirish kerak.

Surgi dori surmasa, kasalning ichi burab og`risa, tabiatini buzib, uni bezovta qilsa, boshini og`ritsa, kerishish va esnash paydo qilsa, huqnaga va ma`lum ko`tariladigan dorilarga murojat qilish kerak bo`ladi; bunda uch ko`ram mastakini iliq suv bilan ichirish lozim. Ko`pincha dori ustidan burishtiruvchi narsalarni ichish, behi va olma kabilarni yeish dorining kuchini oshiradi. Chunki ular me`da og`zini va uning tubini qisadi, ko`ngil aynishini bosadi, dorini yuqoridan pastga yurgizadi va tabiatini kuchaytiradi. Agar huqna foyda bermay yomon holatlar, ya`ni badan tortishishi, ko`zning kosasidan o`ynab chiqishi kabilar paydo bo`lsa, dorining harakati yuqoriga bo`lsa, albatta tomirdan qon olish kerak.

Surgilarning xususiyatlari

Ba`zi surgilar zarar yetkazadi. Masalan: qora xarbaq, yaxshi oq bo`limgan balki sariq jinsdan bo`lgan turbit, holi sof bo`limgan, balki qoraga moyil daraxt po`kagi va mozariyunlar yomon dorillardandir.

Goho ikki xil dori birga qo`shib ishlatiladi. Bulardan biri o`ziga maxsus bo`lgan xiltini tez so`ruvchi, boshqasi sustroq so`ruvchi bo`ladi, ikkinchisi ishni boshlashidan oldin birinchisi ishdan qutiladi va goho ikkinchisining o`ziga xos xiltini ta`sirini buzib, uning quvvatini sindiradi. So`ngra ikkinchisi ish boshlasa, quvvati zaif bo`lib, xiltlarni qo`zg`atish yetarli bo`lmaydi. Shuning uchun uning ta`sirini tezlashtiruvchi narsa qo`shish zarur bo`ladi. Masalan: turbitga zanjabil qo`shiladi.

Kuchli surgi dorilarning ko`pchiligida bir miqdor zararli ta`sir bo`lib, bemor tabiatini majbur qilib ichni suradi. Goho achchiqlik, to`liq va o`tkirlik, burishtiruvchi ta`sir va nordonlik surgi dorining xususiyatiga mos kelsa, o`sha dorining ishiga yordam beradi.

Qaytning ishlatilishi afzal bo`lgan holatlar:

Istisqo, tutqanoq, melanxoliya, moxov, niqrис, irqunnaso kabi cho`ziladigan, tuzalishi qiyin kasalliklardir. Qaytdan keyin tomirdan qon oldirish kerak emas. Xilting suyuqligi sababli, ko`pincha qayt qilish qiyin bo`ladi, Shunday vaqtda anor donining talqonini yeb xiltni

quyiltirish kerak bo`ladi. Qayt tana uchun foydali, ko`z uchun zararlidir. Homilador xotinni qayt qildirmaslik kerak. Qayt qilishdan qutilgach sirka bilan suv aralashtirilib og`zini va yuzini yuvish kerak. Buqrot, kishilarni bir oyda ikki - uch kun ketma - ket qayt qilishga buyuradi. Shunda bиринчи kunda ozroq, qiyinchilik bilan bo`lgan qaytni ikkinchi kundagisi tugallaydi va me`daga tortilgan moddalarni chiqarib tashlaydi. Bunday qayt shilliq safroni chiqarib, me`dani tozalaydi. Qayt me`daning yog`li narsalardan nafrat qilinishini, sog`lom ishtahaning yo`qligini achchiq, nordon narsalarni tilashini ketkizadi. Qayt moxov kasalligi, rang yomonligi, me`da tutqanog`i, sariq kasali, qaltirash kasali va falaj kabi xastaliklar uchun yaxshi davodir.

Huqna to`g`risida

Huqna ichaklardan chiqindilarni chiqarishda, buyrak va qovuqdagi og`riq va shishlarda, qulanj kasalliklarida, yuqorigi boshqaruvchi a`zodan chiqindilarni tortishda juda yaxshi davodir. Lekin, o`tkir huqna dorisi jigarni kuchsiz qilib, isitma paydo qiladi. Bo`shashishdan qolgan qoldiqlarni chiqarishda ham huqna yordam qiladi.

Huqna qildiruvchi kishi chalqancha yotishi zarur. Huqna uchun eng yaxshi vaqt havoning salqin vaqtiga, hammom xiltlarni qo`zg`atadi va ularni taqsimlaydi, huqna esa to`xtab qolgan xiltlarni tortadi, shuning uchun huqnadan oldin hammom qabul qilish mumkin emas.

Ichaklarda shish yoki yara bor bo`lib, isitma yoki boshqa bir kasallik sababli huqnaga muhtojlik tug'ilgan kishi, huqnaning to`xtab qolishidan, atrofini qizdirilgan tariq bilan isitish kerak.

2. 3.§. Qon olish uslublari, texnikasi, qon olinadigan tomirlar.

Ko`rsatma va qarshi ko`rsatma, qon olish haqida

Qon olish mo'llikni chiqarib tashlaydigan umumiy bo`schatishdir. "Mo'llik" esa tomirlardagi xiltlarning o`z me`yoridan ortib ketishdir. Ikki xil turdag'i kishilardan qon olish kerak, ulardan biri qoni ko`payib ketganda, kasalliklarga beriluvchan kishilar, boshqalari esa kasal bo`lgan kishilardir.

Irqunnasoga va qonli niqrисга mubtalo bo`lgan bo`g`imlari qon tufayli og`riydigan, qon ko`payib ketganda yupqa qatlamlı o`pka

tomirlarining yorilishi natijasida qon tuflaydigan kishilarni kasallikka moyil deb atash mumkin.

Issiq mizojga ichki a`zolarida zaiflik yuz beradigan kishilardan garchi ular bunday kasal bilan og'rimagan bo`lsalar ham, bahor paytida qon olish yaxshiroqdir. Zarba yegan yoki yiqilgan kishilardan esa, ularda shish paydo bo`lishidan ehtiyot qilish uchun qon olinadi.

Kasallik xavfi ro`y berishi bilanoq qon olish mumkin, ammo odam kasallanib qolgan bo`lsa, qon olishni dastlab butunlay to`xtatish kerak, u chiqindilarni suyultiradi va ularni qon bilan aralashtirib gavdaga yurgizadi. Agar kasallik davom etayotganda bir necha buxronlar bo`lsa, ko`p qon olish mumkin emas. Agarda ko`pdan beri qon oldirmagan odam qish paytida qoni ko`pligidan shikoyat qilsa, unda ehtiyot uchun bir oz qoldirib, qon olish kerak. Qon olish qonni aks tomonga tortadi va ko`pincha ichni to`xtatadi. Qon ko`p olish natijasida kuchlar bo`shashib ketsa ko`p xiltlar paydo bo`ladi: dastlab qon olishda xushdan ketish mumkin, quşish qon olishni ta`qiqlovchi belgidir. "Torgina tilib" qon olish kasalning kuchlarini yaxshiroq saqlaydi, ammo u goho toza qonni chiqarib, quyuq va loyqa qonni ushlab qoladi. "Keng tilib" qon olishga kelsak, u tezroq hushdan ketishga olib keladi va tozalamoq yaxshiroq ta`sir ko`rsatadi. Uning yarasi sekin bitadi.

Muolaja vaqtida chalqancha yotish kerak, chunki bu kuchni saqlaydi va hushdan ketkazmaydi. Chiqayotgan qonning qanday rangda ekanini kuzatib turish zarur, agar u suyuq va oqimtir bo`lsa, darhol qon olishni to`xtatish kerak. Kasalda safro va savdo xiltlarining qo`zgalishiga oid hodisalar kelib chiqishi kerak.

Sovuq mizojli kishilardan, sovuq mamlakatlarda qattiq og'riq chog'ida xiltlarni tarqatadigan hammomdan keyin va jinsiy aloqadan keyin, o'n to'rt yoshdan kichik davrda imkon boricha keksalikda mumkin qadar qon olishdan saqlanish kerak. Gavda juda og'ir yoki juda semiz bo`lsa, me`da ovqat bilan to`la bo`lsa, och qorinda qon olish man etiladi.

Ba`zan burundan, bachadondan, orqadan, ko`krakdan yoki ba`zi yaralardan qon ketishni to`xtatish uchun qonni qarshi tomonga tortib, tomirlardan qon oladilar, bu juda kuchli va foydali davolashdir, kesik juda tor bo`lishi kerak.

Umuman, qonning miqdorini oshirgandan ko`ra qon olishning sonini ko`paytirish kerak. Qon olishda og`riq qonga zo`r bo`lsa, kesik shunchalik sekin bitadi. Ikkinchi marotaba qon olish paytida ko`p bo`shatish agar qon oldirayotgan kishi biror narsa yemagan bo`lsa, hushdan ketishga olib keladi.

Birinchi va ikkinchi qon olish orasidagi uyqu xiltlarning gavda ichida tortilishi natijasida o`sha yoqqa tortiladigan chiqindilarning qon bilan birga tashqariga chiqishiga imkon bermaydi. Ikkinchi marta qon olishning foydalaridan biri shundaki, u qon oldiruvchining kuchlarini saqlaydi va zarur bo`lgan to`la bo`shatishni amalga oshiradi. Takror qon olishning eng yaxshisi 2 kundan keyingisidir.

Qon olgandan so`ng, to`yib ovqatlanish jismoniy mehnat, hammomga tushish mumkin emas - aksincha chalqancha yotish kerak.

Gavdasini xiltlar egallab olgan kishi qon oldirsa, bu xiltlarning qo`zg`alishiga sabab bo`ladi, bu xiltlar gavda bo`ylab oqadi, aralashib ketadi, bu esa ketma - ket qon olishga majbur etadi.

Savdoli qon bir necha marotaba takror qon olishga majbur qiladi va kasal ahvoli shu ondayoq yengillashadi. Keksalarda bu saktani keltirib chiqaradi.

Qon olinadigan tomirlarning ba`zilari vena, ba`zilari arteriya tomirlaridir.

Arteriyadan ahyonda qon oladilar, chunki qon ketish xavfi mavjud. Kesik kichik bo`lsa, bu anevrizmani keltirib chiqaradi. Qon olinadigan ho`l tomirlari 6 ta: qifol, akxal, bosliq, tirsak, qutqaruvchi va qo`ltiq osti venasi deb ataladi. So`nggi 3 ta venali tirsak ichki tomonidan ochish kerak, sizilib oqqanidek yaxshi oqib chiqsin, asab va arteriyaga tegib ketish xavfi bo`lmisin, qon olish vaqtida uzunasiga qilingan kesik juda sekin bitadi.

Qon olish paytida issiq mizojli odamlarda, qotma va g`ovak gavdali kishilarda ko`proq hushdan ketish yuz beradi, mo`tadil gavda va pishiq go`shtli kishilarda bu hol kam bo`ladi.

Qon oluvchi tabibda turli xil nashtarlar bo`lishi kerak. Kipli nashtar siljiydigan tomirlar, bo`yinturuq venasiga yaxshi qo`llaniladi. Shuningdek, pishiq yoki xom ipakdan ishlangan koptoklar, qayt qildirish uchun kaltakcha va pat bo`lishi kerak. Hushdan ketish qon

olish paytidagi eng yomon hollardandir va kasal bu vaqtda goho o`ziga kelmaydi. Bunday holatda tabib tezroq ichak koptokni kasalning og`ziga quyishi va o`z asbobi bilan uni qayt qildirish unga mumkin dorili xaltachani hidlatishi va ozgina (mushkli) dori yoki kulchani yotqizishi kerak – shunda kasalning kuchi bir oz jonlanadi. Qon hali chiqib turganida hushdan ketish ham bo`ladi. Doimiy isitma, saktaning boshlanishida, anginalarda katta halokatli shishlar va qattiq og`riq paytida hushdan ketishning yaqinlashishiga ahamiyat bermaslik kerak.

Oyoq tomirlariga quymich venasi kiradi. Uni tashqi tomondan tovon yonidan yoki yuqoriroqdan son va tovon o`rtasidan ochadilar va latta yoki bog`ich bilan bog`lab qo`yadilar. Yaxshisi, oldin oyoqni suvda isitish kerak, venani uzunasiga ochish to`g`ri bo`ladi. Agar vena ko`rinmasa, beshinchи va to`rtinchi barmoqlar o`rtasidan shaxobchasi ochiladi.

Niqrис, vena kengayishi, fil kasalligi, quymich asabi og`riganda qon olishning foydasi katta. Tovonning ichki tomonidan o`tadigan oyoq teri osti venasi ham shundandir, uni jigardan quyida joylashgan a`zolarni, qondan bo`shatish va qonni yuqoridan quyiga yuborish uchun ochadilar. Oyoq tomirlaridan qon olish, boshga yo`nalayotgan moddadan kelib chiqadigan va savdodan chiqadigan kasalliklar chog`ida foydalidir. Bosh tomondagi tomirlarga bo`yinturuq venani qiyasiga ochish kerak.

Qon olayotganda nashtarning uchi teri ostiga kirib borishi zarur.

Qortiq qo`yib qon olish teri atroflarini nashtar urib tomirdan qon olishga nisbatan yaxshiroq tozalaydi. Bunda quyuq qondan ko`ra, suyuq qonni ko`proq chiqaradi. Oy boshida qortiq qo`yib qon olish buyurilmaydi. Chunki bu vaqtda xiltlar harakat qilgan va dumg`azaga, ikkala son old tomoniga, tizzaning pastrog`iga, tovon, ko`krak sohalariga qortiq qo`yib qon olinadi.

Og`riqni to`xtatish uchun qortiq qo`yiladi. Tilish chuqur bo`lishi kerak, shunda chuqurdagi qonni tortadi. Ba`zan qortiqqa yopishadigan joy shishib, qortiqni chiqarib olish qiyin bo`ladi, shunda bir parcha latta issiqroq suv bilan isitilgan. Qortiq qo`yib qon olinadigan joy yog`langanda qortiq solinadi. Birinchi marta yengilgina qo`yib tez olinadi. Keyin esa qortiq ushlab turiladi va uzoq vaqt tutiladi. Bemor bir soatdan keyin ovqatlanishi kerak. Bolalarga o`n ikki yoshda qortiq qo`yiladi. 60 yoshdan keyin mutlaqo qortiq qo`yilmaydi. Qortiq

qo`ydiruvchining safrosi ko`p bo`lsa qortiqdan keyin anor donasi, anor suvi, shakar bilan sachratqi va sirkal bilan sutcho`p beriladi.

Qon olinadigan tomirlar

Yurak xastaliklarida asosan - AKXAL va BOSLIQ tomirlaridan, chap tomondagi USA YLAM tomirlaridan qon olinadi. Jigar xastaliklarida - o`ng USA YLAM, o`ng BOSLIQ, SOFIN tomirlaridan qon olinadi. Bosh miya kasalliklarida -QIFOL, boshni o`zidagi tomirlar, til osti tomirlaridan qon olinadi. Insultlarda - (sakta kasalligida) SOFIN tomiridan qon olinadi

Zuluklar to`g'risida.

Hindiylar aytadilar: zuluklardan ba`zisining tabiatiga ko`ra zaharlisi bor. Shuning uchun boshi katta, surmarang - qoramtil yo ko`kimir, tukli ilonbaliqqa o`xshash, ustlarida zangori yo'llari bor zuluklardan saqlanish kerak, ular zaharli bo`ladi.

Bu zuluklarni solish shishlar, bexushlik, qon ketish, isitma, bo`shashish va yomon yaralarni paydo qiladi. Zuluklar ishlatishdan bir kun burun tutilib, mumkin bo`lsa ichlaridagi narsalarni chiqarib tashlash uchun boshi yerga qilinib, quadirilishi kerak. Ularga solishdan oldin hayvon qonidan bir oz beriladi.

Zuluk solinadigan joy tozalab yuviladi va qizarguncha ishqalanadi. Zuluklar to`lib tushirilmoxqa buyurilsa, ustlariga bir oz tuz yoki ho`l, kuydirilgan yung sochiladi.

Zuluk tushgan joyning qoni qortiq bilan bir oz surib olinadi, shu qon bilan zuluk zahri chiqib ketadi.

Qon to`xtamasa: ohak, kul, mayda yanchilgan sopol sepiladi. Temiratki, shirinchay, sepkil, namash kabi teri kasalliklarida zuluklar ishlatiladi.

Tiqilmalarni davolash: tiqilmalar - quyuq xiltlardan, yopishqoq xiltlardan va xiltlarning ko`pligidan kelib chiqadi. Xiltlarning ko`pligi bilan birga boshqa bir sabab bo`lmasa, u xiltlarning zararidan qutilish uchun ularni tomirdan qon olish va surgi ishlatish bilan chiqarish foyda qiladi. Agar xiltlar quyuq bo`lsa, erituvchi - tozalovchi dorilarga muhtoj bo`linadi. Agar xiltlar yopishqoq bo`lsa ajratuvchi dorilarga muhtoj bo`linadi.

Kuchli erituvchi, lozim bo`lganda uning ketidan yengil quyuq bo`lmagan mo`tadil dorilar bilan bo`ladi. Tiqilmalarning eng qiyini tomirlardagisi, ayniqsa arteriya qon tomirlaridagi tiqilmalardir

Shishlarni davolash: Shishlarning sabablari sirtqi yoki oldin paydo bo`lgan sabablardir. Oldin paydo bo`lgan sabablarga misol, xiltlarning to`liqligi, sirtqi sabablarga misol: yig`ilish, urilish va ezilishdir. Shishlarning ba`zisi issiq, sovuq, ba`zisi sovuq yumshoq va sovuq qattiqdir.

Issiq mizojli shishlarda burishtiruvchi va qaytaruvchi dorilarning o`zinigina ishlatish kerak bo`ladi: sovuq shishlarda esa qizdiruvchi va bo`shashtiruvchi dorilarni aralashtirib ishlatish kerak. Agar shishli a`zo boshqaruvchi a`zolarning bo`shalish o`rni bo`lsa, masalan, bo`yindagi va qulqorqasidagi bezli joylar - miyaning bo`shalish o`rni, qo`ltiq, yurakning va jigarining bo`shalish o`rni ikkala chov bo`ladi. Unday a`zolarga qaytaruvchi dorilarni yaqinlatish mumkin emas. Moddani qaytarganimizda boshqaruvchi a`zoga borsa, davolash mumkin bo`lmaydigan kasallik paydo bo`ladi.

Dastlabki davridan o`tgan qattiq shishlarga kelsak, ularni davolashda qonun dastlab qizdirishi va quritishi kamroq narsa bilan yumshatiladi, bunday narsaning ishlatilishi kuchli erituvchi dori ishlatish sababli shish moddasining quyug'i toshdek bo`lmasligi uchun, balki moddaning hammasi eritilishga tayyor bo`lishi uchun kuchli erituvchi dori ishlatiladi.

Yetilmagan shishlar qizdiruvchi, yumshatuvchi vositalar bilan davolanadi. Yellik shish moddasi nozik qizdiruvchi dori bilan davolanadi.

Yarali shishlarda flegmonani sovutgandek sovitish kerak bo`ladi, uni quruq tutmoq kerak. Ichni shishlar moddasini tomirdan qon olish va surgi berish bilan kamaytirish kerak bo`ladi. Ichki shishli kishi, hammomdan, ichkilikdan, kuchli jismoniy harakatdan g'azablanishdan saqlanishi kerak.

Agar ichki shishlar tarqalsa - yaxshi, agar teshilib oqsa, asal suvi va shakar suvi ichiriladi, keyin yetiltiruvchi vosita qurituvchi bilan birga beriladi, oxirida qurituvchi dorilar bilan muolaja to`xtatiladi.

Mavzu savollari

1.Umumiy davolash bosqichlari.

- 2.Tanqiya nima, maqsadi.
- 3.Tanqiya turlari, ko'rsatma va moneliklar.
- 4.Qon olinadigan tomirlar nechta va qaysilar.
- 5.Parxez nima va uning davolashdagi ahamiyati.
- 6..Qon olinadigan tomirlar nechta va qaysilar,ibn Sino bo'yicha nomlanishi.

2.4. §. Ibn Sino dietologiyasi, parhez taomlar, ozuqa va davo haqida.

Sharq tabobati ta`limotining asoschilari bo`lmish Ar - Roziy, Ibn Sino, Ismoil Jurjoniy va boshqalar inson xastaliklarini sabablarini quyidagi uchta omil bilan bog'liqligini asoslab berdilar.

1.Tashqi faktorlar bo`yicha: yashash joyining jug'rofiy muhiti, ya`ni ayni xastalangan bemorlarning yashash joyi mintaqasi, iqlimi, ob-havosi, esadigan shamol yo`nalishi, ichimlik suvlari shu inson yashayotgan uyning qaysi tomonga qarab qurilgani, yil fasllari, quyoshning osmon burchlaridagi o`rni, oyning boshi, oxiri, to`lin oylik va hokazolar.

2.Ichki faktorlar bo`yicha kishining emosional holatlari quvonch, qo`rquv, hayajon, bezovtalanish, g'amginlik, alam, anduh kabilalar bilan birga inson tanasidagi tabiiy va hayotiy harorat kiradi.

3.Ovqatlanish yoki alimentar faktorlar. Bu omillarga oziq - ovqat mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash, ovqatlarni pishirish uslublari, ovqatlanish madaniyati va odobi, yilning fasli va inson mizojini hisobga olgan holda ovqatlanish kabilardir.

Tashqi ichki faktorlarning ovqatlanish omillarining inson organizmiga mos kelmasligi natijasida, shu inson tanasida u yoki bu ko`rinishdagi xastalikni keltirib chiqaradi, bu xastalik inson organizmida oddiy yoki murakkab, yoki bo`lmasa moddali va moddasiz mizoj buzilishi ko`rinishida kechadi.

Parhez degan so`z forscha tildan olingan bo`lib, " o`zini tiya bilish" ma`nosini anglatadi. Tibbiyotda esa sog'liqqa ziyon yetkazadigan oziq - ovqat mahsulotlari iste`molidan tiya bilishga tushuniladi.

Hozirgi zamon Pevznyer dietologiyasida inson organizmining sutkalik energetik talabi asos qilib olingan bo`lsa, ibn Sino ta`limotida parhez taomlar quyidagi to`rtta omilga qat`iy rioya qilgan holda buyurilgan:

- 1.Bemorning tabiiy mizoji.
- 2.Bemorning yashash muhit
- 3.Mizoj buzilishidagi sabab
- 4.Bemorga buyuriladigan taomlarning mizoji.

Bunda buyurilgan taomni ayni shu xastalikka qay darajada ozuqa va qay darajada davo ekanligi hisobga olinadi.

Shu joyda sizlarga aniqlik berish uchun iste`mol mahsulotlarini davo va g'izolik xususiyati to`g'risida qisqacha so`z yuritishga to`g'ri keladi. Bu ta`limotda iste`mol qilingan mahsulotlar xoh u ozuqa bo`lsin, xoh davo, uchta tarkibiy qismidan iborat: 1) surat, 2) modda, 3) sifat.

Surat deganda biz mahsulotni shaklini, siymosini, tuzilishini, rangini, hidini ko`z oldimizga keltiramiz.

Modda qismi deganda, uning tarkibidagi modda – borliq va konsistensiyasi tushuniladi. Sifat yoki kayfiyat deganda, shu mahsulotni rangi, hidi, ta`mi tushuniladi.

Iste`mol qilingan mahsulot davoli ozuqa sifatida moddadan iborat bo`lib, u kayfiyat va suratdan tashkil topgan. Modda va surat esa bu ikki javhardir, ammo kayfiyat shu davoli ozuqaning sifati bo`lib, issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho`llikni namoyon qiladi. Ozuqa tarkibidagi issiqlik va sovuqlik sifatlari foila, ya`ni ta`sir qiluvchanlik xususiyatiga ega bo`lib, jumladan issiqlik, a`zoni isitadi, uning haroratini saqlaydi, xiltlarni eritadi, suyultiradi, oquvchanligini oshiradi, bug'lantiradi. Sovuqlik sifati esa sovitadi, qotiradi, jamlaydi va hokazo.

Ozuqali davo tarkibidagi ho`llik va quruqlik sifatlar munfoila xossasiga, ya`ni ta`sirni qabul qilib, modda va suratni hosil qiladi va kayfiyatni javharidir.

Bizlar yuqorida iste`mol mahsulotlarini uch tarkibiy qismi va ularning xususiyatlari to`g'risida so`z yuritdik. Endilikda, Ibn Sino ta`limoti asosida iste`mol qilingan mahsulot hazmining to`rt bosqichida hosil bo`ladigan mahsulotlari to`g'risida so`z yuritamiz.

Bu ta`limotning tahlil qilinishicha, iste`mol qilingan mahsulot hazmining birinchi bosqichida ovqat og'izda ishlov beriladi, ya`ni chaynaladi va so`lak bilan ho`llanib qizilo'ngach orqali oshqozonga tushadi. U yerda esa oshqozon shirasi bilan aralashib issiq bo`tqa - ximus hosil bo`ladi va ximus oshqozondan o`n ikki barmoqli ichakka o'tish jarayonidan hazmning ikkinchi bosqichi boshlanadi, bunda ximus

moddasi ingichka ichakka ishlov olgandan so`ng ikkiga ajraladi, ya`ni bir qismi ximus masoriqo orqali jigarga o`tadi, 2 - qismi esa yo`g'on ichak orqali tashqariga chiqarib tashlanadi. Ximus jigarga o'tishidan hazmning uchinchi bosqichi boshlanadi. Bunda ximus jigaarda hazm topib, uchga ajraladi ya`ni ximusni surat va sifat qismidan xiltlar savdo, safro, qon va balg'am hosil bo`lsa, uning surat va modda qismidan kaymus hosil bo`ladi. Xiltlar va kaymus tomirlar orqali tana a`zolariga tarqaladi, qoldiq suv esa buyrak va siydk qopi orqali siydk sifatida tashqariga chiqarib tashlanadi.

Tana a`zolarida hazmning to`rtinchi bosqichi kechadi, bunda tomirlardagi xiltlar a`zolarga borib, u yerda hozirgi zamon meditsina tili bilan aytganda muhitni hosil qilsa, kaymus shu a`zoning qurilish materiali sifatida modda almashinushi jarayonida qatnashadi, to`qimalarni oziqlantiradi. Ularni hayotini tiklaydi va saqlaydi. Bu bosqichda hosil bo`lgan oraliq mahsulot ter va chiqindi yog' moddalari teri orqali tashqariga chiqadi.

1. Agar iste`mol qilingan mahsulot organizmga o`zining moddasi va surati bilan ta`sir etsa, u xosiyatli ozuqa bo`lib, organizmning tabiiy haroratini va quvvatini saqlaydi va rohat bag'ishlaydi. Bu iste`mol mahsulotlariga yosh qo`y yoki jo`ja go`shti, chala pishirilgan tuxum, asal va hokazolar misol bo`ladi.

2. Agar iste`mol mahsulotlari organizmga o`zining surat, modda, kayfiyat, ya`ni har uchala tarkibiy qismi bilan ta`sir qilib, organizmga ozuqa bo`lish bilan birga ozgina kayfiyat berib uni yaratadi, quvonch va surur bag'ishlaydi bunda behi, olma sharbatlari va sharob va maylar misol bo`la oladi.

3. Ozuqali davoga quyidagilar misol bo`ladi: arpa suvi, uzum, bodring, semiz o`t, qovoq, sholg'om, sabzi, lavlagi, karam, mosh, no`xat, tarvuz va boshqalar. Bu mahsulotlarni istemol qilganda bular organizmda modda va kayfiyat bilan ta`sir qiladi, ammo, bunda modda ta`siri kayfiyatga nisbatan ustunligi tufayli, undan biror xilt hosil bo`ladi. Bu xilt tanani biror qismida bo`lib, u ozgina bo`lsada kayfiyat va mizojsiga ega bo`ladi, kayfiyat tananing o`zidagi mizoj va kayfiyatidan ustun kelib, tananing ho'lligiga o`zgarish berib ozuqali davo bo`ladi.

1. Davoli ozuqa: iste`mol qilingandan so`ng, tanaga kayfiyat va modda orqali ta`sir qiladi, ammo, moddaga nisbatan kayfiyat ustunlikka

ega bo`lganligi sababli, tanadagi ho'lllik, namlik kabi suvlik xususiyatlarini o`zgartiradi, shundan so`ng tana uni o`ziga singdirib oladi, ammo, undan kam miqdorda xilt hosil bo`ladi. Bu xilt ozuqa va tana javhari bo`lish qobiliyatiga ega bo`lib, o`z xislatiga yarasha tana kayfiyati ustidan g`olib keladi. Ko`proq davolik, kamroq ozuqalik xususiyatini namoyon etadi. Bularga: gandano (piyoz) kabi mahsulotlar, na`no, sachratqi bargi, it uzum, sarimsoq, olu va umuman mevalar, urug'liklardan: bodring, qovun, tarvuz, qovoq va shunga o`xshashlar misol bo`ladi.

2. Agar iste`mol mahsuloti, faqat modda qismi bilan organizmga ta`sir qilsa, ozuqa bo`ladi.

3. Agar iste`mol mahsuloti faqat kayfiyati bilan ta`sir qilsa bu mutloq davo bo`ladi.

Ma`lumingiz bo`lsinkim, g`izo va davolar qizdirish, issiqlikni ajratish, sovitish, quyultirish, ho`l narsalarni yumshatib, ravon qilish, quritish kabi umumiylar xususiyatlarga egadir.

Mavzu savollari

1. Parvez ta'rifi
2. Ibn Sino ta'limotidagi dietologiya va Pevzner dietologiyasi o'rtasidagi farq qanday.
3. Iste`mol maxsulotlari, ular haqida tushuncha.
4. Ovqat hazm qilish bosqichlari.
5. Xiltlar ovqat hazm qilishning nechanchi bosqichida nimalardan hosil bo`ladi.
6. Xilt va kaymusning organizmdagi o'rni.
7. Iste`mol maxsulotini ozuqalilik va davolilik xususiyati.
8. Xiltlarni hosil bo`lish mexanizmi
9. Kaymus nima
10. Iste`mol maxsulotlarining organizmga ta'siri
11. Xosiyatli ozuqa organizmga ta'siri
12. Xosiyatli davoli ozuqa , organizmga ta'siri
13. Mutloq davo haqida tushuncha bering

III BOB. IBN SINO TA'LIMOTIDA DORILAR BILAN DAVOLASH.

3.1. §.Sharq tabobatida dori-darmon tayyorlash uslublari. Xomashyo va tayyorlanadigan dori-darmonlarni saqlash

Sharq tabobati dorishunoslik fani - hozirgi zamon tibbiyot tili bilan talqin qilinganda, farmakogneziya grekcha “Pharmacon – zahar yoki dori”, “gnosis- bilim” so`zidan olingan bo`lib, asosan o`simgilik va qisman hayvon va ma`danlardan olinadigan dori mahsulotlarini o`rganadigan fandir. Sharq xalqlari tabobatida ishlatiladigan dorivor mahsulotlarga - o`simgiliklarning ildizi, tanasi, bargi, guli, mevasi, ildiz va tanasining po`stlari, shuningdek o`simgilikning shirasi - smola va yelimi misol bo`lsa, hayvon mahsulotlaridan ularning go`shti, qoni, iligi, suti, hayvon chiqindilari, o`ti, miyasi, ma`danlardan esa aynan o`sha ma`dan o`zi misol bo`ladi.

Sharq xalqlari tabobati bilan shug'ullanuvchi hakim amaliy ish jarayonida oldiga qo`yilgan quyidagi talab va shartlarni bajarishi shart. Aks holda taylorlangan darmonining shifobaxshlik xossasi kamayib, kutilgan natijaga erishilmaydi yoki bo`lmasa, darmon deb zahar tayyorlab bemorni o`ldirishi mumkin.

Dorilar bilan davolashning 3 ta qonuniyati bor:

Birinchisi, dorilarni mizojiga qarab, ya`ni issiqlik yoki sovuqlik, ho`llik yoki quruqligiga qarab tanlash qonuni.

Ikkinchisi, dori miqdorini aniqlash qonuni, ya`ni dorilarning og`irligini o`lhash va dorilarni ta`sir qilish vaqtini aniqlashga bo`linadi.

Uchinchisi, dorilarni qaysi vaqtida iste`mol qilish vaqtini aniqlash qonuni. Kasallikni davolash uchun unga zid bo`lgan dorilar bilan davolanadi. Dorining har jihatdan miqdorini bir butun qilib o`lhash uchun, a`zoninig tabiatini, kasallikning darajasi, jins, yosh, yil fasli, yashash muhiti, kasb, quvvat va tashqi ko`rinishi asos qilib olinadi.

A`zo tabiatini o`rganish uchun 4 narsani bilish zarur:

- 1) a`zo mizojini
- 2) a`zoning tabiiy tuzilishi
- 3) a`zoning vaziyatini
- 4) a`zoning quvvatini

Kasal a`zoning tabiiy mizozi va kasallikdagi mizozi aniqlanganda uni tabiiy mizojiga qaytaradigan dori miqdori aniqlanadi. Masalan, a`zo tabiiy mizozi sovuq bo`lib, kasallikda uning mizozi issiq bo`lsa, bu vaqtda a`zo mizozi kuchli sovitiladi.

Ba`zan a`zolar o`rnashgan joyi ichida va sirtida bo`sh joylar bo`ladi va ular dan chiqindilar yengil va mo`tadil dorilar yordamida chiqib ketadi. Ba`zida esa, a`zolar o`rnashgan joyida bo`sh joy bo`lmaydi. U vaqtda kuchli dorilarga ehtiyoj tug'iladi, ya`ni, a`zo siyrak va ba`zisi zich, tiqis joylashgan bo`ladi. Shuning uchun ham siyrak a`zo (o`pka) uchun yengil dorilar kifoya qiladi. Tiqis a`zolar (buyrak) uchun kuchli dorilarga muhtojlik paydo bo`ladi.

A`zoning vaziyatiga ko`ra: unga mos keladigan dorini o`sha a`zoga yetkazish va undan ortiqcha chiqindi mahsulotlarini chiqarish yo`lini tanlash mumkin. Masalan,

- G`ayritabiyy xilt jigar tepaligida bo`lsa, u siydik yo`llari a`zosiga hamkor bo`lganligi uchun siydik orqali haydaladi.
- G`ayritabiyy xilt jigar chuqurida bo`lsa, u ichaklarga hamkor bo`lganligi uchun surgi dorilar yordamida haydaladi.

A`zoning quvvatiga ko`ra dori berish 3 yo`l bilan amalga oshiriladi

- 1) A`zoning boshqaruvchi ekanligiga riox qilish
- 2) A`zoning hamkorligiga riox qilish
- 3) Sezgining o`tkir va o`tmasligiga riox qilish

Qo`yilgan talab va shartlar quyidagilardan iborat

1. Dorivor mahsulot olinadigan o`simlikni tasvirlay bilishi va uni boshqa o`simliklardan farqlab, ajratib olish kerak.
2. Dorivor o`simlik olinadigan jug`rofiy joyni aniqlash lozim.
3. Dorivor o`simliklarni yig`ish vaqtini va zamonini bilish shart.
4. Yig`ilgan dorivor xom ashylarni tozalab bilish, qanday sharoitda quritish va saqlash shartlarini bilish.
5. Dorilarning organizmga ta`sir mexanizmini bilish lozim.
6. Dorivor o`simliklar, hayvon mahsulotlarini mizojini va mizoj darajasini aniqlay bilishi shart.

7. Yig'ilgan sodda dorivor moddalarga sharqona tabobat uslubida ishlov berib, polufabrikatlar tayyorlashni va bu polufabrikatlarni saqlash shartlarini bajarish lozim.

8. Agar zarurat tufayli murakkab darmonlar tayyorlansa, dorivor mahsulotlarni mizoj darajalariga asoslangan holda, ularni qay nisbatda va qanchadan qo'shishni va tayyorlangan darmonni yetilish, ya'ni iste'molga tayyor bo'lish vaqtini, uning kayfiyat va mizojini va shuningdek, uning iste'mol miqdorini aniqlash kerak.

9. Beriladigan darmonni sutkalik iste'mol miqdorini, iste'mol vaqtini uning zarari-nojo`ya ta`siri va bu zararni isloh qilish tadbirlarini bilish kerak.

10. Ibn Sino tadbiri bilan aniqlangan sodda dorivorlar mizoji va mizoj xarakterini bilishi shart.

Sodda dorivor mahsulotlarni tanlash, yig'ish, quritish va saqlash shartlari:

Har bir xastalikni mahalliy davo bilan muolaja qilmoq lozimdir. Zeroki, har bir hududdan olingan davo mahsuloti shu joy xastaliklariga yaxshiroq va tezroq ta`sir qiladi. Buqrotning bu fikrini tahlil qilmoqchi bo`lsak, bemor yashayotgan mintaqa va shu mintaqada o'sayotgan dorivor o'simlik va yashayotgan hayvon shu mintaqa ob - havo muhitining mahsuli bo`lib, ular mizoj jihatidan bir biriga munosibdir.

Dorivor mahsulotlarni, asosan ularni o`zları tanlab o'sgan joylardan yig'ish yaxshiroqdir. Chunki tabiiy yoki boshqacha qilib aytganda, yovvoyi holda o'sgan dorivor mahsulotlar, madaniy yoki ekib o'stirib olinganlarga nisbatan shifobaxshligi to`la quvvatli, kuchlidir. Tabiiyki, dorivor o'simliklar tabiatning hamma mintaqalarida jumladan, tog'larda, cho'l va sahrolarda uchraydi. Ularning bunday tarqalishi, shu o'simlik mizojini uning o'sishi, ulg'ayishi va voyaga yetishi uchun ayni muhitning mos kelishligi bilan bog'liqdir. Shunday bo`lsada, ba`zi bir o'simliklarni hamma mintaqalarda uchratamiz. Shu bilan birga keyingi paytlarda ba`zi bir dorivor o'simliklarni iqlimga moslashish uslubi bilan bir jug'rofiy muhitdan ikkinchi bir jo`g'rofiy muhitga o'stirish, yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish ishlari ham amalga oshmoqdaki, bu sharq tabobati dori tayyorlash ishlariga ancha qiyinchilik tug'diradi. Chunki bunday jarayonni boshdan kechirgan o'simlik yoki hayvonda

xohlaymizmi - xohlamaymizmi mizoj o`zgarishi bo`ladi. Buning sababi shuki, o`simlikning o`sish va rivojlanish jarayonida quyoshning osmon burjidagi o`rni, esayotgan shamol, yerning namligi va hokazolar shu o`simlik o`sishiga ta`sir qilib uning tana va hosil zichligini, ta`mini, hidini, rangini paydo bo`lishida bilvosita va bevosita ishtirok etadi.

Masalan, O`zbekistonda yetishtirilgan qovun - tarvuz urug'ini Rossiya yerlarida yetishtirilgan hosillar misolida yoki bo`lmasa, o`z vatani hisoblangan zaytun daraxtini O`rta yer dengizi sharoitidan Rossiyang Krasnodar o`lkasida yetishtirish kabilardir.

Dorivor o`simliklarni tog'lardan, tog' yon bag'irlaridan, cho'l va sahrolardan, o`rmonlardan, shuningdek, ekiladigan maydonlardan yig'amiz, ammo hamma dorivor o`simliklar hamma joyda uchramaydi. Har bir o`simlikning o`ziga taalluqli yashash sharoiti va muhit bo`lishi lozim. Misol, kovar o`simligi tog' yon bag'ridagi toshloq, cho'l va sahrodagi qattiq yerlarda hatto qadimiy Buxoro, Samarqand, Urganch, Shaxrisabz, Termiz kabi shaharlarimizning eski tosh va pishiq g'ishtdan qurilgan binoning tom va devorlarida o`sса, bargizub (baqayaproq) o`simligi jilg'alarning adirlariga qo`yiladigan doimiy nam joylarida, ariq bo`ylarida va ekiladigan, namligi ko`p joylarda o`sadi.

Bu misollardan maqsad shuki, har bir o`simlikning o`ziga xos o`sish joyi va sharoitlari bo`ladiki, bu joy va muhitda ular o`sib, rivojlanish, nasl qoldirishga qodir bo`ladi.

Ana shunday sharoitda o`sgan o`simlik sog'lom baquvvat bo`lsa, ularni tabobatda ishlatish maqsadga muvofiqdir. Tog', cho'l va sahrolardan olingan o`simliklar ekiladigan maydonlardan olinganiga nisbatan, hajmi kichik, moddasi zich, shifobaxshligi kuchli va shiddatli bo`lishi bilan birga, aksariyat holatlarda tog', sahro va cho'llardan olingan dorivor mahsulotlar issiq mizojlilik xususiyati bilan kuchliroq bo`ladi.

Ekiladigan maydonlardan olingan dorivor mahsulotlarning issiqlik mizoji tog', sahro va cho`ldan olinganlarga nisbatan kamroq bo`ladi, chunki ularning moddasi g'ovak, namligi ko`p, ta`mi, hidining o`tkirligi kamroq bo`ladi.

Ekiladigan joylardan yig'ilgan dorivor moddalarning ko`pchiligi birinchi ikkinchi darajada issiq, mo`tadil, yoki bo`lmasa sovuq, ho`l

mizojlidir. Bemorlarga darmon va parhez buyurishda buni e`tiborga olish lozimdir.

Dorivor mahsulotlarni olish va saqlash qoidalari:

Sizga ma`lumki, dorivor o`simliklarni ildizi, tanasi va uning po`stlog'i, bargi, guli, mevasi, urug'i, o`simlik shirasi, yelimi, ildiz mevasi dorivor mahsulot sifatida olib saqlanadi va zarurat tug'ilganida ulardan dori-darmonlar tayyorlanadi. O`simlik mahsulotlarini umumiylig'ish vaqtin, chang, g'uborsiz, yomg'ir va qorsiz havoda bo`lishi kerak. O`simliklar ildizini yig'ish vaqtin kech kuzda, ya`ni o`simlik barglari sarg'ayib, to`kila boshlaganida yoki erta bahorda, hali o`simliklar o'sish harakatiga kirmasdan oldin bajariladi, chunki bu davrda o`simliklarda modda almashinish jarayoni juda sekinlashgan bo`lib, ulardagi namlik shira va boshqa hayotiy zarur moddalar ildizda to`plangan bo`ladi. O`simlik ildizini olayotganda quyidagilarga e`tibor berish lozim: qurigan, chirigan, chirish arafasida bo`lgan va juda egri-bugri tomirlar olinmaydi. Olinayotgan ildiz ko`rinishi jihatidan hamma kamchiliklardan xoli, sog'lom bo`lishi shart.

Undan tashqari ildiz yoshi hisobga olinadi, chunonchi shirinmiyaning 4-6 yoshli ildizi olinadi. 4 yoshdan yoshi va 6 yoshdan kattasi tabobatda yaroqsiz, yoki bo`lmasa mehriyo ildizining moddasi tabobatga yaroqlidir, erkagiga nisbatan tabobatda yaxshiroqdir va hokazo. Olingan ildizlar yaxshilab yuviladi, har xil aralashmalardan tozalab, saralab olinadi, so`ngra poldan yuqori shamol tegadigan soya joyda yoki maxsus ayvonlarda quritiladi. Ildizlar namligi me`yorida, ya`ni egilib juda qiyinchilik bilan sinish darajasiga yetgach, yig'ib olinib, 20-25 sm uzunlikda qirqib kandir yoki qog'oz xaltalarda solib namdan yuqori joyda saqlanadi.

Izoh: har bir o`simlikdan olinadigan mahsulotning tartibi, ularni tozalash, saralash, quritish, qay yo`sinda asrash va muddatlari, shu o`simlik uchun "Tib qonunlari" kitobida mukammal bayon etiladi. Dorivor o`simlikning barg, shox va tanasi yuqoridagi umumiylig'ish tartibda toza havoda, iloji boricha ertalabki yig'ib olib quritiladi va saqlanadi. Bunda barglar sog'lom va hali sarg'ayib so`lmagan bo`lishi kerak.

O`simlikning yelimi esa, ertalabki toza havoda o`simlik guli to`kilish davrida yig'ilib olinadi. Uning namligi o`rtacha bo`lib,

uvalanish darajasiga etmagan bo`lishi kerak. Yelimlar asosan og`zi yopiq shisha va sopol idishlarda saqlanadi.

Mabodo, o`simlik shirasi olinmoqchi bo`lganda, o`sha o`simlik tanasi toza havoda quyosh botishidan 1 - 1,5 soat oldin, uning mevasi yetilib kelish davrida pichoq yoki uchi o`tkir metall bilan tiliñadi va undan sizib chiqqan shira ertalabki quyosh chiqishidan oldin, quyosh chiqish arafasida pichoq uchi bilan yig`ib olinadi va og`zi yopiq shishadan qilingan idishda saqlanadi. Yoki bo`lmasa terak, tok kabi o`simliklarni tanasi bahor faslining boshlanishida chopiladi, chopilgan joydan ularning suvi sizilib chiqib, toma boshlaydi, uning tagiga shisha idish qo`yib, yig`ib olinadi va saqlanadi.

Dorivor o`simliklarning po`stlog`i asosan, o`simlik mevasi pishgandan so`ng, yoki kuzda yig`ib olinib, quritish zarurati bo`lsa, soyada quritilib qog'oz xaltalarda saqlanadi. Dorivor sifatida ishlatiladigan o`simliklarning guli, g'unchasi to`la ochilgan o`simliklardan ertalabki quyosh chiqmasdan oldin terib olinib, soyada quritiladi va qog'oz xaltada saqlanadi. Mevalar to`liq yetilib pishgandan keyin, so`lmasdan oldin yirik, serob, nuqsonisz, hidi o`tkir, ta`mida ham kamchiliksiz, terib olib, zarur bo`lsa quritib saqlanadi. Urug'liklar, to`liq yetilib pishib, o`simlik so`la boshlaganda teriladi. Bunda ularning yaroqsiz, nimjon, chala yetilgan, qurtlaganlari yoki kasallanganlari olinmaydi. Urug'liklar, asosan qog'oz xaltalariga solib saqlanadi.

Tabiblar o`simliklarning barg, ildiz, meva, shuningdek, o`simlikning yerni ustki va ostki qismini yaxshi sifatli sog'lom a`zolaridan sodda dori sifatida usora, rubb, yog`lar tayyorlab, ularni asrab qo`yganlar va kerakli vaqtida ishlatganlar. O`simlik a`zolaridan usora, rubb, yog`larni olishdan maqsad, ularning mevasi, guli, barglari o`zida shirasini uzoq vaqt saqlay bilmasligi yoki aynib chirishi yoki bo`lmasa qurtlashligidir. Sharq xalqlarining tabobat xazinasidan foydalanib, rubb, usora va yog`lar tayyorlab bu dorivor mahsulotlarni yil 12 oy ishlata olish mumkin.

Dorivor moddalar olinadi:



o`simliklardan

hayvonlardan

ma`danlardan

O`simliklarning yer ostki (ildiz, ildizpoya, tiganak, piyozboshi) va yer ustki qismlari (poyasi, bargi va gullar aralashmasi) dorivor mahsulot sifatida olinadi.

O`simliklar organizmida alohida biologik faol moddalar, alkoloидлар, yurak glikozidlari, antiagregantlar, flavonoidlar, moylar, vitaminlar, fitonsidlar, yelimlar, oshlovchi, shilliq va boshqa moddalar bo`ladi.

Ushbu biologik faol moddalar, o`simliklarning turli qismlarida turlicha bo`ladi. O`simliklarni yig'ib olish vaqtida asosan biologik faol moddalari ko`p bo`lgan qismlari yig'ib olinadi. O`simliklarning bunday qismlari dorivor mahsulot deb yuritiladi.

Biologik faol moddalar, o`simlik qismlarida bir vaqtning o`zida to'planmaydi. Shuning uchun dorivor mahsulotlar turli vaqtarda yig'ib olinadi. Agar dorivor mahsulot o`z vaqtida yig'ib olinmasa, ularning tarkibidagi shifobaxshlik kamayadi.

O`simliklarning yer ostki qismlari ildizi, poyasi, tiganak, piyozboshi, odatda o`simlik uyquga kirgan davrda kech kuzda yoki o`simlik uyg'onmasdan oldin erta bahorda tayyorlanadi.

O`simliklarning yer ustki qismi poyasi, bargi va gullari aralashmasi o`simlik gullaganda poyaning eng tagidagi barg oldidan o'rib olinadi. Poyaning bargsiz qismi o'rib olinadi. Kurtaklar erta bahorda o`simlik tanasiga shira yura boshlaganda yig'iladi.

Barglar odatda o`simlik gullashi oldidan yoki gullaganda ohistalik bilan olinadi. Gullar o`simlik qiyg'os gullaganda yig'iladi.

O`simlik mevalari pishib yetilganda yig'iladi. Quruq mevalar esa ertalabki yoki kechqurun yoki shudring tushgan vaqtida yig'ib olinadi.

O`simliklarning yer ustki qismi tabiiy sharoitda ochiq havoda quritib bo`lmaydi. Chunki ularning barglaridagi xlorofill va gullardagi

pigmentlar parchalanib ketadi. Shuning uchun ular soya yerda ataylab qurilgan binolarda quritiladi. O'simliklarning yer ostki qismi esa ochiq havoda quritiladi.

Hayvon mahsulotlaridan dorivor sifatida yosh va sog'lomlari tanlanadi.

Hayvonlarning yuragi, miyasi, jigari, talog'i, suyak iligi va boshqa qismlaridan dorivor vositalar olinadi.

Dorilarning umumiy, xususiy va umumiy ta'siriga o'xshash ta'sirlari bo'lib:

1.Umumiy ta'sirlari - qizdirish, sovitish, tortish, itarish, biriktirish va hokazo

2.Xususiy ta'siri - har bir kasallikka xos ta'siri

3.Umumiy ta'siriga o'xshash ta'siri - ichni suruvchi, siyidik haydovchi va hayz qonini yurituvchi kabi ta'sirlari bor.

Dorilarning quyidagi sifatlari (hidi, rangi, mazasiga ko`ra) mavjud:

-latif dori

-zich tuzilgan dori

-yopishqoq dori

-uvalanuvchi dori

-qotuvchi dori

-shilliqli dori

-yog'li dori ...hokazolar.

Sharqona tabobatda quyidagi o'lchov birliklari ishlatilgan:

-1Dirham - 3gr

-1Funduq - 4,25gr

-1Donaq - 0,5gr

-1Misqol - 4,25gr

-1Uqiya - 29,75gr

-1Qirot - 0,19gr

O'simlik xom ashysidan olinadigan mahsulotlarga damlama, qaynatma va fitopreparatlardan - nastoyka, ekstraktlar kiradi. Damlama va qaynatmalar, o'simlik xom ashysining suvdagi ajratmalari yoki shu maqsadda alohida tayyorlangan ekstraktlarning suvdagi eritmasidan iborat. Ular past, xushbo'y hidli suyuqlik bo'lib, ularni ishlatishdan oldin chayqatish kerak. Ularning tarkibidagi moddalar tez

parchalanganligi uchun ko`pi bilan salqin joyda 3-4 kungacha saqlanadi. Ichishga va surtishga ishlataladi.

Galen preparatlari, ya`ni, nastoyka va ekstraktlar o`simlik xom ashyosidan olinadigan va tarkibi murakkab ajratmalar bo`lib, ular shifobaxsh xossasi bo`lmagan ballast moddalardan qisman tozalangan bo`ladi.

Nastoykalar o`simlik xom ashyosidan olinadigan spirtli, spirt - suvli yoki spirt - efirli bo`ladi. Ular tiniq rangli suyuqlik bo`lib, tayyorlangan o`simlik hidiga ega bo`ladi.

Ekstraktlar dori muddasini o`simlik xom ashyosidan spirt ta`sirida ajratib olinib, hosil qilinadi. Ular nastoykalardan yuqori konsentrasiyasi bilan farq qiladi. Konsistensiyasiga ko`ra suyuq, quyuq va quruq turlarga bo`linadi.

Dorivor o`simliklar bilan davolashning afzalliklari.

Shifobaxsh o`simliklar ko`p asrlar mobaynida sinovlardan o`tib kelayotgan omil hisoblanadi. Organizmga fiziologik ta`sir ko`rsatib, o`simliklar va odam organizmi hujayralarining tuzilishi bir-biriga juda yaqin bo`ladi. Sintez yo`li bilan olingan ximiyaviy moddalar esa organizm uchun yot modda hisoblanadi.

Shifobaxsh o`simliklarning davolash doirasi juda ham keng bo`lib, ular ximiyaviy jihatdan juda boy, tarkibida glikozidlar, alkoloidlar, fermentlar, vitaminlar, bioelementlar juda ham ko`p bo`lib, surunkali kasalliklarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Ko`pchilik bemorlar, ayniqsa qariyalar bir necha xil kasallik bilan og`rigani uchun bitta o`simlikning bir necha xil xususiyatlari bo`ladi, shuning uchun bunday bemorlarni davolashda qo`l keladi.

O`simliklar bilan davolash kasalliklarni oldini olishga qo`l keladi. Masalan: bolalarga na`matakli choylar berish, kattalarga jen'shen' kabi adaptogenlar qo`llanilganda respirator kasalliklar 2-3 barobar kamayganligi aniqlangan.

Dorivor o`simliklar davolash ta`siri, xususiyati bo`yicha 3-4 xil ta`sirga ega bo`lishi mumkin. Shuning uchun ular asosiy ta`siri bo`yicha bir necha guruhga bo`lingan. Masalan, markaziy nerv sistemasiga ta`sir etuvchi dorivor o`simliklar (jenshen, dorivor valeriana, arslonquyruq, bangidevona, mingdevona, belladona, yalpiz, galantus, kuchala va boshqalar), yurak qon-tomir sistemasiga ta`sir etuvchi dorivor

o`simliklar (bahorgi adonis, marvaridgul, chirtrang'i, za`faron, angishvonagul, do`lana va boshqalar), me`da-ichak faoliyatiga ta`sir etuvchi dorivor o`simliklar (rovoch, makkajo`xori popugi, arpabodiyon, sano barglari, zira, otquloq, achchiq ermon, tog'jumro't, bo`znoch, chakanda, ukrop, otquloq va boshqalar) guruhi bor

Sharbatlar va quyultirilgan shiralar

Sharbat bilan quyultirilgan shira orasidagi farq shuki, quyultirilgan shira deganda mevalardan siqib olingan suvlarning o`z holicha quyultirib, qiyom qilingani tushunilsa, sharbat deganda qaynatma va siqib olingan suvlarning bironta shirinlik bilan qo'shib qiyom qilingani nazarda tutiladi.

Urug'lar sikanjubinning umumiyl nusxasi. Isitmalarni va me`daning alanganishini so`ndiradi, balg'amni parchalab undan tozalaydi, safroni bosadi, jigar va taloq tiqilmalarini ochadi va siydikni haydaydi.

Tarkibi. Yaxshi eski uzum sirkasidan o'n litr olib, unga tiniq chuchuk suvdan yigirma litr yoki sirkaning nordonligi va yaxshi - yomonligiga qarab, bundan ko`p yoki ozroq qo'shiladi. Keyin arpabodiyon ildizining po`stlog'i va petrushka ildizi po`stloqlarining har biridan - uch uqiyadan; arpabodiyon urug'i, Rum arpabodiyoni va petrushka urug'larining har biridan bir uqiyadan solib, bir kecha-kunduz qo'yib qo'yiladi. Shundan keyin suyuqlikning oltidan biri bug'lanib ketguncha past olovda qaynatiadi, so`ngra olovdan tushirib,sovutib qo'yiladi. So`ngra suzib, mana shu ildizlar va urug'lar bilan qaynatiilgan suv sirkaning har ikki qismiga bir qism novvot yoki ildiz va urug'lar bilan qaynatiilgan sirkaga bilan suv aralashmasining har ikki yarim qismiga bir qism hisobida asal qo'shiladi va to yarmi qolguncha past olovda qaynatiadi. So`ngra olovdan tushirib sovutiladi va suzib iste`mol qilinadi. Qaynagan vaqtida ko`pigi olib turiladi.

Kim istasa, ko`pigi olinib bir yoki ikki marta qaynab chiqqandan keyin uch dirham yanchilmagan za`faron solinadi: za`faronni lattaga tugib, qozonning ichiga osib qo'yiladi va uning quvvati sikanjubinga o'tsin uchun vaqtı-vaqtı bilan qo'l bilan ezib turiladi, ba`zi kishilar sikanjubinni pishirib bo`lgandan keyin unga ikki dirham yanchilgan za`faronni solib ezadilar, ammo uni qaynatmaydilar.

Jolinus sikanjubinini tayyorlash. Yaxshi asaldan olib, kuchsiz cho`g` ustiga qo`yiladi, uning ko`pigi olib tashlangandan keyin ustiga unchalik nordon bo`lмаган, shu bilan birga, kuchsiz bo`lмаган sirkadan solinadi va ular yaxshilab aralashtirilib, sirkaning xomligi qolmaguncha past olov ustida sekin-sekin qaynatiladi. Shundan keyin olovdan tushirib, saqlab qo`yiladi.

Agar uni iste`mol qilmoqchi bo`lsang, sharob singari unga ham suv aralashtir. Sikanjubin ichuvchi kishi nordonligi yoki shirinligi tufayli uni yoqtirmasa, suv bilan iste`mol qilsin. U juda nordon holda ichish istalganda, tarkibidagi sirkasi ko`paytiriladi. Uni hammaning ham bir miqdorda iste`mol qilishi yaxshi emas. Menimcha, bu sharob ichuvchilarning hammasiga ham uni suv bilan aralashtirib ichishni buyurishga o`xshaydi, vaholangki ular orasida sharobni ko`p suv qo`shib mazasiz qilib ichishga odat qilgan kishilar bor, agar ular sharobning nuqul o`zini ichsalar, darrov boshlari og'riydi. Odamlar ichida sharobni kuchli holda ichishga odatlanganlar ham bo`lib, agar ular ko`p suv qo`shib ichsalar, ko`ngillari ayniydi. Bunday holatlar ichishga ko`proq ruju qo`ygan odamlarda sharob ichish natijasida paydo bo`lar ekan, nima uchun ular, odatda, sharobga qaraganda juda kam ichiladigan sikanjubinni iste`mol qilish natijasida ko`proq bosh og`rig'i va ko`ngil aynish yuz beradi. Bundan tashqari, bu sharobdan ko`ra kuchliroqdir. Shuning uchun sikanjubinning mo`tadilligi haqida hukm chiqqanimizda o`zimizni emas, uni ichuvchi kishini hisobga olishimiz kerak.

Sikanjubinni ichuvchi kishi uchun uning eng muvofiq xili, u kishi uchun eng yoqimli bo`lganidir, mana shu tufayli u kishiga uning foydasi ham ko`proq bo`ladi. Uni ko`ngli tortmasdan ichgan kishilar undan aziyat chekadilar.

Sikanjubinning mo`tadil xili ko`pchilik kishilarga moslab tayyorlanadiganidir. Masalan, uni shunday tayyorlash lozim: sirkaning har bir hissasiga ko`pigi olingan asaldan ikki hissadan qo`shib, past olovga qo`yiladi va ularning mazalari aralashguncha hamda sirkaning ta`mida xomlik qolmaguncha qaynatiladi, biroz oldin suv bilan qaynatiladi. Shuning uchun sikanjubinni quyidagicha tayyorlash kerak: har bir hissa asalga to`rt hissadan toza suv solinadi va asalning ko`pigi chiqsin uchun past olovda o`rtacha ravishda qaynatiladi. Emon asaldan

ko`p ko`pik chiqqani uchun u ko`proq qaynatiladi, yaxshi asalning esa ko`pigi kam bo`ladi, shuning uchun u oldingi yomon xili singari ko`p qaynatishga muhtoj emas. Boshida shu miqdor asalga qo`shilgani, suvdan juda ko`p deganda yarmi bug'lanib ketish kerak. So`ngra bunga asalning yarmicha asal qo`shib, boshqatdan qaynatiladi, toki ular yaxshi aralashib, sirka xom qolmasin.

Uni pishirish uchun sikanjubinni suvsiz ichadilar. Uchala tarkibiy qismni ham boshidanoq aralashtirib, sikanjubin tayyorlash mumkin.

Sikanjubin. Yaxshi shakardan olib, qozonga tekislab solinadi va ustiga o`tkir uzum sirkasidan shakar tagidan miltirab ko`rinadigan, biroq uni berkitmaydigan miqdorda quyiladi. Agar u nordon bo`lib ketmasin desak, sirkadan kamroq solamiz. So`ngra qozonni cho`g` yoki kuchsiz olov ustiga qo`yib, shakar eritiladi va ko`pigini tog`orachaning tagiga ilashtirib olib, latta bilan artish yo`li bilan olib turiladi; demak tog`orachani botirmasdan faqat tegizib ko`tarish orqali ko`pik olinadi. Ko`pikdan tozalangandan keyin qiyom suyulishi uchun suv solinadi, so`ngra yana qaynatib qiyom qilinadi.

Safroni suruvchi sikanjubin. Ko`pigi olingan asal yoki shakar, hamda o`tkir sirkadan yuqorida aytilgandek olib, past olovda qaynatiladi. So`ngra yovvoyi bodring shirasi va sakmuniyodan bir uqiyadan yoki qancha kerakligiga qarab, bundan ko`ra ko`p yoki oz olinib yanchiladi va zig`ir lattaga tugib, qozon ichiga osib qo`yiladi. Latta ichidagi narsalar erib, hech narsa qolmaguncha uni tez-tez qo`l bilan ezib turiladi. Qiyom quyuqlashgandan keyin olovdan tushiriladi. Ba`zi kishilar qaynatishning boshida saqmuniyo o`rniga sakmuniyo chiqadigan o`simlikning ildizini petrushka ildizi va arpabodiyon ildizi bilan birga qaynatadilar.

Balg`amni kamaytiruvchi sikanjubin. Asal va dengiz piyozi sirkasini olib yuqorida eslatib o`tilgan ildizlar bilan qo`shib qaynatiladi. Keyin dorivor o`simliklar mag`zidan kishining quvvatiga qancha miqdordagisi to`g`ri kelishini mo`ljallab olib, yanchasan va lattaga tugib, yuqoridagi singari qozon ichiga osib qo`yanan; keyin u iste`mol qilinadi.

Savdoni kamaytiruvchi sikanjubin. Asal yoki shakar va sirkani olib, yuqorida aytilgandek qilib qaynatiladi. Keyin devpechakdan keragicha olinadi, yana chilpoya va qora xarbaqdan ham olib, hammasi yanchiladi va lattaga tugib qozonga osiladida, oldingilar singari pishiriladi.

Piyoz sirkasini tayyorlash. Tozalangan oq piyozdan olib, yog'och pichoq bilan bo`lak-bo`lak qilib qirqiladi va shu bo`laklar bir-biriga tegmaydigan qilib ipga tiziladi yoki piyozlarni teshib ipga tiziladi va ularni bir-biriga tegmaydigan qilib osib, qirq kun davomida soyada quritiladi. Keyin shundan bir bo`lak olib, ustiga o`n sakkiz bo`lak yaxshi sirkasini quyladi va idishni yaxshilab berkitib, oltmis kungacha oftobga qo`yib qo`yiladi. Shundan keyin oq piyoz olib siqiladi va sirkasi lattada suziladi.

Ba`zi tabiblar, har bir bo`lak oq piyozga yetti yarim litr sirkasini soladilar. Boshqalar dengiz piyozini quritmaydilar, lekin uni tozalab xuddi o`sha vaznda oladilarda, keyin sirkada olti oy turg'izadilar. Mana shu yo`sinda tayyorlangan sirkasini ko`proq ichni suruvchi bo`ladi. Agar bu sirkasini bilan og`iz chayilsa, u og`iz va milklarga foyda qilib, ulardan qon oqishni to`xtatadi, chunki u burishtirib, milk va tishlardagi rutubatni quritadi. U yana qimirlayotgan tishlarni mahkamlashi, hamda og`iz sassiqligini ketkazib, uni xushbo`y qiladi. Agar u ichilsa, o`pka nayini tozalab, mahkamlaydi, tovushni ham tiniq qilib kuchaytiradi. U yana me`dasi og`riydigan va ovqati hazm bo`lmaydigan kishilarga, tutqanoqli va boshi aylanadigan odamlarga, savdo xilti ko`payib ketganlarga, esi kirarli-chiqarli bo`lib qolganlarga va jinnilarga, shuningdek, "bachadon bo`g'ilishi", taloq qattiqligi va irqunnasoga uchragan bo`lganlarga ham muvofiq keladi. Bo`shashib so`ligan gavdani baquvvat qiladi, badan rangini yaxshilaydi, ko`zni o`tkirlashtiradi va nafas qisganda foyda qiladi. Agar qulqoq og`rig`ida u qulqoqqa quylisa va qulqoqning ichida yara bo`lmasa, og`riqni bosadi. Bu sirkani har kuni nahorga ozginadan ichib borib, asta-sekin bir yarim uqiyagacha ichilsa, yuqorida aytilgan kasalliklarga foyda qiladi.

Oq piyozdan tayyorlanadigan ichni suruvchi sikanjubin. Bu qiynalib siyish, biqin va me`da og`riqlari, ovqatning yomon o`zlashtirilishi va nordon kekirikka foydalidir.

Tarkibi: dengiz piyozining ichki qismidan ikki ritl, zanjabildan bir uqiya, murchdan ikki uqiya, yovvoyi sabzi urug`idan yarim uqiya, arpabodiyon urug`i va Rum arpabodiyonlarining har biridan bir uqiyadan, kashnich urug`idan ikki uqiya, juvonadan yarim uqiya, ermon zirasidan bir uqiya, boldirqon ildizi va nazla o`tlarining har biridan bir uqiyadan, zufo gulidan bir uqiya, yalpiz va bog` yalpizlarining har

biridan bir uqiyadan, koshimdan yarim uqiya, yovvoyi ziradan ikki dirham, gazago`tdan olti uqiya olinadi. Ular yirik qilinib, yanchib, olti bo`lak oq piyoz sirkasi, ikki hist ko`pigi olingan asal va bir bo`lak musallas aralashmasida ivitiladi. Bularni toza idishda yetti kun saqlab quyilgandan keyin suzib, shisha idishga solib qo`yib, iste`mol qilinadi; u ovqatdan oldin va keyin ichiladi.

Gulob tayyorlash. Bir bo`lak shakar olib ustiga to`rt uqiya suv quyiladi va past olovda qaynatiladi; so`ngra unga ikki uqiya gul suvi solib olovdan tushiriladi va suzib iste`mol qilinadi. Asal va shakar suvi sovuq kasalliklarga, hamda jigar va ko`krak og`riqlariga foyda qiladi.

T a y yo r l a sh: Bir hissa asal va ikki hissa suv olib, ikkalasi past olovda qaynatiladi, ko`pigi olingach, uchdan biri qolguncha yana qaynatiladi; so`ngra olovdan tushirib so`ziladi. Shakarli suv ham shunday tayyorlanadi. Agar uni qizdiruvchan va kuchli qilmoqchi bo`lsak, unga ko`pigini olgandan keyin mastaki bilan za`faron, shuningdek, dolchin kabi boshqa xil dorivorlardan qo`shamiz.

Asal suvi bilan tayyorlanadigan gulob isitma va alanganishga hamda me`dadagi kuchli tashnalikka va haroratdan bo`ladigan yo`talga foyda qiladi.

T a y yo r l a sh: tozalangan qizil guldan to`rt ritl olib, shisha idishga solinadi va ustiga o`n ritl issiq suv solib, idishning og`zini yaxshilab berkitgandan keyin bir kecha - kunduz qo`yib qo`yiladi. Keyin gul olib siqiladi va suvini suzib, ichiga o`n litr shakar solinadi, keyin quyulguncha past olovda qaynatiladi va suzib iste`mol qilinadi.

Gul suvidan qilinadigan gulob. Novvotdan olib yanchib tortiladi va uning har bir bo`lag yaxshi tiniq guldan uch bo`lakdan solib, past olovda uchdan biri qolguncha qaynatiladi va ko`pigi olinadi. Gulobga u qaynab turgan vaqtida za`faron solmoqchi bo`lgan kishi uning ko`pigini olgandan keyin yanchilmagan za`faronni lattaga tugib, gulobga solsin va vaqtı-vaqtı bilan olib, siqib tursin, to latta bo`shaguncha shunday qilinadi. Gulob pishgandan keyin unga za`faron solinmoqchi bo`linsa, u olovdan tushiriladi va sovumasdan burun ichiga yanchilgan za`farondan solib eziladi, keyin shisha idishga ko`tarib qo`yib ishlatiladi.

Behi sharbati. Bu me`dani kuchaytiradi va ichni bug'laydi, shuningdek, jigar og`rig'i, quşish, ko`ngil aynishi, hiqichoq, ichak va buyrak og`riqlari hamda qiyinalib siyishda foyda qiladi.

3.2. §.Sodda va murakkab dorilar. Taryoq va ma`junlar haqida . Yog'larni tayyorlashni o`rganish.

Sharqona tabobatda dorilarni tayyorlash va ta`sir mexanizmiga qarab dorilar sodda va murakkab dorilarga bo`linadi.

Sodda dori - tarkibi bir xil bo`lgan, ya`ni yo o`simlik yoki hayvonlarning faqat bir qismi dorivor modda sifatida ishlataladigan dorilar guruhidir.

Murakkab dori - asosiy va asl vazifani bajaruvchi qismlardan iborat dori to`plami bo`lib hisoblanadi.

Dori vositalarining tasnifi:

Sodda dorilar

- Rubb
- Usora
- Qaynatma
- Damlama
- Sharbatlar
- Tug'macha
- Yog'lar
- Elaki dorilar (oddiy)
- Kulchalar (oddiy)

Murakkab dorilar

- taryoq
- ma`jun
- juvorishn
- anbaj, iyoraj
- sikanjubin
- elaki dorilar (murakkab)
- kulchalar (murakkab)
- sharbatlar (murakkab)
- zaxr
- podzaxr

Tayyorlash uslubi.

- 1.Qaynatmalar
- 2. Damlama
- 3. Tindirma
- 4. Rubb
- 5. Usora
- 6. Elaki
- 7. Kulchalar
- 8. Yog'lar
- 9. Malham
- 10. Surtma
- 11. Sharbatlar
- 12. Murabbolar

Ta`sir mexanizmiga qarab nomlanishi.

- 1.Taryoq
- 2. Ma`jun
- 3.Munzij
- 4. Mulayyin
- 5. Musqil
- 6. Juvorishn

7. Iyoraj
- 8.Zaharlar
- 9.Podzaxr
- 10.Har bir kasallikka taaluqli dorilar
11. Umumiy maqsadda ishlatiladigan dorilar

Ibn Sino ta`limotida dorilar bilan davolashning 3 ta qonuni mavjud:

- 1.Dorilarni kayfiyatiga qarab, ya`ni uning mizojiga qarab tanlash
 - 2.Dorilarning og`irligini o`lchash qonuni
 - 3.Dorilarni iste`mol qilish vaqtini aniqlash qonuni
- Dorilarni a`zolarga yetkazishda quyidagilarga e`tibor berish lozim:
- 1) a`zoning dori ishlatiladigan joydan uzoq - yaqinligiga
 - 2) dorilarni a`zoga yetkazish uchun unga nima qo`shish kerakligi
 - 3) dorini kasal a`zoga qaysi tomondan kiritilishiga e`tibor berilgan
- A`zoning quvvatiga yarasha dori berishda esa 3 narsaga e`tibor berish kerak:
- 1) a`zoning boshqaruvchi va boshlang`ich ekanligiga
 - 2) a`zolarning hamkorligiga
 - 3) sezgining o`tkir va o`tmasligiga
- Dorilarni tavsiya etishda ularning quvvatini aniqlash kerak va u 2 yo`l bilan aniqlanadi:
- 1) solishtirma yo`l 2) tajriba yo`li
- Dorilarni quvvatini tajriba yo`li bilan aniqlaganda quyidagi shartlarga rioya qilinadi:
- tajriba qilinadigan dorini mizojini aniqlash
 - tajriba qilinuvchi bemorning bitta kasalligi bo`lishi kerak
 - dori bir-biriga qarshi xususiyatlari ikkita kasallik ustida tajriba qilinib, ko`riliishi kerak
 - dori kuchi jihatidan o`ziga teng kasallikka qarshi ishlatilgan bo`lishi kerak
 - dorining ta`siri yuzaga chiqadigan vaqtini e`tiborga olish kerak
 - dori ta`sirining doimiy yoki ko`p hollarda uzluksiz bo`lib turishini nazarda tutish kerak, shunday bo`lmaganda uning ta`siri qo`shimcha bo`lib qoladi
 - tajriba odam gavdasida bajarilishi kerak.

Usora va rubb - fors tilidan olingan so`z bo`lib, ular quyidagi uslublarda, o`simlik mahsulotlaridan tayyorlanadi.

Usora - o`simlikni xoxlagan sifatli qismi olinib, kichkina bo`laklarda maydalanib, keyin yanchiladi, so`ngra qo`goz xaltalarga solib siqib, shirasi ajratib olib, chinni yoki sopol lagan yoki likopchalarga solib quyoshda ustini xarir ipakdan qilingan yupqa mato bilan yopib qo`yiladi, toki lagan yoki likopchadagi shiraning suv qismi bug'lanib, quyuqlashib, qiyom holiga kelsin.

Buxoro xalqi bu qiyomni umumiy qilib «ochor» deydi, chunki o`tmishda Buxoro xalqi uzum, qovun, shaftoli, o`rik, tut kabi mevalardan shu usulda qiyom olib qishda iste`mol qilganlar. Quyosh nuri ta`sirida tayyorlab olingan qiyom - ochorni usora deyiladi. Ular sopol, chinni idishlarda keyingi vaqtida esa shisha idishlarda saqlangan.

Rubb - yuqorida zikr qilinganidek, o`simlik mahsulotlarining shirasi ajratib olingandan so`ng, shu shira mis qozonlarga solib uncha katta bo`Imagan alanga ta`sirida qaynatiladi. Toki shira tarkibidagi suv bug'lanib, qiyom holiga kelsin, bu uslubda olingan qiyom rubb deyiladi.

O`tmishda Buxoro ahli uzum, nayshakar, qand lavlagi shirasini ajratib olib katta mis qozonlarga solib sekin qaynatib qiyomga kelishidan oldin gulob qo`shib, so`ngra shirani tindirib olganlar. Gulob qo`shish 7 marotaba takrorlangan, so`ngra esa shirani qaynatib qiyom holiga keltirib, undan shirinliklar tayyorlaganlar. Gulob qumi bu texnologik jarayonda sorbent vazifasini o`tab, shira tarkibidagi boshqa zararli moddalarni o`ziga jamlab oladi.

Tayyorlangan qiyom - rubb chinni, sopol, yaxshisi shisha idishlarga solib saqlanadi.

Taryoqlar va katta ma`junlar

Taryoqlar murakkab dorilarning eng yaxshisi va afzali bo`lib, taryoqning eng yaxshi xili katta taryoq bo`lib, u taryoqi foruq deb ataladi. Bu dori kasallikni sog`likdan, o`limni hayotdan, zaharni inson tabiatidan ajratgani uchun unga foruq nomi berilgan, ya`ni ayiruvchi taryoq ham deyiladi.

Birinchi marta Rim imperatori saroy tabibi Andramax taryoqni kashf etgan.

Taryoqi foruq - murakkab dorilarning eng yaxshi va eng afzalidir, chunki u ko`p narsalarga foyda qiladi, xususan ilon,

chayon va quturgan it zahariga ichilgan o`ldiruvchi zaharlarga, shuningdek, balg`amda hamda savdodan bo`ladigan kasalliklarga va ularning isitmalariga, yomon bodlar, falaj, sakta, tutqanoq, yuz falaji, qaltiroqlik, vasvasalik, jinnilik, ayniqsa moxov kasalligiga hamda peslikka foyda qiladi.

Bu taryoq yurakni tetiklashtiradi, hislarni o`tkirlashtiradi, ishtahalarni qo`zg`atadi, me'yordan kuchaytiradi, nafas olishni kuchaytiradi, xafaqonni ketkazadi va qon tuflashni to`xtatadi, buyrak va qovuqning ko`pchilik og'riqlariga, hamda ulardan turli narsalarning oqishiga qarshi ham foyda qiladi, toshni maydalaydi, shuningdek, ichak yaralariga, jigar, taloq va boshqa à zolarda bo`ladigan ichki qattiqqliklarga ham foyda qiladi. Taryoq bu ta`sirlarni, o`z tarkibidagi sodda dorilarning aralashuvidan kelib chiqadigan suratining xususiyati tufayli amalga oshiradi, chunki u ruh bilan tug`ma haroratni kuchaytiradi va shu orqali inson tabiatiga sovuqlik va issiqlikka qarshi turishda yordam beradi. Bu dori uchun eng yaxshi nusxa Andromaxning dastlabki asl nusxasidir. Jolinus va ko`pgina tabiblar kunning tarkibini orttirish yoki kamaytirishga urinib ko`rganlar, buni ular biron zarurat yoki kuchli sabab tufayli qilmaganlar, balki nomlari zikr etilsin va ulardan ham Andromaxdan qolgani kabi yodgorlik qolsin degan umidda qilganlar. Tajriba natijasida najot beruvchi bo`lib chiqqan tarkibdan hech narsani o`zgartirmaslik durustroq bo`ladi. Taryoqni shu xil vaznda tarkib qilish zarurligi tajribaning taqozosidir. Agar undagi tarkibiy qismlarning vazni o`zgartirilsa, u bunchalik xususiyatga ega bo`lolmaydi. Agar biror kishi taryoq qismlarining, o`sha xildagi vaznlari nima uchun taryoqda shu xil xususiyatni keltirib chiqarish sababini bilaman, deb da`vo qilsa, u kishi rad qilinadigan, yolg'on narsani da`vo qilgan bo`ladi; u xuddi biror kishining ot, inson va boshqalardagi sodda unsurlarning vaznlarini bilishni da`vo qilganiga o`xshaydi.

Taryoqning bolalik, o`smirlik, yoshlik, qarilik va o`lish davrlari bor. U olti oy yoki bir yil o`tgandan keyin bolalik davrida bo`ladi, keyin u o`sa va orta borib, nihoyat issiq mamlakatlarda o`n yildan keyin, sovuq mamlakatlarda esa, yigirma yildan keyin o`sishdan to`xtaydi. So`ngra u o`n yoki yigirma yil davomida to`xtab turadi, keyin yigirma yoki qirq yildan so`ng kuchi kamayib boradi. Nihoyat, uning taryoqligi o`ttiz yoki oltmis yildan keyin yo`qoladi va u taryoqlik darajasidan tushgan

ma`junlarning biriga o`tadi, qisqacha, taryoqning tarkibiga 64 xildan ortiq dorivor moddalar qo`shilgan bo`lib, ta`sir etishiga qarab taryoqning - 6 oydan 1 yilgacha bolalik davri bo`ladi, keyin u o`sса borib, o`smirlik, yoshlik, qarilik davrlarini o`tab 10-20 yildan so`ng kuchi kamayib, 30-60 yildan so`ng oddiy ma`junga aylanadi.

Biror narsa chaqqan kishiga taryoqning yangi va kuchlisini ichirish kerak, boshqalarga esa zaifrog'i ichiriladi. Ko`pincha. biror narsa chaqqanda kishiga yangi taryoqdan yarim misqoldan bir misqolgacha ichirishga to`g'ri keladi. Taryoqning yangi va kuchlisini eski, kuchsiz va yomonidan ajratadigan sinovlardan biri shuki, bir kishiga birorta surgi ichirib, ichi surilishi kutib turiladi, ichi surilgach, taryoq ichiriladi, agar u ichni to`xtatsa, demak, u yangi va yaxshi taryoq, bo`lmasa yomon taryoq hisoblanadi. Jolinus eslatib o`tgan sinovlardan biri: masalan, yovvoyi xo`rozni tutish lozim, chunki uning mizoji uyda boqiladigandan ko`ra quruqroq bo`ladi, menimcha, bu erkak qirg'ovul bo`lsa kerak, keyin u biror zaharli hasharotga chaqtiriladi, keyin unga taryoq ichiriladi, agar u tirik qolsa, taryoq yaxshi hisoblanadi,yoki, taryoqni afyun, sassiq alaf va boshqa narsalar ichgan odamga berib ham sinab ko`rish mumkin. Ayrim og`ir kasallikkarda esa, u faqat o`lim muddatini bir oz kechiktiradi xolos deydi ba`zi tabiblar va bunga mushk dorisi boshqa hamma narsadan ko`ra foydaliroq bo`lsa kerak deydilar.

Har bir ayrim kasallikda taryoqdan qancha ichirish kerakligiga kelsak, shuni aytish kerakki, eski yo`tal, ko`krak va biqin ogrig'ida undan bir misqol miqdoridagisini asal suvi bilan yoki kasalning isitmasi bo`lsa, gulob bilan ichiriladi. Davriy qaltiratuvchi isitma, sovuqlik va quşishning dastlabki davrida taryoqdan bir misqol miqdoridagisi uch uqiyadan kam bo`lmagan va to`rt yarim uqiyadan ortiq bo`lmagan suv yoki sharob bilan ichiriladi. Qulanja uchragan, me`da yarasi va ichagi burab og`riydigan kishilarga bir misqol miqdoridagisi, bilganingdek, asal suvida yoki gulob bilan ichiriladi. Ishtahasi kamaygan kishiga ham, o`zing bilganingdek, suv yoki sharob bilan ichiriladi, taryoqdan bir misqolni tuyog'o't qaynatmasi bilan ichiriladi. Istisqoda bir misqol taryoq ovqatdan oldin yo'tqiziladi yoki bir yarim uqiya miqdordagi suyultirilgan sirkadan ichiriladi. Qon tuflaydigan kishiga esa, agar kasallik yaqinda boshlangan bo`lsa, taryoqdan bir misqolchasi suyultirilgan sirkada ichiriladi, agar kasallik eski bo`lsa, o`sha miqdorni

bir oz ko`paytirib, ertalabki va kechqurun ichiriladi. Ovozi bo`g`ilib qolgan kishiga bir chayqash miqdordagi taryoqni asalli suv yoki uzum shinnisi bilan ichiriladi, yoki til tagida tutib turishga buyuriladi. Ichak yaralari va ichdan qon ketishga qarshi yoki tatim suvi bilan, nafas qisishga qarshi esa, bir uqiyadan kamroq oq piyoz sikanjubin bilan ichiriladi. Tutqanoqda taryoq bilan tomoq chayiladi, keyin chorak misqoldan yarim misqolchasini suvda yoki dengiz piyozi sikanjubinida ichiriladi; bosh og`rig`i va shaqiqada ham shunday qilinadi.

Agar taryoq kashnich qaynatmasi bilan ichirilsa, qovuq va buyrakdagagi toshni maydalaydi. U hayzni to`xtatadi va tabiatni bog`laydi. Sog`liq vaqtlarida taryoq ichib yurgan kishiga zaharlar ta`sir qilmaydi. U turli ofatlardan saqlanadi va vabo kasalliklaridan omon qoladi.

Taryoqning sifati. Oq piyoz kulchalaridan qirq sakkiz misqol; afo iloni kulchalaridan yigirma to`rt misqol; andruqrun kulchalari, qoramurch va afyunlarning har biridan shunchadan dorchindan, ayrim adabiyotlarda o`n ikki misqol, boshqa bir adabiyotlarda yigirma to`rt misqol; qizil guldan o`n ikki misqol; yovvoyi sholg`om urug`i, yovvoyi sarimsoq, gulsapsar ildizi, daraxt po`kagi, chuchukmiyaning quyultirilgan shirasi va balzam zehining har biridan shuncha vazndan; murr, za`faron, zanjabil, rovoch, tog` yalpizi, kanavcha, tog` petrushkasi, Rum rayhoni, qust, oq murch, uzun murch, kiyik o`ti, kundur yelimi, qorachayir guli, saqich, qora seylon dorchini, hind sunbuli va julaxlarning har biridan olti misqoldan; suyuq may`a yelimi, petrushka urug`i, Rum sassiq qavragi, oq indov urug`i, juvona, kamodaryus, kamofitus, takasoqol shirasi, Iqlit sunbuli, sodaj, yovvoyi ukrop ildizi, gentiana ildizi, arpabodiyon urug`i, muhr loyi, kuydirilgan sariq zok, amom, igir, balzam daraxti urug`i, dalachoy, tog` sunbulining ildizi, arab yelimi, yovvoyi zira, Rum arpabodiyoni va arab akatsiyasining shirasi - shularning har biridan to`rt misqoldan; yovvoyi sabzi urug`i, galban yelimi, yahud mumi, govshir, ingichka lufo va uzun aristoloxiyalarning har biridan ikki misqoldan,- ayrim adabiyotlarda- uzun aristoloxiyaning o`rniga uning dumalog`i ko`rsatilgan. Qunduz qiridan,- ba`zi bir adabiyotlarda- ikki misqol,- boshqa bir adabiyotlarda- to`rt misqol olinadi; eron gavragi haqida ham gap shunday; asaldan o`n ritl, eski xushbo`y sharobdan ikki qism olinadi. Dorilardan eriydiganlari eritiladi, iviydiganlari ivitiladi, quruqlari esa yanchib elanadi. So`ngra hammasi

asal bilan qorilib, sopol yoki qalay, yoki kumush idishga solib qo`yiladi; Shunda idish to`lmasdan, dori nafas olishi uchun, bo`s sh joy qoldiriladi. Asal va sharobdan tashqari hamma dorilar oltmisht to`rtta dorivor o`simlikdan iborat.

Boshqa nusxa. Dengiz piyozi kulchalaridan qirq sakkiz misqol; afo iloni kulchalari, andruqurun kulchalari, qoramurch va yaxshi afyunning har biridan yigirma to`rt misqoldan; yovvoyi sarimsoq, quruq qizil gul, yovvoyi sholg`om urug`i, gulsapsar ildizi, daraxt po`kagi, gulsapsar shirasi, bal`zam yog`i va dorchinlarning har biridan - o`n ikki misqoldan, murr, kanavcha, za`faron, uzun murch, zanjabil, tog` yalpizi, tog` petrushkasi, fantofilun, ya`ni yovvoyi g`ozpanja, Xitoy rovochi, oq achchiq qust, Rum rayhoni, oq murch, kiyiko`ti, qorachayir guli, saqich, kundur yelimi, Tseylon dorchini sunbullarining har biridan - olti misqoldan; gentiana ildizi, oq indov, stiraks yelimi, Rum sassiq qavragi, Iqlit sunbuli, ya`ni nordin, juvona urug`i, kamofitus, kamodaryus, takasoqol shirasi, sodaj, Rum arpabodiyoni, tog` sunbulining ildizi, yovvoyi ukrop ildizi, petrushka urug`i, arpabodiyon urug`i, mehriyiyo, qizdirilgan sariq zok, amom, dalachoy, igir, bal`zam urug`i, arab akakiyasi shirasi, arab yelimi va yovvoyi ziralarning har biridan - to`rt misqoldan; beklar. o`ti, gal`ban yelimi, govshir, eron qavragi, yahud mumi, zufo, dumaloq aristoloxiya va qunduz qirining har biridan -ikki misqoldan olinadi. Ba`zan bu nusxaga ajam nuxxalarida ko`rsatilgan quyidagi dorilarni ham qo`shadilar: suv yalpizi, chayono`t, katiro, artaniso`, uzun aristoholiya va mingdevona urug`larining har biridan ikki misqoldan olinadi. Asaldan tashqari, hamma aralashmalar - etmishta; asal dorilarga nisbatan ikki hissa ko`proq olinadi. Shunday qilib, taryoq tarkibiga kiradigan hamma narsalar bir ming to`rt yuz o`ttiz to`rt misqolni tashkil etadi. Za`faron alohida eziladi, yaurr, afyun va kundur yelimi esa alohida yanchiladi, bularni qaynatilgan tillo sharobda bir kecha ivitiladi. Saqich va galban yelimi balzam yog`ida eritiladi; sariq zok alohida yanchiladi, keyin boshqa dorilar yanchib elanadi va hammasi, ko`pigi olingan asal bilan qoriladi. Qorish oldidan dorilar aralashishi uchun hovonchada yaxshilab eziladi. Keyin ular shisha yoki sopol idishga ko`tarib qo`yiladi va to`rt yildan keyin iste`mol qilinadi. To`la bir ichimi bir dirham bo`lib, nahorga iliq suv bilan ichiladi.

Yog'larni tayyorlash

Yog'lar - asosan o'simlik urug'laridan tayyorlanadi. O'simlik mahsulotlaridan juda xilma-xil usulda dorivor yog'lar olinadi. Bularni o'sha o'simlik ustida so'z yuritganizda izohlab beramiz. Biz bu joyda ko'pchilik hollarda olinadigan yog'larni uch xil uslubi haqida so'z yuritamiz.

1-Usul: Alangasiz yog' olish. Buning uchun o'simlik, uning guli yoki bargi yoki bo`lmasa, tanasi olib shisha bankaga solib to`ldiriladi va ustiga toza kunjut yoki zaytun yog'i solib og'zi yopilib, quyoshda 5-6 kun qo'yiladi. 7- kuni banka ichidagi o'simlik mahsuloti chiqarib, undagi yog'ni siqib olib, bankani yana oldingi solingan mahsulot bilan to`ldiramiz va undagi yog' bilan aralashtirib, quyoshda qo'yamiz. Bu uslub 5-6 ba`zida 7 marotaba takrorlanadi.

Bu usulda yog' tayyorlash jarayonida har doim mahsulotning rangi, hidi, ta'mi, quyosh nuri ta'sirida yog'ga o'tadi. Tayyor bo`lgan yog' tindirilib, shisha yoki sopol idishga solib og'zi yopiq holda saqlanadi va olingan yog' o'sha o'simlik va uning qismi nomi bilan nomlanadi.

2-Usul: Alangali yog' olish.

Bu uslubda shifobaxsh yog'larni olish 3 uslubda bajariladi.

a) agar yog' olinadigan o'simlik mahsuloti quritilmagan bo'lsa, unda mahsulot mis yoki tosh qozonga solinadi va ustiga toza kunjut yoki zaytun yog'i solinib, past olovda to o'simlik mahsuloti yetilib pishgancha qaynatiladi (kuydirish darajasigacha olib borilmaydi) va u olovdan olib ilik holda tindiriladi. Sarimsoq, anzur, piyoz misolida.

b) yoki bo`lmasa o'simlik shirasini siqib olib, ustiga 2:1 nisbatda yog' solib past olovda qaynatamiz, toki yog' qaynash harakatidan qolsin, bu uslubda shira tarkibidagi suvni bug'lantirib, uning tarkibiy qismini yog'ga o'tkazamiz.

v) bu uslubni umri qisqa o'simliklar, asosan qizil gul, tog' guli va boshqa gullardan yog' olish uchun qo'llaymiz. Buning uchun o'simlik gullari va gul barglari quritib olib kuyiladi va zarurat tugilganida esa shu quritilgan dorivor mahsulotdan bir sig'im olib, mis qozonlarga solib ustidan bir piyola suv solib qaynashgacha yetkazamiz va uning ustiga bir piyola zaytun yoki kunjut moyi solib past olovda asta-sekinlik bilan aralashma tarkibidagi suvni bug'lantirib yuboramiz (qozondagi yog' harakatdan qoladi). Keyin qozonni olovdan olib, yoqni issiq holda

tindirib olamiz. Ehtiyot bo`lish kerakki, yog' qizimasin, chunki yog'ning shifobaxshlik kuchi so`nadi.

Birinchi tayyorlov uslubi. Xushbo`y qamish, dafna bargi, bal'zam yog'ochi, hind sodaji, qora andiz, qorachayir, archa bujuri, mirt, yovvoyi zira va sarimsoqlarning har biridan ikki uqiyadan olib, yirik qilib yanchiladi va qozonga solib, ustiga sharob va suv quyiladida, ivitib qo`yiladi. Keyin ustiga besh bo`lak kunjut yog'idan qo`sib, qo`shaloq idishda uch soat davomida past olovda qaynatiladi, shunda doimo kovlab turiladi, keyin olovdan tushirib,sovutib qo`yiladi va yog' suziladi.

Ikkinchi tayyorlov uslubi. Qizil gul, seylon dolchini, ho`l mirt shirasi va murrlarning har biridan ikki uqiyadan olib, yirik qilib yanchiladi va ustiga suv yoki sharob solib ivitiladi keyii birinchi gal pishirilgan yog'ni qo`sib, uch soat past olovda qaynatiladi vasovutib suziladi.

Uchinchi tayyorlov uslubi. Sunbul, qalampirmunchoq va may`a yelimlarining har biridan uch uqiyadan, muskat yong'oqidan besh uqiya va bal'zam yog'idan olti uqiya olinadi. Dorilarni yirik qilib yanchib, ustiga suv quyiladi, aralashma qizigach, yuqorida ko`rsatilgan pishirilgan yog'ni, shuningdek, bal'zam yog'i va sovuq may`a yelimini qo`sib kovlash orqali yaxshilab aralashtiriladi va suvi ketib yog'i qolguncha qaynatiladi.

Ilon yog'i. Temiratkilarga va orqa teshik bo`shashganga foyda qiladi.

Tarkibi. Uch misqol kunjut yog'idan olib, sopol qozonga solinadi, keyin unga beshtadan o`ntagacha tirik qora ilonni solib, qozonning og`zi berkitiladi va ular tililib ketguncha past olovda qaynatiladi. Keyin olovdan tushirib,sovutib qo`yiladida, qozonning og`zi ochiladi, shunda uning bug'idan saqlanish kerak; yana, u sovub bug'i ketguncha qo`yib qo`yiladi, so`ngra shisha idishga solib qo`yib, keragida olib, surtib ishlatish mumkin.

Qovoq yog'i. Bu yog'ning yolg'iz o`zi butun badandagi har qanday haroratga foyda qiladi. Agar harorat tashqi a`zoda bo`lsa, bu yog' o`sha yerga surtiladi, agar qovuq va buyrakda bo`lsa, ularning ustiga surtiladi, bu yog ichiriladi va ovqatga qo`sib beriladi. Agar harorat butun badanda bo`lsa, u ichiriladi va ovqatga qo`sib beriladi. agar harorat boshda bo`lsa, bu yog' boshga surtiladi va burunga tortiladi.

Agar ichaklarda o`tkir o`t bo`lsa, bu ichiriladi. U haqiqatan ham, bularning hammasiga foyda yetkazadi. Tayyorlash: katta pishgan qovoqni olib, po`chog'i artiladi va maydalab siqiladi, uning suvidan to`rt qism va yangi kunjut yog'idan bir qism olib, ikkalasi past olovda suvi ketib , yog'ning o`zi qolguncha qaynatiladi, keyin suzib, shishaga solib qo`yib, iste`mol qilinadi.

Rayhon yog'i. Tizza, bug'imlar va butun badandagi bodga foyda qiladi.

Tayyorlash: Rayhon suvidan bir qism va kunjut yog'idan ham bir qism olinadida, suvning hammasi bug'lanib ketib , yog' qolguncha qaynatiladi. Keyin suziladi va shisha idishga solib, og'zi mahkamlab berkitib qo`yiladi. Bir ichimi biz yuqorida aytgan kasalliklar uchun bir misqoldan yarim uqiyagacha bo`lib, uni bir oz zira qo'shib qaynatilgan no`xat suvining ikki uqiyasi bilan ichiriladi va ustidan zirboj bilan ovqatlantiriladi, a`zolarga bu yog' surtilsa ham foyda qiladi.

Mavzu savollari

- 1.Sharqona tabobatda dori darmonlarni tayyorlash haqida tushinchcha berish.
- 2.Ishlatiladigan asbob- uskunalar haqida tushinchcha berish.
- 3.Dorivor maxsulotlarning olish usullari haqida.
- 4.O'lchov birliklari aham iyati.
- 5.Sodda dorilarni olish usullari .
- 6.Asbob-uskunalarning turlari haqida.
- 7.Dorilar necha xil buladi, ularning sifatlari.
- 8.Dorilarning ta'sir mexanizmiga kura tasnifi.
- 9.Sodda dorilarni tayyorlash usullari.
- 10.Murakkab dorilar haqida tushuncha.

IV BOB. BOSH MIYA VA BOSHDA JOYLASHGAN A'ZOLAR KASALLIKLARI

4.1. §. Asab sistemasi kasalliklarini sharqona tabobat usulida tashxislash va davolash

Bosh miya anatomiysi va fiziologiyasi

Inson miyasining tuzilishi quyidagi qismlarga bo`linadi. Bosh miya, parda moddasi, miya mag'zi va rux (energiya) bilan to`la bo`lgan tomirlar va miyadan o`sib chiquvchi asab tolalaridan iborat bo`lib, butun miya 2 qismga (2 pallaga) bo`lingan.

Miya moddasining mizoji sovuq va ho`l bo`lib, sovuq bo`lishiga sabab, u yerda hosil bo`ladigan quvvatlar miyani qizdirmasligi uchun bo`lib, quvvatlar esa asablarning harakati va sezgi funksiyalarining turli ta`sirotlar natijasida o`zgarishidan, insonning fikrlash, eslash, ko`p qobiliyatlarning o`zgarishi natijasida ruhning sezish harakatidan iborat bo`lib hisoblanadi. Bundan tashqari yurakdan miyaga boruvchi 2 ta katta qon tomirlardan issiq ruh miyaga boradi, miyadagi sovuq muhit esa uni mo`tadillashtiradi, miya ko`p ishlagani uchun, issiq ruh miyani quritmasligi va miya mag'zining shakli yaxshi bo`lishi uchun ham u ho`l tabiatli qilib yaratilgan. Ibn Sinoning fikricha miya yog'li va yumshoq qilib yaratilgan bo`lib, yumshoq bo`lishiga sabab, miya mag'zining shakli bu tezisda bo`lishi, inson xayol surishi natijasida bir holdan ikkinchi holga o`tishi (turli stress holatlarga tez moslashish) uchun bo`ladi. Yog'li bo`lishiga sabab, bosh miyadan uzoqlashuvi asab tolalarining oziqlanishiga yaxshi yordam beradi, ammo miya moddasining yumshoq va qattiqlik darajasi turlicha bo`ladi.


Miyaning old bo`lagi yumshoq bo`ladi, chunki sezuvchi asablarning aksariyati ko`rish, hidlash va eshitish asablari miyaning old qismidan ajratib turadi, miyaning orqa bo`lagidan esa harakat asablari ajralib chiqadi. Butun bosh miya 2 ta parda bilan qoplangan, birinchisi yumshoq bo`lib, miyani o`rab tursa ikkinchisi qattiq bo`lib, bosh miya suyagiga tegib turadi.

Bosh miyaning uzunasiga uchta qorinchasi bo`lib, har bir qorincha eniga ikkita bo`limga bo`linadi. Old qorincha nafas olish aksirish, ichki idroq etuvchi (xotira, fikrlash, xayol surish). Quvvatlarni ishiga yordam

bo`ladi, ya`ni sezuvchi ruhni asablarni ishini boshqarsa, orqa qorincha harakatlanuvchi ruhni boshqarib turadi, bu ikkala qorincha o`rtasida esa o`rta qorin turadi

Bosh miyada nafsoniy quvvatlar hosil bo`lib, ularg joylashgan joyi va vazifasiga ko`ra 3 turga bo`linandi:

- 1 turi-tashqi sezgi quvvatlari(zohiriy his quvvatlari)
- 2 tui-ichki sezgi quvvatlari(botiniy his quvvatlari)
- 3 harakat quvvatlari




Asab kasalliklari tasnifi

- 1) Bosh og'riqlari (sudo)-bayza yoki huda kasalligi (temir qalp)
-Shaqiqa-migren' kasalligi
- 2) Litargus-sovuq sarsom kasalligi
- 3) Tutqanoq-epilepsiya kasalligi
- 4) Sakta – insul't kasalligi
- 5) Yuz falaji (laqva) kasalligi
- 6) Melanxoliya kasalligi
- 7) eslash qobiliyatining pasayeyishi bilan o`tuvchi kasalliklar va h.k

Asab kasalliklarining sabablari

Inson tanasi charchaganda



882. Синтетик мозг, medulla spinalis
(Неврологический разрез спинного мозга, проекция белого и серого вещества.)

Uyqusiz holati ro`y berganda
Asab tizimiga salbiy ta`sirlar o`tkazilganda

Bosh miya kasalliklari va ularning kelib chiqish sabablari:

1)Bosh miyada 8 xil mizoj buzilish kasalliklari uchraydi, ular moddali va moddasiz bo`lishi mumkin. Moddali mizoj buzilish asoan rutubatlar (ortiqcha moddalarning miyada yig'ilishidan) hosil bo`ladi, jarayon ko`pincha miyaning o`zida uning tomirlarida yoki pardalarida bo`ladi.

2)Tarkib (tuzilish kasalliklari) miyaning anatomik jihatdan biror bir nuqsonidan kelib chiqadi yoki miya yo`llarida, tomirlarida tiqilmalarning bo`lishi, miya faoliyatiga zarar yetkazadi

3)Uzluksizlikning buzilishi esa miyaning o`zida, uning arteriya va venalarida yoki bosh miyaning asosida bo`lishidir.

Bosh miya kasalliklarning kechishi ko`pincha hamkor a`zolar kasalliklari bilan boradi.

Bosh miya ahvolini bildiradigan dalillar (manbalar)

Bosh miya va uning faoliyatini o`rganishda quyidagi manbalar asoslanadi.

- 1)Sezish va idroq qilish
- 2)Eslash, fikr qilish, tasavvur, aql-farosat
- 3)Harakatlanish quvvati
- 4)Boshning katta yoki kichikligi
- 5)Bosh terisida paydo bo`ladigan yara va shishlar
- 6)Ko`z va undagi tomirlarning rangi, ko`zning sog`ligi, uni ushlab ko`rgandagi holati
- 7)Uyqu va uyqusizlik
- 8)Sochning holati –oz ko`pligi, yo`g'on –ingichkaligi
- 9)Bodomsimon bezlar , tilcha, tishlarning holatidan
- 10)Miyaga hamkor bo`lgan, inasabatsiyasi kuchli bo`lgan organlar (bachadon, me`da qovuq) kabi organlarning holatidan va boshqalar.

Bosh og'riqlari va uning turlari haqida

Bosh og'rig'i sudo bosh a`zolarida bo`ladigan og'riq bo`lib, uning sababi mizoj buzilishi yoki uzluksizlikning buzilishidan kelib chiqishi mumkin. Bu buzilishlar - miya moddasining o`zida yoki miyani o`ragan pardada,

tomirlarida bo'lishi mumkin. Ayni holda bosh og'rig'i hamkor a`zolar tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Og'riqning joylashgan joyiga qarab, agar u boshning yarmida bo'lib, og'riq doimiy bo'lsa Shaqiqa (migren) deyiladi. Agar og'riq boshning hamma qismini o'rab olsa, doimiy xarakterga ega bo'lsa u bayza yoki huda (temir qalpoq) bosh og'rig'i deyilib, og'riq boshni temir qoplagandek qisib olganligi sababli shu nom bilan yuritilgan. Bosh og'riqlari kechishiga qarab kuchli, o'rtacha va kuchsiz bo'lishi mumkin.

Ibn Sino bo'yicha bosh og'rig'inining tasnifi:

1. Sababiga ko'ra
 - a) mizoj buzilishi
 - b) uzluksizlikning buzilishi
 - v) hamkor a`zolar kasalliklari sababli
2. Turlariga ko'ra
 - a) Shaqiqa
 - b) bayza yoki huda
3. Kechishi bo'yicha
 - a) kuchsiz
 - b) o'rtacha
 - v) kuchli

Yuqoridagi sabablarning hammasi miya moddasining o'zida, yoki miyani o'ragan pardada, yoki uni o'rab turgan ikkala pardada, miya tomirida, yoki bosh suyagining sirtidagi pardada bo'ladi. Ayrim hollarda jarayon hamkor a`zolar orqali xam bo'lishi mumkin.

Bosh og'riqlari ba`zan butun gavdaning hamkorligi tufayli paydo bo'ladigan kasalliklar, umumiy kasalliklar natijasida ham paydo bo'ladi. Bosh og'rig'i qayerdagiligiga qarab ham qismlarga bo'linadi: ba`zida u boshning yarmida bo'ladi; agar u shu xil og'riq doimiy odat bo'lib qolsa, uni Shaqiqa deb ataladi. Ba`zan og'riq boshning oldingi va ba`zan keyingi bo'lagida bo'ladi; ba`zan esa butun boshni o'rab oladi. Shu keyingisi dorini va odat bo'lib qolsa uni bayza va huda (temir qalpoq) deb ataladi; butun boshni o'rab turadigan harbiy temir qalpoqqa o'xshatib shunday ism bilan ataladi.

Bosh og'rig'i qattiq, o'rtacha va kuchsiz bo'lishi bilan ham turlichay bo'ladi.

Uzluksizlikning buzilishi tufayli paydo bo'ladigan bosh og'rig'i

Uzluksizlikning buzilishi miya pardalarida, moddasida yoki tomirlarida travma natijasida kelib chiqishi mumkin. Uzluksizlikning buzilishi asosan tiqilma va rutubatlarning tomirlarda ko'payib ketganligidan turli xil zARB va yiqilishlardan va ichki stresslar tufayli paydo bo'ladi.

Shishlardan paydo bo'ladigan bosh og'rig'i.

Bosh og'rig'ini paydo qiladigan shish ba'zan miya pardalarida bo'ladi. U shish ba'zan issiq bo'lib, issiq sarsom deb ataladi, ba'zan esa u sovuq bo'lib, litargus, ya`ni unutish kasalligi deb nomlanadi. Ayrim hollarda u murakkab bo'ladi va shunday shishga uchragan kishida bo'ladigan holni «uyqusizlikka o'xhash qattiq uyqu» deb ataladi. U shish ba'zan qattiq bo'ladi. Shish goh miyaning o'zida va moddasida bo'lib, yo issiq-flegmona, yoki saramas bo'ladi, yoki sovuq bo'ladi. Bu shishlar ko'pincha, boshdan quloq va boshqa yo'llar orqali yiring, zardob, yoki moddasi bo'lib chiqib tarqaladi. Shishlar issiq va sovuq bo'ladi. Issiq shishlarga absess, flegmona yoki saramas bo'lib u kuchli bosh og'rig'iga sabab bo'lishi mumkin.

Bosh og'rig'ida qo'llaniladigan umumiylardan tadbir.

Bosh og'rig'i sababini aniqlab, to'xtatish kerak, shunga ko'ra chora-tadbirlar o'tkazish mumkin, asosiy foydali tadbirlar uzayish, ayniqsa, ichkilikni kam ichish va uslashdan iborat. Ko'p yejish cho'zilgan bosh og'rig'ida zarar bergani kabi haddan tashqari uzayish ham issiq bosh og'rig'iga sabab bo'lishi mumkin. Bosh og'rig'ini umumiylardan qoidalari: osoishtalik, bemorni ko'p aqliy mehnat qilishdan asrash.

Boshga surtiladigan dorilar ishlatilganda sochni qirqish kerak chunki bu dorining ta'siri bosh ichkarisiga o'tishiga yordam beradi.

Dori bosh terisiga xamir holida boshga aylantirib surtiladi, chunki bu ta'sirni yuzaga chiqaradi.

Bundan tashqari boshdan peshona tomiridan qon olish, boshning quyi qismiga doimo qortiqlar qo'yib turish, oyoq-qo'llarni uqalash, ularni issiq suvga solish, oz-oz yurishga o'rgatish, qorinni dam qiluvchi va gaz paydo qiluvchi, hazmi qiyin ovqatlarni yejishni cheklash.

Moddasiz issiq bosh og'rig'i, oftob urishi, safro va qon moddasidan paydo bo'ladigan issiq bosh og'rig'ini davolash

Bu bosh og'rig'ini davolashda asosan isituvchi vositalardan saqlanish kerak. Buning uchun sovutilgan gul yog'idan foydalanish yaxshi yordam beradi. Agar gul yog'i foyda qilmasa, unga sabzavot va mizozi sovuq bo'lgan o'simliklarining shiralarini aralashtirish, kasal burniga sovutilgan sutga sovutilgan binafsha yog'i sovutilgan gul yog'i tomizish yaxshi yordam beradi. Gul yog'ini sirka bilan aralashtirish ham ta'siri yaxshi bo'lib, chunki sirka dorilar bilan davolash qonuniga asosan dorini singdirishga yordam beradi. Ba'zan ko'proq miqdordagi suvga aralashtirib ichirish ham juda foyda qiladi.

Moddasiz yoki balg'am va savdo moddasidan bo'lган sovuq bosh og'rig'ini davolash.


Bu xil bosh og'rig'ida amalda qizdiruvchi vositalar bilan qilingan kompresslar, masalan, isitilgan kompress, qizdirilgan tariq va qizdirilgan tuzdan qilingan kompresslar foyda qiladi. Sovuq tufayli bosh og'rig'iga uchragan kishilarga, ayniqsa, ularning sovuq tekkanlariga, agar ularning badanlari bo'shatish orqali tozalangan bo'lsa, boshni ochib quyosh ro'parasida to tuzalib bosh og'riqlari tarqalguncha turish foyda qiladi. Sovuq tekkan kishining ovqatini ozaytirish, huqna dorilar bilan tabiatini yumshatish, jismoniy, nafsoniy va fikriy harakatlardan uzoq tutish, sovuq ichimliklardan tiyish va sovuqqa chiqishga qo'ymaslik zarur. Sovuq sababli bosh og'rig'iga uchraganlarning hammasiga agar kerak bo'lsa, tozalangandan keyin yuqorida eslatib o'tilgan va qizdirish xususiyatiga ega bo'lган surtiladigan, burunga yuboriladigan, burunga tortiladigan, hidlanadigan va quyiladigan dorilar hamda quyuq surtmalar foyda qiladi. Suyuk rayxoni sharobni urug'lar, ya'ni petrushka urug'i, arpabodiyon, rum arpabodiyoni, zira, yovvoyi sabzi urug'i yoki petrushka urug'i shularga o'xshashlar bilan qo'shib ichirish ham u bemorga yaxshi foyda qiladi.

Bundan tashqari, xardal quyuq surtmasi, qizartiruvchi quyuq surtmalar, ayniqsa ularning xardal va tog' gazako'ti yelimi bilan qo'shilgani foyda qiladi. Qulni sirka bilan qo'shib surish, Shuningdek zarchavani achchiq bodom yog'i bilan surish ham ta'siri yaxshi bo'ladi. Bu dorilarni sochni

qirilgandan keyin surtiladi. Sarimsoq yeish ham sovuqdan bo'lgan bosh og'rig'ini to'xtatuvchi tadbirlardandir.

Balg'am moddasidan bo'lgan sovuq bosh og'rig'ini davolashda, agar xilt badanning hammasida bo'lsa, uni bo'shatiladi, keyin kasalga oz va yengil ovqat beriladi hamda bosh og'rig'i paydo qilmaydigan dorivorlar beriladi. Savdo moddasidan bo'lgan sovuq bosh og'rig'ini davolashda ham davolash qonunida aytilganlarga qarab ish ko'rish lozim. Agar qon ko'pligi va buzuqligi jiatidan tomirdan olish ehtiyoji sezilsa, qon olinadi. Keyingi bayon qilingan yetiltiruvchi dorilar ishlatilgandan keyin bo'shashtiruvchi dorilarni darajalar bilan asta-sekin ishlatish kerak.

Asab tizimining funksional kasalliklari



Bayza yoki huda (temir qalpoq) kasalligi

Bu xil bosh og'irig'ining «temir qalpoq» deb atalishi boshning hamma qismini o'rab olganligidandir. Bu butun boshni o'rab oluvchi, turg'un va uzoq vaqt cho'ziladigan bosh og'rig'i bo'lib, u har vaqt arzimagan bir sabab bilan qo'zg'alishi mumkin. Kasallikni harakat qilish, ichkilik ichish yoki gaz paydo qiluvchi maxsulotlarni yeish ko'zg'atishi mumkin. Ba'zan kasallik kuchli tovush, ba'zan o'rtacha tovushdan ham qo'zg'aladi, shuning uchun bu kasallik bilan og'rigan bemorlar qattiq tovushni, yorug'likni va odamlar bilan aralashishni yoqtirmay qoladi. Bemor yolg'iz qolishni, qorong'ulik, tinchlik va chalqancha yotishni yaxshi ko'radi.

Kasallik klinikasi juda kuchli bo'lib, go'yoki boshga bolg'a urilayotgandek yoki boshi bir tomonga tortilayotgandek, yorilayotgandek bo'lib tuyuladi va og'riq ko'z taglarigacha boradi.

Jolinus bu kasallikning etiologiyasi miyaning kuchsizligi yoki miya sezgisining kuchliligi, deb ko'rsatadi. U kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab qilib, organizmda yetilmagan xilt yoki issiq va sovuq shishlarni ko'rsatadi. Bu bosh og'rig'i, ko'pincha savdo, safro moddasi hosil qiluvchi shishlardan vujudga keladi. Shish, ko'pincha miya pardasining o'rtasida bo'lib, yo bosh kosa suyagining sirtida yoki ichkarisida bo'ladi. Bosh og'rig'ining sababi shish yoki boshqa narsa bu bosh kosasi ichidagi pardada bo'lsa, kasal og'riqni ko'ziga cho'zilib borayotganini sezadi, chunki u parda kovak asablarni o'raydi va uning bir bo'lagigacha boradi. Agar sabab sirtqi pardada bo'lsa, boshga qo'l tegishi bilanoq og'riq seziladi va kasal boshiga qattiqroq tegishni yoqtirmaydi.

Bu bosh og'rig'i, ko'pincha, ilgari bo'lib o'tgan kasalliklar natijasida ham paydo bo'ladi: u kasalliklar sababli miya moddasi va uning ichki pardalari kuchsizlangan bo'ladi, natijada har qanday ta'sirotdan qo'zg'alishi mumkin. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, boshni sirtqi va ichki tomondan o'rabi turadigan og'riqni garchi uning sababi, me'dadagi yoki boshdag'i turli patologik jarayonlar bo'lsa xam, bu kasallik temir qalpoq deb nomlangan.

Davolash. Kasallikning sababi qon ko'pligi bo'lsa, tomirdan qon olinadi.

Burishtiruvchi xossaga ega bo'lган erituvchi va qizdiruvchi yengil dorilar solib tayyorlangan suvlarni kasal boshiga surtiladi.

Masalan: qora chayir guli, bobuna, yalpiz. Asta-sekin kuchli dorilarni ishlatishga o'tib o'ziga mos keladigan dorilar bilan bo'shatish, bundan tashqari, xab dorisini mastaki bilan qo'shib iste'mol qilish juda foydali tadbirlardan biri hisoblanadi. Buni har uch kunda 1 marta iste'mol qilib turiladi. Bo'shatishdan keyin miyani va uning pardalarini quvvatlovchi dorilar beriladi. Mushkianbardan tayyorlanadigan hidli dorilar shular jumlasidandir, bularga yana kofur ham aralashtiriladi.

Kasalning boshiga, doimo issiq va uvishtiruvchi quyuq surtmalarni surtib turish kerak. Kasallik belgilari pasaysa, ularni

hammomga tushirib, kuchli tarqatuvchi quyuq surtmalardan foydalaniladi. Agar bosh og'rig'i boshlanish davrida bo'lsa moddalarning issiqligi ma'lum bo'lsa, kasalga bir necha kun ketma-ket bodom yog'i bilan xiyorshanbar mag'zi ichiriladi.

Bemorlarning burniga mo'mijo bilan binafsha yog'ini yuborish ham foyda qiladi.

Agar «temir qalpoq» uzoqqa cho'zilsa, u issiq sababdan paydo bo'lgan bo'lsa ham sovuq mizojga aylanishi mumkin. Uzoqqa cho'zilgan «temir qalpoq»ni kuchli tarqatuvchi va qizdiruvchi dorilardan boshqasi ketkiza olmaydi. Ayrim hollarda bosh og'rig'iga uchraganlarga «yulduz kulchalari», mushk dorisi va shunga o'xshashlarni burunga yuborish ham foyda qiladi.

«Temir qalpoq» bosh og'rig'ida isituvchi kompresslar, arteriyalardan qon olish va ularni kesish hamda peshona tomiridan qon olish davolash choralariga kiradi. Ovqatlanish tadbiri esa gaz paydo qilmaydigan mahsulotlardan iborat bo'lishi kerak, masalan, ular shirin bodom yog'i bilan yasmik yeyishlari va shuningdek, sabzavotlar sho'rvasi ovqatlanish tartibida bo'lish kerak. Sovuq mizojli kishilarga ham o'shanday ovqat beriladi.

Asosiy surtuvchi dorilar: Afyun, daraxt yelimi, za`faron va arab yelimidan tayyorlanadi. Bemorga qo'l-oyoqlarning uvishishi kuzatilsa, dori chakkaga va qo'l-oyoqlarga surtiladi.

Shaqiqa (migren') kasalligi.

Shaqiqa, boshning bir tomonida ko'zg'aladigan og'riqdir. Jolinus esa uni boshning o'rtasigacha qoplovchi og'riq deb ta'rif qiladi. Uning sababi ba'zan bosh kosasining ichida, ba'zan kosani sirtdan o'rabi turuvchi pardada bo'ladi, ko'pincha og'riq chakka mushaklarida bo'ladi. Uning sababi bosh kosasining sirtida bo'lsa, og'riq boshga tegishli ko'tara olmaydigan darajaga yetadi. Moddalar og'riq o'rniga tashqi venalar yoki arteriyalar orqali yoki miyaning o'zi va pardalari orqali yetishadi, bunda ko'pincha, bosh kosasining choklari orqali ko'tariladi. Shaqiqa aksariyat hollarda moddali mizoj buzilishidan vujudga keladi. Moddasiz buzilgan mizojdan shaqiqa deyarli vujudga kelmaydi.

Xiltlardan bo'ladigan shaqiqa issiq xiltlardan, sovuq xiltlardan va keraksiz gazlarni to'planishidan bo'lishi mumkin. Sovuq moddadan

bo'ladigan shaqiqqa isitish bilan tezda bosiladi va unda tortishish ham seziladi. haroratli modda bilan bo'ladiganida boshni ushlab ko'rilganda issiq tuyuladi, chakkalarida lo'qillash seziladi va sovituvchi narsalardan rohatlanadi, shuningdek, og'riq zo'rayganda sovuq moddali shaqiqada sovuqlik va issiq moddalisida issiqlik seziladi.

Davolash. Shaqiqani davolash xuddi bayza kasalligidek, tomirdan, ayniqsa, peshona va chakka tomiridan qon olish, surgi dori va huqnalar ishlatish hamda moddani qarshiga tortish bilan davolanadi. Sabr ivitilgan sachratqi suvi issiqliqdan bo'lga shaqiqada foyda qiladigan dorilardan sanaladi. Bu dorilardan har gal bir uqiyadan olti uqiyagacha ichiriladi. Peshona tomiridan va shuningdek, burun tomiridan qon olish ham juda foydalidir.

Agar Shaqiqqa davriy bo'lsa, xurujdan oldin butun badanni tozalab, keyin mizojni o'zgartirish kerak, modda issiq bo'lsa, afyun, mehriyo ildizining po'stlari, ukrop, mingdevona va kofurdan iborat uvishtiruvchi dorilarni ikki chakkaga surtiladi.

Shaqiqa kasalligi bilan og'rigan bemorlarga gohida yozuv siyohi ham foyda qiladi, uni boshning kasal tomoniga surtiladi. Za`faron shaqiqaga uchraganlarning peshonalariga suriladigan dorilardandir. Bundan tashqari gazago't yalpizni siyox va gul yog'i bilan qo'shib tayyorlangan quyuq surtma ham foyda qiladi.

Shuningdek, Pavel qo'lchalari, dafna daraxtining mevasi va gazago'tning bargidan bir bo'lakdan va xardaldan yarim bo'lak olib, suv bilan qo'shib, quyuq surtma va tog' gazago'tining yelimidan tayyorlangan mumli surtma ham ishlatiladi.

Agar mizozi sovuq bo'lsa, farfiyun, xardal, nazla o'ti va shularga o'xshash dorilar bilan quyuq surtma qilinadi. Ammo uzoq vaqtga cho'zilgan Shaqiqha hamma vaqt ham sovuq moddadon kelgan bo'lib, unga qarshi tarqatuvchi va kuchli qizdiruvchi dorini ishlatishga to'g'ri keladi.

Badanni bo'shattirib tozalaganingdan keyin surtiladigan dorilarni ishlatish kerak bo'lsa, oldin og'riq tomondan chakka mushagiga surtma surtiladi.

Uvishtiruvchi dori ishlatilganda lo'qillab og'riq kuchaysa, og'riq tomondagi chakka arteriyasiga afyunni va anziratgo'shtxo'rni

burishtiruvchi dorilar bilan birga surtma qilib ishlatish foyda qiladi. O'sha yerga taxtacha bog'lansa, lo'qillatib og'ritayotgan kuchli tomir urishga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, yovvoyi bodring ildizi va ermanni suv va zaytun yog'ida titilgunicha qaynatib, boshning og'riyotgan tomoniga shu suv va yog'ni issiq holida quyiladi va cho'kindisini quyuq surtma qilib bog'lanadi.

Agar kasallik uzoqqa cho'zilsa, tog' gazago'ti yelimi, kovul ildizining po'sti, dengiz piyozi va farfiyunlarni yanchib, elakdan o'tkaziladi va rayxoniylar sharob bilan qorib quyuq surtma qilinadi, bu haqiqatdan ham juda foydali bo'lib hisoblanadi. Shaqiqaga uchraganlarga dastlab hammomga tushish va issiq suvga bir necha martagacha engashib turish ham foydali ishlardan hisoblanadi. Bemorlarning burniga pista yog'i yuboriladi, bu og'riqni o'sha zahotiyoy qoldiradi.

Litargus sovuq sarsom «Unutish» kasalligi.

Kalla suyagini ichida bo'ladigan balg'amli shishga litargus deyiladi, bu balg'amdan vujudga keladigan sarsomdir. Shish ko'pincha miya moddasining yo'llarida bo'lib, uning pardalarida, qorinchalarida va miya mag'zida bo'lmaydi, chunki balg'am miya pardalarining qattiqligi sababli ulardan kamdan-kam o'tadi va yig'iladi, miya moddasiga ham uning yopishqoqligi sababli kam o'tadi. Shuningdek zotiljam kasalligi ham ko'proq vaqt safrodan hosil bo'lib, balg'amdan bo'lishi kamdan-kam uchraydi, chunki balg'am asab tolalaridan qiyinlik bilan o'tadi. Biroq bu kam uchraydigan hollar ikkala kasallikda ham har holda bo'lishi mumkin va bunday shishlarning miya mag'zi va uning pardalarida ham paydo bo'lishi mumkin.

Bu kasallik o'z belgisining ismi bilan atalgan, chunki litargus so'zining tarjimasi «unutish» bo'lib, bu kasallikda doimo unutish yuz beradi.

Buning shunday atalishi ko'p tabiblarni yanglishtiradi, ular bunday sovuq shishdan paydo bo'ladigan kasallik ekanini bilmaydi va bu kasallikni xuddi unutishning o'zi, deb tushunadilar. Ayrim manbalarda yozilishicha miyada bo'ladigan sovuq shishni xox u savdodan bo'lsin, xox balg'amdan bo'lsin litargus deb nomlangan.

Keltirib chiqaruvchi sabablar:

Ko'p ichish, ko'p ovqat yeyish, ho'l mevalarni ko'p iste'mol qilish, ko'p piyoz yeyish va boshqalar.

Belgilari.

-yengil bosh og'rig'i

-kuchsiz isitma

-og'ir uyqu

-kasal ko'zini ochish uchun yumadi

-unutish

-esnash

-og'izni olib-yumish ko'payadi

-ba'zan og'iz ochilgancha qoladi, og'izni yopishni unutadi yoki xoxlasa ham uddasidan chiqqa olmaydi

-nafas siyrak, sust, kuchsiz

Me`da hamkorligi ham qo'shilsa:

-hiqichoq

-til oqligi

-so'roqqa javob berolmaslik

-ko'z milklarini qimirlata olmaslik

-aql chalkashligi

-qo'l-oyoqlar titrab terlaydi

-o'ringa yotganda bemor tomir urishi qattiq, siyrak, sust, titroqli, tulqinsimon bo'ladi

Agar shish savdo moddasidan bo'lsa, qattiq og'riq bilan birga asabiylik va alaxlash bo'ladi. Uning ko'zi ochiq, lekin hech narsani eslay olmaydi.

Agar shish miya mag'zining o'zida bo'lsa, og'ir uyqu, harakat qiyinligi, til oqarishi juda kuchli ko'z gulagining bir oz irg'ib turishi kuzatiladi.

Agar shish miya pardasida bo'lsa, og'riq qattiqroq, harakat esa yengilroq bo'ladi. Bunda unutish va siydik chiqaruvchi mushakning yengilligi sababli siydik tutolmaslik yuzaga keladi. Agar yuqorida belgilarga terlash ham qo'shilsa, o'lim yuzaga keladi, chunki terlash organizm quvvatini tushirib yuboradi.

Davolash. Agar biror monelik bo'lmasa, oldin qon olinadi, huqna va qustirish. Bemorni yorug' uyga yotqizib, qattiq uqlashga qo'ymaslik, uyg'otib turish, sovuq suv ichirilmaydi. Badanni zaytun yog'i, tabiiy soda, qichitqi o'ti urug'i, murch kabi dorivor o'simliklar surtiladi. Bundan tashqari tarqatuvchi quvvati kuchli bo'lgan dorilardan hidlatiladi. Bularga tog' jambil, yalpiz, kaklik o'ti solingan suyuqliklar, asal, dengiz piyozidan ishlatiladi. Oyoq-qo'llar qizarib og'riguncha ishqalab uqalanadi. Ovqat yegandan so'ng qo'l-oyoqlar 1 necha soat massaj qilinadi, bemorni fiziologik chiqaruvlar normaga keltirib uchun qorni va qovug'i binafsha va gulsapsar ildizi solingan qaynatma suv bilan massaj qilinadi. Bemorga tuzalish bosqichlarida yengil badantarbiya mashqlari qilinadi.

Tutqanoq

Tutqanoq nafsoniy a`zolarining sezish va harakat ishlariga, tik turishiga to'sqinlik qiladigan kasallikdir.

Tutqanoqni keltirib chiqaruvchi sabablar

Tutqanoqda tiqilma paydo bo`lishi, ko`pincha miyaning oldingi qorinchasida paydo bo'ladi. Tutqanoq miyani biror bir modda sababli siqilishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Uning sababi miya qorinchalari yoki asablardan o'sib chiqadigan joyida tiqilma paydo qiluvchi xilt bo'ladi.

Tutqanoq o'tib hushga kelishi xiltning haydalganidan yoki yelning tarqalishidan yuzaga keladi. Tutqanoqda og'izdan ko'pik chiqishi sababi nafas harakatining patologik holatga o'tishi bo'lib hisoblanadi. Tutqanoq boshqa hamkor a`zolar tufayli ham kelib chiqadi, lekin sababi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning eng yaqin manbai miya bo'lib hisoblanadi. Tutqanoqni qo'zg'atuvchi sabablar

- haddan tashqari ko'p yeish
 - ichish
 - me'da buzilishi
 - oftobda ko'p turish
 - jinsiy aloqani ko'p qilish
- Tutqanoqqa moyil insonlar
- yosh bolalar va go'daklarda
 - me'da buzilishiga uchraganlarda

- janubiy shamol esadigan mammalakatlarda yashovchi insonlarda paydo bo'ladi, chunki bu narsa organizmda keraksiz chiqindilarning ko'payishiga zamin yaratadi.

Belgilari:

- tilning sarg'ayishi
- til tagidagi tomirning ko'karishidan til harakati kuchsizlanadi
- yomon tushlar
- unutish, vahima
- qo'rkoqlik kabi sezgilar bo'ladi, nafas yomonlashadi, ko'krak siqiladi, g'azab va karlik paydo bo'ladi.

Davolash: 1) Bolalardagi tutqanoqda onasini ovqatlanish rejimini tuzatish, bolani turli ta'surotlardan uyqusizlik, hazm bo'g'ilishi, qattiq sovuq va boshqalardan saqlanishi, ularga ovqatdan oldin yengil badantarbiya qilish, ovqatdan keyin esa harakat qildirmaslik kerak. Tutqanoqka uchragan kishilar yengil ovqatlardan yeyishi kerak, ovqatlarni yengil badantarbiyadan keyin yeyish, hazmi qiyin bo'lgan ovqatlarni yemaslik kerak, meva va sabzavotlardan parhez qilishlari kerak.

2) Quyi a`zolarni ko'proq haraktlantirish kerak. Gavdani yuqoridan pastga sekin-asta ishqalash ham moddani quyiga tortadigan tadbirlardan hisoblanadi. har bir uqalash keyingisidan ko'ra qattiqroq bo'lishi kerak. Agar monelik bo'lmasa, peshona va chakka tomirlaridan qon olinadi.

Dorivor o'simliklardan yovvoyi bodring, gazako't hidlatiladi, dengiz piyozi solingan sikanjubin ichiriladi.Ushbu kasallar uchun boldir suyagining iligi gul yog'i bilan qo'shilib chakkaga,bosh choclariga, umurtalariga va ko'krakka surtiladi.

Daraxt po'kagi, rum sassiq kovragi, cho'l sarimsog'i, piyongul doimo ichirib turiladi. Bundan tashqari,bemorlarga havo almashtirish tavsiya etiladi.

Tutqanoqni oldini olish choraları :


Davolash va oldini oiish choraları:

- Chaqmoq
- Dovul
- Nog'ora
- Karnay tovushi

- Momoqaldiroq
- Qo`ng`iroq
- Kishilarning baqirishidan saqlash kerak
- Uyqusizlik
- G`azablanish
- Qo`rqish
- Qattiq sovuq yoki issiqliqdan
- Ovqatdan so`ng harakat qilmaslik shulardan saqlanish kerak.

Bosh miyaning qon tomir kasalliklari. Sakta

Sakta - miya qorinchalarida, sezuvchi va ruh yo'llarida kuchli tiqilma paydo bo'lishi sababli a'zolarning sezgisiz va harakatsiz bo'lib qolishidan iboratdir. To'liqligicha shish paydo qiladigan yoki shish paydo qilmaydigan bo'ladi.



Shish paydo qiluvchi to'liqlik bunda miyada modda hosil bo'lib u modda to'liqlik va tortilish sababli tiqilma paydo bo'ladi. Bu xil sakta modda bo'lsin, xox sovuq bo'lsin, bari bir sakta turlaridir.

Shish paydo qilmaydigan to'liqlik esa ko'p uchraydi u yo miyaning o'zida yoki uning yaqinidagi undan keladigan yoki unga boradigan rux yo'llarida bo'ladi.

Ruh miyaga boradigan yo'llarida bo'ladigan to'liqlikda modda qon hidli bo'ladi va u to'satdan miya qorinchalarida quyiladi yo u modda balg'am xilti bo'ladi, bu ko'p uchraydi. Miyaga boradigan ruh yo'llarida to'liqlik qonning ko'pligi va kuchli to'ydirilishi sababli arteriya va venalarning to'silishi natijasida paydo bo'ladi, bunda ruh o'tishi uchun yo'llar qolmaydi.

Sakta belgilari

Sakta bilan og'ir uyqu o'rtasidagi farq shuki, sakta bo'lgan bemor xirillaydi, chunki uning nafas olishi buzilgan bo'ladi, og'ir uyquda esa bunday bo'lmaydi. Sakta to'satdan paydo bo'ladi. Saktadan so'ng ko'pincha bosh og'rig'i, bo'yin tomirlarining ko'chishi, bosh aylanishi, ko'z oldi qorong'ilashuvi, butun badanning uchishi, uyquda tishlarni

g'ichirlatish, bosh og'rig'i va lanjlik paydo bo'ladi. Kasalning siydiги zangori yoki qora bo'lib, uvoq va kepaksimon cho'kma ko'rindi.

Davolash

Avvalambor kasallikning kelib chiqish sababi aniqlanib keyin davolanadi. Agar sakta hamkor a`zo sababli kelib chiqsa u a`zo davolanadi. Agar sakta qondan kelib chiqsa darhol o'sha tomirdan qon olinadi.

Qon olingandan so'ng ma'lum bir dorilar bilan huqna qilinadi. Hazmga yengil ovqatlar, gulob, suyuq orta qaysi ivitilgan nonning suvi bilan cheklanadi. Balg'amdan bo'ladigan saktada, qon ko'pligi bilinsa, tomirdan qon olinadi. Keyin kuchli darmon bilan huqna qilinadi. Hamda yelim va qoramol o'tidan tayyorlangan shamchalar quyiladi. Yengil ovqatlar ichiriladi. So'ngra kasalning boshiga va boshqa a`zolariga qizdiruvchi kompresslar bog'lanadi. Bu kompresslar ukrop, darmona, tsitron bargi, yalpiz, tog' jambil, qashqarbeda, kakliko'ti, bo'ymodoron kabi o'tlarning suvi bilan tayyorlanadi. Bemor asta-sekin tuzalgach xammomga tushiriladi, yengil badantarbiya qilinadi.

DAVOLASH

Saktaga olib keluvchi sabab	Davo chorralari
Sirtqi narsa bilan aziyatlanish (travma)	Sirtqi sababga qarshi chora-tadbir ko`rish
Boshqa a`zo hamkorligi bilan bo`lsa	O'sha a`zoni davolash
Qondan	Chakka yo peshona tomirlaridan qon olish. Moddani boshdan tushirish uchun huqna qilish. Miyani kuydiradigan, lekin qizdirmaydigan narsalarni hidlatish
Balg'amdan	Qon ko'pligidan belgilari ham topilsa, qon olinadi. Kuchli dorilar bilan huqna qilinadi. Yelim va qoramol

	o`tidan tayyorlangan shamchalar qo`yiladi. Farfiyun xab dorisi ichiriladi.
--	---

Asab kasalliklari **Laqva (Yuz asabi falaji)**

Laqva - Yuz falaji. Bu yuzdagi quroq a`zoga tegishli kasallik bo`lib, uning natijasida yuzning bir tomoni g`ayri tabiiy ravishda birta tarafga qarab tortiladi. Yuzning tabiiy shakli o`zgarib lab va shu tarafdagagi qovoqlar yaxshi yumilmaydi. Buning sababi qovoq va yuz mushaklari bo'shashi va tirishishi bo'lib hisoblanadi.

Mushaklarning bo'shashuvidan bo'lgan yuz falajida yuznng bir tomoni qiyshayib o'zi bilan birga ikkinchi tomonni ham tortadi. Agar falaj kuchli bo'lsa yuzni bo'shashtiradi va shaklini o'zgartiradi. Kuchsiz bo'lsa faqat bo'shashtiradi.



Tirishishidan bo'ladigan yuz qiyshayishi esa ko'p uchraydi. Yuzning bir tomoni tirishsa unga ergashib ikkinchi tomon ham tortilib qoladi.

Belgilari: bu kasalikka puflash va tuflash og'izning bir tomonidan bo'ladi, ikkinchi tomoni esa havoni ham tupukni ham torta olmaydi. Ko'pincha yuz falaji bilan birga u tirishishdan bo'lsa, bosh og'rig'i xam paydo bo'ladi. Mushaklarning bo'shashi sababli bo'lgan yuz falajining belgisi shuki, unda harakat kuchsizlashadi, sezgilar xiralashadi, teri va mushaklar yumshoq tuyuladi, tortishganlik sezilmaydi, ko'zning quyi qavati osilib qoladi. Tanglay terisi yarmi bo'shashib, rutubat yig'ilganga o'xshab liqillab turadi.

Tirishishdan bo'ladigan yuz qiyshayishining belgilari

Sezgi xiralashmaydi. peshona terisi taranglashib, ajinlar yo'qoladi. Yuz mushagi qattiqlashib, ko'pincha so'lak va tupuk oz keladi. Teri bo'yin tomonga ko'proq tortiladi va uni joyiga qaytarish qiyinroq bo'ladi. Yuz terisida uvishish paydo bo'ladi.



Davolash

Yuz falajiga uchragan kishi 4 yoki yetti kungacha qimirlamasligi kerak. Kasalni zaytun yog'i qo'shilgan no'xat suvi kabi latiflashtiruvchi ovqatlar beriladi. Yuz falajiga uchragan kishining yuzini doimiy sirkab bilan yuvib turish yaxshi yordam beradi. Darmana, bo'ymodoron, isiriq, dafna daraxti kabi dorivor qaynatmaga yuzi tutiladi. Chaynaladigan narsalar kasal tomoni bilan chaynalishi kerak. Yuz falajiga uchragan kishilarga oynaga qarash 1buyuriladi, chunki ular yuzlarini doimo baravariga harakat qildirishi kerak.

Mavzu savollari

- 1.Bosh miya anatomiyasi va fiziologiyasi haqida.
- 2.Bosh miyada hosil bo'lувчи quvvat va uning turlari.
- 3.Bosh miya kasalliklari kelib chiqish sabablari.
- 4.Bosh miya kasalliklari klassifikasiyasi.
- 5.Bosh og'riqlari va ularning klassifikasiyasi.
- 6.Bayza va xuda kasalligi haqida tushuncha.
- 7.Shaqiqa kasalligi ta`rifi, sababi, davolash
- 8.Sovuq sarsom (litargus) xastaligi
- 9.Tutqanoq nima, belgilari, davolash
- 10.Sakta kasalligi ta`rifi, turlari, davolash
- 11.Yuz nervi falaji (laqva) xastaligi xaqida tushuncha
- 12.Laqva kasalligi turlari
- 13.Bo'shashishdan bo'ladigan yuz falaji belgilari
- 12.Tirishishdan bo'ladigan yuz falaji belgilari

4.2. §.Ko`z kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Ko`z anatomiyasi

Ko`rish quvvati va ko`rvuchchi ruh moddasi - ikkita kovak asab orqali ko`zga o'tadi. O`sha asablar va ularga yopishgan pardalar ko`z kosasiga yetib kelgach, har birining uchi kengayib to`lishadi va keng yoyilib butun ko`zdagi suyuqliklarni o`rab oladi, suyuqliklarning eng o`rtasidagi muzsimon suyuqlik gavhardir. U muz kabi tiniq bo`lib,

yumaloqdir. Biroq, uning yassiligi yumaloqligini old tomondan kamaytiradi, bu xil yassi bo`lishi unda aks etuvchi narsaning ko`p bo`lishi va ko`riladigai kichik narsalarga yetarli to`planadigan joy paydo bo`lishi uchundir. Shuningdek, gavharning orqa sathi bir oz yumaloqlashadi. Bu unga uchrashadigan jismga tutashuvi yaxshi bo`lishi va yumaloqligi esa yoyiq va keng ko`rinadigan jismlarning gavharni qoplab olishi yaxshi bo`lishi uchundir. Gavhar ko`zning o`rtasida joylashgan, chunki o`rta joy saqlanishi uchun eng munosib o`rindir. Gavharning orqasida miyadan keluvchi ayanchli bir suyuqlik shishasimon jism bo`lib, gavharni ovqatlantirib turadi. Birinchi suyuqlik gavhar bilan xolis, toza qon o`rtasida ikkinchi suyuqlik o`rtacha bir holatni tutadi. Shishasimon jism erigan shishaga o`xshaydi, uning tusi tiniq va bir oz qizillikka moyildir. Tiniqligi shuning uchunki, u tiniq suyuqlik gavharni oziqlantiradi, ozgina qizilligi Shuning uchunki, u suyuqlik qon javharidan paydo bo`lib, ovqatlanuvchi gavharning tusiga tugal o`xshamaydi. Shishasimon suyuqlik gavharning orqasiga kuyildi, chunki uni miya to`rsimon parda orqali yuborib turadi, Shunday bo`lgach, u miya tomosha bo`lishi kerak. Shu suyuqlik gavharning orqa tomon yarmini eng katta doirasigacha qoplab turadi. Gavharning old tomonida tuxum oqiga o`xhash boshqa bir suyuqlik bor, bu oqsilsimon suyuqlik deb ataladi. U xuddi gavharning javharidan chiqqan chiqindi kabidir - tiniq narsannng chiqindisi ham tiniq bo`ladi. Bu oqsilsimon suyuqlikni gavharning oldiga quyilishi dastlabki va tugallovchi ikkita sababga ko`radir. Dastlabki sabab shuki, chiqindining chiqadigan tomoni ovqatlanish tomonining qarshisida bo`ladi; tugallovchi sabab shuki, yorug'lik gavharga asta-sekin o`tib, shu oqsilsimon suyuqlik gavharning oldida qalqon kabi bo`lib turadi. So`ngra, ko`rish asablarining uchlari shishasimon jism va gavharni gavharbilan oqsilsimon suyuqliklarning o`rtalaridagi chegaragacha va shishasimon jismning "tojga" kelib etadigan chegarasigacha xuddi tuzoq ovni o`ragandek o`rab turadi, shuning uchun ko`rish asablarining uchlari "to`rsimon" parda deb ataladi. Shu to`rsimon pardaning uchidan o`rgimchak to`qimasiga o`xhash narsa o`sib, bunda yupqa parda paydo bo`ladi.

Bu parda bilan birga biz quyida aytadigan qoq'onoqsimon qismdan chiquvchi iplar ham o'tadi. Bu yupqa parda gavhar bilan oqsilsimon suyuqlikning o`rtasini ajratuvchi to`sinq bo`lib, bu nozik narsa bilan qalin narsaning oralig'ini ayirib turadi va yupqa pardaga to`rsimon va koronkasimon pardalardan keluvchi ovqat old tomondan kelishini ta`minlaydi. Nima uchun bu parda o`rgimchak to`qimasiga o`xhash yupqa bo`ladi Chunki, agar u qalin bo`lib, gavharning oldida tursa, gavhar o`zidagi o`zgarish sababli nurning gavhar orqali oqsilsimon pardaga o`tishiga to`sinqlik qilishi ehtimoldan uzoq emas. Yupqa pardaning uchi esa to`lishib, tomirlardan iborat bo`lib, qoqonoqqa o`xhash to`qiladi, chunki bu haqiqatda ovqat o`tadigan yo`ldir. Buning hamma bo`laklari oziqlantirish ishida ishtirok qilishi zarur emas, balki orqa bo`lagigina bu ishga tayyor bo`lishi kerak. Bu "qoq'onoqsimon" to`qima deb ataladi. Bu to`qima shu chegaradan oldinga o`tganda qalinlashib, qalin pardaga aylanadi va oq bilan qora o`rtasidagi osmon rangiga ega bo`ladi. Bunday bo`lishi ko`rish quvvatini to`plash va nurni mo`tadillashtirish uchundir. Masalan, ko`z charchaganda qorong'ilikdan, yoki qorong'ilik va yorug'likdan tarkib topgan bir kayfiyatdan orom olmoq uchun ko`zni yumamiz. Yana shu qalin parda suyuqliklar bilan muguzsimon, juda qattiq parda orasida to`sinq va mo`tadil vosita bo`ladi, hamda qoqonoqsimon pardadan o`ziga kelib turadigan oziq bilan muguzsimon pardani ovqatlantiradi. Bu qalin parda ko`zni old tomondan tugal o`ramaydi, tugal o`rasa, shakllarning ko`zga yetishishiga monelik qiladi, balki uzum donasining dumi yulinganda teshik qolgani kabi oldidan ochiq teshik qoldiradi va bu teshikka ko`riladigan tasvirlar kelib to'shadi. Teshik tusilsa, ko`rish to`xtaladi. Shu uzum donasi kabi tabaqaning gavharga tegadigan joyi ich tomondan popukli bo`lib, natijada u g'ovak va yumshoq narsaga o`xshaydi. Uning gavharga tegib aziyat berishi kam bo`ladi. Bu qatlarning eng qattiq qismi - muguz pardaga qarab turgan va teshikka ega bo`lgan old tomonidir, teshikning tevaragi qattiqroq bo`lishi uchun shunday tuzilgan. Eslatilgan manfaatga ko`ra, bu teshik suyuqlik va ruh bilan to`ldirilgandir. O`lim yaqinlashganda, teshik ro`parasidagi qatlarning bujmayishi bunga dalil bo`ladi. Ikkinchi parda esa yaxshi tutib turilsin uchun juda qalin tuzilgan, buning orqasi "qattiq va qalin tabaqa" deb ataladi. U ko`z qorachig'ini

old tomondan butunlay o`rab oladi va ko`rishga monelik qilmaslik uchun shaffofdir, u yo`nib, kirib, yupqa qilingan muguz tusida bo`ladi. Shuning uchun "muguzsimon" deb ataladi. Bu qatlam bo`laklarining eng dag`al qismi old tomoni bo`lib, haqiqatda u to`rt yupqa qatlamdan biriktirilganga o`xshaydi. U to`rt qatlam bir - biri ustiga o`rnashgan po`sloqlarga o`xhash bo`lib, ulardan birortasi shilinsa, zarar umumiylar bo`lmaydi. Shu jumladan ko`rish teshigi ro`parasida ham to`rtta qatlam bor. Chunki, bu joy berkitish va saqlanishga boshqa o`rnlarga ko`ra ko`proq muhtojdir. Uchinchi parda esa ko`z g`ulagini harakat qildiruvchi mushaklarga aralashgan bo`lib, ko`zni va ko`z milklarini yumshatib turishi uchun hamma joyi oq yog`li et bilan qoplangandir va ularni ko`rib qolishdan saqlaydi. Buning hammasini et qatlami deb ataladi. Kiprik esa, ko`zga uchib keladigan va boshqa ko`zga tushadigan narsalarni qaytarish uchun va qoraligi bilan nurni mo`tadillashtirish uchun yaratilgandir. Kiprikning o`sib chiqadigan joyi tog`ayga o`xshaydigan pardadir. Bu xil joyda kipriklarning tik turishi yaxshi bo`lib, o`sib chiqqan joyning kuchsizligi sababli kiprik yotib qolmaydi, hamda ko`zni ochuvchi mushakning suyanchig`i xuddi suyakdek qattiq bo`lib, qovoqni yaxshi harakat qildiradi. Ko`z qovoqlarining bo`laklari: teri, pardadagi ikki arkaning biri, o`sha pardaning yog`i, mushagi; keyin ikkinchi arkadir; ko`zning yuqori qovog`i ana shulardan iborat. Pastki qovoq esa, mushakdan holidir. Yorish xavfli bo`lgan joy ko`zning burun tomon burchagi oldidan mushakning o`sib chiqqan joyidir.

Ko`zning ahvolini aniqlash (mizojini):

- 1.Ko`zni ushlab ko`rish: issiq, sovuq, qattiq, quruq, yumshoq, namligi
- 2.Ko`zning holati: holat yengil bo`lsa issiq yo quruq, holat og`ir bo`lsa, sovuq yo ho`llik
- 3.Ko`z tomirlari: yo`g'on, keng bo`lsa issiq, ingichka, urinmas bo`lsa sovuq, teri ichi bo`sh bo`lsa quruq, teri ichi quruq bo`lsa ho`l (moddasi ko`p bo`ladi)
- 4.Ko`z tusi (rangi): Har bir rang qaysi xilt ko`pligini bildiradi. Qizil, sariq, qo`rg`oshin rangli, qoramtil
- 5.Ko`zning shakli: yaxshi shakli-ko`zning kuchliligi, yomon shakli - ko`zning kuchsizligini bildiradi

6.Ko`zning xos ishidan: ko`z bilinar-bilinmas narsalarni yaqin-uzoqdan bir xil ko`rsa, ko`z mizoji kuchli va mo`tadil, mayda narsalarni yaqindan ko`rib uzoqdan ko`ra olmagan ko`z kuchsiz.

7.Ko`zdan oqadigan narsaning holiga qarab: yiringlashmagan ko`z quruq, yiringlashadigan ko`z ho`l mizoqli.

8.Ko`zning ta`sirlanishiga qarab: ko`z issiqdan aziyatlanib, unga sovuqlik yoqsa issiq, aksincha bo`lsa sovuq, haddan tashqari yaxshi ko`rvuchi ko`z haqiqiy mo`tadil ko`zdir.

9.Ko`z katta-kichikligiga qarab ham ko`zning tabiiy mizoji baholanadi.

Ko`z kasalliklari:

- moddadan bo`ladigan sodda va murakab kasalliklar yoki umumiylashtirish uchun qolish, yoki oqishi bilan kechuvchi o`tkir kasalliklar

- ko`z pirpirashi, yumilib-ochilib qolishi, yoki oqishi bilan kechuvchi o`tkir kasalliklar

- bosh miya, uning sirtqi va ichki pardalari, me`da, ko`zga yaqin hamkorlik qiluvchi a`zolardan yuzaga keluvchi hamkor kasalliklar.

Belgilari:

1)ko`zning miya hamkorligi bilan kasallanishi: miyaga zarar yetkazganlik belgilari

-agar miyaning ichki pardalari orqali hamkorlik bo`lsa: ko`z chuqurligida og`riq va lo`qqilovchi og`riq kuzatiladi. Modda issiq bo`lsa burun qichib, aksiradigan bo`ladi.

Modda sovuq bo`lsa ko`zdan sovuq rutubat oqadi

-agar miyaning sirtqi pardalari orqali hamkorlik bo`lsa, peshona va sirtqi tomirlarda tortishish, qovoqqa yondosh joyda zarar ko`proq bo`ladi.

2) me`da hamkorligi bilan bo`lsa:

-ko`zga turli xildagi yo`q narsalar ko`rinadi

-og`riq boshdan boshlanib 2 kift oralig`iga tarqaladi. Me`da ochligida bu belgilar kam, to`liqligida ko`p bo`ladi

3) kasallik qon sababli bo`lsa: ko`z og`ir, qizil, yoshlanadi, shishadi, tomirlar bo`rtadi, ikki chakka lo`qillashi, milklar yopishib qoladi, yiringlashi kuzatiladi, ushlaganda issiq bo`ladi.

4) balg'am sababli bo`lsa: ko`z juda og'ir, biroz qo`rg'oshin tusli, milklar yopishadi, yiringlashadi, qovoqlar salqiydi, ko`zning yoshlanishi kam kuzatiladi.

5) Safro sababli bo`lsa: sanchish, alanganish, sovuqqa moyil qizillik yoki suyuq o`tkir, ko`z milkening bir oz yopishishi, ushlaganda issiq tuyuladi

6) Savdo sababli bo`lsa: ko`z og'ir, rangi xira, milklar ham yopishqoq bo`ladi.

7) Moddasiz, sodda bo`lsa: ko`z og'ir emas, namsiz bo`ladi.

Ko`z xastaliklarini davolashning umumiyl qoidalari

1.Bo`shatish

2.Shishlarni davolash

3.Bemor mizojni o`zgartirish

4.O`ynab chiqqan ko`z sohasini tuzatish

5.Yarani bitkazish

6.Et undirish

Moddani ko`zdan ketkazish uchun - tortish yoki oqizish yo`li bajariladi.

Masalan, tortish uchun miyadan tozalovchi dorilar bilan modda tortiladi, oqizish uchun esa oqizuvchi dorilar buyuriladi.

1.Kasallik uzlusizlikni buzilishidan paydo bo`lsa, ko`p quritmaydigan hech achishtirmaydigan dorilar buyuriladi.

2.Kasallik moddadan bo`lsa: ovqat miqdori kamaytiriladi, yaxshi xilt paydo qiluvchi mahsulotlarni yeish buyuriladi, bug` paydo qiluvchi va hazmni yomon qiluvchi narsalardan saqlanish tavsiya qilinadi. Modda qaysi a`zodan qo`zqalsa, o`sha a`zo tomiridan qon olish zarur. Agar miyaning sirtqi pardasidan modda kelsa, qortiq solib peshonaga qaytaruvchi dorilar: masalan, issiq modda uchun qovun po`chog'i, sovuq modda uchun oq zok qo`yiladi.

qon olinadigan tomirlar: qifol va bosh atrofidagi turli tomirlardir.

Boshning old qismidagi tomirlardan qon olish ko`chirish uchun orqa qismidagi

tomirlardan qon olish tortish uchun foydali.

Mizojni o`zgartirish uchun:

-sovituruvchi dorilar: ituzum va qizil tasmadan siqib olingan suv, sachratqi suvi, sutcho`p suvi, gul suvi, ispagul shirasi

-qizdiruvchi dorilar: mushk, murch, ichir, qoncho`p

-qurituvchi dorilar: Surma, oltin va kumush tuponi

-bo`shashtiruvchi: sabr, za`faron va qizil guldan tayyorlanadigan shamchalar

-yumshatuvchi: sut, yanchilgan bodom, tuxum oqi, o`simlik shiralari

-yetiltiruvchi: zarcho`ba, sariq yo`nqichqa, za`faron suvi, shinni, ayniqsa non

botirilgan shinni yer itib-tarqatuvchi: anzirat go`shtxo`r, arpabodiyon suvi

- og'riqsizlantiruvchi: mexrigiyo suvi, ko`knor afyun

Ko`z kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablar:

1. Moddali mizoj buzilishi sababli

2. Tarkib buzilish sababli yoki uzluksizlikning buzilishi tufayli

Ko`z sog'ligini saqlash uchun bilish lozim:

-changdan

-tutundan

-issiq va sovuqlikda mo`tadil bulmagan havodan

-qattiq sovuq

-issiq (samum) shamollardan

-uzoq vaqt bir narsaga tikilib turishdan saqlanish kerak

-ko`p yig'lash ko`zni tozalovchi tadbirlardan

Ko`zga zarar yetkazadigan holatlar:

-yorug' narsalarga uzoq vaqt tikilib qarash

-mayda xatlarni xaddan tashqari ko`p o`qish

-ko`p jinsiy aloqa qilish

-kechki ovqat vaqtida uxlash

-qonni quyuqlashtiruvchi sho`r, o`tkir, mahsulotlarni yejish

-Hammomga ko`p tushish

-haddan tashqari ko`p uyqu

-qattiq yig'lash

-tomirdan ko`p qon oldirish

-ketma-ket qortiq qo`yish

Noxuna (zafra) xastaligi

Ko`z shilliq pardasi yoki ko`z g'o'lagini o`rab turgan pardaning o`sishidir.

Parda ko`zning ichki (burun tomon) burchagidan boshlanib, shilliq qatlamga yoyiladi, ba`zan muguz qavatini qoplab hatto ko`rish teshigini berkitadi. Noxuna qattiq va yumshoq bo`ladi. Rangi: sariq, qizil, gungurt tusli bo`ladi. Shilliq qatlamga nisbatan, yaqin turadigani sal yopishgan bo`lib, ilib olganda tez qo`poriladi. Birikib ketgan bo`lsa uni shilib olish qiyin bo`ladi.

Davolash: Eng yaxshi usul: yumshoq bo`lsa, temir asbob bilan shilib olishdir. Qattiq bo`lsa, uchi ilmoqli duk bilan ko`tarilib qiyib olinadi (kesib) yoki iloji bo`lmasa, o`tmas tig' bilan sekin shilib olish kerak.

Ehtiyot bo`lish kerak: ya`ni, ichki burchak etiga kesish jarayonida tegmaslik, aks holda ko`z yoshlanib turish kasalligi kelib chiqadi. Noxuna kesilgach ko`zga tuz bilan zira chaynab tomiziladi. Achishtirishga qarshi - tuxum sariqi, gul yog'i va binafsha yog'i tomiziladi. Yopishmaslik uchun bemor ko`zini aylantirib turishi kerak. 3 kundan keyin noxuna qoldig'ini yo`qotish uchun o`tkir shamcha dorilar beriladi. Noxuna qalin bo`lsa, o`tkir dorilar foyda qilmaydi. Ko`z dorilaridan har xil shamchalar, qaysar shamchasi, o`tkir boshlikun (podsho degani) shamchasi, ro`shnoe va dinorjun shamchalari foydalidir.

Ramad xastaligi

Ramad - ko`zning yalliqlanishi, boshqacha - ko`z kon`yuktivasi (eti) ning yallig'lanishidir. Ibn Sino ta`limotida ramad - 2 xil bo`ladi:

- 1) haqiqiy
- 2) yalliqlanishga o`xshash:
 - takaddur
 - taxassur

Takaddur - ko`z etining "bulg'anishi"

Taxassur - ko`zni qitiqlovchi va qizartiruvchi sabablardan paydo bo`ladigan qizish va ko`z etining ho`llanib turishidir.

Ramad kelib chiqishi sabablari :

a) Tashqi sabab- quyosh nuri, bir kunlik qizdiruvchi isitma, chang,tutun, sovuqlik, ko`zning zarb yeyishi, ko`zga uriladigan shamol, iste`mol mahsulotlari

b) Ichki sabab - me`da kasalliklari, jigar kuchsizligi, qon, safro, savdo, yel tug'yonidan kelib chiqadigan kasalliklar

Ko`zning yallig'lanish turlariga ko`z qo'tiridan keyin keladigan ba`zi kasalliklar kiradi. Ko`zning tirmalishi, ko`z qitiqlanishi misol bo`lib, u ko`z qo'tiri (traxoma) davolangandan keyin davolanadi. Ko`zning yallig'lanishi ba`zida oddiy bo`lib, tomirlarning bo`rtishi, ko`zdan yosh oq'ishi va ko`zdagi sanchuvchi og'riq bilan o'tadi. Agar yallig'lanish kuchli bo`lib, keng tarqalib ko`z oqi qorachiq ustigacha o'sib uni bekitsa va ko`zni yumishga monelik qilsa, u xemoz deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, ko`z konyuktivasi qavati shishib muguz parda chetida bo`rtgan halqa hosil qiladi. Kasallik moddanning ko`pligi va ko`z kuchsizligi sababli bolalarda ko`p uchraydi. Ko`zning yalliglanishi faqat issiq moddadan emas, balki shilliq va savdo moddalaridan ham paydo bo`ladi. Haqiqiy ko`z yallig'lanishi- ko`z ho`lagining faqat et qatlamidagi yallg'lanish bo`lib, har bir yallig'lanish qondan yoki safrodan yoki shilliqdan yoki savdodan yoki yeldan kelib chiqadi. Ba`zan modda ko`zga miya va boshdan kelmaydi. Balki boshqa a`zolardan keladi. Bu vaqtida ko`z mizoji bo`zilib, ko`z kuchsizlansa, bu ko`zga ortiqcha narsalar quyiladi.

Moddaning quyilish va tug'ilish vaqtiga qarab ko`z yallig'lanishi turlari davrli,

vaqtি-vaqtি bilan sodir bo`ladi.

Ko`zning yallig'lanish belgilari:

Me`daga bog'liq bo`lsa:

Ko`ngil aynishi, ishtaxasizlik, me`da sohasida noxush sezgi qondan bo`lsa:

Ko`z tomirlari bo`rtgan, qizargan, ko`z yoshlanmaydi, ko`z milki kechqurun yopishib qoladi.

Safrodan bo`lsa:

Ko`z sohasida qattiq sanchish, ko`zning alanganib og'rishi, ko`z yaralanishi, ko`z yoshi suyuq va o`tkir bo`ladi

Savdodan bo`lsa:

Ko`zda og'irlilik hissi, ko`rishning xiralashuvi, kipriklarning qovjirab yopishishi

Yeldan bo`lsa:

Ko`z sohasida tortishish hissi bo`ladi, ko`zdan yosh oqishi va og'irlilik hissi kuzatilmaydi

Balg'amdan bo`lsa:

Ko`z juda og'ir, milklar yopishib yiringlanadi, qovoqlar salqiydi, yoshlanish kam.

Davolash

- kaptar qanotidan olingen issiq qon ko`zga tomiziladi
- o`zini (ya`ni bemorni) foni ham tomizilishi mumkin
- ayol ko`krak suti tomiziladi
- sovuqdan bo`lsa, hammomga tushiriladi
- bobuna qaynatmasidan kompress qo`yish -ovqatdan 3 soat keyin suyuq sharob ichib uplash

1) Yuqoridagidek, moddani ko`zdan ketkazish uchun tortish yoki oqizish yo`li bajariladi.

Tortish uchun miyadan tozalovchi dorilar bilan modda tortiladi.

Oqizish uchun yosh oqizuvchi dorilar buyuriladi.

2) Uzlusizlikni buzilishidan bo`lsa, ko`p quritmaydigan, hech achishtirmaydigan dorilar beriladi

3) Moddali kasalliklar bo`lsa, ovqat kamaytiriladi, yaxshi xilt saqlovchi narsalar yeyish, bug' paydo qiluvchi va vaznni yomon qiluvchi narsalardan saqlanish kerak.

Modda qaysi a`zodan qo`zg'alsa, o`sha a`zo tomiridan qon olinadi.

Agar miyaning sirtqi pardasidan modda kelsa, qortiq solib peshonaga qaytaruvchi dorilar buyuriladi. Masalan: issiq modda uchun qovun po`chog'i, sovuq modda uchun oq zok qo`yiladi.

Qon olinadigan tomirlar:

- Qifol va bosh atrofidagi turli tomirlar
- boshning old qismidagi tomirlardan qon olish ko`chirish uchun orqa qismidagi tomirlardan qon olish tortish uchun foydalilanadi.

4) Mizojni o`zgartiruvchi sovituvchi dorilar - it uzum va qizil taskadan siqib olinadigan suv, sachratqi suvi, sutcho`p suvi, gul suvi, ispagul shirasi

qizdiruvchi dorilar: mushk, murch

qurituvchi dorilar: oltin va kumush tuponi, surma

Bo`shashtiruvchi dorilar: o`rmonkara, sabr, filzaxra, za`faron, qizil guldan tayyorlanadigan shamchalar.

Yumshatuvchi dorilar: sut, yanchilgan bodom, tuxum oqi, o`simgilik shiralari.

Etiltiruvchi dorilar: zarcho`ba, sariq yo`ng'ichka, za`faron suvi, shinni

Eritib tarqatuvchi dorilar: arpabodiyon suvi

Og'riqsizlantiruvchi dorilar: mehriyio suvi, ko`knor ,afyun kabilar tavsiya etiladi.

4.3. §.Quloq kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Quloq anatomiyasи

Quloq eshitish uchun yaratilgan a`zodir. Hamma ovozni qamrab jaranglatish uchun unga egri-bugri quloq suprasi va toshsimon suyakning ichidan o`tgan burama qiyshiq teshik qo`yilgan. Tog`ay suyakning qalinligi kam bo`la turib, havoning ichkariga tomon bo`lgan masofasini uzaytirish uchun u teshik burama qilingan. Agar teshik buralmay to`g`ri o`tganda masofa qisqa bo`lar edi. Haddan tashqari issiq va sovuqning quloq ichkarisiga to`satdan tegmasligi, balki asta-sekin yetishi uchun masofa uzaytirilgan.

Quloqning burama teshigi ichida havo to`xtab turadigan bo`shliqqa borib yetadi. U bo`shliqning ichki sathiga miyaning juft asablaridan bo`lgan beshinchi juftdan keluvchi eshituvchi asab tolalari yoyilgan. Bu tolalar havoning urilishidan va kayfiyatidan ta`sirlanmasligi uchun ancha pishiq qilingan. Ovoz to`lqini o`sha bo`shliqdagi tolalarga borib yetsa, eshitish quvvati uni sezadi.

Shu asablarning eshitishdagi vazifasi ko`z gavharining ko`rishdagi vazifasiga o`xshaydi. Quloqning boshqa a`zolarning ko`z gavhariga xizmat qilishi, ya`ni uni saqlash yoki unga yordam berish uchun yaratilgan va u gavharni o`rab olgan tabaqa va suyuqliklarga o`xshaydi. Quloq teshigi esa, qorachiq teshigi kabidir.

Qulq tog'aydan yaratilgan, chunki etdan yoki po'stdan yaratilganda, undagi chuqurlik va egrilik shakli saqlanmas edi. Suyakdan yaratilganda esa, har bir to`qnashishda aziyatlanar va aziyat berar edi. Shunga ko`ra, u shakli, saqlanishi bilan birga bukilishi oson bo`lishi uchun tog'aydan yaratilgan.

Qulq kasalliklarining ibn sino bo`yicha klassifikasiyasি

Tug'ma qulq kasalliklari

Tabiiy qulq kasalliklari

Tug'ma qulq kasalliklari:

Samam - eshituv yo`li berk (tug'ma karlik)

Tarsh - eshituv yo`lida nuqson borligi tufayli nisbiy karlik.

Vakr - eshituv nervining atreziyasi.

Tabiiy qulq kasalliklari:

Miya zararlanishiga bog'liq kasalliklar ;

Yaqin joylashgan a`zolar zararlanishiga bog'liq kasalliklar;

Eshitish quvvatiga bog'liq kasalliklar:

-Asabda bo`ladigan ofatlar;

-Teshikda bo`ladigan ofatlar

Eshitishga yetadigan zarar sabablari:

Zarar miyaning hamkorligidan bo`lgani kabi, biror a`zoning hamkorligidan;

Dastlab tishlar chiqayotganda va og'riyotganda bo`lgani kabi, qulqqa qo`shni a`zolardan birisining hamkorligi bilan bo`ladi;

Ofat goho eshitish quvvatiga xos, ya`ni u asabda yo teshikda bo`ladi.


Qulq og'rig'i :

Buzuq mizojdan;

Shishdan;


Toshmadan;


Uzluksizlikning buzilishidan paydo bo`ladi.



Belgilari:

Yara va mayda chiqiqlar sababli bo'lganiga	→	Unga lukillash belgisi boladi
Agar to'qima -chipqon va shunga o'xshash narsadan bo'lsa -qonda bo'lsa	→	Ilgari qon oqganligi belgisi bo'lib





Ibn Sino bo`yicha qulog xastaliklarini davolashni asosiy qoidasi:

Qulogqa tomiziladigan dorilarning hammasi iliq bo`lishi, sovuq va qaynoq bo`lmasligi kerak.

O`t sababli bo`lgan karlikda: Surgi dori bilan o`tni surish kerak.

Karlik issiqlikdan bo`lsa: Sovituvchi yog'lar va boshqa dorilar ishlatiladi yoki bir dona anorni siqib, suvi olinadi, keyin unga biroz sirka, kundur yelimi, gul yog'i qo'shib qaytarib po`stiga qo`shiladi va quyulganicha qaytariladi, shunda qulogqa tomizilib turiladi.

Karlik sovuqlikdan va sovuq moddadon bo`lsa: unga hamma issiq yog'lar va u yog'larga solib eritilgan qunduz qiri, ayniqsa, bal'zam yog'i, qust yoki achchiq bodom yog'i, erman shirasi, g'oz yog'i va bobuna yog'i, yoki Abu Jahl tarvuzining po`sti yoki ildizi solib qaynatilgan kunjut yog'i foyda qiladi.

Karlikning hamma turiga: Asal yoki qunduz qiri qo`shilgan gazago`t shirasi, ukrop yog`I foyda qiladi.

Tiqilma sababli bo`lgan karlikni davolashda: nasha urug`i donining shirasi va ho`l Abu Jahl tarvuzining shirasi yaxshi foyda qiladi.

Sovuq moddadan va sovuqlikdan bo`lgan qulqoq og`irligi, uning og`riqlari, yellari, shang`illashi va jaranglashining hammasini davolash uchun bo`lgan va boshni tozalagandan keyin ishlatiladigan dorilarni biri quyidagi dorilar: burakni sirkasi va asal bilan, qo`y o`tini esa zaytun yog`i va sharob bilan, yoki achchiq bodom yog`i yoki gandona suvi bilan qo`shib qulqqa tomiziladi.

Karlikda: Chayono`t va gul qovoqining shirasi juda foydali.

qulqoq og`riqida: binafsha yog`ini kofur bilan aralashtirib ishlatish badan bo`shatilishi sababli og`riqni yaxshi to`xtatadi.

Issiqlikdan bo`lgan va lo`qillaydigan qulqoq og`riqiga: Gul yog`ini o`ziga uch barobar keladigan sharob sirkasida to sirkasi ketib gul yog`i qolguncha qaynatib, keyin qulqqa tomizi-ladi. Bu yog` juda foyda qiladi.

Qulqoq og`riqiga uning ichida joylashgan sovuq yoki sirtqi sovuq sabab bo`lsa:

- gazako`t yog`i;
- ukrop;
- rum sunbuli;
- dafna daraxti;
- katta bobuna;
- bal`zam daraxti;
- kanakunjut yog`lari;
- sarimsog`solib qaynatib tindirilgan zaytun yog`i yaxshi ta`sir qiladi.

1.Daxmast -dafna, lavr
Lambrus nobilis
Tabiati: uchinchi darajada issiq, ikkinchi darajada quruq.

2. Vanil



Quloq og'riqiga yel sabab bo`lsa:
-gazako`t va amomni asal bilan qo`shib;
-gulsapsar yog'iga qo`shilgan bo`yimodaron
kabilarni tomizish foydali.



Quloq og'riqiga issiq va chuqurlashgan shish sabab bo`lsa bunda:

- qo`ypechak shirasi
- yanchilgan kunjut yog'i foydali.

Quloq shang'illashi, jaranglashi va hushtak chalishiga uchragan hamma bemorlar:

- quyoshdan;
- hammomdan;
- qo`pol harakatlardan;
- qusishdan;
- baqirib-chaqirishdan;
- to`liqlikdan saqlanishlari va ichni yumshatishlari kerak.

Sezgilar o`tkir his bo`lib turganida:

Sirka bilan qaynatilgan gul yog'iga bir oz afyun qo`shib yoki gul yog'ini mingdevona yog'ini aralashtirib tomizish lozim;

Yoki qunduz qiri bilan qo`shib tuyilgan sassiqqalampir yog'i bilan ishlatishni buyuradilar.

Sarsom kasalliklarga, ayniqlsa, isitmalarga, keyin kelib chiqadigan shang'illashlarga xos dorilar:

Gul yog'i yoki sirka bilan qo`shilgan erman shirasi va gulsapsar yog'i davoli.



Kuchsizlikdan bir tiqilma yoki xiltdan bo`lgan shang'illashning hammasiga umumi dori:



Qalampirmunchoq va gandano urug'i, mushk, samsak va gazako't suvi yoki sharob yaxshi ta`sir qiladi.

Quloqdan chirk chiqishi va unga kelib quyiladigan tiqilmani davolash:

Tog' achchiq bodom yog'ini tomizish;

Quloqqa zok puflash;

Yovvoyi zira 1 misqol, irmon buraki 0,5 misqol va ularni qorishtiradigan oq anjir, bulardan pilik yasab ishlatiladi ;

Quloqqa yovvoyi zira va qichitqio't qilinadi;

Abu Jahl tarvo'zi bargining siqib olingan suvidan tayyorlab quloqqa tomiziladi - bu eng kuchli dori;

Zaytun, bobuna va rum sumbuli yog'iga botirilgan pilik - kuchli pilik dorilar;

Indov va burakdan tayyorlangan pilik dori - yo`g' bo`ladigan tiqilma uchun foydali.

Ibn Sino quloq sog'ligini saqlashda quyidagilarni nazarda tutish kerakligini ta`kidlaydi:

uni issiq, sovuq, shamollardan, yot jismlar kirishidan saqlash,

suv va jonivorlarning kirishidan ehtiyyot bo`lish,

shishlar, mayda chiqiqlar va yaralar paydo bo`lishini kuzatib turish,
uning kirini tozalab turish,

har haftada 1 marta quloqqa achchiq bodom yog'i tomizish,

sirkada eritilgan momiso shamchasidan tomizish zarur,

me`dada hazm buzilishini oldini olib turish.

4.4. §.Burun kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Burun anatomiyasi

Burunning anatomiysi burun suyaklarining, tog'aylarining va burun chetlarini harakatlantiruvchi mushaklarining tuzilishini o`z ichiga oladi. Burunning ikkala teshigi tug'machalariga o'xshash ikkita jism tagiga joylashgan burun suzgichigacha boradi. Shu joyda miya pardasining ham suzgich teshigiga ro`para teshigi bor. O'sha teshik orqali havo o'tib miyaga yetadi. Burun teshiklaridan har birining bo'g'izga o'tib boradigan yo`li bor.

Burun anatomiysi yana hidlash vositasi bo`lgan qurolning anatomiyasidirki, u miyaning oldingi bo`lagidagi tugmachalari singari ikkita o'sig'dan iborat. Ular miyaning ikkala oldingi qorinchasidan yordam oladi, shuningdek o'sha yuqorida aytilgan teshikdan chiqindilar sizilib o'tadi. Miya va undan ko`tarilib turgan ikki o'siq, o'sha teshiklar orqali havoni tortib hidni sezadi. Miyaning o`zi tug'ma issiqlikni o'zida saqlash uchun nafas olib arteriya kabi ko`tarilib va pasayib turadi. Goho baqirish hamda havo va ruhning yuqoriga qarab siqilgan paytida ham miya yuqoriga ko`tariladi. Burunning eng yuqorisida ko`zning ichki burun tomon burchaklariga boradigan ikkita yo'l bor. Shuning uchun ko`zga qo'yilgan surma tilga kelib tushib, uning mazasi bilinadi.

Hid havoda uning biror narsadan ta`sirlanishidan paydo bo`ladimi yoki havoning yetkazishi sababli, yoxud tarqalayotgan bug' sababli bo`lishligini aniqlash lozimdir. Tabib esa hidlash havoning hidni etkizishi bilan bir qadar o`zgarishi sababli paydo bo`ladi, keyin hidli narsadan bug'ning ko`tarilishi unga yordam beradi, degan fikrni qabul qiladi.

Burun kasalliklari

Tumov va nazla

Izoh: hozirgi zamon nuqtai nazaridan "nazla" va "tumov"ning ikkalasi ham kataral seroz yallig'lanishdan iborat bo`lib, yallig'lanish natijasida paydo bo`ladigan seroz suyuqlikni qadimda "miyadan oqadigan modda" deb ataganlar. Bu ikkala kasallik bir-biriga hamkor va shu yerlik hisoblanadi. Lekin ba`zilar tomoqqa oqadiganini nazla deb, burundan to'shadiganini tumov deb ataydilar.

Tumov - suyuq, sho'r, ketma-ket oqadigan va hid bilishga to'sqinlik qiladigan narsaning burun yo`lidan kelib, yuz a`zolarining old

qismiga quyilishidir. Sovuqlikdan bo`ladigan tumov issiqlikdan bo`ladigan tumovdan ko`ra ko`proq uchraydi.

Nazla - tomoqga, o`pkaga, qizilo`ngachga tushib, u yerlarda yara hosil qiladi. Ko`pincha u tufayli "it ishtahasi" (yo'qotish) qo`zg'aladi. Ba`zan nazla asab orqali eng uzoq a`zoga o`tadi. Nazla issiq, o`tkir bo`lsa, tomoq og'riqlari, o`pka yallig'lanishi, zotiljam, sil kasalligi kelib chiqadi. Nazla sho'r yoki nordon bo`lsa me`da og'riqlari, ich ketish, ichak shilinishi yuzaga keladi. Nazla moddadan, ya`ni burun nam shilliqidan bo`lsa, qulanj kasalligi yuzaga keladi.

Sababi: - mizoqga xos issiqlik

-mizoqga xos sovuqlik: sovuq havo, shimoldan esgan shamol, hammom, badantarbiya vaqtin bosh ochiq bo`lganda etgan sirtqi sovuqlikdan yuzaga kelishi mumkin.

-tomirdan qon olish sababli g'ovaklik paydo bo`ladi (miyada) va u gavdani issiq va sovuqni qabul qilishga qobiliyatli bo`ladi.

-keksalar sovuq mizoqli bo`lgani uchun va miyasi kuchsizligi tufayli miyaga o`tgan oziq singmaydi va chiqindi nazлага o`tadi.

Belgilari:

- 1.Yuz va ko`zlarning qizarishi
- 2.Oquvchi moddaning achishtirishi, suyuqligi, issiq tuyulishi, o`tkir bo`lishi, burun qoqqanda unda alanganish hissining sezilishi.
- 3.Sarg'ish yo qizg'ish tupurish.
- 4.Burun bitib manqalanishi.
- 5.Nazla o`tkirligidan qitiqlanish belgilarining kuzatilishi.
- 6.Aksirish.

Davolash tadbirlari:

- 1.Moddani kamaytirish.
- 2.Sababchini yo`qotish, bartaraf etish.
- 3.Oqishni to`xtatish yoki uni mo`tadil darajaga keltirish yoki boshqa tanaga yuborish.

Asosiy tadbir: me`da buzilishidan, ovqat va ichimliklar bilan to`lib ketishdan saqlanish kerak. Kunduz kuni uxlamaslik kerak, mumkin qadar tashna, och va uyqusiz bo`lish kerak.

Davolash:

- 1.Umuman avval qon olish

2.Keyin surgi qilish

-uyqusizlik bo`lsa, ko`knor sharobi, bo`lmasa agar unga shakar qo`shib iste`mol qilish

-tashnalik bo`lsa: ko`knor sharobiga suv qo`shib ichish

-chopish va quyi a`zolarni harakatga keltirish moddani quyi keltiradi

-nazla paydo bo`lishidan oldin tezlikda hammomga tushish

Issiq nazlada: tomirdan qon olish, issiq xiltlarni chiqarish uchun surgi dori va moddani quyiga tortuvchi huqna dorilar buyuriladi.

Sovuq nazlada: shilliq xiltni boshdan surib chaqiruvchi, ichiladigan va hukna qilinadigan dorilar tavsiya etiladi.

Nazlani keltirib chaqiruvchi sabablarga qarshi:

Issiqlikdan bo`lsa - nahorda har kun hammomga tushish va shirin suvda cho`miltirish, bosh, qo'l- oyoq va kindik orqa teshigiga binafsha yog'i surtiladi.

-Arpa, ko`knor, binafsha, bobunadan tayyorlangan dorilarni buyurish.

-sovituvcchi dorilar boshga qo`yiladi. Yengil, ho'lllovchi, sovo'tuvchi ovqatlar beriladi.

-Yantoq shakar, skanjubin beriladi

Sovuqlikdan bo`lsa:

-boshni isitishga harakat qilinadi, paxtadog' yoki tuz va tariq bilan ba`zan juda issiq suv bilan kompress qilinadi.

-qo'l- oyoqlarga ukrop yog'i, bobuna, sarimsoqyog'i surtiladi. Kuchli yog'lar - gazako't, dafna, bom daraxti, gulsapsar yog'lari

- boshga va peshonaga xardal, qust va boshqalardan tayyorlangan dorilar surtiladi.

-qizartiruvchi dorilar tarkibiga kaptar tezagi, hardal, anjir, yalpiz va tog' gazak o'tining yelimi kiradi.

Sovuqlikdan bo`ladigan nazlada u etilishidan oldin qonga tushmasligi kerak.

Nazla oqimini to`xtatishga qarshi sovuq dorilar buyuriladi. Masalan, sovuq suv, gul suvi, yasmiq suvi, kashnich suvi, ko`knor po`sti qaynatilgan suv, yoki anor suvi bilan tomoq chayiladi.

Issiq nazlada suvlar sovutilib, sovuq nazlada esa isitilib chayqaladi.

Sovuq nazlada:

1.Sharobga murr solib ezib tomoqqa surtiladi.

2.Afyun moyi yelimi, kundur yelimi, za`farondan tayyorlangan qori og'izda shimaladi.

3.Karam sharobi va murr solingan qaynatma iste`mol qilish.

Issiq nazlada: ko`knor sharobi qo`llaniladi.

Sandarak yelimi, sedana, qust, qamo't kabilar tutatiladi.

Nazlaning quyuq - suyuqligini mo`tadil qilish uchun yalanadigan dorilardan kotiro, behi urug'i olib shimish kerak.

Dorilarni burunga ishlatalish yo`llari:

1.Tutatiladigan.

2.Hidlanadigan.

3.Aksirtiradigan (dorilar suyuq bo`lib ular burunga tomiziladi).

4.Tortiladigan (ular ham suyuq bo`lib havo orqali tortiladi).

5.Puflanadigan dorilar (quruq bo`lib, burunga puflanadi naycha orqali).

Mavzu savollari

7.Qulog xastaliklari tasnifi.

8.Qulogning tug'ma xastaliklari. (samam, tarsh, vakr haqida)

9.Qulog bitishi. Sababi, davolash.

10.Karlik.Sababi, davolash

11.Burun xastaliklari haqida tushuncha

12.Tumov va nazla haqida tushuncha va ular orasidagi farq .Davolash

4.5. §.Og'iz bo`shlig'i a`zolari va til kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Og'iz va tilning anatomiyasi

Og'iz quyisi bo`shilqqa ovqatni yetkazish uchun eng kerakli, yuqori bo`shliqqa havo yetkazishda hamkor va me`da og'zida yig'ilib qolib, quyiga haydalishi qiyin yoki mashaqqatli bo`lgan chiqindilarni chiqarib tashlashda foydali bir a`zodir. Og'iz insonda so`zlash a`zolari uchun, boshqa hayvonlarda esa tovush a`zolari uchun havo chiqarish orqali ovoz chiqaradigan, umumiyligi bir bo`shliq vazifasini bajaradi. Til og'izdagi bir a`zo bo`lib, chaynalgan narsani og'izda aylantirish, tovushni bo`lib ajratish va harflarni chiqarish quroli hisoblanadi. Mazani ajratish xususiyati ham tilga tegishlidir. Til osti sathining terisi qizilo`ngach

terisiga va me`daning ichki tomoniga tutashgan. Tanglay terisi esa, o`qsimon chok ro`parasida ikki barobar qismga bo`lingan. U ikkala bo`lak o`rtasida boylog'lar va birikish sababli hamkorlik bor. Tilni harakat qildiruvchi va harakatdan to`xtatuvchi mushaklar mavjud. Yaxshilab so`zlashga eng qobiliyatli til uzun va kengligi mo`tadil bo`lib, uchi ingichka bo`lgan tildir. Agar til juda katta va keng yoki tortishganga o`xshash kichik bo`lsa, unday til egasi so`zlashga qodir bo`lmaydi. Tilning moddasi g`ovak va oq etdan iborat bo`lib, unda mayda va ichkariga botgan qon tomirlar joylashgan. Shu tomirlar sababli tilning rangi qizil bo`ladi. U tomirlarning ba`zisi arteriya va ba`zisi venadan iboratdir. Tilda o`ziga kelgan to`rtta asabdan shaxobcha bo`lib chiqadigan ko`p asablar bor. Tilning tagida surma cho`pi sig`adigan ikkita teshik bor. U teshiklar so`lak qaynab chiqadigan o`rin bo`lib, tilning ildizida joylashgan va "so`lak ishlab chiqaruvchi" deb ataladigan etga borib yetadi. Bu ikkala teshikni "so`lak to`kuvchilar" deb ham ataydilar, ular tilni va til ustini qoplab butun og`iz pardasiga, qizilo`ngach va me`daga tutashgan pardaning namligini saqlab turadilar. Tilning tagida suradayn deb ataladigan ikkita katta ko`k tomir bo`lib, ulardan ko`p tomirlar ajralib chiqadi.

Til kasalliklari

Goho tilda uning harakatiga zarar yetkazadigan kasalliklar paydo bo`lib, natijada til yo butunlay harakatsiz qoladi, yoki uning harakati kuchsizlashadi, yoki harakati o`zgaradi. Goho tilda kasalliklar paydo bo`lib, tilning tegib bilish va totib bilish sezgilariga zarar etkazadi, u sezgilar ishdan chiqadi, yo kuchsizlashadi, yoki o`zgaradi. Ba`zan totish sezgisi yo`qolib, tegish sezgisi yo`qolmagani kabi, sezgining biri yo`q bo`lib, ikkinchisining yo`qolmasligi mumkin, chunki kasallik o`z zararini eng kuchsiz sezgiga qaratgan bo`ladi.

Tilning kasalligi goho mizoj buzuqligidan bo`ladi, goho quroq a`zoga tegishli kasallik bo`lib, tilning kattaligi yo kichikligidan, yoki shaklining buzuqligi, yoki vaziyatining buzuqligidan iborat bo`ladi, shular natijasida til yoyilmay yo yiqilmay qoladi, yoki til kasalligi uzlusizlikning buzilishidan bo`ladi. Goho til kasalligi bironta shishlardan iborat bo`lgani singari murakkab bo`ladi.

Ba`zan kasallik tilning xuddi o`zida, ba`zan esa miyaning ham-korligi bilan bo`ladi. Shu paytda ikki yuz va lablar ham ko`pincha, hamkorlik qiladi. Ba`zan, zarar tilga xos bo`lgan asab shaxobchasing o`zidagina bo`lmasa, kasallik boshqa sezgilarning hamkorligi bilan ham bo`ladi. Til kasalligi, ko`pincha, me`daning hamkorligi bilan bo`ladi, ba`zi vaqtarda o`pka va ko`krak ham hamkorlik qiladi.

Tilning mizojlariga rangining oqligi, sariqligi, qizilligi va qoraligi, tegib sezikishi hamda nordonlik, shirinlik, bemazalik, achchiqlik yoki sasishdan kelib chiqadigan yomon mazali, shuningdek, taxir va burishtiruvchi maza kabi biror mazani ko`proq sezishi belgi bo`ladi. Bu ham borki tilning rangidan va u sezayotgan mazadan olingan belgi boshqa a`zolarning kasalliklariga ham belgi bo`ladi. Chunki tilning qizilligi, ayniqsa u g`adir-budurlik bilan birga bo`lsa, bosh, me`da va jigar tomonlarida qondan paydo bo`lgan shishlarning borligiga belgi bo`ladi. Oqligi, me`da og`zi va jigarning sovuqligiga va boshda balg`am borligiga belgi bo`ladi, ba`zan tilning oqligi badan rangi boshqacha bo`lsa ham, sariq kasalligiga belgi bo`ladi. Til sezayotgan maza butun badanda yoki me`da va boshda qaysi xiltning ko`payganligiga dalolat qiladi. Goho tilning kasalligiga uning ho`lligi va quruqligi ham belgi bo`ladi. Uning quruqligi ikki jihatdan bilinadi: biri til yuzining tozaligi bilan bilinadi, bu esa haqiqiy quruqlikdir. Ikkinchisi yopishqoq xiltning til yuziga oqib kelib issiq sababli qurib qolganligidan bilinadi. Bu hol, til javharining quriganligiga emas, balki til yuzida yo nazladan, yoki quyi va tiqiz bug`dan yig`ilgan yopishqoq rutubatga belgi bo`ladi. Bu hol tabiblarni yanglishtiradigan narsalardandir: ular kasaldan uning og`zi quriganini bilganlarida birinchi xil quruqlik bilan ikkinchi xil quruqlik orasini ajratolmaydilar. Til quruq bo`lsa g`adir-budur, ho`l bo`lsa silliq bo`ladi.

Goho tilning ahvoli haqida so`zlagan vaqtdagi uning harakati, oriqligi, yengilligi, qalinlashib qolib hamisha uni tishlab ola berish va harakatining og`irligiga qarab hukm qilinadi. Bu hol uning qon yoki rutubat bilan to`lganligiga dalolat qiladi.

Til kasalligiga goho unda paydo bo`ladigan shishlar va mayda chiqiqlar dalolat qiladi. Aytilib o`tilgan umumiy qoidalarni va ularga yondoshib keladigan xususiy qoidalarni to`la o`rganganingdan keyin bu

manbalardan dalil olish yo`llarini kengaytira olasan.

Goho tilning bir o`zi og`riydi, goho miya yoki me`daning hamkorligi bilan og`riydi. Til asablari bir qancha boshqa asablarga tutashgan bo`lib, yo o`sha asablar til asablarining harakatiga to`sqinlik qilmay, ularga birgalashadi, sog`lom so`zlovchilarda Shunday bo`ladi, yoki to`sqinlik qiladi va osonlik bilan ularga birtalashmaydi. Natijada so`zlovchi tutilib so`zlay boshlaydi va boshqalar. Ba`zan tutilib so`zlash tilning to`xtalib qolishidan bo`ladi. Chunki til asablari quvvatni boshqa asabdan olishi natijasida, quvvat yetib kelgunicha til tutilib turadi.

Davolash. Goho tilni bosh yoki me`dani tuzatadigan narsalar orqali davolash bilan birgalikda davolanadi. U narsalarning hammasini o`z bobida bildingiz. Goho ichni surib bo`shatuvchi ichiladigan dorilar bilan tilning o`ziga xos davolash tadbiri ham qo`llanadi, Bu dorilar qustiradigan va mizojni o`zgartiradigan dorilardan ko`ra foydaliroqdir. Yoki uni burishtiruvchi yo tarqatuvchi, parchalovchi va suyultiruvchi dorilar bilan davolanadi; bular ichilsa, quvvati tilga borib yetadi. Bu xil dorilarni ovqatdan keyin ichish yaxshiroq.

Tilni goho og`iz chayiladigan, ishqalanadigan va tomoq chayiladi-gan dorilar; og`izga olib turiladigan yog`lar va yuqoridagi xususiyatlarga ega bo`lgan dorilardan tayyorlanib, keragida og`izga olib turiladigan hab dorilar bilan davolanadi. Bularni yapaloq qilib tayyorlash yaxshiroq. Og`iz va til dorilari tomoq va o`pkaga zarar qiladigan bo`lsa, ulardan oqadigan suyuqlik tomoq va o`pkaga bormasli-gi uchun ularni ehtiyyotlik bilan ishlatish kerak.

Tilning bo`shashuvi, og`irlashuvi va so`zlashga halal berishi.

Tilning bo`shashuvi bo`shashish kasalligining turlaridandir. Til bo`shashuvining sababi ma`lum bo`lib, u goho suvsimon rutubatdan, goho miyadagi birlamchi sababdan paydo bo`ladi. Ba`zan tilni harakat qildiruvchi asablardagi yoki o`sha asablardan tilga keluvchi shaxobchadagi sababdan yuz beradi. Til shishuvi miya hamkorligi bilan yoki uning hamkorligisiz bo`lganligini miyadan sug`orilib turgan boshqa a`zolardagi sezish va harakatning ahvoldidan bilinadi. Moddaning qon ekani tilning qizilligi va issiqligidan bilinadi. Moddaning suvsimon

suyuqlik ekaniga oq so`lakning ko`p oqishi, tarqatuvchi dorilarning oz foyda qilishi oz burishtiruvchi dorilarning esa foyda berishi belgi bo`ladi.

Goho tildagi bo`shashish so`zlashning yo`q bo`lib qolishi, yo qiyinlashishi yoki o`zgarishigacha yetib boradi. So`zlaganda duduqlanib "f" va "t" harflarini qaytaraverishi shular jumlasidandir. Bolalarning ba`zisida so`zlay olmaslik davri uzoq davom etadi.

Davolash. Oldin kichik iyoraj bilan, keyin katta iyoraj bilan "Og'izni tozalash, so`ngra boshni o`ziga xos dorilar bilan davolash kerak. Agar ho`llik bilan birga qonning ko`payganligiga gumon qilinsa, til tomirlaridan qon olinadi, engakka qortiq qo`yiladi, keyin esa tomoqqa chayiladigan va tilga ishqalanadigan dorilar ishlatiladi. Bo`satishdan keyin doimo til harakatlantirib turiladi. Kasal joyning o`ziga ishlatiladigan dorilarga kelsak, ko`proq vaqt tilni yumshatuvchi, ajratuvchi va latiflashtiruvchi dorilar bilan ishqalanadi va ularning suvlari bilan tomoq va og'iz chayiladi. U dorilar esa kaklik o`ti, tog'jambil, hardal, nazla o`ti va kovul il-dizi, hatto hardal bilan etmak kabi narsalardan iboratdir. Shulardan hammasini murriy va dengiz piyozining sirkasi kabi narsa bilan qo`shib ishlatiladi. Tilga navshadilni ayron qurt yoki suzma qurt bilan qo`shib, undan ko`p so`lak oqquncha ishqalash ham foyda qiladi. Yovvoyi piyoz sikanjubini bilan tomoq va og'iz chayilsa juda foyda qiladi. Igit tilning bo`shashuvi va og'irligiga qarshi juda yaxshi doridir.

Til haddan tashqari bo`shashib so`zlash mumkin bo`lmay qolsa, farfiyun va yetmakdan bir miqdor olib tilni va tilning ildizini o`sha tarkib bilan ishqalash kerak. O`sha dorilarni va ularga o`xshashlarni bo`yinga ham qo`yiladi. Goho shu dorilar va ularga o`xshashlardan tayyorlanadi, buning uchun ularni tez erib ketishdan saqlaydiganlardan anbar, sanavbar yelimi va boshqa yopishqoq yelimlar bilan qoqiladi. Tilning bo`shashuviga va chiqib osilib qolishiga qarshi til tagiga olib turiladigan habning tarkibi quyidagicha: ikki dirham bo`tm daraxtining saqichi va bir dirham anguzani olinadi va shundan: no`xat barobarida hab dori tayyorlab, til tagida olib turiladi. Bu bobda sinalgan tadbirlardan biri novshadil, murch, nazla o`ti, hardal va buraq, zanjabil, tog' mayizi, kaklik o`ti, sedana, quruq samsaq va neftli tuzlarni yanchib, elab va ularni issiq suvgaga solib, bir necha kun ketma-ket tomoq chayishdir.

Tilning bo`shashuviga qarshi hidlar ko`rsatadigan juvorishn dorilardan biri mana shu tarkibdagi juvorishndir: qora zira, Kermon zirasi, dorchin va hind tuzining har biridan yarim misqol, yuz dona uzunchoq murch, ikki yuz dona qora murch va shakardan sakkiz istor, bir istor olti yarim dirham bo`ladi, olib doimo ishlatib turiladi.

Tarqatuvchi dorilar ta`sir qilmasa va sen rutubatni suyuq va oquvchan deb taxmin qilsang, burishtiruvchi va tarqatuvchi dorilarni, masalan: gul bilan aralashtirilgan qandul va taboshir bilan aralashtirilgan qora chayir guli kabi dorilarni ishlat. Qurt, uzo't gurasi va dumbul mevalar kabi nordon va burishtiruvchi narsalar bilan tilni ishqalash til bo`shashuviga ko`pincha foyda qiladi. Chunki ular so`lakni tarqatishi va oqizishi bilan birga nordonligi sababli tilni mahkam qiladi.

Bolaning tilga kirishi kechikib ketsa, doimo uning tilini harakatlantirib turish, ishqalash va so`laklarni oqizish kerak. Ayniqsa, shunday bolaning tiliga asal va andaron tuzi oq tuz ishqalansa, yaxshi foyda qiladi. Yana tilning ortiqcha ho'lligini davolash to`g'risida aytilgan dorilar ham foydalidir. O'shanday bolalarni so`zlashga majbur qilish tillarini harakatlantiradigan va ravon qiladigan tadbirlar sanaladi.

Tilning tirishuvi

Goho til uning mushaklarini eniga qarab tortadigan yopishqoq rutubatdan, goho burishtiruvchi savdodan tirishadi. Goho o'tkir kasalliklar til mushaklarini quritib, qovjiratib tirishtiradi. Tilning tirishuvi ba`zan so`zlashga ham zarar etkazadi.

Davolash. Til tirishuvini davolash qoidalari umumiyligi tirishuvini davolash qoidalardan uzoq emas. Xosroq davolash yo`sini kelsak, u quyida belgilangan narsalar bilan bo`ladi: bo`yin tagiga bobuna, qashqar beda, ho`l beda va ukrop kabilar bilan kompress qilinadi, ularni yakka-yakka va bir-biriga qo`shib ham ishlatiladi. Shuningdek ularning yog'larini iliq qilib og'izni to`lg'izib tomoq chayiladi va bir muddat og'izda tutib turiladi. Issiqlik yog'lardan, tarqatuvchi shirinliklardan, sariq yo`ng'ichqa urug'i va shunga o`xhash narsalardan tayyorlangan xabi-sani iste`mol qilish kerak. Til tirishuvi isitmalarda bo`lsa, ishlatiladigan yog'lar binafsha yog'i, qovoq yog'i va tol yog'i kabi yog'lar bo`lishi lozim, ular ilitib ishlatiladi. Mazkur joylarga iliq suv va ilitilgan ho`llovchi shiralarni ham quyib turish kerak.

Tilning kattalashuvi

Goho til qonning ko`pligidan, goho bo`sashtirib shishiruvchi shilliqli ho`llikning ko`pligidan kattalashadi. Goho til juda kattalashib ketadi, hatto og'izdan chiqib turadi va og'izga sig'maydi. Tilning bunday kattalashuvini shishlar bobidan ajratib bayon qildik, chunki uning o`ziga xos ayirmasi bor.

Davolash. Qondan va issiq moddadan bo`lganini rovoch va sitron suvi kabi parchalovchi nordon va burishtiradigan narsalar bilan ishqalab turish orqali, namliklardan bo`lganini esa bo`satishlardan keyin qurt va sirka qo`shilgan navshadil va tuz bilan ishqalab davolanadi. Yoki zanjabil, murch, uzunchoq murch va andaron tuzini olib yaxshilab yanchib tilga ishqalanadi. Shunda til o`z hajmiga qaytadi va og'izdan chiqib qolgan qismi qaytib kiradi. Bolalarda til bo`sashuvi paydo bo`lsa, parhez qildirish, chumchuq va kaptar bolalarining go`shti bilan ovqatlantirish kifoya qiladi. Bir kishining tiliga tutashgan po`st yonidagi asabga tig' urib, qortiq qo`yilgan edi, uning tili bo`sashib shalpirab goldi.

Tilning qisqarib qolishi

Goho tilning tagidagi boylog'ning til ildizi va uchiga tutashuvi sababli til qisqaradi, bu esa tilning cho`zilishiga qo`ymaydi. Goho tilning tirishuvi sababli ham qisqarish paydo bo`ladi.

Davolash. Tirishish sababli bo`ladigan til qisqarishini davolash tadbiri aytildi. Boylog'ning kaltaligi sababli bo`ladiganiga kelsak, uni o`sha boylog'ni til uchi tomonidan ozgina kesish va kesilgan joyga qonni to`xtatish uchun yanchilgan zok qo`yish bilan davolanadi. Tilni cho`zish uchun boylog'ni kesish miqdori tilni tanglay tepasiga bukiladigan va og'izdan chiqqa oladigan darajada qilib kesishdir. Agar ko`p qon ketishdan qo`rqib, temir bilan kesishga jur`at qila olmasalar, boylog'ning tagiga qirqadigan ipni nina bilan kirgizib uni kesmasdan ip bilan qirqiladi. Shu joyga bitishiga to`sinqinlik qiladigan dog'lovchi o`tkir dorilar qo`yish kerak. Agar boylog'ni sekin kesib, til tagidagi tomirlarni kesilib ketmasligi uchun ehtiyyot qilinsa, ko`p qon oqmaydi.

Til shishlari

Tilda issiq shishlar, shilliqli dan va yeldan bo`ladigan shishlar, qattiq shishlar va rak paydo bo`ladi. Shishlarning belgilari haqida aytilgan

so`zlarga murojaat qilsang, hammasining belgilari ravshan bo`ladi. Goho til zaharli qo`ziqorin va afyun kabi zaharli narsani iste`mol qilish sababli ham shishadi.

Davolash. Issiq shishlarni davolash uchun oldin tomirdan qon olish va surgi qildirish kerak, til shishlarida bu tadbir qustirishdan ko`ra yaxshiroqdir. Ba`zan tilning tagidagi tomirdan qon olish lozim.

Keyin, shishlarning boshlanish davrida sachratqi shirasini, ayniqsa sutcho`p shirasini va ituzum shirasini; qatiq, gul suvi va qizil gul, qizil tasma va anor po`stlari qaynatilgan gul suvini og`izda tutib turiladi. Tilni yangi shaftoli bilan ishqalanadi, bu juda foydalidir. Agar shishlar tarqalmasa va yiringlamasa, sut bilan qo`shilgan asal, yoki sapsar ildizining qaynatmasi, yoki anjir va sariq yo`ng'ichga qaynatmasi, mayiz va arpabodiyon qaynatmasi kabi yetiltirib tarqatadigan dorilarga ehtiyoj tushadi. Ular bilan tomoq chayiladi.

Me`da og`zidan quyuq moddani surish uchun iyoraj fikro ichiladi. Kunjut yog`i qo`shilgan ismalooq oshi va karam oshi kabi yetiltirish va tarqatish xususiyatga ega bo`lgan ovqatlar yeyiladi. Shishlar yiring bog`lasa, og`izga tatim, mirta, yasmiq va zaytun bargi qaynatmasi kabi burishtiruvchi narsalar va taxir sharob ishlatiladi. Ituzumming shirasidan, gul yog`idan, po`sti ajratilgan yasmiqdan va gulda tayyorlangan marham til shishlariga foyda qiladigan dorilardan sanaladi.

Agar til shishi g`ovak bo`lib shilliqdan bo`lsa, unga va shuningdek oxirgi darajasiga yetgan issiq shishga arpabodiyon ildizi kuydirib yopishtirilsa, foyda qiladi. Goho shunday shishlarda g`alizlashgan ayrim issiq shishlarda mana shu tarkibdagi dori ishlatiladi: za`faron va iyoraj fiqrodan bir bo`lak, kofur va mushkdan uchdan bir bo`lak va novvotdan bir yarim bo`lak olib, shu tarkibdan ikki donaq vazndagisini xotin kishining sutida eritib burunga yuboriladi.

Jolinus: "bir kishining tili kattagina shishdi. U kishi oltmish yoshda bo`lib, tomiridan hech biron oldirmagan edi. Men ham qon olmadim, unga huqo ichirdim va tiliga sovuqlik quyuq surtma dorilar surtib qo`ymoqchi bo`ldim. Kech vaqt edi, o`sha yerda hozir bo`lgan bir tabib qarshilik qildi. Bemor o`sha kechasi tushida o`zini sutcho`p "shirasini og`izga olib turgan holda ko`rdi, keyin u kishi shunday qildi ham va

butunlay sog'aydi. Bu mening bergen maslahatimga muvofiq bo`ldi", - deb aytadi.

Agar shish qattiq bo`lsa, yengil tadbir qo`llash va yaxshi ovqat berish kerak. Quyuq xiltlar katta iiyorajlar bilan bo`shtiladi, tomoq chayqaladigan suyultiruvchi dorilar ishlatiladi. Sariq yo`ng'ichga ivitilgan suv, anjir bilan birga tayyorlangan sariq yo`ng'ichga qaynatmasi va tozalangan mayiz bilan birga dafna mevasining suvini og'izda tutib turiladi. Yana : xotin kishi, yoki yovvoyi eshak, yoki echki sutini, yana shirin nabiz yoki uzum shirasi yoki xiyorshanbar asali bilan qo'shib qaynatilgan anjir va xurmo suvini ham Og'izda tutib turiladi. Kichik iiyoraj yoki xiyorshanbar kabi narsalar bilan ichni doimo yumshatib turish kerak.

So`zlashga xalal yetishi

Bu to`g'rida aytilishi zarur bo`lgan ba`zi narsalarni tilning bo`shashuvi bobida aytildi. Endi aytamizki, soqovlik va undan boshqa so`zlashga yetadigan zararlar, goho miyadagi va tilga kelib, uni harakatlantiruvchi asabning kelib chiqqan joyidagi zarardan paydo bo`ladi. Goho zarar asab shaxobchasing o`zida, goho mushakning o`zida bo`ladi. O'sha xalal tirishish, tortishish, qattiqlashish, bo`shashish, boylikning qisqaligi, yoki bitib qolgan jarohatdan yoki qattiqlashishdan bo`lgan tugunchadan iborat bo`ladi. Senga ma`lumki, bu narsa ko`pincha rutubatdan bo`ladi, goho quruqlikdan ham bo`ladi. So`zlashishning zararlanishi goho tilda va til tevaragida paydo bo`ladigan shishlar va yaralardan, goho miya pardasidagi issiq shish yallig'lanishidan keyin chiqindilarning miyadan asablarga haydalib borishi sabablari vujudga keladi. Isitmalarda ham yuz beradi, chunki isitmalar tilni qattiq quritib qo`yadi, shunda til bujmayib tirishib qoladi; Biroq bu kam uchraydi. Shu aytilganlar aslida bo`lmay, keyin paydo bo`ladigan zararlardir.

So`zlashga yetgan zarar goho bo`g'iz mushagidagi sababdan, ya`ni undagi tortishish yoki bo`shashishdan yuz beradi; Shunda kishining dastlab tovush chiqarishi qiyin bo`ladi, chunki u ko`krak va bo`g'iz mushaklarini ular ko`tara olmaydigan bir kuch bilan harakat qildirishga urinadi, lekin mushaklar bo`ysunmaydi. U kishi so`zga boshlayotganda

ichiga nafas olsa, keyin shoshmasdan ravon so`zlay oladi. Bunday kishi so`zlamoqchi bo`lganda zo`r nafas olishi va ko`krakni qattiq harakatlantirishi kerak, keyin bir oz shoshmay so`zlashga kirishishi lozim. U kishi shuni odat qilsa, so`zlashi oson bo`lib, osonlik bilan so`zlashga odatlanadi.

Boshqa xil sabablarga ko`ra bo`ladigan zararlanishga kelsak, ularni davolash tadbirlarini o`z boblarida aytdik. Sarsom kasallikdan keyin so`zlashga yetadigan zararlanishda til tagidagi ikkita tomirdan qon olish juda foyda qiladi.

"Qurbaqa" lapsha kasalligi

Bu tilning tagida bo`ladigan qattiq bezga o`xshash bir narsadir. Uning rangi til sathining va undagi tomirlarning rangidan tarkib topgan bo`lib, qurbaqa rangiga o`xshaydi. Bu kasallikka quyuq va yopishqoq rutubat sabab bo`ladi.

Davolash. Bunga yeyuvchi, parchalovchi va tarqatuvchi dorilarni va shuningdek navshadil, sirka va tuz kabi juda qurituvchi dorilar ishlatib ko`riladi va zangor hamda zok bilan tilni ishqalanadi. Bu bilan tuzalmasa, Abirun dorisi, osqoriyu dorisi va karobodinda ko`rsatilgan va yangi tuxumdan tayyorlangan dori kabi o`tkir dorilar ishlatiladi. Yana til tagidagi tomirdan qon olib, kuchli og`iz chaqasining dorilari ham ishlatib ko`riladi. Bu bilan ham tuzalmasa kul tadbirini ishlatishdan boshqa chora yo`q. Bunga qarshi ishlatish uchun maqtalgan dorilardan biri mana bu: Fors kaklik o`ti, anor po`sti va tuzni olib shu tarkibda yasalgan dori bilan "qurbaqa" kasalligiga uchragan bolaning tilini ishqalanadi, bu tadbir uni tuzatadi. Kuydirilgan zokni va savrinjonni tuxum oqi bilan qo`shib til tagiga qo`yish ham sinab ko`rilgan tadbirlardandir.

Tilning kuyib achishishi

Tilning kuyib achishishi goho me`da og`zi va miyadagi isitma darajasiga yetmagan harorat sababli, yoki o`tkir, sho`r, achchiq, shirin narsalar va qattiq tashna qiluvchi narsani yejish sababli paydo bo`ladi. Yana o`tkir isitmalar va ichki shishlar kabi ulardan ko`ra kattaroq sabablardan ham bo`ladi.

Umuman ularning chorasi shu : tili ko`p achishganidan shikoyat qiluvchi kishining, ayniqlsa u kishi kasal bo`lsa, chalqancha va og`zini

katta ochib yotishdan tiyish kerak. Doimo qovun, tarrak, bodring va qovoq urug'i, yantog' shakar, kraxmal va shularga o'xshash narsalardan tayyorlangan hab dorilarni iste`mol qilinadi. Unday kishi olxo`ri danagi, tamr qindiy, qijoz shakari, ma`lum shiralar vasovutib qo`llovchi siqib olingan suvlarni og'ziga olib turishi kerak. Agar tilda yopishqoq xilt bo`lsa, unga yog' surtiladi. Keyin tilni yog'lab turish, turli yog'lar, mum, chilonjiyda, turli shiralar va siqib olingan suvlar va qushlarning yog'lari bilan og'iz chayib turish lozim. Ba`zi kishilar kasallikni davolash uchun tilni bog' yalpiz bilan ishqalaydilar.

Til yorilishini davolash

Bundan shikoyat qiluvchi kishi ispaql shirasini og'ziga tutib, undan yutadi ham. Unga turli chala pishirilgan tuxum yediriladi. Tarrak va sabiston olxo`risini palla qilib bir-biriga ishqalashdan paydo bo`lgan ko`pik bunga qarshi ishlatib sinalgan dorilardan sanaladi.

Tilning og'izdan chiqib qolishi

Bu goho, tilning o`zidagi katta shishlar sababli yuz beradi, goho tomoq og'rig'i kasalliklarida tabiat yoki kishining irodasi nafas yo`lining kengayishi uchun tilni og'izdan chiqarib turishidan bo`ladi.

Og'izda bo`ladigan mayda chiqiqlar

Og'izda mayda chiqiqlarning paydo bo`lishi ko`proq vaqt me`da va bosh tomonlaridagi issiqli dan va bug'lardan bo`ladi, goho ular isitmalarda ham paydo bo`ladi. O'tkir isitmalarda tilda qora chiqiqlar ko`rinsa, bemor ikkinchi kuni o`ladi, deydilar. Chiqiqlarning dastlabki paytida sovutishga va quritishga ehtiyoj tushsa, foydali sodda dorilar mana bular: qalila, mozi, gul urug'i, kraxmal, yulg'un daraxtining mevasi, momiso shamchasi, anor guli, katiro, sandalning ikkala turi, qizil gul, taboshir, yasmiq, arpa loyi, anor dum, dub yong'og'i ichidagi yupqa po`st, qimuliyo kesagi, fufal kabi narsalar; yana sutcho`p, ituzum, qizil tasma, semizo`t va tok uchlarining shiralari kabi sovuqlik shiralar ishlatiladi. Ko`p bolalarning og'zidagi chiqiqlarni novvot va kofur bilan davolanadi. Kasallikning oxirida kerak bo`ladigan issiqlik dorilar qoncho`p, ayniqsa handul, muskat yong'oqi po`stlari, to`poloq ildizi, za`faron, savr yong'og'i, govzabon, nazla o`ti, qalampirmunchoq, yalpiz va omila shirasidir; Ba`zan og'iz chiqiqlari yaraga aylanib ketib, uni tuzatish uchun zirnixga ehtiyoj tushadi, g'alizlashgan chiqiqlarga qarshi kandul

qaynatmasi, zarchava, to`rtdan bir ukiya qoncho`p, ikki dirham sabr va bir misqol za`faron tarkibi sinab ko`riladi. Shuningdek qalampirmunchoq, muskat yong'og'i va qandullarning barobar yoki bir-biriga yaqin miqdorlari qaynatisilgan suv ham sinab ko`rilgan. Chiqiqlar yiring boylaganda, ularga zig'ir urug'i kanavcha, rayhon urug'i va gulxayri urug'idan olingan shiralarni ishlatish kerak. Yana shu urug'larning o`zлари, arpa uni ishlatiladi. Ba`zan zig'irning anjir, sariyog', bug'doy uni, cho`lyalpizi va sariq yo`ng'ichqa bilan qo'shib qaynatisilgan suviga ehtiyoj tushadi. Biladigan tabiblardan birining aytishicha, og'iz chiqiqlarini davolashda qora chayir yog'ini ilitib og'izga olib turishdan yaxshiroq tadbir yo`qdir.

Og'iz chaqasi va yomon yaralari

Og'iz chaqasi og'iz va til terisida bo`ladigan tarqaluvchi va kengayuvchi yaradan iboratdir. Bu ko`pincha bolalarda paydo bo`ladi. Ulardan paydo bo`lishiga ko`proq sutning yomonligi yoki uning me`dada yomonroq hazm bo`lishi sabab bo`ladi. U har bir xiltdan bo`laveradi va rangidan taniladi: oqi balg'amdan, ko`proq sho'r balg'amdan paydo bo`ladi sarig'i safrodan bo`lib, alangasi boshqasinkidan ko`ra kuchliroq bo`ladi; qorasi savdodan, tiniq qizili esa qondan bo`ladi. Eng yomoni savdodan bo`lganidir. Og'iz chaqasining ba`zisi kuchli o`yiluvchi bo`lib, ba`zisi esa tinchroq bo`ladi. U goho shishli, goho shunday o`zi bo`ladi. Og'iz sathida bo`ladigan har bir yara albatta tez yoyiladi, chunki og'iz hamisha issiq terisi esa ho`l va yumshoq bo`ladi. Jolinus og'izdag'i yaralarni shilliq parda yuzida bo`lib turgan paytlarda "Og'iz chaqasi" deb atar, sasib chuqurlashsa, og'iz chaqasi deb atamas, balki "yomon yaralar" deb atar edi. Shu yomon yaralarni davolashda dog'lovchi dorilarga ehtiyoj tushadi. Yog'ingarchilik ko`p bo`lsa, og'iz chaqasi ko`payadi; u vaboli isitmalarda ham ko`payadi.

Davolash. Oldin ko`payib, og'iz chaqasini paydo qilib turgan xiltlarga qarshi tadbir qilish kerak. Xilt ko`paygan bo`lsa, butun gavda bo`shatiladi. Keyin iyak tagidagi tomirdan, ayniqsa chaxor rakdan qon olib bo`shatiladi. Shu tomirlardan qon olish og'izdag'i moddali issiq kasalliklarning hammasiga ham foyda qiladi. Keyin chiqiqlarga ishlatiladigan va eslatib o`tilgan dorilardan foydalanish lozim. Kuchli,

ho`l, zardob va yiringi ko`p bo`lganiga kuchli dori, mo`tadiliga mo`tadil dori va kuchsiziga kuchsiz dori ishlatiladi. Og'iz yaralari suyakka yetishga yaqinlashsa, ko`p miqdordagi arab akatsiyasi shirasi bilan qo`shilgan faltafiyun kabi juda kuchli dori ishlatish zarur bo`ladi. Bunda hamma yog'lardan, hatto zaytun yog'idan ham saqlanish kerak.

Og'iz yarasi qizil bo`lib qondan bo`lsa, dastlab unga eng muvofiq dori bir oz burishtirish va sovutish xususiyatiga ega bo`lgan doridir. Undan keyin shimdiruvchi dori ishlatiladi. qizg'ish sariq va sariq xiliga sovutishi kuchliroq bo`lgan dori ishlatish kerak. Ulardan boshqa turlariga kelsak, eng oldin qilinadigan zarur ish mo`tadil tabiatli qurituvchi va tozalovchi dori ishlatishdir. Keyin kuchli qurituvchi va kuchli shimdiruvchi dori ishlatish kerak. Shularning hammasida bemorning yoshini nazarda tutish kerak: bolalarning dorilari kuchsizroq bo`lishi va emadigan sutlarini tuzatish zarur. Kattalarning dorilari esa kuchliroq bo`lishi lozim. Bolalarga ko`pincha ovqatning o`zi ham foyda qiladi. Agar ovqat yemaydigan bo`lsalar, o'sha foyda qiladigan ovqatlarni emizuvchiga yedirish kerak.

Og'iz chaqasining haroratli xiliga yog'adigan davo, masalan, maymunjon bargini yoki yasmiqni sirka bilan qo`shib chaynashdir. Hamma hayvonlarning, ayniqsa tog' echkisi va buzoqning iligini behi bilan aralashtirib iste`mol etilsa, foyda qiladi. Nordon olma, nordon nok do`lana, behi, chilonjiyda, tok navdalarining uchi, quritilgan bodring, yasmiq uni, guruch uni ham foyda qiladi. Mozi, taboshir, gul, arab akatsiyasining shirasi va shularga o`xhash narsalardan tayyorlanib sepiladigan dorilar ulardan ham kuchliroqdir. Burishtiruvchi narsalar bilan qo`shilgan qoncho`pning og'iz chaqasini davolashda ajoyib quvvati bor. Og'iz chaqasiga kofur ham juda foydalidir.

Og'iz chaqasining ikkala sovuq xiliga, ayniqsa balg'amdan bo`lganiga qarshi tozalab qurituvchi dorilar ishlatilsin. Yana kuchli shimdiruvchi va qurituvchi dorilarni, ayniqsa savdodan bo`lgan ogiz chaqasiga qarshi ishlatish kerak. Masalan, yovvoyi yasmiq uni va asalning mozi bilan qo`shilgani shunday. Og'iz chaqalariga, ayniqsa bolalarnikiga, katta toshbaqaning sirka bilan aralashtirilgan o`ti juda foydalidir. Yomon xiliga esa zokni sirka bilan qo`shib ishlatish lozim. Agar ular yomon bo`lib o`yib yuborsa, zangorni sariq zok bilan qo`shib,

mozini shinniga solib, yoki mozi, achchiqtosh va anor gulidan barobar bo`lak olib qo`shib ishlatish kerak. Yana musoro kulcharini yoki taraxumotiqun surmasini uzum qo`rasining shirasi kabi burishtiruvchi shira bilan qo`shib ishlatiladi. Sepiladigan dori singari to`zondek qilib yanchilgan achchiqtosh va mozi og`iz yaralarining hamma xiliga umumiylorilardan sanaladi. Buni og`izga sekinlik bilan ishqalash kerak. Og`izdagi hamma xil yomon yaralarga mozi, ayniqsa uning sirka va tuz bilan qaynatilgani foyda qiladi. Bolalarning og`iz yaralarida o`sha qaynatma bilan og`iz chayiladi. Og`izning yomon yarasiga qarshi ta`sir qilishda mozariyun kuli ayrim xususiyatga ega bo`lib, og`iz yaralarining hamma turlari uchun umumiylorilardan biridir. Gultojixo`roz, mis suvi hamda sharobning kuydirilgan loyqasi ham shunday. Og`izning savdodan bo`lgan qora yarasiga urug`i olinib asalga qorishtirilgan mayizni va rum arpabodiyonini surtish foyda qiladi. Agar og`izda shu bilan birga shish ham bo`lsa, bir sukurraja tog`rayhonni yarim sukurraja gul yog`i, yarim sukurraja yasmiq va ikki misqol za`faronni olib shu tarkibdan malham qilib ishlatiladi.

Tupuk va so`lakning ko`payishi va uyquda so`lak oqib qolishi

Bu hol goho issiq va ho`llikning, ayniqsa me`dada ko`payishidan, goho faqatgina issiqning kuchayganligidan paydo bo`ladi. Masalan, ro`za tutgan, ovqatni oz yeydigan yoki ovqatsiz qolgan kishida to ovqatlangunicha hamisha tupuk kelaveradi, ovqatlangach bosiladi. Goho bu narsa balg`amdan va sovuqdan bo`ladi.

Davolash. Agar bu issiqliqdan bo`lsa, oldin bosliq tomiridan qon olish, qiyom qilingan nordon shiralar, sovuqlik nordon mevalar va ko`p suv aralashtirib eskirmagan nabiz sharobi iste`mol qildirish kerak. Ovqat baliqdan, uloq va qush go`shti kabi yengil go`shtlardan tayyorlanadi. Yasmiq, tatim va bunga o`xshash narsalardan tayyorlanadigan burishtiruvchi qaynatmalar bilan og`izni doimo chayqab turiladi.

Bu kasallik sovuq mizojlilik va balg`amdan bo`lsa, o`ziga ma`lum narsalar yordami bilan haftada ikki yoki uch marta qustiriladi va har haftada bir marta mana shu tarkibdagi dorini ichiriladi ikki dirham iyoraj fiqro, ikki donah tuz, rum arpabodiyoni juvonanining har biridan bir

donak olib asal sikanjubini yoki skan-jubini buzuriy bilan ichiriladi. Undan keyin taryoq va issiqlik juvorishlar iste`mol qilinadi.

Unday bemorning ovqati esa, xushbo`y dorivorlar, sarimsoq va xardal bilan qaynatilgan jo`ja go`shtlari bo`lishi kerak. Kechqurunlari lochira murriy bilan yeyiladi, keyin issiq suv ichiladi, uyqudan oldin bemor tishini yuvishi kerak.

Quyidagicha davolash usuli yaxshi va umumiylar davolash tadbirlaridandir: yirik qilib yanchilgan tuzdan bir dirham har kuni yangi sachratqi bilan qo`shib yeyiladi, keyin kichik atriful iste`mol qilinadi va doimo tishni maxsus uzun cho`p misvok bilan yuvib turiladi. Qovurilgan sichqonni yedirib ko`rilganda uning, ayniqsa bolalar uchun foydali ekani ko`rildi.

Yeyilgan narsalarning yomon hidlarini og'izdan ketkazish

Bunga g'azago`tni va maymunjon bargini chaynash, ulardan keyin yovvoyi piyoz sirkasi bilan og'iz chayqash, to`poloq va yovvoyi zanjabilni og'izda olib yurish foyda qiladi.

Qon tuflash

Agar qon og'iz moddasidan va pardasidan chiqayotgan bo`lsa uni mayda chiqiqlar va boshqa yaralar bobida aytilgan burishtiruvchi dorilar bilan davolash kerak. Tok novdalari va o`rmovichlari qaynatmasining bunga zo`r foydasi bor.

Uyquda og'izning ochilib qolishi

Chuqur nafas olishga bo`lgan qattiq ehtiyojdan, yo qizdiruvchi alanganishdan, yoki nafas yo`lining torligi va tomoq bo`g'ilishidan, yoki og'iz mushagi kuchsiz bo`lib, uyquda ishlay olmasligidan uyquda og'iz ochilib qoladi. O'shanday holning o`tkir kasalliklarida yuz berishi yomon belgilardan sanaladi. Tilning ranglariga kelsak, ularni birma-bir bayon qilish uchun eng munosib o`rin boshqa boblar va o`tkir kasalliklar bayon qilinadigan yerlardir.

Tishlar haqida.

Tishlar, ularning anatomiysi va foydalari to`g'risida: Ma'lumki, tishlar sezuvchi suyaklar turkumlaridandir, chunki ularga miyadagi yumshoq asab kelib taqaladi. Tishlar og'riganda, ularda paydo bo`ladigan lo'qillash va milklarning uchishi sezilib turadi, ba'zan

qichishi va qitiqlanishi ham seziladi. Goho ularda bo'shashish , qimirlab turish , bo'rtib chiqish, tish moddalari va ustlariga birikkan emal' rangining o'zgarishidan iborat kasalliklar paydo bo'ladi. Yana ularda og'rig'ining bir turi bo'lgan qamashish paydo bo'ladi. Tishlar ba'zan shirin va nordon narsani chaynashdan ojiz bo'lib qoladi, issiq va sovuqdan aziyatlanadi va ularning biriga yoki ikkalasiga ham duch kelishga chidayolmaydi. Goho tishlarning hajmlarida tabiiy ravishda o'sib kattalashish yoki yedirilib , kichrayish yuz beradi. Goho tishlarda bir xil shish ham paydo bo'ladi, bu ajablanarli emas. Chunki oziqning o'stirishi orqali cho'zilishi qabul qilgan har bir narsaning chiqindi bilan ham cho'zilishi qabul qilmaganlarida , ular ko'karmas va qoraymas edi; bu narsa chiqindilarning ularga singishidan bo'ladi. Tishlar doimo o'zib va kattalashib turishga qobiliyatli qilib yaratilgan , shu sababli ulardagi yedirilishning o'rni to'lib turadi. Hatto tushib ketgan yoki sug'urib olingan tish o'rnining ro'parasida turgan tish uzayib o'sib ketadi. Chunki u tish o'sib turadi va uning kattalashishiga turgan to'sqinlik qilmaydi.

Bilginki , kishilaring mizojariga milklar va ularning rangi dalolat qiladi: sariq bo'lsa safro mizoj , oq bo'lsa balg'am mizoj , qizil bo'lsa qon mizoj, bir oz gungurt va qoramtil bo'lsa savdo mizoji bo'ladi.

Tishlarni sog' saqlash tadbirlari

Tishlarni sog'lom bo'lib turishini sevgan kishi 8 narsani ko'z oldida tutishi kerak. Bulardan biri ovqat va ichiladigan narsani 1-me'dada ketma-ket buzilishidan saqlashdir. Buzilishga yoki ovqat moddasining o'zi sabab bo'ladi, masalan, u sut , tuzlangan baliq va tuzlangan mayda baliq kabi tez buzilishga qobiliyatli narsalardan bo'ladi yoki unga ovqat yejish tadbirining yomonligi sabab bo'ladiki, bu haqda o'z joyida aytib o'tildi. 2- quishni, ayniqsa, nordon quish odat bo'lsa , uzoq vaqt davom ettirmaslikdir . 3- har bir yopishqoq narsani, ayniqsa notif deb ataladigan holva va yopishqoq anjir kabi shirin narsalar chaynashdan , 4- qattiq narsani tish bilan sindirishdan saqlanish, 5- tishni qamashtiruvchi narsalardan saqlanish, 6- juda sovuq narsadan, ayniqsa uni issiq narsadan keyin tishga tegizishdir va juda issiq narsadan, ayniqsa uni sovuq narsadan keyin uni tishga tegizishda saqlanish, 7- tishlar orasidagi narsalarni doimo tozalab turish , lekin tishni juda chuqur

kovlamaslik va shu bilan tish ildizidagi va oralig'idagi etlarga zarar yetkazmaslik kerak. Bunday kovlash oraliqdagi etni sirtga chiqarib yoki tishlarni qimirlatib qo'yadi. 8-gandano kabi xususiyati bilan tishlarga zarar qiladigan narsalardan saqlanishdir, chunki gandano tishlarga va milklarga juda zarar qiladi. Yana oddiy dorilar bobida bayon qilingan boshqa zararli narsalardan ham saqlanish kerak.

Tish tozalaydigan cho'p misvoqni ishlatishga kelsak, uni o'rta darajada ishlatish, tishlarning tiniqlik va yaltiroqligini ketkazadigan, ularni nazlalar va me'dadan ko'tariladigan bug'larni qabul qilishga tayyorlaydigan va biror xatarga sabab bo'ladigan darajada nihoyasiga yetkazib ishqamaslik kerak. Misvoq o'rta darajada ishlatilsa, tishlarni yaltiratadi, kuchaytiradi, milklarni mahkamlaydi, tishlarning kovaklanishiga to'sqinlik qilib, og'izni xushbo'y qiladi. Misvoq uchun eng yaxshi cho'p burishtirish xususiyati va achchiqligi bor bo'lган cho'pdir.

Doimo uqlash oldidan tishlarni yog'lab turish kerak. Tish mizojini sovutish zarur bo'lsa gul yog'i bilan isitish zarur bo'lsa, bon va Rum sunbulining yog'i bilan yog'lanadi. Ba'zan shu ikki xil yog'larni qo'shib ishlatish zarur bo'ladi. Eng yaxshisi tish mizoji sovuq bo'lsa, oldin asal bilan, agar sovuqqa moyillik yoki kam issiqlik bo'lsa, shaker bilan ishqalash lozim. Ularning har ikkalasi ham bir qancha yaxshi ishlarini birdam bajaradi: tishlarni yaltiratadi, zichlashtiradi, baquvvat qiladi, isitadi va tozlaydi. Lekin shakar bunday ta'sir ko'rsatishida asaldan quyiroq turadi. Novvotni yanchib asal bilan aralashtirib ishlatilsa tishlarni yaltiratadi va tozalaydi va milkni mustahkamlaydi. So'ngra yog'lash kerak bo'ladi.

Yattu' ildizi qaynatilgan sharob bilan oyida 2 marta og'iz chayib turish ham tishlarning sog'ligini saqlaydigan tadbirlardan sanaladi. Bu juda yaxshi tadbir bo'lib, buni qo'llab yuradigan kishining tishlari og'rimaydi. Shuningdek, quyonning boshini kuydirib tishga ishqlansa ham shunday. Shunga o'xhash, asal bilan qorishtirilgan tuz kuydirilsa ham kuydirilmasa ham shunday ta'sir qiladi, biroq kuydirilganini ishlatish yaxshiroq. O'shanday tuz qorishmasidan g'olak tayyorlab, lattaga o'rab tishlarga ishqlananadi. Yana Misr boqilasini yoki Yaman achchiq toshini bir murr bilan qo'shib, ayniqsa kuydirilgan achchiq

toshni sirkal bilan qo'shib ham ishqalash kerak. U dorilar bilan tishlarning rangi o'zgarib qo'lsa, ulardan keyin asal iste'mol qilish va tishlarni asal yoki shakar bilan ishqalash kerak. Keyin biz aytib o'tgan tartibga muvofiq yog'lar bilan ishqalanadi. Tishga nazlalar tushib tursa , burishtiruvchi narsalarning qaynatmasini uzoq vaqt og'izga olib turish va tishlarga kuydirilgan achchiq tosh va tuzni doimo ishqab yurish kerak.

Tishlarni davolash va tishlarga ishlatiladigan dorilar to'g'risida umumiylar so'z

Tish dorilarining ba'zisi tishning sog'ligini saqlovchi va ba'zisi tishni davolovchi bo'ladi. Tishlarning muddasi quruq bo'lganidan ularning sog'ligini saqlovchi va sog'ligini keragicha qaytarib keltiruvchi dorilar qurituvchi dorilar bo'ladi. Issiqlik yoki sovuqlik dorilar esa , ikkala issiq va sovuq tabiatning biridan bo'lgan kasallik sababli tishlarning tabiiy mizozi anchagina o'zgargan paytda kerak bo'ladi. Tishlar uchun eng muvofiq dori keyingi ikki kayfiyati mo'ta'dil bo'lgan qurituvchi dori va umuman quritish xususiyatiga ega bo'lgan doridir. Biroq tishlarga ishlatilamaydigan har bir qurituvchi dori muvofiq kelavermaydi. Munosib bo'lmasligi tishga ishlatilmaydigan emas, balki, ishlatilganda biron kasallik yuz berishidandir. Keyin tishni qurituvchi dorilari sovuq, quruq va issiq – quruq bo'ldi. Tish dorilarining eng yaxshisi quritish shimish vazifasini bajarish bilan birga tishlarni yaltiratuvchi , ularga kelgan ortiqcha muddani mo'tadil darajada erituvchi va moddaning tishga qarab tortilishiga to'sqinlik qiluvchi dorilardir.

Qurituvchi sovuq va biroz sovuq bo'lib , nordonlik yoki mozi mazaligi taxirligi bilan uzum g'orasi va sitron suvi singari tishni qamashtirmaydigan dorilar quyidagilardan iborat: omil shirasi , kofur , sandal ,gul, gulning urug'i, anor guli, baqam daraxti yelimi, yulg'un daraxtining mevasi, mozi, qahrabo,marvarid, fufal, arpa uni, tut daraxtining patak ildizi, yulg'un daraxtinng bargi va qo'ziquloq ildizi.

Issiqlik va issiqlikka yaqin dorilardan ba'zisining issig'i muddasida bo'ladi va ba'zisini esa, keyin hosil qilingan bo'ladi. Kuydirilgan tuz, kuydirilgan darmana , to'poloqni kuydirilmagani hamda kuydirilgani , dorchin , zufo , qorachayir guli , kovul mevasi , kovul ildizining po'sti mevasidan kuchliroq, ud cho'pi, mushk , sumbul sochning kuydirilmagani va kuydirilgani. Archaning bargi , sodaj , tog' echkisi

shoxining kuydirilgani va kuydirilmagani, yalpiz , yalpiz kuli, mastakiy , kuydirilgan ya’ni qattiq qizdirilgan shishsa, buraq va yumaloq aristoloxiyaning kuli , tok po’stining kuli, quyon boshining kuli va kuydirilgan xurmo issiqligi moddasida bo’ladigan dorilardandir.

Issiqlik quvvatini hosil qilgan dorilar esa mozi kuli, mozi kulini sirka bilan aralashtirilsa, mo’tadillika yaqinlashadi, tok novdalarining kuli, qamish kuli va shularga o’xshashlardan iborattdir.

Tog’ echkining kuydirib yuvilgan shoxi , chinor yonyug’i , sanavbar daraxtining patak ildizi kabilar issiq sovuqligi mo’tadil dorilardan hisoblanadi. Aralashtirish bilan tayyor bo’ladigan quyidagi dorilar ham shular jumlasidandir: tuz va gulsapsar sharbati bilan qorishtirib, keyin kuydirilgan arpa uni va qatron bilan qorishtirib, chog’dek bo’lgunicha kuydirgandan keyin ustiga gulsapsar sharbati sepilgan xurmo.

Quyida bayon qilinadigan dori tishga ishlatib sinalgan dorilardan bo’lib, uning tarkibi shunday: o’n dirham kuydirilgan tog’ echkisi shoxi, o’n dirham sarv daraxtining bargi, besh dirham o’z holida qoldirilgan chinor yong’og’i o’n dirham hamsatu avroq ildizi , besh dirham kuydirilgan sunbulsoch, uch dirham dumি yulingan gul va uch dirham sunbulni mayin yanchib tishga ishqalanadigan elaki dori tayyorlanadi.

Tish dorisining boshqa yaxshiroq tarkibi mana bu : kuydirilgan tog’ echkisi shoxi, yulg’un daraxtining mevasi, to’poloq , gul va xushbo’y sunbulning har biridan bir dirham, andiron tuzidan $\frac{1}{4}$ dirham tishga ishqalanadigan dori tayyorlanadi.

Boshlab shuni aytamizki, tishlarni qurituvchi dorilar bilan davolash, bilib o’tganingga ko’ra eng munosibdir, isituvchi vasovutovchi dorilar bilan davolashga kelsak ularni tish o’ziga xos bo’lgan mo’tadil mizojlilagini anchagina yo’qotgan vaqtdagina ishlatish kerak.

Tishga ishlatiladigan dorilarning ba’zisi ishqalanadigan , ba’zisi chaynaladigan, ba’zisi chaplanadigan, tishlarga jag’ga surtiladigan , ba’zisi og’iz chayiladigan, ba’zisi tishga ishqalanadigan, ba’zisi tishkovagiga tiqiladigan , ba’zisi paxtadog’ qilinadigan, ba’zisi dog’laydigan, ba’zisi tishni qo’porib tushiradigan , ba’zisi bug’laydigan, ba’zisi burunga yuboriladigan va ba’zisi esa burun va qulqqoqha tomiziladigan dorilar bo’ladi. Ba’zan tishning eng yaqin joyidagi tomirdan qon olib yoki o’sha joyga qortiq qo’yib modda bo’shatiladi.

Yana tish dorilarining ba'zisi tarqatuvchi, ba'zisi sovutuvchi, ba'zisi esa uvushtiruvchi bo'ladi. Uvushtiruvchi dorilarni tishga ishlatish xavf-xatardan juda uzoqdir, lekin ko'p ishlatish tish moddasini buzadi. Shuningdek, Abu Jahl tarvuzi, harbaq va yovvoyi bodring kabi shimdirish, isitish xossasi kuchli bo'lgan dorilarni zarur bo'lgandagina ishlatish kerak. Shu kuchli dorilardan va uvushtiruvchi dorilardan ozginasining ham ichga ketmasligi kerak. Tishga aziyat berib turgan modda chiqib ketsin va dorilarni tishning chuqurigacha yetsin uchun , ko'pincha tishni ingichka burg'u bilan kovak qilish zarur bo'ladi.

Sirka tishga zarar qilsa ham u sovutuvchi dorilarga ham, isituvchi dorilarga ham qo'shiladi. Sirka o'z moddasi bilan sovitgani va dorini singdirgani uchun sovutuvchilarga qo'shiladi. Isituvchi dorilarga qo'shilishining sababi esa, u dorini singdiradi va dorini parchalab ajratish bilan ularning shimalishiga yordam beradi. Sirkaning zarari esa unga aralashgan tish dorilari bilan kuchsizlantirilgan bo'ladi.

Tish og'rig'i

Tishlar yuqorida aytganimizdek, goho , o'z moddasidagi og'rituvchi biron sabab bilan, goho tishda joylashgan asablardagi , ba'zan esa milkdagi og'rituvchi sabab bilan og'riydi, yana milkdagi shish o'sib chiqqan moddani qabul qiladigan oshiqcha et sababli yoki milkning bo'shashuvi va ilvirash sababli ham tish og'rig'i yuz beradi. Shunda tish milki yomon moddalarni qabul qilaveradi. Va moddalar milkda sasib tishlarga zarar yetkazadi va ularni qimirlaydigan qilib qo'yadi. Og'rigan tishlardan alam chekadigan kishilarning og'rigan va og'rimagan tishlarni ajrata bilishi qiyin bo'ladi.

Tishlarni davolash turlari ko'pdir. Tish og'rig'inining sababi buzilgan soda mizoj bo'lib, u sovuq yoki issiq mizoj yoki keksalarda bo'lgani kabi ovqat yetishmaganlikda bo'ladigan quruq mizoj bo'ldi, lekin, ho'l mizoj bo'lmaydi bo'ldi. Yoki sabab moddali yelli buzuq mizoj bo'ladi. Modda ba'zan tishda shish paydo qiladi, goho uni kovak qiladi va ba'zan unda qurt paydo qiladi. Butun gavda modda bilan to'lgan bo'lsa ham, tishlarga keladigan modda yo me'dadan yo boshdan yoki ikkalasidan birgalikda keladi, chunki butun gavdadan tishlarga tomon bo'ladigan yo'l o'sha ikkalasi orqali o'tadi.

Goho o'tkir isitmalarida tishlar mizoj buzilishida ishtirok etganligidan ular og'riydi. Yeyilgan tishning tagida og'riq va lo'qillash paydo bo'lsa, uning ildizida yetilmagan chiqindi borligi bilinadi. Shunda og'riq va shishga qarshi davo qilish, keyin tishni sug'urib tashlash kerak.

Belgilar: Tish og'rig'i bilan birga milkda yoki milk tevaragida biror kasallik va shish bor yoki yo'qligiga diqqat bilan qarash kerak. Milkda shish bo'lsa, ko'pincha sabab tishning o'zida emasligi taxmin etilib, shunga hukm qilinadi. Milkning o'ziga tegilganda og'risa ham, o'shanday hukm qilish kerak. Agar milkning o'zida shish bo'lmasa, sabab yo tishning o'zida, yoki uning ildizidagi asabda bo'ladi. Tishda shish borligi yoki uning yeyilganligi sezilsa, sabab tishning moddasida bo'ladi, tishning bo'yiga qarab bo'ladigan og'riq sezilsa ham shunday. Ammo og'riq faqatgina tishning chuqurida sezilsa, sabab tish ildizidagi asabda bo'ladi, ayniqsa tish ildizidagi etda yoki jag'da aniq og'riq bo'lsa va tish qamashgandek sezilsa, shunday bo'ladi.

Tish mizojarining issiq va sovuqligini bilib o'tgan narsalar bilan belgilanadi. quruqligiga esa tishning xipchaligi va qimirlashi, yel borligiga kengaytiruvchi og'riqning ko'chib yurishi, xiltning quyuq ekaniga juda aniq issiq va sovuq bo'lmay turib og'riqning bir joyda turishi belgi bo'ladi. Xiltning o'tkirligiga va uning qon yoki safro ekaniga og'rituvchi narsadan tishning tez aziyatlanishi, sanchib og'rishi, milk rangining xiltga hamshakl bo'lib qolishi va tegilganda juda issiq tuyilishi dalil bo'ladi. Xilt kelib chiqayotgan joyning miya yoki me'da ekani u ikkalasidan birining yoki ikkalasining to'liqligi bilan bilinadi.

Og'riqning sababi milkda bo'lsa, tishni sug'urib tashlash bilan og'riq bosilmaydi va bunday qilish ham kerak emas. Sabab tishda bo'lsa, uni sug'urib tashlash bilan og'riq bosiladi. Sabab asabda bo'lsa, ba'zan sug'urish bilan og'riq bosiladi, ba'zan bosilmaydi. Bunda og'riqning bosilish sababi tishda bo'g'ilib tutilib qolgan va tabiat yoki dori uning tarqatilishini istaydigan modda haydalib boradigan keng joy topishidir.

Davolash: Tish og'rig'i biror a'zoning hamkorligi bilan bo'lsa, davolash ishini tomirdan qon olib yoki surgi ishlatib, o'sha hamkor a'zoni tozalash bilan boshla; surgini iyoraj, Abu Jahl tarvuzining eti, saqmuniyo va ivitib ichiladigan dorilar bilan qilinadi. Sabab boshda bo'lsa, tomoq chayiladigan dorilar bilan bosh tozalanadi.

Agar tish milkida va oralaridagi etda sezilarli shish bo'lsa, kasalning quvvati va sharoitiga qarab, avval tomirdan qon olish va surgi qildirish kerak. Dastlab hamma tish og'rig'ida ham sovutuvchi shiralar, qaynatmalar va bularga o'xshashlarni kofur bilan kuchaytirib, lekin unchalik burishtiruvchi qilib yubormay, og'izga olib turish lozim. Ko'pincha gul yog'i va mastaki bilan, yoki g'o'ra zaytun yog'i, yoki mirta yog'i bilan cheklanish kifoya qiladi. Mayizdan qilingan eski nabiz sharobi va gulning xom yog'ini olib, nabiz sharobini o'sha yog'da yaxshigina qaynatib og'izga olib turish ham tish og'riqlariga qarshi foyda qiladi. Undan keyin asta-sekin yetiltiruvchi va shimiltiruvchi dorilarga o'tiladi.

Kuchli dorilarning ozginasini ham ichga ketishidan saqlanish kerak. So'ngra asta-sekin a'zoning o'zini bo'shatishga o'tiladi; buning uchun tishlarning ildizlariga zuluk solinadi, yoki til tagidagi tomirdan qon olinadi, yoki soqol chiqadigan joyning tagini tilib qortiq qo'yiladi. Og'riq zo'raysa, tishning tagiga nazla o'tini kofur bilan qo'shib yopishtirish kerak. Og'riq yana zo'raysa, ko'pincha afyunni gul yog'i bilan ko'shib ishlatishga to'g'ri keladi. Agar afyunni ishlatmaslikning iloji bo'lsa, uni ishlatmaslik yaxshiroq, aksincha yetiltiruvchi dorilarni ishlatish kerak.

Tish og'rishining sababi tishning o'zida yoki asablarida bo'lib, ularda modda bo'lmasa, balki mizoj buzilganligi bo'lsa, uni qarama-qarshi mizojlik ma'lum tish dorilari bilan davolanadi. Tish mizojining buzilganligiga va uning kuchsizligiga issiq narsani chaynaganlik sabab bo'lsa, sovuq mizojlik yog'ni ilitib og'iz chayiladi, keyin uni sovutib chayiladi. Mizoj buzilganligiga sovuq narsani chaynaganlik sabab bo'lsa, sovuq mizojlik yog' o'rniga Rum sunbulining yog'i va bon yog'i kabi issiqlik yog'lar bilan og'iz chayiladi, qovurilgan tuxum sarig'ini issiqligida yoki issiq nonni tishlab turiladi. Yuqorida aytilgan ikki xil mizoj buzilishining hamma turlarida o'sha ikkala tadbir aniq foyda qiladi.

Tish og'rishining sababi quruqlikning o'zi bo'lsa, tishni maska yog' va o'rdak yog'i bilan ishqalash foyda qiladi. Agar mizoj quruqligi qanday bo'lsa ham, biror modda bilan birga bo'lsa, u modda xoh issiq, xoh quyuq, xoh ko'p bo'lsin, baribir unga mos keladigan qilib bo'shatish

kerak. hamma hollarda ham oldin boshlab sovutuvchi va qaytaruvchi dorilarni ishlatalish kerak; biroq modda issiq bo'lsa, bu ko'proq zarur, quyuq bo'lsa, kamroq. Kuydirib sirkal bilan ivitilgan va o'ziga barobar tuz bilan qo'shib mayin yanchilgan achchiqtosh, ayniqsa sovuq moddalarga nisbatan kuchli qaytaruvchi dorilardan sanaladi. Bularni ishlatgandan keyin sirkal yoki uzum sharobi bilan og'iz chayiladi. Sirkal bilan qo'shilgan mozi ham qaytarish uchun yaroqli dorilardandir.

Modda issiq bo'lsa, sovutuvchi shiralar bilan davolanadi va uni mo'tadillashtirish tadbiri qo'llaniladi. U shiralar ta'sir qilmasa, shmidtirish yoki uvushtirish tadbiri qo'llaniladi. Agar modda quyuq yoki ko'p bo'lsa, biz aytgan dastlabki davolashdan keyin shmidtirish tadbiri qo'llaniladi. Og'iz chayiladigan sirkada gul yog'ining Goho uvushtiruvchni dorilarni ichiriladi. Masalan, filuniyo ma'junini tish og'rig'idan shikoyat qilgan kishi ichsa va og'izga olib uxlasa, tish kasalining moddasi yetilib, og'rig'i to'xtaydi. Qor bilan nihoyat darajaga yetkazib sovutilgan suv zarar yetkazmay uvushtiradigan dorilar to'dasidandir; uni og'izga ketma-ket olinsa, ba'zan boshlanishida og'riq ko'paysa ham, keyin tish sezgisiz bo'lib og'riq to'xtaydi.

Qimirlaydigan tish

Goho tish yiqilish yoki urilish kabi tashqi sabab bilan qimirlaydi, goho tishni mahkam tutib turuvchi asabni bo'shashtiradigan rutubat sababli qimirlab qoladi, lekin tish to'laligicha qoladi va mo'rt bo'lmaydi. Goho tish o'sib chiqadigan joylarning yeyilishi sababli qimirlaydi. Yeyilish o'sha joylarni kengaytirib qo'yadi va tishni kichraytirib xipcha qilib qo'yadi. Yoki tish darz bo'lgan bo'laklarning sinib tushishi sababli qimirlaydi. Goho qimirlash quruq mizojlilikning zo'rayishi sababli bo'ladigan tish ozishidan bo'ladi. Masalan, shunday hol kasallikdan turgan kishilarda, keksalarda, ketma-ket och qolgan va ovqat yetishmagan kishilarda yuz beradi. Goho milk etlarining yetishmasligi sababli bo'ladi.

Davolash. Chaynashdan saqlanish, kam so'zlash, o'sha tishlarga qo'l va tilni tegiza bermaslik kerak. Umuman chaynaladigan narsalarni mumkin bo'lganicha qo'yib turib, ichiladiganlariga o'tish kerak. Agar qimirlashga tishning yeyilishi sabab bo'lsa, yeyilishga qarshi davo qilinadi: burishtirib mahkam qiluvchi og'iz chayiladigan, ishqalanadigan

va boshqa xil tish dorilari ishlatiladi. Agar qimirlashga tishning ozg'inligi sabab bo'lsa, ovqatlar bilan chora qilinadi. Biroq buni davolash qiyin. Keyin tishni qo'lllovchi dorilardan yopishtiriladigan, ishqalanadigan va gul yog'i, tol yog'i va ituzum bargining shirasi kabi quloqqa tomiziladiganlari bilan, hatto burishtiruvchilari bilan davolanadi. Tish oriqlagan bo'lsa, ovqatlarning ta'siri bo'lmaydi ular tishlarni tezlik bilan semirtira olmaydi. Shu paytda burishtiruvchi sovuqlik narsalar bilan davolash kerak. Tish qimirlashi urilishdan paydo bo'lganda ham shunday tadbir qilinadi. Tish bo'shashtiruvchi rutubatdan qimirlasa, burishtirib qizdiruvchi dorilar bilan davolash kerak. Masalan, kunor va sarv daraxtining bargi qaynatilgan suv, yoki achchiqtosh uning yarmisiga tuz solib qaynatilgan mayiz sharobi, yoki Eron qavragi qaynatilgan suv bilan og'iz chayqaladi.

Yopishtiriladigan dorilardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ikki dirham achchiqtosh va bir dirham tuzni tishning tagiga yopishtiriladi. Yoki zaytun yog'i bilan birga mis to'polini, yana chuchukmiya va sarv po'stining har biridan to'rt dirham va achchiqtoshdan bir bo'lak olib yopishtiriladi. Yoki yulg'un daraxtining kuli va tuzdan barobar bo'lakni, yoki tog' echkisining kuygan shoxi, asal bilan qorib kuydirilgan tuz va kuydirilgan xurmoning har biridan o'n dirham, murr, za'faron, sunbul va mastakining har biridan uch bo'lak olib, shu tarkibdan tishga ishqalanadigan va yopishtiriladigan dorilar tayyorlanadi. Shuningdek sabr, sariq zok va to'pol bilan aralashtirilgan burishtiruvchi narsalar ham ishlatiladi. To'poloq gul, xushbo'y sunbul, andaron tuzi, yulg'un bujuri va tog' echkisi shoxining kuydirilganidan barobar bo'laklar olib tayyorlangan murakkab dori ham shu xil tishlarning qimirlashiga va boshqa kasalliklarga qarshi foyda qiladi.

Milk etining yetishmasligi sababli bo'ladigan tish qimirlashi uchun Yaman achchiqtoshi, kuydirilgan ud cho'pi, anor guli va tatimdan dori qilib ishqalanadi.

Tishlarning kovaklanishi va yejilishi

Bularning hammasi ham tishlarda sasib qoladigan yomon rutubatdan paydo bo'ladi.

Davolash. Yeyilishni davolashdan maqsad uning ko'payishiga to'sqinlik qilishdir. Bu esa tishning buzilgan qismini tozalash bilan va yeyilishga olib keladigan moddani tarqatish bilan bo'ladi. Tishning o'sha moddalarni qabul qilishiga to'sqinlik qilish va zarur bo'lsa, o'sha moddalarni bo'shatuvchi dorilar bilan tishlardan ketkazish lozim.

Qurituvchi dorilar yeyilishga to'sqinlik qiladigan dorilardir. Yeyilish kuchli bo'lsa quritishi va isitishi kuchli bo'lган dori kerak bo'ladi. Kuchsiz bo'lsa, mirta, huzaz va Rum sunbuli kabi quritish va burishtirish xossasiga ega bo'lган dorilar bilan kifoyalanadi. Bularni yuqorida bayon qilingan hamma usulda ham ishlatiladi. Biroq ko'pincha tishning kovagiga tiqiladigan dorilar shaklida ishlatiladi. Omila shirasi va to'poloqni tiqib qo'yish shular jumlasidandir. Yoki omila shirasining o'zini mushk bilan qo'shib tiqilsa ham yeyilishga to'sqinlik qiladi va og'riqni to'xtatadi.

Tishning kovagiga yana to'poloq bilan mastaki, murr va may'a yelimini qo'shib yoki huzaz bilan mozini, afyun bilan may'a yelimini yoki sariq oltingugurt, yoki murch bilan saqichni, yoki yalpiz bilan omila shirasini, yoki yanchib sirka va asal bilan qorilgan sedanani, yoki oltingugurtni, buni ham tiqiladi ham surtiladi, yoki asal va sirka bilan qaynatilgan zanjabilni, bu nihoyatda foydali yoki qatron bilan anguzani, yoki darmana bilan anguzani, yoki anguzaningo'zini, uning oqib tarqalmasligi uchun mum qo'shib qaynatiladi; bu tish og'riqini qoldirishda kuchli, anbarning o'zini yoki uni dorilar bilan qo'shib yoki zok bilan huzazni tiqiladi. Kofurni tiqib sinalganda, g'oyat darajada foydali bo'ladi, yeyilishning ko'payishiga to'sqinlik qiladi va tish og'riqini to'xtatadi. Yana tish og'riqi bobida aytilib o'tgan dorilardan ham foydalanish kerak. Tishlarning yeyilishida goho qunduz qiri, nazla o'ti, afyun va gal'ban yelimidan barobar bo'laklar olib, yoki asal, murch va hil, yo asal, nazla o'ti va murr yoki asal bilan saqich daraxtining urug'i yoki ustiga qaynatilgan sirka quyilgan toza tuproq, kaltakesak jigari, o'ziga barobar huzaz bilan qo'shilgan o'ldirilmagan oltingugurt yoki yattu' suti bilan qo'shilgan murch, nazla o'ti bilan qo'shilgan buraq, mingdevona urug'i bilan qo'shilgan gal'ban yelimi va afyun bilan qo'shilgan may'a yelimini surtiladigan dori qilib ishlatiladi. Tishlarning yeyilishiga qarshi yaxshi dorining tarkibi: buraq va mingdevona har

biridan ikki bo'lak, nazla o'ti va murchning har biridan bir bo'lak va afyundan uch bo'lak olib, tishning yeilgan kovak joyiga qo'yiladi. Yana bir tarkib: anor dumি, murch va archa bujurining har biridan bir bo'lak, tog' mayizi, qichitqio't va afyunning har biridan yarim bo'lak olib ishlatiladi. Goho tiqiladigan va surtiladigan dorilarni bиргаликда ishlatiladi. Goho kovak tishga kuchli falfandiyun, yo savrinjon, yoki ohakdan ikki bo'lak, navshadil, achchiqtosh, murr, mozi, arab akatsiyasi shirasi va gulsapsar ildizidan bir bo'lakdan, kuydirilgan arpa va dengiz ko'pigidan iborat murakkab dori qo'yiladi. Og'izga olib turiladigan og'iz chayiladigan dorilarning juda foydalik-laridan biri kovulni sirkal bilan to sirkaning yarmi ketgunicha qaynatilib, og'izga olib turishdir. Goho yeilgan joyning o'ziga tomiziladigan dorilar ishlatiladi, masalan, zaytun yog'ida qaynatib eritilgan zirnixni yeilgan joylarga tomiziladi. Og'izning yeilgan tish tomoniga bodom yog'ini tomizilsa ham foyda qiladi.

Tishlarning uvalanishi va sinishi

Tish mizoji goho juda quruq bo'lib ham qoladi. Ularning orasidagi ayirma tishning ozg'inligi yoki buning aksicha bo'lishligidir. Agar tishda rang o'zgarganlik yoki yeilganlik belgisi bo'lsa, bu narsa moddali ho'l mizoja dalolat qiladi.

Davolash. Avvalgi hol ya'ni ho'l mizoja yuqorida eslatib o'tilgan kuchli burishtiruvchi dorilarni ishlatib, moddaga to'sqinlik qilish va tishni kuchaytirish bilan davolanadi. Achchiqtoshning bu bilan kuchli ta'siri bor. Agar dorilarning burishtirish bilan birga isituvchi bo'lishi kerak bo'lsa, asal bilan qorilgan qora xarbaqdan foydaliroq narsa yo'q.

Agar tishning uvalanishi va sinishi mizoj quruqligidan bo'lsa unga yuqorida aytilgan quruq mizoja qilinadigan choralarini qo'llash lozim.

Tish rangining o'zgarishi

Bu narsa goho tish ustidagi emal rangining o'zgarishi sababli bo'lib, tishda chirk paydo bo'ladi va u ba'zan tishlar tagida toshga aylanadi va uni ko'chirish qiyin bo'ladi. Tish rangining o'zgarishi goho yomon modda sababli bo'ladi, u modda tishning moddasiga o'tib o'zgaradi va

tish rangini buzib tutun va shunga o'xshash narsaning rangiga aylantiradi, lekin chirk bo'lmaydi.

Davolash. Birinchi holda tishni yaltiratuvchi va tozalovchi dorilar bilan, masalan: dengiz ko'pigi, tuz, yanchilgan indov, sadaf kuli, qamish ildizining kuli, yumaloq aristoloxiya, kuydirilgan arpa va yendaron tuzidan barobar bo'laklar olib tayyorlangan tarkib bilan davolanadi. Yoki kuydirilgan bo'yimodarondan bir bo'lak, murchdan bir bo'lak, amomdan uch bo'lak, sodajdan ikki bo'lak va kuydirilgan gipsdan o'n bo'lak olib, yanchib ishlatiladi. Agar tish rangining o'zgarishi haddan tashqari bo'lsa, asalga qorilgan zangor bilan tozalanadi. Chin sopolining yoki shishanining yanchilgani, yoki mas, huquniyoning, yo qayroqtoshning, yo olmos toshining yanchilgani tishni darhol oqartiruvchi narsalardan sanaladi.

Tish rangining ikkinchi xil o'zgarishini esa moddani eritib chiqaruvchi hamda tishni yaltiratuvchi dorilar bilan davolanadi. Masalan, murch, bog' yalpizi, qust, yumaloq aristoloxiya va anguzani yuqorida aytilgan tozalovchi dorilar bilan aralashtirib ishlatiladi. Yana biz bu bobdan ilgari bayon qilgan tish dorilari ham ishlatiladi. Yaxshi tish dorilaridan biri mana bu: bir bo'lak aristoloxiya ildizi, ikki bo'lak kuydirilgan tog' echkisi shoxi, uch bo'lak mastaki va besh bo'lak gul yog'ini qo'shib yanchib ishlatiladi. Yana boshqa dori: jilvirtosh, qovurilgan tuz va gulsapsarning har biridan to'rt bo'lak, to'poloqdan besh bo'lak, sunbuldan bir bo'lak va murchdan olti bo'lakni olib yanchib ishlatiladi. Yana boshqa dori: cho'g'dek qilib kuydirilgan tuzdan uch bo'lak, sodajdan ikki bo'lak, sunbuldan bir bo'lak; yana sadaf kulidan to'rt bo'lak, quruq guldan besh bo'lak, to'poloqdan uch bo'lak va qora chayir gulidan bir bo'lak olib ishlatiladi.

Tishlarning o'sib chiqishini osonlashtirish

Goho bolalarda tish chiqishi qiyinlashib bundan ular alam tortadilar. Ba'zan tish chiqishdan ich ketishi paydo bo'ladi. Qoringa surtiladigan dorilar bilan ichni mo'tadil qilish va ichni boylaydigan shiralarni ichirish kerak. Turli yog'larni, miya mag'zlarini, ayniqsa quyonni qaynatib, keyin olingan miyasini, xina, sariyog' va sapsar yog'ini ishqalab surish tish chiqishini osonlashtiradigan narsalardan sanaladi. Tish chiqishida og'riq zo'raysa, ituzumning shirasini qizdirilgan gul yog'i bilan qo'shib milkka surtiladi. Biron daraja bo'lsa ham qattiqlikka ega bo'lgan narsani

chaynashga qo'ymaslik kerak, balki doya tish chiqish og'rig'i boshlanayotgan paytda barmog'ini bolaning og'ziga kirgizib, milkini qattiq ishqashi kerak, shunda milkdan rutubat oqib ketadi. Keyin eslatib o'tilgan dorilar surtiladi. Tishlar bir oz ko'ringach yungni iliq yoqqa botirib boshga, bo'yinga va ikkala jag'ga qo'yib bog'lash kerak. Yana qulog'iga ham yog' tomiziladi.

Tishlarni sug'urib olish tadbiri

Goho og'riq tish hech bir davoni qabul qilmaydigan bo'lib qoladi yoki unga azob berib turgan ofat to'xtasa, u yana tezda qaytib kela beradi. Keyin og'riq tishning qo'shniligi boshqa tishlar uchun zararli bo'lib, o'zidagi kasallikni ularga o'tkazadi, oxir tuzatish yo'li qolmaydi. Shunda uning iloji sug'urib tashlashdir.

Tishni goho, uning ildizini o'rab turgan etni ajratgandan keyin, ombur bilan olinadi. Tishni sug'urishdan ilgari kasallik uning o'zidami ekanligini qarash kerak. O'zida bo'lmasa, sug'urish kerak emas, uni sug'urilmasin. U paytda sabab tish milkida yo tish tagidagi asabda bo'ladi. Bunda sug'urib tashlash og'riqni yengillatsa ham uni yo'q qilib yubormaydi, balki og'riq yana qaytadi. Og'riq yengillashining sababi o'sha ondayoq moddaning tarqalishi va dorining og'riq joyga yetib borishidir.

Qimirlamaydigan tishni sug'urishda ko'p vaqt xavf-xatar bor: ko'pincha jag'ni ochib qo'yadi, uning moddasini buzadi va qattiq. Og'riq qo'zg'atadi. Ba'zan bu narsa ko'z og'rishini qo'zg'atadi va isitma chiqaradi. Tishning sug'urilishi qiyinligini va uni bemor ko'tara olmasligini bilsang, tishni qattiq qimirlatishing to'g'ri emas. Bunday qilish og'riqni ko'paytiradi. Ba'zi vaqtarda shunday bo'ladiki, sabab tishda bo'lmaydi va uni qimirlatilgach, uning tagidagi modda tarqalib og'riq to'xtaydi.

Goho tishni dorilar orqali qo'porib tushiriladi. Eng to'g'risi tishning tevaragini nishtar bilan ochib, unga dori ishlatishdir. U dorilarning biri: tut ildizining po'sti va nazla o'ti olinadi va o'tkir sirkaga bilan oftobda asaldek bo'lgunicha ezib, keyin kunda uch marta tishning ildiziga surtiladi. Yoki nazla o'tini ezib, sirkaga solib qirq kun quyoshga qo'yiladi, keyin tevaragi ochilgan tishga tomizib, bir soat yoki ikki soat qo'yiladi va o'sha paytda sog' tishlarga mum qoplanadi. Keyin tishni

tortib, sug'urib olinadi. Yoki nazla o'ti o'rniga yovvoyi bodring ildizini qo'yiladi, yoki sirkas bilan qo'shilgan zirnix surtiladi, bu tish ildizini bo'shashtiradi yoki qichitqio't urug'i va gal'ban yelimidan barobar miqdorda olib, yoki qichitqio't urug'ini va bunga ikki barobar kundur yelimini olib qoziqtish tagiga qo'yiladi. Ba'zan uni anjir bargi bilan qaynatib ishlatilsa ham tishni bo'shashtiradi va osonlik bilan qo'porib tushiradi. Bu to'g'rida sirkas loyqasining o'zi ajoyib xususiyatga egadir. Yoki tut po'stini, kovul po'stini, sariq zirnixni, nazla o'ti, zarchava, Abu Jahl tarvuzi ildizi va yelimli suto'tni olib, ukrop suvi yoki o'tkir sirkas bilan qorib, uch kun o'z holiga qo'yiladi, keyin surtiladi. Yoki zarchava va tut ildizining har biridan bir bo'lak, sariq zirnixdan ikki bo'lak olib, asal bilan qorilsa va qoziq tishning tevaragiga bir muddat qo'yilsa, uni qo'porib tushiradi. Yoki bo'yimodaron va yattu' sutidan bir bo'lakdan, yattu' ildizidan ikki bo'lak olib tishga qo'yiladi. Agar tish kuchsiz bo'lsa, mumni asal bilan quyoshda erit, keyin unga zaytun yog'i tomizib bemorni o'sha tarkibni chaynashga buyuriladi.

Yeyilgan kovak tishni uvalantirish - bu tishni og'riqsiz olish kabitidir

Unni yattu' suvi bilan qorib, bir necha soat tishga qo'yib turilsa, tishni uvalantiradi. Unday tishga katta va mazasi o'tkir qo'ypechakning bargini qo'yish kerak.

Tish g'ijirlashi

Tishlarning uyquda g'ijirlashi yuqori va quyi jag'lar mushagining kuchsizligidan bo'lib, go'yo u mushakning tirishishidan iboratdir. Tishlarning g'ijirlashi ko'pincha bolalarda paydo bo'lib, ular balog'atga yetgach yo'qoladi. Uyquda tishlarning tovushi va g'ijirlay berishi ko'paysa, sakta, yoki tutqanoq, yoki tirishish kasalliklaridan darak beradi yoki qorinda gjijalar borligiga dalolat qiladi. Gijjalardan bo'ladigani goho bo'lib, goho bo'lmay turadi. Uyqusida tishini g'ijirlatishga mubtalo bo'lgan kishining boshini moddadan tozalash, bo'yniga burishtirish xususiyati bo'lgan issiq va xushbo'y yog'larni surtish bilan davolanadi.

Tish qamashishi

Qamashish bir turli uvishish bo'lib, dag'allashtiruvchi narsa sababli yuz beradi. U narsa yo burishtiruvchi nordon yoki taxir bo'ladi. Goho qamashish tishga sirtdan kelib uchragan narsa yoki qustiruvchi narsa

sababli paydo bo'ladi. Goho me'dada nordon xilt bo'lsa, uning me'dadan ko'tarilib chiqishidan ham bo'ladi. Goho juda nordon narsani bemalol chaynayotgan kishini ko'rulgandagi tasavvur natijasida ham tish qamashadi.

Davolash. Bunday hollarda semizo'tni chaynash juda foyda qiladi, shuningdek tog' rayhonini, yoki semizo'tning yanchilgan urug'ini suv bilan ho'llab, yo saqich, yo bodom, yo muskat yong'og'ini, ayniqsa hind yong'og'ini, yoki funduqni chaynaladi. yoki yetilmagan zaytun yog'ini, yoki mis idishga solib quyoshda yoki olovda asal bilan asaldek qilib quyultirilgan zaytun yog'inining quyqasini tishga ishqalanadi, yo dafna daraxtining doni, uzunchoq aristoloxiya, anguza, yattu'shkt suti va dengiz piyozini ishlatish ham foydali. Tuz nordonlikka qarshiligi sababli tish qamashganida juda foyda qiladi.

Tishlarning kuchsizlanishi

Tishlar kuchsizlanganda, yuqorida aytib o'tilgan burishtiruvchn dorilar, kuydirib sirka bilan o'chirilgan mozi, oq mirtaning doni, qovurib sirka bilan o'chirilgan andaron tuzi foyda qiladi.

Yaxshi tish dorisining tarkibi quydagicha: uch dirham to'pol besh dirham danagi olingan sariq halila, o'n besh dirham qirfa, uch dirham dorchin, ikki dirham achchiqtosh, yetti dirham nazla o'ti, bir dirham navshadil, bir dirham uzun murch, bir dirham omila shirasi. bir dirham za'faron, besh dirham tuz, ikki dirham ko'nchilar tatn-mi, uch dirham yulg'un daraxtining mevasi, to'rt dirham hil, o'n olti dirham yovvoyi zanjabil va to'rt dirham anor gulidan olinadi, hammasini yanchib qo'shib ishlatiladi.

Yana boshqa yaxshi tish dorisi: qizil sandal, kelindona va fufaning har biridan besh dirham, qirfadan ellik dirham, dorchindan ikki dirham va baqamdan to'rt dirham olinadi va bug'doy kraxmali bilan qorib ishlatiladi.

Tish kuchsizligiga maxsus yaxshi dori mana bu: arpaning oqlanganini yanchib, asal va bir oz Suriya qatroni bilan qorib kulcha qilinadi va papirus qog'oziga o'rabi, tandir tagiga qo'yilgan g'isht ustiga qo'yiladi. Rangi qoraygach, tandirdan chiqarib olinadi. O'sha kulchadan bir bo'lak va shuningdek ud cho'pining maydalari, anor guli, to'poloq, anor po'sti va tuzning har biridan bir bo'lakni olib yanchib, tishga

ishqalanadigan dori tayyorlanadi. Ba'zan sifati bayon qilingan kuydirilgan arpadan yigirma bo'lak, to'poloq, fufal va yulg'un sirining har biridan to'rt bo'lak va zanjabildan bir bo'lak olib tish sorisi tayyorlab ishlatiladi.

Tish milkining shishlari

Tish milkida ko'pincha boshdan unga tushayotgan modda sababli shishlar paydo bo'ladi, bular goho me'daning hamkorligi bilan ham bo'ladi. Goho istisqo kasalining boshlanishida va su' ulqunya kasalining paydo bo'lishida milklarga buzuq bug'larning ko'tarilishi sababli tish milkida shishlar vujudga keladi. Moddaning qaysi jinsdan ekaniga milkning rangi va tegib sezilishi dalolat qiladi. Shishlarning ba'zisi aniq ko'rini turuvchi va sirtga yaqin bo'lib, davolashni tez qabul qiladi. Ba'zisi chuqur va sirtdan uzoqlikda bo'lib, davolashni sustlik bilan qabul qiladi. Goho shish isitmali bo'ladi.

Davolash. Agar modda ortiqcha bo'lib, issiq bo'lsa, bo'shatish tadbiri ishlatiladi va chahorrag tomiridan qon olinadi. Dastlabki paytida sovutuvchi va burishtirish quvvatiga ega bo'lgan og'iz chayiladigan dorilar bilan, masalan: gul suvi, qatiq, mirta suvi, burishtiruvchi sovuqlik o'simliklar barglarining suvlari, anor gulining qaynatmasi, bargizub suvi, dub yog'ochi ivitilgan suv va semizo't shirasi bilan davolanadi. Undan keyin yetilmagan zaytun yog'i va mastaki daraxtining yog'i bilan hamda har uqiyasiga uch dirham mastaki solingan mirta yog'i bilan, yoki sunbul, quruq gul va mastaki solib qaynatilgan gul yog'i bilan og'iz chayiladi. Mastaki daraxti yog'inining, ayniqsa yangisining, tish milki shishlarining og'riqlarini to'xtatishda ajoyib quvvati bor. Bu yog' shishlarni ketkazadi va milkni dag'al qilmaydi. U ayniqsa og'riq vaqtida yaxshi foyda qiladi. Undan keyin qo'l gulsapsar ildizining shirasi kabi dorilar ishlatiladi, u qonni oqizib og'riqni tinchitadi. Yoki zaytun bargining shirasi, yo uzum sharobi quyqasi, yo gazago't shirasi, yoki saqich daraxti urug'inining o'z bargi bilan qo'shib suvda qaynatilgan yog'i, yoki uzunchoq aristoloxiya qaynatmasi ishlatiladi.

Agar issiq shish chuqur o'rnashgan bo'lib, borulis deb ataladigan va dorilar bilan tarqalmaydigan, balki yiring oladigan shish bo'lsa ko'pincha tig' ishlatishga to'g'ri keladi. Ba'zan u shishning moddasi yangi et undirishga olib keladi. Issiq shish yiringlasa, unga bir necha

kungacha zangor va mozi, yoki sirka bilan ezilgan mis to'poli, yoki suriy deb ataladigan qizil zokning kuydirilganini mozi bilan qo'shib ishlatiladi.

Tish milki doimo ko'pchib, shishib tuzalmasa, dog'lash lozim bo'ladi. Dog'lashning eng yaxshisi qaynayotgan zaytun yog'ini surma cho'piga o'ralgan yungga shimdirib olib, to milk puchayib oqargunicha bir necha marta ishlatishdir. Agar tish milkinning shishi ortiqcha rutubatdan bo'lsa, dastlab issiqlik yog'lar asal, zaytun yog'i va qaynatib quyul-tirilgan meva shiralari bilan og'iz chayiladi. Keyin ko'p marta es-latib o'tilgan shimdiruvchi dorilar ishlatiladi.

Qonovchi milk

Bunga kuydirib sirka bilan o'chirilgan achchiqtoshga ikki barobar osh tuzi, bir yarim barobar qizil zokni qo'shib sepilsa, foyda qiladi. Shunga o'xshash tarvix deb ataladigan baliqning tuzlanganini cho'g'ga aylanganicha kuydirib, kulidan bir bo'lak, quritilgan guldan ikki bo'lak, shuningdek mirta va kuydirilgan yasmiqning har biridan bir bo'lak, tatim va qizil zokdan ikki bo'lak, qora chayir gulidan uch bo'lak olib aralashtirib ishlatiladi.

Tish milkinning yaralari, yejilishi va oqma yaralar

Milk yaralarning ba'zisi moddasiz toza, ba'zisi sasishga boshlagan va ba'zisi o'yilishga tutingan bo'ladi.

Davolash. Milkdagi moddasiz yaralarni davolash og'iz yaralarini davolash kabi bo'ladi. Buzilishga boshlaganini esa archa bujuri va temirtikan kabi dorilar bilan davolash kerak. Foyda qilsa juda yaxshi, foyda qilmasa mozidan bir bo'lak, murrdan yarim bo'lak olib gul yog'i bilan qo'shib ishlatiladi. Yovvoyi piyoz sirkasi, eshak suti, zaytun bargining qaynatmasi bilan, gul, yasmiq, mozi va anor dumlarining qaynatmalari bilan og'iz chayish foydali tadbirdan sanaladi. Uyilib ketgan milkka kelsak, agar u chuqur o'yilgan bo'lsa, kasallikka xos bo'lgan qalqandiyun bilan davolash kerak.

Oqma yaralarni ham shu bilan davolanadi, keyin ularga burishtiruvchi dorilar sepiladi. Bularga qarshi sinalgan tadbirdan biri mana bu:yulg'un daraxtining mevasi va nazla o'tining har biridan uch dirham, bir dirham koncho'p, ikki dirham sariq halila, ikki dirham quritilgan gul,

yirik loviya, navshadil, kelindona va dengiz ko'pigining har biridan yarim dirham, anor guli va za'faronning har biridan bir dirham va to'rtdan bir dirham kofur olib, sepiladigan dori tayyorlanadi. Shunga o'xhash, tarkibiga aristoloxiya, sariq zok, turli to'pollar va turli zirnixlar kiradigan sepiladigan dorilarni ham ishlatiladi.

O'rtacha yaraga kelsak, nazla o'ti va gulsapsar ildizining har biridan bir bo'lak, anor guli, tatim, teshilmagan mozi va achchiqtoshning har biridan ikki dirham olib, ezib sepiladigan dori tayyorlanadi va o'yilish ham oqma yaraning o'rtta xiliga qarshi ishlatiladi. Shunga o'xhash anor guli va temir to'poli bilan milkning o'yilgan joyini to'lg'izib qo'yib, keyin yovvoyi piyoz sirkasi yoki zaytun bargi qaynatilgan sirka bilan og'iz chayiladi. Uyilgan joyga filuniyo ishlatilsa ham yaxshi bo'ladi. Yana yalpiz murakkab dorisi va sasishga to'sqinlik qiluvchi .va sasiganni ketkazuvchi ma'junlar ham ishlatiladi, isiriq ma'juni o'shalardandir. Ular ta'sir qilmasa, qalqandiyunni ishlatishdan boshqa chora yo'q. Mana bu ham unga yaqin dorillardandir: achchiqtosh, ohak, mozi va ikki turli zirnixdan barobar bo'laklar olinadi va bu aralashmadan bir danaq maydalab yanchilgandan keyin tish milkiga yaxshilab ishqalanadi. Keyin biror soat to'xtab turib, og'izni gul yog'i bilan chayiladi. Ba'zan o'sha tarkibga arab akatsiyasining shirasini ham qo'shiladi. Bundan kulchalar qilib quritib, kerakli vaqtga tayyorlab qo'yilsa ham yaxshi bo'ladi. Ba'zan ikki turli zirnix, ohak va arab akatsiyasining shirasi bilan cheklanib, ulardan kulcha tayyorlaydilar.

Goho yuqorida bayon qilingan dog'lash ham foyda qiladi. Bu tadbir tish milki yeyilganini tushirib yangi et undiradigan tadbirdandir. Keyin o'ziga uch barobar murr qo'shilgan mozidan tayyorlangan sepiladigan dori ishlatiladi. Bu dori et undiradi va tish milkini mahkam qiladi. Chahorrag tomiridan qon olish ham foyda qiladi.

Tish milkinning bo'shashuvi

Bo'shashish kam bo'lsa, mizojsa qarab issiqlik yoki sovuqlik burishtiruvchi narsalar qaynatilgan suv bilan og'iz chayish kifoya qiladi. Sirkada qaynatilgan achchiqtosh bu to'g'rida juda foydalidir. Bo'shashish ko'p bo'lsa, davolashning yaxshisi milkni tilib qon oqizib qo'yish, oqqan qonni tozalab turiladi, undan keyin yuqorida bayon qilingan yo'sinda burishtiruvchi narsalarning qaynatmasi bilan og'iz

chayishdir. quyidagi qaynatmalar milk bo'shashuviga yoqadigan qaynatmalardandir: yulg'un daraxti mevasining yanchilganidan uch dirham,. xina bargidan ikki dirham, aristoloxiyadan bir dirham olib qaynatiadi va iliq qilib ishlatiladi; yoki anor guli va anor po'stining har biridan olti dirhamdan, ikkala xil zirnix va Yaman achchiqtoshining har biridan uch dirhamdan, gul va Bag'dod tatimining har biridan sakkiz dirhamdan, xushbo'y sunbul va qora chayir gulining har qaysisidan o'n dirhamdan olib, shu tarkibdan chapiladigan yopishqoq dori qilib ishlatiladi. Chahorragdan qon olish ham foydalidir.

Bo'shashgan milkka yopishtiriladigan va og'izni chaygandan keyin ishlatiladigan foydali dorining tarkibi: dumlari bilan birga olingan gul va murchning har biridan yetti dirhamdan, dub yong'og'i mag'zining po'sti, anor guli va ko'k mirta urug'ining har biridan to'rt dirhamdan, o'zi o'sgan jinjak, tozalangan tatim va Yaman dorchinining har qaysisidan besh dirhamdan yoki Yaman dorchini o'rniga sakkiz dirham mirta olinadi. Kichik iyorajni tanglayga surtib, undan keyin yovvoyi piyoz sirkasi bilan og'iz chayilsa hamda sepiladigan kuchli dorilar ishlatilsa ham foyda qiladi.

Lab va uning kasalliklari

Ikkala lab og'iz va tishlar uchun qopqoq, so'lak uchun tutqich, odamlarning so'zlashiga yordamchi va ular uchun husn qilib yaratilgan. Ular go'sht va asablardan yaratilgan bo'lib, u asablar labni o'rabi olgan mushak uchun ip vazifasini bajaradi.

Labning yorilishi

Lab yorilishlarini davolashda kerakli dorilar burishtirish, quritish va yumshatish xususiyatiga ega bo'lgan dorillardir. Bunga ishlatiladigan foydali dorilarning biri katiro bo'lib, uni og'izga olib til bilan aylantirib turiladi. Lab yorilganda kindikni va orqa teshikni yog'lab turish, tarrakning bir bo'lagini boshqa bir bo'lagiga ishqalashdan hosil bo'lgan ko'pikni yorilgan joyga surtish foydali tadbirlardandir. Unga Sabiston olxo'risining suvi, yo arpa suvi, yoki ispaqul shirasini ham surtiladi. Yog'li narsalardan qaymoq,ilik yoki turli yog'lar asal bilan qo'shilgan buzoq va g'oz yog'lari, saqich daraxti urug'ining yog'i, yoki tuxum oqi va un, ayniqsa yovvoyi yasmiq donining uni bilan qo'shilgan gul yog'i,

hamda gul yog'i bilan tayyorlangan mum yog'lari surtiladi. Ba'zan mum yog'iga kuydirilgan qo'rg'oshin ham qo'shiladi.

Yanchilgan mozi, qalay upa, kraxmal, katiro, tovuq yog'i, shuningdek yanchilib sirkal bilan qo'shilgan mozi, yana mastaki, saqich, zufo va asal lab yorilishiga qarshi ishlatib sinalgan dorillardandir. Ularni malhamdek qilib ishlatiladi. Shunga o'xshash kuydirilgan qo'rg'oshin, shodana va tok ildizidan yarim bo'lakdan, dahna toshidan yarim bo'lak, quritilgan echki tuyog'i va za'faronning har biridan uch bo'lak, kofurdan olti bo'lak olinadi va ularni olti bo'lak mum va o'n olti bo'lak gul yog'i bilan qo'shib ishlatiladi. Shuningdek, bon yog'ida yoki sitron yog'ida eritilgan anbardan to'rtdan bir bo'lakni olib mum yog'i qilib ishlatiladi. Labi yorilgan kishining ovqati pochalar yoki chala pishirilgan tuxum bo'ladi.

Labda bo'ladigan shish va yaralar

Bularni davolashni ko'paygan xiltni bo'shatishdan boshlash kerak. Keyin o'sha joyga maxsus dorilar ishlatiladi. Labdag'i shishlarning hukmi tish milkidagi shishlarning hukmiga yaqindir. Lekin bularda bir oz kuchliroq doriga qattiq ehtiyoj tushadi.

Labdag'i yaralarda ishlatiladigan mahalliy dorilarga kelsak, ularni halila, huzaz, gul urug'i, sarv yong'og'i va kurkum ildizi kabi burishtiruvchi narsalardan tayyorlanadi. Ba'zan u dorilarga dahna toshi, echkining kuydirilgan tuyog'i, kuydirilgan kaklik o'ti, qorakuya va ushna ham solinadi. Lab shishlari va yaralariga ishlatiladigan yog'lar esa o'rik va hind yong'og'inining yog'idir

Lab bavosiri

Labdag'i bavosirga temir to'poli, qo'rg'oshin upa, kuydirilgan qo'rg'oshin, za'faron va achchiqtoshlardan barobar bo'laklarni olib, ularni mum va hind yong'og'inining yog'i yoki bodom yog'i bilan qo'shib marham tayyorlanadi.

Mavzu savollari

- 1.Og'iz bo'shlig'i a'zolari anatomiyasi va fiziologiyasi.
- 2.Tishlarni sog'lomlashtirish tadbiri.
- 3.Tish og'rig'i, tashxislash va davolash.
- 4.Tish rangining o'zgarishi, sababi.
- 5.Og'iz sassiqligi sababi va davolash.
- 6.Til kasalliklari haqida tushuncha berish.

7.Lab kasalliklari haqida tushuncha berish.

V BOB. KO'KRAK QAFASI A'ZOLARI KASALLIKLARI

5.1. § . O`pka kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash. O`pka nayi va o`pkaning anatomiysi

O`pka nayi - bir-biriga tutashgan halqa va halqaning bir cheti shaklidagi ko`p tog'aylardan tuzilgan a`zodir. Bu a`zoning orqasidagi ovqat yo`li, ya`ni qizilo`ngachga tegib turadigan halqalarining davrsasi qisqa va yarim doiraga yaqin qilib tuzilgan bo`lib, ularning kesilgan joyi qizilo`ngachga qaratib qo`yilgan. Qizilo`ngachga o`pka nayining tog'aysimon qismi emas, balki pardasimon qismi tegib, tog'aysimon qismi oldinga qarab turadi. U tog`ay halqalar bir-biriga boyloqlar bilan birikkan bo`lib, bu keyingilarni parda bilan qoplab turadi. Ichkari tomondan hammasining ustidan silliq va bir oz quruq va qattiq bo`lgan parda o`rab o`tadi. Sirtidan og`iz va hiqildoqqa yondosh, yuqori tomon uchidan ham shunday parda o`rab o`tadi. O`pka nayining quyi uchi ikki qismga bo`linadi. Keyin ular harakatli (arteriya) va harakatsiz (vena) tomirlarining shaxobchalariga yondoshib, o`pka bo`ylab o`tadigan ko`p bo`limlarga bo`linadi. Bo`limlarning uchlari og`izchalar - pufakchalar bilan tugallanadi, u og`izchalar shu bo`limlarga ham shakl bo`lib, ularga yondashib o`tadigan tomirlarning og`izchalaridan ko`ra torroq bo`ladi.

O`pka nayining tog`aydan yaratilishi, uning ochilib turishi va yumshoqlik uni berkilishga majbur qilmasligini ta`minlaydi. O`pka nayi qizilo`ngachdan oldinda joylashgan bo`lib, tovushning paydo bo`lishiga sabab yoki yordamchi bo`ladi. O`pka nayining pardalar bilan bir-biriga bog`langan ko`p tog'aylardan tuzilishi esa, havoni tortish va chiqarish paytida cho`zilishi va yig`ilishi mumkin bo`lishini ta`minlaydi. Shunda quyi va yuqoridan paydo bo`ladigan to`qnashishlardan va o`zida ikkala tomonga qarab bo`ladigan tortilishlardan zarar ko`rmaydi. Yana agar biror ofat yetsa, u tarqalmaydi va o`pka nayining hammasini qoplamaydi.

Nayning yumaloq shaklda tuzilishi uning ixchamroq va bexavotirroq bo`lishi uchundir. Lekin qizilo`ngachga tegib turadigan joyining davrsasi to`la emas. Bu ichga o`tadigan luqmani qismasligi va qizilo`ngach eniga cho`zilganda luqmadan uzoq turishi uchundir. O`pka nayi o`z

kovakligini go`yo qizilo`ngachga beradi. Shunda qizilo`ngach o`pka nayi tomon kengayib o`ziga berilgan kovaklikka botib kiradi. Ayniqsa yutish bilan nafas olish bir vaqtida bo`lmaganidan ham shunday qilingan. Chunki yutish o`pka nayining tepasidan o`tadigan ovqat unga kirib ketmasligi uchun uning yuqori uchini birikishga majbur qiladi. Birikishi uning yo`lini unga to`nkariluvchi tog`ay va otsiz tog`ayning qoplab olishi bilan bo`ladi. Yutish va quşish o`sha yo`l og`zini birikishga majbur qiladigan bo`lgach, nafas olish paytida u ikkala ishning ham bo`lishi mumkin emas.

Tovush chiqarish uchun "surnay tili" deb ataladigan narsa yaratilgan. Uning oldida o`pka nayining uchi torayib, keyin u hiqildoqqa borib kengayadi, so`ngra yana toraya boshlab, keyin surnaydagi kabi keng bo`shliqqa o`tadi. Albatta tovush to`xtalib chiqadigan joy tor bo`lishi kerak. Surnay tiliga o`xshash shu jismning ishi tovush urilib chiqishi uchun yopilib va ochilib turishdan iboratdir.

O`pka nayi ichki pardasining pishiq qilib tuzilganligi nazlalar, yomon tupuklar va yurakdan haydalgan tutunsimon bug'larning o`tkirligiga chidamli bo`lishi va tovushning urilishi sababli bo`shashmasligini ta`minlaydi. O`pka nayining dastlab ikkiga bo`linishi esa o`pkaning ikki bo`lakligi uchundir. Venalar bilan birgalikda shaxobchalanishi ulardan oziq olishi uchun, shaxobchalar og`zining tor qilinganligi esa yurakka boradigan arteriyalarga ular orqali mayin sovuq yelning o`ta olishi va ularga qon kirib ketmasligi uchundir. Shaxobchalarga qon kirib ketsa, qon tuflash paydo bo`ladi.

Hiqildoq - bu tovushning tugal paydo bo`lishi va nafasning saqlanib turishi uchun xizmat qiladigan bir a`zodir. Uning ichkarisida surnay tiliga o`xshash bir narsa bor. Tanglayning ro`parasidagi qismi surnay uchini berkitadigan o`sinqqa o`xshaydi va u bilan tovush paydo bo`ladi.

Hiqildoq o`pka nayi bilan birgalikda qizilo`ngachga shunday bog`langanki, qizilo`ngach yutimni, luqmani tortish uchun ichkariga harakat qilsa, hiqildoq yuqoriga ko`tarilib bekiladi, shunday tog`aylar bir-biriga zichlashadi, pardalar va mushaklar esa tortishadi. Ovqat qizilo`ngachga ro`para bo`lgach, o`pka nayining og`zi va hiqildoq yuqori tomondan tanglayga yopishib oladi va qizilo`ngachga kiradigan narsa o`pka nayiga kirishi mumkin bo`lmaydi. Natijada ovqat va ichimlik

o`pka nayiga tushmasdan, ular qizilo`ngachga o`tib ketadi. Lekin, ba`zi vaqtarda shu harakat tugal bo`lishidan ilgari kishi yutishga shoshiladi yoki ovqatning qizilo`ngach tomoniga harakati betartib bo`lib, o`pka nayiga qisman kirib ketadi, shunda organizm tinmay yo`talib, uni haydashga intiladi.

O`pka bir necha bo`laklardan tuzilgan. Bo`laklarning biri o`pka nayining shaxobchalari, ikkinchisi venasimon arteriyaning shaxobchalari, uchinchisi esa arteriyasimon venaning shaxobchalaridir. U shaxobchalarni zarurat yuzasidan eng suyuq va eng latif qondan yaratgan, bir qadar bo`sh, g`ovak va orasiga havo kirgan alveolalar, ya`ni o`pka alveolalarini yig`ib turadi. O`pkaning ozig`i ham shu xil qondan bo`ladi. O`pka eti ko`p teshiklik bo`lib, rangi oqimtirdir. O`pkada havoning ko`proq joylashishi, yetilishi va chiqindilarning chiqib ketish uchun u g`ovak qilib yaratilgan; jigar ham ovqatlik moddalarga nisbatan shunday yaratilgan. O`pka ikki bo`lak bo`lib, biri o`ng tomonda ikkinchisi chap tomonga joylashgan, chapdagisi ikki shaxobchali, o`ng bo`lagi uch shaxobchalidir.

Umuman o`pkaning foydasi havoni tortish, havoni tortishning foydasi yurak uchun tomir urishining bitta urishiga kerak bo`ladiganidan ko`ra ko`proq havoni tayyorlashdir. Bunday tayyorlab qo`yishning foydasi esa, hayvonni suvga sho`ng`igan paytida yoki uzun va tutash tovush chiqarish bilan ovora bo`lib, havo ololmay turgan paytida, yoki jirkantiradigan hidlar va boshqa hollar va sabablar tufayli havoni ichga tortishdan jirkanish paytida yurak o`ziga oladigan tayyor havoning mavjud bo`lib turishidir. Bu tayyorlangan havoning foydasi o`zining mayin esishi bilan yurakning issig`ini mo`tadil qilishi va o`z mizojidagi qolib moddasi bilan ruhga yordam berishidan iboratdir. Biroq, ba`zilar gumon qilganidek, faqatgina havoning o`zi ruhga aylanmaydi, shuningdek, faqatgina suv biror a`zoda oziq bo`lmaydi. Lekin, ularning har biri yo oziqning bo`lagi, yoki yo`l boshlab o`tkazuvchisi bo`ladi, suv badanga oziq bo`ladi, havo esa ruhga oziq bo`ladi. Badan va ruh ozig`i bilan bularning har biri sodda jism bo`lmay, murakkabdir. Ruhning tutunsimon bo`lib qolgan qismi, ya`ni uning kuygan chiqindisini chiqarib turishdagi foyda, o`pkani bo`shtib o`rniga sovuq havoni kiritishdadir.

Chunki tortilgan burungi havo albatta isib ketib , ruhni mo`tadil qilishga uning foydasi tegmaydi.

Tomirlar va o`pka nayining o`pkada shaxobchalanishidagi foydaga kelsak, o`pka nayi va venasimon arteriya nafas ishini bajarishda hamkor bo`ladi. Venasimon arteriya va arteriyasimon vena esa o`pkani yurakdan keladigan yetilgan tiniq shirin qon bilan oziqlantirishda hamkor bo`ladi. O`pka etining foydasi oraliqni mahkamlash va shaxobchalarni yig`ib turishdan iborat, uning g`ovakligi esa havoni tortishga qobiliyatli bo`lishi uchundir, chunki havo faqatgina o`pka nayiga o`tibgina qolmay, balki uning bir miqdori o`pka tanasiga ham o`tadi, g`ovaklik ko`p havo olishga imkoniyat beradi, hamda yig`ilish sababli havoni haydab chiqarishga yordam beradi. Demak, o`pka eti yig`ilish va yoyilish harakatlariga qobiliyatli bo`ladi, shuning uchun o`pka dam bilan yorilmaydi. O`pka etining oqimtirligi u oziqlanadigan narsada havoning ko`pligi va unda havoning ko`p aylanishidan keladi. Ikkala bo`lagining biriga zarar yetishi sababli nafas olish to`xtalib qolmasligi uchun o`pka ikkiga bo`lingandir. Xuddi shu sababga ko`ra, har bir bo`lagi ham ikkiga bo`linadi. O`ng tomonda bo`ladigan uchinchi bo`lagi esa kovak deb ataladigan tomir uchun yotar o`rin bo`lib, nafas olish uchun uning ko`pda foydasi yo`q. Yurak chapga bir oz moyil bo`lganidan ko`krakning chap tomonini egallaydi, o`ng tomonida shunday narsa bo`limgach, ko`krakning o`ng tomonida tomirlarga yotar joy bo`ladigan o`pka o`sig`ining turishi yaxshi va kerakli topildi.

O`pkani asabli parda o`rab turadi. Bu to`qnashuvchi narsani sezish uchundir. Parda o`pka tanasiga kirishgan bo`lmasa ham, uni qoplab turadi. Yana o`pkaning o`zi yumshoqligi sababli yurak uchun yotish va saqlanish joyidir. Ko`krak ikkita bo`shliqqa bo`lingan. Bo`shliqlar orasini ko`krak suyagi o`rtasidan chiqqan parda ajratib turadi. Ikkala bo`shliqning biridan ikkinchisiga yo`l yo`q. Bu parda haqiqatda ikkitadir. Bu parda orqadan umurtqalarga, yuqoridan esa ikki o`mrov suyaklarining bir-biriga uchrashgan joyiga tutashadi. Bu ikki pardaning yaratilishidan maqsad ko`krakning ikki qismga ega bo`lishi uchundir. Qismlarning biriga zarar etsa, nafas olish ishlarini ikkinchisi bajaradi. Qizilo`ngach, o`pka va ko`krak a`zolarini bir-biri bilan bog`lash o`sha ikki pardaning foydalaridandir.

Ko`krak-qorin to`sig'i mushaklarining biridir. U uch qatlamdan iborat bo`lib, ularning o`rtadagisi uning ishini bajarilishiga vosita bo`ladigan payning o`zidir. Uning yuqorisidagi qatlam ko`krak ichkarisiga yoyilgan pardalar uchun asos va o`tirg'ich kabitdir. Quyi qatlam esa, qorin ichidagi a`zolarning yupqa pardalari uchun shu vazifani bajaradi. Ko`krak-qorin to`sig'ida ikkita teshik bor. Ularning kattasi qizilo`ngach va katta arteriya uchun yo`l bo`lib, kichigidan esa akxal deb ataladigan vena o`tadi. Bu vena ko`krak-qorin to`sig'iga qattiq bog'lanib birikkan.

O`pkaning mizojlari, ularni aniqlash yo`llari va ularning belgilari

O`pka mizojining issiq ekaniga ko`krakning kengligi, nafasning kattaligi, ba`zan nafas ikki hissa bo`ladi - katta nafas chiqarish, tovushning qattiq va yo`g'onligi, sovuq havoning kam zarar qilishi va issiq havoning ko`p zarar qilishi, shuningdek ko`pincha biror narsa ichmasdanoq mayin sovuq shamoldan bosiladigan tashnalik belgi bo`ladi. Issiq mizoj bilan birga ko`pincha alanga va yo`tal ham bo`ladi.

O`pka mizojining sovuq ekaniga ko`krakning kichikligi va torligi, tovush va nafasning siqiqligi va har ikkalasining ingichkaligi, har bir sovuq narsa bilan zararlanish va o`pkada balg'amning ko`p paydo bo`lishi dalolat qiladi. Sovaq mizojda ko`pincha nafas ikki hissa bo`ladi. Shuningdek hansirash va yo`tal ham paydo bo`ladi.

Ho`l mizojga chiqindilarning ko`pligi, tovushning xirillashi, umuman xirillash, ayniqsa modda bo`lib, modda yuqoriga intilsa, shunday bo`ladi, gavda kuchsiz bo`lmasa ham baland ovoz chiqara olmaslik belgi bo`ladi.

Quruq mizojga chiqindilarning kamligi, tovushning dag'alligi va uning turnalar tovushiga o`xshashligi dalolat qiladi. Ba`zan moddaning kuchli quyuqlashuvi sababli hansirash paydo bo`ladi. Shu mizojlarning har biri o`pkada goho tabiiy bo`ladi, goho keyin paydo bo`ladi va ular yuqorida aytilgan belgilarning ba`zisida birgalashadi, ba`zisida esa ajrashadi. Ularning birgalashadigan belgilari yuqorida ko`rsatilgan belgilardir. Lekin keyinda aytildigan belgilarida birgalashmaydi. Ikkalasining ajrashadigan belgilari ikkita: biri mizoj tabiiy bo`lsa, belgisi ham tabiiy ravishda voqe` bo`ladi. Mizoj keyin paydo bo`lgan bo`lsa, belgisi ham g'ayritabiiy bo`lib yuz beradi. Lekin, belgi ko`krakning

kattaligi yoki kichikligi kabi faqatgina tabiiy bo`ladigan jinsdan bo`lsa, u, tabiiy mizojga belgi bo`ladi.

Bilginki, issiq, sovuq, katta-kichik, oson-qiyin, badbo`y - xushbo`y va bulardan boshqa xil nafas ko`krak va o`pka ahvolini ko`rsatadigan belgilarning aniqrog'i va xosrog'i hisoblanadi. Tovush ham shunga o`xhash, masalan, zarar mushaklarda bo`lsa, bo`g'ilgan tovush zararning yoyiluvchi mushakda ekanligiga, xirillagan tovush esa, zararning yig'iluvchi mushakda ekanligiga belgi bo`ladi. Yo`tal, tupuk tashlash, tomir urishi ham ko`krak va o`pka ahvoliga eng xos belgi bo`ladi.

O`pka yurakka qo`schnidir va yurakning ahvoidan o`pkaga olinadigan dalil - eng kuchli dalil bo`ladi. Tomir urishi o`pka nayi shaxobchalarining yonveridagi joyning ahvoliga eng kuchli belgi bo`lsa, yo`tal kekirdak yonverining va et qismining ahvoliga eng kuchli dalil bo`ladi. O`pkaning og'ir sezilishi moddaning o`pkada ekanligiga, achishish va sanchish sezilishi esa, moddaning pardalarda va mushaklarda ekaniga xos dalildir. Balg'am tuflash yengil yo`tal bilan bo`lsa, modda o`pka nayinig eng yuqorisida va uning yaqinida bo`ladi. Balg'am tashlash kuchli yo`tal bilan bo`lsa, modda uzoq va chuqurlikda joylashgan bo`ladi. Goho ko`krak a`zolarining kasalliklariga uzoq a`zolardagi belgilar ham dalil bo`ladi. Masalan, ko`krak-qorin to`sиг'ining shishlarida bosh aylanadi, o`pka shishlarida yuz qizil bo`ladi.

O`pka kasalliklarida uchraydigan belgilar. Yo`tal

Yo`tal tabiatning biror a`zodan zararni haydashiga vosita bo`ladigan harakatlardan biridir. Aksirish miyaga nisbatan qanday bo`lsa, yo`tal ko`krakka nisbatan shundaydir. Yo`tal ko`krakning yoyilishi va yig'ilishi, hamda ko`krak-qorin to`sиг'ining harakati bilan bo`ladi. Yo`tal o`pkaga xos sababdan yoki boshqa a`zolarning hamkorligi bilan vujudga keladi. Yo`talni keltirib chiqaruvchi sabab sirtqi, yoki bog'lovchi, yoki oldin keluvchi sabab bo`ladi. Yo`talning sirtdan bo`ladigan sabablari ko`krak a`zolarining mizojini yoki shaklini buzadigan sirtqi sababning biri bo`ladi; masalan, o`pkaga yo ko`krak mushaklariga, yoki bulardan boshqalarga ichga tortilgan havodan yoki ichilgan sovuq suv va boshqa narsalardan sovuq tegadi; shunda tabiat zarar yetkazuvchini haydash

uchun harakatga keladi. Yoki yo`talning sababi, o`sha a`zolarga kelgan sirtqi sabablarning boshqa biri bo`lib, u a`zolarni qizdiradi, yoki chang, tutun, yoki nordon, yo taxir, yoki o`tkir biror ovqatning mazasi kabi qurituvchi yo dag`al qiluvchi narsa sabab bo`ladi. Yoki yo`talga sabab havodan boshqani qabul qilmaydigan yo`lga tushgan yot narsa bo`ladi. Masalan, bexabarlik yoki so`z bilan ovoralik sababli, o`sha nafas yo`liga bir miqdor ovqat yoki ichimlik tushib qoladi va natijada yo`tal paydo bo`ladi.

Yo`talni bog`lovchi sabablarga kelsak, ular gavdada bo`lib, mizojni moddasiz issiqqa, yo sovuqqa aylantiruvchi, yo ho`llovchi, yoki qurituvchi, yoki safro, yoki suyuq va quyuq balg`am, yoki savdo moddali sabablardan iboratdir. Lekin savdodan yo`tal paydo bo`lishi kam uchraydi. Agar modda yuqoriga quyilib, devorda narsa sirg`angandek o`pka nayi bo`ylab sirg`anayotgan bo`lsa, ko`pda yo`tal qo`zg`almaydi, agar o`pka nayi bo`shlig`iga quyilsa, yo`tal qo`zg`aladi. Modda achishtirsa, o`pkada o`rnashib qolsa va tabiat uni haydamoqchi bo`lsa, yoki modda me`dadan, yo jigardan, yo ko`krak a`zolarining ba`zisidan ba`zisiga haydalayotgan bo`lsa, yoki ularning o`zida tug`ilsa ham yo`tal paydo bo`ladi.

Yo`tal goho uzlusizlikning buzilishi sababli, ko`krak-qorin to`sиг'i, o`pka yoki tomoqdagи, shuningdek o`pka, ko`krak-qorin to`sиг'i, yurak va o`pka orasidagi pardadagi zararlar sababli, shu xil moddani qabul qiluvchi hamma joylardagi shish va tiqilmalar sababli ham yuz beradi.

Ilgari bo`lib o`tgan sabablar esa, to`liqlik va gavdaga oid sabablarning yuqorida aytilgan bog`lovchi sabablardan oldin kelishidir.

Turli a`zolarning hamkorligi bilan bo`ladigan yo`tal jigar shishi, jigar yo qizilo`ngach, yo me`da, yo sut bezidagi ofat hamkorligi bilan bo`ladi; shuningdek isitmaga, ayniqla, kuydiruvchi isitmaga, yoki charchashdan bo`ladigan bir kunlik isitmaga, yoki vabo isitmasiga uchragan butun gavda hamkorligi bilan, yoki isitmasiz gavda hamkorligi bilan bo`ladi.

Yo`talning ba`zisi quruq va ba`zisi ho`l bo`ladi. Qurug`ida hech narsa tuflanmaydi. Quruq yo`tal moddasiz issiq, yo sovuq, yoki quruq buzuq mizojdan bo`ladi, goho ko`krak atrofida issiq shishlar paydo bo`la

boshlab, ular hali yetilayotganda bo`ladi. Goho qattiq shish borida juda quruq yo`tal paydo bo`ladi.

Goho u jigar shishlari va boyloqlar atrofidagi shishlar sababli, ba`zi vaqtarda taloq shishlari sababli paydo bo`ladi. Goho ko`krak bo`shlig'ini to`lg'izgan modda sababli yo`tal paydo bo`ladi, uni yo`talgina haydab chiqara oladi.

Ba`zan yo`tal bilan no`xat yoki do`ldek toshga o`xhash bir narsa to'shadi. Buning sababi quyuq xilt bo`lib, issiqlik uni toshga aylantirgan.

Shiddatli yo`tal ko`pincha qon tuflashga olib keladi. Yo`tal goho qishda va qishsimon bahorda ko`payadi. Ba`zan mo`tadil bahorda ham ko`payadi. Shimol tomonning shamoli esganda ham ko`payadi. Agar yoz shimolniki kabi va kam yomg'irli, kuz esa janubniki kabi va yomg'irli bo`lsa, qishda yo`tal ko`payadi.

Belgilari: Sovuqdan bo`lgan yo`tal sovuqda ko`payib, sovuq kamayganda va issiqda kamayadi; yuz qo`rg`oshin rangida bo`lib, tashnalik kam bo`ladi. Ba`zan sovuq yo`talda nazla bo`lib, ko`krakka bir narsa tushayotgani va uning tomoqda yoyilayotgani seziladi. Moddani burunga tortish va tomoqqa tushganini tomoqni qirish bilan tashlaganda yo`tal kamayadi. Nazla yo`llarining qichishi, manglay tevaragining tortilishi va burun teshiklarida tiqilma bo`lishi kabi nazla belgilari ko`riladi. Bunda dastlab tuflash bilan hech narsa tashlanmaydi; keyin xom balg`amsimon bir narsa tuflanadi, keyin sariq va ko`k balg`am tashlanadi. Ba`zan o`shanday yo`tal bilan birga isitma ham bo`ladi.

Issiqdan bo`lgan yo`talning belgisi alangalanish va tashnalik bo`lib, u sovuq havo bilan suvga qaraganda tezroq to`xtaydi, bunda yana yuz qizil, tomir urishi esa katta bo`ladi.

O`pka moddasining ho`lligi, yo`talning keksalarda va ho`l mizojli kishilarda paydo bo`lishi, tomoq xirillashining ayniqsa uyquda va uyqudan keyin ko`payishi ho`l yo`talning belgisi bo`ladi.

Yo`talning harakat va ochlik bilan ko`payishi, tinch turganda, to`qlikda, hammomga tushganda va ho`lllovchi narsalar ichilganda yengillanishi quruq yo`talning belgilaridir. Balg`am tashlashning bo`lmasligi yo`tal turlarining hammasida ham moddasiz yo`talning belgisi sanaladi. Balg`am tashlash moddali yo`talning belgisi bo`lib,

balg'amning xili moddaning qanday ekanligiga belgi bo`ladi. Shishlar va ularga o`xshashlardan bo`ladigan yo`talning belgisi issiq va sovuq zotiljam, o`pka yallig'lanishi kabi belgilardan iboratdir. Yiringlanishdan bo`ladigan yo`talning belgisi tomoqdagi og'riq va quruqlikdir, u ko`pincha ho`l ham bo`ladi.

Yaralardan bo`ladigan yo`talning belgisi shuki, tuflaganda yara qovjirashi, yiring, o`pka jismi, yoki o`pka nayi halqasidan bir bo`lakning tushishi va shunday tuflashning o`yib turuvchi nazlalardan va qon tuflashdan, yoki shishlardan keyin bo`lishidir. Quruq yo`tal ko`proq o`pkada modda paydo bo`lganda, biroq haydovchi quvvatning o`pkani tozalashga kuchsizligi sababli vujudga keladi.

Qon tuflash

Qon, goho tuflaganda chiqadi, bunda u og'iz bo`laklaridan chiqayotgan bo`ladi. Goho burun qoqqanda va tomoq qirilib, tuflagandan chiqadi, bunda u tomoq tevaragidan chiqqan bo`ladi. Goho tomoq qirishda chiqadi, bunda u o`pka nayidan chiqqan bo`ladi. Goho qusganda ham qon chiqadi, bunda u qizilo`ngach, me`da og`zi, me`daning o`zi va jigaridan chiqqan bo`ladi. Goho yo`talganda chiqadi, bunda u ko`krak atrofidan va o`pkadan chiqqan bo`ladi.

Ko`krakdan (qon kelishda) o`pkadan chiqqandagidek xavf yo`q. Chunki ko`krakdan chiqadigani tez tuzaladi, tuzalmasa ham unda o`pka yaralarida yuz beradigan zarar yuz bermaydi. O`pkada ko`pincha bitmaydigan yaralar bo`lib, u har vaqt yangilanib qon tuflash davom etadi.

Bularning hammasi uchun eng yaqin sabab ko`krakka, jigarga, qorin-ko`krak pardasiga yetgan zarbadan, yoki o`sha a`zolar bilan yig'ilishdan, yoki keskin biror narsadan iborat sirtqi sababga ko`ra yuz bergen jarohat bo`ladi. Yoki davomli yo`tal, baqirish, birdan chinqirish va g'azablanishda ham shunday bo`ladi. Shuning uchun jinnilarda va har narsadan asabiylashadigan kishilarda qon tuflash ko`p bo`ladi. Goho qattiq quisishdan qon tuflash paydo bo`ladi, ayniqsa qon tuflashga qobiliyatli kishilarda shunday bo`ladi. Goho o`tkir surgi dorilarni, sarimsoq va piyoz kabi o`tkir ovqatlarni iste`mol qilishda, qonni o`tkirlashtiruvchi qo`rquv yoki g'amginlikdan, ko`rpa - to`shaksiz taxir

yerda uqlashdan, tomoq ichkarisiga yopishgan zulukdan, yoki biror bog'lovchi sababdan ham qon tuflanadi.

Bu xil sabab tomirlarda yoki boshqa joyda bo`ladi. Tomirlarda bo`ladigan sabab, yo tomirlarning uzilishi, yorilishi, qonning o`tkirligidan, tomirning ochilishi va kengayishi, yoki bo`shashishi yoki xiltning o`tkirligi sababli yeyilishidan iborat bo`ladi. Yoki tomirlarning qon sizib chiqadigan darajadagi yupqaligidan iborat bo`ladi.

Ko`pincha o`pka nayi va arteriya bo`laklarining teshikchalarini tabiiy holdagisidan ko`ra ko`proq kengayib, qon o`pka nayiga sizadi. Tomirlardan boshqa joyda bo`ladigan ichki sabab yo jarohat bo`ladi, yoki yeyilish va a`zodan biror parcha qo`parilib, sasish sababli paydo bo`lgan yara bo`ladi. Qon tuflash goho o`pkadagi qonli shishdan bo`ladi, u shishdan qon sizib turadi. Bunday shishning tuzalishi oson, chunki u qondan paydo bo`lib, moddasi sizib turadi, qamalib qolmaydi va quyuqlashmaydi. Zulukdan boshqa shu sabablarning hammasi goho o`pkada ham bo`ladi.

Shu bog'lovchi sabablar uchun ulardan oldinroq keladigan sabablar bor. Bular esa yo moddaning ko`pligidan iborat, bu narsa yo ko`p ovqatdan va badantarbiya qilmaslikdan, yoki tabiatning kerak qilganidan ko`ra ortiq qon borligidan bo`ladi. Bunday holat badantarbiya qilmay qo`yganda yoki hayz qoni, yo bavosir qoni to`xtab qolganda, yoki biror a`zo kesilganda yuz beradi. Yoki bunday hol moddaning bir a`zoga tortilishi yo qattiq qo`zg`atilishi, yoki tomirlardagi ularni yoradigan ko`p yeldan, ayniqsa sil kasalligiga uchrab yelkalarini qush qanoti singari qilib yuruvchilarining tomirlaridagi kabi ko`p yeldan bo`ladi. Chunki shunday kishilarda qon tuflash ko`p uchraydi. Yoki bu narsa moddani o`rab turuvchi qurol a`zolarning yorilishga qobiliyatligidan bo`ladi. Qobiliyatlarining sababi, ularni burishtirib turuvchi sovuqlik bo`lib, yoyilishlari qiyin bo`ladi va ular yoyilishga majbur qiluvchi kuchga bo`ysunmaydi, balki yoriladi. Bunday holat, sirtqi yoki ichki issiqlikdan yo quruqlikdan ham bo`ladi. Ularning qaysi biri bo`lsa ham o`sha qurol a`zolarini qalinashtirib, quritib, eng arzimagan sababdan ham yoriladigan qilib qo`yadi, yoki u a`zolarni bo`shashtiruvchi ho`llikdan bo`ladi: ho`llik ularning teshikchalarini kengaytirib yuboradi, yoki

yirtuvchi, yeyuvchi va kesuvchi, yoki sasituvchi narsaga duch kelishidan ham bo`ladi.

Qon to`liqligi paydo bo`lgach, tabiat moddani mumkin bo`lgan tomonga, ya`ni moddani osonroq qabul qiladigan tomonga yoki ortiqcha narsa turadigan joyning yaqinrog`iga haydashga kirishadi. Shunda moddani tuflash orqali, bavosir yoki hayz qoni, yoki burun qonashi orqali haydaydi. Shu paytda tomirlar kuchli bo`lib, qonni o`zidan chiqib ketishga qo`ymaydigan bo`lsa, to`satdan o`lim yuz beradi. Chunki qon tomirlarning kovaklariga quyiladi.

Kishi qon tuflayversa, o`pkasida yara paydo bo`lganiga belgi bo`ladi, chunki qon tuflash ko`proq jarohatdan keladi, jarohat esa osonlik bilan yaraga aylanadi. To`xtab qolgan qon tuflashdan keyin yana qaytadan qon tuflana boshlansa, shu ikkinchi qon tuflashning yaraga aylangan birinchi jarohatdan kelayotganligini ko`rsatuvchi xavf tug'iladi. Ko`pincha tuflangan qon burun qoni bo`lib, boshdan o`pkaga oqib tushgan bo`ladi. Qon tuflash o`pka tomonidan bo`lsa, bunda ikkita xavf bor: birinchisi haddan tashqari ko`p qon oqish xavfi va ikkinchisi esa jarohatning yaraga aylanish xavfidir. Har bir qon tuflash ham qo`rqinchli bo`lavermaydi, balki to`xtamaydigan yoki isitmalisi qo`rqinchli bo`ladi. Qon tuflash ko`pincha, jigar yoki taloqdagi shishning tuzalishiga sabab bo`ladi.

Belgilar. Hiqildoq yaqinidan tuflanadigan qon oz yo`tal bilan, ichkariroqdan tuflanadigani esa kuchli yo`tal bilan tashlanadi. Qon qancha uzoq bo`lsa, shuncha kuchli yo`tal bilan tashlanadi. Kasal bo`lgan tomonni bosib uxlaganda, tuflanadigan qon ko`p bo`ladi. Avvalo tuflanayotgan qonning burun qoni emasligini bilish kerak. Bu kasalda burun qonash odati borligiga, uning tez bo`lib turishiga va ilgari bosh og`ir bo`lib turib, qon tashlagandan keyin yengil bo`lishiga qarab aniqlanadi. Burun qonash belgilari, masalan, yuz va ko`zning qizilligi, ko`z oldida nurli zarralarning ko`rinishi, qonning ko`pikli bo`lmasligi va qon tuflashning to`satdan bo`lishiga qarab aniqlanadi.

O`pka etining moddasidagi jarohatdan yoki yaradan tuflanayotgan qonning belgilari: uning ko`pikli bo`lishi, to`xtab-to`xtab chiqishi va og`riq bo`lmasligidir. Buning miqdori tomirdan kelayotgan qondan kamroq, biroq zarari kattaroq va oqibati yomonroq bo`ladi. Goho

zotiljam va o`pka yallig'lanishi kasallligiga uchragan kishilar, o`pkalarida olovdek qaynatuvchi issiqlik bo`lganda ko`pikli qon tuflaydilar. Goho o`pka nayidan ham ko`pikli qon chiqadi, lekin u ichdan tortib tomoq qirish bilan va bir oz yo`tal bilan keladi; bunda chiqayotgan narsaning miqdori ham kam bo`ladi va bir oz og`riq seziladi.

O`pka tomirlaridan chiqayotgan qon ko`pikli bo`lmaydi; u issiqroq va o`pkadan keladigandan ko`ra quyuqroq, ko`krakdan keladigan qon quyuqligida bo`lmasa ham sog`lom qonga o`xshashroq bo`ladi.

Ko`krakdan tuflanayotgan qonning belgilari: qon rangining qoraligi, quyuqligi va masofaning uzoqligi sababli qotganligi va bir oz ko`pikli bo`lishidir; yana ko`krakda og`riq bo`lib, kasallikning joyiga belgi bo`ladi; o`sha tomon bosib yotilganda, og`riqning ko`payishi shu davoni quvvatlaydi. O`sha og`riqning sababi, ko`krak a`zolarining asabli bo`lishidir. Bunda qon oz-oz tuflanib, uzluksiz bo`lmaydi va tuflanish tugallanganicha kuchli yo`tal davom etadi. Qonning mo`l chiqishi tomirlarning uzilishidan bo`layotgan qon tuflashga belgi bo`ladi. O`yilib kelishdan bo`layotgan qon tuflashning belgisi o`yilish sabablarining oldin yuz bergenligi, ya`ni o`tkir narsalarning iste`mol qilinganligi va o`tkir nazlalarning tushgan bo`lishidir. Bunda isitma ham bo`ladi; yiring yoki po`stga aylangan yiring, yoki o`pka parchalari tashlanadi. Go`sht selisimon narsa tashlanadi. Qon tashlash dastlabda oz-oz bo`lib, keyin goho birdan ochilib ketadi va yomon rangli ko`pgina qon tashlanadi.

To`liqlikdan tomirlar og`zining ochilib ketishi natijasida qon tashlanishining belgisi hech bir og`riq bo`lmaslik va qon tashlanganda rohat va lazzat sezilishidir. Buning dastlabida tomir uzilishi va yorilishi sababli chiqadigan qonning dastlab chiqishidan ko`ra kamroq qon chiqadi. Biroq bunda ko`pincha o`yilishdan chiqadigandan ko`ra ko`proq qon chiqadi. Biror shishdan sizib tuflanayotgan qonning belgisi qonning kam chiqishi, o`pka yallig'lanishi belgilarining va boshqa belgilarning yuz berishidir.

O`pkaning yallig'lanishi (zoturria)

O`pka yallig'lanishi - o`pkada bo`ladigan issiq shishdan iborat bo`lib, goho dastlabdanoq o`zi paydo bo`ladi, goho o`pkaga tushgan

nazlalarning, yoki o`pkaga qarab tarqalgan tomoq og`riqlarining, yoki o`pka yallig`lanishiga aylangan zotiljamning ketidan keladi. Bu xil shishlar bemorni yetti kun ichida o`ldiradi; agar tabiat moddani tuflab tashlatishga qodir bo`lsa, ko`proq vaqt u sil kasalligiga yo`liqadi. O`pka yallig`lanishi har bir xiltdan kelib chiqadi, lekin ko`proq vaqt balg`am xiltidan paydo bo`ladi. Chunki o`pka kovak a`zo bo`lib, unda suyuq xilt kam to`xtaydi. Zotiljam esa uning aksi, ya`ni ko`pincha o`t xiltidan bo`ladi; chunki plevra qalin po`satsimon pishiq bo`lib, unga faqatgina latif va o`tkir moddagina o`tadi. Yana o`pka yallig`lanishi goho qon xiltidan va goho saramas jinsidan bo`ladi. U o`zining o`tkirligi va yurakka yaqin turishi, hamda ichiladigan va qo`yib bog`lanadigan dorining kam foyda qilishi sababli ko`proq o`limga olib keladi. Chunki, ichilgan dori unga qarshi tura oladigan sovutish quvvatini saqlagan holda yetib borolmaydi; qo`yib bog`lanadigan dori esa shishga qarshi tura oladigan sovutish ta`sirini u a`zoga yetkaza olmaydi. O`pka yallig`lanishidagi shish, goho shimiltirish orqali, goho yiringlanish bilan izsiz o`tib ketadi. U goho qattiqlashadi va ko`pincha chiqiqlarga aylanadi; ba`zan esa faronitusga ko`chadi, bu kam bo`ladi va kam uchraydi. Goho zotiljamda aytilganidek, o`pka yallig`lanishidan keyin uvushish paydo bo`ladi, biroq bu narsa o`pka yallig`lanishidan keyin ko`proq bo`ladi.

O`pka yallig`lanishida burunning qonashi zotiljamdagи burun qonashidek foyda qilmaydi, chunki ikkalasining muddasi boshqa-boshqa, hamda burun qonashi orqali moddaning o`pkadan tortilishi ko`krak-qorin pardasi, ko`krak pardalari va mushaklaridan tortilishiga qaraganda uzoqroq bo`ladi.

Belgilari: o`tkir isitma, chunki bu ichki a`zoda bo`ladigan issiq shishdir, nafasning bo`g`ayotgandek qilib qattiq qisilishi, shish sababli, hamda nafas yo`llarining siqilganligidan nafas oluvchining turib nafas olishi, nafasining juda issiqligi, sezuvchi pardaga o`ralgan, lekin o`z muddasi sezgisiz a`zoda moddaning ko`pligi sababli seziladigan og`irlilik va o`sha sababdan butun ko`krakning tortishuvi, ko`krak va gavda chuquridan to ko`krak suyagi va orqa umurtqagacha cho`ziladigan og`riq, goho esa shu og`riqning ikkala kurak o`rtasida sezilishidan iborat. Goho kurak, o`mrov suyagi va emchak tagida hamisha yoki faqat

yo`tal paytida lo`qillab og`rish seziladi. Kasal yon tomoni bilan yota olmaydi, faqat orqasi bilan yotadi, agar yon tomoni bilan yotsa bo`g'iladi. O`pka yallig`lanishiga uchragan kishining tili oldin qizaradi, keyin qorayadi. Tili shunday bo`ladiki, qo`l tekkizsang, yopishadi, tili yana qalinlashadi.

Ba`zan to`lishib tortishishda butun yuz hamkorlik qiladi; yuz ruhlarida qizillik va ko`pchish paydo bo`ladi, chunki ular peshona kabi teridan iborat bo`lmay, go`shtli va g`ovak bo`lganligidan ularga bug` ko`tariladi. Ba`zan yuzdagagi qizillik kuchayib, bo`yalganga o`xshash bo`lib turadi. Ba`zan bug` ko`tarilib, olov lovillayotgandek seziladi. Isitmaning kuchliligi va yetkazgan zararining zo`rligidan qattiq harsillash, hamda tez va yuqori nafas paydo bo`ladi. Kasalning ko`zlar salqib, qiyinlik bilan harakat qiladi, tomirlari to`lishadi, qovoqlari og`irlashadi, bularning sababi ham bug`dir. Muguz qatlami shishgancha, ko`z g`o`lagi o`ynab chiqqanga o`xshash bo`lib turadi, unda yog`lilik va semizlik ko`rinadi, bo`yin ham yo`g`onlashadi.

Ba`zan ho`l bug`ning ko`pligi sababli qattiq uyqu paydo bo`ladi, ba`zan shu bilan birga ho`l va oyoqlar soviydi. Tomir urishiga kelsak, u to`lqinsimon bo`ladi, chunki shish yumshoq a`zo, ya`ni o`pkada va moddada qo`ldir. To`lqinli tomir urishi birgina yoyilishdagina notejis bo`ladi, ba`zan tomir urishi uzilib qoladi, ba`zan birgina yoyilishda ikki zarbali bo`ladi, ayrim hollarda o`sha ikki zarba ko`p yoyilishlarda ham bo`ladi. Goho ko`p yoyilishlarda tomir urishi to`xtalib qoladi. Goho tomir urishida "tomir zarbalari o`rtasiga to`g`ri keladigan urish" voqe bo`ladi. Bemorning tomir urishi ehtiyojning qattiqligidan va qurol a`zo o`pkaning yumshoqligidan ko`proq vaqt katta bo`ladi, lekin quvvat juda kuchsiz bo`lsa, katta bo`lmaydi. Tomir urishining ketma-ketligi esa isitmaga, ehtiyojga va quvvatning tomir urishi kattalanishiga kifoya qilishiga qarab kuchayadi va kamayadi. Buqrotning aytishicha, o`pka yallig`lanishiga uchragan kishilarining emchaklariga va ularning yontevaraklariga chiqiqlar chiqib, oqma yaraga aylansa, ular bu darddan tez tuzaladilar, pochada chiqiqlar paydo bo`lsa ham,u yaxshilik belgisi bo`ladi.

Ba`zi vaqtarda o`pka yallig`lanishi zotiljamga ko`chganda, nafas qisishi yengillashib, sanchiq paydo bo`ladi. O`pka yallig`lanishiga

uchraganlarning ham balg'amlari zotiljam kabi turli rangda bo`ladi; u ko`pincha shilliqli bo`ladi. Saramas jinsidan bo`ladigan yoki o`shanga o`xhash o`pka yallig'lanishida nafas qisilishi va ko`krakda seziladigan og'riq kam bo`ladi, lekin alangalanish g'oyat darajada kuchayadi. O`pka yallig'lanishida yiringlanishga ko`chishning belgilari zotiljamning shunday hollardagi belgilariga yaqin bo`ladi; ya`ni isitma va og'riq pasaymaydi va modda balg'am yoki cho`kmali quyuq siyidik, yoki axlat orqali deyarli chiqarib tashlanmaydi. Shu belgilar bilan birga kasalning tinch va kuchliligi kuzatilsa, shish yiringlanishga yoki zotiljamda aytilgan belgilarga ko`ra yuqori yoki quyi tomonda bo`ladigan chiqiqqa ko`chayotgan bo`ladi. Agar bemorda quvvat va tinchlik bo`lmasa, uning o`limi muqarrar. Kasalning tupugi chuchuklashsa, shish yiringlangan bo`ladi. O`pka qirq kun ichida tozalanishi kerak, agar tozalanmasa, kasallik uzoqqa cho`ziladi. O`pka yallig'lanishi uzoq vaqtga cho`zilsa, oziqlantiruvchi quvvatning kuchsizligidan ikkala oyoqda, ayniqsa oyoq uchlarida shish paydo qiladi. Agar modda qovuqqa borsa, sog'ayish umidi tug'iladi.

O`pkaning yallig'lanishini davolash:

O`pka yallig'lanishini davolash zotiljamni davolashga o`xshaydi. Lekin bunda qo`yib bog'lanadigan dorilar kuchliroq bo`lishi va ularga dorining ta`sirini chuqurroq olib boradigan narsalar qo`shilishi kerak. Bunda balg'am tashlatish orqali o`pkani tozalashga qattiqroq kirishiladi; balg'am tashlash bilan tozalash kerak bo`lgan tomonni bosib yotish o`rniga o`sha tomonga moyil bo`lib chalqancha yotiladi. Agar ich to`xtalib qolsa, har ikki kunda bir marotaba mana shu tarkibli ichimlikdan ichiriladi: xiyorshanbar va urug'i olingan mayizning har biridan 256 uch istor olib, unga to`rt sukurreja suv quyiladi va yarmi qolguncha qaynatiladi. Keyin uni olovdan olib ustiga bir sukurreja ituzumining suvi quyiladi. Kuchli kasalga shu tarkibning hammasini, kuchsizga esa yarmi ichiriladi. Agar ich kuchsiz qiladigan darajada suyuq bo`lsa, mirta, qo`rga ko`milgan shirin behi va shirin anorning qaynatib quyultirilgan shirasi ichiriladi.

Mosharo yoki saramas jinsidan bo`lgan o`pka yallig'lanishini davolash qiyin, agar foyda qilsa, sabzavot, o`t va mevalardan olingan ma`lum kuchli sovutuvchi shiralar bilan haroratni yetarli darajada

so`ndirish foyda qiladi. Sachratqi shirasi va shunga o`xshash sovutib, yumshatuvchi shiralar ichiriladi. Shira, tamr, hindiy, yantoq-shakar va shular kabi dorilar bilan safroni bo`shtadirish ham mumkin. Ba`zan shunday o`pka yallig`lanishida kasalda to`liqlik bo`lsa, tomirdan qon olishga to`g`ri keladi.

Ko`krak va o`pka yaralari, o`pka sili.

Bu yaralar ko`krakda yo ko`krak - qorin to`sig`ida yoki o`pkada bo`ladi, shu oxirgi, ya`ni o`pkada bo`ladigani sil yarasidir. Yara yana o`pka nayida ham bo`ladi. Shu yaralarning bexavotirrog`i ko`krakda bo`ladiganidir. Chunki ko`krak tomirlari kichikroq va uning bo`laklari qattiqroq bo`lib, ulardagi yorilish katta bo`lmaydi, yana yiring u tomirlarda to`xtamasdan, ko`krak bo`shtlig`iga oqadi. O`pkaning ahvoli esa bunday emas. Yana ko`krakning harakati o`pka harakati singari kuchli va sezilarli emas, balki u deyarli harakatsizdir, yana u etli a`zo bo`lganidan et unishini osonroq qabul qiladi.

Ko`pincha erigan chiqqlardan paydo bo`lgan ko`krak yaralari suyaklarni ham buzadi, hatto suyakning yon - verining salomat qolishi uchun chirigan terini kesish zarur bo`ladi. Ba`zan chirish suyak yonidagi pardaga ham o`tadi. Ko`krak - qorin pardasining yaralariga kelsak, agar yara uni teshib o`tgan bo`lsa, u hech bitmaydi, teshib o`tmagani esa, asabli bo`laklarida bo`ladi, bu ham bitmaydi, yoki u etli qismlarda bo`ladi, uni boshlanish paytida chora qilib davolasa va shishishiga yo`l qo`yilmasa, et oladi. Ammo shishsa, yoki eskirib cho`zilsa, hech tuzalmaydi.

O`pka yaralarining tuzalishi va tuzalmasligi haqida tabiblar o`rtasida ixtilof bor: bir guruh tabiblarning aytishicha, u hech tuzalmaydi, chunki et olish uchun tinch turish kerak, o`pka esa tinch turmaydi. Jolinus ularga qarshi chiqib, aytadiki, agar unga boshqa monelar qo`silmasa, harakatning yolg`iz o`zi et olishga to`sinqinlik qila olmaydi. Ko`krak pardasi harakat qilib tursa ham, undagi yaraning ba`zan bitishi bunga dalildir. O`pka yaralari haqida Jolinusning o`z fikri shunday: agar o`pka yaralari shishdan, yoki o`yuvchi xiltning yeyishidan bo`lmay, balki, boshqa sababdan bo`lsa uzluksizlikning buzilishi tufayli yuz berib, jarohatligicha tursa, yiringlanmasa va shishmasa, u albatta tuzaladi.

O`pkada teshik paydo qiladigan, lekin yiringlanmagan yaralar ham shunday. Shishdan yoki yejilishdan bo`lgan yaralar tuzalmaydi. Chunki yiringlagan yaraning tuzalishi faqat yiringni tozalash orqaligina bo`lishi mumkin; tozalanishi esa yo`tal bilan bo`ladi. Biroq yo`tal yarani kengaytiradi va yirtadi; yo`tal qichig`i og`riqni ko`paytiradi. Og`riq esa shu kasal tomonga moddalarni ko`plab tortadi. Qurituvchi dorilar balg`am tashlashga to`sinqinlik qiladi. Balg`am tashlatuvchi dorilar esa yaralarni qo`llab yumshatadi. O`yuvchan xiltdan bo`lgan yara, xiltni isloh qilmasa, tuzalmaydi, u xiltning tuzalishi esa, osonlik bilan bo`lmay, yara yirtilib, hech bitmaydigan yaraga aylanadigan yoki yara kengayib, hatto o`pkaning bir bo`lagi yejiladigan muddatdagina bo`lishi mumkin. Shishdan keyin paydo bo`lgan o`pka yaralarida goho shu monelarning hammasi birga bo`ladi.

Et bitishini qiyinlashtiradigan narsalarning bittasi harakatdir. O`pkadagi tomirlarning katta, keng va qattiq bo`lishi ham shunday sabablardandir, chunki bular ham et bitishini qiyinlashtiruvchi narsalardandir. Yana ichilgan dorining kiradigan joyi bilan o`pka o`rtasidagi masofaning uzoqligi va dori quvvatining yaraga borgunicha zaruriy suratda kuchsizlanishi ham et bitishining qiyinlashuviga yordam beruvchi sabablardan sanaladi.

Sovuq dorilar o`tmaslik qilib chuqur singimaydi, issiq dori esa, o`pka yaralarida doimiy bo`ladigan isitmani ko`paytiradi. Qurituvchi dorilar ingichka og`riqni keltirib chiqarish bilan zarar qiladi, ho`llovchilari esa yaralarning et olishiga to`sinqinlik qiladi. Hamma yaralar, ayniqsa shular singari yuqori va quyidan rutubatlar kelib turgan o`pka yaralarini quritish bilan davolanadi.

Agar o`yilish o`pka nayini ichkaridan o`ragan pardada yuz berib, o`pkaning et qismida bo`lmasa va u endi boshlanayotgan bo`lsa, goho davolashni tez qabul qiladi, ammo tog`ayning o`zidagi yaralar davolashni qabul qilmaydi. Sil kasalligini davolashda boshqa yoshdagilarga nisbatan bolalar ko`proq tuzaladilar. Mizojda yoki xiltning o`zida quruq yarani qovjiragan yaraga aylantiradigan biror sabab bo`lmasa, o`pka yaralarining eng bexavotiri, uning qovjiraydiganidir. Goho sil unga uchragan kishini ko`p vaqtgacha qo`yib qo`yadi; ba`zan u o`smirlikdan o`rta yoshgacha cho`ziladi. Men sil kasalligiga uchragan bir

xotinning yigirma uch yil yoki bir oz ko`proq muddat yashaganini ko`rdim. O`pkasi yarali kishilar kuz paytida juda aziyatlanadilar, agar sil kasalligini aniqlash qiyin bo`lsa, unga yo`liqqan kishidagi kasallikni - kuz faslining kirishi aniqlab beradi.

Goho isitma bermaydigan, lekin unda o`pka o`ziga doimo quyilib turgan nazladan iborat quyuq va yopishqoq xiltlarni qabul qiladigan boshqa kasallikka ham sil ismi beriladi. O`pka yo`llari torayib, kasal nafas qisish va kuchli yo`talga uchrasa, bu narsa ularning quvvatini ketkazadi, badanni so`litib ozdiradi. Ular haqiqatda qarsillash kasalligiga uchraganlarga o`xshash bo`ladilar. Shunda agar ozgina harorat bo`lsa, ularni davolashda hansirashga uchraganlarga ishlataladigan tadbirlarni ham qo`llash kerak.

O`pka yaralarining sabablari: ular yoki achishtiruvchi va o`yuvchi, yoki qo`sniligi sababli o`pkani erituvchi nazladan iborat, bunda nazla yetilguncha o`pka sog`aya olmaydi, yoki shu jinsdan bo`lib, boshqa a`zodan o`pkaga oqayotgan modda ham yaralarga sabab bo`ladi. Yoki unga yiringlab yaraga aylanadigan o`pka yallig`lanishining oldin paydo bo`lganligi yoki teshilib oqqan zotiljamning yiringlashi sabab bo`ladi yoki yuqorida eslatib o`tilgan qon tuflash sabablaridan bo`lgan tomirni yoradigan yoki ochadigan biror sabab ham xoh u qonning qaynashi yo undan boshqa aytilib o`tilgan narsalar kabi ichki sabab bo`lsin, xoh yiqilish, urilish kabi tashqi sabab bo`lsin, o`pka yaralariga sabab bo`ladi. Goho o`pka yaralariga boshqa a`zolarda bo`lgani kabi o`pka tanasida o`z-o`zidan voqe bo`lgan chirish va yejilish ham sabab bo`ladi. Quruq va shimolnikiga o`xshaydigan yozdan keyin janubniki kabi yomg`irli kuz kelsa, sil kasalligi ko`payadi.

Ko`krak yaralarini va silni davolash

Yara o`pka nayida bo`lsa, dori unga tez boradi. Kasal orqasi bilan yotishi, dorini og`ziga olib turib, so`lagini oz-oz yutishi, ya`ni bir yo`la ko`p yutmasligi kerak, chunki ko`plab yutish yo`talni qo`zg`atadi. Dorili so`lak yo`talni qo`zg`atmasdan halqumga borib yetsin uchun halqum mushagini bo`sh tutish kerak. U dorilar esa yopishtirish va quritish xususiyatiga ega bo`lgan dorilardan iboratdir. Ko`krak va o`pkada bo`ladigan va biz yuqorida aytib o`tgan yaralarni davolashga kelsak, buning uchun yuvib tozalovchi dorilarni buyurish zarur. Kasalga og`riq

tomonini bosib yotish, yo`talib turish va qimirlash buyuriladi, yoki u bir oz tebratib turiladi. Ba`zan yaraga asal suvi yuborilgandan keyin, yiringni tortadigan qurol orqali yaradan yiring chiqariladi. Modda tozalanib undan hech narsa qolmaganligiga ishonilsa, u paytda et undirib bitiruvchi dorilar ishlatiladi. Tozalab ketkazadigan dorilar ichida bu kasallik uchun asaldan yaxshi dori yo`q. U tozalovchi bo`lish bilan birga tabiatga sevimli va yaralarga zarar qilmaydigan ovqat hamdir.

O`pka yarasiga kelsak, u ikki xil tadbir bilan davolanadi; ularning biri haqiqiy davolash, ikkinchisi yaraga to`sinqinlik qilib turish bilan davolashdir. Haqiqiy davolash, kasallik davolashni qabul qilarli darajada bo`lganidagina mumkin bo`ladi. Biz buni aytib o`tdik. Bu xil davolash yarani tozalash, uni quritish, undan moddalarni haydash, nazlalarmi to`xtatish va et unishiga yordam berish bilan bo`ladi. Qisqasi, badanni tozalash, moddani boshdan quyi a`zolarga tortish va boshda chiqindilar ko`paymasligi uchun boshni kuchli qilish, boshdan o`pkaga quyiladigan moddani to`xtatish va uni boshqa tomonga tortish kerak. Tozalash tomirdan qon olish bilan ham turli chiqindilarni chiqarib tashlaydigan qo`tsoyo, ayniqsa muql va arab yelimi qo`shilgan qo`tsoyo kabi dorilar bilan bo`ladi. Ba`zan savdoli xiltlarni chiqaradigan devpechak va shunga o`xshash doriga ehtiyoj bo`ladi. Ba`zan chiqindilarni kamaytirish uchun qayta-qayta bo`shatishga to`g`ri keladi. Bo`shatish dori yordami bilan va tomirdan qon olish orqali qilinadi. Keyin dam beriladi, so`ngra yana bo`shattiriladi, ayniqsa kuchli badanlarda shunday qilinadi.

Ko`knor sharbati, ayniqsa uning ko`knordan qilinganini va boshqasini iste`mol qilish nazlalar zararini qaytaradigan foydali tadbirlardandir.

Havosi quruq joylarga ko`chish, bemor tabiatining shunday tadbirni qabul qilishiga yordam beradigan narsalardan sanaladi. Bemorni u yerda davolab, sut ichirib turish lozim.

O`pka bo`laklari bir-birining ustiga tekis tushib turishi va yara bo`laklari doimo birikkan va tabiiy holatda tursin uchun kasalni ko`proq vaqt bo`ynini yuqoriga va oldinga cho`zdirib, tikka vaziyatda qo`yish kerak. Balg`am tashlashga to`sinqinlik qiladigan narsalar orqali yo`talni va tuflashni hadeb to`xtayvermaslik lozim, chunki bunda bemor o`zini yengil deb his qilsa ham, zo`r xavf bor. O`pka yarasiga to`sinqinlik qilishga kelsak, uning, yeylimasligi va kengaymasligi uchun qotirish va

quritish tadbirini ishlatish zarur. Lekin, u bilan yaraning et olib bitishi umid qilinmasa ham kasalning umrini bir oz uzaytirishi mumkin. Lekin bemorning shu muddatdagi hayoti yaxshi o`tmaydi va u tadbirdagi eng kichik xato sababli qiynaladi. Shu qurituvchi dorilar, o`pkani burishtirib, quritib, yarasini bitkazmasa ham biriktiradi va toraytiradi. Shu tadbirni qo`llagan tabib bemorga sut iste`mol qildirishi kerak emas. Asal sil yarasiga ishlatiladigan dorilarning biriktiruvchisi bo`lib yaralarga zarar qilmaydi. Yaralarni tozalash yuqorida aytilgan tozalovchi dorilar bilan va karobodinda sil uchun tayin qilingan zufo qaynatmasi bilan amalga oshiriladi. Ulardan kuchlirog'i karobodinda ko`rsatilgan yovvoyi yasmiq va chigitdan tayyorlanib yalanadigan doridir; undan ham kuchlirog'i oq piyozni ot suti bilan qo'shib tayyorlab yalanadigan doridir. Ba`zan o'sha doralarga ilashtirib yopishtiradigan narsalarni qo'shish kerak bo'ladi. Ba`zan yo`talni to`xtatish va dorining qo`nib ta`sir qilishi uchun uvushtiruvchi dorilar qo'shiladi; Shu paytda kasalni oyoqqa turg'azadigan kuchli ovqatlardan buyurish kerak bo'ladi. Ularning odatdagisi yovvoyi yasmiqdan qilingan hamda shom gandanosi qo'shib no`xat, uni va xandarus o'simligidan tayyorlangan suyuq oshlardir, yana suvda qaynatilgan shom gandanosining o`zi, hamda tozalovchi va et undiruvchi dorilar solib qaynatilgan asal suvlari beriladi; yana kammuniy va asonosiyo kabi qurituvchi ma`jun dorilar va tarkibiga zig'ir qo'shilgan yalanadigan dorilar ishlatiladi. Ammo mitridat va taryoqni ma`lum vaqtarda, ayniqsa kasallikning dastlabida bemor juda ozmagan va isitma juda so`litmagan vaqtida iste`mol qilinsa, foyda beradi. Muqrloyi ham shunday. Shuningdek, qo'yib bog'lanadigan hamma dorilar, kompresslar va surtiladigan dorilar ham foyda beradi. Ko`krak va o`pka yaralari eskirgan bo`lsa, kasalga qatronning o`zi yoki unga asal qo'shib ertalabki va kechqurun kichkina bir qoshiq yalatish yoki oquvchi may`adan bir ozini asal bilan qo'shib yalatish foyda qiladi. Agar kasalda harorat yuqori bo`lib, tozalovchi issiqlik dorilarni ishlatish xavf tug'dirsa, sovuqliklari esa foyda qilmasa, tulki o`pkasi, arpabodiyon urug'i, chuchukmiyaning qaynatib quyultirilgan toza shirasi va sunbulsoch shirasi olib shakarning quyultirilgan suvi bilan qo'shib beriladi. Bu juda foyda beradi. Goho shu kasallikda qurituvchi va tozalovchi tutatiladigan dorilarning turli xillari ham ishlatiladi; ularni

tutatib voronka orqali burunga yuborish foydalidir. Ulardan biri zirnix va murchdan iborat bo`lib, uni tuxum oqi bilan qo`shib, qo`lak qilib ishlatiladi. Yana biri: shirin zaytunning yaprog'i, taka buyragining charvisi, zirnix bir xil miqdorda olinadi, yana tuxum po`chog'i va zirnixni taka buyragining yog'i bilan, yoki zirnixni qo`y yog'i bilan qo`shib ishlatiladi. Yana: zirnix, aristoloxiya va kovul ildizining po`sstaridan barobar bo`laklarni olib asal va yog' bilan qo`shib tutatiladi. Shuningdek, sanavbar cho`pi va qatron quyqasi ham ishlatiladi. Yana kunjut yog'i bilan qo`shilgan sariq zirnix tutatiladi. Kasalning mizoji ortiqcha isib ketgan paytda bir necha kungacha kofur kulchasi bilan davolanadi, undan keyin yana qurituvchi dori ishlatiladi.

Bunday kasalning ovqatiga kelsak, unga o`rmon kakligining pishirilgan go`shti beriladi. Kasallikning boshida suv qo`shilmagan holisog' sharobdan tiyilmaydi. U doimo rayhon hidlab turishi, doimo dam olishi va tinch yotishi kerak. G'azablantiradigan va asabiylashtiradigan ishlarga urinmasligi ham kerak; unga g'amgin qiladigan xabar bildirilmaydi.

Shu kasallikka uchragan kishi yil bo`yi har kuni istagancha shakarli gulhandni iste`mol qilib turadi, hatto anchagina miqdorda bo`lsa ham non bilan yeishga buyuriladi, keyin u kishining ahvoli kuzatib boriladi: agar gulning quritishi sababli nafasi qissa, kerakli miqdorda zufo sharobi, isitmasi ko`tarilganda esa kofur kulchalari ichiriladi. Shunday davolash o`zgartirilmay borilsa, natijada kasal sog'ayadi. Goho gavdaning quruqligi va so`lishi sut yoki ayron iste`mol qilishga muhtoj qiladi. Bu narsalarda ovqatlik, badanni qo`llash, buzilgan xiltni mo`tadil qilish xususiyati bor; ulardagi pishloq bo`ladigan modda yarani yopishtiradi, sut o`zining suvi bilan yara zardobini va yiringini ketkazadi. Hatto qotirilishi maqsad bo`lmagan o`pka yaralarini ham ko`pincha u sog'aytiradi. Sutlarning eng yog'adigani xotinlarning ko`kragidan emiladigan sut, keyin ot suti, undan keyin echki suti turadi, ayniqsa echki suti burishtirish uchun muvofiq bo`ladi. Tuya suti ham tozalovchi va balg'am tashlashni osonlashtiruvchi narsalardandir, lekin, gumonimcha, bunda sutlardagidek oziqlik yo`q. Sigir va qo`y sutida esa g'alizlik bor.

Sog'iladigan hayvonni ta'sir va xususiyati zarur bo'lgan o'simliklar bilan bog'ish kerak. Yarani bitirish ta'siri zarur bo'lsa, hayvonga qizil tasma, jumro't, "kambag'allar arqoni" va shunga o'xshashlar beriladi; tozalovchi va balg'am tashlatuvchi dorining ta'siri kerak bo'lsa, tog' jambil kabi o'simliklar beriladi. Sut ichish bilan shug'ullanadigan kishi boshqa tadbirlarga ham rioya qilishi kerak, agar u biror narsada xato qilsa, sut ba`zan zararli bo'ladi. Tabobatni kamolga yetkazuvchilardan biri sut ichirish yo`lini bayon qildi. Bizning tuzatishimiz bilan uning aytganlari mana shu : tuqqaniga to`rt oy yoki besh oy bo'lgan ot saylab olinadi. Uni sog'ishdan avval xurmachani suv bilan yuvish kerak, agar xurmachaga ilgari sut sog'ilgan bo'lsa, uni issiq suv bilan yuvib ichiga yana issiq suv quyiladi va ichidagi narsalar suvga yorib chiqsin uchun qo`yib qo`yiladi. Keyin u yana issiq va sovuq suv bilan yuviladi. So`ngra xurmachani issiq suvga qo`yib, unga yarim sukurraja sut sog'iladi, kasallik bexavotir bo'lsa, birinchi kunda ichiladigai sut shu miqdorda bo'ladi. Aks holda mo`ljalga qarab keragicha ichiriladi. Ikkinchchi kuni shunga ikki qissa sutni o'shanday sog'ib ichiriladi, agar birinchi kunda ich to`xtalib qolsa, ikkinchi kuni ichiriladigan sutga bir oz shakar qo`shiladi. Uchinchi kuni esa birinchi kuni qilingani ichiladi. Uchinchi kuni ich yumshamasa, ayniqsa uchinchi kunning oxirigacha ham yumshamasa, ikki sukurraja sutni ikki dona hind tuzi va yarim dirhamdan bir yarim dirhamgacha kraxmal bilan qo'shib ichirish kerak. Doimo sutni har kuni yarim sukurraja dan orttirib boriladi. Oltinchi kunga borganda ham ich yumshamasa, uch sukurraja sutni olib unga shakar, tuz, bodom yog'i va kraxmal aralashtirasan. Ich uch martadan ortiq kelib tursa, bundan keyin sutga hech narsa qo'shma oz sutni kamaytir. Umuman, ich bir kecha kunduzda uch martadan ortiq va ikki martadan kam kelmasligi kerak. Agar bemor shu tadbir bilan foydalansa, sutni uch hafta ichir. Tabobatni kamolga yetkazuvchilardan birining aytishicha, ot yoki boshqa hayvonlarning sutini ichirishda ularni yog'och idishda saqlash yaxshiroq. Burishtirish va quritish bilan birga latiflashtirib tozalovchi o'tlar, masalan, "yorma" boshqa o'tlar, yana darmana qaysum, julah va maymunjon bor joylarda o'tlaydigan hayvonning suti eng yaxshi sutdir. Echki sutining yangi sog'ilganiga bir oz suv aralashtirib ichirish eng to'g'ri tadbirdir. Yetilib suv qismi

ketgunicha bir necha marta toshni qizdirib sutga tashlab olinsa, bu - olovda qaynatilganidan ko`ra yaxshiroq hazm bo`ladi. Tabiatni yumshatishni ham nazarda tutish kerak, lekin sutdan me`da buzilib, ich ketsa, sutga "er olati" qo`shish kerak yoki ko`p yo`talish paydo bo`lsa, sutga bir dirham vaznida katiro qo`shiladi. Me`da kuchsiz bo`lsa, sutga zira va qora zira qo`shiladi. Qaynatilgan sutni sil kasalligiga uchragan kishi singdira olsa, bu uning uchun yetarli ovqat bo`ladi. Sil kishi sut ichgandan keyin isitma chiqarsa, sutni to`xtatish kerak. Isitma o`rayganda va ich surganda ayronga ehtiyoj seziladi, bu juda foydali. Ayronning eng yaxshisi shu : qatiqning hamma yog'ini olgandan keyin, bir kecha havosi mo`tadil joyga qo`yiladi, keyin ertasiga bo`laklari bir-biriga yaxshi aralashgunicha qattiq chayqatiladi. Keyin oq toza bug'doy unidan qilib chaqich bilan chaqichlangan va forscha barozada deb ataladigan kulchalarni olib, uning o`n dirham vaznidagisiga ayrondan o`ttiz dirham vaznida quyib qatiq bilan beriladi. Ikkinchchi kuni ayrondan o`n dirham ko`paytirib nondan bir dirham vaznida kamaytiriladi. Ayronning yolg'iz o`zi qolgunicha, shunday qilib boriladi. Keyin kasallik pasaysa va sog'ayish belgilari yuz berib, ayronga ehtiyoj qolmasa, aksincha tadbir qo`llab, ayron doimo kamaytirilib, kulcha ko`paytiriladi, nihoyat sut va ayron to`xtatiladi. Agar ba`zi kasallarda me`da buzilib, ich ketish paydo bo`lsa, ayronga qizdirilgan temirni bir necha marta tashlab olishning zarari yo`q.

Ovqatlarga kelsak, ularni oq non, umoch oshi va qo`noq oshi kabi yopishtiruvchi narsalar bilan ovqatlantirish kerak. Guruch ham tozalaydi va et undiradi. Yaxshi qaynatilgan arpa oshi yopishtiruvchi va tozalovchi bo`lib, u isitma qattiqlashgan paytda ham foyda beradi, ayniqsa uni qo`l-oyoqlari yulinib, kul va suv bilan qayta-qayta yuvilgan qisqichbaqalar, xususan sovuqlik sabzavotlar hamda yasmiq bilan yeyish yaxshi. Yana kraxmal va bodring bilan tayyorlangan ovqatlar ham foyda qiladi. Qovun balg'am tashlashni osonlashtiradi. Isitma yengil bo`lsa, karam, morcho`ba va tozalovchi dorilardan ko`ra yaxshiroq davo yo`q. Ammo tuzli baliqni bir marta yoki ikki marta yeyilsa, tozalashga foyda qiladi, yara yomon sifatli bo`lsa, sho`r baliqdan va butun sho`r narsadan saqlanish kerak. Go`sht bilan ovqatlantirmoqchi bo`linsa, kaklik, tovuq, to`rg`ay va chumchuq go`shtlari kabi go`shtlarni berish kerak; ular yog'li

bo`lmasligi kerak. Quritishi va et undirishi kuchliroq bo`lishi uchun o`sha go`shtlarni qovurib yedirish yaxshiroq. Pochalar ham yopishqoqligi sababli foydalidir, kabob qilingan baliq ham shunday. Kasal sho`rva ichishni istasa, uni asal bilan aralashtirib berish kerak. Kasalning jigarida tiqilmalar bo`lmasa, uni ovqatdan oldin yoki keyin hammomga tushirish mumkin. Hammom ularni semirtiradi va kuchli qiladi. Ular ichadigan suv yomg`ir suvi bo`lishi kerak.

Sil kasalligiga uchrangan kishilarda, biz yuqorida aytganimizdek, ko`pincha qon tuflash paydo bo`ladi. Bunga qarshi ishlatiladigan yaxshi kulchalarning biri quyidagi tarkibdagisidir: muhr loyidan uch dirham, kraxmal, arman loyi va qizil gulning har biridan to`rt dirham, qahrabo va mirta donidan olti dirhamdan, kuydirilgan qisqichbaqa va semizo`tning har biridan o`n dirham, marjon, katiro, taboshir va shodananing har biridan besh dirham, dudiy yelimi va taka soqoldan yetti dirhamdan olinadi. Shularni bog` semizo`tining suvi yoki yangi guldan olingan suv bilan qorib kulcha tayyorlanadi va u tarrak suvi yoki yomg`ir suvi bilan ichiriladi. Ko`pincha sil kasalligiga uchrangan kishilarning tilchalari tushadi va shu sababli ularda xirillash va pishillash paydo bo`ladi, natijada ba`zan uni qirqishga ham to`g`ri keladi.

Mavzu savollari

- 1 O`pka xastaliklari turlarini so`zlab bering.
- 2.Zoturriya. Sababi, davolash usullari.
- 3.Zotiljam haqida tushuncha berish
- 4.Yo`tal ta`rif, sababi, davolash.
- 5.Qon tuflash.Sababi, davolash, qiyoslash haqida tushuncha bering.
- 6.Ko`krak va o`pka yaralari, o`pka sili haqida tushuncha berish.

5.2. § .Yurak qon-tomir sistemasi kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.

Yurak kasalliklarining belgilari

Tabiiy bo`lмаган мизојларинг далиллари ўрак касалликларини билдирувчи белгилардандир. Кучнинг заифлиги ва кетиш, сиртқи yoki dastlabki biror sababdan yoki boshqa a`zoning hamkorligidan bo`lмаган ozish ўрак мизојининг бузилганига belgi bo`ladi; agar shu holda

xafaqon ham paydo bo`lsa, belgi to`la-tekis bo`ladi, agar u hushdan ketishga borib taqalsa, mizoj buzilganligi kuchaygan bo`ladi.

Yurakda moddasiz sovuq yo issiq, yoki quruq, mizoj buzilishi kuchaysa, badan silliq va ozish yo`liga kiradi, buzilgan mizoj issiq bo`lsa, umuman ingichka og`riq kasaliga uchraydi, sovuq bo`lsa, ingichka og`riqning keksa va juda qarib zaiflashib ketgan kishilarda bo`ladigan bir turini keltirib chiqaradi, quruq bo`lsa, sil va ingichka og`riq kasalliklarini keltirib chiqaradi; bu sil o`pkadan bo`ladigan sildan boshqacha bo`ladi, chunki bunda o`pkaning o`zi zararlanmaydi, bunga yo`liqqan kishida yo`tal ham bo`lmaydi, issig`i yo`qligidan issiq ingichka og`riq kasalligidan ham boshqacha bo`ladi

Yurakdagagi buzilgan issiq mizojning belgisi: tomir urishining tezligi va ketma-ketligining tabiiylikdan ortib ketishi, nafasning odatdagidan ko`ra ko`proq tez va ketma-ket bo`lishi, sovuq havo bilan to`xtaydigan kuchli tashnalik, salqindan rohatlanish, boshqa biron sababsiz badanning umumiy ozishi va erishi, alanganish bilan birga bo`lgan g`amginlik va behuzurlikdir.

Buzilgan sovuq mizojning belgisi tomir urishining odatdagidan ko`ra kichikligi, sustligi va siyrakligidir; lekin quvvati tushib boshqa yo`l bilan qoplanmagan hojatni qoplash uchun ketma-ket nafas olishga majburiyat paydo bo`lsa, u belgi bo`lmaydi.

Yana nafas olishning kuchsizlanishi, quvvatning tarqalishi, isitadigan turli narsalarga tekkanda, ularni hidlaganda va tatiganda rohat topish; shuningdek cho`chiydigan bo`lishlik, qo`rkoqlig, haddan tashqari yumshoqlik va ko`ngilchanlik ham buzuq sovuq mizojning belgilaridandir.

Buzilgan ho`l mizojning belgisi tomir urishining odatdagidan ko`ra yumshoqligi, ruhga ta`sir qiluvchi narsalardan tez ta`sirlanish va ta`sirning tez ketishi, xiltlarning hidlanishidan bo`ladigan isitmalarining ko`p bo`lishidir.

Buzilgan quruq mizojning belgisi tomir urishining odatdagidan ko`ra quruqligi, ta`sirlanishning qiyinligi, ta`sirlanishning kuchli yoki kuchsiz bo`lsa ham uzoq vaqt qolishi va badanning ozishidir.

Yurakda bo`ladigan shishlarning belgilariga kelsak, ularning ba`zilari issiq shishlarning belgilaridan iborat, ularning boshlanish

paytida tomir urishida qiziq va odatdan tashqari notekislik yuz beradi, badanda, ayniqsa nafas a`zolariga beriladigan alanga zo'rayadi.

Nafas oluvchi kishi eng sovuq havoni burun orqali mumkin qadar ko`p tortsa ham, nafas olmayotgandek bo`ladi, so`ngra uning ketidan bir necha bor hushdan ketishlik yuz beradi.

Yurakdagi issiq shishlarning holatini aniqlashda boshqa shunga o`xshash kasalliklarda bo`ladigan tomir urishining qattiqligi kabi belgini kutish kerak emas. Chunki yurak shishi tomir urishining qattiqlashuvigacha borib yetmaydi, balki undan oldin oldiradi.

Yurakda uzlusizlikning buzilganligi esa sirtda bo`ladigan sabablar orqali bilinadi. Ba`zi tabiblarning aytishicha, yurakda yara paydo bo`lsa, kishi o`ladi, uning belgisi chap sut bezi tugmachasining og'rishidir.

Yurakka ta`sir ko`rsatadigan sabablar

Yurakka ta`sir ko`rsatuvchi sabablarning ba`zilari yurakka xos, ba`zilari esa turli mizojlarni, turli shishlarni paydo qiluvchi, uzlusizlikni buzuvchi va shularga o`xshash yurakka va boshqa a`zolarga umumiy bo`lgan sabablardir.

Ammo yana nafas olish jihatidan va turli hissiy kechinmalar jihatidan paydo bo`ladigan va faqat yurakka xos boshqa sabablar ham bor.

Nafas olishda nafas siqilsa yo juda issiq, yoki juda sovuq nafas olinsa, undan albatta yurakka zarar yetadi. Tug'ma issiqlikni ichga bo`g'ib qamashda yoki uni sirtga tarqatishda haddan tashqari ta`sir ko`rsatadigan har bir sabab hushdan ketkazishgacha, hatto halok qilishgacha olib boradi.

Shunday hissiy kechinmalardan biri bo`lgan g'azablanishning ta`siri hammasinikidan kamroq bo`ladi, chunki g'azablanishning halok qilishgacha olib borishi kam uchraydi.

Uyqusizlik va haddan tashqari ko`p badantarbiya va shularga o`xshashlar rujni tarqatishi sababli yurakni kuchsiz qiladi.

Yurakni davolashning umumiy qoidalari

Ammo bu yerda faqat tib kitoblarida aytilishi kerak bo`lgan qoidalarga amal qilib o'tamiz: yurak boshqaruvchi a`zo va hamma boshqaruvchi a`zolarning eng birinchisi va eng muhim bo`lgani uchun uni dorilar bilan davolashdagi dadillik, yurak xiltini bo'shatmoqchi

bo`lsak ham yoki mizojini almashtirmoqchi bo`lsak ham ehtiyyotlik bilan ish olib borish kerak.

Tomirlardan qon olib bo'shatishga kelsak, biz u bilan davolashga kirishganimizda tozalovchi boshqa tadbirlar bilan qo'shib qilishga ehtiyoj sezmaymiz, balki bizga ko'proq lozim bo`ladigan narsa unday bo'shatishni haddan tashqari qo'llab, kasalning quvvatini tushirib yubormaslik va agar quvvat ozgina susayib yurakning sovuq yoki issiq mizozi sababli kuchsizlanganda uni ko'taruvchi narsalar bilan kuchaytirish lozimdir.

Bu faqatgina qon olishgagina tegishli emas, balki qon olishda garchi qattiqroq ehtiyyot qilinsa ham, boshqa hamma bo'shatish tadbirlariga ham tegishlidir.

Qon olishdan boshqa tadbirlarni ishlatishga ehtiyoj qolmasligining sababi qon olishning yurakka borib to'shadigan dori bilan bo'lmasligidadir; shu bilan birga yurakda bo`ladigan toliqishlarning ko'pi qon va bug'dan bo'lib, tomirdan qon olish har ikkalasining ham zararini qaytaradi.

Agar to'liqlik qondan bo`lsa, o'ng bosliqdan, bug'dan bo`lsa, so'l boslikdan qon olinadi.

Dorilar bilan bo`ladigan bo'shatishlarga kelsak, bunda yuqorida aytilgan tadbirga boshqa tadbirlarni ham qo'shish kerak, chunki bo'shatuvchi dorilarning ko'pi badanga qarama-qarshi bo`lganidan, ularni yurak dorilari bilan birgalashtirish kerak, yurak dorilari esa o'z xossalari bilan yurakka quvvat beradigan dorillardir.

Yurak xiltini bo'shatishda ishlatiladigan dorilarga yurakka munosib bo`lgan taryoqlik va bodzahrlik dorilar aralashtiriladi. O'sha dorilarning ko'pi, hatto juda ko'pchiligi, boshqa tomondan ham foyda yetkazadi: ular bo'shatuvchi dorilarni yurakka o'tkazadi va yurakdan boshqaga o'tishdan qaytaradi.

Yurak mizojini almashtirishda sovuq, yo issiq, yo ho'l, yoki quruq mizoja almashtirish tadbiri ishlatiladi. Sovuq mizojni almashtirmoqchi bo`lsak, issiqlik dorilarni yurak issiqlik dorilari bilan aralashtirib ishlatamiz; shu bilan birga shu dorilarning yurak xiltini qattiq qo'zgatib yubormasligi ko'zda tutiladi, aks holda xilt yurak tanasini yel yoki shish paydo qiluvchi modda va boshqa narsalar bilan tortishtiradi.

Issiq mizojni almashtirmoqchi bo`lsak, sovutuvchi dorilarni ishlatish bilan chegaralanmaymiz. Chunki yurakning yaratilishiga sabab bo`lgan modda, ya`ni yurakka quyiladigan ruh moddasi issiq modda bo`lib, uning issiqligi badanga zararli haroratdan boshqa bo`lgan tug`ma haroratdir.

Yurak mizojining issiqda aynib buzilishi sababli shu ruh moddasida kamayish, tarqalish, tutunsimon bo`lish va xiralanish paydo bo`ladi; shu paytda yurak tanasiga o`zining issiqligi bilan, to`g`rirog`i issiqlik birgalashib keluvchi alohida xususiyati bilan tug`ma issiqliknari kuchaytiruvchi issiq dorilar bilan aralashmagan biror so`ndiruvchi dori borib tushaversa, u tarmoq, ya`ni yurak tanasiga foyda qilsa ham aslga, ya`ni ruhga zarar qilishi mumkin.

Yurak tanasining issig`ini mo`tadillashtirish bilan birga ruhning issiqligi zararlansa, uning foydasi nima bo`lar edik shuning uchun qadimgi olimlarning ichida yurakning buzilgan issiq mizofiga va u mizoj sababli paydo bo`ladigan kasalliklarga davo ishlatishda sovuqlik dorilarni issiqlik dorilarga aralashtirmasdan ishlatganlari uchramaydi.

Chunki ular, faqat kuchli bo`lsa, sovituvchini isituvchidan ajratib sovituvchi dorilarni yurakka, isituvchilarni esa ruhga yetkazishiga va natijada, yurakning harorati mo`tadil bo`lib ruhning harorati oshishiga ishonganlar.

Ular govvabon kabi o`z xossasi bilan ruhni kuchaytiradigan va mo`tadil yoki mo`tadillikka yaqin dorini uchratganlarida undan ko`p foydalanganlar; ammo tabiat kuchsiz bo`lsa, hech bir tadbir foyda qilmaydi.

Goho qadimgi tabiblar sovuqlik yurak dorilari moddasining og`irligi, singishining kamligi, tabiatning singishga emas, to`xtab qolishga moyillagini bilganliklaridan yurak issiqlik dorilarini ishlatishga muhtoj bo`lganlar, ularni birgalashtirib olib o`tadigan yurak issiqlik dorilari bilan aralashtirib ishlatganlar, shunda ular tabiatning sovituvchi dorilarni yurakka yetkazishiga yordamlashadi.

Masalan, ular za`faronni kofur kulchalarining hamma tarkiblariga aralashtiradilar, shunda boshqa qo'shimchalarni za`faron yurakka o'tkazadi.

So`ngra tabiiy kuch za'faronni yurakdan qaytarib, ruh bilan mashg'ul qiladi; sovutuvchilardan esa yurak mizojini mo`tadil qilish uchun foydalaniladi.

Bunday qilish nuqul sovutuvchi dorilarni ishlatib, keyin ularning yo'l boshida to'xtab qolib o'ta olmay turishlaridan ko'ra foydaliroqdir. O'zi bilmasdan, qadimgilarning xatosini tuzataman deb, kofur kulchalariga za'faronni qo'shmaydigan tabiblar kofur kulchalarining foydasini kamaytirib qo'yadilar.

Yurak issiq mizojiga qarshi ho'l mevalarning qaynatib quyultirilgan shiralarini, ayniqlsa shom olmasining va behining suvini ichirish bilan ham davo qiladi; ular juda yaxshi davo hamda yurakni kuchaytiruvchilarga qo'shiladigan so'ndiruvchi suyuq va quyuq surtma dorilar bilan davo qilinadi. Agar mizoj buzilishining sababi modda bo`lsa, bo'shatiladi.

Ma`jun dorilar bilan, rayhoniy sharob, mo`tadil badantarbiyalar, yurakka ishlatiladigan issiqlik, xushbo'y quyuq va suyuq surtma dorilar bilan va hazm bo`ladigan miqdordagi issiqlik ovqatlar bilan davolanadi. Mizoj buzilishining sababi modda bo`lsa, bo'shatiladi.

Yurakning buzilgan quruq mizojini ho'llovchi ovqatni ko`p yedirish, so`ngra hammomga tushirish, vanna qabul qildirish, dam olish kam harakat qilish, tinch kuyish va sovuq suv ichirish bilan davolash kerak.

Buzilgan mizojda sovuqlik bo`lsa, juda sovuq, bo`lgan suvdan saqlaniladi; ovqat va ichimliklar mo`tadil miqdorda beriladi, issiq ovqatdan keyin ko`pgina uxlatiladi. Sabab modda bo`lsa, uni bo'shatiladi.

Yurakning buzilgan ho'l mizojini esa yengil ovqat kirituvchi dorilarni ishlatish, mo`tadil badantarbiyalarni ketma-ket va ko`p qilish bilan davolanadi; modda sabab bo`lsa, uni bo'shatiladi; ko`pincha ovqatdan ilgari badantarbiya qildiriladi, hammomga va issiq buloq suvlariga tushiriladi, issiq suvga ko`p tushib turiladi, surgi dorilar, siydikni haydovchi dorilar iste`mol qilinadi, kuchli va rayhoniy xushbo'y sharobdan oz-oz iste`mol qilib turiladi va yaxshi kaymusli ovqatlardan ko`p emas, oz miqdorda iste`mol qildiriladi.

Agar u mizoji issiq bo`lsa, hammomdan saqlaniladi, jinsiy aloqani cheklanilmaydi. Mizoj buzilishining sababi ho'l yoki issiq modda bo`lsa, uni bo'shatiladi.

Yurakka ishlatiladigan dorilar. Yurakka ishlatiladigan dorilarni to`lato`kis qilib oddiy dorilar lavhalarining "Nafas a`zolari" lavhasidan terib olish kerak.

Oddiy dorilarning mo'tadillikka yaqinlari yoqo't, qora marjon va feruza, oltin, kumush va gavzabondir. Ularning issiqlari esa dorunak, parpi, mushk, anbar, yovvoyi zanjabil, ipak va za`farondir; ikkala xil baxman tez foyda qiladi, karanful esa juda ajoyib dori.

Bunday dorilardan yana limon, rayhon va uning urug'i hamda tog' rayhoni va uning urug'i, shohi isfaram rayhoni va uning urug'i, kelindona, tuklik rayhon va uning urug'i, sitron yaprog'i, hind sodajini ko'rsatish mumkin. Qora andiz ham ajoyib dorilardandir.

Sovuq dorilar esa marvarid, qahrabo, marjon, kofur, sandal, qizilgul, taboshir, muhr loyi, olma, quruq va ho'l kashnichdir.

Ibn Sino ta`limotiga asosan yurak kasalliklarining klassifikasiyasi:

I. Yurakning sodda kasalliklari:

1) yurakning mizoj buzilish kasalliklari

A) Yurakning moddasiz mizoj buzilish kasalliklari (NSD, kardionevroz)

B) Yurakning moddali mizoj buzilish kasalliklari (gipertoniya, gipotoniya)

2) Tarkib kasalliklari:

A) yurakning hajm buzilish kasalliklari

-yurakning kattalashishi bilan kechadigan kasalliklar (dilyatatsion kardiomiopatiyalar, yurak qorinchalarining giperstrofiyasi bilan kechadigan kasalliklar, yurak anevrizmalari).

-yurakning kichiklashishi bilan kechadigan kasalliklar (tizimli kasalliklardagi chandiqli o'zgarishlar).

B) Yurakning tuzilish kasalliklari:

- oqim yo'llari kasalliklari (yurak - qon tomirlarining kengayishi yoki torayishi, ateroskleroz kasalligi)

V) yurakning son- dad yoki miqdor kasalliklari

- yurakning turli xildagi tug'ma nuqsonlari
- 3)Yurak uzluksizligining buzilish kasalliklari
- infarktdan keyingi kardioskleroz
- yurak tamponadalari
- yurak travmalari

II. Yurakning murakkab kasalliklari:

- yurak yetishmovchiligi, yurak astmasi, o'pka shishi
- perikarditlar
- infekzion endokardit va miokardit
- orttirilgan yurak nuqsonlari
- to'satdan koronar o'lim
- stenokardiya
- miokard infarkti
- yurak aritmiyalari

Yurak ahvolini bildiruvchi dalillar

- 1.Tomir urishi- Puls (nabz)
- 2.Nafas olish harakati
- 3.Ko`krak qafasining tuzilishi
- 4.Ko`krakdagi mo`ylar
- 5.Terini ushlab ko`rgandagi holati, badanning holati
- 6.Inson xulqi
- 7.Turli xayollar
- 8.Badanning kuchli yoki kuchsizligi

Tomir urishi

- Puls tez va ketma-ket bo`lsa - yurak mizozi issiqligini, uning aksi esa yurak mizozi sovuqligini bildiradi.
- Puls yumshoq bo`lsa - yurak rutubatli bo`ladi
- Puls qattiq bo`lsa - yurak quruq bo`ladi
- Puls kuchli, tekis, tartibli bo`lsa - yurak sog'lom bo`ladi
- Puls kuchsiz, notekis bo`lsa - yurak nosog'lom bo`ladi.

Nafas olish issiq bo`lsa, yurak mizozi issiq, sovuq bo`lsa mizozi sovuq bo`ladi.

Ko`krak qafasi keng, bosh kichik yoki o`rtacha bo`lsa puls kuchli bo`lsa, yurakning mizozi issiq bo`ladi. Ko`krak qafasi keng bo`lib, bosh kichik bo`lmasdan, puls kuchsiz bo`lsa, yurakning mizozi sovuq

bo`ladi. Ko`krak qafasida mo`ylar asosan jingalak bo`lsa, yurak mizoji issiq, mo`ysiz yoki kam bo`lsa, yurakning mizoji sovuq bo`ladi.

Butun badan issiq bo`lsa, yurak mizoji issiq, sovuq bo`lsa yurak mizoji sovuq
bo`ladi.

Badan qattiq bo`lsa, yurak mizoji quruq, yumshoq bo`lsa yurak mizoji rutubatli bo`ladi.

-tabiiy g'azablanish, botirlik, jasurlik va yengil harakat qilish yurak mizojini

issiqligini bildiradi

- uning aksi yurak mizoji sovuqligini bildiradi.

- badan kuchli bo`lsa yurak kuchli, sog'lomligini (tabiiy mizoj mo`tadilligini)

bildiradi.

- badan kuchsiz bo`lsa yurak kuchsiz va nosog'lomligini (mizoj buzilganini) bildiradi.

Turli xayollar: shodlik, yaxshi umidga moyillik, yurak mizojini issiq va rutubatliligini; qo`rqish, g'amg'inlikka moyillik yurak mizojining sovuq va quruqligini bildiradi.

Yurakning tabiiy mizoj belgilari:

-ko`krak qafasi keng, puls tabiiy katta va tez, kuchli bo`lsa yurak tabiiy issiq

mizojli bo`ladi.

-ko`krak qafasi tor, puls tabiiy kichik, siyrak va sust bo`lsa, yurak tabiiy sovuq

mizojli bo`ladi.

-Puls yumshoq , tez ta`sirlanish, terining ho`lligi, yurakning ho`l mizojliligini bildiradi.

-Puls qattiq bo`lsa, kechikib ta`sirlanish, terining quruqligi, yurak mizoji

quruqligini bildiradi.

Yurak kasalliklarining asosiy klinik belgilari:

Buzilgan issiq mizoj belgisi: puls tez, nafas odatdagidan ko`proq, kuchli tashnalik, umumiy ozish, behuzurlik, g'amginlik kuzatiladi.

Buzilgan sovuq mizoj belgisi: puls odatdagidan kichik, sust, siyrak, nafas olish kuchsiz, cho`chish, qo`r quoqlik kuzatiladi.

Buzilgan ho`l mizoj belgisi: puls odatdagidan ko`ra yumshoq, tez ta`sirlanish, xiltlardan bo`ladigan isitmalar kuzatiladi.

Buzilgan quruq mizoj belgilari: puls odatdagidan ko`ra qattiqroq, kech ta`sirlanish, badan ozishi yuzaga keladi.

Yurak kasalliklarini davolashning umumiy qoidalari:

- Mizoj buzilishi sababi moddadani bo`lsa, badanni bo`shatish kerak:

1) tomirdan qon olish kerak

2) dorilar bilan (taryoq va bodzahrlar) yurak xiltini bo`shatish

3) yurak mizojini almashtirish

- Yurakni dorilar bilan giyohlar bilan davolash

Yurakning buzilgan issiq mizojiga qarshi:

shom olmasi yoki behi suvini ichirish

asl ho`l mevalarni qaynatib quyultirilganining shirasidan berish tavsiya

etiladi.

Yurakning buzilgan sovuq mizojiga qarshi:

katta ma`jun dorilar, rayhoniy sharob, xushbo`y quyuq va suyuq surtma dorilar berish uchun tavsiya etiladi.

Buzilgan quruq mizojda:

Ho`llovchi ovqat ko`proq yedirish,

Hammomga tushirish, sovuq suv ichirish, dam olish, kam harakat qilish, issiq ovqatdan keyin ko`p uxlatish tavsiya etiladi.

Buzilgan ho`l mizojda:

yengil ovqatlar buyurish, qurituvchi dorilar berish mo`tadil badanttarbiya,

Hammomga tushish, xushbo`y sharobdan oz-oz iste`mol qilish tavsiya etiladi.

Yurakka ishlatalidigan dorilar:

Mo`tadillikka yaqin dorilar: yoko`t, qora marjon, feruza, oltin, kumush, gavzabon

Issiq dorilardan: dorunak, parpi, mushk anbar, yovvoyi gavzabon, ipak va

za`faron, limon, rayhon, tog' rayhoni, shoh isfaron rayhoni, kelindona,

sitron, hind sodajini, qora andizdan tayyorlangan dorilar buyuriladi.

Sovuq dorilardan: marvarid, kahrabo, marjon, kofur, sandal, qizil gul, taboshir, olma, quruq va ho`l kashnichlar buyuriladi.

Yurak kasalliklari

Yurak kasalliklari: yurakda har xil mizoj buzilish kasalliklari bor. Mizoj buzilish kasalliklari: moddali va moddasiz bo`ladi.

Modda esa, ayniqsa rutubat yurakning tomirlarida va uning tanasi bilan g'ilofi orasida bo`ladi. Rutubat ko`payganda yurakni siqadi va erkin harakat qilishga yo`l qo`ymaydi. Bundan tashqari yurakda shishlar, tiqilmalar, vaziyat kasalliklari, uzlusizlikning buzilish kasalliklari mavjud.

2 xil shishlar bo`ladi: issiq va sovuq.

Issiq shishlar yurakda bo`ladi, sovuq shishlar esa yurak g'ilofida bo`ladi. Yurakdagи issiq shishlar bemorni tez o`limga olib keladi. Yurak tomirlarida esa tiqilmalar paydo bo`ladi. Tiqilmalar natijasida yurakda har xil kasalliklar paydo bo`ladi. Masalan: stenokardiya, miokard infarkti, ateroskleroz, kardioskleroz kasalliklari.

Uzlusizlikning buzilishiga kelsak, bu ham yurak tanasida paydo bo`ladi, bu kasallik shishdan ham og'irroq kechadi. Boshqa hamkor a`zo kasalliklari ham mavjud. Masalan, qon-tomirlar kasalliklari natijasida dilyatatsion kardiomiopatiyalar, zotiljam, o`tkir nafas yetishmovchiligidagi jigar, taloq, buyrak kasalliklari yurakning har xil xastaliklarini keltirib chiqaradi.

Xafaqon xastaligi , uni tashhislash va davolash

Xafaqon - yurakka aziyat beruvchi -yurakning o'zida, yoki uning g'ilofida yo yurakka u bilan yonma-yon turgan va hamkor a`zolardan keladigan - har bir narsa sababli yurakda paydo bo`ladigan uchganga o'xshash bir harakatdir.

Xafaqon goho moddadon, goho moddasiz (sodda) mizojdan, goho shishdan, goho uzlusizlikning buzilishidan, ba`zan esa chetki biror bir sababdan va qattiq hisdan (qo'rqishdan) paydo bo`ladi.

Xiltli modda qondan, rutubatdan, savdodan, safrodan va yeldan iborat bo`ladi.

-moddasiz sodda mizojdan bo`ladigan xafaqonda harbir kuchaygan mizoj yurakda kuchsizlikni keltirib chiqaradi. Kuchsizlik - yurak quvvatining qoldig'i bo`lsa, iztirob paydo qiladi – go'yo yurak o'zidan zararni haydamoqchi bo`ladi va natijada xafaqon paydo bo`ladi. Xafaqon haddan tashqari kuchli bo`lsa, hushdan ketishga o'tadi, behushlik haddan tashqari bo`lsa halok qiladi. Ba`zan har bir buzilgan sodda mizoj ham xafaqon paydo qilaveradi.

Issiq shish xafaqon paydo qiladi, keyin behushlikni keltiradi, so'ng halok qiladi. Sovuq shish ham issiq shishga yaqin ba`zan halokatni bir oz kechiktiradi.

Uzluksizlikning buzilishi ham qon va ruhning yurakka boradigan yo'llarida, yurakning yonverida va o'pka bo'laklari hisoblangan, qattiq tomirlarda yuzaga keladigan tiqilmalar ham shunday holatga olib keladi.

Chetki sababdan bo`ladigan xafaqonning misoli tinkani quritadigan og'riqlar, yurakka yondosh shishlar moddasining yurakka ko'chishi va zahar ichishdan paydo bo`ladiganidir; yana jonivorlarning chaqishlaridan paydo bo`ladigan, ichda bo`ladigan gijjalardan ayniqsa, ular ovqat va axlat to'xtaydigan joylarning teppalariga chiqqan vaqtida paydo bo`ladiganidir.

Yurak sezgisining nozikligidan bo`ladigan xafaqonga kelsak, yurak uning g'ilofi o'rtasidagi bo'shliqda, yo g'ilof jismida yoki uning tomirlaridan paydo bo`ladigan ozgina yeldan, yurakka borib taqaladigan ozgina sovuq yo issiq kayfiyatdan hatto yurak ishlarini kuchsizlantirmasa ham suv ichishdan keyin paydo bo`ladi.

Hamkorlik sababli bo`ladigani esa, yo isitmalarida, ayniqsa vabo isitmalarida bo`lgani kabi butun badan hamkorligi bilan bo`ladi. Yurak g'ilofida bo'sh yo qattiq shish paydo bo`lsa, yurak g'ilofining hamkorligi bilan bo`ladi yoki me`daning hamkorligi bilan bo`ladi: me`da og'zida yopishqoq, shishasimon xilt yoki achishtiruvchi safro bo`lsa yoki me`dada ovqat buzilib qolsa, goho me`dadagi xilt yo uning og'zidagi toshma yaralar yoki qattiq quisishdan keyin bo`ladigan bo'shashuv sababli me`da hamkorligi bilan xafaqon zo'rayadi, hatto shu hamkorlik xafaqoni bilan yurakning o'zidagi sabab bilan bo`ladigan xafaqonni ajratib bo`lmaydi. Ba`zan me`da og'zida ketma-ket o'chish bo`ladi. Bu yurak xafaqoniga juda o'xshaydi.

Gohida o'pkaning yurakka yondosh tomonida tiqilmalar ko`payib nafas keragicha o'ta olmagach, o'pkaning hamkorligi bilan xafaqon paydo bo`ladi; bu xafaqon omon qo'y maydigan nafas siqilishidan darak beradi. Goho buxron sababli va buxron paytida xiltlarda paydo bo`ladigan harakatlar sababli xafaqon paydo bo`ladi. Kishi biror kasallikdan keyin xafaqondan shikoyat qilsa, u kishida o'qchish va ko`plab safro tashlab, ko`ngil aynishi bosilmasa, bu yomon va me`da tirishuvidan dalildir.

Belgilar

Xafaqonning hamma turlariga kattalik, kichiklik, tezlik, sustlik, siyrak va ketma-ketlikda chegaradan o'tgan notekis tomir urushi belgi bo`ladi. Bu tomir urushi ko`pincha harsillash kasalligiga uchragan kishilarning tomir urishiga o'xshaydi

Rutubatdan	(bo`lgan) tomir urishining yumshoqligi, kishining o'z yuragini rutubat ichida to'lganayotganday sezishidan dalolat qiladi.
Qondan.	harorat va alangalanish belgilari, tomir urishining xafaqon bo`lmagan vaqtida ham tezligi va kattaligi dalil bo`ladi.
Safrodan	Bu kam uchraydi, tomir urishining qattiqligi va kuchli alanga dalil bo`ladi.
Savdodan	G'amginlik, qo'rqish, tomir urushining qattiqligi kuzatiladi.
Oddiy yeldan (moddasiz)	Xafaqon tez tarqalishi, yengil o'tib ketish, tomir urishi kam, notekis bo`ladi
Yurakdag shishdan	Issiq va sovuq shishlarning belgilari dalil bo`ladi.
Uzluksizlikning buzilishi	Sababi dalil bo`ladi.
Zaharlar va jonivorlar chaqishidan	O'sha narsalarning sababi dalil bo`ladi
Gijjalardan	So'lak oqishi, me`da og'zining to'satdan sanchilganday og'rishi.
Moddasiz	Yurakning rutubat ichida tipirchilashi

Issiq mizojdan	sezilmay turib qattiq alanganish, xafaqon qo'zg'almagan paytda ham tomir urishining tez va ketma-ketligi, moddasiz qizdiruvchi sabablar ortidan, hamda ingichka og'riq va shunga o'xshash kasalliklar vaqtida paydo bo'lishi dalil bo'ladi.
Moddasiz sovuq mizojdan	Uning sabablari, ya`ni tug'ma issiqlikni so'ndiruvchi bo'shatishlar,sovutuvchi kasalliklar, havo va boshqalar, xafaqon bo'limgan paytda tomir urishining sust va siyrak bo'lishi belgi bo'ladi.
Tiqilmalardan	To'liqlik belgilari bo'lmaslik bilan birga tomir urishining kichiklik, kattalik, kuchsizlik va kuchlilikda notejis bo'lishi dalolat qiladi
Yurak sezgisining nozikligidan	Tomir urishining kuchliligi va kattaligi, nafasning sog'ligi va boshqa a'zolar sog'lomligidan bilinadi.
Butun badan isitma	Buxrondan bo`ladigan xafaqon kabi ma'lumdir.
Me`da hamkorligi	Me`da ahvolining belgilari, ishtaha, me`dadan tashlanuvchi narsalar, turli xayollar, ko`ngil aynishi, ich og'riqlari, qorin bo'sh paytida xafaqonning yengillashishi-lekin qorin bo'sh paytida me`da og'ziga quyildigan safro sababli yengillanmaydi, va ovqat hazm bo'layotgan paytda uning qattiqlashuvi dalil bo'ladi.
O'pkaning hamkorligi	Kishi harsillashga uchraydi, u kishida o'pkaning rutubatli ekani va o'z joyida bayon qilingan o'pka yo'llarining to'silganiga dalolat qiladigan belgilar mavjud bo'ladi

Xafaqon xastaligini umumiyl davolash.

Turli bo'shatishlar moddadan bo`ladigan hamma xafaqonga ham foyda qiladi. Qondan bo`lganida tomirdan ko`p qon chiqariladi, ovqat sifati va miqdori mo`tadil qilinadi. Xafaqonni oldini olish uchun (tutishidan oldin) bahor faslida burun tomiridan qon oldirish, yengil ovqat yeb turish va yurakni kuchaytiradigan dorilar iste`mol qilish kerak.

Xafaqon balg'am xiltidan bo`lsa, ta`sirini yurakka boradigan dorilar bilan bo'shatish kerak (katta iyorajlar bilan). Agar xafaqonga savdo

aralashgan qon bo`lsa, tomirdan qon olinadi va savdo bo`g'ilmaslik uchun jigar mo`tadil qilinadi. Agar faqat savdo xiltidan bo`lsa, Rufus iyoraji, lugoziyo va uzoq joydan savdo xiltini tortib bo'shatadigan hamma dorilar unga iloj bo`ladi; undan keyin mizojni mo`tadil qilishga kirishiladi.

Sovuq xafaqonni isituvchi dorilar bilan, issiq xafaqonni sovituvchilar bilan ayniqsa, yurakka ishlatiladiganlari bilan davolash lozim.

Me`da hamkorligi bilan bo`lgan xafaqonni agar u quyuq xiltdan bo`lsa, ovqatdan keyin turp suvi va sikanjubin kabi latiflashtiruvchilarni ishlatib qustirish kerak, keyin iyorajlar, masalan: lugoziyo va tiyodaritus iyorajlari bilan shuningdek: Abu Jahl tarvuzining eti, daraxt po'kagi va devpechak qo'shib kuchaytirilgan iyoraj fikro bilan surgi qilinadi.

Xafaqon achishtiruvchi safro sababli paydo bo`lsa, u me`dani kuchaytirish bilan davolanadi, me`dani esa mevalarni qaynatib quyultirilgan shiralari, xushbo'y mevalar, masalan: olma, behi, ovqat yegandan so'ng nok va boshqalar bilan kuchaytiriladi. Ich yumshatiladi va o't xiltiga aylanadigan narsalardan saqlaniladi. Me`daning mizojini mo`tadil qilish tadbiri ishlatiladi. Xafaqon vaqtida bir qancha vaqt ketma-ket kechalari uplash oldidan bir misqol vaznda govzabon ichish zo'r foydali. Xafaqonda bir novvot kattaligi va og'irligidagi erkak qaramfilni 12 misqol yangi sog'ilgan sut bilan nahorda ichish, agar issiq bor bo`lsa, bu bir misqol marzanjushni sovuq suv bilan, issiq bo'lmasa sharob bilan ketma-ket bir necha kun ichish ham sinalgan tadbirdandir.

Xafaqon bo`lgan kishi yoqimli, xushbo'y narsalarni o'zi bilan olib yurishi kerak. Issiq xafaqonli kishi o'sha narsalarga gul, kofur, sandal va sovuqlik yog'larni ko`proq qo'shadi. Mushk, qaramfil va za`farondan bir oz aralashtiriladi. Kishining mizoji sovuq bo`lsa mushk, anbar, bon yogi, tsitron yogi, kofur suvi, goliya va boshqalar foydalidir.

Ko`ngil aynish bilan birga bo`ladigan xafaqonga agar isitmaning qoldig'i bo`lsa, arpaning issiq suv bilan yuvilib keyin sovutilgan talqoni o'n dirham vazndagi shakar bilan ichiriladi. Bu qustirsa ham foyda qiladi. Shakar o'rniga anor doni ishlatish mumkin. Kasalning ikkala pochchasi boglanadi, kofur sirka bilan kushib hidlatiladi, uning ko'kragiga 2 xil sandal, kofur va shunga o'xshashlarning suvi bilan

ho'llangan lattalar yopiladi. Ko`pincha xafaqon qo'zg'alib, keyin kishining ichida bir narsa o'ng va chap tomondan quyiga qarab yo'nalganday bo'ladi va xafaqon to'xtaydi.

Issiq xafaqonni davolash

Agar bu xafaqon moddali bo`lib moddani bo'shatsang, lekin uning ta`siri qolgan bo`lsa, yoki issiq xafaqon moddasiz bo`lsa, unday kishiga oz va foydali ovqat berish kerak. Masalan: ozgina rayhoniyl sharob qo'shilgan gul suvida ivitilgan non, olma sharbat, olma sho'rvasi va yangi tayyorlangan ayron ham beriladi. Qovoq, yaman boqilasi va sovuqlik mevalar beriladi. Jo'ja go'shti, kaklik go'shtidan qilingan karis va ullom deb ataladigan ovqatlar beriladi. Shularga uzum go'rasi va nordon olma suvi bilan o'tkir sirka tayyorlab ustiga gul suvi va tol suvi sepib beriladi. Limon suvi ham yaxshi foydali. Kasallik kuchayib alangalanish zo'raysa, sovuq suv va gul suvi aralashtirilgan kor suvini birin ketin ichiriladi. Ketidan meva sharbatlari, djem olmasi sharbatni ichiriladi. Shu narsalardan kofurni eritish kerak bo`lsa eritiladi. Ba`zan bir ritldan ikki ritlgacha miqdorda qattiq ichirishga to'g'ri keladi. Gohida issiq xafaqonni Xitoy rovochidan 1 dirhamni sovuq suv bilan aralashtirib bir necha kun davomida ichish foydali. Havoni sovitish kerak. Kofur va sandaldan tayyorlangan sepiladigan dorilar sepiladi.

Havoni tez-tez almashtirib turish zarur. Yurakka sandal, gul suvi, temirchilar suvi, kofur, gul, taboshir va yasmiqdan tayyorlangan sovutuvchi quyuq surtma dorilarni qo'yishdan beparvo bo'lmaslik kerak, u dori isitmalarida yurakka qo'yib bog'lanadi. Foydali bo`lgan murakkab dorilardan kofur kulchalar za`faron yaprog'i solingan sitron sharobi bilan ichiriladi. Yana shirin mushk dorisi, ko`ngilni xursand qiluvchi sovuqlik dori ichiriladi. Issig'i qattiq bo'lmanan xafaqonda 2 bo'lak taboshir, hind udi va olila shirasining har biridan bir dirham, xilva qaramfilning har biridan 1 dirham, kofurdan 1 dirham va katirodan 3 dirham olib yantoq shakar suvi bilan kulcha qilinadi. Har bir kulcha yarim dirham vaznda bo'ladi. Issiqni tushirishda kuchliroq dori: koxu urug'i, sachratki urugi, taboshir, gul, sandal, semizo't urug'i, govzabon, quruq kashnich, marjon, kahrabo, marvarid - shularning har biridan

davolovchining fikriga muvofiq olib 2 dirham vaznli elaki qilib ishlatiladi va bu juda foydalidir.

Sovuq xafaqonni davolash

Balg'am moddali ho'l xafaqonga qarshi xoh u yurak tomonida bo'lsin, xoh me'da tomonida bo'lsin, ishlatib sinalgan xab dorining tarkibi: daraxt po'kagidan yarim dirham Abu Jahl tarvuzining etidan 1 danak, turbo'tdan 1 dirham, mukldan 1 danak, mugik va za'faronning har biridan 1 tasuj, hind udidan 1 danak, hind tuzidan 4 \1 dirham olinadi. Shu tarkib 1 marta ichish miqdoridir. Savdodan bo`lgan xafaqonda sinalgan dorining tarkibi: qora xalila va kobil xalilasining har biridan 1 dirham, yarim dirham devpechak, 4\1 dirham arman toshi, 3 dirham achchiq mushk toshi dorisi olib shu tarkibni ivita oladigan miqdordagi rayhon sharobi bilan qo'shib ichiriladi. Ba`zan 1 misqol vaznda iyoraj fikroni 1 danak vaznidagi devpechak bilan qo'shib ancha vaqtgacha uzmay sikanjubin bilan iste`mol ettirib turiladi.

Yurak mizojini almashtiruvchi dorilarga taryok, mitridat, shirin va achchiq mushk dorisi, qaysar va shaliso dorisi, ud va anbar juvorishni ko`ngilni xursand qiluvchi (katta) dorilar "najot ma`juni" va mushk kulchalari misol bo`ladi. Sovuqlik kuchaysa ankarbiyo kabi dori ichishga to'gri keladi. Goho sovuq xafaqonda kaftargondi 1 no'xat miqdorini govvabon ivitilgan 30 misqol tilo sharobi bilan iste`mol qilish ham foyda qiladi. No'xat suvi, kaftar bolasi, chumchuq to'rg'aylarining go'shtlari bilan ovqatlantiriladi. Boshqa murakkab dorilardan biri: govvabondan 1 dirham, yovvoyi zanjabil va dorunakning har biridan 1 dirham olinadi. Shu tarkibdan ichish oyning avvali, o'rasisi va oxiri 1 dirhamdir, uni rayhon sharobiga solib ichish kerak.

Mavzu savollari

- 1.Yurak xastaliklari tasnifi haqida tushincha berish
- 2.Yurak axvolini bildiradigan dalillar.
- 3.Yurakning tabiiy mizoj belgilari.
4. Yurakning buzilgan mizoj belgilari haqida tushincha berish.
- 5.Xafaqon kasalligi kelib chiqish sabablari.
- 6.Issiq xafaqonni davolash haqida tushincha berish.
- 7.Sovuq xafaqonni davolash haqida tushincha berish.

VI BOB. QORIN BO'SHLIG'I A'ZOLARI KASALLIKLARI

6.1.§. Me`da kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davalash

Me`da ahvolini bildiradigan dalillar

Me`da ahvoli quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: me`da ko`tara oladigan va ko`tarolmaydigan ovqatdan, me`daning ovqatni singdirishidan yoki haydashidan, ovqatga va ichimlikka bo`lgan ishtahasidan, uning harakatlaridan, me`da xafaqonni va hiqqichoq kabi betoqatligidan; og'izdagи maza hamda uning ho'lligi va quruqligi, dag'alligi va silliqligi hamda hididan, qusish orqali me`dadan chiqadigan narsadan, yo axlat yoki tovushli va tovushsiz chiqariladigan yeldan, yoki yuqoridan chiqadigan yeldan, ya`ni kekirishdan, tutilib qolgan yeldan, ya`ni qorin quldirashidan, yuzning va og'iz ichining rangidan, og'riq va alamlardan, me`daning boshqa a`zolarga hamkorligidan, me`daga mos keladigan yoki zarar qiladigan ovqat, ichimlik va dorilardan bilinadi.

Me`daning ovqatni ko`tara olishi va ko`tara olmasligidan dalil qilishga kelsak, agar u odatdagidan ko`ra kam va ozgina ovqatnigina ko`tara oladigan bo`lsa, me`dani kuchsizlantiradigan biror sabab bilan kuchsizlashgan bo`ladi, agar odatdagи miqdorni ko`tarolsa, quvvati joyida qolgan bo`ladi.

Axlat va qorindan chiqadigan narsalar orqali belgi olish: rangi va sassiqligi o`rtacha bo`lib, o`zi bir xilda bo`lgan axlat hazmning yaxshiligiga dalil bo`ladi, hazmning yaxshiligi esa me`daning kuchli ekaniga dalil bo`ladi, me`daning kuchliligi mizojning mo`tadilligiga belgidir. Ammo hazm bo`lmagan ovqatning chiqarilishi me`da kuchsizligiga va undagi mizojning buzilganiga dalil bo`ladi. Axlatning rangi me`dada qanday modda borligini bildiradi. Axlatning sassiq va suyuqligi uning vaqtidan ilgari me`dadan tushganligini bildiradi, bunga tutuvchi quvvat kuchsiz bo`lib, me`daning ovqatni ushlab turolmasligi sabab bo`ladi. Axlat suyuq bo`lmasa, vaqtidan ilgari tushganiga emas, balki hazm quvvatining kuchsizligiga dalolat qiladi.

Hiqichoqdan dalil olishga kelsak, hiqichoq tutayotgan kishi achishganlikni sezsa, me`dada nordon, o`tkir yoki achchiq xiltlar bor

bo`ladi, agar u tortishganlikni sezsa, me`dada yel bor bo`ladi. Bularning hech qaysisi ham sezilmasa va tashnalik bo`lmasa me`dada shilliq xilti bor bo`ladi. Agar hiqichoq bo'shatilishlar va isitmalardan keyin bo`lsa, me`dada quruqlik bor bo`ladi.

Tashnalikdan belgi olinishi: tashnalik issiq mizojga belgi bo`ladi, agar u ko`ngil aynash bilan bo`lsa, o't moddasiga yoki sho'r shilliq moddasiga dalolat qiladi. Agar tashnalik issiq suv ichish bilan bosilsa, me`dadagi modda, ko`pincha sho'r va burakli shilliq bo`ladi, agar u ortsa modda o't bo`ladi.

Og'iz va til holidan dalil olishga kelsak, agar me`da og'riqlarida til juda dag'allashib qizarsa, me`dada qonning ko`payganiga yoki unda qondan bo`lgan issiq shish borligiga dalolat qiladi. Til sarg'ish bo`lsa, kasallik safroda bo`ladi, agar u qoramtil bo`lsa, savdo xilti sababli, oqish va sut rangli bo`lsa, rutubat sababli, faqatgina qurib tursa, me`dadagi quruqlik sababli bo`ladi.

Hazm qilishdan dalil olinishi: me`daga tushgan ovqat hazmdan keyin me`dada og'irlik, quldirash, damlik, kekirish, og'izda tutun maza yoki nordon maza, hiqichoq, uchish va tortishish paydo qilmasa, hazmnning yaxshiligiga dalildir, bunda yana ovqatning me`dada qolish muddati mo`tadil bo`lishi, me`dadan tushishi munosib vaqtida bo`lib, undan oldin yoki keyin bo`lmasligi, uyqu tinch va sidirg'a, uyg'onish esa yengil va tez bo`lishi, ko`zda salqish va boshda og'irlik bo`lmasligi kerak shuning bilan birga ich yurishi oson bo`lib, hojatga borishdan oldin qorin quyisi ozgina ko`pchib turishi kerak: bu me`daning ovqatni yaxshi o`rab olganiga belgi bo`ladi, bu esa me`daning kuchliligiga, ovqat miqdori va sifatining muvofiqligiga dalolat qiladi. Me`da ovqatni o`ziga qamrab olmasa va yaxshi hazm qilolmasa, quldirash va ketma-ket kekirik paydo bo`ladi va ovqat me`dada uzoq, vaqt qoladi yoki kerakli vaqtidan oldin tushib ketadi.

Safro hazmni butunlay to`xtatish yoki uni kamaytirib ovqatni yetiltirmay qoldirish darajasida hazmga to`sqinlik qilmaydi, lekin, u ba`zan hazmni buzadi. Savdo esa yetilishga va hazmga to`sqinlik qiladi va ikkalasini ham buzadi. Shilliq esa savdodan ko`ra ko`proq buzadi. Me`dada shish va yara bo`lmasa, ovqat buzilmasa, lekin hazm yaxshi bo`lmasa, bunga mizoj buzilganligi sabab bo`ladi. Bu ko`pincha

sovuqdan va rutubatdan bo`lib, undan keyin issiqlik, undan keyin quruqlig turadi.

Me`da og`riqlaridan belgi olinishiga misol tortishib og`rish yelga, og`irlik bilan bo`ladigan og`riq (tulikka begti) bo`ladi; achishib og`rish nordon, o`tkir, taxir yoki achchiq xilt borligiga dalil bo`ladi.

Ishtahadan olinadigan dalilga kelsak, bunda ishtahaning ko`pligidan, ko`pligida yoki yo`qligidan yoki ko`ngil tusagan narsasining turidan bilinadi. Masalan, ba`zida kishi tashna bo`lib, sovuq narsaga, ba`zida nordon narsaga intiladi, ba`zida esa kishi tashna bo`lsa ham og`iz suvini teradigan, sho`r va o`tkir narsalarga intiladi. Ba`zida bir vaqtning o`zida kishi o`tkir, sho`r va nordon narsalarni tusaydi, chunki bular zararli xiltni parchalab foyda yetkazishda bir-birlariga yordamlashadi ana shunday intilish me`daning kuchsizligiga dalil bo`ladi, chunki kuchli me`da yog`li narsalarga intiladi. Ba`zan ko`ngil yomon va tabiatga xilof narsalarni tusaydi, masalan, ba`zilar ko`mirni, ishqorni va shunga o`xhash narsalarni tusaydilar; bu - yaxshi xiltlarga munosabati bo`lmagan buzuq va begona xiltlar sababli bo`ladi. Agar totish sezgisi sog`lom bo`lsa, ishtaha hech bir mazani shirin mazadan ustun ko`rmaydi, agar ishtaha buzilib shirin narsalarni yoqtirmasa, unda kasallik bor bo`ladi. Me`da yog`li narsalarni istasa, unda burishish, zichlik va quruqlik mavjud bo`ladi. Tabiat qizituvchi ovqatlarni suymasa va sovutganligi sababli sovuq narsalarni tilasa, demak u issiq bo`ladi; qizituvchi narsalarni istasa, me`dada sovuqlik bor bo`ladi. Agar u parchalovchi, nordon va o`tkir narsalarni istasa, u me`dada yopishqoq xilt bor bo`ladi.

Issiq me`daning ishtahasi ovqatga qaraganda suvgaga talab ko`proq bo`ladi. Issiqlikning kuchliligi ko`pincha o`zining tarqatishi, tarqalganning o`rniga badal talab qilinishi va achishtirishi sababli qattiq ochiqishni qo`zgatadi. Bu hech bir chidab bo`lmaydigan ochiqishning bir turi bo`ladi, unda, ayniqsa ovqat kechikkanda, behushlik yuz beradi. Me`daga quyilayotgan nordon savdo va nordon shilliqning miqdori ularni haydar chiqarishni talab qiladigan darajada ko`p bo`lmasa, u me`daning ishtahasi ko`payadi. U me`dada ishtaha kuchayib, biz bayon qiladigan sababga ko`ra "it ishtahasiga" aylanadi.

Ovqatga bo`lgan ishtaha hamma a`zolarga umumiy bo`ladi. Lekin bu umumiylig tabiiy bo`lib, oziqlantiruvchi quvvat istagining tortuvchi quvvatga bo`lgan aloqasi sababli vujudga keladi. Me`dada esa maxsus nafsoniy ishtaha bor, chunki u sezadi. Goho ba`zi kishilarga uzoq och yurib keyin ko`p ovqat yeyishga to`g`ri keladi, ammo ular hazmsizlikka uchramaydilar, ko`p axlat chiqarmaydilar, shu bilan birga ularning badanlari semirmaydi. Shu holatga hazm quvvati va tortuvchi ishtaha quvvatining sog`lom bo`lishi va shu bilan birga singishining ham ko`p va tezligi sabab bo`ladi.

Og'iz mazasidan dalil olinishiga kelsak, og'izdagি mazanинг achchiqligi me`dada issiq va safro borligiga dalolat qiladi, nordonligi esa ko`pincha me`daning sovuqligiga, lekin ovqatni aslo hazm qildirmaydigan darajadan kamroq sovuqligiga dalil bo`ladi. Ba`zan nordonlik rutubat bilan birga kuchsiz issiqda ham dalil bo`ladi. Shu issiqlik rutubatni bir oz qaynatadi, biroq, keyin rutubatni yetiltirishga kuchsizlik qilib undan ajraladi natijada og'izda uzum suvinikiga o`xshash nordonlik paydo bo`ladi uzum suvi sovisa nordonlashadi, kuchsiz issiordan qaynasa ham nordonlashadi. Goho nordon moddaning taloqdan me`daga quyilishi sababli ham og'izda nordonlik paydo bo`ladi. Taloq sababli bo`ladigan nordonlikda ishtaha kuchayadi, damlik va quldirash ko`payadi, hazm buziladi, nordon kekirik keladi. Og'izning mazasizligi me`dada mazasiz shilliq borligiga, sho'rligi sho'r shilliqqa yomon va yoqimsiz begona mazalar esa me`dada sasigan yomon begona xiltlar borligiga dalolat qiladi.

Qusishdan dalil olish faqatgina o'qichiq bo`lsa, modda me`daga yopishgan va shimilgan bo`ladi quisish oson bo`lsa, moddaning me`da bo'shlilik'iga quyilganiga dalil bo`ladi, agar quisish va o'qichish moddani ko`chirolmaydigan bo`lsa, bir vaqtning o'zida ikkala holatning ham mavjudligiga yoki xiltning yopishib kirishib qolganiga dalil bo`ladi. Ko`ngil aynish faqat shimilgan moddadan bo`lmaydi, balki modda ko`p bo`lib me`dani achishtirsa yoki u kam bo`lib ovqatga aralashib kuchayib me`daning tagidan uning og`ziga ko`tarilib uni achishtiradigan bo`lsa u shimilmaganda ham ko`ngil ayniydi. Shuning uchun xilt ko`p bo`lmasa uni ovqatdan keyin qusib tashlash oson bo`ladi, ovqatdan oldin esa oson bo`lmaydi. Lekin o'qichiq va ko`ngil aynish ahyon-ahyonda bo`lib

tursa, me`daga modda boshqa a`zodan quyilgan bo`ladi, agar doimo bo`lib tursa, modda me`dada uzlucksiz ravishda tug'ilayotgan bo`ladi. Qusuq bilan tashlanayotgan narsaning rangi va mazasi bilan ham modda xiliga belgi olinadi rangi va mazasi bilan safro va savdoga hamda nordon va sho'r shilliqa, rangi bilan shishasimon shilliqa, burun suvi rangiga o'xshasa va boshqa a`zolarga tushadigan nazlalar bilan birga kelsa, miyadan tushayotgan shilliqdan dalolat qiladi. Ayrim kishilar borki, ovqatlangach ortiqcharoq harakat qilsalar, yegan ovqatlarini tashlash istagini sezadilar bu hol me`da og'zining ho'llligiga yoki me`daning kuchsizligiga belgi bo`ladi. Rutubat sababli bo`ladigan qusish qorin ochligida ham paydo bo`la beradi, me`da kuchsizligidan bo`ladigani esa faqatgina qorin to'qligida paydo bo`ladi.

Badan rangidan belgi olinishiga kelsak, badan rangi ko`pincha me`da va jigarning holiga kuchli belgi bo`ladi. Me`da kasalligining ko`pchiligi sovuq va ho'l bo`ladi, shunday kasalliklarga uchragan kishilarning rangi qo'rg'oshin tusli bo`ladi, agar ularda sariqlik bo`lsa, ularning rangi oqish sariq bo`ladi.

Qorin quldirashidan dalil olinishi qorin quldirashi me`daning kuchsizligiga, me`daning ovqatni o'ziga olishining yomonligiga va axlatning rutubatli ekaniga belgi bo`ladi.

So'lakdan olinadigan belgi: so'lakning ko`pligi va ko`pikliliqi me`daning rutubatliligiga va suvsimon so'lak ko`p ajratayotganligini bildiradi. Og'iz suvining qurib qolishi va og'izning quruqligi me`daning quruqligiga, so'lakning issiqligi me`daning issiqligiga belgi bo`ladi. Og'iz quruqligi ikki xil bo`ladi: biri - chinakam quruqlik bunda og'izda so'lak bo'lmaydi, ikkinchisi esa yolg'on quruqlik - bunda so'lak yelimsimon yopishqoq bo`ladi, lekin o'ziga borayotgan bug'ning issig'i sababli qurib qoladi. Og'iz quruqligi bilan og'izda yopishqoq so'lakning qurishini ajrata bilish kerak. Birinchisi me`da quruqligiga dalolat qiladi, ikkinchisi esa me`dadan qo'zgalgan yoki boshdan tushgan yopishqoq rutubatdan dalolat qiladi.

Kekirikdan olinadigan dalilga kelsak, kekirik goho nordon goho sassiq hidli bo`ladi, ba`zan bug'simon, zangor va tutunga o'xshash, ba`zan chirigan yoki baliq hidli bo`ladi; ba`zan yejilgan ovqatning mazasiga o'xshash bo`ladi, goho quruq yel bo`lib unda boshqa biror

kayfiyat bo`lmaydi, shunisi kekirikning eng sog'lom xilidir. Chunki kekirik tutun hidi bo`lib, bunga pishirilgan tuxum sarig'i va turp kabi tutunga tez aylanadigan ovqat moddasi yoki olovda tayyorlanadigan halvo va boshqa narsalar singari tutun kayfiyatini o'ziga olgan ovqat moddasi sabab bo`lmasa, unday kekirikning sababi me`daning modda jihatidan yoki buzilgan sodda mizoj jihatidan olovsimon bo`lishidir. Olovsimonlik modda sababli bo`lsa, aytib o'tilgan vajlarning biriga ko'ra bo`ladi; bu ko`pincha aytib o'tilgan yo'sinda o't qopidan me`daga qo'yiladigan safro moddasidan yoki boshdan tushadigan o'tkir moddadan bo`ladi, ayniqsa safro mizojli bo`lmagan kishida shunday bo`ladi. Tutun hidi kekirikning sababi - moddali yoki moddasiz sodda harorat ekaniga arpanon kabi tutunlikdan uzoq bo`lgan ovqat bilan ilgari ovqatlanganlikdan ham dalil olinadi.

Shunday ovqat yegan kishi tutun hidi kekirsa, unga sabab me`daning haroratidir. Shuningdek axlatning o't aralash ekaniga qaraladi: agar u o't aralash bo`lsa, kekirikka me`dadagi harorat sabab bo`ladi, biroq, axlat o't aralash bo`lmasa, bundan sabab me`dada bo`lmaydi degan gap chiqmaydi, chunki ko`pincha bunga buzilgan sodda mizoj sabab bo`ladi. Qusuq ham chiqayotgan narsasi bilan sababning me`da harorati ekaniga eng kuchli dalil bo`ladi. Goho tutunsimon kekirik uyqusizlik kasalligiga dalil bo`ladiki, unga yo`liqqan kishida me`da hazm ishiga bo'sh vaqt topolmay alangalanib qiziydi.

Ammo kekirik nordon bo`lsa va bu nordonlik nordon ovqatdan va haddan tashqari ko`p yeyilganda nordonlashib o'zgaradigan ovqatdan bo`lmasa, bunga me`daning sovuqligi sabab bo`ladi ayniqsa asal kabi nordonlashishdan uzoq bo`lgan ovqat berib sinab ko'rganingda uning nordonlashganini ko'rsang, bunga sabab moddasiz yoki moddali me`da sovuqligi sovuqlik modda bilan bo`lsa, doimo me`da og'zida og'irlik bo`ladi. Nordon kekirik me`dasida savdo moddasi bo`lgan, taloq kasalligiga uchragan va me`dasiga sovuq nazlalar tushadigan kishilarda ko`proq paydo bo`ladi. Goho harorat shirin moddaga yo`liqib uni qaynatib achitsa ham kekirik nordon bo`ladi. Bunga nordon kekirik bilan birga issiq alangalanish, og'iz karashligi, tashnalik va sovutuvchi narsalar bilan foydalanish kabi belgilar ham dalil bo`ladi. Haddan tashqari issiqlikning me`dadagi ovqat yoki kekirikni achitishiga sutning issiqliqda sovuqdan ko'ra tezroq achishi ham dalil bo`ladi. Me`dadagi

moddaga quish bilan ham dalil qilinadi. Kekirik sassiq bo`lsa, u og`iz badbo`ylici dalolat qilganidek, me`dada sasish borligiga belgi bo`ladi goho me`dada yara borligini bildiradi. Kekirikning sassigan go`sht, baliq va balchiq hidiga o`xshashligi me`dada sasigan rutubat borligiga dalil bo`ladi. Uning zangor mazaligi sassish bilan birga o`tkirlik va issiqlik borligiga belgi bo`ladi; bu xil kekirik issiqda tutunsimon kekirikdan ko`ra kuchliroq dalil bo`ladi. Ammo kekirik tutunsimon va nordon bo`lmasa, lekin ovqat yeyilganiga bir qancha muddat o`tganidan keyin o`sha ovqat mazasini bersa, bu hol me`daning ovqatni o`zgartirishga kuchsizlik qilayotganiga dalil bo`ladi.

Yoqadigan yoki yoqmaydigan va zarar keltiradigan narsalardan dalil olinishiga kelsak, bunda me`daga sovutuvchi narsalar yoqadimi yo qizituvchi narsalarmi, yoki qurituvchi va ho`llovchi narsalar yoqadimi uni kuzatish kerak.

Me`dadagi mavjud sezishdan dalil olinishi: me`dada achishish emas, balki og`irlik sezilsa, modda shishasimon shilliqdan iborat bo`ladi, agar achishish va alanganish sezilsa, modda achchiq, yoki sho`r bo`ladi. Alangasiz achishish moddaning nordonligini bildiradi me`da yengilligi bilan birga achishish sezilsa, modda siyrak yoki oz bo`ladi lekin achishish bilan birga og`irlik ham sezilsa, modda quyuq yoki ko`p bo`ladi.

Me`daning boshqa a`zolarga hamkorligida me`da ahvoliga dalolat qiladigan belgilarga kelsak, ularning ba`zisi, masalan, aql chalkashligi, juda og`ir uyqu, qotib qolish va vasvasa - miyaga tegishli bo`ladi, ba`zilari, masalan, behushlik, xafaqon va tomir urishi buzuqligi - yurakka tegishli bo`ladi, ba`zisi esa, masalan, nafasning butunlay yuk bo`lib qolishi, qiynalib nafas olish va nafas olishning buzilishi umumiy bo`ladi.

Me`daning tabiiy mizojlari

Tabiiy issiq mizojning belgilari qoramol va g`oz go`shti va boshqa shu xil kuchli ovqatlarni yaxshi hazm qilishi hamda jo`ja go`shti va sut kabi latif va yengil ovqatlarning buzilishi, eng issiq, mizojli ovqatlarni yaxshiroq qabul qilishi va hazmning ishtahadan ustunligidir. Tabiiy sovuq mizojning belgisi shuki, unda ishtahadan kamchilik bo`lmaydi, biroq hazmda kamchilik bo`ladi, bunday me`dada latif va yengil ovqatlar hazm bo`lmaydi va u eng sovuq mizojli ovqatlarni yaxshiroq qabul

qiladi. Tabiiy quruq mizojning belgisi odatda tashnalik ko`p bo`ladi, lekin bir oz narsa ichish bilan uni qondirish mumkin, ko`p miqdorda ichilsa og`ir qiladi, unday me`da eng quruq ovqatni yaxshiroq qabul qiladi. Tabiiy ho`l mizojning belgisi tashnalikning kamligi, ko`p ichishni yengil ko`tara olish va undan me`daning og`ir bo`lmasligidir. Bunda me`da eng rutubatli ovqatlarni yaxshiroq, qabul qiladi.

Mizojlardan olinadigan dalillar

Buzuq issiq mizojning belgilari. Bunga agar buzilish haddan tashqari bo`lmasa va quvvat tushmasa, tashnalik belgi bo`ladi, yana unga tutunsimon kekirik, so`lakning sassiqligi, yuqorida, belgi olish bobida aytib o`tgan shartga muvofiqsovutuvchi narsalarning foyda qilishi, tabiiy holatdagi me`dada kuymaydigan latif ovqatlarning kuyishi va bug`ga aylanishi, g`aliz ovqatning odatdagidan ko`ra yaxshiroq hazm bo`lishi belgi bo`ladi, biroq, mizoj haddan tashqari buzilgan bo`lsa, quvvat tushadi. Bunga yana ko`p tashna bo`lish ko`pincha ovqatga kam ishtahalilik ayniqsa safro moddasidan bo`lgan mizoj buzilishida, belgi bo`ladi, chunki safro moddasi ishtahani albatta tushiradi, lekin hazm kuchli bo`ladi, ammo mizoj buzilishi haddan tashqari bo`lib quvvatlarni tushirsa hazm kuchli bo`lmaydi.

Ba`zan shu mizoja ingichka og`riq isitmasi ham qo`shiladi, ba`zan shu mizoj haddan tashqari bo`lib quvvat tushuvidan oldin kuchli ochiqishni qo`zg`atadi, bunga sabab ovqat moddalarining tarqatilishi, me`dadagi achishish va moddalarining so`rilish yo`li bilan singishga qo`zgatishidir. Goho shu ochiq ish behushlikka olib keladi, ovqat keyinga qolsa, kishi hushidan ketadi, agar shu ochlikning muddati ozroq uzoqda cho`zilsa, ishtaha butunlay yo`qoladi. Goho shu paytda so`lak oqishi ham ko`payadi, tuyilganda esa bug`latib tarqatuvchi issiq sababli so`lak oqishi to`xtaydi. Agar me`dada rutubat bo`lsa so`lak ko`payadi, uni g`aliz ovqatlar bosadi.

Me`dasi "olovlik" kishining qoni oz, yomon, sassiq va o`tkir bo`ladi. Tub mizoja u qonga qarshi bo`lgan a`zolar uni isitmaydi va u bilan ovqatlanmaydi, natijada u kishi kam go`sht, tomirlari esa seron bo`ladi, chunki qon tomirlarda yig`ilib qolib, tabiat uni ishlatmaydi. Tomiridan qon olinsa, yomon qon chiqadi.

Buzilgan sovuq mizojning belgilari.

Me`daning sovuqligiga yeyilgan ovqatning sust o`zgarishi dalolat qiladi, hatto ovqat quyiga tushmaydi, yoki bir muddatdan keyin deyarli o`zgarmagan holda qusib tashlanadi. Mizoj haddan tashqari sovuq bo`lsa, yeyilgan ovqat aslo o`zgarmaydi va hazm bo`lmaydi. Goho buzuq sovuq mizoja ishtahaning kuchliligi, tashnalikning kamligi va biz bayon qilgandek yeyilgan ovqatga qaramay kekirikning nordon bo`lishi dalolat qiladi.

Faqatgina yengil ovqatlarning singdirilishi va ilgari hazm bo`lib yurgan g`aliz ovqatlarning singmasligi ham buzuq sovuq mizoja dalil bo`ladi. Ba`zan me`daning buzilgan sovuq mizoji ovqat yeyilgandan bir necha soat o`tgach tortishish va zo'r og'riq, paydo qilish darajasiga yetadi, bu belgilar har kuni sirkasimon suyuqlikni qusib tashlash bilangina bosiladi, bu ko`pincha istisqoga va hazm buzilishi natijasida paydo bo`ladigan ich ketishga ham olib keladi.

Me`dasining mizoji sovuq bo`lgan kishining rangida tajribali kishidan yashirinmaydigan sariqlik va oqlik yuz beradi, juvona go`shti eng yaxshi dorilaridandir. Goho shu mizojning zararlariga miya hamkorlik qilib yeldan bo`ladigan bosh og`rig'i, quloq shang'illashi va shunga o`xhash holatlar paydo bo`ladi. Me`dadagi buzuq, sovuq mizoj issiq tub mizoj bilan duch kelib qolsa, qorin quldirashi, damlanish, quruqlik va tashnalik ko`payadi.

Biror sabab bilan tomirdan qon olishga ehtiyoj tushib qon olinsa mizoj buzilishi ortadi va bu ingichka og'riq kasalligiga olib keladi. Buning davosi ovqatdan oldin tilchani ho'llaydigan miqdorda ozgina sharob ichishdir. Ovqat suv shimuvchi narsalar va yog'siz qizil go`sht bo`lib, suyuq oshlar bo`lmasligi kerak.

Buzilgan quruq mizojning belgilari.

Tilning haddan tashqari quruqligi, badanning ozishi va tabiiy qotmalikdan ko`ra ko`proq qotmaligi, rutubatli ovqatlarning va rutubatli havoning yoqishi belgi bo`ladi.

Buzuq ho'l mizojning belgilari.

Bu mizoja kam tashna bo`lish, rutubatli ovqatlardan nafratlanish, ularning zarar qilishi, oz va quruq ovqatning foyda qilishi belgi bo`ladi. Yana bunga so'lak va og'iz suvining ko`pligi ham dalolat qiladi, agar bu holat ochlikda yuz bersa, ko`pincha me`dadagi harorat va rutubatga dalil

bo`ladi, goho haroratning yolg'iz o'zidan ham shunday bo`ladi. Ko`pincha ayrim kishilarda me`daning og`zida ho'llab turuvchi rutubat bo`ladi. U kishi har vaqt biror narsa yeganidan so`ng o'rnidan qo`zg'alsa, qusib tashlaguday bo`ladi. Shu hol goho me`da kuchsizligidan ham bo`ladi, lekin bunda yuqorida aytilgan me`da kuchsizligining belgilari ham bo`ladi. Bu narsa me`da bo'shlig'ida va ovqat yemaganda ham bo'laveradi. Oldingi hol esa faqatgina ovqat yeganda paydo bo`ladi.

Me`daning buzilgan sovuq ho'l mizojini davolash

Bu mizoj moddali bo`lsa, qonun va qoidalarda aytilganiga muvofiq bo`shatilsin. Agar modda ko`p bo`lmasa, bu haqida tajriba egalarining mashhur yo`llari bor. Modda bo`limganda ovqatlantirishdagi yo`l mana shunday kasalni burishtirishi va achchiqligi bor narsalar bilan ovqatlantiriladi, shunda ular burishtirish xususiyati bilan quritadi va achchiqligi bilan qizitadi.

Taxir sharob ham shular jumlasidandir. Ichiladigan dorilardan erman qo`shilgan dorilar, erman sharobi, ermanning o`zi va behi bilan tayyorlanadigan dorilar beriladi. Qo`yib bog`lanadigan, surtiladigan va ishqalanadigan dorilarga kelsak, qo`yib bog`lanadiganlarni amom, xushbo'y qamish, sunbul, sodaj, ladan, mukl, gulsafstar ildizi, bal'zam, uning yog'i va urug'i va may'a yelimidan tayyorlab ishlatiladi. Surtiladigan dorilar mastaki yog'i, zaytun yog'i, rum sunbuli yog'i va behi yog'idan tayyorlanadigan mumli yog'lar bo`ladi. Agar bular yetarli ta`sir qilmasa, tarqatuvchi quyuq surtmalarni va tog' gazago`tining yelimidan tayyorlanadigan dorini ishlatadilar.

Kuchli quyuq surtmalardan biri mana bu za`faron shom sunbuli, mastaki va balzam yog'ining har biridan bir bo`lak asaldan uch bo`lak, murrdan uch bo`lak, saqichdan bir yarim bo`lak, farfiyundan bir bo`lakni olib shu tarkibdan quyuq surtma dori qilinib ishlatiladi bundan ozgina ichilishi ham mumkin.

Yana boshqa quyuq surtma to'rt bo`lak ma'ya yelimi, uch bo`lak mum, ikki bo`lak kiyik iligi, bir bo`lak saqich, bir yarim bo`lak balzam yog'i va ikki bo`lak Rum sunbulining yog'idan tayyorlanadi.

Boshqa quyuq surtmaning tarkibi: uch bo`lak ma'ya yelimi, uch bo`lak kiyik iligi, uch bo`lak qizil sabr va ikki bo`lak mastaki. Yana tarkib: sakkiz bo`lakdan maya yelimi va rum sunbulining yog'i, uch

bo`lak balzam yog'i, besh bo`lak mum olib, mumli yog' tayyorlab ishlatiladi.

Solishtirish usuli qiyos bilan davolovchilar esa oldin kasalni mo`tadil badantarbiyaga, yaxshi kaymusli, hazmi oson ovqatlarni ozgina va hazm qilinadigan miqdorda iste`mol qilishga buyuradilar. So`ngra bulardan sekin-asta aytib o'tilgan dorilarni va ularning o'rniga o'tadigan, xushbo'y issiqlik juvorishinlarni iste`mol qilishga o'tadilar ularni kasallikka qarshi turish talab qilganiga qarab mo`tadil yoki mo`tadildan ko`proq miqdorda beriladi, shunda me`da mizozi mo`tadil bo`ladi. Falofiliy va kammuniy shu juvorishinlardan sanaladi.

Yaxshi dori: tog' archasining urug'i, saqich va murchning har biridan bir bo`lak. Atrogilon shahridan keltiriladigan murr,- gumonimcha, bu may`a yelimi bo`lsa kerak va Rum sunbulining har biridan ikki bo`lak fo'trosoliyun, ya`ni tog' petrushkasi va Rum sassiq kavragining har biridan yarim bo`lak olib yetarli miqdordagi asal bilan qorib ishlatiladi. Agar me`da mizojining sovuqligi undan kuchliroq bo`lsa, amrusiyo va sajazoniyo ichiriladi. Dengiz piyozining ichimligi ho'l moddali va rutubati quyuq hamma me`da kasalliklariga foydali dorillardan sanaladi uning tarkibi: tozalab to'g'rangan dengiz piyozidan uch man olib shisha idishga solinadi va olti oy idishning og'zini berkitib qo'yiladi.

Me`daning buzilgan issiq mizojini davolash

Me`daning alangalanishiga qatiq, ayniqsa kashnich bilan sirkani ichirish, shuningdek sigir qatig'inining suzmasini berish foyda qiladi. Bodring mag'zi, ayniqsa yangi baliq me`da alangasini to'xtatadi. Sovuq suv, sovuqlik ho'l mevalar, sachratqi, tarrak, juda ham suvli bo`lmagan shaftoli,- agar u sersuv bo`lsa, safroga aylanadi,- koxu, gurunch, yasmiq, sirka bilan ho'l kashnich, qovoq va shularga o`xshashlar beriladi, agar zarur bo`lsa, ularga kofur, sandal va gul aralashtiriladi. Taboshir kulchalarini ham, ayniqsa ichdan o't o'tayotgan bo`lsa, ichiriladi.

Mavzu savollari

- 1.Me`da anatomiysi va fiziologiyasi.
- 2.Me`da mizojini baxolash.
- 3.Me`da xastaliklari.
- 4.Me`da og'riqlari. Sababi. Tashxislash va davolash.
- 5.Me`dada bo`ladigan yaralar.

6.2. §. Bavosir kasalligi sharqona usulda tashxislash va davolash. Bavosir xastaligi

Bavosir xastaligi Ichaktomirlarida g'ayritabiiy safro, savdo va balg'am xiltlarining qon bilan aralashuvidan hosil bo'lgan ortiqlik, tugun donachalari bo`lib, bu xastalik xasi-xunasa kishilardan bo`lak boshqa barcha insonlarda uchraydi. Bavosir fors-dariy so`zidan olingan bo`lib, Ichakxastaligi ma`nosini anglatadi. Hayotda odam tanasida uchraydigan joyiga qarab bavosirni quyidagi turlari tafovut qilinadi: ma`qad, bachadon, burun, lab-og'iz.

Ichak bavosiri.

Eng ko`p uchraydigan xili bo`lib, mizoj tabobatida bu bavosirni shakliga qarab quyidagi turlari tafovut qilinadi: liffi - ko`p ildizli, inabi - uzumsimon, tini-anjirsimon, tamri - xurmosimon, tuti - tutsimon va sululi - so`galsimon.

Bavosir tugunlari bemor ma`qadining ichida yoki Ichakog'zining tashqi lablarida o`rnashgan bo`ladi. Bu tugunlardan ko`pchilik hollarda torat boshida yoki oxirida qatra-qatra axlatga aralashmagan qon ajraladi, bavosirni bu ko`rinishini ochiq bavosir deyiladi. Agar bavosir tugunlaridan qon yoki zardob oqmasa, uni amo yoki kar - ko`r bavosir deyiladi, biz buni yopiq bavosir deymiz. Zikr qilinganlarga asoslanib, Ichakbavosiri xastaligi tasnifini quyidagicha :

Bavosir xastaligini tashxislashga misollar:

1. Ko`p tomirli tutsimon tashqi ochiq bavosir.
2. Kam tomirli, tutsimon ichki yopiq bavosir.
3. Tashqi, tugunsiz yopiq bavosir.

Agar bavosir tugunchasi tut shaklida bo`lsa, u bo`sh va g'ayritabiiy qon xiltidan paydo bo`lgan bo`ladi.

Inabi - uzumsimon bavosir yapaloq va dumaloq shaklli, arg'uvon rangli bo`lib, ba`zida unga moyil bo`ladi, bu tabiiy qon va safro xiltining kuyib, g'ayri

tabiiy savdo xilti hosil bo`lgan qondan hosil bo`ladi.

Tini - anjirsimon bavosir, anjir, shaklida bo`lib, anjir mevasi bandiga o`xshab bandga osilib turadi, rangi ko`kimir bo`lib, g'ayritabiiy balg'am va savdo xiltli qondan shakllanadi.

Tamri - xurmosimon bavosir, shakli xurmoga o`xshash bo`lib, rangi boyimjon

rangiga moyil bo`ladi va g`ayritabiyy savdo xiltli qondan hosil bo`ladi.

Sululi - so`galsimon bavosir, mayda so`gallarga o`xshaydi, bavosirni eng yomon xili bo`lib asosan savdoviy qondan shakllanadi.

Bavosiri rehi - bavosirning tugunsiz ko`rinishi bo`lib, bunda naf Ichakichkarisida na tashqarisida bavosir tugunlari aniqlanadi, Ichaksohasi arg'uvon rangida yoki bo`lmasa ko`kimir sarg'ish rangda bo`ladi. Bu bavosir safro xiltini kuyib g`ayri tabiiy savdo xiltiga aylangan boddan hosil bo`ladi va bodli bavosir deyiladi.

Ichak bavosirlarining ko`rinishlari va ularning umumiyl belgilari

- Ichakning ochiq bavosiri.
- Ichakning yopiq bavosiri.
- Ichakning bodli bavosiri.

Ichakning ochiq bavosiri belgilari.

Ichakida ochiq bavosiri bor bemorlar ma`qadda simillovchi, kuydiruvchi, sanchuvchi, achituvchi og`irlik sezuvchi va hokazo og`riqlarni, og`irlik, bir narsa osilib yoki yopishib turganlik, Ichakva chov sohasida turli qichishlar, ich qotishlar, qabziyat, qorinda shovqin paydo bo`lishi, qorinning dam bo`lishi, bemor o`tirib turganda tizza bo`g`imlarida qisirlash tovushlarini eshitilishi, beldagi og`riq, bu og`riqlarni tananing boshqa joylariga ko`chib turishiga ya`ni, biqinlarga, ikki kurak o`rtasida, oshqozon va boshqa qorin a`zolari sohasida, shuningdek tohorat vaqtida axlat bilan qon ajralishiga shikoyat qiladilar.

Bemorni ko`rganda uning teri rangi oqish-kulrang, sariq kulrang, qo`rg`oshin hatto ba`zida boyimjon rangiga o`xshash bo`ladi. Nafas olishi og`ir, ularda havo yetishmovchiligi, ba`zida yaqqol ko`zga tashlanadi.

Nabzi katta va qattiq bo`ladi. Siydigining rangi sariq-qoramtil, qizg`ish, ba`zida baland binafsha - yozuv rangida bo`lishi kuzatiladi. Axlatni ko`rilganda, unda axlat bilan aralashmagan qon yoki zardob borligi aniqlanadi.

Ichaksohasi ko`rilganda undan tashqariga chiqib turgan u yoki bu shakldagi bavosir donalarini ko`ramiz.

Bavosir sababi qaysi g`ayritabiiy xiltdan ekanligini aniqlamoqchi bo`lsak, unda torat boshida yoki oxirida bavosir tugunlaridan qatra-qatra tomayotgan qonni oq matoga tomizib 1 soat davomida quritib, so`ngra yorug` quyosh nurida tovlab rangini o`rganib, xulosa qilamiz.

Ichakning yopiq bavosiri belgilari

Ichakning yopiq bavosiri, bavosirning eng og`ir ko`rinishi bo`lib, ko`pchilik holatlarda tabiblar uni tashxislay olmaydilar, chunonchi bemorlarda bu bavosir: irqunna, niqrin, bel og`rig`i, buyrak, oshqozon, ichak, qabziyat, qulanj, miozit, sariq yaraqon, rabu, folij xastaliklarining belgilari bilan namoyon bo`lganligi sababli noto`g`ri tashxis qo`yib davolaydilar.

Bu bavosirda uning tugunlaridan hech narsa oqmaydi, uning tugunlari Ichakichkarisida yoki tashqarisida joylashgan bo`lib, bunda beldagi og`riq kuchli bo`ladi, ich qotish-qabziyat, qorindagi og`riq, dam bo`lishlik, ochiq bavosirga nisbatan shiddatliroq kechadi, bemor terisining rangi oqish-kulrang yoki qo`rg`oshin rangida, hattoki ba`zilarida boyimjon rangiga o`xshab ketadi.

Nafas olish bularda ochiq bavosirga nisbatan og`ir kechadi. Bu bavosirda bemorlarda ho`l va oyoqning kichik bo`g`inlari shishadi va harakat qilishi qiyin bo`ladi. Ba`zida bu bemorlar tanasining hamma joyi shishadi va ularda ziqun nafas ko`zga tashlanib, ularni bezovta qiladi. Bu xil bavosir tugunlarining aksariyati, tabiiy safro xiltining kuyib savdo xiltli g`aliz qondan hosil bo`ladi. Shuning uchun ularda og`riq kuchli bo`lib, ulardan qon oqmaydi. Bavosir bodi kichik bo`g`imlarga tarqalib shishganlik va og`riqni beradi. Terining rangi bavosirni keltirib chiqaruvchi xilt rangiga moyil bo`ladi.

Ichak bavosirini umumiyl davolash qonuniyatları.

Ichak bavosirni boshqa tana xastaliklarini davolashdek maxsus qonuniyat asosida bajariladi, aks holda qilingan xato tuzalmaydigan katta asoratlarga sabab bo`lib, inson umriga zomin bo`lishi hech gap emas.

Ichak bavosirining umumiyl davolash qonuniyatları 3 bosqichda bajariladi.

Bavosirni, tanani davolashdan boshlab, uni yomon sifatli g'ayritabiyy savdo xiltli qondan tanqiya qilish maqsadida:

1. Bemorning sofin, yoki boldir paylari o`rtasidagi tomiri yoki eng yaxshisi mobiz tomirlarini fasd qilib, to bemor qaltirab, xafaqon boshlangunga qadar yoki bo`lmasa qora rangli qon tiniqlashib qizil tusga kirguncha qon olinadi.

2. Yoki bo`lmasa ikki yonbosh o`rtasini tilib alangali qortiq solib, bavosirga sabab bo`ladigan savdoviy xiltli qon olinib tana tanqiya qilinadi.

Ko`pgina Buxorolik tabiblar bavosiri bor bemorlarni hijomat qilib tanqiya qiladilar. Bu uslub ko`pincha ichki bavosirni davolash uchun qo`llaniladi va quyidagicha bajariladi: buning uchun bemor sajdaga bosh qo`yayotgan musulmon holatini oladi, bemor ma`qadiga alangali qortiq qo`yiladi va uning yordamida to`g`ri ichak tashqariga ag`darilib, bavosir tugunlari tashqariga chiqariladi va bavosir tugunlarini o`rtasidan nashtar yordamida tilib tugunlar ochiladi va qoni oqiziladi. Bavosir tugunlarini og`riqsiz ochish maqsadida cho`pda pishirilgan piyoz yoki gandanoni sariqyog` bilan aralashmasini oldin bavosir tugunlariga qo`yib, keyin ularni ochiladi. Shuningdek, bavosir tugunlarini shishib ketmasligi uchun bemorni qaynatilgan burishtiruvchi suvlarga o`tqaziladi. Bu suvlar quyidagicha tayyorlanadi: mis idishda anor po`stini olib sirkada qaynatib pishiriladi va uning hajmicha issiq suv qo`shib shu aralashmaga bemor o`tkaziladi, so`ngra bavosir tugunlari ochiladi. Hajomat qilib bavosir tugunlaridan g'ayritabiyy savdo xiltli qonlar chiqariladi so`ng jarohatga et undiruvchi malhamlar qo`yib davolaniladi.

3. Bavosirni tanqiya qilishda zuluk ham solinadi, buning uchun yosh chaqqon sifatli zuluklarni tanlab olib, dum suyagi ustiga qo`yib qon olinadi, zuluk solish asosan kuchsiz va qari kishilarda qo`llaniladi.

Bemorlarni tanqiya qilishda, uning umumiyl qonuniyatlariga amal qilingan holda bajariladi.

Agar bavosir sababi jigar va taloq o`rtasidagi nomutanosiblik sababli paydo bo`lgan g'ayritabiyy savdoli qon bo`lsa, unda jigar va taloq o`rtasidagi nomutanosiblikni davolab, so`ngra bavosir xastaligi davolaniladi.

II-bosqich - Bemor tabiatini yumshatish va parhez taomlar buyurish

Bavosirga uchraganlarni deyarli barchasida qabziyat bo`lib, axlatning qattiqligi bilan orqa teshik aziyatlanadi va kasallik og'irlashadi, buning uchun bemor tabiatini yumshatib turishga harakat qilish kerak.

Bemorga anjir, qora olu, shaftoli iste`moli, o`rik, olma, behi xushoblari buyuriladi. Ularni barcha g'aliz go`shtlar, sutli narsalar, hamda qonni kuydiruvchi ziravor va dorivorlar iste`molidan tiyish kerak. Dorivor ziravorlardan zarurat tug'ilganda manfaat etadigan darajada iste`molga buyurish mumkin. Bavosiri bor bemorlarga tez hazm bo`ladigan g'izoligi yaxshi bo`lgan narsalardan: chala pishirilgan tuxum va uning sarig'i, yog'li qush go`shti sho`rvasi, uloqcha va shishak go`shtlari, zirboj va no`xat suvlari, o`moch kabilarni shirin kunjut yog'i bilan iste`molga buyurilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu bemorlarga yong'oq, bodom, o`rik danagi yog'i, arab tuyalarining o`rkach yog'i va yosh mollar charvisini iste`molga buyurish, tuxum sarig'i, gandano va piyoz solib tayyorlangan quymoq, kalla qand, anjir kabilar iste`moli bavosiri borlarga foydadan xoli emas.

Agar kasallik buqroni vaqtida ich ketish va qon oqish haddan tashqari ko`p bo`lsa, guruch va anor solib pishirilgan ovqatni mayiz bilan iste`molga buyuriladi. Jiyda, mozi, shoqbalo't kabilardan tayyorlangan qaynatmalar ham tavsiya etiladi.

III-bosqich - Bavosirni davolashda qo`llaniladigan dorilarni ishlatish qonuniyatları

- Bavosirni davolashdagi dorilar quyidagilar:
- Og'riqni qoldirish.
- Bavosir tugunlarini ochish.
- Ochilgan tugunlarga et undirib davolash.
- Haddan tashqari oqayotgan qonni to`xtatish maqsadlarida qo`llaniladi.
- Buning uchun dorilar ichiriladi, shiyof qilinadi, surtiladi, chaplanadi, qo'yib bug'lanadi, sepiladi, tutatiladi yoki bug'lantiriladi. Bularning

hammasi oddiy yoki murakkab holda qo`llanilib, shishlar va yaralar bo`lsa, oldin davolanib, so`ngra bavosir xastaligi davolaniladi.

2. Tugunlarni kesish tartibi.

Agar kesishga tegishli bo`lgan tugunlar ko`rinib turgan bo`lsa, uning tadbiri osonroq, lekin tugun ichkariga botgan bo`lsa va ko`zga ko`rinmasa uni kesish ancha qiyinchiliklar bilan bo`ladi.

A) Tuguni ko`rinib turgan bavosirni tagidan ip yoki kanop ip bilan, yohud qalin qil bilan bog'lanadi. Shu muolaja bilan bavosir tuguni tushib ketsa, ketgani, bo`lmasa dorilardan ishlatib ko`riladi, bunda ham tushmasa, tugun tagidan kesib tashlanadi.

B) Bavosir tuguni ichkariga botgan bo`lsa, ya`ni Ichakichida bo`lsa, avval Ichakag'dariladi va tugunlar tashqariga chiqariladi, so`ngra kesib tashlanadi. Ag'darish, qortiq solish yo`li bilan bo`ladi, qortiqni ma`qadga toki tugunlar ag'darilib chiqqunga qadar qo`yib qo`yiladi, so`ngra tugun qolip-tutqich bilan ushlanadi. Tugunni tezda o`rniga qaytishidan qo`rqilsa, qortiqni u qo`yilgan joyini toki shishib chiqqaniga qadar qo`yib qo`yiladi, shunda tugun qaytib ichkariga botib ketmaydi. Yoki ba`zida tugunni tezlikda shishib ketadigan darajada ip bilan qattiq bog'lanadi.

Ba`zi holatlarda ag'darish muolajasini dorilar yordamida bajariladi. Buning uchun xotinak shirasi, ho`l ukrop, tog' mayizlaridan olinib asal bilan qoriladi va orqa teshikka surtiladi, yoki bu qorishmani jun parchasiga surtib shiyof qilinadi. Bu usulda shiyof qilingan yoki surtilgan dori axlatni chiqarishga undab, ma`qadni zo`riqtiradi va tugunlarini tashqariga chiqishini osonlashtiradi. Bu maqsadda yana quyidagi darmonlar ishlatiladi: tabiiy soda bilan qora mol o`ti, yoki tabiiy sodani murch bilan qo`shib ham ishlatiladi. Ba`zida tabiiy soda bilan tog' mayizini ishlatish ham ijobiy natija beradi.

Bavosir tugunlarini kesishdan oldin ehtiyyot yuzasidan bosliq tomiridan qon olinadi.

S) Bavosir tugunini kesish uslubi: Bavosir tugunlarini kesmoqchi bo`lgan tabib, tashqariga chiqib turgan yoki qisqich bilan tashqariga chiqarilgan tugunni o`ziga tortib uni nashtar bilan ildizidan kesib tashlaydi. Bavosir ildizidan nariga o`tish yoki ildizini qoldirib kesish yaramaydi. Chunki bunday hollar boshqa ofatlarni, ya`ni bavosir

tugunlari shishlarini, kuchli og'riqlarni, ba'zida esa siyidik tutilishi holatlarini keltirib chiqariladi.

Bavosir tuguni kesilgach, to kasal zaiflashib kuchdan ketish xavfi tug'ilgunga qadar qon oqishga yo'l qo'yiladi, so'ngra yuqorida izohlangan qon to`xtatuvchi uslublar bilan oqayotgan qon to`xtatiladi. Mabodo bavosir tugunini kesganda ko`p qon oqmasa, bosliq tomirlaridan qon olinadi, agar kasal ko'tara olsa va uni og'riq kuchidan zaiflashishidan qo'rqlmasa yuqorida zikr qilingan tomir ochuvchi dorilarni qo'llab qon og'izishga to'g'ri keladi. Ba'zida bu maqsadda piyoz shirasini ishlatishni o'zi kifoya qiladi. Agar bavosir tugunlarini kesganda, ma'qadni og'riqdan shishib ketish yoki qattiq og'riqi kuzatilsa, unda muhilni arab tuyasining o'rkachi bilan bug'latib, oq nonga tuxum sarig'i, biroz afyun va za'faron qo'shib bog'lanadi.

Bemorni dalachoy nabiziga o'tkazish, og'riqni qoldiruvchi vosita hisoblanadi, bunga yetadigani yo`q. Bemorni yumshatuvchi dorilar solib qaynatilgan suvlarga o'tkazish h'am og'riqni qoldiruvchi vositalardandir. Zig'ir urug'i, gulxayri va uning urug'i, karam, kabilar yumshatuvchi dorilar hisoblanadi.

Ichakbavosiri tugunlarining shishlariga qarshi: tosh upasi va kangardan bir uqiyadan, kuydirilgan qo'rg'oshindan ikki uqiya, mastakidan uch dirham olib ming devona bilan qo'shib, qo'yib bog'lanadi.

Bavosir tugunlarini kesgandan so'ng Ichakshishlari va og'rig'ini qoldirish bilan birga ich qotishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Agar siyidik tutilishi voqe` bo`lsa, bavosir shishlarini yumshatish bilan davolananiladi. Kesilgan tugundan kuchli qon ketish kuzatilsa, qonni to`xtatuvchi tadbirlarni qo'llash bilan birga bemorni bir kecha kunduz hojatga borishiga mone`lik qilinadi.

Agar bavosir tugunlarini asbob bilan yorish istalmasa yoki biror mone`lik bo`lsa, unda yuqorida davolashni umumiyl qonuniyatları bo`limida zikr qilingan darmonlarni qo'llab maqsadga erishiladi.

Yopiq bavosirni davolash.

Yopiq bavosirni davolashdan maqsad, uni tugunlarini ochish bilan qonini oqizib tanani tozalashdan iborat.

Yopiq bavosirni ochish va qonini oqizish qonuniyatları.

Buning uchun bemor avvalo hamomda cho`miltirilib bavosir tugunlari yumshatiladi va sofin yoki mobiz tomirlaridan fasd qilinib toki bemor kuchsizlanib xafaqon paydo bo`lguncha, yoki qon rangi qoradan tiniqlashib qizil tusga kirguncha qon olinadi yoki bo`lmasa, shaftoli yoki achchiq o`rik donagini yog'i, tuya o`rkachining yog'i, tog' echkisining iligi, muql va boshqa shularga o`xhash dorilarning har birini alohida-alohida yoki hammasini qo'shib, surtib bavosir tugunini ochib qonni oqizishga erishiladi. Bundan so`ng achchiq piyozni shirasini qo`llaymiz. Agar bu muolajalar natija bermasa shularga ya`tutlar (sutli o'tlar), tog' mayizi, kaptar tezagini qo'shib surtma yoki shiyof qilinadi. Gazak o't va moychechakni qo`llab ham tugunlarni ochib qonni oqizish mumkin. Katta ko`zli moychechakni o`zini yoki yog'ini iste'moli, teri teshiklarini kengaytirib, qonni yurishtirish xususiyatiga ega.

Xalilani urug'lar bilan qo'shib ishlatilsa ham bunday xususiyatni namoyon qiladi. Tugun ichida qon yurishmay qolgan bo`lsa, unda qonni yurishtirish uchun qanzal etidan uch dirham, achchiq bodomdan to`rt dirham olib, uzun pilik yasab ma`qadga shiyof qilinadi va shiyofni har soatda yangilab turiladi. Chunonchi olti soatda olti marta shiyof almashtiriladi

Tugunsiz, ya`ni bodli bavosirni davolash.

Bu bemorlarga bodbur darmonlar iste`molga buyuriladi. Bu darmon tarkibi: bemorga bir hafta davomida nahorda ikki arpa kattaligidagi mo`miyon mol charvisi bilan iste`molga buyuriladi. Sofin yoki mobiz tomirlaridan qon olinadi yoki bo`lmasa dum suyagi ustiga zuluk solib davolaniladi.

Mavzu savollari

- 1.Bavosir kasalligi sharqona usulda tashxislash va davolash
- 2.Ichak bavosiri haqida tushuncha berish
- 3.Tugunsiz, ya`ni bodli bavosiri haqida tushuncha berish
- 4.Ichakning ochiq bavosiri belgilari haqida tushuncha berish
- 5.Ichakning yopiq bavosiri belgilari haqida tushuncha berish

6.3. §.Jigar kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash.

Jigar anatomiyasи

Masoriqo o'zida jigar quvvati borligi sababli xilusni bir qadar qonga aylantirsa ham, asosan qon paydo qilishni tugallovchi a`zo jigardir. Qon haqiqatda jigarga ham shakl bo`lgan oziq bo`lib, jigar qonga, lekin ivigan qonga o`xshash qizil go`shtdir. Jigarda asab tolalari yo'q, unda jigar go`shtidan tarqaladigan tolalar uchun ildiz bo`ladigan tomirlar yoyilib yotadi. Jigar qopqa tomirining masoriqo deb ataladigan shaxobchalar orqali o'zining botiq tomoni bilan me`da va ichaklardan xilusni suradi, uni pishirib qonga aylantiradi va o'zining do`ngidan o'sib chiqqan kovak tomir orqali uni badanga yuboradi suv qismini esa o'z do`ngidagi yo`ldan ikkala buyrakka yuboradi. Safroli ko`pikni o'sha qopqa tepasidan o'zining botiq tomoni orqali o't qopiga, savdoli cho'kmani ham botiq tomonidagi yo`ldan taloqqa yuboradi. Jigarning me`daga yondosh tomoni me`da do`ngini yaxshi qoplashi uchun botiq qilingan ko`krak qorin to'sig'iga, yondosh tomoni esa shu to'siqning harakat maydoni toraymasligi uchun do`ng qilingan jigar o'sha to'siqda go'yo bir nuqtadagina tegib turadi. U o'sha to'siqdan o'sib chiqqan katta tomir yaqinida to'siqda tutashadi va unga yaxshi tegib turadi, yana jigar ustiga egilib kelgan qovurg'alar uni yaxshi o'rab tursin uchun ham jigarning o'sha tomoni do`ng qilingan. Jigarni sezgi berish uchun yuqorida kelgan kichik asabdan paydo bo`ladigan asabga boy yupqa parda qoplab turadi,- shu sezgi jigarning chuqurlik tomonida kuchliroq bo`ladi, o'sha kichik asab jigarni boshqa ichki a`zolar bilan ham bog'laydi. Yana jigarga harakatchan kichik tomir ham kelib yoyiladi. Bu tomir jigarga ruh keltiradi, uning tug'ma issiqligini saqlaydi va o'zining urishi bilan uni mo`tadillashtiradi.

Shu tomir jigarning chuqur tomoniga o'tkazilgan, chunki do`ngning o'zi ko`krak-qorin to'sig'inining harakati bilan ruh oladi. Jigarda qon uchun keng bo'sh joy yaratilmagan, balki unda ayrim-ayrim shaxobchalar mavjuddir. Shaxobchalarning hammasi xilusni o'ziga kuchliroq olsin va xilusning bo`laklari ulardan to'laroq va tezroq ta`mirlanshi uchun shunday qilingan. Jigar go`shtining xilusga tezroq ta`sir qilishi uchun jigarga yondosh tomirlarning po`sti juda yupqa

yaratilgan. Jigarni o'rab turuvchi yupqa parda uni ichaklar va me`dani qoplab turuvchi va biz yuqorida bayon qilgan pardaga bog'laydi, hamda uni zo'r va kuchli boyloq bilan ko`krak-qorin to'sig'iga bog'laydi, ingichka va kichik boshqa boyloqlar bilan pastki qovurg'alarga bog'laydi.

Jigar va yurak oralig'ini ularni qo'shib turuvchi tomir tutashtiradi, turli fikrga ko'ra, u tomir yurakdan jigarga yoki jigardan yurakka ko'tariladi. Shu tomir pishiq va qalin parda bilan jigarga mahkam bog'langan. Bu tomir jigar ustiga botib turadi o'sha tomirning eng yupqa tomoni jigar ichkarisiga kirgan tomonidir, shunday bo`lishi yaxshiroq va bexavotirroqdir, chunki jigarning shu tomoni nozik a`zolarga tegib turadi.

Odam jigari miqdor va kattalikda unga yaqinlashadigan har bir hayvonning jigaridan ko'ra kattaroqdir. Aytishlaricha, ko`p ovqat yeydigan va yuragi kuchsizroq har bir hayvonning jigari kattaroq bo`ladi.

Jigar va me`da oralig'ini ingichka asab tutashtirib turadi. Shuning uchun jigar va me`da jigar yallig'lanishidan iborat eng kuchli sabab tufayli hamkorlik qilishadi. Jigardan dastlab o'sib chiqadigan narsa ikkita tomirdir. Ularning biri jigarning chuqur tomonidan o'sadi, uning ko`proq foydasi jigarga ozuqa tortish bo`lib, u "qopqa" deb ataladi. Boshqa biri do'ng tomonidan o'sadi, buning foydasi ozuqani jigardan boshqa a`zolarga yetkazish bo`lib, u "kovak tomir" deb ataladi.

Jigarning o'siqlari bor changallangan narsaga barmoqlar yopishganidek, jigar o'sha o'siqlari bilan me`daga yopishib, uni ushlab turadi. Jigar o'siqlarining eng kattasi "o'siq" joyida ismi bilan xoslab ataladiganidir, uning ustiga o't pufagi quyiga tomon osiltirib qo'yilgan. Jigar o'siqlarining hammasi to'rtta yoki beshtadir.

Jigar tanasi ko`pchilik kishilarda orqa qovurg'alariga birikkan va ularga qattiq suyangan bo`lsa-da, biroq hamma kishilarda ham shunday bo'lavermaydi. Hamkorlik, ya`ni jigarning orqa qovurg'alarga va ko`krak- qorin to'sig'iga hamkorligi o'sha birikish va suyanishga qarab bo`ladi.

Jigar go`shtida sezish quvvati yo'q, biroq, uning pardaga yonma-yon turgan qismi asabsimon parda bo`laklaridan bir oz sezish quvvatini olishi

sababli sezadi. Shuning uchun yuqorida aytilgan hamkorlik va uning hukmlari turli kishilarda turlicha bo`ladi.

Goho shu ikkala ishga xalal etadi, ba`zan esa qon tug'dirish ishiga xalal yetadi-yu, safro ajratish ishiga xalal etmaydi, ajratish ishiga zarar yetganda yaxshi qon tug'dirish ishiga ham xalal yetadi. Goho ajratish ishiga xalal yetishi jigar sababli bo`lsa, balki ajralgan narsani jigardan tortib oluvchi a`zolar sababli bo`ladi.

Jigarda 4 ta tabiiy quvvatning hammasi ham bor. Lekin hazm qiluvchi quvvatning ko`proq qismi jigar go`shtida, boshqa quvvatlarning ko`prog'i esa uning tolasidadir. Shu quvvatlarning hammasining masoriqoda ham bo`lishi haqiqatdan uzoq emas, biroz keyingi tabiblarning ba`zisi ilgarigilarning shu so'zini rad qilib aytadi "masoriqoda tortuvchi va tutuvchi quvvat bor degan kishi xato qiladi, chunki masoriqo tortiladigan xilus uchun yo`ldir, uning o'zida tortish quvvatining bo`lishi mumkin emas". Yana u kishi shu da`volariga boshqa har bir narsada keltiriladigan kuchsiz dalillar kabi hujjatlar keltirib aytadi: "Agar masoriqoda tortuvchi quvvat bo`lsa, unda hazm qiluvchi quvvat ham bo`lishi kerak, holbuki, ovqat masoriqoda ta`sirlanarli darajada uzoq turmaydi, qanday qilib, bunda hazm quvvati bo`lsin masoriqoda hamda jigarda tortuvchi quvvat bo`lsa, quvvatlarning birligi sababli, ikkalasining moddasi javhari ham bir bo`lishi kerak edi". Biroz kuchsiz fikr qiluvchi bu kishi bilmaydiki, xilt tortiladigan yo`lda tortuvchi quvvat bo`lganida u tortish ishiga yordam beradi, shuningdek, haydovchi quvvat narsalar haydaladigan yo`lda, masalan ichaklarda bo`lgan vaqtida haydash ishiga yordamchi bo`ladi.

Qizilo'ngachda tortuvchi quvvat borligini u kishi unutadi, holbuki qizilo'ngach ham yo`ldir. U kishi ayrim yo`llarda tortuvchi quvvat bo`lib, sanoqqa olinarli darajada hazm quvvati bo`lmasligining ko`pda zarari yo'qligini bilmaydi, u yo`llarda hazmga emas, balki tortish quvvatiga ehtiyoj bor. U kishi xilusning masoriqoda bir qadar o'zgarishini ham unutadi. Bu o'zgarishning sababi masoriqodagi hazm quvvati ekani va unda uzoq muddat bo`lmasa ham, oz vaqt tutib turuvchi quvvat borligini qilib bo`lmaydi. U kishi ma`lum ishlarga mo'ljallangan tolalar turlarining turlicha ekanini ham unutadi va xilus tez o'tadigan yo`lda ham bir oz hazm ishi borligini aqldan uzoq deb hisoblaydi,

holbuki, bu aqldan uzoq emas, chunki tabiblarning aytishicha, og'izning o'zida ham bir oz hazm ishi bor, ular yana o'zidagi narsani tez bo'shatuvchi och ichakda haydash va hazm qilish quvvati borligini inkor qilmaydilar. Yuqoridagi kishi a'zolar o'z moddalari xilma-xil bo`lsa ham, narsani tortishda o`xshash ekanliklarini esidan chiqaradi, garchi hamma a`zolarga narsalarning tortilishi bir yo`ldan bo`lsa ham shunday bo`ladi. Yana u jiga'dagi tortishning ko`prog'i undagi tomirlarning tolasi orqali bo`lishini unutadi, bu tolalar masoriqo javhariga ham jins va undan ko`p farq qilmaydi. Bu kishi shu hukmlarida qancha ko`p xato qildi.

Ammo, Jolinusning bu haqda aytgan so'ziga kelsak, u bundan hisobga olinali darajada harakat boshlanadigan birinchi kuchli tortishni nazarda tutadi. Uning maqsadi jigarni davolamay, masoriqoni davolash bilan cheklanadigan davolovchilarni xato yo`ldan qaytarishdir. Bunga Jolinusning quyidagi so'zlari dalil bo`ladi: "Bu kasallikda jigarga qaramasdan masoriqoni davolaydigan kishi orqa miyaga zarar yetishi sababli oyoq bo'shashuvida oyoqda quyuq surtma bog'lab, harakatning kelib chiqadigan asl joyi, ya`ni orqa miyaga davo qilmagan kishiga o'xshaydi". Jolinusning yuqoridagi gaplarga ulanadigan so'zi shu oyoqning orqa miyadagi tabiiy, harakat qildiruvchi va sezuvchi quvvatlardan xoli emasligi senga ma'lum. Oyoqdagi quvvat bilan orqa miyadagi quvvat o'ratasida ayirma shuki, birining sezuvchi va harakat qildiruvchi quvvati birinchi, boshqasiniki ikkinchi bo`ladi. Masoriqo qonining ahvoli ham shunday undagi quvvatning kelib chiqqan joyi jigar bo`lsada, uning o'zi ham tortish quvvatidan holi emas. Qanday qilib shunday bo'lmasin masoriqo bir quroldir mushaklarda bo`lgani kabi uzoqdan tortish mahalliy harakat yo`li bilan bo'lmasdan, tabiiy qurollar vositasi bilan bo`lganda, shu qurollar aksariyat vaqtida boshqa narsadan o'zlariga o'tib ta`sirlanuvchilarga uchrashadigan quvvatdan holi bo`lmaydilar, masalan, bir temir magnitdan ta`sirlanib, boshqa bir temirni tortadi. Ko`pchilik tekshiruvchilarning fikricha temir va magnit o'rtasidagi havo ham ta`sirlanib temirni tortadi.

Ovqat hazm qilishning 3-bosqichi jiga'da kechib, zaruriy manbalarning asosiy tarkibi sanalgan iste'mol mahsulotlari hosil

bo`ladi. Mana shu mahsulotlar organizm ichki muhitini tashkil qiluvchi xiltlarni hosil bo`lishida ishtirok etadi.

Ma`lumki, jigar odam organizmida ancha mas`uliyatli vazifani bajaradi. Jumladan, yuqorida ta`kidlaganimizdek, xiltlarning hosil bo`lish jarayonida jigar 4 tabiiy quvvati bilan o`z faoliyatini amalga oshiradi, ya`ni:

- hazm qiluvchi
- tortuvchi
- ushlab turuvchi
- haydovchi quvvatlar

Jigarning mavjud bo`lgan tabiiy 4 quvvatining biri yoki 2 - 3tasi jigar kuchsizligida susayadi. Jigar kuchsizligini mizoj tabobati uslubida tashxislashdan oldin biz, jigarning tabiiy mizoj belgilarini bilishimiz darkor

Jigardagi tabiiy mizojlarning belgilari.

Mizoj turi

Tabiiy issiq mizoj belgilari: Jigar venalarining kengligi, badanning issiqligi, qovurg'a tog'aylari ustida junlarning ko`pligi, ovqat va ichkilikka ishtahaning kuchliligi bilan namoyon bo`ladi.

Tabiiy sovuq mizoj belgilari: Jigar venalarining torayishi, badanning sovuq bo`lishi, qovurg'a tog'aylari ustida junlarning siyrakligi, ishtahaning kuchsizligi va quvvati kuchsiz, qoni suvsimon suyuq bo`ladi.

Tabiiy quruq mizoj belgilari: qonning kamligi, quyuqligi, jigar venalari devorining qattiqligi, butun badanning quruq bo`lishi, junlarning qalinligi, jigari quruq bo`ladi.

Tabiiy ho'l mizoj belgilari: qoni ko`p va suyuq, jigar venalari devorining yumshoqligi, butun badanning ho'l bo`lishi (doimiy ter bosishi), jigari ho'l, rutubatli bo`ladi.

Ibn Sino ta`limotida jigar kasalliklari quyidagicha klassifikasiyalanadi:

- 1.Jigarning mizoj buzilishi kasalliklari (moddali va moddasiz)
- 2.Jigar kuchsizligi
- 3.Jigarning tarkib kasalliklari (jigar sirrozlari)
- 4.Uzluksizlikning buzilishi kasalliklari (har xil travmalar natijasida jigarning yorilishi)

5.Jigar shishlari (exinokokkli kistalar, jigar gemangiomalari, jigar rak kasalliklari)

6.Hamkor a`zolar kasalliklari (surunkali gepatoxolesistitlar, surunkali gepatoxolesistopankreatitlar)

Jigar kuchsizligi

Bu shish yoki yiringli shishdan iborat ravshan bir narsa bo`lmasdan turib, jigar faoliyatining pasayishidir. Jigar kuchsizligi doimo jigar kasalliklaridan keyin keladi va u moddasiz yoki moddali buzilgan mizoj sababli bo`lib, u 2 xil ko`rinishda, ya`ni jigarning o`zidan yoki jigar bilan hamkorlik qiluvchi a`zodan kelib chiqadi.

Jigarning o`zidan kelib chiqadigan jigar kuchsizligi belgilari:

Teri rangi ko`pincha sarg`ish va oqish, ba`zan ko`kimir xira bo`lishi
Axlat va siydikning go`sht yuvindisiga o`xshash bo`lishi

Buzilgan issiq mizojda ichning loyqa sharob keyin kuygan qonga o`xshab

o`tishi.

Buzilgan sovuq mizojda ichning badbo`y qon kabi o`tishi

O`ng qovurg`a ostidagi doimiy simillovchi og`riq kabilar kuzatiladi.

Hamkor a`zolar kasalligi sababli kelib chiqadigan jigar kuchsizligi belgilari:

Me`da hamkorligi sababli bo`lsa:

-ishtaha yo`qligi

-ko`ngil aynishi, qayd qilish

-oshqozon sohasida og`riq

-kekirish .

Ichak hamkorligi sababli bo`lsa:

-ichak yo`nalishi bo`ylab og`riq

-qorin dam bo`lishi

-quldirash

-ichning goh suyuq, goh qattiq o`tishi.

O`t qopchasi hamkorligi sababli bo`lsa:

-Og`izda achchiq ta`m sezgisi

-o`ng qovurg`a ostida og`riq

-terining sarg`ayishi

- axlatning oqarishi
- siydk rangining qizarishi.

Buyrak va siydik qopchasi hamkorligida bo`lsa:

- teri rangining oqarishi
- isitmaning oshishi
- bel sohasida og'riq
- tez-tez kam siyish
- siydk rangining oqarishi.

Ko`krak a`zolari hamkorligi sababli

- nafas olishning yomonlashuvi
- doimiy quruq yo`tal
- hansirash
- ko`krak qafasida og'riq
- Taloq hamkorligi sababli
- terining qorayishi
- bosh aylanishi
- ko`z oldining xiralashuvi
- umumi holsizlik kabi kamqonlik belgilari bilan namoyon bo`ladi.

Jigar kuchsizligini tashxislash

- 1.Kasallikning sababi aniqlanadi
- 2.Bemorning shikoyati va kasallikning klinik ko`rinishiga e`tibor beriladi
- 3.Bemorning teri rangiga e`tibor beriladi
- 4.Bemorning jigarini paypaslash
- 5.Siydikning rangiga e`tibor beriladi
- 6.Axlatning rangiga e`tibor beriladi

Ibn Sino jigarni paypaslab ko`rib, uning ahvolini aniqlagan, ya`ni jigar tomonning issiq tuyulishi issiq mizoqga, sovuq tuyulishi sovuq mizoqga, qattiq tuyulishi jigar qotganligini bildirishini ta`kidlagan.

Gavdaning umumi ahvoldidan olinadigan belgilar: badan terisi qizg'ish oq bo`lsa, jigarning sog'ligini bildiradi, sariq, qo`rg'ooshin, gungurt rangli bo`lsa-jigarning kasalligini bildiradi, venalarning kattaligi va kengligi jigarning kattaligi va yo`llarning kengligi, barmoqlarning qisqa va uzunligi, jigarning katta va kichikligini bildiradi.

Jigar kuchsizligini davolash prinsiplari

- 1.Kasallik sababini aniqlash.
- 2.Bemor organizmini chiqindilardan to`liq tozalash (tanqiya qilish) : asosan o`ng usaylam, o`ng boshliq, sofin tomirlaridan qon olinadi.
- 3.Parhez va dori - darmonlarni tanlab tavsiya qilish lozim.

Jigar kuchsizligida qo'llaniladigan foydali dori-darmonlar:

Hind ravochi ildizi, yerqalampiri,kashnich
 Arpabodiyon, qalampirmunchoq
 Rum ismalog'i, jumro't
 Sachratqi urug'i, zirk
 Zarpechak urug'i, jumro't
 Seylon dorchini, zira
 Behi, shom olmasi, chin noki, nordon-chuchuk anor, do'lana, o'rik
 Za`faron, chakanda
 Arpa suvi
 Sunbul, limono't, sabzi
 Muskat yong'og'i, sarv yong'og'i
 Xushbo'y qamish, mushk, qora chayir urug'lari kabilar tavsiya etiladi.

Jigarga zarar yetkazuvchi narsalar :

Ovqat ustiga ovqat iste` mol qilish.
 Och qoringa hammomga tushish va jinsiy aloqa qilish.
 Badantarbiyadan keyin sovuq suv ichish.
 Shirin sharob ichish.

Jigarga yoqadigan vositalar:

Xushbo'y dorilar (Za'faron va rayxon sharobi)
 Qoramayiz
 Anjir
 Limon
 Olma va sabzi soki
 Sut mahsulotlari
 Qaynatma va dimlama ovqatlar ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Jigar kuchsizligida tavsiya etiladigan parhez taomlar:

- ovqat asosan g'aliz va yopishqoq bo`lmasligi kerak.
- chala pishirilgan tuxum.
- asal

-sho'rvalar (asosan mayiz qo'shib dorchin va murch bilan xushbo'y qilingan anor doni sho'rvasi)

-rayhoniy sharob, gulsafsar sharobi yaxshi foyda beradi.

Jigar kasalliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar

Arpabodiyon - a`zolardagi chiqindilarni chiqarishda hazm sistemasi a`zolari kasalliklarida keng qo'llaniladi. Arpabodiyon mevasining qaynatmasi qorin dam bo`lganda , mizoj sustlashganda yelni haydovchi sifatida ishlatiladi.

Za`faron - jigarni quvvatlovchi, o't haydovchi, xushbo'y va noyob dorivor sifatida ishlatiladi.

Sachratqi - o'simligi ildizining qaynatmasi ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qilishini yaxshilovchi ta`sir ko`rsatadi. Sachratqi va moychechak gullari aralashmasidan tayyorlangan qaynatma jigar , taloq, buyrak va me`da kasalliklarida o't haydovchi, siydk haydovchi sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Do`lananing mevasi guli va bargi ishlatiladi. Mevasidan tayyorlangan ekstrakt va damlamalar jigar , o't -tosh kasalliklarida, yurak faoliyatining funksional buzilishlarida davolash maqsadida ishlatiladi .

Limono`t - ko`p yillik yovvoyi o'simlik. Tarkibida vitamin- C, 0,33 % gacha efir moyi, 0,55 % gacha flavonoidlar, organik kislotalar, qand, 16,56 % gacha oshlovchi va boshqa moddalar bor. Limono`t bargi damlamasi jigar, oshqozon, yurak kasalliklarida, kamqon kasalliklarida, tomir tortishganda va boshqa hollarda og'riq qoldiruvchi hamda surgi dori sifatida ishlatiladi

Sabzi - Vitaminlarga boy, jigarda uglevod almashinuvini va ovqat hazm bo`lishini yaxshilaydi yurak qon tomirlar faoliyatida nuqsonlar bo`lganda tomir devorlarini kengaytiruvchi, tinchlantiruvchi omillar sifatida ta`sir ko`rsatadi. Yurak atrofida, to'sh orqasida hosil bo`ladigan og'riq xurujlaridan holi qiladi.

Olmaning tarkibida qand moddasi, turli xil kislotalar, C, B vitaminlar, organizm uchun zarur bo`lgan tuzlar ham bor. Yurak va jigar kasalliklarida kamqonlik va bundan tashqari oshqozon ichak yo`lini yallig'lanishida ham ishlatiladi

Sarsabil - Lolagulllar oilasiga mansub ko`p yillik o`simlik. O`simlikning ildizlari, poyasi, mevasidan foydalaniladi. U qimmatli sabzavot mahsuloti sifatida ham foydalaniladi. Uning tarkibida organizm uchun nihoyatda zarur bo`lgan lizin moddasi, A vitamin, B1, B2,B6,C, PP vitaminlari bor. Qon bosimini pasaytiradi, yurak va jigar faoliyatini uyg`unlashtiradi, periferik qon tomirlarini kengaytiradi

O`rik - Xalq tabobatida yurak, jigar, xafaqon, oshqozon- ichak kasalliklarida ishlatiladi. Uning tarkibida kaliy, vitaminlar, mikro va makro elementlarga boy.

Zira - Soyabonguldoshlar oilasiga mansub ko`p yillik xushbo`y o`simlik. Tarkibida ko`p miqdorda efir moylari bor. Ziraning suvi bilan yuz yuvilsa tiniq bo`ladi. Shuningdek zira qon to`xtatuvchi, jigar va yurak kasalliklarida qon aylanishini yaxshilovchi, ateroskleroz kasalligida xolesterin almashinuvini yaxshilovchi ta`sir ko`rsatadi. Uning yovvoyisi buyraklardagi toshni maydalaydi. Ichak og`riqlarida, qorin dam bo`lishida ham foyda qiladi

Chakanda - Jiydaguldoshlar oilasiga mansub butasimon o`simlik. Chakanda mevalari va undan olinadigan moy xalq tabobati hamda ilmiy medisina amaliyotida qo`llaniladi. Chakanda mevasi tarkibida 8 % moy, 10,5 % gliserinlar, 10,4 % steorin kislotasi, B1,C, B2, E vitaminlari, folat kislota bor. Chakanda mevasidan ajratib olingan moy va sharbatlar jigar, yurak - qon tomir, revmatizm kasalliklarida qo`llaniladi

Qalampirmunchoq - jigar va oshqozon faoliyatini yaxshilaydi. Ko`ngil aynish va quisishni oldini oladi.

Kashnichdan tayyorlangan damlamalar o`t haydovchi, ovqatni yaxshi hazm qiluvchi, qayt qilishda tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Tog` jambili - Bakterosid, yallig`lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, ishtahani ochuvchi sifatida jigar kasalliklarida ishlatiladi.

Zirk –o`simligidan tayyorlangan damlama va qaynatmalar jigar kasalliklarida yuqori nafas kasalliklarida, oshqozon-ichak kasalliklarida ishlatiladi. Uning siyidik haydovchi terlatuvchi ,og`riq qoldiruvchi, o`t haydovchi xususiyatlari bor.

Yer qalampir ildizi -tarkibida uglevodlar, efir moylari, mikroelementlar, alkaloidlar va vitamin C ko`p bo`ladi. Jigar

kasalliklarida o'tni haydovchi, ishtahani ochuvchi, siyidik haydovchi dorivor o`simlik sifatida ishlatiladi.

Jumro't - mevalari tarkibida ko`p miqdorida qand, organik kislotalar, limon kislotasi va vitaminlarga boy dorivor o`simlik. Jigar kasalliklarida quvvatlovchi, moddalar almashinuvini yaxshilovchi, zararsizlantiruvchi xususiyatga ega.

6.4. § .O't qopi kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

O't qopi anatomiyasи

O't qopi jigardan me`da tomoniga qarab osilgan xaltacha bo`lib, devori bir qavat va asablarga boydir. Uning jigarga qaragan og'zi va yo`li bor jigarga muvofiq keladigan suyuq xilt, ya`ni sariq o't shu yo`ldan tortiladi. Bu yo`l jigarning o'ziga va qon vujudga keladigan tomirlarga tutashadi shu yerda uning jigar tanasiga botib kirgan anchagina shaxobchalari bor, vaholangki bu yo`ldagi asosiy tarmoqning kiradigan joyi jigarning chuqur tomonidadir. Uning yana boshqa og'zi va me`da ham ichaklar tomoniga boradigan kanali bor, shu kanaldan, safroning ortiqchasi me`da va ichaklarga yuborildi. Bu kanal shaxobchalarining ko`pi o'n ikki barmoqli ichakka borib tutashadi. Ba`zan kichkina bir tarmoq me`daning quyisiga tutashadi, goho ish aksincha bo`lib, yo'g'on tomirlarga tutashgan katta qismi me`da quyisiga yo`naladi, kichiklari o'n ikki barmoqli ichakka tutashadi. Ko`p kishilarda bu o'n ikki barmoqli ichakka tutashgan bitta yo`ldan iborat bo`ladi. O'tni surib oluvchi nayning o't qopchasiga kirish yo`li, siyidik pufagidagi nayning pufakka kirish yo`liga o'xshaydi. Qadimgi tabiblar siyidik pufagini odatda "katta xalta" deb ataganlaridek, o't qopchasini "kichik xalta" deb ataganlar. O't qopchasining yaratilishidagi manfaat jigmarni ko`pikli chiqindidan tozalash, jigmarni qozon tagidagi olov singari isitish, qonni latiflashtirish, chiqindilarni tarqatish, axlatni chiqishga qo'zgatish, ichaklarni tozalash va ularning tevaragidagi mushakni pishiqlashidan iboratdir. Ko`p kishilarning o't qopchasida me`daga tomon yo`l yaratilmagan, yaratilganda ichaklardagi rutubat o't bilan yuvilganidek, me`da rutubatlari ham yuvilar edi, bunga sabab shuki, me`da o'tdan aziyatlanib kishi behuzur bo`ladi, ovqatga yomon xilt aralashuvi sababli me`da hazmi buziladi. O't qopchasiga arteriyadan va jigarga tutashib

turadigan asablardan juda kichik ikkita shaxobcha keladi. O't qopchasi siydk pufagiga o`xhash bir qavat bo`lib, uch turli toladan tuzilgan.

O't qopchasi o'tni tortmasa, yoki tortsa ham jigarni tozalab turmasa, turli ofatlar yuz beradi. Safro o't qopchasidan yuqorida to'xtalib qolsa, jigarni shishiradi va sariq kasalligini paydo qiladi, ba`zan u sasib yomon isitmalarini keltirib chiqaradi. Agar o't siydk a`zolariga juda ko`p oqib borsa, yara qiladi, biror boshqa a`zoga oqib borsa, saramas va nazla paydo qiladi. Agar butun badanga tarqalib o'rnashib qolsa va qo'zgalmasa, sariq kasalligini paydo qiladi. Agar o't ichaklarga haddan tashqari ko`p oqsa, safroli ich ketish va ichak shilinishini keltirib chiqaradi.

6.5.§ Taloq kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Taloq anatomiyasi

Taloq qon quyqasi va kuyindisi, ya`ni tabiiy va g'ayritabiiy savdo uchun tozalanadigan joydir. Taloqning ma`lum ishi va quvvati bor, u yurakning past tomonida jigar va o't qopchasiga yon tomondan ro'para turadi. Taloq qonning quyqasini tortib olib hazm qiladi shu quyqa qon achib yoki taxirlashib me`da og'zini qitiqlashga va artib tozalashga qobiliyatli bo`lsa va issiqligi mo`tadillashsa, taloq uni katta vena orqali me`da og'ziga yuboradi. Taloq jigarni va uning yon-verini savdodan tozalashga kuchsizlik qilsa, badanda saraton, oyoq venalarining kengayishi, fillik kasalligi, temiratki, qora dog', qora pes, hatto melanxoliya, moxov va boshqa xil savdo kasalliklari paydo bo`ladi. Agar taloq o'zidan chiqarilishi kerak bo`lgan savdoni chiqarishga kuchsizlik qilsa, u zaruriy sur`atda kattalashib va qalinlashib shishadi o'zidan turiladigan savdoga joy qolmaydi va me`da og'zini qitiqlaydigan savdo to'xtalib qoladi. Agar taloq me`da og'ziga savdoni haddan tashqari ko`p yuborsa, ochiqish kuchayadi. Agar savdo nordon bo`lsa va haddan tashqari ko`p bo`lmasa, ko`ngilni aynitib qustiradi. Ba`zan ichaklarda savdodan bo`ladigan va o'ldiradigan shilinish paydo bo`ladi. Taloq shishsa, butun badan va jigar ozadi, bu jigarga juda ziddir.

Goho savdo taloqda kuyadi, lekin mo`tadil nordonlikda bo`ladi. Ba`zan u me`daga juda ko`p quyilib savdo qustiradi ba`zan me`daga vaqtı-vaqtı bilan quyiladi va bundan "ko`ngil ag'darilish" deb ataladigan kasallik paydo bo`ladi. Ichdan ko`p savdo o'tsayu, isitma bo`lmasa, bu ichaklardagi tutuvchi quvvatning kuchsizligidan yoki haydovchi

quvvatning kuchsizligidan bo`ladi agar ko`p savdo to`xtalib qolsa, uning teskarisi bo`ladi.

Taloq tilga o`xhash uzunchoq bir a`zo bo`lib, me`daga chap va orqa tomongan yondashib, umurtqa turgan joyga borib tutashgan. Taloq o`zining jigar chuquriga o't qopining bo'yni tutashgan joyidan pastroqda tutashgan bo'yni orqali savdoni tortadi va ichkarisidan o'sib chiqqan bo'yni orqali uni haydab chiqaradi.

Taloqning chuqur tomoni me`daga, do'ng tomoni qovurg'alarga yondashib turadi, u qovurg'alarga ko`p va ko`pli boyloqlar bilan osilib turmaydi, balki tolasimon ozgina boyloqlar bilan qovurg'a pardalariga birikib turadi. Chuqur tomoni bilan vena va arteriyalarga tutashadi. Taloqning do'ng va tekis tomoni jigarning pastki bo'lagiga ro'para va me'daning tagida bo`lsa ham, jigar va me`da tomon osilib turadi. Taloq va me`da oralig'ini ularning har biriga tutashib turuvchi tomir biriktiradi, taloq shu tomirga osilib turadi.

Taloqni o'ragan ikki qavat yupqa po`s st o`zining taloqda tarqalgan shaxobchalar bilan uni tutib turadi; shaxobchalar ko`p sonli va mayda bo`lib, taloqqa va yog' qavatga kirishib ketgan. Taloqdan ko`p sonli arteriya va venalar bor, bularda qon yetilib, taloq moddasiga aylanadi, chiqindilar esa haydab chiqariladi. Taloqning tanasi o'ziga kiradigan quyuq va ortiqcha savdoni oson qabul qilsin uchun g'ovak qilib tuzilgan. Uni qorin pardasidan o'sib chiqqan parda o'rab turadi, shu sababli taloq ko`krak-qorin to'sig'iga hamkorlik qiladi chunki ko`krak-qorin to'sig'i ham shu qorin pardasidan o'sib chiqadi.

Mavzu savollari

- 1.Jigar anatomiyasi va fiziologiyasi.
- 2.Jigarning tabiiy mizoj belgilari.
- 3.Jigarning buzilgan tabiiy mizoj belgilari.
- 4.Jigar xastaliklari klassifikasiyasi.
- 5.Jigar kuchsizligi. Jigar tiqilmalari.
- 6.Jigar kasalliklarini tashxislash va davolash.
- 7.Ut qopi xastaliklari, sababi, tashxislash va davolash.
- 8.Taloq, xastaliklari sababi, tashxislash va davolash.

VII BOB. SIYDIK AJRATISH VA JINSIY A'ZOLAR KASALLIKLARI

7.1. § Buyrak, siylik tosh va qovuq xastaliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Buyrak anatomiyasi

Buyrak qonni ortiqcha suvlikdan tozalaydigan quroq sifatida yaratilgan. Suvlikning kerak bo`lganligini o`z navbatida izohlagan edik. Qon yetilib, badanga o'tishga tayyor bo`lganda, bu suvlikka ehtiyoj qolmaydi. Bu suvlik badanda juda ko`p bo`lganligidan uni o`ziga tortib tozalovchi bitta katta a`zo, yoki kichik bo`lganda bir juft a`zo yaratilishi lozim edi.

Agar u bitta va katta bo`lganda edi, yaxshi joylasholmay, siqilib qolgan bo`lar edi. Shuning uchun bitta bo`lish o`rniga ikkita buyrak yaratilgan. Uning ikkita bo`lishida a`zolarning ikki bo`lak qilib yaratilgandagi ma`lum manfaatlar bordir; bular ulardan biriga biror ofat yetsa, ikkinchisi uning vazifasini qisman yoki to`la bajaradi. Ehtiyot uchun ularni sonda ko`p va javharlarini pishiq qilingan, bunday bo`lishining bir qancha foydali tomonlari bordir birinchidan, ularning soni qo'shilishidan hajmlarining kichikligi uncha bilinmaydi; ikkinchidan, javharlari pishiqligidan suyuq narsalardan boshqa narsani tortib shimish mumkin bo`lmaydi; uchinchidan, javhari pishiq, a`zo, har vaqt o`zi to`lgan o`tkir xiltli suyuqlikdan tez ta`sirlanmaydi.

Buyraklarning shunday yaratilishlari natijasida yurak venasi quvvatining bularga yaqin oraliqdan o'tishi qulay bo`lib, u yerda joylashgan ichki a`zolarga o`rin ochiladi. O`ng buyrak, mumkin qadar, jigarga yaqinroq, va undan xiltlarni yaxshiroq tortadigan bo`lishi uchun shul buyrakdan balandroq joylashtirildiki, u jigarga tegishga yaqinlashdi, xatto jigarga yaqin turgan o'siqda tegib turadigan bo`ldi. Shul buyrak shul tomonidan taloq bilan siqishganligidan ham sizilib keluvchi suvlik mo`tadil taqsimlanishda adashmasligi uchun tubanga qo'yildi bunda: siziluvchi suvlik oldin yaqinroqdagagi, keyin uzoqroqdagagi a`zoga tortiladi.

Buyraklar botiq tomonlari bilan bir-birlariga yuzlanib turadi, qavargan tomonlari esa umurtqa suyagiga yaqin turadi. Har bir buyrakning ichida bir kovak bo`lib, bu kovakka yuqoriga ko'tariluvchi

qisqa tomirdan keladigan suvlik emiziladi. Bu emilgan suvlik, buyrak uni qon chiqindilaridan obdon tozalagandan keyin, buyrakning ichki tomonidan sekin-asta siyidik yo`li orqali keladi.

Buyrak tozalangan narsa bilan oziqlanib, chiqindini haydaydi. Chunki suvlik modda buyrakka tomon sof holda ajralib kelmay, balki u etni qattiq yuvgandagi yuvindisi kabi bo`lib, unda qon qoldig'i ham bo`ladi. Shuning uchun, buyrak kuchsizlanganda suvlik moddasi tozalanmay, qonlik qismi bilan birga chiqariladi va shuningdek, jigar kuchsiz bo`lganda ham u suvlikni qonlikdan keragicha ajratolmay buyraklarga yuboradi. Shunda suvlikka aralashgan qon moddasi buyrakning oziqlanishi uchun kerak bo`lgan miqdordan ko`p bo`ladi, natijada chiqadigan suyuqlik buyrak oziqlanishdan zaif bo`lganidagi kabi et yuvindisiga o`xshash bo`ladi.

Buyrakka parda hosil qiladigan mayda asab keladi; unga jigar darvozasi tomonidan vena tomiri va jigarga keladigan arteriyalardan kattagina arteriya tomiri ham keladi.

Buyrak kasalliklari

Buyraklarda mizoj kasalliklari va shuningdek tarkib kasalliklari bo`ladi; keyingilar, masalan, a`zoning kichik va katta bo`lishi va unda tiqilma paydo bo`lishidan iborat, toshlar ham tiqilmalar jumlasidandir. Yana buyrakda uzlusizlikning buzilishi kasalligi ham bo`ladi, masalan, yaralar, yeyilish, tomirlarning yorilishi va ochilishi kabi. Bularning hammasi yo buyrakning o`zida, yoki buyrak bilan boshqa a`zolar oralaridagi yo`llarda paydo bo`ladi bu oz uchraydi. Agar bu yo`llarda qondan, xiltdan yoxud toshdan tiqilma paydo bo`lsa, davolashda buyrak tiqilmalaridagidek tadbir ishlatiladi. Buyrakda kasalliklar teztez bo`lsa, u xoh issiq bo`lsin, xoh sovuq bo`lsin, jigar shu darajada zaif bo`ladiki, istisqogacha olib boradi. Buyragi og'riq kishi yopishqoq va yelimli siygan bo`lsa, buyrak yomon zararli moddani tortishi sababli og'riq zo'rayadi va bu ko`pincha, tosh paydo qiladi. Buyrakning kasalliklari quyuq va cho'kmali siyish bilan yechilib ham ketadi.

Buyrak kasalliklari:

Mizoj buzilish kasalliklari

Tarkib kasalliklari: a`zoning kichik yoki katta bo`lishi
Uzluksizlikning buzilish kasalliklari: yaralar, yeyilish, tomirlarning yorilishi

Buyrak ahvolini ko'rsatadigan alomatlar

Buyrakning ahvolini siydikning miqdori, suyuqligi, rangi, unga aralashgan narsalar, shuningdek chanqash holi, jinsiy aloqani istash holi, bel sohasidagi og'riqlar, ikki boldirning holi hamda og'riqning o'ziga qarab buyrakni ushlab ko'rib, kasalga nimalar muvofiq kelib nimalardan nafratlanishiga qarab bilinadi.

Buyrak kasalligi goho siydikning kamayishi bilan o'tadi. Siydikning yetilishi juda qattiq kuchli bo`lib, boshqa aralashmalari ham bo`lsa, illatni qovuqda deb taxmin qilinadi. Agar yetilish bu darajada bo`lmasa, illat buyrakda bo`ladi. Yuqori a`zolar sog' bo`lmasa, yetilish bo`lmaydi va ularda ofat bo`lmasa edi, yetilmaslik ham bo`lmast edi.

Umuman, buyrak ahvolini ko'rsatadigan alomatlar:

- siydik miqdori
- suyuqligi
- rangi
- siydikka aralashgan narsalar
- chanqash holi
- jinsiy aloqani istash holi
- belning ahvoli (bel og'riqlari)
- ikki boldirning holi
- buyrakni ushlab turish

Buyrakning tabiiy mizojsi belgilari

Buyrakning issiq mizojsi belgilari:

- siydikning qizil yoki sariq rangda bo`lishi
- buyrak charvisining kamligi
- buyrak tomon ushlanganda issiq tuyulishi
- jinsiy aloqa istagining kuchli bo`lishi
- chanqashning ko`pligi

Buyrakning sovuq mizojsi belgilari:

- siydikning oqligi
- jinsiy aloqa istagining yo'qolishi

- belning zaifligi
- buyrak tomon ushlanganda sovuq tuyulishi
- chanqashning kamligi bilan namoyon bo`ladi.

Davolash:

Buyrakning buzilgan issiq mizojini davolash:

- echki suti
- sigir ayroni

-sovuj suv va tarrak urug'i bilan huqna qilish

-Quyuq surtmalar va sovuqlik yog'lari bilan ishqalash

Buyrakning buzilgan sovuq mizojini davolash:

-issiqlik o'simlik va hayvon yog'lari: kunjut yog'i, yong'oq yog'i, kalkalanaj, sariyog', achchiq bodom yog'i va maxsar yog'lari

-sariq yo'ng'ichga

-ukrop suvi

-kalla va jo'ja go`shti sho'rvalari bilan huqna qilish

-tulki , sirtlon yog'i, dafna yog'i "sanovbar", yong'oq yog'i, pista moyi bilan badanni moylash

-Qust yog'i bilan huqna qilish

-buyrakni quvvatli qilishda dumba yog'i bilan huqna qilish yaxshi samara beradi.

Siydik - bu buyrak tomonidan qonni siqib suvdan tozalagan ajratmadir.

Siydikdan olinadigan ma`lumotlar 7 turkumga bo`linadi:

Rang, quyuq-suyuqlik, tiniqlik va loyqalik, cho'kma, kamlik-ko`plik bo`yicha miqdor, hid turkumi, ko`piklilik turkumi.

Siydik rangidan olinadigan dalillar yuzasidan masalan, ranglari yuzasidan:

Somon rang, limon rangi, malla rang, noranjrang , za`faron tusli, olov rang bo`lishi.

Limon rangdan so`nggilarining hammasi mizoj issiqligidan dalolat beradi.

Qizillikning turli ko'rinishlari: to'q mallarang, pushti rang, och qizil rang, to'q

Qizil rang - qonning ko`payganligini bildiradi.

Agar siydk tiniqroq bo`lsa, issiqlik kamaygan bo`ladi. Agar za`faron tusli bo`lsa, u jigar o'ti ko`payganligini, agar to'q qizillikka o'tsa, demak, qon o'tdan ko`pligidan dalolat beradi. O`tkir qonli kasalliklarda garchi tomirlarning yorilishi bo`lmasada, siydk qonga o'xshab qoladi. Bu qon tomirlarining o'ta to'lib ketganligini bildiradi. Agar siydk oz-ozdan chiqsa bu xatar alomatidir (qon quyilishidan qo`rqish kerak).

Buyrak kasalliklarida tavsiya etiladigan taomlar:

- Qo`y go`shti, baliq, shura o`t, yaman baqlasi
- Qush go`shti, tog' chumchug'i, chala pishgan tuxum, sariqyog'
- eshak suti, tuya suti, sigir va qo`y suti
- Qovun, bodring, nok, do`lana, anor, behi, olma
- bodom, pista, funduk, sanovbar bunsuri, xurmo

Buyrak toshi

Buyrak toshi bilan qovuq toshining paydo bo`lishidagi sabablar umumiyyidir.

Tosh - ta`sirlanuvchi modda bilan ta`sir qiluvchi quvvat natijasida hosil bo`ladi.

Ta`sir qiluvchi quvvat - bu mo`tadillikdan chiqqan haroratdir. Ta`sirlanuvchi

modda - shilliq, yiring yoki qon kabi suyuq, yopishqoq rutubatdan iborat bo`ladi.

Modda to`planishining 2 ta sababi bor:

-moddani ko`paytiruvchi mahsulotlar: g'aliz ovqatlar, quyuq sut, pishloq, tuya, sigir va taka go`shtlari, yopishqoq non, xom non, patir, uvra, lokashta, shirguruch, yopishqoq holvalar, xom mevalar (olma, shaftoli, limon, nok) eti, loyqa suvlar, qora quyuq sharoblar. Moddani qamab turuvchi sabablar: mizoj buzilishi yoki issiq shish sababli buyrak haydovchi quvvatining zaifligidir. Bu zaiflik natijasida buyrakka oqib kelgan qonning suvlik qismidan hosil bo`lgan ortiqcha xiltlar, cho`kmalar qamalib qoladi. Kuchli issiqlik ortiqcha xiltlarni to`liq hazm bo`lishidan oldin tana yuqori qismidan buyrakka tortadi va uni qovuqqa o`tkazishdan oldin qumga va toshga aylantiradi.

Buyrak toshi - bir oz yumshoqroq, kichikroq, qizg'ishroq bo`ladi. Siydkda paydo bo`lishidan ancha burun paydo bo`lgan va siydk bilan birlashmay undan orqada qolgan siydk cho`kmasidan iborat bo`ladi.

Ko`pchilik bemorlar semiz bo`ladi. Qariyalarda buyrak toshi ko`proq bo`ladi. (chunki qariyalarda xiltlar quyuq bo`lib u buyrak orqali o`tmaydi va ularda hazm faoliyati zaif bo`ladi).

Buyrak tosh borligining alomatlari:

- siyidik avval quyuq bo`lib, keyin suyuqqa aylanadi

- siyidik qancha tiniq bo`lsa, undagi cho`kma qanchalik oz bo`lsa, bu toshning qattiqroqligini bildiradi

- og'riq yoki og'riqsiz qora tusda siyish qovuqda tosh borligini bildiradi

- beldagi og'irlilik hissi va og'riq sezilishi

Og'riq kuchayishi sabablari:

- tosh paydo bo`lishining boshida u o`rnashayotgan to`qimalarni parchalaganda

- taom iste`mol qilgach uning ichakka tushib o`tganda

- chiqindilar haydalib ichak bo`shashgunga qadar.

Toshning harakati belgilari:

- og'riq pastga borib zo`rayadi, ya`ni og'riq beldan 2 son orasiga va siyidik yo`li sohasiga

- tarqalib juda kuchli bo`ladi.

Qovuq anatomiysi

Quyuq yaratuvchi axlat uchun uni to`yorilgunigacha bir joyga to`plab turib o`rab turadigan idish yaratib, buning natijasida sen o`z joyida bilganingdek, uzluksiz va ketma-ket hojatga turishga ehtiyoj qoldirmagani singari, u oliy darajali, qonning haydalib chiqarilishi kerak bo`lgan ortiqcha suvlik qismining oqma kelishi uchun bo`shliq va idish yaratdi. Bu idish o`sha suvlik qismining hammasini yoki ko`prog`ini saqlab turadi, nihoyat uning bir yo`la chiqarilishi mumkin bo`lib, chakmazak kasalligiga mubtalo bo`lgan kishida bo`lgani kabi, uni uzluksiz to`kib turishga hojat qoldirmaydi. Bu bo`shliq qovuqdir.

Qovuq, juda pishiq bo`lsin uchun va mahkamligi bilan birga suvlik moddaga to`lganda cho`zilish va kengayishga qobiliyatli bo`lsin, hamda tuzilishi zich bo`lsin deb chandir singari boyloq paydan yaratildi. U qachon to`lsa, o`zidagi narsani zarurat talab qilgan idora bilan bo`shatadi. Uning bo`ynida go`shtlik yo`l bor, bu orqali qovuqning mushak bilan qo`shnichiligi yaxshi bo`ladi.

Qovuq ikki tabaqali bo`lib, ichki tabaqasi chuqurda joylashgan va u tashqi tabaqadan ikki marotaba qalindir. Chunki ichki tabaqa o`tkir suvlilik moddasi bilan uchrashib turuvchi tabaqadir. Yaratuvchi lutf qilib, o`z hikmati bilan suvlilikni ichki tabaqaga tortiladigan va undan chiqadigan qilib, buyrakdan unga ikkita siyidik yo`lini tutashtirdi; bularni qovuqda keltirib qovuqni ham ikki tabaqaga ayirdi.

Bu ikki yo`l shu ikki tabaqa orasiga kiradi; ular dastlab birinchi tabaqani teshib, keyin ikki tabaqa orasida bir qadar yo`l o`tib, ichki tabaqani yorib teshib, qovuq bo`shliqiga kiradi va chiqindi suvlilikni qovuqqa qo`yadi. Qovuq to`lib, taranglashganda, ichki tabaqa ichkari va chuqurlikdan ko`tarilib, tashqi tabaqa bilan birlashadi va ikki tabaqa bir tabaqaday bo`lib, ularning orasida o`tadigan yo`l qo`yolmaydi. Shuning uchun, suvlilik va siyidik qovuqni to`ldirib tarang qilganda ham orqasiga siyidik yo`llariga qaytmaydi. Keyin yaratuvchi,- uning qudrati yuksakdir,-qovuqdan suvlilikni olat tomon itaruvchi, juda egri-bugri bo`yin yaratdi. Mana shu qat-qat bukuklar bo`lganidan suvlilik qovuqdan birdaniga oxirigacha chiqarilmaydi.

Bu hol, ayniqsa, erkaklarda kuchli bo`ladi, chunki bukukliklar erkaklarda uchta bo`lib, xotinlarda qovuqdagi bachadonlariga yaqin bo`lganidan, bittadir. Bu bo`yining boshlangan sari uni burib va siqib turuvchi mushak bilan shunday o`ralganki, bu mushak irodadan tashqari, suvlilikning chiqarilishiga mo`ne bo`ladi. Bu mushak o`z joyida bilganingdek idora bilan qorin mushaklari yordamida bo`sashtiriladi, agar bu mushakka biror ofat yetmagan bo`lsa, shunday bo`ladi. Qovuqda ikkala tarafdan birmuncha asablar, shuningdek harakatli va harakatsiz tomirlar tutashadi. Qovuqning taranglashib cho`zilishi ko`proq sezilishi uchun bu yerda asablar ko`p tarmoqlangan.

Qovuq kasalliklari

Goho qovuqda moddali va moddasiz mizoj kasalliklari, shuningdek shish va tiqilmalar paydo bo`ladi, toshlar ham tiqilmalardan hisoblanadi. Goho bunda kichrayish va kattalashish kabi miqdor kasalliklari, ba`zan turtib chiqish va o`rnidan qo`zg`alish kabi noto`g`ri vaziyat kasalliklari paydo bo`ladi. Qovuqda yorilish, ochilish, ezilish va yaralanish bilan uzluksizlikning buzilishi kasalliklari ham paydo bo`ladi.

Goho qovuqda boshqa boshqaruvchi va sharafli a`zolar hamkor bo`ladi. Masalan, miya qovuq kasalligida hamkor bo`lib, bosh og'riydi va bosh aylanishi yuz beradi. Ba`zan miya qovuqning issiqliidan bo`lgan kasalliklariga hamkor bo`lib sarsomga borib etadi. Shuningdek, jigar ham qovuqda hamkorlik qilib, qovuqning sovuqligidan, ko`pincha, istisqo paydo bo`ladi.

Qovuq kasalliklari qishda ko`p bo`ladi, bularni kam buyrakni davolaydigan narsalar bilan va kuchliroq ham tozalovchanroq haydovchanroq narsalar bilan davolanadi; bu xil dorilarni ichiladi, maxsus asbob yordamida qovuqning o`ziga yuboriladi, tashqaridan so`rib ishqalanadi, siydik yo`llari ustiga, kindik tagiga va ichki "chuqur darzga" bog'lanadi. Qovuq og'riqlari shimoliy havoda va shamol chog`ida, shimol tomondagi mamlakatlarda va sovuq fasllarda ko`p bo`ladi.

Qovuqni qizdiradigan narsalar:

Siydikni haydovchi issiqlik dorilarning hammasi, qust, rum sunbuli va bon daraxti yog'lari kabi issiqlik yog'lar va issiqlik yelimlarni ishqalash va yuborish, issiqlik dorilardan ma`lum joyga kompress qilish va ularni quyuq surtma sifatida ishlatish qovuqni qizdiruvchi narsalardir.

Qovuqni sovutuvchi narsalar:

Semizo`t, bodring va qovoq suvini kofur va sovuq suv bilan ichish. Surtmalardan sandal, kofur ham fufalning ayron bilan qo`shilgani, shuningdek, shiralar, shilliqlar va sovuqlik yog'lar ishlatiladi, masalan, yaxshi sifatli gul yog'i, qovoq urug'i yog'i, ko`knor urug'i yog'i va koxu urug'i yog'ini kofur va boshqa shu xil dorilar bilan ishlatsa, asbob bilan qovuqqa yuboriladi.

-Qovuq, sovuqroq, yurakdan uzoqroq va undagi tosh kuchliroq qotib mahkam o`rnashganligi sababli, bu kasallik kuchli dorilarga muhtojdir. Buning dorilari buyrak toshlarini davolashda aytilgan kuchli dorilarning o`zidir.

Qovuq toshi

Qovuq toshi - qattiqroq, ancha kattaroq, qoramtil, kulrang yoki oqish bo`ladi. Siydik ajralgandan keyin ajralib qoladi va siydik bilan birga qamalib qolgan siydik cho'kmasidan iborat bo`ladi. Ko`pchilik bemorlar oriq bo`ladi.

Bolalar va yigitlarda qovuq toshi ko`proq uchraydi. Haydovchi quvvat ularda kuchli bo`lib, xiltni badan yuqorisidan tubanga haydaydi. Ularda xiltlar suyuq bo`lgani uchun u xiltlar buyrakdan tez o`tib ketadi. Bolalar serxo`rak bo`lib, to`q qoringa harakat qiladilar va sut ichadilar, shuningdek qovuq yo`li ularda tor bo`ladi.

Davolash.

- tosh moddasini kesish
- tosh paydo bo`lish sababini to`xtatish va tuzatish
- toshni maydalash, siydirish, bog`lanib turgan joydan ajratib chiqaradigan dorilarni qo`llash.
- tosh tufayli kelib chiqadigan og`riqni to`xtatish va yaralarni tuzatish
- Ichni surish, qustirish, g`aliz ovqatlar va loyqa suv (ichimliklar) dan parhez qildirish.

Ovqat yeb so`ng quisish. Bu amaliyat tez-tez qo`llaniladi, chunki chiqindilar buyrakka zid bo`lgan tomondan haydaladi va buyrak tomon tozalanadi.

Chalqancha bo`lib yotish toshga qarshi foyda qiladigan choradir. "Yaxud" toshi "atroguliditus" nomli chumchuq go`shti, chayon kuli kabilar qo`llanilib, ularga kuchli siydiruvchi dorilar qo`shib beriladi. Murch va u kabi dorilar buyrak orqali tez o`tib borib, ularni o`tkazadi va tozalaydi.

Ta`sirlangan a`zoni kuchaytirish uchun sunbul, seylon dolchini buyuriladi. A`zo quvvatini saqlash uchun burishtirish xossasiga ega bo`lgan mevalarning quyuq shiralari buyuriladi.

Og`riq qattiq bo`lganda uvishtiruvchi dorilar buyuriladi. Toshni maydalab chiqaruvchi dorilardan: qust ildizi, maymunjon ildizi, mukil, beda ildizi, qora no`xat, Dafna daraxti ildizining qobig`i, gulxayri urug`i, olcha mevasi, dula yelimi, temirtikan, xina ildizi, dengiz piyozi, tog` petrushkasi, ermon, seylon dolchini, dasht bodringining ildizi, balzam daraxti yog`ochi, shirin ajriq ildizi, turp urug`i, pista kabilar qo`llaniladi.

Toshga qarshi murakkab dorilar: Mitridat, sansazoniyo, chayondan qilinadigan ma`jun "Tangrining quli" (taka qonidan, "qimmatbaho" balzam yog`idan) tayyorlangan dorilar foydalidir.

Og`riq qoldiruvchi dorilar: Zig`ir urug`i, chilguza, gulxayri urug`i kabilarni qo`llash ijobiy samara beradi.

Qovuq toshi kichik yoki yumshoq bo`lsa, bularga sajazoniyo va mitridat foyda qiladi: asonosiyo ham shunday; ularga bir uqiya taloqgiyoh, va yarim uqiya maxlabning ustiga bir barmoq botgundek suv solib, ho'l qaynatib, suzib ichirilsa ham foyda qiladi. Mana bu ham ularga foydalidir: yanchilgan kult o`n besh dirham, parsiyovashon, yetti dirham, taloqgiyoh, sakkiz dirham, temirtikan, o'n dirham yovvoyi sabzi urug'i va tog' petrushkasining har biridan dirhamdan va oq anjirdan yetti dona olib, to`rt ritl suvda bir ritl qolguncha qaynatiladi va hammomdan chiqqandan keyin ichiladi. Buning bir yechimi yarim ritldir.

Qovuq toshida ishlatiladigan vanna kuchli bo`lishi kerak. Ularga taniqli dorilardan tog' murchi bargi, parsiyovashon, sodaj, bo`yimodaron, qizil gul va badanni haddan tashqari bo`shashtirmasligi uchun bir ozgina burishtirish xususiyatiga ega bo`lgan narsa solinadi. Ishqalanadigan dorilarga galban yelimi, zift, kavrak yelimi va farfiyun soladilar.

Bog'lanadigan dorilarning eng afzali makka mukli bo`lib, yog'larning eng yaxshisi chayonlarning yog'laridir. Bularni qovuq turgan yerga qo'yib bog'lanadi, tomiziladi va qurol bilan qovuqda yuboriladi, bularga quvvat beruvchi biror narsani ham aralashtiradilar. Bog'lanadigan dorilarning tarkibiga quyidagilar kiradi: taloqgiyoh ildizi, shirin ajriq ildizi, julax, sodaj, gulxayri va parsiyovashon. Bunga yana qizil tasma yaprog'i ham solinadi.

Chumchuq va uning toifasidan bo`lgan qushlar ham juda foydalidir. Davolashda tosh dorilarini qurol bilan kirgizib ishlatish, bu kasallikda maxsus qo'llaniladigan tadbirlardan sanaladi. Kasallar bundan juda foydalanadilar, qovuq toshi sababli siyish qiyinlashib yoki siydik to'silib qolsa, biror to'siq yoinki qo'rqish sababli qovuqni yorishga imkoniyat bo`lmasa, bu holda ba`zi odamlar hiyla ishlatib orqa teshik bilan moyak orasidan kichkina yoriq ochib, u yerdan siydikni chiqarish uchun bir naycha qo'yadilar.

Bu bilan hayot kechirish garchi oson bo`lmasa ham, o`lim daf qilinadi. Dorilardan biror foyda bo`lmasdan, qovuqni yorishga qasd qilinganda saqlanish lozim bo`lgan narsadan saqlanish, naslga biror ofat yetmasligi yoki qon ketmasligi va bitmaydigan yara paydo qilmaslik uchun bu ish uchun qovuq anatomiyasini, qovuq bo`ynining maniy

yo`liga tutashadigan yerini, arteriya o`tgan yerini va qovuqning go`shtlari o`rnini biladigan va qovuqning anatomiyasi bilan yaxshi tanish bo`lgan kishini tanlash kerak. Bundan ilgari kasalni chappasiga yotqizib, ichak va qovug`iga paxtadog` qilish lozim.

Bu shundan iborat: kursi tayyorlab unga bemor o`tkaziladi, shu yerda hozir bo`lgan xodim qo`lini kasalning ikki tizzasi tagiga kirgizadi. Keyin tabib yorish tadbirini ko`radi. Oldin toshni topib, uni yoriladigan yerga keltirib, shu yerda ushlab turish kerak. Buning uchun o`rta barmoqni erkaklar va qizlarning to`g`ri ichagiga, juvon xotinlarda esa bachadon yo`liga kirgiziladi va tosh topiladi; keyin ikkinchi yo`l bilan toshning ustidan bosib qornining yumshoq yeri va kindikdan sirpantirib qovuq og`zi yaqinigacha tushiriladi. Toshni darzdan bir arpa bo`yi qadar quyiga haydashga tirishiladi. Darzdan yorishdan saqlan bu juda yomon; darz haqiqatda o`ldiradigan yerdir. Toshni itarishda sustlik bo`lmasin, sustlik qilinsa, yoriq kengayib, bitmaydigan bo`lib qoladi. Toshni itarsang va yoriqni ichga o`tmaydigan deb bilsang, keskin, agar shu paytgacha qilingan ish qattiq alamga, qovuq bo`ynining qayrilib qolishiga, quvvat tushishiga, harakat va so`zdan qolishga, qovoq va ko`zning ich-ichiga tushib ketishga olib bormaydi deb tushunsang, shunday qilib bordi-yu, yorish shunday hollarga olib boradigan bo`lsa, u chog`da yormay qo`yaqol, chunki agar yorar ekansan, kasal darhol o`ladi.

Keyin tosh ustidan ozgina yoriladi, yorganda asabga tegishdan saqlanish bilan birgalikda yoriq qovuqning bo`yniga tushishiga tirishiladi. Chunki agar yoriq qovuqning tanasiga tushib qolsa, hech bir bitmaydi. Bundan tashqari mumkin bo`lganicha yoriqni kichkina qilishga tirish. Agar tosh kichkina bo`lsa, ko`pincha, u siqish bilanoq otilib chiqadi, katta bo`lsa, keng yoriq qilishga va ko`pincha, tortib oladigan ilmoqda muhtoj bo`linadi.

Ba`zan tosh juda katta bo`lib, uning hajmiga moslab yorish mumkin bo`lmaydi. U chog`da uni ombur bilan mayda-mayda bo`laklarga maydalaniadi va singani olinaveradi. Qovuqda hech bir narsa qoldirilmaydi, chunki agar qoldirilsa, uning yana hajmi ortib kattalashadi.

Ba`zi vaqtda tosh qovuqning bo`ynida va olatning yaqinida ekanligi bilinib turadi, bu chog`da qovuqning ustidan silab bosish lozim bo`ladi.

Bu ishda senga bir yordamchi kerak bo`ladi; tosh bir yerga qadalib qolsa, o'sha joyning ostidan ochib tosh chiqariladi. Ko`pincha, tosh ketiga qaytmasligi uchun u turgan joyni orqasidan burib boylab qo`yish tuzukdir. Agar tosh olatning boshiga yaqin kelgan bo`lsa, u yerdan uni chiqarishga qattiq urinilmasin, chunki bunday qilish, ko`pincha, jarohat paydo qiladi va u bitmaydi. Balki toshni to'g'rilash, orqasidan burib boylash va uni chiqarish uchun olatning boshi tagidan yorish kerak bo`ladi.

Aytiglanlarning hammasini qilib, toshni chiqarsang, ko`pincha, qorinning qattiq ezilishi va yorig'ni og'rishidan shish paydo bo`ladi; bu qo`rinchli narsalardandir. Buni qaytaradigan narsalardan biri kasalga huqna qilib, ichni tozalash va bundan keyin unga ichni yumshatadigan narsa ichirishdir. Unga faqat bir ozgina narsa yedir, shunda ham yumshatuvchi narsa edir. Shishning oldini olish uchun tomirdan qon olishga muhtoj bo`lsang, uni qilasan. Agar kuchliroq yordam olmoqchi bo`lsang yoki shish belgilari paydo bo`lib, og'riq juda ham qattiq bo`lsa, kasalni vannaga yoki tugmachag'uncha, gulxayri va kepak kabi yumshatuvchi narsalar, qaynatilgan suv solingan tosga o`tkazishing kerak. Bu suvga ko`pgina yog' solib chayqatilgan va iliq bo`lishi kerak. Kasalni vannadan chiqarganingda a`zo atrofini bobuna va ukrop yog'ları kabi yumshatuvchi yog'lar bilan ishqlaysan. Jarohatga qizdirilgan sariyog' qo'yiladi va uning ustiga ozgina sirka qo'shilgan qizil gul yog'iga botirilgan paxta qo'ysan, bundan keyin bitiruvchi dorilar ishlatiladi.

Shish kattalashsa, kasalni sariq yo'ng'ichqa va zig'ir urug'i qaynatmalaridan qilingan mazkur vannaga uqalashni davom ettirasan, agar og'riq zo`raysa, kasalni ikkinchi ham uchinchi kuni iliq suv va yog' aralashmasiga o`tkaz. Agar yoriq va jarohat unchalik og'ritmasa, uchinchi kuni boyloqlar yechiladi. Gazago't yog'i bilan qovuqni qizdirish davom ettiriladi. Chunki qovuq qizdirilsa, uning holi yaxshiroq undagi og'riq va chiqariladigan siydik ham ozroq bo`ladi; qobig'i kesilgan kishiga siydik juda azob beradi.

Shuning uchun, bu kasallarga suvni ko`p ichirmaslik kerak. Kasal har safar siyganida siydik yorilgan yerga tegmasligi uchun xodim yordamchi tabib bog'langan yerni ehtiyyot qilib bosib turishi kerak. Keyin, yorilgan

yerda quyidagi ikki holdan biri ko`riladi: yo`g'on keragicha miqdorda oqmaydi, bunda shish paydo bo`lishi va a`zoning buzilish xavfi ko`riladi; ayniqsa rangi qizildan qoraga o`tishi bu xavf bo`ladi; yohud qon haddan tashqari oqib, qonning to`xtamay ketish xavfi paydo bo`ladi. Birinchi holda, mazkur belgi ko`rilgan hamon buzilishning oldini olish uchun nashtar urib qonni oqizish va o`sha yerga sirkaga va tuz eritmasiga botirilgan kanop lattani qo`yib bog'lash kerak: ikkinchi holda, ya`ni ko`p qon ketish xavfi bo`lganda, to`g'riroq chora - kasalni ma`lum burishtiruvchilar ivitilgan suvlarga o`tkazish, yorilgan joyga yanchilgan qundur va zok qo`yish, uning ustidan paxta qo`yib va uning ustidan suvli sirkaga bilan ho'llangan va undan ko`ra kattaroq, paxta qo`yishdir. Agar katta tomir yoki arteriya kesilganini bilsang, uning ilojini siqib bog'lash tadbiri bilan qilasan.

Agar qon bo`ysunmasa va uni to`xtatib bo`lmasa, kasalni o`tkir sirkaga o`tkaz. Ko`pincha, qonni tortish uchun tomirdan qon olishga muhtoj bo`lasan. Ba`zan qovuqda va ikki chovga uvushtiruvchi dorilardan quyishga to`g'ri keladi. Yorish va qon oqishdan paydo bo`ladigan hollardan biri bir parcha ivigan qonning qovuq tomon oqib, unda qotib qolishi sababli siyishning qiyinlashuvidir.

Bu holda barmoqni yoriqqa kirgizish va aziyat beruvchi narsani qovuqdan va uning bo`ynidan uzoqlatib chiqarish kerak. Bu joyni suvli sirkaga bilan qotib qolgan qon erib chiqguncha davolanadi. Kesishdan kelib chiqadigan hollarning yana biri nasl qoldirish qobiliyatining qirqilishidir. Quyidagi - yomon alomatlar paydo bo`lganda, tabib kasalning halok bo`lishiga jazm qiladi: kindik ostida og'riqning kuchayishi, ho'l va oyoqlarning sovushi, isitmaning o`tkirlanishi, titroq paydo bo`lishi va madorning tushib ketish. Keyin, yorilgan yerda qattiq og'riq kuchayib, hiqichoq paydo bo`lsa va qorin bezovta harakatga tushib qolsa, albatta o`lim yaqinlashgan bo`ladi. Yaxshi alomatlarga kelsak, ular hushning asliga qaytishi, ishtahaning tuzalishi, tus va ko`rinishning juda ham sog'lom va yaxshi bo`lishidan iboratdir.

Qovuq siydikni hamma tomondan siquvchi narsadek qisib haydaydi, bunda, qovuqning og'zidagi mushak bo`shashadi va qorin mushaklari siqilib, siydikni siqib chiqaradi.

Buyrak kuchsizligida buyuriladigan parhez taomlar:

- Shakar qo`shib iste`molga buyurilgan quruq meva mahsulotlar-pista, bodom, yong'oq,
- Funduq, o`rik donagi.
- Asal bilan yong'oqdan qilingan murabbo.
- Mukashshar qilingan mosh (po`sti olingan mosh)
- Shakar solib pishirilgan shirguruch
- Ovqatga - bodiyon, sabzi, sholg'om urug'lari, kamroq murch. Sho'r narsalar berilmaydi.
- Issiq quruq hammomlar bilan ko`proq terlatiladi.

Mavzu savollari

- 1.Buyrak anatomiysi va fiziologiyasi.
- 2.Siydik xosil bulish mexanizmi.
- 3.Siydikdan olinadigan dalillar.
- 4.Buyrak mizojini baxolash.
- 5.Buyrak toshi. Alomatlari.
- 6.Siydik chiqarish a'zolari xastaliklari.
- 7.Buyrak toshi va qovuk, toshi o'rtasida gi farq.Tashxislash va davolash.

7.2. § Ayollar va erkaklar jinsiy a'zolari xastaliklari

Moyaklar va urug' yo'llari anatomiysi.

Moyaklar boshqaruvchi a'zolar sifatida yaratilgan bo`lib, bularda urug' tomirlar orqali o'zlariga sizib qolgan rutubatdan tug'iladi; bu rutubat go'yo gavdaning hammasida to`rtinchi hazmdan ortgan narsa bo`lib, qonning eng yetilgani va eng latifidir. Bu qon ruh yordami bilan moyaklarda va arteriya ham venalardan moyaklarga keluvchi yo'llarda harakatlanadi. Bu tomirlar esa katta arteriya katta venadan iborat asosiy ikki tomirdan taralib, ko`p marta bukilib, o`ralib tarmoqlanadi.

Agar bu ikkisidan biri kesilsa, ko`rinib turgan tomir og'izlari ko`pligidan ko`p tomirlarni kesilganga o'xshaydi. Keyin urug' bu ikki tomirdan urug' idishlariga quyilib, olat yo`lidan kelib xotinlarning farjiga otiladi va keyin bachadonga boradi. Bu tabiiy jinsiy aloqa bo`ladi. Erkak ham xotin urug'ni bir vaqtda bo'shatganda, bachadon og'zi ochilib, buni qattiq tortish bilan qarshi oladi.

Moyaklar kovakka o`xshab tuzilgandirlar: moyak javhari oq go`shtlik bez a`zo bo`lib, u go`sht, emchak go`shtiga ko`proq o`xshaydi. Moyak javhariga quyilgan qon o`sha javharga o`xshash bo`lib oqaradi, xususan, bunda ruh havosi to`lqinlangani sababli shunday bo`ladi.

Moyaklarga keladigan tomirlarning yo`li qov ustidagi katta pardadir. Moyaklarga keluvchi arteriya va vena tomirlarini qoplovchi pardaga kelsak, buning chiqadigan yeri katta pardadir, bu bilan u orqa miya pardasiga ham tutashadi. Bu parda chov yo`li orqali moyaklarga tushuvchi tomirlar va chandirlar usti bilan tushadi.

Bu pardadan chov yo`li paydo bo`ladi. Bu yo`ldan o`tuvchi tomirlarni o`rovchi parda ham shundan vujudga keladi. Chap moyakka, o`ng moyakka oziq keltiradigan tomirlardan boshqa tomir keladi. O`ng moyakka keladigan tomir ko`proq, yetilgan va suvlikdan tozaroq qon quyadi. O`ng moyak ko`pchilik odamlarda chap moyakdan kuchliroq bo`ladi. Bundan chapaqay kishilar mustasnodir.

Urug' idishlari chov yo`llari kabi boshlanib, har bir tuxumdan bir yo`l chiqadi, bu yo`llar unga tegib turuvchi va yo`liquvchi bo`lsa ham, go`yo undan ayrim holda va undan kelib chiqmagandek bo`lib turadi. Bularning har biri moyak oldida shunday kengayadiki, ularda yaqqol bo`shliq paydo bo`ladi, so`ngra, ba`zan ayniqsa xotinlarda tugash oldida ikkinchi marta kengaysa ham, ular toraya boshlaydi. Bu idishlar oldin yuqori chiqib, keyin siydir yo`lidan tubanroqda. Qovuq bo`yniga tutashadi. Olatga kelsak, bu qurol-a`zo bo`lib, boyloq asab, tomir va go`sht kabi sodda a`zolardan tuzilgandir. Bu qov suyagidan o`sib chiquvchi, ko`pincha, yumilib turadigan ko`p va keng kovakli jismdan boshlanadi. Bu kovaklarga yel to`lishi bilan olat taranglashadi. Bu jism tagida, shu a`zo hajmiga nisbatan ko`p sonli keng arteriyalar o`tadi. Olatga dumg`aza umurtqalaridan, uning javhariga ko`p chuqr botmay o`tuvchi asablar keladi. Buning javharidagi asablar sezgisiz chandirdan iboratdir. Jolinuscha, olatni tarang qiluvchi asablar, uning bo`shashishiga xizmat qiladigan asablardan boshqadir. Olatda uchta yo`l bor: siydir yo`li, urug' yo`li va vadiv yo`li.

Olatni tarang qiluvchi quvvat va yel yurakdan, uning sezgisi - bosh miya va orqa miyadan, mo`tadil qon va shahvat xohish jigardan keladi. Olatning tabiiy shahvati goho buyrakning ishtiroki bilan bo`ladi.

Shu jihatdan a`zoni qo`zg'atuvchi istak paydo bo`ladi, chunki u shunga tayyorlangan bo`ladi. Bu ham borki, tortishish achishishni paydo qiladi. Bundan tashqari urug' aloqa a`zolariga kelganda ulardan chiqishni talab qiladi va bu a`zolardagi moddalarni qo`zg'atadi. Olatning taranglashishi, ba`zan qovuq og'zining ikki tarafiga qo`yilgan bezlarga boruvchi moddaning achishtirishidan bo`lganidek, buyrakdan keluvchi suyuq latif moddaning achishtirishi sababli ham bo`ladi. Taranglashish urug' ko`payib o`tkirlashganda harakatga kelishidan ham paydo bo`ladi.

Urug'ning paydo bo`lish sababi

Erlik urug'i - uchinchi - hazm tamomlanib oziq a`zolarga taqsimlanganda bo`ladigan to`rtinchi hazm vaqtida tomirlardan sizib o`tadigan chiqindidan iborat. Urug' qo`yilganiga ko`p vaqt bo`lmagan tug'ma rutubat jumlasidan bo`lib, bu rutubatdan venalar, arteriyalar va boshqa shular kabi asosiy a`zolar oziqlanadi. Ko`pincha, bu rutubatning ko`pgina qismi endigina to`rtinchi hazmni o`tkazib, tomirlarda yoki ularga hamkor a`zolarda tarqalgan holda qoladi va ularning oziqlanishlari uchun xizmat qiladi; bu a`zolar uni uncha o`zgartirmay iste`mol qiladi, natijada urug' tomirlardan ularga o`tadi. Jolinus va boshqa tabiblarning fikricha, erkak va xotinning har ikkalasida ham urug' bor: bularning har ikkalasini ham maniy deb ayttilishi ismda umumiylit sababli emas, balki tom ma`noda muvofiq kelishlari sabablidir. Ikkala urug'dan har birida ham suvrat berish, ham suvratlanish quvvati bor. Lekin erkak urug'ida tangrining izni bilan suvrat berish manbai kelib chiqadigan quvvat zo`rroqdir, ayol urug'ida esa, suvratlanish manbaini beruvchi quvvat zo`rroqdir. Erlik urug'i bachadon mugiziga to`kiladi, keyin uni bachadon og'zi qattiq tortib yutadi. Lekin ayol urug'i bachadon ichkarisidan idishlar va tomirlar orqali urug'lanish o`rniga to`kiladi; Olim va faylasuflarga kelsak, ularning ta`limotlarini tekshirib chiqilsa, shu narsa ma`lum bo`ldiki, erlik urug'i faqat suvrat berish manbai bo`lib, xotinlar urug'i o`ziga xos ishda suvratlanish manbaidir. Erlik urug'idagi suvrat beruvchi quvvat, biror mone bo`lmaganda, o`zi ajrab chiqqan narsasiga o`xshatishga tirishadi, xotin urug'idagi suvratlanuvchi quvvat suvrat qabul qilishda

o`zi ajralib chiqqan narsaga o`xshatib qabul qilishga tirishadi. Maniy so`zi umumiy ravishda ikkoviga aytilsa, bu ismning ikkoviga umumiy ekanligidan bo`ladi. Agar ikkovini ichiga oladigan ma`no topilmay, u narsa maniy deb atalsa, unda boshqacha bo`ladi. Agar maniy erlik urug'i ma`nosida olinsa, u chog'da xotinning urug'i maniy bo`lmaydi. Haqiqatda ham, erkakning urug'i issiq, quyuq va yetilgan bo`ladi xotinniki esa hayz qoni jinsidan bo`lib, ozgina yetilgan, bir oz o`zgargan va qonlikdan erlik urug'icha uzoqlashgan bo`lmaydi. Shu jihatdan buni qadimgi faylasuf hayz kishi deb ataydi. Faylasuflarning aytishicha, erkak urug'i xotin urug'iga aralashganda o`z quvvati bilan ta`sir qiladi va bola gavdasining jismi barpo bo`lishiga bu urug' jismining ko`p dahli yo`qdir, chunki bola gavdasining barpo bo`lishi xotin urug'i va hayz qonidandir. Balki erlik urug'i bola ruhining jismi barpo bo`lishida ko`proq ish ko`rsatadi va erlik urug'i sutga ta`sir qiluvchi tomizgi kabidir.

Xotin urug'i esa bola gavdasining jismiga asosdir. Bulardan har biri issiq, rutubatli va ichida ruhi bor qonni tug'diradigan narsani ko`paytiradi. Bu ikki ta`limotdan qaysi biri to`g'rilingini bilish tabiat ilmiga havola qilinadi buni bilmaslik tabibga zarar keltirmaydi. Buqrot urug' moddasining ko`p qismi miyadan quloq orqasidagi ikki tomir orqali tushadi degan ma`noda gapiradi; Shuning uchun bu ikki tomirdan qon olish naslni kesadi va bola bo`lmaydigan qilib qo`yadi. Urug' paydo qiluvchi qon sutsimon bo`ladi.

Miyadan va unga o`xshaganlardan juda uzoqlashib ketmasligi uchun u ikki tomir orqa miyaga ulangan, bunda u qonning mizoji o`zgarib, uning o`zi ham boshqa holatga o`tadi; balki bu tomirlar orqa miyaga, so`ngra buyrakka, keyin moyaklarga keladigan tomirlarga qo`yadi. Jolinus bu ikki tomirni kesish naslsizlikka sabab bo`lishi yoki bo`lmasligini bilmaydi. Garchi urug'ning tomizgisi miyada bo`lib, Buqrotning bu ikki tomir to`g'risida aytganlari to`g'ri bo`lsa ham mening fikrimcha, urug'ning yolg'iz miyadan kelishi shart emas.

Balki har bir boshqaruvchi a`zoda urug'ga tegishli bir manba bo`lishi va boshqa a`zolar ham shu asosiy a`zolarga biron ulush berishlari kerak. Bu bilan nasliy o`xshashlik hosil bo`ladi, shu jihatdan tugal bo`lмаган a`zodan nuqsonli a`zo tug'iladi.

Jinsiy yetilish bo`lib, tomirlar kengaymaganda va shahvat qo`zg`alib, yetilish to`liq bo`lma ganda, bu narsalar ham bo`lmaydi. Ba`zan urug`ni o`ziga aralashgan yel haydaydi, bunda u albatta yeldan oldin chiqadi.

Urug` a`zolarining mizojlarini ko`rsatuvchi belgilari

Issiq mizojning belgilari. Olatdagি va moyak xaltasidagi tomirlarning ko`rinib turishi, yo`g`onligi va qattiqligi, qov va unga yaqin yerlardagi mo`ylarning tez o`sishi, ularning dag`al, ko`p va zich bo`lishi, tez balog`atga yetish. Urug`ining mizojini bilishni xohlagan kishi avvalo o`z tadbirini isloh qilib, so`ng urug`ining rangini ko`rsin.

Sovuq mizojning belgilari. Yuqoridagilarning aksidir.

Ho`l mizojning belgilari. Urug`ning yetukligiga, ko`pligi va olatning sust taranglashishi.

Quruq mizojning belgilari. Ho`l mizoj belgilarining aksidir. Bunda urug` ba`zan ip shaklida chiqadi.

Issiq-quruq mizojning belgilari. Urug` javharining zich bo`lishi, shahvatning tezligidan jinsga yondashish va uni o`ylash bilan ham urug`ining to`kilishi qo`shimcha, tug`dirishi bu mizojda shahvat kuchli va tez harakati zo`r bo`ladi lekin bu mizojdagi kishi aloqadan tez qoladi. Agar haddan tashqari bo`lsa, suvlik ozayib, olat tez-tez qo`zg`aladi, biroq urug` tushadi. Qov, son va ularning yaqinlaridagi mo`ylar issiq va quruq mizojda qalin va ko`p bo`ladi.

Issiq-ho`l mizojning belgilari. Bunday kishida, issiq-quruq mizoj kishiga qaraganda urug` ko`p bo`ladi. Biroq moylari kamroq bola bo`ldirishi ham kamroq bo`ladi ko`p aloqaga qobiliyati jihatidan toq bo`ladi, biroq shahvati va qo`zg`alishi ko`p bo`lmaydi. Aloqani haddan tashqari tark qilsa, zararlanadi. Ihtilomi ko`p, yetilishi tez bo`ladi.

Sovuq-quruq mizojning belgilari. Urug`ning quyuqligi, ozligi va hamma jihatdan issiq ho`l mizojning aksicha bo`lishlik.

Sovuq-ho`l mizojning belgilari. Qov atroflarida mo`yning kam bo`lishi, shahvat va aloqaning sustligi, urug`ning suyuqligi, nasldan-tirishning kamligi, mo`y o`sishining sustligi va ularning kamligi.

Tabiiy bo`lмаган mizojlarning belgilari haligacha paydo bo`lмаган tabiiy mizoj belgilarining paydo bo`lishidir; uning har xil turlarini his orqali bilinadi.

Mavzu savollari

- 1.Moyaklar va urug' yo`llari anatomiyasи haqida tushuncha bering.
- 2.Urug'ning paydo bo`lish sababi haqida.
- 3.Urug' a`zolarining mizojlarini tushinterib bering.

7.3. § Bepushtlik, impotensiya sabablarini aniqlash, sharqona usulda tashxislash va davolash

Sababi:

- 1.Olatning o`zida
- 2.Urug' a`zolarida
- 3.Boshqaruvchi va ularga qo`shni a`zolarda
- 4.Boshqaruvchi va jinsiy a`zolar o`rtasidagi a`zolarda
- 5.Qo`shni a`zolarda bo`ladi

Olatning yoki urug' a`zolarining o`zi sababli bo`ladigan nuqson.

- 1) mizoj buzilishidan
- 2) urug' harakatining sustligi
- 3) urug'ning suyuqligi

Boshqaruvchi a`zolar sababli bo`ladigan nuqson:

1.Sabab qalbdan bo`lsa, olatni kengaytiruvchi ruh va yel kesilgan bo`ladi

- 2.Sabab jigardan bo`lsa, urug' moddasi kesib qolgan bo`ladi
 - 3.Sabab miyada bo`lsa, sezuvchan quvvat moddasi kesilgan bo`ladi
- Quyi jinsiy a`zolar sababli bo`ladigan aloqa qobiliyatining kamligi
Mizoj juda sovuq yo issiq yo quruq bo`lib, damlovchi yel yo`qoladi.

Damlanish esa qo`zg`alishga yordamchidir. Savdoysi kishilarda
damlanish ko`p bo`lishidan olat ko`p qo`zg`aladi.

Qo`shni a`zolar sababli bo`ladigan nuqson:

Bavosirni kesishda uni orqa teshigiga olat yetib bu orqa teshik va
uning mushaklari bilan olat a`zolarini tutashtiradigan asabga zarar qilgan
bo`ladi.

Bundan tashqari uyalish, yomon ko`rish, yurakda qo`rquv paydo
bo`lishi, aloqani tark qilish.

Asosan: olatni qo`zg`atuvchi sabab urug'dan yoki boshqa narsadan
qo`zg`algan yeldir. Sovuq va issiq ikkalasi ham yelga ziddir. Masalan:
sovruq yelni tug'ilishiga to`sinqinlik qiladi. Issiq esa yelni taratib yuboradi.

Belgilari

- 1.Olat bo`shashgan, badan oriqlaydi, zaiflashadi.
- 2.Agar moyak va urug' a`zolari sababli bo`ladigan jinsiy zaiflik:
 - a`zolarning sovishidan bo`lsa, urug' kamaymasa ham qiyinchilik bilan chiqadi
 - a`zolarning quruqligidan bo`lsa, urug' kam bo`lsa, urug' kam bo`lib qiyin chiqadi
 - badan oriq bo`lib kam qon bo`ladi
- 1)jinsiy a`zolardan yuqorida bo`lgan a`zolar sababli bo`ladigan zaiflikda
- 2)jigar buyrakda bo`lsa ishtaha kam, yurakda bo`lsa olat qo`zg'alishi kam va kuchsiz, yumshoq
- 3) miyadan bo`lsa, urug' holatini sezish ham
- 4) Quyi a`zolardan bo`ladigan zaiflikda: dam ozligidan olatning kam qo`zg'alishi
- 5) semiz kishilar oriq kishilarga ko`ra aloqaga ojizroq bo`ladilar.

Jinsiy zaif kishilar:

- 1.Terlatadigan hammomlarni
- 2.Tomirdan qon olishni tark qilishi kerak. Bu buyrak va urug' idishlari 2 oyoq kafti issiq yog'lar bilan ishqalanadi

Davolash

Mitridat, diakurkumo, amrusiyo, sajazoniy, mushk, taryoq. Ovqatga loviya, no`xat, boqila, angizadan bir oz qo`shilgan tuz sepilgan piyoz qo`shish lozim.

Quvvatlovchi oziq-ovqatlar: chala pishirilgan tuxum, sholg'om, sut, sariqyog', bodom, yong'oq, pista, chilguza, saqich daraxti urug'i kabilar buyuriladi.

Bepushtlik

Bola bo`lmaslikning sababi - er urug'ida yoki xotin urug'ida yosh bachadon a`zolari yoki erlik olati a`zolari va urug' olatlarida bo`ladi.

Urug'dan bo`ladigan sabab:

- issiq sovuq mizojning buzilishi
- urug' mizojining sovuq bo`lishi
- siydkit tutilishi
- urug' mizojining ho'l yoki quruqligi

-goh er va xotinning har birida bo`ladigan mizoj buzilishi sababli urug'lar bir-biriga moslashmaydi.

Izoh:

-o`smir, mast, me`dasi buzilgan tirishuv kasali bor ko`p aloqa qiladigan va tanasi sog' bo`limgan kishilarning urug'lari bola bermaydigan urug'lar jinsidandir.

Bachadondan bo`ladigan sabab:

-urug'ni buzadigan mizoj buzilishidan iborat

Masalan: xotinlarda urug'ni sovituvchi sovuq suv ichishdan kelib chiqadi. U erkaklarda ham kuzatilishi mumkin.

-Shu mizoj buzilishi urug'ni tortadigan quvvatni kuchsizlantiradi. Ya`ni bachadon urug'ni qattiq tortolmaydi.

-Modda, ya`ni hayz qonining to`xtalib qolishidan, bu bachadonning moddani tortishidan va yetkazishdan ojiz bo`lganda yuzaga keladi

-bachadon oqib yoki aylanib qolganda

-tiqilma qattiqlik so`galsimon yo et yaralarda

-bachadon og'zi quruqligi tufayli (og'zi yopiq bo`ladi)

Tug'dirish a`zolaridan bo`ladigan sabablar:

-urug' idishining kuchsizligi

-mizoj buzilishi

Misol: quloq orqa vena kesilgan yoki toshni chiqarish uchun qovug'i yorilgan kishida zarar tug'diradigan a`zolarga kelib yetadi. Ya`ni birorta asab kesilganda urug' idishlari, urug' tug'diradigan quvvat va urug'ni otadigan a`zoda kuchsizlik paydo bo`ladi

Erlik olati tufayli bo`ladigan sabablar:

▪-Kalta

▪-Egri

▪-Payi qisqa

▪-Yoki ayol kishi semiz bo`lib , farjning og'zi uzoq bo`lsa

▪-Boshqaruv a`zolaridagi sabablar

▪-Hazm a`zolari

Ruh a`zolari kuchli bo`lishi kerak

▪-Er urug'ini bachadon o`zi ichiga olgandan keyin bo`ladigan sabablar va xatolar:

▪-Sakrash

- Biror narsaga urilish
- Tez turish, qattiq harakatlar
- To`satdan qo`rqish

Belgilari:

I. Bola bo`lmasligi qaysi urug`ga bog`liqligini ko`rsatuvchi belgi:

1) Masalan: ikkala urug`ni suvgaga solib ko`ramiz. Qaysi urug` suv yuziga chiqsa, kamchilik o`sha tomonda bo`ladi.

2) Masalan: ikkala tomon siydiyi koxu ildiziga qo`yib ko`riladi. Qaysi biri koxuni quritsa, kamchilik o`sha tomonda.

3) Masalan: sopol idishga 7 dona bug`doy, 7 dona arpa, 7 dona boqila solib ustiga er yoki xotin siydiyi solinadi. 7 kun qo`yiladi. Qaysi don keyin ko`karsa, bola bo`lmaslik u tomonidan bo`lmaydi.

Sog`lom urug` - oq, yopishqoq, yaraqlagan bo`lib, unga pashsha qo`nadi va yeydi. Urug`ning hidi xurmoning yangi chiqargan g`unchasi yoki yasmin guli hidi kabi bo`ladi.

II. Hayz qoni

1) Sarg`ishmi, qoramtirmi, gungurga moyilmi, oqishmi rangi tekshiriladi.

2) Qonning ko`p ozligiga qarab quyuq yo suyuqligi, ho`l yo quruqligi tekshiriladi.

Buqrot bo`yicha ko`r bachadonning holini ko`rsatadi.

Masalan: Hayzdan tozalanganda bachadon og`zi ko`rinmasa, ho`l bo`lib tursa, bu xotinda bola bo`lmaydi.

III. Semizlik, oriqlik, yog`li bo`lish, olat qisqa va egriligi, bachadonning

to`nkarilganligi kabilarga ahamiyat beriladi.

Masalan: ser yog`li farjlarga kirish yo`li tor, bachadon uzoq bo`lib, bachadon muguzlari qisqa va qorinchalari bo`rtib chiqqan. Bachadon og`ganligini aniqlash: agar bachadon og`zi farj teshigiga ro`para bo`lmasa, u bir tomonga og`gan bo`ladi.

Davolash:

1. Ayol kishini ohistalik, muloyimlik bilan homilador qilishga kirishish.

2. Bola bo`lmaslik sababini bartaraf etish.

Davosi yo`q kishilar guruhiiga mansub:

1.Olati kaltalik qilganlar.

2.Hayz qoni ketadigan tomirlar og'zi yaralardan bitib, silliqlashganlar.

Davolashda:

1)Asosan xiltlardan bo`shatib, mizoj mo`tadillashtiriladi, qon olish, qortiq

solish, o`tkir huqnalar buyuriladi.

2)Mumlik surtmalar iste`mol qilinadi.

3)Taryoq, tiyodaritus kuli, qizil sharob, xurmo daraxtidan olingan oq asal, gulsafsar yog'i, murr, Kammuniy, Rum arpabodiyoni, petrushka urug'i, g'azago't urug'i, kunduz qiri, tog' murchi, Mitridat, issiq ma'jun, kakabinaj, sarv yong'og'i, Dafna mevasi, sodaj, yovvoyi ziradan tayyorlanadigan dorivorlar qo'llaniladi.

4) Hayzdan so`ng quyon panirmoyasi, turbo't (qaymoq) yog'i, gunafsha yog'i bilan ko'tariladi.

5)Yaxshi shamcha: sumbul, za`faron, mastaki, murr, omila shirasi, kunduz qiridan olinib, rum sumbuli yog'i bilan shamcha qilish.

6)Kulcha: murr, maycha yelimi, dafna mevasidan tayyorlanadi.

Mavzu savollari

1.Bepushtlik ta'rifi. Sababi.

2.Bepushtlikni tashxislash va davolash.

3.Jinsiy zaiflik. Sababi.

4.Jinsiy zaiflikni tashxislash va davolash.

VIII BOB. MUSHAK, TAYANCH SISTEMASI VA TERI KASALLIKLARI

8.1. § Mushak va tayanch sistemasi kasalliklari, poliartrit, bod kasalliklari, niqrис, irqunno, osteoxondroz kasalliklarini sharqona usulda tashxislash va davolash

Orqa og'riqi mushaklarda, umurtqalarni o`ragan ichki va tashqi boyloqlarda bo`ladi. Qanday bo`lsa ham, u mizojning sovushidan, xom balg'amdan, ko`p charchashdan va ko`p jinsiy aloqadan bo`ladi. Goho bukrilik sabablaridan bo`ladi, agar hali bukrilik mustahkamlanmagan bo`lsa yoki ba`zi ichki a`zolarning ishtiroki bilan bo`ladi. Masalan, buyrak kuchsizlashganda va oriqlaganda hamda umurtqaga joylashgan katta tomir ko`p to`lganda bel og'riydi. Yoki o`pka nayida shish va chiqiq chiqqanda ham shunday og'riq bo`ladi, biroq og'riq orqaning o`rtasida bo`ladi. Og'riq goho bachadon ishtiroki bilan ham bo`ladi masalan, hayz qoni tushishga yaqinlashganda yo "bachadon bo`g'ilishi"da tug'ish oldida shunday bo`ladi. Orqa og'rig'i ba`zan buhron belgilaridan biri bo`ladi.

Belgilar. Sovuqdan va xom shilliqdan bo`lgan orqa og'rig'inining belgisi shuki, ko`pincha, uni yurish va badantarbiya qilish bosadi, uning boshlanishi oz-ozdan bo`ladi, ba`zan unda sovuq seziladi. Charchashdan, og'ir narsa ko`tarish va shuning kabi narsalardan, hamda jinsiy aloqadan bo`lgan orqa og'rig'ini shu sabablardan birortasining oldinda bo`lganligi ko`rsatadi. Buyrakdan bo`lgan orqa og'rig'i belning pastida bo`ladi, bu bilan birga jinsiy aloqa kuchsizlashadi va buyrak kuchsizligining ma`lum sabablaridan biri mavjud bo`ladi. Orqa og'rig'inining sodda harorat sababli ekanligi yallig'lanish, yengillik, achishish va lo`qillamaslikdan bilinadi. Tomir to`lishidan bo`lgan orqa og'rig'i harorat, yallig'lanish, lo`qillash, badan to`liqligi bilan birga og'riqning butun orqaga yoyilishi ko`rsatadi. Bukrilik sabablaridan bo`lgan orqa og'rig'iga bukrilik bobida aytgan narsalarimiz dalil bo`ladi. Orqa og'riqlari bukilishga yoki tikkayib qolishga majbur qiladi. Bukilishga majbur qiluvchi og'riqlar - bukrilik sabablaridan bo`lgan tirishtiruvchi qattiq shish yoki boshqa narsa sababli kelib chiqqan og'riqlardir.

Tikkayib qolishga majbur qiluvchi og'riqlar shunday og'riqlardirki, bunda nafsning mushaklarni og'riq beruvchi bukilish va siqilishdan saqlashga intilishiga xilof bo`lmagan holatni egallahsga majbur bo`linadi. Agar ho'l og'riq yetgan joyni paypaslab topsa, uning sababi sirtqi mushakda bo`ladi, topmasa, sabab ichki mushakda bo`ladi.

Davolash. Bunda quyida aytadiganimiz, bo'g'in og'riqlarini davolash usullari hamda bukrilik va umurtqadagi yellarni davolash choralariga murojaat qilish lozim, chunki bunda yo`l bittadir. Sovuqdan bo`lgan orqa og'rig'ini, u sovuqdan bo`lganidan, o'tgan boblarda aytilgan ichiladigan, qo'yib bog'lanadigan va ishqalanadigan narsalar bilan davolash kerak, bunda xom balg'am bo`lganidan, uni Abu Jahl tarvuzining etidan qilingan iyoraj va "sassiq xab" kabilar bilan bo`shatiladi. Charchash va shuning kabilardan bo`lgan orqa og'rig'ini yaxshi oziq, ishqalanadigan mo'tadil dorilar va iliq yog'lar bilan davolanadi. Jinsiy aloqadan bo`lgan orqa og'rig'ini esa jinsiy aloqa zaifligini davolash orqali davolanadi.

Buyrak sababli bo`lgan orqa og'rig'i buyrak kuchsizligini davolash bilan davolanadi. Katta tomirlarning to`lishidan bo`lgan orqa og'rig'ini davolash uchun bosliqdan qon olinadi, tizza osti tomiridan qon olish ham davo bo`ladi. Bu og'riqni darhol bosadi, ayniqsa uning ketidan qizil gul yog'i va shu kabi narsalar ishqalansa, shunday bo`ladi, bukrilik sababidan bo`lgan orqa og'rig'ining davosi bukrilik davosi kabidir.

Orqa og'rig'ining ko`pchiligi umurtqa mizojining sovuqligidan yoki buyrak kuchsizligidan bo`lganligidan davolanishning ham ko`pchiligi shu ikki a`zoga qaratilgan bo`lishi kerak. Buyrakni davolash haqida to`la gapirdik, shuningdek umurtqani qizdirish to`g'risida ham bukrilik bobida yetarli aytganmiz; lekin sovuqdan bo`lgan orqa og'rig'iga xos davolardan biri farfiyun yog'ini tanho holda ishlatishdir; unga qarshi ichiladigan va sinalgan narsalar to`rt doridan tayyorlanadigan taryoq yoki petrushka suvi bilan kanakunjut yog'idir. Yana qora no`xat ivitmasi igir, to`rt dirham sariyog' va bir dirham asal bilan o'n to`rt kun iste`mol qilinadi. Morcho`bani uzoq vaqt yeb yurish ham juda foydalidir. Shu og'riqga uchragan sovuq mizojlilar uchun surgi "sassiq xab"dir.

Bog'lanadigan narsalarga kelsak, shuni aytish kerakki, sambitgul bog'lash eskirgan orqa og'rig'ini tuzatadi. Govshir, muql, kavrak yelimi, eron kavragi, qunduz qiri, farfiyun kabilarning tanho o`zini yoki dafna

yog'i, dafna urug'i, gazago't yog'i, gazago't urug'i, may'a yog'i va kanakunjut yog'i bilan qo'shib bog'lash ham juda foydalidir. Ishqalanadiganlardan farfiyun va qust yog'laridir. Gulsafsar yog'ining ajoyib xosiyati bor; yaxshisi oldin orqani qizdirish, dag'al latta bilan ishqalash, keyin shu yerga surtishdir.

Biqin og'rig'i.

Bu orqa og'rig'iga yaqin bo`lib, ko`pincha, boddan va balg'amdan bo`ladi. Uni davolash ham orqa og'rig'ini davolashga yaqindir. Bunga xos davolardan biri quyidagi tarkibdir: sariq yo`ng'ichqa, indov urug'i, petrushka urug'i, juvona va zanjabil va dorchindan barobar bo`laklar va shularning hammasini eron kavragidan olib, bo`lakchalar tayyorlab iste`mol qilinadi. Agar bu og'riq shu a`zodagi yoki unga hamkor a`zodagi shishdan bo`lsa ham u shunday davolanadi. Biqin og'rigi kamdan-kam issiq mizojning moddasiz yoki moddali buzilishidan bo`ladi; siylik va ichak a`zolarining hamkorligi bilan bo`ladigan bundan mustasnodir. Buning belgilari va davosi ravshandir.

Bo`yin og'riqlari hamda podagra, irqunnasо va shunga o`xshashlarda umumiy bo`ladigan narsalar

Bu kasalliklarda ta`sirlanuvchi sabab-kasallikni qabul qiluvchi a`zo ta`sir ko`rsatuvchi sabab-mizojar va yomon moddalar bo`ladi; quronga bog`liq bo`lgan sabab esa, tabiiy yo'llarning kengayishi bo`lib, bu kengayish biron kasallikdan yoki yaratilishdan bo`ladi; yoki bu xil sabab ma`lum bir harakat natijasida, yoki kasallik, yoki yaratilishdanoq yupqalanib siyraklanishdan g'ayritabiyy yo'llarning vujudga kelishidan iborat bo`ladi: masalan, bezlik etlar kabi. Keyin shu qismlarning har biriga keng tafsil beriladi. Qabul qiluvchi a`zoning bu kasalliklarga sabab bo`lishi yo mustahkam o`rnashgan mizoj buzilishi, ayniqsa sovuq mizoj buzilishi sababli kuchsizlanishidan yoki mizojdan tashqari boshdanoq kuchsiz yaratilganlikdan bo`ladi; yoki haroratning kuchlik tortishidan bo`ladi,-ayniqsa bunga harakat yordam bersa,- tashqi sabablardan bo`lgan og'riqlar ham shunday: bu qism mizoj sabab bo`lgan qismdan uzoq bo`lmasa ham unga yaqin turadi. Yana, qabul qiluvchi a`zoning bu kasalliklarga sabab bo`lishi uning boshqa a`zolar tagiga, ya`ni moddalar tabiiy ravishda harakat qiladigan o`rniga

joylashishi tufayli bo`ladi, shuning uchun bu kasallik, ko`pincha, oyoq va sonlarda bo`ladi.

Ta`sir ko`rsatuvchi sababga kelsak, bu gavdaning hammasida yoki uning boshqaruvchi a`zolarida yallig`latuvchi, qotirib sovutuvchi yohud burishtirib qurituvchi mizoj buzilishi bo`ladi, xususan yot rutubat aralashganida shunday bo`ladi. Moddalar esa tanho qon yo balg`amli qon, yo safroli qon, yo savdoviy qon bo`ladi; yoki modda tanho balg`am bo`ladi,- balg`amning eng yomoni xomidir,- yoki tanho o`t safro, yoki balg`am va o`tdan tarkib topgan xilt bo`ladi, yoki modda jinsidan bir narsa yohud a`zo qismlariga kirishib ketgan yellar bo`ladi.

Moddiy sababning ko`pchiligi o`t aralash balg`amdan iborat bo`ladi. Bundan keyingi o`rinda xom balg`am, keyin qon, so`ng safro va kamdan-kam savdo bo`ladi. Bu sabab qismlari ba`zi bir o`tgan sabablardan ham iborat bo`ladi. Nazlalar va tumovlar shu xil sabablardandir. Qulanjni ichaklarni quvvatlantirish orqali davolash ham shunday; bunda ichaklar odatdagি chiqindilarni haydab qabul qilmaydi, natijada u chiqindilar qo`l-oyoqlarga tarqalib ketadi.

Bu og`riqlarga yana bu xil og`riqlarni paydo qiladigan xiltni tug`diruvchi oziq moddalarni iste`mol qilish, hazmning kamligi, harakatsizlik, tinch yotish, badantarbiyani qilmay qo`yish, ko`p jinsiy aloqa, ketma-ket mast bo`lish, shuningdek hayz qoni, to`g`ri ichakdan qon oqishi va boshqa xil odatdagи bo`shatilishlarning to`xtalib qolishi hamda tomirdan qon oldirish va ichni surish kabi narsalarning to`xtatilishi ham sabab bo`ladi. Yana to`lish ustiga badantarbiya va jinsiy aloqa qilish, taom ustiga hammomga tushish, nahorga taomdan ilgari ko`p sharob ichish ham shular jumlasidandir, chunki bu asabga zarar etkazadi. Xom xiltlar badanda to`planib tabiiy yo`sinda va siydik orqali bo`shatilmasa, yoki sun`iy ravishda chiqarilmasa va bo`g`imlar tomon daf qilinsa, albatta, bo`g`im og`rig`ini keltirib chiqaradi, agar ular tomirlarda qolib sasigan bo`lsa, isitmala gara olib boradi. Agar tabiat u xiltni axlat yoki siydik bilan haydasa, siydik doimo suyuq emas, quyuq va xom bo`ladi. Bu chog`da bu xil yomon holatdan kasalni saqlash kerak, agar shunday qilinmasa, yuqorida biz aytgan kasallikkardan biri yuz beradi. Agar bu xom moddalarga bo`g`imlarning mashaqqatga soluvchi harakati, urilish yo yig`ilish yordam etsa, yoki quvvatlarning

sustlashuvi bo`g`imlarga xom moddani tortadigan achchiqlanish yoki uyqusizlik bilan ortib ketsa, natijada moddalar chuqur sho`ng`ib, bo`g`im og`riqlarini paydo qiladi. Bu xiltlarning ko`pchiligi ikkinchi va uchinchi hazm chiqindilari bo`ladi, bular qariyalar, eski kasalliklarga mubtalo bo`lganlar va kasaldan yangi turib to`g`ri tadbir qo`llamaganlarda ko`payadi. Bu to`g`ridir, chunki bularning yaxshi hazmga kuchlari kelmaydi, ayniqsa yetarli darajada bo`shtish va xiltlarni haydash bilan emas, to`xtatish bilan davolangan bo`lsalar shunday hol yuz beradi.

Og`riqning bo`g`imlarda ko`p bo`lishiga sabab shuki, bo`g`imlar boshqa a`zolarga qaraganda ko`proq bo`shdir; ularning harakatlari ko`proq, mizojlari kuchsizroq va sovuqroq bo`ladi; ularning qo`l-oyoqlarda joylashganligi ularni birinchi boshqaruvchidan uzoqlashtiradi. Bo`g`im oralaridagi moddalar, ayniqsa ularning xomlari, ko`pincha, toshga aylanadi va ganchga o`xshab qoladi. Bunday kishilarning bo`g`imlaridan, ayniqsa barmoqlari orasidan et unib, barmoqlari bo`g`iladi va burishib qoladi; ularda og`riq ba`zan kuchayib, ba`zan to`xtaydi. Bunday hol, ko`pincha, issiq mizojli kishilarda bo`ladi; ularda unib chiqadigan et, ko`pincha, qonli moddadan bo`ladi. Bo`g`im og`riqlarining ko`pchiligidagi oldin podagra paydo bo`ladi. Bo`g`im og`riqlari nasldan-nasnga o`tadigan kasallardandir, chunki urug` mizoji o`sha mizojiga o`xshash bo`ladi.

Ko`pincha, bo`g`in og`riqlarini davolash, bo`g`imlarni kuchaytirish va moddalarni undan daf qilish halokatga sabab bo`ladi. Chunki chiqindi sifatida bo`g`inlarga borishga odad qilgan moddalar bunday davolashda bosh a`zolarga qaytadi. Agar u chiqindilarni ikkinchi marta bo`g`imlarga og`dirilmasa, ular kasalni xatarga tushiradilar.

Bo`g`in og`riqlari va podagraning paydo bo`lishi uchun eng qulay vaqt bahordir. Chunki bu vaqtda qon va xiltlar harakatga keladi. Kuz bundan ham yomon, chunki bu vaqtda xiltlar va hazm ishi yomonlashadi, bundan oldin, ya`ni yozda badan teshiklari kengayadi, chunki bu vaqtda kunduzlari issiq kuchayadi. Bo`g`im og`riqlari paydo bo`lishi bilan tadbir qilinsa, ularni davolash oson bo`ladi. Agar ular o`rnashib odad bo`lib qolsa, ayniqsa turli xiltlardan bo`lgani o`rnashib qolsa, davolab bo`lmaydi. Agar bo`g`imlari og`riydigan va podagrasi bor kishilarda vena kengayish kasalligi paydo bo`lsa, ularning tuzalishi bilan bo`ladi.

Bo`g'im og'riqlariga uchraganlarning ba`zilari yomon tadbir qilishlari bilan bu kasallikni o`zlariga-o`zları jalg qiladilar, ba`zilar borki, ularga bu kasallik a`zolarining buzuq tuzilganligi va tomir yo`llarining kengligi sababli jalg qilinadi; ularda asl a`zolarining mizoji yomonligidan yomon xiltlar tug'iladi. Goho bo`g'im og'riqlari isitmalarda va ular ko`tarilgan vaqtida qo`zg'aladi, ba`zan bo`g'im og'riqlari isitmalardan ham paydo bo`ladi.

Irqunno - bu ham bo`g'im og'riqlari jumlasidan bo`lib, yonbosh bo`g'imidan boshlanadigan va orqadan son bo`ylab tushadigan bir og'riqdir; ko`pincha, u tizzagacha va to`piqqacha cho`ziladi. Uning muddati ortib borgan sayin moddaning ko`p va ozligiga qarab, pastga tushishi ham orta boradi. Ba`zan og'riq barmoqlargacha cho`zilib, bundan oyoq va son oriqlaydi. Kasallikning oxirida og'rigan joyni ho`l bilan bosilsa, yoki oyoq barmoqlari uchida ozgina tortilsa, kasalga orom beradi. Bunda engashish va qomatni tiklash qiyin bo`ladi. Ba`zan kasal bundan foydalanadi. Ba`zan bu og'riq son boshining o`rnidan chiqishigacha olib boradi.

Yonbosh og'rig'i - bu shunday kasallikki, bunda og'riq yonboshda to`xtab irqunno soga o`tmaganda tubanga tushmaydi. Bu, ko`pincha, qattiq narsalarda o`tirish, urilish va ko`p ot minish sababli yonboshda paydo bo`ladigan kuchsizlikdan kelib chiqadi. Sabablari shulardir; uning ko`pchiligi xom balg' amdan bo`ladi. Ko`pincha, uzoq muddat hatto o`n oylab bo`lib turgan bachadon og'riqlari yonboshga ko`chadi. Goho u issiq moddalar va aralashma moddalardan ham bo`ladi, yonbosh tomirlarining qonga to`lishidan va shu joylarda chuqr joylashgan shishlardan bo`ladi; lekin bu shishlar chuqr joylashganligidan boshqa bo`g'implardagi shishlardek yaxshi ko`rinmaydi.

"Yonbosh og'rig'iga uchragan kishining sonida uch barmoq kattaligida og'ritmaydigan, lekin kuchli qichiydigan qattiq qizillik paydo bo`lsa va kasalning ko`ngli sabzavotlarni tusasa, u kishi yigirma beshinchchi kunda o`ladi" deydilar. Bo`g'im og'rig'i bo`lgan har bir a`zo ingichkalashib oriqlaydi. Irqunno va podagradan boshqa bo`lgan bo`g'im og'riqlari davolanib, ularning moddasi tagi-tugidan qo`porilgan bo`lsa, tezlikda qaytalamaydi. Irqunno va podagrada kelsak, bular

ozgina sabab bilan tezlikda qaytalyaydigan kasalliklardandir; bu hol a`zoning tubanga joylashganidan bo`ladi. Bu kasalliklar, ayniqsa podagra,- naslga ko`chadigan kasalliklardandir.

Irqunnasoning moddasi, ko`pincha, bo`g'imda bo`ladi va undan enli asabga emiladi. Qachon asab og'risa, u, avvalda bo`g'implarda tiqilib qolgan moddalardan boshqa moddalarning gavdaning hamma qismlaridan unga qarab quyilishga tayyorlagani bo`ladi. Goho boshdanoq modda bo`g'imda bo`lmasdan, balki enli asabda bo`ladi. Ko`pincha, shilliqli suyuqlik bo`g'im chuqurchasida ko`payib o`sinq bilan bo`g'im chuqurchasi oralaridagi boyloqni bo`shashtiradi, natijada yonbosh suyagi o`rnidan qo`zgaladi; bundan oldin birikish va o`rnidan qo`zg'alish o`rtasida bir holat yuz beradi, bu tez chiqib va tez o`rniga tushib juda qalqib turishdir.

Irqunnaso bo`g'im og'riqlarining eng qattig'idir; dog' solish bundan omon beradi. Podagra ham bo`g'im og'riqlaridan bo`lib, oyoq barmog'idan, xususan bosh barmoqdan boshlaydi, goho tovondan boshlaydi, goho qadamning pastidan boshlaydi, ba`zan esa tovonning bir yonidan boshlaydi, so`ng butun qadamni qoplaydi. Ba`zan songacha chiqadi, shunda goho son shishadi. Bu kasallik pay va asablarda o`rinalashmasdan, balki boyloqlarda va Jolinusning aytishicha, bo`g'lnarni tashqaridan o`ragan jismarda bo`lsa kerak. Shu jihatdan podagrasi borlarda shish va og'riqlar tirishishga olib kelmaydi. Podagra bilan og'riganlarning moyak xaltalari uzunlashadi. O'tdan bo`lgan podagra, ayniqsa ko`p sovuq ta`sir etganda, ko`pincha, daf atan o`lishga sabab bo`ladi.

Belgilar. Bu kasalliklarning belgilari orqali bilishi zarur bo`ladigan sabablardan birinchisi mizojning soddalik yo modda bilan birikkanlik holidir. Mizojning soddalik holi bunda kamdan-kam uchraydi; bunday holda og'riq og'irliksiz va ko`pchishsiz bo`lib, tus o`zgarmaydi va moddaning belgisi ham bo`lmaydi.

Mizojning moddiyligiga kelsak, bunda birinchi galda bilinishi lozim narsa moddaning jinsidir. Modda jinsini og'riq vaqtida kasal o`rinning tusidan yoki shishning tusidan biladilar, bu so`ngisi xom balg'ama bo`ladi, yoki uni ushlab ko`rib biladilar: u yer sovuqmi yo yallig'langan, yoki odatdagicha issiqmi. Moddalarning jinsini yana

og'riqning belgilaridan biladilar: og'riq qattiq alliqlash va lo`qillash bilanmi yo mo'tadil yallig'lash va tortilish bilanmi yoki faqat tortishib og'riydimi buni yana foyda beradigan va og'riqni bosadigan narsalardan bilinadi, biroq uvushtiruvchi narsalar yanglishtirishi mumkin: sovuqlik dori muvofiq kelsa, moddani issiq deb gumon qilinadi, vaholangki u uvushtirishi bilan muvofiq keladi. Zichlashtiruvchi sovutish natijasida og'riqning kuchayishi ham yanglishtiradi: bu chog'da u moddani sovuq deb gumon qilinadi; yoki eritib tarqatish bilan og'riqning to`xtashi ham yanglishtiradi, bunda moddani sovuq deb o`ylanadi, aslida u modda issiq bo`lib, uni tarqatilgani uchun og'riq to`xtaydi. Mana shularning hammasiga rioya qilish lozim. Yana moddaning jinsini og'riqning boshlanish va ortish vaqtidan biladilar: og'riq qorin bo`shaganda boshlanadimi yoki uning to`lalik vaqtidami shishning tez yoki sust paydo bo`lishidan yoki uning butunlay bo`lmasligidan biladilar; bu narsa suyuq va issiq, yoki murakkab, o`rtacha modda borligiga yoki xom balg'am borligiga dalil bo`ladi. Moddaning jinsini og'irlikning holidan ham biladilar: birdaniga ko`p to`planishi mumkin bo`lgan suyuq moddalarda og'irlik ko`proq seziladi; ko`p vaqtarda moddaning jinsi siyidik va unga g'alaba qilgan narsadan va axlatdan bilinadi: ulardagi qolib narsa safroli moddam yoki shilliqlimi va ularning rangi qanday yonbosh og'rig'i va irqunnasoda axlatda shilliqli narsa ko`p bo`ladi. Moddaning jinsini goho kasalning yoshidan, odatidan, yeyiladigan va ichiladigan narsalar, badantarbiya va harakatsizlik xususida oldindan qilib kelgan tadbiridan yoki bularning teskarisidan, shuningdek butun badan mizojining ishtirokidan bilinadi. Qon moddasini og'riq o`rnining qizilligidan bilinadi, modda chuqur o`rnashgan hol bundan mustasnodir. Buni yana qattiq taranglik, bosganda qarshilik, lo`qillash, og'irlik, oldin ishlatilgan tadbir va qon mizoji badanning ma`lum belgilaridan bilinadi; bu xil badan ba`zan yo`g'on, etli va yog'li bo`ladi. Qonli irqunnasoda og'riq uzunasiga bir xilda cho`zilgan bo`ladi; uni tomirdan qon olish darhol to`xtatadi.

Moddaning safroviy ekanligiga illat; qichiq, og'rig'i oz bo`lishi bilan birga ushlovchiga seziladigan qattiq harorat, taranglik va qizillikning ozligi, og'riqning teri sirtiga moyil bo`lishi, sovuqdan qattiq rohatlanish,

ilgarida qo`llanilgan tadbir va safroli badan holida biz aytgan boshqa belgilar dalil bo`ladi.

Balg`am moddasini tusning o`zgarmasligi yoki qo`rg`oshin rangiga o`xshab o`zgarishidan bilinadi. Bunda alangalanish kam bo`lib, og`riq doimiy bo`ladi, qon va uning belgilari bo`lmaydi va og`riq eniga qarab kuchli tarqaladi. Kasalning badani yo`g`on bo`lsa ham, etli bo`lmasdan yog`li bo`ladi. Bu xil mizoj uchun yuqorida aytilgan ma`lum belgilar ham dalil bo`ladi.

Moddaning savdodan ekanligini ko`rsatuvchi belgilar og`riqning yashirinligi, taranglikning kamligi, davolashdan kam foydalanish va og`riq joydagi terining qovjirab, unda ko`pchish va yaltirashning bo`lmasligi va ko`pincha, xira rangda bo`lishidan iboratdir. Bunga yana kasal kishining mizozi, talog`ining holi, haddan tashqari ishtaha, oldin o`tgan tadbirlar va savdolik mizojning oldin ko`rsatib o`tganimiz boshqa belgilar ham dalil bo`ladi.

Yiringli moddani qattiq issiqlikdan bilinadi, bunda yana quyidagilar ham birga bo`ladi: qichimadek bir narsa, qizdirish xususiyati bo`lgan har bir narsadan qattiq zararlanish, sovutishi bilan birga bir oz burishtirish xususiyati bo`lgan narsalardan kuchli foydalanish.

Yel moddasidan bo`lsa- uni og`irliksiz qattiq tortilish, og`riqning ko`chib yurishi va yellarni tug`diruvchi tadbirlardan bilinadi.

Aralash moddalardan bo`lsa- ularning belgisi shulardan iboratki, ularda issiqlik va sovuqlik narsalar bilan davolash kam foyda beradi, davolanishlardan foydalanish vaqtлari turlicha bo`ladi, ya`ni bir vaqtda bir davodan va ikkinchi vaqtda unga zid davodan foydalanadi. Bunday hol, ko`pincha, issiq mizojli va o`t tabiatli kishilarda balg`am va xom balg`am tug`diradigan ho`llovchi va sovutuvchi narsalar iste`mol qilganda va ular to`la qorin bilan kuchli harakat qilganlarida yuz beradi. Bunda ikki xilt aralashib, bulardan quyug`i latif qonli va o`tli xillar yetakchiligi bilan bo`g`inlarga haydaladi. Bu kishilar, ko`pincha, katta qo`llar bilan muloyim ezishdan foydalanib, ularning og`riqlari qoladi. Chunki buning natijasida xom xilt yetilib taraladi. Ularga yana harorati mo`tadil ishqalanadigan narsalar, shuningdek tinchlik foyda qiladi, chunki harakat yetilishga mone bo`ladi.

Bo`g'im og'riqlari, podagra va irqunnaсо og'rig'ini davolash.

Kasallikning sababi sodda mizoj deb bilinsa, uning tadbiri osondir; chunki bunda kasallik ko`pincha, shishsiz sodda yallig'lashdan iborat bo`lib, uning davosi mizojni almashtirishdir. Bu xususda muhtoj bo`linadigan narsalarning eng buyugi safro yoki qonni bo`shatishdir. Goho u qotish va alam beruvchi sovuqdan iborat bo`ladi, bunda ham mizojni almashtirish kifoya qiladi, bunda qonni qizdirish uchun asosan balg'amni bo`shatish zarur bo`ladi. Ko`pincha, sabab tirishtiruvchi quruqlik bo`ladi, ma`lumki, bunda qo`llashga muhtoj bo`linadi.

Sabab modda bo`lganda quyulayotgan narsani teskari tomonga tortish va kamaytirish, a`zo moddani qabul etmasligi uchun uni kuchaytirish, modda yo`q bo`lsin uchun uning mavjudini taratish bilan unga qarshi turish kerak. Bularning hammasida umumiyligini qoidalarga murojaat qilish zarur. Agar modda qonli bo`lsa, yoki qon g'alaba qilgan bo`lsa, qarshi tomondagini tomirdan qon olish bilan mashg`ul bo`lish kerak, agar og'riq badan bo`g'imlariga umumiyligini bo`lsa, ikkala tomonidan qon olinadi. Keyin, ayniqsa og'riq tuban tomonlarda bo`lsa, qustirishga mashg`ul bo`lish kerak, chunki bunday hollarda qustirish ichni surishdan foydaliroqdir. So`ngra, agar moddaning yetilganligi va g'alizligi mone bo`lmasa, ichni surishga o`tiladi, oldin kuchli surgidan boshlanadi, garchi muloyimlik bexavotirroq va asta-sekinlik muvofiqroq bo`lsa ham shunday qilinadi. Keyin buning ketidan oz-ozdan tozalaydigan surgilar beriladi. Odamlardan ba`zilari birin-ketin yengil surgidan boshlashni va modda yetilgandan keyin kuchlisi bilan ishni tugatishni rasm qilganlar; biroq to`g'risi shuki, agar modda suyuq va safroviy bo`lib, uni yetilgan deb bilinsa, uni tezroq bo`shatish zarur. Agar modda quyuq bo`lsa, oldin uni suyultirib va yetiltirib, keyin bo`shatish tomoniga haydalishga tayyorlaydigan qilib surgi berilsa, zarari yo`qdir;

Agar modda murakkab bo`lsa, surgi va quyuq surtmani murakkab qilish kerak, chunki to`g'risi shuki, boshlanishda dori bilan davolash va tomirdan qon olmaslik kerak, chunki qon olish xiltlarni qo`zg'atib, badanni harakatga soladi va ehtiyoj talab qilgan narsa chiqmay qoladi. Shuningdek, boshlanishda bo`shatilmaydi ham; yetilganlik bilinguncha kasalga arpa suvi ichirishni to`xtatilmaydi, agar to`lishlik chiqarishga muhtoj qilsa, bu ishni sachratqi suvi va ituzum suvi bilan xiyorshanbar

kabi kasalni bir yoki ikki marta o`tirishga majbur qiladigan ichiladigan dorilar bilan yoki huqna bilan qilinadi, bu keyingisi yaxshiroqdir. Agar bo`shatilish sababli og`riq tusha boshlasa, yaxshi tadbirsiz bo`shatishni qo`llama; chunki bo`shatish ba`zan xiltlarni o`rnidan qo`zg`atib illat tomon yuboradi. Buhronlarni to`rtinchi, yettinchi va o`n birinchi kunlarda nima bo`lishini kuzatib bor. Yaxshi buhron ular uchun o`n to`rtinchi kunda bo`lganidir. Agar modda yetilguncha bo`shatishni kechiktirib, quyiladigan dorilar bobida aytilgan qonunga muvofiq sovuq, issiq va iliq suvlarni quyish bilan kifoyalanadigan bo`linsa, shunday qilinadi, shunda ham sovuq suvdan boshlanadi.

Issiq mizojsi va uvushtiruvchi surtmalarga kelsak, ularning hammasi zararlidir: issiq mizojsilari xiltlarni tortgani uchun zararli, uvushtiruvchilar esa, ularni qamab xomga aylantirgani uchun zararlidir. Sovutuvchi surtmalar quyuq xiltlarni xomga aylantirib, suyuq xiltlarni tarqatadi va kasallikni cho`zadi. Issiqlik surtmalarning ularga zararli bo`lishi bo`g`imlarni qo`llagani uchundir. Sikanjubin esa o`z nordonligi bilan ularga unchalik muvofiq emasdir. Kuchli urug`lar, masalan, arpabodiyon urug`i, ko`pincha, xilt chiqindilarni kuydirib toshga aylantiradi.

Yetiltirish tamom bo`lganda savrinjon, bo`zidon va ularning urug`i bilan bo`shat; yana muloyimlik bilan qon ham ol. Bu chog`da yana qurbaqao`t kabilarni qo`yiladi, oldinroq kuchsiz dorini ichirishdan o`zingni tort, chunki u moddani qo`zg`atib qo`yadi-yu, arzirli surmaydi; hatto, ko`pincha, boshqa qotgan moddalarni suyultirib kasal a`zoga oqizadi. Dorini iste`mol qilishni istagan kishi ertalabki yeyiladigan ovqatni keyinga qoldirib oldin dorini ichsin, keyin uch soat o`tkazib sharob va ozgina suv bilan o`n misqol non yesin, olti soatdan keyin hammomga kirib yuvinsin, so`ngra muvofiq keladigan narsa bilan ovqatlansin. Keyin siydiradigan narsa ichsin, chunki siydik chiqarish bo`g`im og`riqlari moddasini kesadi. Negaki, bu, ayniqsa issiq podagrani qo`zg`atuvchi modda, jigarda va tomirlarda bo`lgan hazm ishining chiqindisi ekanligi senga ma`lumdir. Bu ham borki, sovuqdan bo`lgan bo`g`im og`riqli va ho`l mizojsi kishilarning ko`pchiligi ko`p surgi ichishdan va huqna qilishdan foydalanmaydilar, lekin siydiruvchi narsalar bilan davolanganlarida sihat topadilar. Og`riq tanlidardan

shundaylari borki, ular surgi va siydkay haydovchi dorilarni ko`p ishlatishni ko`tara olmaydilar, buning natijasida ularda qon quyish hodisasi ro`y beradi, shularning hammasiga rioya qilinsin. Taryoq ham shunday sovuq mizojli og`riqlarda, xususan bo`shtishlardan keyin foyda qiladi, chunki u moddalarning qoldiqlarini muloyimlik bilan tozalab tarqatadi va a`zolarning hammasini kuchli qiladi.

Moddani a`zodan qaytarish - hali modda kuchli quyilib, uning miqdori ko`p bo`lganda bunday qilish yaramaydi, bu narsa ikkita yomon natijaga olib keladi: biri shuki, u moddani siqib uning harakatiga to`sinqilik qiladi va natijada zo`r og`riq paydo bo`ladi,- agar shuning kabi hodisa voqe bo`lib qolsa, moddani qaytarishdan saqlan va yumshatuvchilarni ishlat. Ikkinchisi shuki, qaytarish, ko`pincha, moddani boshqaruvchi a`zolarga yuborib, ularni xatarga soladi. Lekin modda ko`p bo`limganda yoki uning quyilib kelishi oz bo`lganda, uni og`riqning avvalida, shunda ham irqunnasodan boshqasida, qaytarishning zarari yo`qdir; irqunnasoda moddani qaytarish uni chuqurlikda qamab qo`yadi, bunda uni qaytarish oz va kuchsiz bo`lishi kerak, yoki uni qilmasdan bo`shtish bilan mashg`ul bo`lish kerak. Kasallikning oxirida esa, tarqatadigan va moddani latiflashtirib chuqurda yuzaga chiqaradigan narsalarga murojaat qilish kerak. Bu ishni tilib qortiq solish, so`rish, dog`lash, qizartiruvchi va qavartiruvchi dorilar qo`yish bilan bajariladi. Bular bilan moddani oqizib bir muddat jarohatni bitkizmasdan qo`yadilar. Sarimsoq va piyoq qavartiruvchi narsalardandir, biroq balozur asaliga teng keladigan narsa yo`q. Bulardan keyingi o`rinda yattularning sutlari va anjir suti turadi. Tarqatuvchi va qavartiruvchilarga yumshatuvchi narsalarni aralashtirish kerak, bo`lmasa, ular bo`g`imlarda tosh paydo qilishga olib keladi, chunki qavartirish ham quyuq xiltni quritish jihatidan tarqatish kabitidir. Tarqatuvchi va qavartiruvchi dorilarga yog`lar aralashtirish,sovutuvchilardan esa saqlanish kerak. Kasallikning boshlanishida bo`shtishdan ilgari bularga kuchli tarqatuvchilarni qo`shish yaramaydi, aks holda u ko`p moddalarni tortib latifini tarqatadi, qolganini esa quyultirib band qilib qo`yadi. Bunga aksar hollarda rioya qilish kerak, ayniqsa modda yopishqoq yoki savdoviy bo`lganda shunday qilish lozim.

Og'riq chidab bo`lmaydigan darajada qattiqlashsa, og'riq qoldiradigan narsalarni ichirmay va surtmay chora yo`q. Surtiladigan narsalar yo moddani yengil tarqatish bilan yoki uvushtirish xususiyati bilan og'riqni qoldiradi. Zarurat bo`lma ganda uvushtiruvchilar iste`mol qilinmasin. Shunda ham og'riqning shiddatini bosadigan miqdorda iste`mol qilish mumkin. Issiqtan bo`lgan bo`g'im og'riqlariga uvushtiruvchilarni jur`at bilan va ko`plab ishlataver ; ko`pincha uvushtirish pastga yo`nalib ketayotgan moddani quyultirish jihatidan yuz beradi, bunda u modda qamalib qoladi. Ma`lum bo`lsinki, uvushtiruvchi dorilarni ishlatishda biridan ikkinchisiga o`tib turish yaxshiroq bo`ladi. Qay bir vaqtarda bir dori bir a`zoga foyda qilib, boshqasiga foyda qilmaydi. Ba`zan u bir vaqtda foyda qilib, keyin zarar qiladi va og'riqni qo`zg'atadi. Tugal tuzalib va undan keyin to`rt fasl o`tguncha sharobdan butunlay uzoqlashish kerak. Sharobga odatlangan kishi uni tadrijiy ravishda tark qilishi lozim, shunda ular siydiruvchilarni ham iste`mol qiladilar. Siydikni haydovchi dorilar qo`shilgan asal sharobi ularga foyda qiladi.

Bo`g'im og'rig'iga uchragan savdo mizoqli kishilarning taloqlarini isloh qilish, savdo xiltini bo`shatish va badanini oziqlar, ishqalanadigan dorilar va shu kabi narsalar bilan qo`llash kerak. Ko`p yumshatmasdan zo'r berib tarqatishga o`rin berilmaydi. Bo`g'im og'rig'iga uchragan kishilar go`shtdan uzoqlashishlari kerak, hatto, bu illatning sovuqdan bo`lganida ham shunday qilish kerak. Agar go`sht iste`mol qilish lozim bo`lsa, tog' qushi, quyon, ohu etlari va umuman chiqindisi oz go`shtdan iste`mol qilsin.

Agar og'riq oldin orqada paydo bo`lib, so`ng ikki qo`lga o`tsa, xiltni o`zi moyil bo`lgan tomondan chiqarish uchun qo'l tomiridan qon olish kerak.

Bunday kasalliklarda ich surish. Ularda yolg'iz shilliqni surmasdan, balki safroni ham surish lozim, chunki agar shilliqning yolg'iz o`zini chiqarilsa, u darhol foyda beradi, biroq safro shilliqni a`zoga yana bir marta oqizib qaytaradi. Ularga ishlatiladigan surgilar zo'r haroratli va juda kuchli bo`lmasligi kerak, aks holda ular xiltlarni eritib a`zoga o`zi olganidan bir qancha marta ko`p qilib qaytaradi. Sovuq xiltni darhol surganidan savrinjonning manfaati ko`p deb e`tiqod

qiladilar, bunda boshqa xususiyat ham bor; surishning ketidan u burishtiradi va kuchaytiradi, natijada dori bilan tortilgan, biroq nima uchundir chiqmay qolgan chiqindilarning qaytishi mumkin bo`lmaydi; yana u dori quvvati bilan suyulgan xiltlarning yo`llarga oqishiga qarshilik qiladi. Savrinjonning boshqa issiq mizoqli tarqatuvchi va bo`shatuvchilardan farq qiluvchi xossasi shundan iborat; keyingilarning ko`pchiligi o`tish yo`llarini kengaytirib kengligicha qoldiradigan narsalardir. Lekin savrinjon me`daga zararlidir,

Shuning uchun uni murch, zanjabil va zira kabi narsalar bilan aralashtirish kerak. Uning surishi kuchli bo`lsin uchun goho unga sabr va saqmuniyo ham aralashtiradilar. Ba`zilar so`zanakda ham savrinjondagi kabi ta`sir bor va uning me`daga zarari yo`q, deydilar. Arman toshi ham bo`g'im og'riqlariga foyda qiladi. Bu to`g'rida tanilgan dorilardan "najot habi" bilan "sassiq hab"larni ko`rsatish mumkin. Rufus iyorajining irqunna va podagraka foydasi kattadir. O`sma urug'i ham foydalidir, yana moqudon, bo`zidon, mohnzaqra, tizim gul, lufo, Abu Jahl tarvuzi, sabr va cho'l qovog'i olinib, bularga isiriq, ushna, anziratgo`shtxo'r, muql va nazla o`ti qo`shiladi.

Yengil surgi nusxasi retsepti. Zanjabil bir dirham, murg yarim dirham, daraxt po`kagi yarim dirham, mahsar mag`zi ikki dirham, so`zanak ildizi uch dirham vaznida; hargal o`n sakkiz qirotdan yigirma to`rt qirotgacha ichiladi. Bu dori kasalni olti yoki yetti marta ichini surib foyda qiladi.

Yana, kirmon zirasi, zanjabil va savrinjonning har biridan bir dirhamdan va sabrdan ikki dirham olinadi. Bu doridan ikki yarim dirhamni talqon qilib, ukrop qaynatmasi bilan ichiladi, bu shu vaqtning o`zidayoq foyda qiladi. Yana yong'oq yog'i va anzirat go`shtxo'r yoki kanakunjut yog'i va anzirat go`shtxo'rni olinib bir kun iyoraj fiqro bilan va bir kun tanho holda yetti kun iste`mol qilinadi. Ba`zan bu dorini temirtikan va ukrop suvi bilan qaynatib ishlataladi. Yana: savrinjon, bo`zidon, mog'izaqra, murch, zanjabil, Rum arpabodiyoni va yovvoyi sabzidan olib asalga qoriladi va bundan har kun ichib turiladi. Yana: savrinjondan o`ttiz dirham va Abu Jahl tarvuzining etidan o`n dirham olib, o`n besh ritl suvda uch ritli qolguncha qaynatiladi. Bundan har kuni yarim ritlni uch uqiya shakar bilan ichiladi; bu juda ajoyibdir.

Foydali, yengil surgi. Qizil anzirat go`shtxo`rdan uch dirham va savrinjondan uch dirham olib eziladi va yuzta yong'oq yog'i bilan aralashtiriladi, keyin buni ukrop suvida ichiriladi. Bu qiyamasdan suradi va quritadi.

Juda kuchli qustiruvchi dori. Bu bo`g'im og'rig'i va irqunna so kasaliga yo`liqqan kishilardan ho'l mizoqli va savdo mizojlilarga foyda qiladi; uning nusxasi: sabrdan bir uqiya, qora harbaq urug'idan bir uqiya, lufodan yarim uqiya, saqmuniyodan bir uqiya va farfiyundan yarim uqiya olinib karam shirasiga qoriladi. Agar shu dori bilan qustirilsa, u kasallikni tagidan qo`poradi.

Surgi uchun ichiriladigan dorilar. Ularga foyda qiladigan dorilardan biri quyidagi sifatda bussaddan tayyorlanadigan doridir: bussaddan bir yarim misqol,- ba`zi tabiblar bu qizil shabbo`y degan,- qalampirmunchoqdan besh dirham, pion gul, murr va ukrop urug'inining har biridan bir uqiya, usulaxdan o`n ikki danaq vaznda, ikki xil aristoloxiyaning har biridan ikki uqiyadan olinadi. Bundan bir danaq vaznidagisini asal suvi bilan ichiriladi va kasalga to`qqiz soat taom berilmaydi, o`n kun shunday qilinadi.

Yana harvaqt iste`mol qilinadigan dori; bu siydirish bilan tozalaydi. "Yer dubi", yer bag'irlab o`suvchi sanavbar va gentiana ildizining har biridan to`qqiz uqiyadan va quruq gazago`tdan to`qqiz uqiya olib yanchiladi va elanadi. Oldin yeyilgan taom hazm bo`lgandan keyin har kuni och qoringa bir qoshiq shu dorini uch uqiya sovuq suv bilan ichiladi.

Yana bussadni guli qizil shabbo`y deb gumon qiluvchilar so`ziga muvofiq tayyorlanadigan dori; buning nusxasi oldinginikiga yaqindir. Dorchin, pion gul, murr va sunbulning har biridan ikki uqiyadan, hind sodajidan bir uqiya, qalampirmunchoqdan o`n besh xabba, bussaddan, ya`ni yuqorida aytilgan shabbo`ydan yarim uqiya va ikki xil aristoloxiyaning har biridan to`rt uqiyadan olinadi. Har kuni uch qirotdan ichiladi. Uni bahorda kecha va kunduz barobarlashuvidan boshlab har kuni uch qirotdan ellik kun ichiladi; keyin o`n besh kun tark qilinadi. So`ng yil bo`yicha ichish shu xilda takrorlanadi; biroq Sirius yulduzi tulu qilishi bilan bir yarim oy ichilmaydi; buni ichish turli mamlakatlarda ham turlicha bo`ladi. Agar kasal butun yil ichishga qodir bo`lmasa,

yilning sovuq qismida ichsin. Agar dorini bir yil ichadigan bo`lsa, ikki yuz kundan o`tgandan keyin bir kun ichib, bir kun ichmasa, yoki bir kun ichib ikki kun ichmasa zarari yo`qdir. Bu kasalni asrgacha bo`lsa ham ovqat yeyishdan man qilish kerak: bundan tashqari boshqa tadbirlarni ham tuzatish va bo`g'in og'riqlilariga zarar qiladigan narsalardan parhez qildirish lozim. Bir guruh tabiblarning o`ylashicha, odam suyagini kuydirib ichirish hech bir xilof chiqmaydigan darajada tajribadan o`tgan narsalardandir. Buni bir to`da esi past kishilar iste`mol qilib, go`yo podagra va bo`g'im og'riqlaridan shifo topgan emishlar. Xermes iyorajining ham foydasi kattadir; kimki uni bahorda bir necha kun ichsa, bo`g'implari quvvatli bo`ladi. Bu dori chiqindilarni ko`proq siyidik va terlatish orqali chiqaradi, natijada irqunnasoni tuzatadi.

Shish va bo`g'im og'riqlari cho`zilib ketgan bo`lsa, unday kasallar nisbat berilgan quyidagi tadbirdan foydalanadilar: to`rtdan bir kaylaja quruq archa bujurini yengil olov ustida ozgina suvda, suv qorayguncha qaynatiladi. Keyin shu suvning tinitilganidan bir litr olib, unga uch uqiya kunjut yog'i quyiladi. Kasal shuni ichib, ustidan g'o`radan qilingan taomni yeydi.

Yonbosh og'rig'i uchun yengil tadbir: ayniqsa og'riq hammom, issiq suv va kechqurunlari yomon taomdan keyin ichilgan urug'lar bilan bosilmagan bo`lsa, uni no`xat suvi ichib qusish va sabzavot suvi va xiyorshanbar bilan ichni surish bosadi. Quyuq xiltdan va toshga aylanmoqda bo`lgan xiltardan paydo bo`lgan bo`g'in og'riqlariga foyda qiladigan quyuq surtmalar. Yaxshi quyuq surtma. Tozalangan qovoq urug'i va kanakunjutdan uch uqiya olib, bir uqiya sigir suti yog'ida maskada mayin qilib eziladi. Yopishadigan bo`lsin uchun uning ustiga bir uqiya asal solinadi va qo`yib bog'lanadi, ayniqsa qurigan bo`g'implarga bog'lanadi, ba`zan unga o`tkir sirkadan ham bir uqiya qo`shiladi. Sigir tappisini bog'lash bo`g'im, orqa va tizza og'riqlarida juda kuchli ta`sir ko`rsatadi; bu ko`p boshqa dorilardan yaxshiroqqa o`xshaydi.

Kuchli quyuq surtma. Eski zaytun yog'idan bir ritl, Iskandari sodasidan bir ritl, saqichdan bir ritl, farfiyundan bir uqiya, gulsafstar ildizidan ikki uqiya va sariq yo`ng'ichqa unidan bir yarim ritl olib, quyuq surtma tayyorланади.

Yana muql, govshir va eritilgan charvidai qilingan quyuq surtma tizza va bo`g`inlarda xom shilliqdan bo`ladigan og`riq uchun juda foydalidir.

Suruvchi va tarqatuvchi quyuq surtmalar. Sodadan bir donaq, kavrak yelimi va ohakdan shuncha olib, quyuq surtma yasaladi. Yoki farfiyunni gulafsar yog`i bilan ezib surtiladi.

Kuchli quyuq surtma. Burak, omila shirasi, nazla o`ti, tog` mayizi va ohakdan olib, hammasini aralashtiriladi; bularga asal va biroz sirka qo`shib bo`g`inlarga surtiladi.

Tarqatuvchi yaxshi quyuq surtma. Kavrak yelimi va barobar bo`laklar olinib, eskirgan sharob, xom zaytun yog`i va boqila uni bilan eziladi va issiq holida bog`lanadi. Artaniso kulini sirka va asal bilan bog`lash ham juda ajoyibdir. Quyuq surtmalardan bir turi borki, u a`zolarni quvvatli qilish va xilt qoldiqlarini tarqatish uchun zarurdir: bular tugal bo`shatishdan keyin kerak bo`ladi. Bulardan biri mana bu quyuq surtma: archa bujuri, sarv yong`og`i va kuydirilgan suyakdan barobar hissalar olinadi; achchiqtoshdan oltidan bir hissa, zokdan oltidan bir hissa va baliq yelimidan hammasini qo`shishga kifoya qilgudek miqdorda olinadi.

Boshqa dori: bu ko`p kasalliklarda qo`llaniladi, chunki u shishlarni ochadi, tikan va sasigan suyaklarni chuqurdan tortib chiqaradi va bo`shashgan a`zolarga aniq foydasi bordir. Tozalangan qichitqio`t urug`i, burak ko`pigi, navshadil, dumaloq aristoloxiya, Abu Jahl tarvuzining ildizi va saqichning har biridan yigirma misqoldan, sariq yo`ng`ichqa, murch, uzun murchning har biridan o`n misqoldan, kavrak yelimidan o`n ikki misqol, mukl, yovvoyi zira, balzam daraxti shoxlari, murr, kundur yelimi, echki charvisi va sanavbar yelimining har biridan o`n misqoldan, mumdan uch ritl, asal mayvizakdan sakkiz ritl, yovvoyi anjir sutidan sakkiz misqol, ho`l dorilarni eritishga kifoya qilarli miqdorda gulafsar yog`i va quruq dorilarni qorishga kifoya qilarli miqdorda yaxshi sharob olinadi. Bularning hammasini aralashtirib eziladi, so`ngra ishlatiladi.

Boshqasi: bu irqunnaso, qo`l va oyoq og`riqlari hamda boshqa bo`gim og`riqlariga darhol foyda qiladi. Sariq yo`ng`ichqadan olib, sopol idishga tashlanadi va ustiga kifoya qilarli miqdorda suv aralashtirilgan sirka solib, ezilib pishguncha cho`g` ustida qaynatiladi. Keyin ustiga

kifoya qilarli miqdorda asal solib, cho`g' ustida ikkinchi marta qaynatiladi, keyin yana asal qo`shib, uchinchi marta qaynatib saqlab qo`yiladi.

Boshqa shunga o`xshagan dori. Ma`daniy ziftdan uch ritl, sirkaning quritib kuydirilgan durdasidan ikki ritl, burakdan bir yarim ritl, sanavbar yelimi, mum, kuydirilmagan oltingugurt va asal mayvizakning har biridan bir ritl, nazla o`tidan yarim ritl va yovvoyi ziradan bir qism.

Shu maqsad uchun ishqalanadigan narsalar Abu Jahl tarvuzi yog'i, qunduz qiri yog'i eritmasi, xardal yog'i eritmasi va rum yong'og'i yog'i, ayniqsa uni kuydirganda oqqan bo`lsa, qust yog'i ham g'oyat yaxshi doridir, xususan may`a yelimi bilan birga ishlatsa, shuningdek, Abu Jahl tarvuzining shirasini qizil gul yog'i bilan birlikda suvi ketguncha qaynatib olingan yog' yoki anguza qo`shilgan qust yog'i.

Foydali ishqaladigan dorilardan biri af`o iloni solib pishirilgan zaytun yog'idir, bu tamom tuzatib yuboradigan: narsalardan hisoblanadi. Ko`rshapalak ham shular jumlasidandir, buni ishslash: o'n ikkita so`yilgan ko`rshapalak olinadi; xushbo`y kanavcha yaprog'inining shirasi va eski zaytun yog'idan bir ritldan, aristoloxiyadan to`rt dirham, qunduz qiridan uch dirham va qustdan uch dirham olib, hammasini birlikda suvi ketib, yog'i qolguncha qaynatiladi.

Bu kasallikda quyiladigan dorilardan biri quyidagi og'riq qoldiradigan foydali doridir. Arpa va koxudan olib yetilib tamom ezilguncha sirka bilan qaynatiladi, keyin shuni kasal joyga qo`yiladi. Bu issiq mizoqli og'riqga yaraydi.

Yana: marzanjush, ukrop va dafna yaprog'i, gazago't va zira olib qaynatiladi va og'riq yeriga quyiladi. Yana foyda qiladigan narsalardan biri bo`g'imga tizzalarni sirka bilan bug'lashdir, buning uchun sirkaning har bir qismiga oltidan bir bo`lak yanchilgan isiriq solinadi, keyin uning ichiga qizdirilgan tosh tashlanadi va kasalni kiyim va shuning kabi narsa ostida bug'lanadi. Kasalni yovvoyi eshakning hamma a`zolarini birlikda ukrop, tuz, dorilik ma`lum urug'lar, gandano va shuning kabi narsalar bilan qaynatib tayyorlangan qaynatmasiga o`tqaziladi, yana uni sirtlon va tulki qaynatmasiga ham o`tqaziladi. Uni shunday tayyorlanadi: suvning uchdan ikkisi qolguncha qattiq qaynatiladi, keyin unga sirtlon va tulkini tirikligicha yoki so`yib qonlari bilan tashlanadi va titilib ketguncha

qaynatiadi; suvini tinitib, unga kasalni o`tqaziladi. Yoki u suvgaga zaytun yog'idan solib ular birlashib ketguncha yo suvi ketib yog'i qolguncha qaynatiadi va shunga kasalni o`tqaziladi. Goho u hayvonlarni yolg'iz yog'ning o`zida qaynatiadi.

Bular uchun hammom bilan davolash. Bunday kasallarga issiq va ho'l hammom xiltlarni eritib o'tish yo'llarini kengaytirganligi sababli zarar qiladi, issiq buloq suvlari bunday zararli emas. Soda va tuz bilan uqalab quruq hammom olish, issiq qumga ko'mish va terlatish ularga foydalidir.

Og'riq qoldiruvchi issiqlik va mayin dorilar. Sariq yo`ng'ichqani suv qo'shilgan sirkada yaxshilab eziladi, keyin ustiga asal quyib ataladek bo`lguncha qaynatiadi; buni tekis toshda qoliyadek mayin qilib ezgandan keyin surtiladi. Og'riq o`rniga kanop lattani yopishtirib ikki-uch kun qo'yiladi, qurib qolmasin uchun qizil gul yog'i bilan tadbir qilinadi. Bu kasallikning avvallarida va ko`tarilish davrlarida yaraydi.

Yana kasallikning avvallarida va qoldiqlarida sariq yo`ng'ichqa shirasi va zig'ir urug'ini olib, asaldek quyuqlashguncha kunjut yog'i bilan urib, atalab ishlatiladi. Agar og'riq juda qattiq bo`lmasa, ho'l karam va petrushkani qo'yib bog'lanadi. Agar og'riq kuchliroq bo'lsa, gulsafsa ildizining uni, sariq yo`ng'ichqa uni va no'xat unlarini ozgina sharob va ozgina xina yog'i qo'shib, asal sharobi bilan birlikda surtma qilinadi. Yana karam kulini charvi yog'i bilan ishlatiladi, bobuna yog'i bilan tayyorlangan mumli surtma ham juda yaxshidir.

Uvushtirib og'riq qoldiruvchi dorilar. Afyundan to`rt misqol za`farondan bir misqol olib sigir suti bilan eziladi; keyin unga oq non mag'zi qo'shib muloyim qilinadi va uni quyuq surtma qilib ustidan lavlagi yoki koxu yaprog'i bilan yopiladi. Ba`zan oq non mag'zi o`rniga mumli surtma ham solinadi.

Yana: sassiqalaf urug'idan olti dirham, afyundan bir dirham, za`farondan bir dirham shirin sharobdan esa shularni qorishga kifoya qiladigan miqdorda olinadi va mumli surtma bilan aralashtiriladi. Yana mingdevona urug'i, afyun, ispagul, arab akasiyasinning shirasi va muqos olib, kulcha qilinadi va sigir suti bilan qo'shib surtiladi va yuqorida eslatilgan yaproq bilan yopiladi. Yana o'n dirham sabr, o'n dirham afyun, olti dirham mingdevona shirasi, to`rt dirham sassiqalaf, olti dirham takasoqol shirasi, yigirma misqol mehrigiyoh mevasi va to`rt

misqol za`faron olinadi; mehriyoh mevasini to titilguncha sirkaga bilan qaynatib, boshqa dorilar ustiga quyiladi va shu tarkibni og'riyotgan bo`g'inga surtiladi.

Yana boshqasi: mehriyohni yanchib sigir sutining sariyog'iga solinadi, keyin shuni og'riq joyga surtib ishqalanadi. May`a yelimi va afyundan ham surtma tayyorlanib ishlataladi. Og'riyotgan bo`g'inda biron xil yara bo`lma ganda unga ko`p miqdorda suv quyish ham uni uvushtirib og'rig'ini to`xtatadi.

Yana ispagulni issiq sirkada ivitiladi, u ivib ko`pchigach, gul yog'i bilan urib atalanadi va sovutib surtiladi. Ichiladigan dorilarga kelsak, og'riqni qoldirish uchun mehriyohdan ikki dirham olib tilo sharobi va asal bilan ichiladi.

Yel boddan bo`lgan bo`g'im og'rig'ini davolash. Buni yeldan bo`lgan, bukrilik singari davolanadi.

Uvushtirishi sababli og'riqni to`xtatib foyda beradigan dorining tarkibi: gentiana ildizi, ro`yan, juvona, aristoloxiya, yalpiz, bodring urug'i, savrinjon, bo`zidon, margi moqiy va mo`gosdan barobar bo`laklar, afyundan esa yarim bo`lak olib, hargal ikki dirhamgacha ichib turiladi.

Bo`g'im og'rig'iga uchraganlar uchun dog'lash tadbiri. Ular uchun foydali dog'lash yoki shuning o`rniga o'tadigan tadbirlarning biri shuki, kasalni kerakli holatda yotqizib qimirlamaslikka buyurasan, og'riyotgan bo`g'in tevaragini xamir bilan o`raysan, uning o`rtasiga tuz to`lg'izib, ustiga ozgina zaytun yog'i quyasan, buning ustidan latta bilan yopasan. Keyin turli dog'lash asboblarini keltirib, ular- ni qizdirishda oldin kasal issiqni sezmaydigan qilib, keyin sezadigan, so`ngra chiday olmaydigan darajagacha qattiq qizdirib dog'la. Dog'lash toqatdan tashqari bo`lgach, xamirni tozalab olasan, tuz va yog' tushib ketsin uchun kasalni bir oz qiyshayib yotishga buyurasan, keyin bo`g'inni yung bilan bekitib, bog'lab qo`ysan.

Mavzu savollari

- 1.Mushak tayanch tizimi a'zolari anatomiyasi.
- 2.Mushak tayanch tizimi kasalliklari tasnifi.
- 3.Bod kasalliklari.Sababi.Tashxislash va davolash.
- 4.Niqrис kasalligi. Sababi.Tashxislash va davolash.
- 5.Irqunnaso kasalligi.Tashxislash va davolash.

8.2. § Teri kasalliklari, yaralar, chipqon, bahaq, moxov kasalliklarini sharqona usulda aniqlash va davolash

Teri butun gavdani berkitib turuvchi qoplam bo`lib qolmay, balki barcha ichki a`zolar bilan chambarchas bog`lanib qator muhim vazifalarni bajaradi

Odam sog`ligi yurak, qon tomir, endokrin, nerv sistemasi faoliyatini bir qatorda terining funksiyasi bilan ham bog`liq.

Terida kuzatiladigan xastaliklar:

Yaralar -jarohat teshilib oquvchi chiqiq va toshmalardan kelib chiqadi. Etning uzlusizligi buzilib uzoqqa cho`zilsa va yiring boylasa buni "yara" deb ataladi :

Joylashuviga ko`ra:

- teri yuzasida
- chuqurlikda

Yaralarning turlari:

- alamli
- alamsiz
- shishli
- shishsiz
- o`yiq yeydigan
- bilqillab turuvchi
- toza
- iflos
- chirkli
- zardobli
- yugurik
- issiq
- sovuj

Davolash:

Yaralarning mushak majaqlanishi va ezilishidan paydo bo`lganlarining boshqa hammasini quritish orqali davolash kerak bo`ladi.

Yaraga qarshi qo`llanilishi zarur bo`lgan tadbirlar:

- 1.Yarani dorilar bilan yiringlatish
- 2.So`ng yarani dorilar bilan tozalash
- 3.Et undirib bitirish

Chipqon

Chipqon ham chiqiqlar jinsidandir. Chipqonlarning eng yomoni -eng chuquridir

Chipqon ko`p chiquvchi kishiga chipqondan qutilish tadbirlari.

1.Surgi qilish

2.Tez-tez hammomga tushish

3.Badantarbiya qilib yurish

Davolash

1.Sut yoki anjir suvi bilan qo`shilgan kanavcha urug'i, hardal va asal

2.Asal bilan anjir chipqoninni pishiradi

3.Chaynalgan bug'doy chipqonni pishirishga yordam beradi

4.Burak, tanakor bilan qorishtirilgan mayiz yoki hardal bilan qo`shib gulsafsar yog'iga aralashtirilgan anjir

5.Chipqon pishsa-yu yorilmasa uni yo dori bilan yoki tig' bilan yoriladi

Moxov kasalligi

Moxov kasalligi-savdoning butun badanda yoyilishidan paydo bo`ladigan yomon bir illatdir

Moxov:

- a`zolar mizojini

-a`zolarning ko`rinishini

-a`zolar uzlusizligini buzadi

-hatto a`zolar yeyilib, yaralanish tufayli tushib ketadi

Moxov kasalligining eng birinchi ta`sir etuvchi sababi jigar mizojining juda issiq va quruqlikka moyil bo`lib buzilishidir. Bunda qon kuyib savdoga aylanadi yoki butun badan mizojining buzilishidir, ya`ni bu ikkala mizoj shu darajada buziladiki, u tufayli qon sovib quyiladi.

Moxovning moddiy sababi esa, savdoni tug'diradigan ovqatlardir: balg'am tug'diradigan ovqatlar ham, agar ularni iste'mol qilganda ustma-ust me`da buzilsa, ularda harorat ta`sir qilib, suyuq qismini tarqatadi va quyug'idan savdo ko`payadi.

Moxov kasalligini keltirib chiqaruvchi yordamchi sabab: teri teshiklari to`silib, tug'ma haroratning bo`g'ilishi va qonning sovib quyulishi, ayniqsa, taloqning qonni torta olmaydigan va uni savdo xiltidan tozalashga quvvati yetmaydigan darajada kuchsiz bo`lishidir.

Moxov avvalo, qo`l-oyoqlar va yumshoq a`zolardan boshlanadi, shu a`zolarning mo`yi to`kilib, rangi o`zgaradi, ba`zan esa yaralanadi, so`ngra esa moxov butun badanga yoyiladi.

Belgilari:

- badan rangi qoralikka moyil bo`lib qizaradi
- kuzda qizg'ish xiralik paydo bo`ladi
- nafas qisiladi
- o`pka va o`pka nayining zararlanishi tufayli tovush bo`g'iladi
- aksirish ko`payadi
- burun do`nqillab manqalanadi
- burunda tiqilma paydo bo`lib, hid sezmaydi
- mo`y siyraklashib kamayadi
- ko`krak va yuz atrofi terlaydi
- badan sassiq hidli bo`ladi
- tentaklik va kishilarni ko`rolmaslikdan iborat savdoyi xulq paydo bo`ladi
- savdoga tegishli tushlarni ko`p ko`radi.

Quvvatning zaiflashishi, haroratni so`ndirishga bo`lgan ehtiyojning kamligi sababli, moxov kasalligiga uchragan kishining tomir urishi zaif bo`ladi, chunki moxov sovuq mizojdan kelib chiqadigan kasallikdir.

Davolash

1.Kasallik og'irlashishidan oldin organizmni bo`shtish, tozalash tadbirini qo`llash

2.Kasalga qon ko`pligi aniqlansa, uning ikkala qo`lidan bo`lsa ham tezda yetarli darajada qon olish kerak. Tomirdan qon olingandan so`ng kasalga bir hafta dam berish, keyin Abu Jahl tarvuzining etidan tayyorlangan iyoraj bilan bo`shtish lozim.

3.Ichishga: af`o ilonidan tayyorlanadigan kulchalardan elgil o`zidan hargal bir misqoldan olib, yo 1 uqiya quyuq sharob yoki tilo sharobi ichiladi.

4.Bunday kasallarga beriladigan ovqatlar esa tezda hazm bo`ladigan yaxshi kaymusli narsalar, masalan, ma`lum qush go`shtlarining qaynatma sho`rvasi va go`shti yengil hazm bo`ladigan yangi baliqdir, bularga zarur dorilar qo`shib beriladi.

Baxak - terida yuzaga kelib, terida chuqur botadi, lekin go`sht va suyakgacha bormaydi. Oq peslik esa teri, go`sht va suyakgacha boradi.

Kasallik sababi: quvvatning zaifligi bo`lib, u ozuqani moslashtirib o`zgartira olmaydi.

Ikki xil baxak farqlanadi:

-oq baxak

-qora baxak

Ikkala baxakda ham:

-modda suyuq

-haydovchi quvvat kuchliroq bo`lib u moddani teri yuzasiga haydaydi

Peslikda esa:

-modda quyuq

-haydovchi quvvat kuchsiz bo`lib, uning ta`sirisiz tufayli modda ichkarida o`rnashib qoladi va ichkaridagi narsaning mizojini buzadi.

-o`zgartiruvchi quvvat o`rnashgan moddani moslashtirib o`zgartira olmaydi.

Izoh: modda o`rnashib olganda o`ziga kelayotgan ozuqani o`z tabiatiga aylantiradi. Yaxshi mizoj buzuq moddani yaxshi va moslashgan moddaga aylantiradi. Bu esa daraxtlar bir joydan boshqa joyga ko`chirilganda ularning mevasi zaharlikdan yeyiladigan holatga va yeyish mumkin bo`ladigan holatdan zaharli holatga o`tishiga o`xshaydi.

Jolinusning fikricha, Lobah deb nomlanadigan mashhur bo`lgan daraxtning mevasi Eronda zaharli bo`lib, u Misrga ko`chirilgach uning mevasi yeyiladigan bo`lgan. Shuningdek a`zolar moddalar uchun go`yo mamlakat bo`lib sanaladi.

Ikkala baxak o`rtasidagi farq shundaki:

-oq baxak – balg`am moddasi tufayli yuzaga keladi

-qora baxak -savdo moddasi tufayli yuzaga keladi

Qora peslik - oq peslikdan tubdan farq qiluvchi kasallik bo`lib, po`st tashlaydigan temiratki deb ataladi. Bu temiratki juda dag`al, tangali bo`lib, qichishish belgilari kuzatiladi.

Kasallikda teri xiltni o`ziga yondosh turgan jismdan ta`sir qilish darajasidan ortiqroq ravishda suradi. Qora peslik oq peslikdan ko`ra bexavotirroq.

Oq va qora baxak, peslik, vazax belgilari:

-vazax ustida mo`y qora yo qizg`ish bo`lib o`sadi

-peslikda mo`ylar doim oq bo`lib o`sadi

-peslikda teri va pastroq va cho`kkanroq bo`ladi

-vazax teri sohasiga igna sanchilganda qon chiqadi.

-peslikda teri sohasiga igna sanchilganda qon chiqmaydi, balki suvsimon rutubat chiqadi, ishqalanganda qizarsa, sog'ayishga umid degani va u baxak bo`lishi mumkin.

-Qora peslikda po`s^t tashlash, terining tanga-tanga bo`lishi, sopol simon bo`lishi kuzatiladi.

-Qora peslikda teri dag`al yoki silliq bo`lishi mumkin.

-ikkala oq dog`ning silliq xili xavflidir.

-ikkala qora dog`ning silliq xili xavfsizdir, chunki u baxakdir.

-chuqur o`rnashib, qizarmaydigan va qonamaydigan juda keng joyni oladigan qora peslikda sog'ayishga umid yo`q.

Davolash

Qora baxakda:

-dastlab, tomirdan qon olish

-kuygan xilt va savdoli xilt devpechak va daraxt po`kagi, qora xalila, chilpoya va Rum rayhoni kabilarning qaynatmalariga mayiz va anjirni qo`shib ichirish orqali bo`shatiladi

-goho yaxshi kaymusli ovqatlarni iste`mol qilish tavsiya etiladi.

-hammomga tushib turish buyuriladi

Izoh:

Agar bemorda talog`i kasallangan bo`lsa, bu a`zo savdoni tortishda zaiflashadi.

Shuning uchun ham biz taloqni tuzatish bilan shug`ullanishimiz lozim.

Taloq tuzatilgach, po`s^t ko`chirilib, bemorga kuchli tozalovchi va sog`lom qonni tortuvchi dorilar buyuriladi.

Suvli qavarchiq terida paydo bo`lsa, teri tushib ketguncha bemorga dam beriladi. Agar dori qavarchiq hosil qilmasdan terini achishtirsa, u bosilguncha dori olib qo`yilib, so`ngra yana qo`yiladi.

Sog`lom qonni tortuvchi dorilar quyidagilardir:

Tog` gazago`tining yelimi, murch, hardal, indov, yattu` suti, chakamug`, isiriq, turp urug`i va kovul ildizining po`sti

Kuchli tozalovchi dorilar esa: tunbosh suvi va Abu Jahl tarvuzi qaynatmasidan

tayyorlangan suyuq surtma dorillardandir.

Qora baxakda qo`llaniladigan yaxshi surtma tarkibi:

-turp urug'i yetmak bilan qo'shib yanchiladi va hammomda surtiladi (baxak sohasiga)

-turp urug'i xardal urug'i sirkada qaynatilgan anjir bilan qo'shiladi va surtiladi

Vazax va peslikni davolash:

-tomirdan qon olish va hammomga tushishdan saqlanish lozim

-sharob ichishdan ham saqlanish lozim

-agar badan toza bo'lsa, hammomda terlash foydali bo`lib, unda quşish tadbiri ham qo`llaniladi.

-agar badan toza bo`lmasa, balg'amni bo`shatuvchi dorilar, so`ngra siyidik haydovchi va ichni suruvchi katta iyoraj (ayniqsa, tarkibiga Abu Jahl tarvizi eti qo'shilgan iyoraj) iste`mol qilinadi.

-iyorajlarni xalila, devpechak, chilpoya va mayiz yoki tuz qaynatmasiga solib ichish yaxshi foyda qiladi.

-peslik hajmi kichik bo'lsa uni dog'lash kifoya.

-badan toza va badan mizozi mo'tadil bo'lsa ichiriladigan dorilar ichirilmaydi,

chunki bu dorilar biror ofatga sabab bo`lib, ko`p qon ketishga va ruhning kamayishiga olib keladi. Bu ikki narsa davolashda eng zaruriy manbalardandir.

-peslik a`zoni davolashda peslikka xos suyuq surtmalardan foydalanish bilan davo cheklanishi lozim

Vazax va peslikda doimo:

-yopishqoqligi kam, yog'siz, tez hazm bo`ladigan ovqat buyurilishi shart

-bemor sabzavotlar, halim va unga o`xshash ovqatlardan saqlanishi darkor

Vazax va peslikda qo`llaniladigan dorilarning ta'siri:

-tozalovchi

-toza qonni kuchli tortuvchi

-Shu a`zoni qattiq qizdiruvchi

-oxirida yara qilib po`st tashlattiradigan xususiyatga ega bo`lishi kerak

Peslikda dorilarning eng afzali bu :

Yaralantiradigan yoki suvli qavarchiq paydo qiladigan dorilardir, ya`ni ular moddani oqizib, peslikni tuzatadi va o`sha sohaning o`z rangini qayta tiklaydi.

Peslikda qo`llaniladigan kuchli dorilar:

Tog' mayizi, cho'l qovog'i ildizi, Gentiana ildizi, archa, sanavbar yelimi, Ro'yan, zok, yashil zok, zangor, oltingugurt kabilar.

Peslikda qo`llaniladigan surtma dorilar:

-kirmdona va sirka

-oltingugurt va Nargiz piyozi

-tuxum yog'i, chayon o`t ildizi yaxshi foyda qiladi.

Vazax uchun yaxshi surtma dorilar:

-Nilufar ildizi, po`st tashlagan qora ilon qoni, quruq anjir bargi, qora andiz

kabilar.

Peslikda qo`llaniladigan suyuq dorilar:

-sirka, maxsar, sariq tunbosh suvi, dasht piyozi suvi, dengiz piyozi suvi, samsaq suvi (ular qortiq izidan bo`lgan peslikda foydalilanadi) qora andiz shirasi va af `o iloni etining sho`rvasi kabilar juda foydalidir.

Davoning oxirida peslikda quyidagi bo`yoqli dorilar tavsiya etiladi:

-sho`ra tuzi, murr, sharob quyqasi, qizil kesak, ro`yan, achchiqtosh kabilar

Yoki

-yong'oq po`sti, xina va o`sma kabilar o`z isbotini topgan buyoqdir.


Baxak, vazax va peslik xastaliklari bir-biriga o`xshash bo`lib, ular ma`lum bir dalillarga asosan tashxislanib, to`g'ri davolansa ijobiy natijaga erishish imkoniyati tabib uchun juda yuqori saviyada bo`ladi.

Mavzu savollari

- 1.Teri kasalliklari turlari.
- 2.Yara ta'rifi, sababi.
- 3.Chipqon ta'rifi, sababi.
- 4.Baxak xastaligi. Tashxislash va davolash
- 5.Moxov xastaligi. Tashxislash va davolash

IX BOB. DORIVOR SHIFOBAXSH O`SIMLIKALAR .

9.1.§ Shifobaxsh dorivor o`simliklar



Alatavskiy za`faroni Karol'kova za`faroni Do`lana

Ermon



Moychechak



Bo`ymodaron



Nard-Sumbul



Qora andiz



Qichitqi o`t



Jo`ka



Ro`yan



Qoqi



Gulhayri



Sanobar



Chaga



O`rik



Limon



Apelsin



Zirk



Qovoq



Tog' rayhon



Shaftoli



Olma



Nok




Na`matak



Olxori



Sarimsoq



Tarvuz



Shivit



Qovun



Qo'shtirnoq



Mandarin



**Chilonjiyda
va sano**



**Jambil
va nard**



Kanakunjut



Arpabodiyon



**Daraxtsimon aloe
Tango't ravochi,
va gulxayri
Rauvolfiya**



**Qizil angishvonagul, Bahori Adonis,
Belladonna
marvaridgul**



Dorivor mavrak,



Bangidevona,

9.2.§ Glosariy

1. Nazla - bosh miyadan osib chiquvchi suyuqlik
2. Karobodin -murakkab dorilar to'g'risidagi asar
3. Buxron -kasallik xolatini belgilovchi xolat kunlari
4. Shaqqa-migren
5. Bayza-bosh og'rig'i
6. Temir qalpoq-bosh og'rig'i
7. Litarg'us-latergiya kasalligi
8. Sakta-bosh miyani qon bilan ta'minlanishini buzilishi
9. Laqva-yuz nervi shamollashi
10. Sarsom-bosh miya pardalarini yallig'lanishi
11. Bavosir-gemorroy
12. Nabz-tomir urishi
13. Niqrис-podagra
14. Irqunnaso-chanoq son bo'g'imini o'tirg'ich nervi bilan birgalikda yallig'lanishi
15. Afo ilon – ко'r ilon
16. G'izo-ozuqa
17. Mosoriqo-ichak tutkich tomirlari
18. Tanqiya-tana tozalash
19. Istisqo-sirroz
20. Gandano-piyoz turi
21. Javxar-jismdagi ta'sir qiluvchi borliq
22. Dud-qurt (gijja)
23. Kaymus-ovqat xazmi 3-bosqichi oraliq maxsuloti
24. Musxil-surgi dori
25. Munzich-yetiltiruvchi dori
26. Latif-bug', sof, toza, oliv nav
27. Zoxiriy-tashqi
28. Botiniy-ichki
29. Mutloq-aniq, o'zgarmas
30. Maniy-sperma
31. Otashak-roja yallig'lanishi
32. Qora baxak-qora peslik, psoriaz
33. Shahvat-jinsiy xolat
34. Anzirat-dorivor o'simlik. Astragal

35. Ritl-suyuqlik o'lchov birligi , 306-340 gr
36. Vazax-vitiligo, peslik
37. Baxak-oq dog'
38. Xafaqon -aritmiya
39. Chakmazak - tomchilab siyish
40. Qorasariq – G'ayri tabiiy savdo sababli bo'ladigan jigar kasalligi - qora yara qon
41. Yaraqon-gepatit
- 42.Xilt - organizmdagi biologik faol suyuqlik
- 43.Safro - xiltlarning eng yengil va bug' qismi
- 44.Balg'am-yetilmagan qon
- 45.Savdo-xiltlarni eng quyug'i, cho'kindisi
- 46.Rux-hayotiy energiya
- 47.Mizoj-organizmning ichki muxiti
- 48.Noxuna- katarakta
- 49.Zamon - vaqt
- 50.Makon-manzil
- 51.Qulanj-kolit
- 52.Qortiq-qon so'ruvchi asbob
- 53.Nashtar-tomir ochuvchi qon olinadigan asbob-skalpel
- 54.Qifol- cphalica
- 55.Akxal- mediana cubiti
- 56.Bosliq -basilica
- 57.Usaylam- interdigitalis
- 58.Mobiz –poplitea passcrior
- 59.Sofin –sofena magna
- 60.Irq-an-naso –sofena parva
- 61.Difda- sullingualis
- 62.Irqa-an-batn-qorin usti venalari
- 63.Samam- tug'ma karlik
- 64.Tarsh-nisbiy karlik
- 65.Vakr-eshituv nervi atreziyası
- 66.Ramad-konyuktivit
- 67.Lapsha-qurbaqa kasalligi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. I-V kitoblar. 1980 y, Toshkent. Medisina nashriyoti
- 2.Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar. 1987 y. Toshkent. Medisina nashriyoti.
- 3.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. II kitob. 1994 y, Toshkent. Xalq merosi nashriyoti
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. III kitob. 1994 y, Toshkent. Xalq merosi nashriyoti
5. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. IV kitob. 1994 y, Toshkent. Xalq merosi nashriyoti.
- 6.Abu Bakr Ar-Roziy. Kasalliklar tarixi. 1994 y. Toshkent. Meros.
- 7.Abu Bakr Ar-Roziy. Tez davolanadigan dardlar. 1992 y. Toshkent. Meros.
- 8.A.A.Abdullaev, M.A.Gaipov. Ismoil Jurjoni yego sokrovishe Xorezmshaxa. 1980 y. Toshkent. Medisina.
- 9.Bobirning xos tabibi Yusufiy. 1992 y. Toshkent tabobati
- 10.A.S.Madrahimov. Ibn Sino shifobaxsh o'simliklar haqida. 1990 y. Toshkent. Mehnat nashriyoti
- 11.I.O. Nuraliev. Luqmoni hakim. 1991 y. Dushanbe. Irfon nashriyoti
- 12.M.Nabiev. Sabzavot, rezavor mevalar xosiyati. 1990 y. Toshkent. Mehnat nashriyoti.
- 13.Tabobat durdonalari. 1993 y. Toshkent
- 14.X.Xolmatov. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. 1978 y. Toshkent. Medisina nashriyoti
15. Hamidjon Zohidov. Kanzi shifo. 1991 y Dushanbe. Irfon nashriyoti.
- 16.Hamidjon Zohidov. Xazinai tibbiy qadim. 1990 y Dushanbe, Irfon nashriyoti.
- 17.X.Xolmatov, R.Sobirov. Abulg'oziy ishlatgan dorivor o'simliklar. Toshkent. 1996 y
- 18.M.Shodmonov. Samarqandning shifobaxsh o'simliklari. 1993 y. Samarqand. So'g'diyona.
- 19.Shifobaxsh o'simliklardan damlama, qaynatma, malham. 1994 y. Toshkent.
- 20.Internet ma'lumotlari. www.bsmi.uz, www.ziyonet.uz,

